




«KAMOLOT»  
KUTUBXONASI

Xudoyberdi  
TO'XTABOYEV

# Sariq devni minib





«KAMOLOT»  
KUTUBXONASI

Xudoyberdi  
TO'XTABOYEV

# Sariq devni minib

# Sariq devning o'limi



  
**YANGI ASR AVLODI**  
**TOSHKENT**  
2013

**UO'K: 821.512.133-3**

**KBK: 84(50'zb)7**

**T - 99**

**To'xtaboyev, Xudoyberdi**

Sariq devni minib: to'plam / Xudoyberdi To'xtaboyev. –T.:  
«Yangi asr avlodi», 2013. – 540 b.

O'zbekiston xalq yozuvchisi, bolalarning sevimli adibi Xudoyberdi To'xtaboyevning asarlari nafaqat respublikamizda, balki chet ellarda ham ma'lum va mashhurdir. Qo'lingizdagi "Sariq devni minib" sarguzasht romani bolalar hayotidan olib yozilgan bo'lib, ularning sevimli kitoblaridandir. Bu asarda orzu-havasga eltadigan chinakam yo'l halol mehnat, yaxshi xulq-odob va qunt bilan o'qishda ekanligi ta'kidlanadi.

**UO'K: 821.512.133-3**

**KBK: 84(50'zb)7**



ISBN 978-9943-27-036-7

© Xudoyberdi To'xtaboyev, «Sariq devni minib». «Yangi asr avlodi»,  
2013-yil.

# SARIQ DEVNI MINIB



# SEHRLI QALPOQCHA

## I bob

### KO'CHAGA QUVILDIM

Tanishib qo'yaylik: o'tim Hoshim, erkalatib chaqirmoqchi bo'lsangiz Hoshimjon deb aytasiz. Familiyam — Ro'ziyev, Ro'zivoy traktorining o'g'liman. Ruxsat bersangiz, oilamiz haqida ham ikki-uch og'iz so'zlab o'tsam: dadam ikki-uch yildan buyon cho'lda buldozer haydab yer tekislaydi, oyimning aytishiga qaraganda o'sha tomonlarga ham paxta ekisharmish. Bir oyda, ba'zan ikki oyda bir kelib ketadi. Kelganida har birimizga alohida-alohida sovg'a-salomlar olib keladi. Sovg'aning eng yaxshisi, albatta, menga tegadi. Oyim bo'lsa uyimizdan uch yuz metr naridagi fermada sigir sog'adi. Bir o'ziga 24 govmish qaraydi. O'tgan yili sutni ko'p soqqani uchun medal olgan. O'sha medalni oyimdan yashirib men ham ikki marta taqdim. Bir marta taqib bozorga borib sabzi-piyoz olib keldim, ikkinchi marta taqib maktabga boruvdim, direktorimiz chaqirib olib rosa urishdi.

Katta singlim Oyshaxon to'rtinchi sinfda o'qiydi. Hovlini supurish, idish-tovoqlarni yuvish o'shaning bo'ynida. Oyim uni: «Oppoqqinam, jonimning huzuri», deb erkalatgani-erkalatgan. Oyim uni bag'riga bosib suygan kuni men ham biqinidan sekin chimdib:

— Puchuqqinam, — deb qo'yaman.

Kichik singlimning oti Donoxon. Hozir birinchi sinfda o'qiyapti. Oyimning aytishiga qaraganda u katta bo'lsa, albatta doktor bo'larmish. Menimcha, undan doktor chiqmasa kerak. Nega desangiz, ko'cha-kuyda hamshiralarga ko'zi tushib qolsa ukol qiladi deb, tog'dan-toqqa qochadi. Tunov kuni maktab hovlisida oq xalat kiygan bufetchini ko'rib doktor keldi deb derazadan tashlab qochibdi.

Rostini aytsam, o'zim ham unchalik yomon bola emasman. Aql-hushim joyida, odobim ham chakki emas, oltinchi sinfning intizomli o'quvchilaridanman. Bir xil, haligi sho'x bolalarga o'xshab, kunbo'yi ko'cha changitib yurmayman. Yashirib nima qilaman, ko'cha changitib yurgandan ko'ra komandaga bo'linib olib, to'p tepgan yoki xoliroq joyga, masalan, oying harchand chaqirsa ham ovozi yetmaydigan joyga borib olib chillak o'ynagan ming marta yaxshi.

— Hoshim! — deb chaqiradi ba'zan oyim.

— Labbay, oyijon?

— Tomdan o'tin tashlab bergin.

— Xo'p bo'ladi, oyijon, — deymanu sekin u yoq-bu yoqqa qarayman-da:

— Oysha! — deb qichqiraman.

— Labbay, akajon?

— Tomdan o'tin tashlab bergin.

— Xo'p bo'ladi, akajon, — deydi Oysha. Shunday demasa, ishlar chatoq. Och biqiniga musht kelib tushadi. Ishqilib oyimning gapini hech yerda qoldirmayman. Aytganini o'zim bajarmasam, birov orqali bajaraman. Aslini olganda o'zing bajarishing shart emas. Fermamizning mudiri Sirojiddin aka nuqul shunaqa qiladi. Raisdan biron topshiriq olib kelsa a'zolariga topshiradi. Siz qanaqaligingizni bilmayman-ku, lekin men mudirlikka o'xshash ishlarni yaxshi ko'raman. Shu o'ynayversang-o'ynaversang, senga tegishli ishlarni birovlar bajaraversa-bajaraversa...

— Orif! — deb qichqiraman ba'zan. Aytgandek, esimdan chiqib qolayozibdi, Orif bilan birga o'qiymiz, bir partada o'tiramiz. O'zi pakanagina bola-yu, lekin boshi to'la aql. Har qanday masalani ham ko'z yumib-ochguncha ishlab tashlaydi, men ham ko'z yumib-ochguncha ko'chirib olaman. Goho biror joyini jo'rttaga xato qilib ko'chiraman, shunday qilmasam bo'lmaydi-da, muallimimiz ko'chirganimni bilib qoladi. Shunday qilib:

— Orif! — deb chaqiraman.

— Nima deysan? — deydi Orif uylaridan turib.

— Chiq, dars tayyorlaymiz.

— O‘zing chiqa qol.

Orif meni chaqirayotganini oyim eshitsin, deb jo‘rttaga qayta-qayta so‘rayman:

— Nima deding?

— O‘zing chiqa qol deyapman, nima qulog‘ing karmi?

Papkani ko‘tarib sekin «quyon» bo‘lib qolaman. Chiqib tayyor vazifalarni apil-tapil ko‘chiraman-da, hali aytganimdek, ko‘cha changitib yurmayman-ku, to‘ppa-to‘g‘ri narigi mahallaga futbol o‘ynagani jo‘nab qolaman.

Mana bugun ham shunga o‘xshash rejalar tuzib, Orifni chaqiraman deb endigina kekirdagimni cho‘zayotgan edim, oyim:

— Hoshim, — deb chaqirib qoldi.

— Labbay, oyijon.

— Nega tovuqlarga don bermading?

Rost, ertalab oyim tovuqlarga don berib qo‘ygin, deb tayinlab ketgan edi. Butunlay unutgan ekanman. Endi nima qildam-a, ishqilib quloqning tagida shavla qaynamasa bo‘lgani!

— Nima dedingiz, oyi?

— Nega tovuqlarga don bermading, deyapman, nima, qulog‘ing devorning ostida qolganmi?

— Ovqatini o‘zi topib yesin-da. Tokaygacha tekinxo‘rlik qilishadi, — deb gapni chalg‘itmoqchi bo‘ldim.

— Voy, o‘lmasam, suvam bermaganga o‘xshaysan.

— Oyi, tovuqlar suv ichmaydigan bo‘lib ketgan...

— Shunaqami?

— Ha, shunaqa...

Nojo‘ya gap aytib qo‘ygan bo‘lsam kerak, oyim katta kaltakni olib quvlashga tushdi. Uch marta hovlini aylandim-da, ko‘cha eshik oldiga borib egilib salom berdim va bir hatlab o‘zimni ko‘chaga oldim. O‘sha yerdan turib:

— Bir haftadan beri suv berganim yo‘q. Tuxumini bir yo‘la poroshok qilib tug‘aversin! — deb baqirdim.

— Teringga somon tiqmasammi! — dedi oyim tayoqni o‘qtalib.

«Tamom», deb o'yladim ichimda. Nega desangiz, kecha ham shunga o'xshashroq bir voqea bo'lib o'tgan edi. Har kuni darsdan qaytganimda oyim:

— Hoshimjon, bugun qanaqa baho olding, o'g'lim? — deb so'raydi.

— Besh-da, oyijon, bizniki doim besh! — deyman.

— Barakalla, — dedi oyim. Keyin o'zim yaxshi ko'rgan shokoladdan ikki-uchta uzatib, — bor, endi birpas o'ynab kelgin, — deydi. Kun botguncha maza qilib o'ynab yuraman.

Kecha oyim negadir bahoni so'ramadi-yu, qani kundaligini bir ko'rsat-chi, deb qoldi. Rang-qutim o'chib ketdi, nega desangiz, ishning bu yog'i sal ishkaloq edi-da.

— Kundaligim o'qituvchimizda qolgan, — deb qutulmoqchi bo'ldim.

— Papkangni och deyapman!

Boshqa ilojim bo'lmaganidan papkani ochib, sekin kundalikni chiqarib berdim.

— Bu nima? — so'radi oyim.

— Ikki.

— Bunisi-chi?

— Uch.

— Nega yolg'on gapirding?

— Kim yolg'on gapiribdi, — dedim bo'sh kelmay, — ikkovini qo'shsa besh bo'ladi, oyijon!

— Shunaqami?

— Shunaqa...

Oyim qoshlarini chimirib, qo'llari qaltirab, kundalikni varaqlashda davom etdi.

— Bu nima?

— Ikki, oyijon.

— Bunisi-chi?

— Bunisi fizikadan olingan baho.

— Xo'p, mana bunisiga nima deysan?

— Hech narsa deyolmayman, lekin oyijon, uchovini qo'shsa besh bo'ladi.



— Shunaqami?

— Shunaqa..

— Hu o'sha...

Fizkulturadan qilgan mashqlarim mana shu paytda qo'l kelib qoldi. Bir sakragan edim, o'zimni hovlini o'rtasida ko'rdim. Bu gal kaltak yeyishim aniq bo'lib qoldi.

— Sen hali shoshmay turgin! — dedi oyim dag'dag'a qilib.

Shunday qilib desangiz, kecha mana shunaqangi dili siyohlik bo'lib o'tgan. Hozir ko'chaga chiqib shularni o'ylab yuragim qisilib ketdi. Singlimni uyga kiritib papkani oldirib chiqdim-da, uy vazifalarini ko'chirib olish uchun Oriflarnikiga kirdim.

— Orif yo'q, — dedi oyisi, — magazin tomonga ketuvdi.

— Orif meni papkamni olib kelgin deb yubordi, — dedim. Nega desangiz, agar papka qo'lga eson-omon tegib qolsa, ichini ochib uy vazifalarini ko'chirib olishni mo'ljallagan edim.

— Papkasini o'zi bilan olib ketuvdi-ku.

— Bo'lmasa o'g'lingiz meni aldapti-da — dedim sir boy bermay.

Endi nima qildim? Juda boshim qotib qoldi-ku. Bir yo'la uch fandan vazifa berilgan edi, bittasini ham bajarganim yo'q. Hozir negadir, Orifni tutib olib do'pposlagim, biqiniga, boshiga rosa mushtlagim kelib ketdi. Qani endi qo'limga tushsa-yu, bir alamimdan chiqsam.

Ancha vaqtdan buyon direktorimiz nomiga to'rt-beshtamiz birlashib talabnoma yozmoqchi bo'lib yuruvdik. Maktabga borib o'shani yozishga kirishdim.

*«Pushkin nomli maktab direktori o'rtoq O.Azizovga  
O'quvchilar nomidan*

## ARIZA

*Biz o'quvchilar so'nggi paytda juda qiynalib ketdik, uy vazifalari ko'paydi, ishlashga vaqt yo'q. Shuning uchun*

*quyidagi fanlarni dars jadvalidan vaqtincha bo'lsa ham olib tashlashingizni so'raymiz: algebra, geometriya, ona tili. Umuman olganda, bu fanlarning hech kimga keragi yo'q. Boshni qotiradi xolos. Ularning o'rni bo'sh qolmasin desangiz, futbol haqida fan bo'lsa o'shani kiritsa ham bo'ladi. O'qituvchilikka, agar xo'p desa, o'rtoq Gennadiy Krasnitskiyni olib kelish kerak. Talabimizni amalga oshirsangiz, hamma fanlardan besh olib o'qishga so'z beramiz, sho'xlik qilmaymiz. O'quvchilar nomidan:*

*Hoshimjon Ro'ziyev» .*

Talabnomani yozishga yozib qo'ydim-u, lekin direktorning oldiga kirishga botinolmay qoldim. O'rnimdan turay desam deng, tizzam dag'-dag' qaltiraydi. Ko'zimni chirt yumib shartta turdim-da, shu holda, sekretar qizning hoyhoylashiga ham qaramay to'ppa-to'g'ri Otajon Azizovichni kabinetiga kirib bordim.

— Xizmat? — so'radi direktor.

— Salom, domla! — dedim ko'zimni ochib.

— Salom.

Indamasdan talabnomani uzatdim. Yo'q, ishim yana o'ngidan kelmadi. Otajon Azizovich naq bir soatcha nasihat qildi. Men ro'yxatdan o'chirib tashlamoqchi bo'lgan fanlar juda foydali emish, ularni puxta egallamasdan turib, kishi agronom ham, injener ham, zootexnik ham bo'la olmas emish. U desam bu dedi, bu desam u dedi, xullas, oxiriga borib hech gap topolmay qoldim. Ichimda esa «Algebra o'qigandan ko'ra oyimdan kaltak yeganim ming marta yaxshi edi», deb turibman.

— To'g'rimi? — deb so'radi oxirida Otajon Azizovich.

— Noto'g'ri! — dedim ko'zimni uyni shiftiga tikib, — uchastkamizning agronomi Anorvoy tog'a hech joyda o'qimagan-ku.

— Endi o'qiyman deb turganida urush boshlanib qolgan, sen bilan bizning hayotimizni saqlash uchun frontga ketgan,

— deb tushuntira boshladi Otajon Azizovich. Keyin u yog‘ini yana nasihatga ulab yubordi...

O‘zi ishing bir ketga ketsa, hech o‘ngarib bo‘lmas ekan. Bu ko‘ngilsizliklar ozlik qilgandek, o‘sha kuni yana ketma-ket yomon baholar oldim. Birinchi dars «joni-dilimdan yaxshi ko‘rganim» algebra edi, albatta. Qo‘ng‘iroq chalinishi bilan yuragim shig‘illab ketdi. Qo‘ng‘iroq xuddi qornimning ichida chalingandek ko‘nglimni ozdirib yubordi. O‘qituvchi ko‘rib qolmasin, deb oyoqlarimni oldingi partaning ostiga uzatib, faqat boshimnigina chiqarib o‘tirardim.

— Ro‘ziyev, to‘g‘ri o‘tirib ol! — dedi Qobilov.

To‘g‘ri o‘tirib oldim.

— Ro‘ziyev, qani ayt-chi, o‘tgan darsda nimani o‘tuvdik? Sekin o‘rnimdan turib yonginamda o‘tirgan Orifni turtdim. U bo‘lsa teskari qarab, go‘yo hech narsadan xabarsizdek jim o‘tirardi.

— Tezroq gapir! — qistadi muallim.

Bu gal men ham Orifni qattiqroq turtgan edim, ko‘zlari ola-kula bo‘lib ketdi-yu, qo‘rqqanidan pichirlay boshladi. U nima desa oqizmay-tomizmay men ham takrorlab turdim.

Sinfda gurillab kulgi ko‘tarildi. O‘zim ham maza qilib kulgiga qo‘shildim. Keyin bilsam, «teng» so‘zi o‘rniga «eng» deb yuborgan ekanman «Qani, ta‘rifini ayt-chi», — dedi muallim kulgini bosib.

— Tilimning uchida turibdi-yu, aytolmayapman, — dedim go‘yo aytishga qiynalayotgandek. Shunday deymanu uyning shiftiga, derazaga, doskaga qarayman. Oradan uch-to‘rt minut o‘tgach: «Aytasanmi, yo‘qmi», deb so‘radi yana o‘qituvchimiz.

— Aytaman, domlajon, albatta aytaman.

— Ayt, axir bo‘lmasam.

— Mana hozir tilimning uchida turibdi.

— Tilingning uchi qursin seni, o‘tir, — deb yubordi o‘qituvchimiz.

O‘sha kunni eslasam, hozir ham yuragim orqamga tortib ketadi. Rostini aytsam, tug‘ilganimga ming bor pushaymon

bo'ldim. Lekin darsdan qaytayotganda men ham bo'sh kelmadim, Orifdan boplab o'chimni oldim.

— Menga qara, — dedim chinorning tagiga yetganda biqiniga turtib, — nega mening kuchugimni urding?

— Qachon uribman?

— O'tgan yili urding-ku!

— Hecham urganim yo'q.

— Urgansan, mana bunday qilib urgansan, — dedim-da, boshiga bir musht tushirdim. Keyin... u yog'ini o'zingiz ham bilib turgan bo'lsangiz kerak, kattagina mushtlashish bo'ldi. Bolalarning yarmi Orif taraf bo'lishdi, yarmi men taraf. Kiyim-boshlarimiz dabdala bo'ldi, yuzlarimiz qonga bo'yaldi...

Lekin men xursand edim, o'ch olganimdan xursand edim, yuz-ko'zi demay savalaganimdan o'zimda yo'q shod edim. To'g'ri-da, hadeb beshlarni u qatorlab olaveradi-yu, men ikkidan chiqmas ekanman-da. Menga ham uncha-muncha yordamlashib tursa bir joyi kamayib qoladimi!

Xullas, kayfim chog' edi. Xursand holda ashulani vang qo'yib uyga qaytardim. Qorin ham ochgan, oyijonim pishirib qo'ygan palovjonni ko'z oldimga keltirib har zamonda lablarimni chapillatib qo'yaman. Hozir borib palovxonto'rani pok-pokiza tushiramanu, qorinni qashlab yotib, televizor ko'raman, deb o'ylayman-da, ashulaning avjiga chiqaman.

Ko'cha eshigimiz ichkaridan zanjir ekan. Taqillatdim. Tirqishidan qarab turibman. Bir mahal tayoq ko'tarib asta-sekin chiqib kelayotgan oyimga ko'zim tushib qolsa bo'lidimi!

— Kim bilan mushtlashding?! — Eshikni ochgan, oyijonimning birinchi savoli shu bo'ldi.

— Hech kim bilan, — dedim orqamga tisarilib.

— Orifni uribsan-ku?

— Yolg'on! Uning o'zi meni urdi.

— Dars tayyorlamasang, uy ishlariga qarashmasang, singillaringga kun bermasang, kunbo'yi mushtlashsang —

seni o'ldirib qo'ya qolmasammi, — deb oyim qo'lidagi tayoqni menga qarab otdi. Chap berib qoldim. — Yo'qol, ko'zimga ko'rinma!

Ko'cha eshik oldida turib qoldim. Yo'q, oyim shashtidan qaytadiganga o'xshamaydi. Endi nima qildim, qayoqqa boray, kimdan boshpana so'rayman? Qorinchi, ovqatni qayoqdan topdim endi...

## II b o b

### SHAYTONNING YELKASIGA IGNA SANCHDIM

Bir jihatdan olib qaraganda, oyim uyga kiritmay to'g'ri ish qilgan ekan. Nega desangiz, o'sha paytlarda men sehrli qalpoq axtarib egasi ko'chib ketgan hovlilarni, go'ng tepalarni, eski-tuski kiyim-boshlar tashlanadigan burchak-surchaklarni tintuv qilib yurgan edim. Bir oy avval Kashmir qishloqda turadigan buvim biznikiga mehmonga kelib, sehrli qalpoq haqida ertak aytib beruvdi. Qalpoqni kiyib olgan azamat yigit biram ishlar qiladiki, biram qahramonliklar ko'rsatadiki, agar eshitsangiz, og'zingiz ochilib qola-di. U hammani ko'rib turadi. Uni esa hech kim, eng ko'zi o'tkir odamlar ham ko'rolmaydi.

— Buvi, buvijon, o'sha qalpoqning rangi qanaqa? — deb so'radim hovliqib.

— Oq, jundan to'qilgan.

— Uni qayerdan topsa bo'larkin?

— O'sha qahramon qarib-chirib o'layotganda qalpoqni shu atrofdagi hovlilardan biriga yashirib ketgan, bolam.

— Topsa bo'larmikan?

— Nega bo'lmas ekan. Izlasang, albatta topasan, o'g'lim.

Xullas, o'sha kechadan buyon oromimni yo'qotganman. Kechasiyu kunduzi tinim bilmay sehrli qalpoq axtaraman. Ishonsangiz, izlamagan joyim qolmadi. Faqat eski qishloqning chekkasidagi tashlandiq bir uy qolgan, xolos. Bu hovli kimniki ekanligini hech kim bilmaydi. Xatto, oyim ham aniq bir narsa ayta olmadi.

Kechqurun uyga kirishdan mahrum bo'lgach, oyim aytyapti deb, qo'shnimizdan ikkita nonni qarzga oldim-da, qorong'i tushishi bilan o'sha hovli tomon yo'l oldim. Tashlandiq uydan xunugi bo'lmas ekan. Qaysi burchakka qaramang, ajinami, alvastimi ko'zini lo'q qilib menga baqrayib turganga o'xshaydi. Hatto nazarimda ikki marta bo'ri ham ko'ringandek bo'ldi. Keyin bundoq, sinchiklab qaragam, ikkovi ham mushuk ekan. Men titkilamagan burchak qolmadi. Teshikki bor, hammasiga qo'l suqib ko'rdim...

Bir mahal charchab, suvsab, holdan toyib o'tirib qolibman. Mudray boshladim. Yo'q, men uxlamasligim kerak dedim o'zimga-o'zim. Keyin shartta o'rnimdan turib sal ichkariroq kirdim. Molxona bo'lsa kerak oxurda bir to'p latta yotibdi. Orasini titkilagan edim... topdim, ishonasizmi, topdim. xuddi o'shaning o'zi! Oq mayin jundan, chekkasiga iq'akdan chiroyli xoshiya tikilgan!

— Salom, qalpoqcham! — qichqirib yubordim.

— Salom, Hoshimjon! — degan ovoz eshitildi.

— Men seni axtarib yuruvdim.

— Men seni kutib yotuvdim...

Boshimga ildimu, uy tomon qush bo'lib uchdim. Axir men uning chinakam sehrli qalpoq ekanligini sinab ko'rishim kerak edi-da... Sinab ko'rdim ham. Ko'cha eshikning ustidan oshib to'ppa-to'g'ri uyga kirib bordim. Oyim tepki mashinada Donoga ko'ylak tikib o'tirgan ekan. Yonginasiga borib:

— Oyi, — dedim ingichka ovozda. Oyim boshini ko'tarib, u yoq-bu yoqqa qaradi-yu, «tavba» deb ko'kragiga tuflab qo'ydi. Sekin borib lagandagi sovuq oshni yeya boshladim.

— Oysha, akangdan darak bo'lmadi-ku? — deb so'radi oyim.

— Bilmasam, — deb qo'ydi bir chekkada dars tayyorlab o'tirgan singlim.

— Bechora qayerlarda qolib ketdi ekan?

— O'zingiz-da, bo'lar-bo'lmasga urishaverasiz.

Shu payt sovuq osh tomog'imga tiqilib hiqichoq tutib qolsa bo'ladimi, bunaqasiga ilgari hech uchramagan edim. O'ziyam naq o'n besh minut nag'ma qildim-da.

— Tavba! — dedi oyim u yoq-bu yoqqa qarab.

— Tavba! — dedi singlim ham yoqasini ushlab.

Demak, qalpoqcham chindan ham sehrli ekan, deb o'yladimda, termosdan choy quyib ichgan edim, hiqichoq bosildi. O'shangacha ham hech birlari meni ko'rishmadi. Sekin xolodilnikning yoniga bordimu, eshigini ochib boshimdan qalpoqchani oldim. Oyim bilan singlim baravariga o'rnilaridan turib ketishdi.

— Qayoqdan paydo bo'lib qolding? — ikkovlarining ham savoli shu bo'ldi.

— Xolodilnikning ichida yotuvdim, — deb yuboribman bilmasdan. Oyim bechora qo'rqqanidan andak, bo'lmasa yig'lab yuborayozdi. Darrov meni issiq bag'riga olib yuzu ko'zlarimdan o'pa ketdi.

— Bolaginam, muzlab qolay debsan-ku! — dedi u tinmay. Issiq ko'rpaga o'rab qaynoq-qaynoq choy ichirishdi. Har choy xo'plaganimda jo'rttaga bir inqillab qo'yaman. Ichimga issiq kirishi bilan huzur qilib uxlab qolibman.

Ertasiga birinchi qilgan ishim qishlog'imizda yashaydigan Soraxon folbinning ishlarini tekshirib ko'rish bo'ldi. Meni biron kishi komissiya qilib tayinlagani yo'q-ku, lekin shunchaki o'zim qiziqib ko'rdimda. O'qituvchimiz unga ishonmanglar, hammasi yolg'on deydi. Yolg'on bo'lsa, nega xolamning shuhrati shunchalik yoyilib ketadi. Rom ochirib, dardiga davo so'rash uchun odam shunaqangi ko'p keladiki, shunaqangi ko'p keladiki, qishlog'imizdagi medpunkt uning oldida ip esholmaydi. Undan keyin, kelganlar quruq kelishmaydi. Birovi shoxdor qo'y, birovi sariq echki, birovi qog'ozga o'ralgan pul, bir xillari katta tog'orada to'rt quloqli somsa tashlab ketishadi. Men bilan o'qiydigan o'g'li Mirobiddinxo'janing kerilganini aytmaysizmi, bir o'zining ikkita velosipedi bor. Tunov kun, bittasini minib bir oz sayohat qilgan edim, qosqonini egib

qo'yg'an ekanman, aka-uka meni tutib olib rosa do'pposlashdi.

Odamlar:

— Soraxon folbin to'ppa-to'g'ri xudo bilan gaplashadi!  
— deyishadi. Murobiddinxo'ja bo'lsa maqtanib:

— Bizning uydan xudoning ovozi eshitilib turadi!— deydi.

Ishqilib, ana shu narsalarni tekshirib ko'rmoqchi bo'ldimu, ertalab nonushtadan so'ng to'ppa-to'g'ri folbin xolamning uyiga qarab yo'l oldim. Hovlisida yettita xotin, beshta chol, uchta bola o'tirishibdi. Hammasi ham kasal bo'lsa kerak rangi oftob urgan xamakdek sap-sariq. Qalpoqni kiyib sekin ichkari kirdim. Folbin xolam qorong'i uyda o'tirib olib rom ochyapti, qarshisida bola qo'ltiqlagan mening oyimga o'xshagan cho'ziq yuzli bir ayol o'tiribdi.

— O'g'lingni sariq jin uribdi, qizim, — dedi folbin xolam.

Shu payt uyning pollari ostidanmi, qalin devorlari orasidanmi, shiftidanmi — qayoqdanligini aniq anglay olmadi, — lekin sariq jinlarning jarang-jurung qilib o'yinga tushayotgani, childirma chalayotgani eshitilib, qo'rqqanimdan dodlab yuborayozdim. Xayriyatki, oldimda folbin xolam, bolali ayol o'tirishibdi. Bo'lmasa, kim biladi, nimalar qilib qo'yg'an bo'lardim. Vahimali ovozlarning tinishi bilan g'oyibdan:

— Ovm-i-i-in! — degan surnaynikiga o'xshash ingichka ovoz eshitildi.

Folbin xolam davom etdilar:

— Sariq echki so'yib, terisiga bolangni o'raysan.

— Ovm-i-i-in! — degan ovoz eshitildi yana g'oyibdan. Ketidan haligi vahimali jarang-jurunglar jo'r bo'ldi. Folbin xolam bolali ayolning qo'rqqanidan o'ynab turgan ko'zlariga tikilib:

— Xudo o'zi shifo beradi, ana, arshi-a'lodan uning tabarruk ovozi eshityapti, eshit! — deb qo'ydi.

Bu gal jarang-jurung eshitilmadi-yu, lekin qisqa-qisqa qilib aytilgan «ovmin» eshitildi. Boshimda qalpoqcham bor. Jinlar bari bir meni ko'rolmaydi, deb o'zimga-o'zim dalda berdim-



da, ular bilan uchrashish niyatida ovoz qaysi tomondan kelayotganligini aniqlash uchun shoshilib tomga chiqdim. Qalin devor orasiga narvon tushirilgan ekan. Sekin pastga tushdim. Uyning osti podval, o'rtada so'ppayib bir xum turibdi. Shu choq folbin xolamning uyiga yana bir kishi kirgandek bo'ldi. Uning: «Oh, otaginam, otaginam, sizga qora dev hamla qilibdi, suf, suf, suf», degani eshitildi. Bu ovoz tinib ulgurmasdan xumning ichidan jarang-jurung bilan childirma sadolari yangradi, ketidan «ovmin» ham eshitilib qoldi. Avvaliga ko'rganimdan bezgak tutgandek dag'-dag' qaltiradim. Keyin o'zimni bosib, sekin borib mo'ralasam, xumning ichida o'zimizning Mirobiddinxo'ja o'tiribdi. Bilaklariga har xil shiqildoqlar taqib olgan, qo'lida do'ppidan sal kattaroq o'yinchoq childirma! «Iy-e, ha, shaytonning o'zlari shu yerda ekanlarda, yashavorsinlar-e! — dedim kulгим qistab, — sariq jin ham o'zlari bo'lsa kerak?» Shu paytda shunaqangi achchig'im chiqdiki, shunaqangi achchig'im chiqdiki, cho'ntagimdan to'g'nag'ichni olib bor bo'yicha yelkasiga sanchib yuborganimni o'zim ham sezmay qolibman.

— Voy-dod! — deb qichqirdi Mirobiddinxo'ja. Folbin xolam: «Otaginam, kasalingiz g'oyat og'ir, ana, quloq soling, parilarim faryod chekyapti», deb javray boshladi. Kap-katta xotinning yolg'on so'zlaganini ko'rib, yana jahlim chiqib ketdi. Ko'zimga Mirobiddinxo'ja alvastidan ham xunuk ko'rinib ketdi nazarimda. To'g'nag'ichni yana sanchib yuboribman.

— Oyijon! — deb qichqirdi Mirobiddinxo'ja.

— Ovozini o'chir! — boshidan xumning ichiga bosdim.

— A! — Mirobiddinxo'janing ko'zi xuddi jon berayotgandek ola-kula bo'lib ketdi. — Sen kimsan o'zi, ayt, kimsan?

— Men Azroilman.

— Azroil?

— Ha, Azroilman, joningni olgani keldim.

— Oyijon! Men o'lyapman...

— Dodlama, — deb boshiga bir shapaloq urdim, — menga qara, Hoshim degan bolani taniysanmi?

— Taniyman, Azroilbobo, taniyman.

— Tanisang, nega unga velosipedingni berib turmading?

— Berdim-ku?

— Nega uni akang bilan ikkovlashib urdilaring?

— Tavba qildim, endi urmaymiz.

— Baribir, hozir joningni olaman, — shunday deb jo'rttaga bo'g'moqchi bo'lgandek ikki qo'limni tomog'iga olib bordim.

— Jon Azroilbobo, bu gal jonimni olmang, kechiring.

— Nega odamlarni aldaysan?

— Oyim aytdilarda...

— Oying nima dedi?

— Ovmin deysan, dedi. Undan keyin mana bu shiqildoqlarni chalib, childirmani do'pillatasan, dedi.

— Yolg'on. O'zing ham maktabga borib uyimizdan xudoning ovozi eshitiladi degansan.

— Aytdim-ku, oyim o'rgatdi deb.

— Oying nima deb o'rgatdi?

— Ko'cha-kuyda yurganingda, maktabga borganingda shunday deb aytasan, dedi.

— Demak hammasi yolg'onmi?

— Yolg'on, Azroilbobo, yolg'on.

— Yolg'onligini maktabga borib aytasanmi yoki joningni olib qo'ya qolaymi?

— Aytaman, bugunoq aytaman.

— Bo'lmasa seni sinab ko'raman. Hozircha joning o'zingda tursin. Uy vazifalarini yaxshilab tayyorlagin, Hoshim degan bola so'rasa yo'q demagin...

Tashqariga chiqib endi nima qiliq ko'rsatsam ekan, deb o'ylanib qoldim. Hali folbin xolam bolali ayolga dori berayotganida xaltasiga ko'zim tushib qoluvdi. Ana o'sha xaltachalarni ham bir tekshirib ko'rmoqchi bo'ldim. Har xil chitdan tikilgan katta-kichik beshta xaltacha bor, hammasida ham o'zimizning aptekalarda sotilgan o'ddiy



dorilar: birida penitsillin, birida biomitsin, boshqasida yurak o'ynoqni bosadigan poroshok xudoi taolo ato qilgan noyob dorilar deb, xolajonim ana shularni pullayotgan ekan. Yashavorsinlar-e, dedim o'zimga o'zim, hali shoshmay tursinlar, o'zlarini ham bir uyaltirib qo'ymasammi...

Folbin xolamning cho'ntagiga qo'l solib besh-o'n so'm oldimda, darhol tug'ruqxona oldidagi aptekaga yugurdim. O'sha yerdan ichni suradigan har xil dorilar olib keldim. Xaltachalardagi dorilarni olib, o'rniga o'shalarni ehtiyotlik bilan joylab qo'ydim. Oradan o'n-o'n besh kun o'tar-o'tmas, xolam-ning obro'lari ham bir pul bo'ldi. Sen hali bizni ataylabdan zaharlamoqchi bo'ldingmi deb, ichi surib darmondan ketgan bemorlar xolamni tutib olib rosa do'pposlashibdi...

Ishlarim yurishgandan-yurishib ketdi. O'zim xursand, kayfim choq, ashula aytganim-aytgan. Baholarim ham joyida — nuqul besh! Ilgarigidek uy vazifangni bajargan bo'lsang menga berib tur, deb birovlariga yolvorib ham o'tirmayman. O'qituv-chilarimizning uyiga shartta kiramanda, konspekt daftarini olib o'sha yerda ko'chiraman qo'yaman. Obro'yim ham shunaqangi oshib ketdiki, o'qituvchilar menga kulib boqadigan bo'lib qolishdi. Faqat og'zaki so'raladigan fanlardan hamon mazam yo'qroq. Lekin unga ham bir vaj topib qo'yganman.

— Mening og'zaqi nutqim rivojlanmagan, yozma ravishda talab qilaveringlar, — deymanda, o'qituvchilarimning o'zlaridan ko'chirib olgan konspektlarni sal boshqacharoq qilib o'qib beraveraman.

Xullas, ishlarim har jihatdan yurishib ketgan edi. Sinfkomi-mizni amaldan tushirib o'rniga meni saylamoqchi bo'lib turishgan edi-yu, bir xatoga yo'l qo'yib, butun maktabda sharmandayu sharmisor bo'ldim, rostini aytsam, bir pulcha obro'yim qolmadi.

Darsdan qaytayotganda hech kim sezmasa kerak deb o'zimga va eng yaqin do'stim bo'lmish Qosimjonga yettita fandan a'lo baholar qo'yib, chorak tugamagan bo'lsa ham,

cho'zib o'tiramanni deb, chorak baholarini ham chiqarib qo'ya qolgan edim. Bu ishni avval ona tili o'qituvchimiz, so'ngra fizika o'qituvchimiz payqab qolibdi. O'sha soatdayoq hammaga oshkor bo'libdi. Ertasiga maktabga borishim bilan direktorning kabinetiga chaqirishdi. Kirsam, yettita o'qituvchi qator o'tiribdi. Qosimni ham chaqirtirib kelishdi.

— Hoshim, beriroq kel-chi, — dedi Otajon Azizovich barmog'i bilan jurnaldagi bahoni ko'rsatib, — bu baholarni kim qo'ydi?

— Bilmasam... — dedim yelkamni qisib.

— Sen qo'ydingmi? — so'radi Qosimdan direktor.

— Nimani? — mendan battaroq hayron bo'lib dedi Qosim.

— Ikkoving maslahatlashib qilgansan bu ishni. Ochiqchasiga iqror bo'linglar, — dedi o'qituvchilardan biri.

— Yo'q, bu ish Qosimdan chiqqan, — dedi boshqasi, — nega desanglar. Hoshim so'nggi paytlarda ancha tuzalib qoldi. Baholari ham nuqul besh...

O'tirganlar hammasiga bu fikr ma'qul tushdi shekilli, har tomondan bechora Qosimga savol yog'dira boshlashdi. Qara-sam, do'stimning ahvoli chatoq — ko'zida miltillab yosh tomchilari ko'rinyapti. Yo'q qilg'ilikni men qilib, jabrini birov tortmasligi kerak! Shartta o'rtaga chiqdim:

— Kechirasizlar, bu ishni men qilganman.

— Nimaga?! — sakkiz kishi birdaniga shu savolni berdi.

— Ha, men qilganman. Qosimning bu ishdan mutlaqo xabari yo'q. Undan keyin, xullas, bu ishni men qilganman...

Tamom, hali aytganimdek obro' ikki pul bo'ldi. Aytilmagan gapu, qilinmagan nasihat qolmadi. Mendan shu ketishda ketaversam, tuzukroq odam chiqmas emish, agronom ham, injener ham, zootexnik ham bo'la olmas emishman.

— Yo'q, — dedim qaysarligim tutib, — mendan agronom chiqadi, albatta.

— Chiqmaydi! — sakkiztalovlari bir ovozdan takrorlashdi.

— Bo‘lmasa zootexnik bo‘laman.

— Ilmsiz bo‘lsang, zootexnik tugul molboqar ham bo‘lolsan!

— Bo‘la olaman.

— Gapni ko‘paytirma, bo‘lolsan! — achchig‘i chiqib dedi direktor.

— Bo‘laman, bo‘laman, bo‘laman! — dedim-da, eshikni tarsillatib yopib chiqib ketdim. Men o‘qimay turib ham boshimda shu qadrdon qalpoqcham bor ekan, albatta, agronom ham, injener ham, shoiru artist ham bo‘la olaman deb qattiq ishonar edim. «Ha albatta bo‘laman,— deb takrorladim o‘zimga-o‘zim, — bularga, menga, ishonchsizlik bilan qarayotgan mana shu qadrdon o‘qituvchilarimga o‘zimning kimligimni ko‘rsatib qo‘yaman...»

O‘sha kuni kechasiyoq qahramonliklar ko‘rsatib, shonu shuhrat taratib, o‘qituvchilarimni, Otajon Azizovichni hayratda qoldirish niyatida safarga otlandim.

Xayr jonajon qishlog‘im, hayqirib toshdan-toshga urilib oqayotgan zilol suvli anhorlar, poyonsiz mevazor bog‘lar, hammangizga xayr. Yo‘l yoqasidagi azim yong‘oqlar, sizlar ham yaxshi qoling. Endi sizlarga hech kim tosh otib shoxingizni sindirmaydi, tanangizga mix qoqib ozor bermaydi!

Mehribon oyijonim, sho‘xliklar qilib ko‘nglingizni og‘ritgan bo‘lsam, qaysarligim tufayli o‘ksitgan bo‘lsam. kechiring meni! Qo‘ng‘ir sochli singillarim, sizlar ham yaxshi qoling. Har xil qiziqchiliklar qilib sizlarni qiqirlatib kuldiradigan, maktabdan qaytayotganingizda sho‘x bolalar urganda tarafmgizni oladigan akangiz yoningizda yo‘q endi. Sog‘inganda, ko‘nglingiz o‘ksiganda rasmga boqing. Lekin yig‘lamang. U albatta keladi, qahramonliklar ko‘rsatib qaytadi. O‘z o‘qituvchilariga o‘qimasdan turib ham agronom bo‘la olishi mumkinligini, artist bo‘lib hammani o‘ziga mahliyo qila olishi mumkinligini ko‘rsatib qo‘yadi. Ha, albatta ko‘rsatadi. Ko‘ksi to‘la orden bilan qaytadi.

Xayr!

Ey, chala qolgan uy vazifalari, sizlarga ham xayr!

Yarim tunda qishloqdan chiqib borar ekanman, ko'zim jiqqa yosh, ammo qalbim shodliklarga to'la edi.

### III bob

#### BAXTIM KULIB BOQQAN EDI

Qayoqqa borishni, nima qilishni bilmas edim. Boshim qotgan, o'ylab o'yimga yetolmayman. Ammo bir jihatdan ko'nglim shod — ovqat tekin, poyezdu avtobuslar tekin, qādrdon qalpoqcham boshimda. Zeriksam, u bilan suhbat quraman.

— Qalpoqcham, qayerlarga kelib qoldik? — deb so'rayman.

— O'zim ham bilmayman, Hoshimjon, — deydi qalpoqcham.

— Rostini ayt, mendan agronom chiqarmikin-a?

— Chiqadi. Albatta, chiqadi.

— Axir mening diplomim yo'q-ku? — deyman ko'nglim o'ksib.

— O'kinma, — deydi qalpoqcham, — qo'lingni cho'ntagingga sol — diplom tayyor.

Qo'limni cho'ntagimga solgan edim, chindan ham ko'k jildli, ichkarisiga har xil yozuvlar yozilib, dumaloq muhr bosilgan diplom chiqib qoldi.

— Qalpoqcham, axir mening bo'yim juda past-ku, — deyman yana ikkilanib, — hech kim meni katta odam deb o'ylamaydi-ku?

— Xafa bo'lma, kerak bo'lganda bo'y ham qo'shib beraman.

Yo'l yurdim, yo'l yursam ham mo'l yurdim, bir mahal mundoq qaragam sahroyu biyobonga kelib qolibman. Bir tomoni poyoni yo'q cho'l. Qarasang, ko'zing jimirlab ketadi. Yantog'u sho'radan boshqa hech narsa ko'rinmaydi. Ahyon-ahyonda menga o'xshab qayoqqa borishini bilmay garang

bo'lib uchib yurgan qushlar to'dasigami, dumi uzun yumronqoziq yoki ko'zini lo'q qilib turgan kaltakesakkami duch kelib qolasan.

Ikki marta ilonlar galasiga ham uchrab qoldim. Yegani ovqat topolmay bir-birining dumini so'rib yotgan ekan, meni ko'rishi bilan sevinib shunaqangi quvlashga tushib ketishdiki, agar boshimga qalpoqchamni kiyib olmaganimda, kim biladi, holim ne kechar edi...

Bir oz yurgach, bog'-rog'lar yashnab yotgan joyga kelib qolibman. Tavakkal qilib daraxtzorlar orasidan yurib boraverdim. Goh olmozor, goh shaftolizor, goh tokzorlar orasidan o'tib borardim. Bir tomonda g'o'zalar ham yashnab yotibdi. Dadamga o'xshagan odamlar tepasiga brezentdan soyabon o'rnatilgan universallarga minib olib ishlov berishmoqda. Katta sement ariqdan shundoqqina o'tishim bilan g'alati bir manzaraga ko'zim tushib, rostini aytsam, hangu mang bo'lib qoldim. Yuz gektarcha keladigan katta maydon mayda-mayda bo'laklarga bo'lib tashlangan, har bir bo'lakchada uchtadan-to'rttadan bo'lib o'zim tengi, o'zimdanda sal kattaroq bolalar, Oyshaxon singlimga o'xshash qo'ng'ir sochli qizchalar terlab-pishib ishlashib yotibdi.

— Hoy bola, horma! — dedim g'o'zaning ichidan o't yulib yurgan bir bolaning yoniga borib.

— Ishingni qil, — dedi u boshini ko'tarmay.

— Horma, deyaipman.

— Ishingni qil deyaipman, — shunday deb notanish bola sekin boshini ko'tardi. Ko'tardi-yu, uyalganidan bo'lsa kerak sholg'omdek qizarib ketdi.

— Kechirasiz, — dedi peshanasidagi terini artib, — men sizni o'zimizning Shavkat deb o'ylabman.

— Kechirasiz, — dedim men ham hurmatini joyiga qo'yib, — bu qaysi mamlakat?

— Nima?

— Qaysi mamlakat deyaipman?

— Mamlakat emas, Mirzacho'l.

— E, anavi gazetadagi Mirzacho'l shu yerlarmi?

— Gazetadagi emas, Mirzacho'ldagi Mirzacho'l, — tushuntirdi notanish bola.

— Bu yerda nima qilyapsizlar?

— O't yulyapmiz.

— Bu g'o'zalar kimniki o'zi?

— Bizniki.

— Nega endi sizniki bo'larkan?

— Ana shu, ko'rib turganingiz uch gektar yerdagi g'o'zani oltovimiz ekkamiz, o'zimiz parvarishlayapmiz, hosilini ham mashinada o'zimiz yig'ishtirib olmoqchimiz.

— Sizlarga agronom kerak emasmi?

— Yo'q, — dedi bola boshini chayqab, — biz o'zi bo'lajak agronomlarmiz...

Gapni cho'zib o'tirmasdan narigi kartalarga o'tib ketdim. Mendan ko'ra sal novcharoq bo'lgan ikkita bola qovun chopiq qilish bilan ovora.

— Nima qilyapsizlar? — so'radim jo'rttaga nima qilayotganlarini ko'rib turgan bo'lsam ham.

— Ikkinchi chopiq qilyapmiz, — degan mujmalroq javob oldim. Bolalar juda shoshib ishlashardi. Yo bir-birlari bilan kim ko'p ishlashga musobaqa o'ynashgan yoki o'zlari shunaqangi chaqqon ishlashga o'rganib qolishgan bo'lsa kerak deb o'yladim. Rostini aytsam, shu paytda mening ham ana shu bolalar bilan egatlarga yonma-yon tushib olib, musobaqalashib, ketmon chogim kelib ketdi. Lekin o'zimni bosib, jiddiy bir ohangda:

— Sizlarga agronom kerak emasmi? — deb so'radim.

— Yo'q, kerak emas.

— Nega endi kerak bo'lmas ekan? Ehtimol, kerakdir?

— Bizning o'zimiz agronommiz.

Shundan keyin kun botguncha ishlayotganlarni gapga solib, suhbatlashib, mayda kartalarni aylanib, tomosha qilib yuraverdim. O'ziam tomosha qilsang arzigulik joylar ekan, cho'lni yashnatib yuborishibdi. Bir kartada hali aytganimdek paxta, boshqasida hali aytganimdek qovun-tarvuz, nariroqda piyoz, beriroqda karam! Ayniqsa, bu atrofdagi



mevalarni aytmaysizmi. Luchchak shaftolilarga maza kiray deb qolibdi, olma daraxtlari hosilni ko'p qilganidan biron ayb ish qilib qo'ygandek boshlarini egib turibdi. Uzunning o'zidan, xoh ishoning, xoh ishonmang, roppa-rosa yigirma ikki xilini sanasama.

Tovuqlarga don berib yurgan, hadeb tuxum yeyaverganidan bo'lsa kerak oshqovoqdek semirib ketgan sariq sochli, bir qizdan:

— Bu tovuqlar kimniki? — deb so'radim.

— Bizniki, — dedi qiz hozirgina archilgan kattagina tuxumni og'ziga solib.

— Tuxumni kimga berasan?

— O'quvchilarga.

— Uy vazifalarini bajarmaganlarga ham beriladimi?

— Unaqalar bizda yo'q.

— Bordi-yu, bitta-yarimta topilib qolsa-chi?

— Bor, ishingni qil, — dedi sariq sochli qiz yana bitta tuxumni og'ziga solib, — tovuqlarimni xurkitib yuboryapsan.

— Menga qara, — dedim bir oz yumshab, — sizlarga zootexnik kerak emasmi?

— Zootexnikni nima qilamiz?

— Ish o'rgatadi-da.

— Unaqasidan o'zimizda ham to'lib yotibdi...

Sal nari borgan edim, atrofi yog'och taxta bilan o'ralgan katta qo'rg'onga ko'zim tushib qoldi. Darvoza tepasiga «Krupskaya nomli maktab-internat fermasi» deb yozib qo'yishibdi. Ha-ha, bu maktabning hali fermasi ham bor ekan-da, deb o'yladimu, sekin ichkari kirib bordim. Rostini aytsam, ferma uncha katta ham, uncha kichik ham emas ekan: sakkizta sigir, o'n to'rtta cho'chqa, uchta qo'tir echki — bor-yo'g'i shu.

— Qo'ylaring ham bormi? — so'radim mollarning tagini tozalab yurgan past bo'yli, peshonasi do'ng bir boladan.

— Qo'ylar cho'lda... — dedi bola menga qarab angrayib.

— Quyonlar-chi?

— Quyon fermamiz katta bog'ning ichida turadi.

— Echkilaring bor-yo'g'i uchtami?

— Muncha ezma ekansan, aytdim-ku, echkilar ham qo'ylarning yonida deb.

— Shunaqa demaysanmi, — dedim sal past kelib. — Men bo'lsam boshqalari kasal tegib o'lib ketganmi deb o'ylabman. Buzoqlaring ko'rinmaydi?

Peshonasi do'ng bola toza jonimga tegding-ku, degandek qo'lini siltab, paqir bilan supurgini ko'targancha, hiyol oqsoqlanib cho'chqaxonaga o'tib ketdi. O'sha yerdan turib, negadir tilini uzun chiqarib meni masxara ham qilib qo'ydi.

— Tort tilingni, hozir borib sug'urib olaman! — dedim mushtimni ko'rsatib.

— Meni-ya!

— Ha, seni.

— Urishgandan ko'ra kelib ishga qarashsang bo'lmaydimi! — dedi bola iljayib. Ishga tushsam tushay deb ustimdagi yangi kuylagimni shartta yechdim-da:

— Qani, ishingni ko'rsataver, — deb qo'ydim.

— Menga qara, tag'in sen mehmon bo'lmagin?

— Qiziqib qoldi u.

— Mehmonman-da.

— Iye, shunday demaysanmi? Qani, tanishib qo'yaylik: mening otim Hayitvoy, yettinchi sinfda o'qiyman.

— Mening otim Hoshimboy, — deb qo'limni cho'zdim, — oltinchi sinfning a'lochi o'quvchilaridan bo'laman. Sizlar o'zi kimlarsizlar, o'quvchimi, kolxozchimi, xech tushunolmay qoldim-ku?

— Bizmi, biz xu anavi ikki qavatli bino bor-ku, o'sha yerda o'qiyimiz, darsdan bo'sh vaqtimizda ko'rib turganingdek ishlaymiz, kasb o'rganamiz. Bizchi, Hoshimboy, o'zimizni o'zimiz boqamiz, o'zimizni o'zimiz kiyintiramiz...

— Rostdan-a?! — dedim hech ishongim kelmay.

— Rost, — Hayitvoy ishonchsizlik bildirganim uchun bir oz xafa bo'ldi, — hali sen ko'rganing yo'q, o'ttiz gektar yerda

mevazor bog'imiz bor, shirin hosilga kirgan. Yarmini yeymiz, yarmini bozorga chiqarib sotamiz. Go'sht ham, sut ham o'zimizda yetarli.

— Sigirlarni kim sog'ib beradi?

— Kim sog'ardi, o'ninchi sinfning qizlari-da.

— Meva-chevalarni ham o'shalar sotib beradimi?

— Bo'lmasam-chi? — dedi Hayitvoy maqtanib, — direktorimiz Xursanali Sharafiddinovich bu qizlardan ajoyib sotuvchilar yetishib chiqadi, deydi. Mayli, rastrata qilsalar ham ishlashaversin, bora-bora o'rganib ketishadi, deydi. Tunov kuni, bilasanmi, nima bo'ldi? Tekshiruvchilar borganda, haligi budkada sut-qatiq sotib o'tiradigan Sanobar opam bor-ku?

— Qaysi? — so'rab qo'ydim.

— Hali o'ninchi «b» da o'qiydigan bor-ku o'sha oq xalat kiymasdan savdo qilayotgan ekan, qo'lga tushib qolibdi. Tartibni buzgani uchun rosa muhokama qilib vigovor berishdi. Undan keyin desang, o'n besh so'm shtraf qilishdi.

— Shtraf pulini qayerdan oladi?

— Qayerdan olardi, brigadaning fondidan oladi-da, hali aytdim-ku, mahsulotlarimizdan kelgan foydani kassaga qo'yamiz deb. Kassadagi pul yig'ilaveradi, yig'ilaveradi, keyin o'ninchini bitirib butunlay ketayotganimizda har kim o'ziga tegishli pulni olib ketadi.

— Rost aytyapsanmi? — dedim yana ishongim kelmay.

— Rost. O'tgan yili maktabimizni ellik kishi bitiruvdi, bitirish kechasi Xursanali Sharafiddinovich har biriga ming so'mdan pul to'lashdi, biz rosa qarsak chaldik. Sizlarning maktablaringizda ham shunaqami?

Rostini aytsam, nima deyishimni bilmay, jo'rttaga nariroqdagi sigirlarni tomosha qilayotgandek angrayib turaverdim. Bizning maktabimizda, yashirib nima qilaman, bu yerda ko'rganlarimning mingdan biri ham yo'q. Rost, tirik burchakda ikkita ori quyon bor edi, lekin uning ham bittasi ochidan o'lib qolgan. Undan keyin maktabimizning orqasida kattagina mevazor bog' ham bor, lekin bu daraxtlar

meva qiladimi-yo'qmi. hozir o'ylay-o'ylay hech xotirlay olmadim. Shunday bo'lsa ham maktabimizning sha'nini hecham yerga urgim kelmasdi.

— Nima deding? — dedim maqtanishga chog'lanib.

— Sizlarda ham shunaqalar bormi deyapman?

— Sizlarnikidan yuz marta yaxshisi bor.

— Quyon fermalaringiz ham bormi?

— Bor. Xatto bizda sher, arslonlargacha bor...

— O'h-ho', — dedi Hayitvoy qo'rqqanidan ko'zlari olakula bo'lib, — yeb qo'ymaydimi?

— Biz ularni temir qafaslarga solib, ustidan kattaligi sening kallangdek keladigan qulflar solib qo'yganmiz...

— Sizlarda haligi eshik rom yasaydigan ustaxonalar ham bormi?

— Oh-ho', bizning ustaxonani bir ko'rsang, — deb qo'ydim. Shunday deymanu, lekin maktabimizning ustaxonasi qayerda ekanligini o'zim ham bilmayman.

— Haligi kiyim-bosh tikadigan artel-chi? — deb so'rashda davom etdi Hayitvoy.

— Bor. Hammasi bor. Mana shu ustimdagi ko'ylak ham o'sha yerda tikilgan. Oyog'imdagi tuflini Shokir degan bitta og'aynim tikib bergan.

— Bizda ham ustaxonaning har xilidan bor, — dedi Hayitvoy bir oz shashtidan tushib, — hozir olib borib ko'rsatardimu, lekin ishlarim qolib ketadi-da.

Men uning ishlariga ko'maklashadigan bo'ldim. Ko'z yumib-ochguncha avval molxonani, so'ngra cho'chqaxonani yog' tomsa yalagudek qilib tozalab tashladik. Go'ng bilan chiqindilarni men katta chelakka solib turdim. Hayitvoy tashqariga bo'zchining mokisidek qatnab turdi. Bir nafasda hammayoq, hali aytganimdek yog' tomsa yalagudek bo'ldi-qoldi.

— Do'stim Hayitvoy, — dedim ishlar tugagach, — sizlarga mol doktori kerak emasmi?

— Do'stim Hoshimboy, — javob qaytardi sherigim, — mana shu fermadagi sakkiz bola hammamiz mol doktori bo'lamiz...

Hayitvoy bilan o'rtoq bo'lib qoldik. O'ziyam ko'ngli ochiq, xushchaqchaq, menga o'xshab qiziqchiroq bola ekan. Avvaliga rosa maqtanchoq bo'lsa kerak deb o'ylagan edim. Yo'q unchalik maqtanchoq ham emas ekan. Aytganidek maktabning ustaxonasi ko'rsang ko'rgudek, tomosha qilsang tomosha qilgudek joy ekan. Qizlar mening oyimnikiga o'xshash tepki mashinada chok tikishayotgan xonaga kirib o'n minut chamasi angrayib turdim. Qasam ich desangiz, qasam ichib aytamanki, bunaqangi ustaxona dunyoda hech bir maktabda bo'lmasa kerak. Quyonlarning terisidan jajji qizlar uchun popukli qalpoqchalar, oq batistdan o'quvchi qizlar kiyadigan fartuk deysizmi, paxta teriladigan kanop etaklar deysizmi, xullas, dunyodagi yo'q kiyimlar mana shu yerda tikilar ekan. Biram bejirim, biram chiroyli tikishyaptiki! Hay-hay, nozik qo'lcha-larning chiroyli harakatlarini aytmaysizmi, oyoqchalarning bir me'yorda ishlashini qarang-a! O'zlari kichkina-kichkina qizlar, oyoqlari tepkiga zo'rg'a yetyapti-yu, katta xotinlardek kerilib o'tirishadi-ya, obbo jin sochlar-ey! Zavqim oshganidan yoniga borib bittasining biqinidan sekin chimdigan edim, qo'limga bir tushirdi.

— Bular ham sotiladimi? — deb so'radim Hayitvoydan.

— Sotiladi, hammasi sotiladi, — tushuntirishda davom etdi u.

— Menga qara, ana u qalpoqchalardan esdalik uchun menga ikkita berolmaysanmi?

— Nima qilasan bularni?

— Ikkita singlim bor, o'shalarga sovg'a qilib olib bormoqchiman.

— Yo'q, berolmayman.

— Berasan, keyin qo'limga pul tushganda kelib to'lab ketaman.

— Berolmayman! — dedi Xayitvoy bir oz jahli chiqib.

— Berasan, — shunday dedim-da, stol ustida turgan chiroyli qalpoqchalardan ikkitasini olib qo'ltiqqa urdim. Hayitvoy qo'limga yopishgan edi, bilmasdan qattiqroq itarib

yuborgan ekanman, bechora ikki-uch dumalab ketsa bo'ldimi. Chok tikayotgan qizlar bizni kuzatib turishgan ekan, ularni sut-qatiqlar bilan ta'minlab, nonushtalariga qaymoqlar yetkazib berayotgan ukajonlarini ranjitganim uchun mendan o'ch olmoqchi bo'lib 28 qiz baravariga o'rnidan turdi: birining qo'lida pichoq, birining qo'lida qaychi, birisi qizib turgan dazmolini ushlab olgan, hammalari menga tashlanib qolishdi. Qarasam, ishning keti xunuk bo'ladigan. Qochmagan nomard. dedimda, o'zimni eshikka urdim... Yo'q, Mullahoshimboy kechikkan ekanlar, eshikni allaqachon berkitishga ulgurishibdi, qalpoqchamni boshimga kiyishga arang ulgurib qoldim. Ko'zdan yo'q bo'lishim bilan:

— Stolning tagini qaranglar, stolning tagida! — deb gichqirdi biri.

— Shkafning ichiga kirgandek bo'ldi! — dedi boshqasi shovqin solib. O'zimni sekingina derazadan hovliga otdim. Qizlar: «O'g'ri qochdi, ushlanglar!» — deb orqamdan yugurib chiqishdi. Butun internatda trevoga ko'tarildi. Direktor Xursanali Sharafiddinovich radiouzel orqali e'lon qilib, meni qidirishga 550 o'quvchining hammasini safarbar qildi.

— Afti angori esingda qolganmi? — so'radi u Hayitvoydan.

— Bo'lmasam-chi?...

— Unda mana bu radiouzel orqali hammasini gapirib ber, tezroq bo'!

— Diqqat, diqqat! — hovliqib, xirillab gapira boshladi Hayitvoy, — o'g'rini qidirayotganlar diqqatiga. Hozirgina qochgan bola 12—13 yoshlarda edi. O'zi qorachadan kelgan, oriq, bo'yi mendan ko'ra novcharoq. Ko'zlari yirik-yirik doim chaqnab turadi. Burni angishvonaga o'xshaydi. Gapirganda tutilib-tutilib qoladi. Ustida oq shoyidan sorochkasi bor, shimi yo'l-yo'l sherstdan, dazmollanmagan. Afti boshiga bir haftadan buyon suv tegmagan bo'lsa kerak hammayog'i kir...

Hayitvoy radiodan e'lon berayotgan mahalda men direktorning kabinetida xuddi o'sha direktorning o'zi bilan yonma-yon o'tirib choyxo'rlik qilmoqda edim. Divanga yonboshlab olib o'ylanib ketdim.

— Nimalar qilib qo'ydim o'zi? Ularning mehnatiga yordamlashish o'rniga hammasini ishdan qo'ydim-ku! Mana Xursanali Sharafiddinovich bilan yonma-yon o'tiribmiz, o'zi yomon odamga o'xshamaydi, ancha mehribon, gapga tushunadigan ko'rinadi... Ehtimol, yaxshilikchasiga iltimos qilganimda meni biron uchastkaga agronom qilib olgan bo'larmidi. Ishlarim yurishib ketganda, kim biladi, rasmim gazetalarda bosilib ham chiqarmidi. Ana unda mehribon direktorimiz Otajon Azizovich ham, algebra muallimimiz Qobilov ham kishi o'qimasdan turib agronom bo'la olishi, o'rtoqlariga hisobsiz foydalar keltirishi mumkinligini o'z ko'zlari bilan ko'rardilar... ha, baxtim kulib boqay deb turgan edi. Lekin afsuski, ishni o'zim buzib qo'ydim...

Sekin o'rnimdan turdim-da, Xursanali Sharafiddinovichning sovib qolgan choyidan och qoriga xo'rillatib bir xo'pladimu, radiouzel o'rnatilgan xonaga kirdim. Hayitvoy o'sha yerda hamon kekirdagini cho'zib gapirar edi.

— Ma, qalpog'ingni ol, bunaqasi bizning maktabda ham to'lib yotibdi! — dedim-da, oyog'ining tagiga tap etib tashladim.

Arzimagan bir narsa uchun yuzim shuvut bo'lib qoldi, endi bu yerda qolishim mumkin emas edi. Bolalarning oshxonasiga kirib, qozonning boshiga o'tirib oldim-da, lazzatli taomlardan to'yib-to'yib yedim. Kompot pishirishgan ekan, undan ham ikki stakanni pok-pokiza urib oldim. Keyin, o'zingiz ham sezib turgan bo'lsangiz kerak yana yo'lga ravona bo'ldim...

## HSHAROTNI KALTAKLASHGA BUYURDIM

Ketyapman-ketyapman, na yo'lning oxiri ko'rinadi, na atrofda biron qo'qqaygan kulba. O'ngga qarasang ham g'o'za, chapga qarasang ham g'o'za. Bir mahal burilib orqanga boqqan edim, nazarimda, hozirgina men bosib o'tgan yo'llarda ham g'o'zalar o'sayotganga o'xshab ko'rindi. Siz qanaqaligingizni bilmayman-ku, lekin men mana shunaqangi poyonsiz dalalarga chiqqanimda yayrab, jonim tanimga sig'may ketadi. Undan keyin qornim to'ydi deguncha, ashula aytib yuboradigan odatim ham bor. Shu paytda qorin masalasida shikoyatim yo'q hisobi. Undan keyin atrofda: «Hoy, Mullahoshim, quloq o'zimizga ham kerak», — deb tanbeh beradigan biron kimsa ham ko'rilmaydi. Shartta ashulani boshlab yubordim:

*Xoh g'o'zam, xoh-xoh g'o'zam,  
Hosili oppoq g'o'zam, —*

deymanu, buralib-buralib o'yinga tushib yuboraman. Keyin ikki qo'limni biqinimga qo'yib, egilib, g'o'zalarga salom beramanda:

*Xoh g'o'zam, xoh-xoh g'o'zam,  
Hosili oppoq g'o'zam, —*

deb kuylab yo'lda davom etaman. Qorong'i tushib osmonda charaqlab yulduzlar ham ko'rinib qoldi. Ammo hali aytganimdek yo'lning oxiridan darak yo'q.

Bir mahal ko'channing chap tomonidan miltillab chiroq yorug'i ko'rinib qoldi. Borib qarasam, yetmish yoshlarga kirgan, oppoq soqoli ko'ksiga tushib turgan bir otaxon yonboshlab olib xo'rillatib ko'k choy ichyapti. Oyoq tomonda — toshfonus, o'shanning yorug'ini ko'rgan ekanman.



— Assalomu alaykum, otaxon! — dedim cho'zib, — suv quyayapsizmi?

— Vaalaykum, — otaxon chordana qurib o'tirib oldi, — kel, o'g'lim, kel. Qani, beriroq kelchi, tanimayroq turibman. Kimning o'g'lisan o'zi?

— Dadamning o'g'liman, — deb yuboribman shoshilib.

Hash-pash deguncha ikkovimiz ota-boladek bo'ldik-qoldik. Otaxonning ismlari Polvontog'a ekan. Ishimning o'ngidan kelganini qarangi, Polvontog'a yolg'iz o'zi zerikib o'tirgan ekan. Menga o'xshash esli-hushli, gapga tushunadigan bir yigitga juda-juda ham zoriqib o'tirgan ekan. Xursand bo'lib ketganidan otaxon meni obdan mehmon qildi, keyin termosdan choy qo'yib berayotib:

— Obbo o'g'lim-ey, obbo taylog'im-ey, — deb qo'ydi.

— Otaxon, bu go'zalar qaysi kolxozniki? — sekin maqsadga o'tdim.

— Kolxozniki emas, sovxozniki. Oltinchi sovxozniki. O'g'lim, qani qanddan ol, choy rasmi qand bilan ichiladi.

— Otaxon, sovxozlaringga agronom kerak emasmi?

— Sovxozga kerak-kerakmasligini bilmayman-u, ammo-lekin bizning bo'limga agronom kerak. O'zimizning agronom oblastga ko'tarilib ketdi. Umringdan baraka topkur ko'p azamat yigit edi. Nima, dadang agronommi deyman?

— Dadam emas, mening o'zim agronomman.

— Nima?! Mushtumdek bola-ya! — Shunday deb otaxon menga boshdan-oyoq razm solib chiqdi. Men qo'ltig'imda turgan qalpoqchamga «qalpoqcham, sehringni ko'rsat», deb asta shivirladim-da, ovozimni chiqarib:

— Otaxon, meni chog'imda yosh bola deb o'ylayapsiz shekilli? — deb shartta o'rnimdan turgan edim, Polvontog'am mirzaterakdek bo'yimni ko'rib:

— Yopirim-ey, yopirim-ey! — deb soqolini changallab, hangu mang bo'lgancha menga tikilib qoldi. — Hozirgina yosh bola eding-ku, yo tush ko'rayotibmanmikin-a! Astag'firullo...

— Otaxon, men o'zi shunaqaman, — dedim shoshib-pishib, — bir qarasangiz yosh boladek yana bir qarasangiz katta odamdek ko'rinaman.

— Yopir-ey, yopir-ey! — derdi otaxon tinmasdan. U bir nafasdan so'ng o'ziga kelib, «shunday qilib, agronomman deng, o'g'lim» deb so'radi.

— Ha, otaxon, agronomman.

— Bizning sovxozga ishga kirmoqchi bo'lib yaxshi qilibsiz, o'g'lim. Sovxozimiz keng, hammaga ham ish yetib ortadi. Farg'ona tomondan bo'laman, dedingizmi?

— Ha, Farg'ona tomondan bo'laman.

— Ota-onalar hayotmi?

— Hayot, otaxon, hayot.

— Barakalla. Ularning davrida u yoq-bu yoqni ko'rib olganingiz ma'qul. Musofir bo'lmasang, musulmon bo'lmasan, deydilar keksalar. Ertalab sovxoz direktorining oldiga o'zim boshlab boraman. Farg'onadan meni qora tortib kepti, hamshaharim bo'ladi, ishga olsang ham olasan, olmasang ham olasan, deb turib olaman...

O'sha kechasi Polvontog'a bilan dalaning o'zida yotib qoldik o'ziyam anchadan buyon bunaqangi huzuri jon bo'lmagan edi. Sement ariqlarda hayqirib oqayotgan suvlardan egatlarga tarab qo'ydik-da, yerning o'rtasiga qilingan baland supada cho'zilib yotdik. Olis-olislarda miltillab chiroqlar yonadi, ko'kdagi yulduzlarni aytmaysizmi, charaqlab ko'zni olay deydi. Oy bo'lsa tepamizga kelib allaqanday sarg'ish, allaqanday ko'kimtir nurlar sochadi. Qalbimizda hech tushunib bo'lmaydigan, shodlikka ham, g'ussaga ham o'xshamaydigan g'alati-g'alati hislar uyg'otgandek bo'ladi. Suv o'z tilida bir nimalar deb chulduraydi, chigirtkalarining basma-basga kuylashi, qurbaqalarning pashsha tuta olmaganidan kimgadir shikoyat qilayotgandek cho'zib-cho'zib qurillashi — mana shularning hammasi menga, negadir, qishlog'imizni eslatib yubordi. Chalqancha tushib, ikki qo'limni boshim ostiga qo'yganча yulduzlar chamaniga mahliyo bo'lib yotarkanman, shu paytda oyijonim, jondan yaxshi ko'rgan singillarimni eslab

ketdim. Ehtimol, bechora oyijonim sochlarini yulib faryod chekayotgandir, dalama-dala, qishloqma-qishloq bo'zlab meni axtarib yurgandir. Oyijon, oyijonim, meni axtarmang, meni deb ko'z yoshlaringizni oqizmang. Hoshimboyning ishlari besh, katta sovxozga katta agronom bo'lay deb turibdi...

O'ylay-o'ylay uxlab qolibman.

Sovxoz direktori baland bo'yli, yelkalari keng, polvonnamo bir kishi ekan. Gapinganda ovozi xuddi xumning ichidan chiqqandek g'uldirab, jaranglab eshitiladi. Kulganda tomni ko'tarib yuborgudek qattiq kuladi, yurganda uyning pollari lapanglab ketadi. Polvontog'a meni tanishtirgach:

— Hoshimboy hali yosh, uni o'zing tarbiyanga olasan, — deb tayinladi sovxoz direktoriga.

— Otaxon, Sizning gapingizni hech qaytarolmayman, — dedi direktor menga zimdan razm solib, keyin mening o'zimdanda ham so'rab qo'ydi: — Qaysi institutni bitirgansiz?

— Agronomlik institutini.

— Qaysi fakultetini?

— Agronomlik fakultetini.

— Yaxshi. Ilgari ishlaganmisiz?

— Yo'q.

Akbar aka Nosirov unaqangi ezma direktorlardan emas ekan, gapni cho'zib, meni ham, o'zini ham qiynab o'tirmadiyu, shartta agronom qilib tayinladi-qo'ydi.

O'sha kuni ikkovimiz uning «pavillioniga o'tirib, dala aylandik to'rtinchi bo'linga tayinlangan ekanman, ixtiyorimda 1200 gektar paxta maydoni-yu, 12 brigada. Akbar aka meni jamiki brigada boshliqlari, men rahbarlik qilishim kerak bo'lgan odamlar bilan birma-bir tanishtirib chiqdi. Minib yuring deb, «IJ» markali mototsikl berib, oylik maosh ham tayinladi.

— Eng muhimi, o'rtoq Ro'ziyev, — dedi u ta'kidlab, — odamlar bilan ishlash. Agar kishilar bilan yaxshi muomala qilsangiz, ularning qalbiga yo'l topa olsangiz ish o'z-o'zidan yurishib ketaveradi. Tushunarlimi?

— Tushunarli, o'rtoq Nosirov! — dedim.

Mototsiklni olishga olib qo'ydim-u, lekin yashirib nima qilaman, haydashni bilmas edim. To'g'ri dadamning mototsikliga uch-to'rt bor minganim bor. O't oldirishni, gaz berishni, tezligini oshirib, pasaytirishni o'shanda unchamuncha o'rgangan edim.

Uch kun mototsikl minishni mashq qilib, to'rtinchi kundan boshlab dala aylanishga tushdim. Bu yerning odamlari ajoyib kishilar ekan. Qayerga bormay, hurmatimni joyiga qo'yib, kutib olishadi. Choy, ba'zan qozon osib ovqat ham tayyorlashadi. Ikki marta tovuq sho'rva ham qilib beriladi. «Aroq-paroq ham ichasizmi?» deb so'rashgan edi, «tag'in mast bo'lib qolib aljib o'tirmay» deb, «yo'q, men ichkilikni yomon ko'raman», deb qo'ya qoldim. Gohida:

— O'rtoq agronom, sizningcha, mahalliy o'gitga superfosfatni aralastirib solgan yaxshimi, yoki superfosfatni selitra bilan tashlayveraylikmi? — deb so'rab qolishadi.

Superfosfat nimasi-yu, selitra nimasi, rostini aytsam, o'zim ham bilmayman. Ilgari bunaqangi gaplarni hech eshitmagan ekanman. Lekin shunday bo'lsa ham sir boy bermayman.

— Shuni ham so'rab o'tiribsizlarmi, — deb jo'rttaga balanddan kelaman, — kim aytadi sizlarni Mirzacho'lning mashhur paxtakorlari deb, uyat emasmi!

Aylanib yurib to'rtinchi brigada dalasida janjal ustidan chiqib qolibman. Bo'lim boshlig'i O'limon aka bilan brigadir Rahimjon aka nima to'g'risidadir qo'llarini pasta qilib bahalashmoqda edi. Meni ko'rishi bilan bo'lim boshlig'i:

— O'rtoq agronom, Sizdan bir iltimosim bor, — deb qoldi.

— Marhamat, — mototsikldan asta tushdim.

— Agar malol kelmasa mana bu Rahimjonga, uning a'zolariga kompost to'g'risida bir gapirib bersangiz. Bular haligacha hech narsa tushunishmas ekan.

— Marhamat, — dedimda, u yoq-bu yoqqa qarab olgach, lekiya o'qishga tushib ketdim, — o'rtoqlar, kompost juda foydali ichimlik uni asosan mevadan tayyorlashadi. Mevalarning xili qancha ko'p bo'lsa, u shuncha shirin bo'ladi.

Bizning Farg'ona tomonlarda kompostni o'rik, shaftoli qoqi va olchanning qurug'idan tayyorlashadi. Xullas, kompost ichmabsiz, dunyoga kelmabsiz...

Gapimni tugatmasindan o'tirgan odamlar sharaqlab kulib yuborishdi. Qiziqroq gap aytgan bo'lsam kerak deb, mening o'zim ham kulaverdim, rosa kulishdik keyin bilsam, o'sha kuni obdan sharmanda bo'lgan ekanman. Go'ngni achitib tayyorlanadigan kompost bilan mevalardan tayyorlanadigan kompotning farqiga bormasdan, rosa aljibman, o'sha kundan boshlab to'rtinchi brigada dalalariga qadam bosmaydigan bo'lib ketdim.

Qisqasi, mana shunga o'xshash ikir-chikirlarni hisobga olmaganida ishlarim ko'ngildagidek, kayfim chog' edi. Qani endi direktorimiz Otajon Azizovichmi yoki menga ikki baholar qo'yishdan hech charchamaydigan Qobilovmi mana shu yurishlarimni bir ko'rishsa-yu, o'qimasdan katta odam bo'lib olganimni, mas'ul ishda ishlayotganimni ko'rib o'z aytganlariga pushaymon bo'lishsa, deb o'ylayman.

Kunlarning birida mehribon oyijonimga, direktorimizga alohida-alohida qilib xat yozdim. Oyijonimga nima deb yozganimni o'zingiz ham sezib turgan bo'lsangiz kerak. Otajon Azizovichga esa taxminan mana bunday deb yozgan edim:

### *«QADRLI OTAJON AZIZOVICH!*

*Mirzacho'lning azamat paxtakorlaridan Sizga otashin salom. Shuni ham aytib qo'yayki, Siz yolg'onchi bo'lib chiqdingiz, kishi o'qimasa, yoshlikda ilm olmasa, algebra, geometriya, ona tilini puxta egallamasa, agronom ham, injener ham bo'la olmaydi devdingiz, yolg'on ekan. Mana men agronomman. Ishonmasangiz, shu xat bilan yuborgan rasmimga qarang. Endi ordenli bo'lganimda uchrashamiz.*

*Xayr. Salom bilan agronom Hoshimjon Ro'ziyev».*

Xatni yuborgan kunim ertasiga ikkinchi brigada yerlarini aylanib nima qilishni, kinga qanaqa buyruq berishni bilmay

xunobim oshib yurgan edim. Rahbar bo'lsangu, hech kimga hech qanaqa buyruq bera olmasang, bundan ham xunugi bo'lmas ekan. Demak, deyman, o'zinga-o'zim, qishlog'imizdagi savodsiz agronom Anorboy tog'a shuning uchun ham bo'lar-bo'lmasga baqiraverarkanda. Ko'p baqirsang, yomon ishlayot-ganing ham sezilmas ekan. Baqiroqlarning hammasi ham menga o'xshab ilmsiz, sehrgarlik bilan rahbar bo'lgan ekan-da, deb o'ylaymanu. ishlab turgan kishilarning yoniga borib bo'lar-bo'lmasga baqiraman, shovqin solaman.

Lekin bugun kimga, nima deb baqirishni bilmay garang edim. Bir mahal brigada boshlig'i Murodjon aka halloslagancha kelib qoldi.

— O'rtoq agronom, o'rtoq agronom! — dedi u o'pkasi og'ziga tiqilib.

— Xo'sh, — dedim qovog'imni solib qoshlarimni past-baland qilib.

— Men sizni ertalabdan buyon axtarib yuruvdim.

— Xo'sh? — deb pishqirdim yana.

— Gap bunday, o'rtoq agronom, g'o'zalarimizga yoppasiga shira tushib ketibdi.

— Shira? Qanaqa shira? — deb baqirdim, — yopishqog'idan tushibdimi?

Shunday deymanu, lekin o'zim shira qanaqa bo'lishini hech ko'z oldimga keltirolmayman. To'g'ri, ilgari shira-pira deb eshitganim bor, lekin hech ko'rgan emasman.

— Maslahat bersangiz: qanday tugatsak ekan? — deb so'radi yana Murodjon aka.

— Qani, menga ko'rsatingchi, — dedim o'zimni bosib. Brigadir kelgan tomonga qarab ketdik boryapmanu, yo'l-yo'lakay qo'ltig'imga qisib olganim, sehrli qalpoqchamga «qalpoqcham, yordam bergin, aql o'rgatgin» deb shivirlayman.

«Aql sehriga bo'ysunmaydi, aqlingga aql qo'shib berolmayman, o'zimda ham shu qurg'urdan sal kamroq», — deydi qalpoqcham.

— Bo'lmagan gap, qo'shasan!

— «Qo'sholmayman. Ilm, aql degan narsalar qalin jildli kitoblarda bo'ladi, dono kishilarning kallasida bo'ladi. Ummim bino bo'lib bitta ham kitob o'qigan emasman. Xat-savodim yo'q...»

— Mana ko'ring, mana shu g'o'zalarga shira tushgan,— deb qoldi Murodjon aka shu payt katta paykalni ko'rsatib. Imillashning payti emas edi. Biron donoroq maslahat bermasam, bu yerda ham to'rtinchi brigadadagiga o'xshab obro'yim bir pul bo'lib qolishi mumkin. Lekin nima desam ekan?

— Bargiga tushubdimi? — deb so'radim gap orasida.

— Bargiga tushmay, poyasiga tusharmidi? — kesatib qo'ydi brigadir.

— Menga qarang, g'o'zalarning tubidan ushlab qattiqroq silkitsak shirasi to'kilib ketmasmikan-a?

— Hazilingizni qo'ysangiz-chi, o'rtoq agronom.

— G'o'zaning ustidan chelaklab suv quysak shirasini yuvib ketadi-ku. Ha, albatta shunday qilamiz. Shunday! — dedim hovliqib.

Murodjon aka dalani boshiga ko'tarib xaholab kulib yubordi. Demak, u meni hazil qilyapti deb o'ylamoqda. Hazil bo'lsa bo'la qolsin dedimda, o'zim ham qiqirlab kulaverdim. Jag'larimiz qiyshayib qolguncha kulishdik keyin o'zimni bosib, jiddiy bir ohangda:

— Necha ishchiningiz bor? — deb so'radim.

— Ellik beshta, o'rtoq agronom.

— Har bittasiga yigirma donadan tol navdasi kestiring va bir soat ichida jamiki ishchiningizni mana shu yerga to'plang! — deb buyurdim. Aytganimdek bir soat o'tar-o'tmas 55 ishchi qo'ltig'ida bir dastadan novdasi bilan huzurimga «qani, ishingiz bo'lsa buyuring», deb yetib kelishdi. Egat oralab paykalga tushinglar, dedim.

— Endi hurmatli o'rtoqlar, shira tushgan barglarni kaltaklaysizlar, — deb qo'ydim gapimning oxirida.

— Nima? — ko'zlari joyidan chiqib ketgudek bo'lib so'radi brigadir.

— Gapni ko'paytirmang, buyruqni bajaring!

— Hushingiz joyidami o'zi, o'rtoq agronom? Axir bunda g'o'zalar nobud bo'ladi-ku!

— G'o'za nobud bo'lsa, men javob beraman, agronom javob beradi, — deb baqirib yubordim to'satdan. — Shiraga qarshi kurashishning yangi metodi bo'ladi bu. Tushundingmi? Zamondan orqada qopsan, kallavaram...

Xullas, buyrug'imni o'tkazmaguncha qo'ymadim. To'g'rida, gapimni gap qilolmasam bu yerda men nima deb yuribman. Odamlar avvaliga yelka qisishib, bir-birlariga qarab, hayron bo'lib turishdi-da, yangi metod deganimni eshitib, «chindan ham biron hikmati bo'lsa kerak», deb o'ylashdi shekilli, ko'zlarini chirt yumib, g'o'zalarni savalashga tushib ketishdi.

Bir mahal, bunday qarasam, bir xil g'o'zalarda bitta ham barg qolmagan, tandir kosovdek so'ppayib turibdi, bir xillarining bosli singan.

— Esizgina mehnat, Eshvoy! — deydi ishchilardan biri bosh chayqab.

— Nimasini aytasiz, Qobilvoy, — deydi boshqasi uh tortib, — yangi metod shunaqa bo'lsa... tavba.

— Aslida, agronomning o'zini tutib olib kaltaklash kerak edi! — dedi uchinchisi.

Shu payt orqa tomondan mashinaning ketma-ket chalingan signali eshilib qoldi. Qarasam, sovxozimizning direktori Nosir aka tushib kelyapti.

— Hormang, agronom, — deb qo'l uzatdi u.

— Salomat bo'ling, — dedim yangi metod o'ylab chiqarganim uchun gerdayib. Ehtimol, mukofotga ham taqdim qilib yuborar, deb ich-ichimdan sevinib ham turibman.

— Nimalar qildiriyapsiz?

— Shiraga qarshi kurashyapmiz.

Direktor odamlar ishlayotgan joyga borib, avvaliga nimalar bo'layotganiga tushunmadi shekilli, birpas angrayib tordi. Keyin to'satdan har bir ko'zi shokosadek bo'lib:



— Bular tentak bo'lganmi o'zi! — deb baqirdi.

— O'rtoq agronom buyurdilar, — tushuntirdi brigadir.

— Agronom? Nima?! — Nosirov shunaqangi qattiq baqirdiki, nazarimda olis-olislardagi tog'lar ham larzaga kelib silkingandek bo'ldi.

— Aqlingiz joyidami o'zi, o'rtoq Ro'ziyev, — o'sha vajohat bilan so'radi direktor.

— Joyida, o'rtoq Nosirov.

— Agronomimiz jinni bo'lib qolganga o'xshaydi, — dedi kimdir.

— Rost, ana, qaranglar ko'zi ham bejo, — dedi boshqasi.

— Ushlanglar uni! — deb yuborsa bo'ladimi Nosirov.

Ellik besh kishi tengdan g'azabga kelib turgan ekan, hammalari mujib tashlagudek bo'lib menga tashlanib qolishdi. Qani, hurmatli do'stim, o'zingiz insof bilan aytingchi, shundan keyin men, nima qilishim kerak edi. Albatta, boshimga qalpoqchamni kiyib xayr-ma'zurni nasiya qilib bo'lsa ham juftakni rostlab qolishdan o'zga chora qolmagandi.

O'sha atrofda aylanib yurgan edim, qo'limga, nima bo'ldiyu, bitta gazeta tushib qoldi. Unda ushbu e'loncha bosilgan ekan:

«Rayon militsiya bo'limi mehnatkashlarga shuni yozib bildiradiki, bundan uch kun avval to'rtinchi sovxozdan Hoshimjon Ro'ziyev nomli bir yigit qochdi. O'zini agronom qilib ko'rsatib yurgan bu shaxs, aslida, shahar jinmixonalarining biridan qochib kelgan kimsadir. Bo'yi terakdek novcha, o'zi igna yutgandek ozg'in, yurganda bir oz oqsab yuradi. Gapida ma'no yo'q yosh bolalardek aljib gapiradi. Ko'rgan-bilganlar bo'lsa militsiya bo'limiga xabar qilishini so'raymiz...»

Bu dargohdan ham tezroq chiqib ketish payiga tushib qoldim.

## QOFIYA BOZORI QAYDADIR

Sanqib yurib bir mahal katta yig'in ustidan chiqib qolibman: to'y desam, to'yga o'xshamaydi, majlis desam, majlisga o'xshamaydi. Kolxozning katta bog'iyu odam demagani hech yerga sig'may ketgan. Gulzor o'rtasiga qo'yilgan so'rilarda, atrofi gul bilan o'ralgan supalarda kishilar to'p-to'p bo'lib gurunglashmoqda. Kimdir yelpib-yelpib barra go'shtlardan qabob pishiryapti. Novcha bo'yli bir odam yoniga beshta shogirdini olib palov damlash bilan o'vora. Nariroqda uchta xotin kuyib-pishib, puf-puflab to'rt quloqli somsa yopmoqda, menga o'xshash bolalar g'iziliab choy tashib turibdi. Hammasi yasangan-tusangan, lablarida kulgi desam kulgiga, tabassum desam tabassumga o'xshamaydigan g'alati ifoda. Kimnidir kutishayotganga o'xshaydi. Barchasi betoqat, ko'zi atrofda.

Avvalo, boshimdan qalpoqchamni olmasdan turib issiq-issiq somsalaridan to'yib-to'yib yeb oldim. Keyin, qalpoqchamni olgach, olma daraxtining shoxiga chiqib olgan olako'z boladan so'radim:

- Bu yerda nima bo'lyapti o'zi?
- Xabaring yo'qmi? — dedi olako'z.
- Yo'q.

— Qani, og'ayni, bu yoqqa chiqaver. Keyin hammasini aytib beraman.

Daraxtga chiqib, joylashibroq o'tirib oldim. Olako'z oyog'ini silkita-silkita tushuntira ketdi:

— Bu yerda, og'ayni, she'r bazmi bo'ladi, bildingmi? Shahardan zo'r shoirlar kelgan, bildingmi? Ular cho'lquvarlar bilan kattakon uchrashuv o'tkazadi. Hozir melunonxonaga tuxum yutgani kirib ketishdi, bildingmi?

— Nega endi tuxum yutishar ekan?

— Nega deysanmi, toza kallavaram ekansan-ku, og'ayni. Axir tuxum yutishmasa, ovozlari yaxshi chiqmay she'rni

past-baland qilib o'qib qo'yishadi-da. Hozir raisimiz o'sha tomonga to'rt yashik tuxum olib o'tib ketdi, bildingmi?

To'rt yashik tuxumni eson-omon yutib olishsa, rosa she'rxonlik qizir ekan-da, deb o'yladimu joylashibroq o'tirib oldim.

Shu payt bog'ning darvozasidan bir yo'la sakkizta shoir birin-ketin kirib kela boshladilar. Oldinda past bo'yli, dum-dumaloq, ko'zoynak taqqan ellik yoshlardagi bir shoir, uning orqasidan qotmadan kelgan, sochlariga oq oralab qolgan, cho'ziq yuzli yana bir shoir. Hammasining boshida movut shlyapa, hammasining egnida ketvorgan kostyumlar, uchi ingichka tufllarini aytmaysizmi!

Darvoza oldida ko'rinishlari bilan kolxozchilar o'rinlaridan turib qarsak chalib yuborishdi. Men ham, daraxt ustida o'tirganim hech esimda yo'q, qarsak chalmoqchi bo'lgan edim, ushlab turgan shoxim qo'ldan chiqib, gursillab yerga yiqildim. Xayriyatki, hech kim meni ko'rmay qoldi, bo'lmasa rosa kulgi bo'larmidim. She'rxonlik boshlanib ketdi.

Birinchi bo'lib haligi katta shoir, oti Mamarasul Bolta ekan, o'sha o'qidi. U paytlarda xotiram juda yomon edi, she'rni qatorma-qator eslab qololmadim, ammo mazmunini haligacha unutgan emasman.

Dalalar, go'zal dalalar, boqib to'yib bo'lmas husningiz, rang-barang toblangan atlasingiz, guldek yashnagan shu jamolingiz qalbinga o't solar.

Dalalar, qadrdon dalalar. Bahor ta'rifingiz boshlasa bulbul, madhingiz tugamas kuzda ham butkul. Quti barakangiz to'kin shu qadar. Farovon hayotda qaynab-to'libsiz, xazina bo'libsiz, go'zal bo'libsiz...

Odamlar she'rning sehriga mahliyo bo'lib, ishonsangiz haykaldek qotib qolishdi. Shuning uchun ham she'rning tugaganini hech kim sezmedi. Faqat shoir o'rniga qaytib o'tirayotgandagina kishilar o'ziga kelib qarsakni yangratib yuborishdi.

— Barakallo!

— Ming ofarin!

— She'r degan ana shunday bo'lishi kerak! — degan ovozlari yangradi atrofda. Shu payt kolxozchilardan biri o'tilib o'rnidan turdi-da, shoirga yaqinlashib, yelkasiga banoras to'n yopdi, boshiga chust nusxa do'ppi kiygazdi, beliga jimjimador gullar tikilgan qizil atlas belbog bog'ladi.

— Ruxsat bersalar, — dedi u to'lqinlanib, — kolxozchilar nomidan bir tabriklab ham qo'ysam.

Shunday dedi-yu, shoirning terlab turgan peshonasidan cho'pillatib o'pib oldi. Yana gurillab qarsak chalindi. Bu gal men ham, yonginamda oyog'ini solintirib o'tirgan olako'z ham o'zimizni ushlab turolmay, yiqilsak yiqilarmiz-da, deb qarsak chalib yubordik.

Shoirlar tuxumni ko'p yutishgan ekan, she'rxonlik qorong'i tushguncha davom etdi. Men esa birinchi she'rni eshitganimdayoq, shoirga ko'rsatilgan hurmatu ehtiromni ko'rib adoyi tamom bo'lgan edim.

«Ana hurmatu, ana e'zoz, — deyman o'zinga-o'zim, — men bo'lsam jonimni qiynab agronom bo'laman, deb qayoqdagi g'alvalarga qolib yuribman-a. Mana, shoir bo'lsang boshqa gap. To'yib-to'yib tuxum yutasan, kitoblaring chiqadi, surating gazetada bosiladi. Bitta-yarimta she'r o'qib qo'ysang, yelkangga banoras to'n yopishadi. Qarsaklar, ofarinlar! Yo'q. Yo'q! Men ham shoir bo'laman. Bo'laman, albatta bo'laman».

Yig'in tugashi bilan sekin pastga tushdim-u, qalpoqchamni boshimga ilib shoirlarga qo'shilib oldim. Axir shoir bo'lish uchun, uncha-muncha ularning siru asroridan xabardor bo'lishim, loaqal bitta-yarimtasi bilan durustroq oslmo bo'lib olishim kerak edi-da. Shoirlar, ishlari qistov ekan, kolxozchilar harchand qistashsa ham, tunab qolishga ko'nmay, «Volga»larga o'tirib sekin jilib qolishdi. Men ham Mamarasul Bolta o'tirgan «Volga»ga tushdim. Kirsam, bo'sh joy yo'q shoirning tizzasiga o'tirib qo'ya qoldim.

— Saydullo, men negadir og'irlashib ketyapman, — dedi Mamarasul aka betoqat bo'lib. Qarasam, gap ko'payadigan,

shuning uchun uchovlarining tizzasiga uzala tushib yotib oldim. Mashina tekis yoʻldan qushdek uchib borardi. Men shoirlikka oid biror gap eshitib qolarmikanman, deb ularning ogʻzini poylayman. Gapga quloq solib yotib, bir mahal koʻzim ilinay deb qopti. «Shahar, shahar» degan soʻzlar qulogʻimga chalinishi bilan sapchib oʻrnimdan turib ketdim. Minglab chiroqlar porlaydi, ketma-ket lipillab oʻtayotgan koʻp qavatli uylar, simda yuradigan shoxli avtobuslar, birining ketiga ikkinchisi tumshugʻini tirab borayotgan hisobsiz yengil mashinalar... Yoʻlaklarga odam sigʻmaydi, koʻchalarning keng va yaxlitligi, shishadek yaraqlab turgan asfaltlar — mana shularning hammasi zavqimni oshirib, mening ham qalbimga ilhom solgandek boʻldi. Beixtiyor sheʼr oʻqib yubordim:

*Koʻchalar,  
Oh begona koʻchalar,  
Muncha silliqsiz,  
Muncha tiniqsiz.  
Qalbinga yaqin koʻchalar,  
Uyqum yoʻqdir kechalar...*

Men oʻsha kuni Saydullo akanikida yotib qoldim. Lekin mening yumshoq divanda huzur qilib, miriqib uxlaganimni na uning oʻzi, na bola-chaqasi bildi. Ertasiga esa shoirlik hayotim oʻz-oʻzidan boshlanib ketdi. Oldinda hurmatli oʻrtoqlar, meni shonu shuhrat kutardi.

Bunaqangi katta shaharda birinchi bor boʻlishim. Toʻgʻri, kinolarda koʻrganman, oʻlka geografiyasi kitobida unchamuncha oʻqiganman, odamlardan taʼrifini oz-oz boʻlsa ham eshitganman. Lekin, takror aytamanki, bir-biriga oʻxshash boʻlgan hisobsiz koʻchalari, bir-biridan shinam, bir-biridan goʻzal, sarishta hiyobonlari, sanab hisobiga yetib boʻlmaydigan soya-salqin bogʻlari boʻlgan bu azim shaharni birinchi bor koʻrib turibman.

Bir kun kechgacha tomosha qilib rosa maza qildim. Muzeylarni, kinoteatrlarni, qoʻgʻirchoq teatri, sirk —

hamma-hammasini ko'rdim, devorlarini qo'llarim bilan siladim. Kechqurun shinam mehmonxonalardan biriga kirib:

— Joy bormi, opajon? — deb so'radim.

— Kattaga yo'q-ku, senga yo'l bo'lsin, — dedi qoshi mushukning dumiga o'xshaydigan novcha bir xotin. Bo'lmasa bo'lmasin dedimu, qalpoqchamni kiyib ichkari kirdim. Bo'sh joylar ko'p ekan. Bittasiga yechinib yotib tong otguncha she'r mashq qildim. Ertalabga yaqin ijod mahsulim ham tayyor bo'ldi. O'pkamni qo'ltiqlab redaksiyalardan biriga qarab yugurdim. Eshigining ustiga «Adabiyot, san'at bo'limi» deb yozib qo'yilgan xonaga «assalomu alaykum» deb kirib bordim. Xonaning egasi boshqa bir shoirning she'rini ko'rib, so'zlashib, chaqchaqlashib o'tirgan ekan, mening she'rimni qo'liga olib ichida, ovoz chiqarmasdan maza qilib o'qidi. Avval oyog'imga, undan keyin qornimga, eng oxirida boshimga nazar tashlab:

— Bo'lmaydi, uka, — deb qo'ydi.

— Nega endi bo'lmas ekan, bo'ladi, — dedim shoshib pishib.

— Bu she'r emas, oddiy gap-ku.

— Nega endi, she'r bo'lmas ekan, ajoyib she'r bu!

— She'rda qofiya, vazn, turoq degan narsalar bo'lishi kerak. Ma'no, mantiq degan narsalar bo'lishi kerak. She'ringizda men o'shalarni ko'rmayapman.

— Bor, sinchiqlab qarang! — deb turib oldim.

— Menga qarang, uka, otingiz nima edi?

— Shoir Hoshimjon Ro'zi

— Shoir Hoshimjon Ro'zi, Sizga maslahatim shuki, mashq qiling, she'r mashq bilan kamolotga yetadi.

— Xo'p bo'ladi, — dedim gapni cho'zib o'tirmasdan.

She'rim o'tmadi, bahosi ikki pul bo'ldi. Lekin men umidsizlikka tushganim yo'q. Yo'q aslo bunday deb o'ylamang. Umidsizlik menga begona. Oyim sen tirmizak tegirmonga tushsang ham tirik chiqasan, der edi. Haqiqatan ham to'g'ri aytgan ekan. Nega desangiz, men har qanday qiyinchilikdan g'am-tashvishsiz, bir xil, o'zim tengi bolalarga o'xshab yig'lab-

siqtab o'tirmasdan osonlikcha chiqib ketaveraman. Bu gal ham shunday bo'ldi. She'rim kasodga uchragach, lab-lunjimni osiltirib o'tirmasdan, qofiya, vazn, turoq so'roqlab magazinlarni kezishga tushdim.

— Opajon, sizda qofiyadan bormi? — deb so'radim kitob sotib o'tirgan ayoldan. U shapaloqdek oynaga tikilib, labiga qizil surtish bilan ovora edi. Gapimni eshitmadi shekilli, «Qofiya bormi?» deb so'radim yana.

— Nima? — Yuzimga qaramasdan so'radi ayol.

— Qofiya, she'rga ishlatiladigan qofiya, — tushuntirdim, — jon opa, bo'lsa yuz gramm topib bering. Juda zarur bo'lib qoldi.

— Unaqa narsa yo'q bizda.

— Bo'lmasa besh-o'nta vazn topib bering.

— Vazn ham yo'q.

— Turoq-chi? Turoq ham bo'lmasa kerak? — dedim kesatib.

— Yo'q dedim-ku. Qanaqa ezma bolasan o'zing. Sen so'ragan narsalar kultmagda bo'ladi.

Kultmagga borgan edim, xozmagdan so'rab ko'ring deyishdi.

O'sha kuni men bormagan magazin qolmadi. Hatto bir oz qimmatga bo'lsa ham ola qolay deb chayqov bozoriga ham birrov tushib chiqdim. Yo'q anqoning urug'i bo'lib ketgan ekan bu narsalar, topilmadi. Alamimdan kechasi qofiya, vazn, turog'i bo'lmasa ham she'rni shunaqangi ko'p yozdim-ki, ko'rsangiz yuragingiz vahm oladi.

Ertasiga yana yaxshi umidlar bilan redaksiyaga keldim. Kechagi odam o'rnidan turib iliqqina qarshi oldi:

— Xo'sh, mashq qildingizmi?

— Bo'lmasam-chi, tuni bilan uxlamadim.

— Qani, she'rni oling-chi.

— Marhamat.

Jo'ra Juman she'rimni maza qilib o'qigach, miyig'ida bilinar-bilinmas kulib qo'ydi, keyin xuddi kechagiga o'xshatib, avval oyog'imga, keyin shu paytda juda ochqab,

chuldurab nag'ma qilayotgan qornimga, eng oxirida terlab turgan peshonamga nazar tashlab:

— Nechanchi sinfda o'qiysiz shoir? — deb so'radi.

— O'qishni tugatganman, — dedim shoshib-pishib. Nega desangiz falon sinfda o'qiyman desam, bor, avval o'qishingni tugatib kel, deb yuborishidan qo'rqqan edim-da.

— Qaysi shoirni ko'proq o'qiysiz?

— Hammasini ham.

— Hamid Olimjonni o'qiganmisiz?

Qarasam, savol ketidan savol yog'ilaveradiganga o'xshaydi. Yolg'on gapirib qiynalgandan ko'ra, rost aytib savol-javobni qisqartirib qo'ya qolmoqchi bo'ldim:

— Yo'q o'qigan emasman.

— G'afur G'ulomni-chi?

— Unaqangi shoirning she'rini ko'rganim yo'q.

— Uyg'unni-chi?

— Yo'q dedim-ku. Bizning qishloqda unaqangi shoir yashamaydi.

Aftidan Jo'ra Juman bugun savol berish uchun ataylab tayyorgarlik ko'rib kelganga o'xshaydi. Yetti uxlab tushimga kirmagan shoirlarning she'rlarini, kitoblarini so'raydi. Biriga yo'q deyman, ikkinchisiga yelkamni qisaman. Bir mahal bunday qarasam ikkovimiz ham charchab, terlab ketibmiz. O'shanda ham to'xtamaymiz. Yo'q deb yelkamni qisaverganimdan bo'yinlarim og'rib, oyoqda zo'rg'a turibman. Chiqib ketmoqchi bo'lib yura boshlagan edim:

— To'xtang! — deb qoldi Jo'ra Juman.

— Rus adabiyotidan ko'proq kimlarning she'rini o'qiysiz?

— Nima?

— Pushkinni o'qiganmisiz?

— Yo'q.

— Lermontovni-chi?

— Yo'q.

— Nekrasovni-chi?

— Yo'q.



— Mayakovskiyni-chi?

Yo'q, deyman deb og'zimni ochmoqchi bo'lgan edim, ishonsangiz, tinkam qurigandan lablarimni qimirlata olmadim. Og'zimga tolqon solgandek jimgina orqamga burilib eshik tomon yurdim. «To'xtang», degan ovoz eshitildi orqamdan. To'xtadim.

— Ko'ngilda shoir bo'lishlik orzu bo'lsa, hozir nomlarini tilga olganimiz shoirlarning she'rlarini ko'proq o'qing, yod oling. Xo'pmi?

— Xo'p bo'ladi.

— Demak kelishdik shundaymi?

— Shunday.

— Xayr.

— Salomat bo'ling, — dedim-da, shoirona yurish qilib tashqariga chiqib ketdim. Sof havodan to'yib-to'yib nafas oldim. Mast odamga o'xshab chalama-chatti qadam tashlab yurib boryapman. Qayoqqa ketyapman, nima uchun ketyapman, rostini aytsam, o'zim ham bilmayman. «Gapni qarang-a? O'qing emish, — deyman o'zimga-o'zim, — nega o'qir ekanman? O'qiydigan bo'lsam o'zimizning maktabda ham kitob to'lib yotgan edi-ku, o'sha yerda o'qiyverardim-da. Yo'q, men o'qimasdan shoir bo'laman. Shoshmay tursangiz hali, hurmatli Jo'ra Juman, men sizga shoir bo'lganimni ko'rsatib qo'yaman. Sehrli qalpoqcham omon ekan, menga yordam beradi, albatta yordam beradi shundaymi, qalpoqcham?

— Shunday, — degan ovoz eshitildi qo'ltig'imdan.

— Yordam berasanmi?

— Berganda qandoq.

— Aytchi, ishni nimadan boshlashim kerak?

— Avval mehmonxonaning oshxonasiga kirib qorningni to'yg'azib ol, — deb maslahat berdi qalpoqcham.

Oh, qadrdon qalpoqcham, jonimning huzuri, maslahatgo'yim! Sen borsan, g'am-tashvishim yo'q, qornim to'q, ustim but. Balli senga, omon bo'lgur qalpoqcham. Ana shunday o'y-xayollar bilan oshxonaga kirib borganimni o'zim ham sezmay qolibman.

Uch-to'rt kungacha qilar ishimni bilmay yurdim. Mei unaqangi qimmatli vaqtini bekorga o'tkazadigan bolalardan emasman. Bekor qolgan kunlarimdan foydalanib, Mirzacho'lda tanishgan shoirlarning adresini aniqlab, uylariga yo'l oldim. Maqsad — ulardan yaxshi she'r yozish yo'llarini o'rganish.

Saydullo aka o'z she'rlarini ko'proq kechasi, shahar xalqi oromli uyquga ketgan mahalda, hammadan yashirib yozarkan. Shunaqangi ko'p yozadiki, ba'zan tikilib o'tiraverib zerikib ketaman. Erkin Hamid bo'lsa sahar chog'ida yozarkan. Jo'ra Juman ham shoir ekan. Uch kungacha poylab boramanu, qay vaqtda she'r yozishini hech aniqlay olmayman. Keyin bilsam, ishdan qaytgach, to'yib uxlarkan, so'ng o'rnidan turib she'r yozishga kirisharkan. Tunov kuni bir yaxshi she'rimni yomonga chiqarib, hammayog'iga chizib tashlagani uchun men ham unga jindak hazil qilib qo'ydim. Ish stolining ustida turgan bir taqsimcha shokoladini pok-pokiza tushirdim-da, qog'ozini asta borib, qo'shni xonada pishillab uxlab yotgan qizining yoniga qo'ydim. Shoir asta boshini ko'tarib bundoq qarasa — taqsimchadagi shokolad yo'q.

— Oyisi, shokoladni olib qo'ydingmi? — deb so'radi.

— Yo'q, — dedi xotini, keyin «voy o'lmasam, shokoladni qizingiz yebdi. Dilbar, qurib ketmagur, tur o'rningdan», degan ovoz eshitildi. Jo'ra Juman ham yugurib o'sha xonaga kirdi-yu, qizining qo'llaridan tortib uyg'ota boshladi.

— Ozroq yesang bo'lmaydimi? — so'radi uyqusirab turgan qizidan.

— Nimani? — dedi qizi.

— Yana tag'in nimani deydi-ya.

Er-xotin tag'in qizimizga zarar qilmasin, deb oslxonadan ikki banka qatiq olib chiqishdi.

— Ich! — dedi shoir bankani qizining qo'liga tutqazib.

— Ichmayman, ada!

— Ichasan. — Shunday deb Jo'ra Juman nima ish bilandir tashqariga chiqib ketdi. Tag'in zarar qilmasin deb bankalardagi qatiqni o'zim ichib qo'ya qoldim.

Shunday qilib desangiz, shoirlarning hayotiga aralashib ketgan edim. Ammo harchand qidirsamda, ularning uyidan na qofiya, na turoq, na vazn topdim. G'aladonni titkilab ko'rdim, shkaflarni birma-bir ochdim, kitoblarning orasini varaqladim — yo'q, hech joyda yo'q. Kunlarning birida Saydullo akaning divanida yonboshlab uning she'r yozishini tomosha qilib o'tirgan edim. Boshimga ajoyib bir fikr kelib qoldi. Saydullo aka she'rini yozadi, yozadida, qog'oz to'lganda uni g'ijimlab derazadan tashqariga irtadi. O'sha she'rlardan birini olib ko'rsam, nazarimda, qofiya, vazn, turog'i bor she'rlarga o'xshab ketdi. Nega u bu she'rni tashlab yuboradi, axir unga kerak bo'lmasa, menga kerak-ku, qofiya topolmay garang bo'lib yuribman-ku, dedimda, she'rni olib o'z kulbanga — mehmonxonaga qaytdim. Kechasi bilan uxlamay oqqa ko'chirdimu, ertalab oyoqni qo'lga olib redaksiyaga yugurdim. Jo'ra Juman she'rimni o'qib o'z odatiga ko'ra avval oyog'imga, keyin qornimga, eng oxirida peshonamga boqib:

— Qani, qo'lni bering, bir tabriklab qo'yay! — dedi zavqi oshib. — Mehnat qilganingiz shundoqqina ko'rinib turibdi.

— Ha, she'r yozish qiyin ekan, — dedim taltayib.

— Oxirgi to'rtlik bir oz sustroq lekin tuzatsa bo'ladi, o'zim tuzatarman. Siz boravering.

— Demak she'rim gazetada chiqadimi?

— Chiqadi.

— Rasmim-chi, rasmimni ham bosasizmi?

— Nega endi rasmingizni bosar ekanmiz?

— Axir oyim, yo'q direktorimiz Otajon Azizovich ko'rsinlar devdim-da... Ha, mayli. Demak, she'rim bosiladi, shundaymi?

— Navbatdagi sonlarning birida berishga harakat qilaman.

O, o'sha kuni mening quvonganimni aytsangiz. Ko'chada ketyapmanu, sakrab-sakrab o'yinga tushaman, ashula aytaman, do'ppimni osmonga otaman, yuguraman yelaman.

— Hoy bola, jinni-pinni bo'lib qoldingmi? — dedi bir odam bilagimdan ushlab.

— She'rim chiqyapti, amakijon, she'rim!

— She'ring chiqsa, sal u yoq-bu yoqqa qarab yurda.

— Iloji yo'q, amakijon, ilojim yo'q. — Shunday deymanu, sakrab-irg'ishlab yo'limda davom etaman.

O'sha kundan boshlab ishlarim yurishgandan-yurishib ketdi. Birinchi she'rim bosilib chiqishi bilan mazaxo'rak bo'lib oldim-da, boshqa shoirlarning g'ijimlab tashlangan she'rlarini ham redaksiyaga ketma-ket keltirib beraverdim. Shuni ham aytib qo'yayki, gazetalarda she'r uchun katta pul to'lashar ekan. Pulim ham ancha ko'payib (restoranlarda yashirinchasiga ovqat yeyish jonimga tegib yurgan edi) ochiqchasiga, odamlardek pul to'lab kerilib o'tirib ovqatlanadigan bo'ldim.

O'sha quvonchim ichimga sig'may yurgan kezlarda, negadir, do'stim Orifni tez-tez xotirlaydigan bo'lib qoldim. Rost, u menga ko'p yaxshiliklar qilgan edi. Odamgarchilik qiluvdi. Menchi? Men uni xafa qildim, begunoh kaltakladim, joniga ozor berdim... Xat yozib, undan kechirim so'rashga jazm qildim. Mana o'sha xat:

### «DO'STIM, ORIFBOY!

*Salom, salomatmisan? Ishlaring joyidami? Umuman olganda, meniki ham chakki emas. Endi senga aytadigan gapim shundan iboratki, jon do'stim, meni kechir. Qarshingda boshimni egib turibman. Istasang, yuzimga tarsaki tort, istasang, kallamga mushtla. Ammo kechir, kechir meni. Qalay, yaxshi yuribsanmi? O'qituvchimiz Qobilovchi, Otajon Azizovichchi? Ularga aytib qo'y, men hozir qatta shoir bo'lib ketganman. She'rimni gazetalardan o'qib turishgan bo'lsa kerak. O'sha Hoshimjon Ro'zi degan shoir men bo'laman. O'zlari ham endi uyalib qolishgandir, battar bo'lishsin. Bundan so'ng hech kimga o'qimasang, uy vazifalarini bajarmasang odam bo'lmaysan, deb aytishmaydi.*

*Singillarim Oyshaxon, Donoxonlar-chi? Ularni maktabdan qaytishayotganda hech kim urmayaptimi? Agar bitta-yarimtasi shunday qilsa aytib qo'y, borganimda mijiqlab tashlayman.*

*Oyijonimni ham sog'indim. Kechalari tushimga kiradi. «Bolaginam, o'zimning shumshug'im, qayoqlarda yuribsan, qorning ochmadimi, usting yirilmadimi?» — deb boshlarimni silaydi. O'rnimdan tursam atrofimda hech kim yo'q, o'tirib olib yig'layman.*

*Aziz do'stim, sendan kechirim so'rab qolaman. Aytganday, haliyam futbol o'ynab turibsizlarmi? Mening o'rnimga kapitanlikka kimni sayladilaring? G'ulomnimi? Uning zarbi zo'rku, ammo oyoqni chalish odati yomonda... Meni kechir, xayr.*

*Salom bilan shoir Hoshimjon Ro'zi».*

Xatni jo'natib, yelkamdandan og'ir tog' qulagandek yengil nafas oldim. Nega desangiz, uning oldida o'zimni aybdor hisoblaganimdan vijdonim azob chekib yurgan edi-da. O'zi shu vijdon azobidan og'iri bo'lmas ekan.

O'sha kuni redaksiyaga so'nggi she'rimni olib bordim. Xonaga shundoq qadam bosishim bilan Jo'ra Juman: «Juda vaqtida keldingizda», — deb qarshi oldi.

— Tinchilikmi o'zi? — negadir xavfsirab qoldim men ham.

— Tinchlik. Siz o'tirib turing. — Shunday deb Jo'ra Juman tashqariga chiqdi-yu, zum o'tmay o'zi bilan Saydullo aka, Erkin Hamid, Toshqin Obid, Zohid To'xta degan shoirlarni ergashtirib kirdi. Ularning hammasini taniyman. Bir yoqlama bo'lsa ham do'stona aloqa bog'laganmiz, oramizdan qil o'tmaydi, bordi-keldimiz bor. Qofiya, vazn, turoqlarini mendan berkitib ishlatadigan shoirlar mana shular bo'ladi.

— Bizning gazetada bosilgan «Ona, o'lka» nomli she'ri o'zingiz yozdingizmi? — so'radi Jo'ra Juman menga yuzlanib.

— O'zim yozganman.

— Yolg'on, — dedi Saydullo aka o'rnidan turib, — bu she'r meniki bo'ladi, mana originali.

— «Paxtakor, seni kuylayman» sarlavhali she'rni ham o'zingiz yozganmisiz? — yana so'radi Jo'ra Juman.

— Bo'lmasam-chi?! — dedim ovozni bir parda yuqorilatib.

— Bo'lmagan gap, — shunday deb Erkin Hamid menga qarab bostirib kela boshladi, — bu she'rni men yozganman, ha, men yozganman.

Qarasam, ishning keti xunuk bo'ladigan. O'zlari g'ijimlab tashlagan, hecham keragi bo'lmagan she'rlaridan unchamuncha foydalanganim uchun meni o'rtaga olishmoqchiga o'xshaydi. Boshimga qalpoqchamni kiyib sekin jo'nab ketdim. Orqamdan:

— Sehrigar!

— Plagiator.

— She'r o'g'risi.

— Uyatsiz.

— Tekinxo'r.

— Ishyoqmas.

— Dangasa, — degan kishini uncha xursand qilmaydigan, yo'g'on-ingichka ovozlar ancha vaqtgacha eshitilib turdi. Ko'chaga chiqib bexavotir joyga borib olgach, qo'limni og'zimga karnay qilib adabiyot bo'limining derazasiga qarab qichqirdim:

— O'zlaringchi, o'zlaring! Magazinga kelgan qofiya, vazn, turoqlarni bizga o'xshaganlarga bir gramm ham bermasdan olib qo'yasizlar-ku! Uyat emasmi!

## VI bob

### XAYR, AMAKILAR

**Sh**oirlik olamidan eson-omon quvilgach, mehmonxonaning choyshab, bolish, ko'rpa singari mayda-chuydalari saqlanadigan omborida uch kechayu uch kunduz qimirlamay

uxladim. Qiladigan ishim, hasratimni aytib ko'ngil yozadigan biron mehribon kishim yo'q edi. O'z yog'imda o'zim qovurilib, o'ylab, shirin-shirin xayollar surib yotaverdim. To'rt kun deganda o'rnimdan turib, biron ishning boshini tutguncha ermak bo'lar-ku, deya mehmonxonaning administratori, qoshi mushukning dumiga o'xshaydigan E'tibor Umarovadan o'ch olishga tushdim. Nega desangiz, bu xotin pora olishda ustasi faranglardan. Mehmonxonada bo'sh joylar to'lib yotgan bo'lishiga qaramay:

— Afsuski, bo'sh o'rin yo'q, — deb bezrayib turaveradi.

— Jon opa, uzoqdan kelganmiz, hech bo'lmasa ikkita o'rin topib bering, — deb yolvorishadi mehmonlar.

— Ikki-uch kunsiz ilojim yo'q, — deydi administrator. Ikki-uch kun degani — ikki-uch so'm cho'zing degani. Mehmonlar gapning ma'nosiga tushunsa, albatta yeng uchida uch-to'rt so'm uzatishadi. Shundan keyin E'tibor Umarova:

— Sharifa, — deb qichqiradi kassirga, — mehmonlarga chek yozib ber, to'rtinchi xonada bo'sh o'rin borga o'xshaydi.

Xullas, bu E'tibor Umarova deganlari borib turgan poraxo'r. Bir varaq qog'ozga: «Ehtiyot bo'ling, butun ishlarigizni bir haftadan buyon formasiz militsioner kuzatib yuribdi...» deb yozdimu, sezdirmasdan cho'ntagiga solib qo'ydim. Birpasdan so'ng qog'ozga ko'zi tushib opaning qoshlari mushukning dumidek o'ynab ketdi, ko'zlari ola-kula bo'ldi. Hovliqqancha direktorning oldiga kirdi. Keyin direktor ikkovlari xuddi quvlashmashoq o'ynayotgandek ketma-ket yugurib chiqishdi-da, kassir Sharifa opaning qulog'iga nimalarnidir shivirlab, rangi qutlari o'chgancha, sovuq urgan pomidordek gezarishib, pastga tushib ketishdi.

O'sha kuni mehmonlarning ro'yxati qaytadan ko'rib chiqildi. Formasiz militsionerni topolmay, nazarimda, rosa xunob bo'lishdi ham. Opa kimdan pul olgan bo'lsa, hammasiga, bir so'm olganiga ikki so'mdan, ikki so'm olganiga to'rt so'mdan qilib qaytarib berdi. Kechgacha

halloslab, oyog'i kuygan tovuqdek har tomonga zir yugurib, adoyi-tamom bo'ldi. Uning bu kulgili ahvolini ko'rib ich-ichimdan kuldim. Shu bahona bo'ldiyu ko'nglimdagi g'ashlik tarqab, sen ko'r-men ko'r bo'ldim-ketdim.

Tashqariga chiqsam, mehmonxona oldidagi maydonchaga odam degan sig'may ketibdi, igna tashlasang yerga tushmaydi. Kattayu kichik bir-birini itar-itari qilib o'rtaga intiladi. Surishtirsam, mashhur sayyohlar Vlasov bilan Petrov degan odamlar kelishgan ekanu, kishilar o'shalar bilan ko'rishish, qo'llarini siqib so'rashish umidida bir-birlarini urib-surib o'rtaga intilayotgan ekan.

Nihoyat, ikki sayyoh, odamlar to'dasidan ajrab mehmonxona tomon yura boshladilar. 24-xonaga kirib, dam olishmoqchi shekilli, yechinib, yumshoq ko'rpalar, paryostiqlar to'shalgan karavotlarga cho'zilishdi.

Qalpoqni kiyib sekin huzuriga kirib bordim-da:

— Salom, amakilar, — deb qo'ydim. Vlasov amaki u yoq-bu yoqqa qarab:

— Gapirdingizmi? — deb so'radi sherigidan.

— Yo'q, qorning qulduragandir, — deb kuldi Petrov amaki.

— Gapirgan menman! — dedim yana. Ikkovlari ham yotgan o'rinlaridan turib, yelkalarini qisganча bir-birlariga tikilib qolishdi.

— Sen kimsan, o'zi? — so'radi biri.

— Men mashhur o'zbek sehgari Hoshimjon Ro'zi bo'laman.

— Qanday qilib sehrgar bo'lding?

— Bo'ldim-da...

— Mumkinmi, sirlaringdan biz ham xabardor bo'lsak? Zora Janubiy Afrika o'rmonlaridagi yirtqich hayvonlar bilan olishayotganimizda sehrgarlik qo'l kelib qolsa.

Rostini aytsam, shu savolni kutib turgan edim, ha, ha, xuddi shu savolni. Bundan bir necha kun avval gazetada bu ikki sayyoh haqida maqola o'qiganimda ularga havasim kelganidan ko'zlarim chaqnab ketgandi. O'shalardek



qo'rqmas, o'shalardek jasur sayyoh bo'lishni orzu qilib ko'nglimga tugib qo'ygandim. Jahonda bular bormagan mamlakat qolmagan, ular bosib o'tgan yo'l shunchalik uzunki, bir olim hisoblab chiqaman deb, aqldan ozib qolgan. Ular o'z ko'rgan-bilganlari haqida shunaqangi ko'p kitoblar yozishganki, o'qib chiqish uchun naq o'n besh yil kerak bo'ladi. Ular tezoqar tog' daryolaridan quloch otib suzib o'tishgan, dengizlarda sovuq bo'ronlarda qolishgan, Afrika o'rmonlarida yirtqich sherlar bilan yakkama-yakka olishganlar, yovvoyi odamlar bilan bir ko'rpada uxlab qolgan paytlari bo'lgan. Har bittasi o'n metrdan keladigan bo'g'ma ilonlar bilan omonsiz janglar bo'lgan, ha, ha, bular chakana bo'lmaydi, minglab gazetalarda rasmlarim bosiladi, nomim tillarda doston bo'ladi. Shoirlik esa... turgan-bitgani mehnat, mashaqqat, uyqusiz tunlar ekan, kerak emas, nima qilaman boshimni qotirib. Yaxshisi, sayyoh bo'laman, Magellanga o'xshab yovvoyi odamlar bilan qilich yalang'ochlab jangga tushaman, nayzavozlik qilaman. Robinzon Kruzoga o'xshab orollarda hayot kechiraman, yovvoyi hayvonlarni o'rgataman.

— Agar meni o'z'laringga sherik qilib olsalaring,— dedim bir oz jimlikdan so'ng, — sehrimdan sizlarni xabardor qilaman, qalpoq uchovimizniki bo'ladi.

— Bajonu dil, — dedi Vlasov amaki, — lekin buning uchun ba'zi bir tayyorgarlikdan o'tish kerak-ku, o'rtoq Hoshimjon Ro'zi?

— Bajonu dil, — dedim men ham.

— Avvalo geografiyani yaxshi bilish kerak.

— Men uni suv qilib ichib yuborganman.

— Juda soz. Ruxsat bersangiz, ba'zi bir savollarim bor.

— Marhamat.

— Qani, mana bu kartaga yaqinroq kelib, dunyodagi eng kichik ko'lni ko'rsatib bering-chi.

Kartaga shuncha tikilsam-da, hech qanday ko'l topolmadim. Shundan so'ng boshimni ko'tarib:

— Bu yerda ko'l yo'q, qurib qolganga o'xshaydi, — deb qo'ya qoldim.

— Ehtimol. Qani ayting-chi, dunyodagi eng katta ko'lining nomi nima?

— Xotiram yomon, nomlarini esimda olib qololmayman, — dedim shoshib-pishib.

— Shundaymi? Geografiyani suv qilib ichib yuborganman devdilar-ku? — so'radi Petrov amaki kulimsirab.

— Geografiyani yaxshi bilamanu, kartaga tikilsam ko'zim jimirlashib ketadi-da, — deb tushuntirdim.

Vlasov amaki o'rmidan turib yengilroq kiyindi-da, stolga joylashib o'tirib oldi, ketma-ket savollar bera boshladi. Men ham o'ylab-netib o'tirmasdan shartta-shartta javob qaytaraverdim.

— Bo'lmasa, marhamat qilib aytsinlarchi, Afrika qit'asida necha xil xalq yashaydi?

— Hali aytdim-ku, xotiram yomon deb, esimdan chiqib qolgan.

— Hammasini esdan chiqara berish yaxshi emas, — norozi bo'lib dedi Vlasov amaki, — bo'lmasa boshqa savol beraman. Aytsinlar-chi, siz bilan biz yashab turgan Yer necha yoshga kirgan?

— Tilimning uchida turibdi-yu, aytolmayapman.

— Arabistondagi eng katta cho'lining nomi nima?

— Hali u tomonlarga borganim yo'q.

— Janubiy Amerika o'rmonlarida yashaydigan eng katta qushning nomini aytib berolmaydilar-mi?

— Yo'q, aytib berolmayman.

— Indoneziyada necha orol borligini so'rasam, janobi shehrgarni xafa qilib qo'ymaymanmi?

— Xafa bo'laman, boshqasini so'rang.

— Dunyodagi eng baland sharshara qaysi mamlakatga joylashganligini so'ramoqchi edim?

— Iy-e, amaki, siz aytganlar hammasi rebus-ku. Mendan geografiya to'g'risida so'rang-da.

— Marhamat, boshqasini so'rashim mumkin. Qani, aytsinlar-chi, Atlantik okeanining eng chuqur joyi necha metr?

- O'lchab ko'rganim yo'q.
  - Yer yuzida qancha aholi yashaydi?
  - Yuz million — dedim nihoyat achchig'im chiqib.
  - O'h-ho', janobi sehrigar, yer yuzi aholisining qolganlarini nima qildingiz, yo allaqachon oyga ko'chirib yubordingizmi?
  - Ha, oyga ko'chirib yubordim.
  - Hurmatli Hoshimjon Ro'zi, geografiya ilmidan xabaringiz yo'qqa o'xshaydi-ku? — deb so'radi halidan buyon karavotda chalqancha yotib savol-javoblarimizni mazza qilib eshitayotgan Petrov amaki.
  - Ilmim bo'lmasa ham, hamroh qilib olaveringlar,— deb turib oldim, — bir kun nafim tegib qolar axir.
  - Ilmsiz hamrohning keragi yo'q! — dedi sayyohlardan biri.
  - Nega endi kerak bo'lmas ekan?
  - Chunki mashinamizga ortiqcha yuk bo'ladi. Sizing o'rningizga O'rta Osiyo tog'larida yashaydigan yovvoyi qo'ylarning terisidan olib ketsak... o'sha foydaliroq.
  - Hech bo'lmasa choy-poy qaynatib berib turarman,— dedim shashtimdan tushib.
  - Iltifotingiz uchun tashakkur! Shunday qilib sehringizni bizga aytmaysizmi?
  - Afsuski, aytolmayman.
  - Bo'lmasa, xayr.
- Ikkovlari bilan do'stona xayrlashib uncha xafa ham bo'lmasdan, uncha xursand ham bo'lmasdan, har qancha iltimos qilsalar ham sehrimni aytmay, yuzimni ko'rsatmay tashqariga chiqib ketdim.
- Xayr, amakilar! — deb qichqirdim koridordan turib.
- Ko'chaga chiqib to'yib-to'yib nafas oldim. Savol javob mahalida terga tushib ketgan ekanman. Ro'molchamni chiqarib yuz-boshimni artdim. Keyin «Sholikor» stadioni tomon yo'l oldim. Aytgandek, Sizga aytaman deb butunlay yodimdan chiqib qolipti. Shaharga kelganimdan buyon tez-tez futbolchilar bilan uchrashadigan odat chiqarganman.

Avvallari ham bu o'yinni jonu dilimdan yaxshi ko'rardim. O'zimizning maktabdagi komandaning kapitani edim. Bu yerda futbolchilar shunaqangi ko'p ekanki, o'yinlar shunaqangi tez-tez bo'lib turar ekanki, gohida qaysi biriga borishni bilmay boshim qotib qoladi.

Shunday qilib «Sholikor» stadioni tomon sekin yo'l oldim. Borsam, allaqachon odam hech yoqqa sig'may ketibdi. Ammo o'yin hali boshlangancha yo'q. Birinchi qatordagi hukumat arboblari uchun ajratilgan yumshoq o'rinlardan biriga o'tirmoqchi edim, qarasam darvozaning shundoqqina yonidagi haligi dublyorlar o'tiradigan uzun skameyka bo'sh, o'sha yoqqa o'tib keta qoldim. O'yin ishqibozlarining bahslashuvi baralla eshutilib turibdi.

— Menimcha, bugun «Sholikor» yutadi.

— Tunovgi o'yini bo'lsa, ikki dunyoda ham yutolmaydi.

— Vilgelm Qodirovning o'yinlari juda susayib ketgan-da.

— Bo'lmagan gap, to'pni uzoqqa aniq tepishda uning oldiga tushadigani yo'q.

— Teodor Rahimovich, ishqilib bugun chiqsinda.

— Hammasi chiqmasa ham, Gennadiy Supanitskiy chiqsa bas.

Xullas, ana shunga o'xshash bahslar hech to'xtamas edi. O'yin boshlanishi bilan mehmonlar darhol hujumga o'tishdida, komandamizni dog'da qoldirib, darvozamizga boplab to'p urib qo'yishdi. Shundan keyin o'yin demagani shunaqangi qizib ketdiki, shunaqangi qizib ketdiki, agar menga o'xshab yaqinroqdan ko'rsangiz, hayratdan og'zingiz ochilib qolgan bo'lardi. Qasam ich desangiz, qasam ichib aytamanki, bunaqangi shiddatkor o'yinni ilgari hech ko'rmagandim. Mehmonlarning himoyachisi juda zo'r ekan, hujumchilarimizning qilgan harakatlari befoyda ketaverdi. O'n minut chamasi to'p qo'ldan-qo'lga o'tib turdi-da, nihoyat mehmonlar uni ustalik bilan olg'a surib ketishdi. Chap qanot himoyachisi olisdan turib o'ng qanot himoyachisiga uzatdi. U bo'lsa to'pni havolatib, markaziy

hujumchiga oshirdi. Markaziy hujumchi umuman bizning yigitlarga qaraganda chaqqonroq ekan, kuchli bir zarb bilan bu to'pni ham eson-omon to'rga joylab qo'ydi. Ishqibozlar betoqat bo'lib:

— Gennadiy, jon koyitib o'ynasang-chi!

— Teodor, g'ozga o'xshab lapanglab yuraverasanmi!

— Yoqubov, eplasang maydonga chiqqin-da, sharmanda qilding-ku! — deya har tomondan qichqirib, hushtaklar chala boshlashdi. Mehmonlarning to'pni uzatish san'ati biznikiga qaraganda qittak bo'lsa ham yuqori ekan. Buni men uchinchi to'pni kiritganlarida payqab qoldim.

Tomoshabinlarning hafsalasi pir bo'ldi, ko'plar o'rinlaridan turib, qo'llarini umidsiz siltaganlaricha asta-sekin jo'nab qolishdi. «Sholikor»ning yutqizishi aniq, bo'lib qolgan edi. Agar yutqazsa, o'z-o'zidan to'rtlikdan tushib qoladi. E-voh, qancha mehnat qilishgan edi-ya, attang! Qanday qilib qalpoqni boshimga kiyib maydonga tushib ketganimni o'zim ham bilmay qolibman. Hali shoshmay turinglar, hurmatli mehmonlar. Biz sizlarga osonlikcha yutqazib qo'ymaymiz, «Sholikor»ning kimligini ko'rsatib qo'yamiz, bu yerda sal kam yuz ming tomoshabin bekorga o'tirganimiz yo'q. O'z komandamizni g'alaba bilan tabriklash uchun kelganimiz, ha, ha, shoshmay tursinlar hali!

Maydonga tushdimu, to'pni qo'ltig'imga qisib mehmonlarning darvozasi tomon tashlandim. Odamlarning nazarida to'p havoda ilon izi yasab, o'yinchilarga chap berib, uchib borayotgandek, aslida esa uni men ko'tarib boryapman. Orqamdan halloslagancha Gennadiy kelardi. Darvozaga yigirma metr chamasi qolganda to'pni sekin qo'yib yubordim... Oh, Gennadiyning, o'zimizning Genkaning zarbini bir tomosha qilsangiz edi, bir tomosha qilsangiz edi...

Stadionda qiyqiriq, ura, yashasin Supanitskiy degan sadolar yangradi. Odamlar jonlanib ketdi, hammasining kayfiyati ko'tarildi. Xuddi shu paytda, yangrab turgan qiyqiriq sadolari ostida men yana bir ustalik ishlatdim.

Mehmonlarning darvozaboni to'pni yerga qo'yib kuchliroq zarb bilan tepish maqsadida orqaga tisarilgan edi, yugurib borib to'pni ilib oldim-da, shu atrofda o'ralashib yurgan Yoqubovning oyog'iga tashladim.

— Udar!!! — deb qichqirdi odamlar. Chindan ham kuchli zarb bo'ldi. Mehmonlarning darvozaboni to'pni ilib olmoqchi bo'lib ikki qo'lini olg'a cho'zganicha qiyalab sakragan edi, to'pga yetolmadi-yu, ammo o'zi xuddi suvga sakragan baqadek shaloplab yerga yiqildi.

Afsuski, gapga uncha chechan emasman. Bo'lmasa Sizga bu yerdagi shodlik-xurramlikni, quloqlarni qomatga keltiruvchi baxtiyor qiyqiriqlarni, osmonga minut sayin uchirilayotgan to'p-to'p kaptarlar — hamma-hammasini ta'riflab bergan bo'lardim.

Shu paytda, negadir men o'zimni juda g'alati his qila boshladim. Axir men o'z xalqimga, ko'rib turganingizdek, shodlik, quvonchlar keltirdim-ku! Ahmoq bo'lib qayoqdagi ishlarni orzu qilib yuribman-a, o'zimni ham, o'zgalarni ham qiynab yurgan ekanman. Demak, mening o'rnim mana shu yerda, stadionda ekan. Xuddi shu yerda, ustiga ajriq qoplangan shu yumshoq maydonchada men foydali kishi bo'la olar ekanman. Bir umr futbolchi bo'lib qolganim bo'lsin. Eshityapsizmi, hurmatli Otajon Azizovich, Siz ham qadrdon o'qituvchim Qobilov, bilib qo'ying, men futbol olamida shuhrat qozonmoqchiman...

Belni mahkam bog'lab yana ishga kirishib ketdim. Zum o'tmay to'pni yana ilib oldimu, sakkiz yil futbol o'ynab, sakkiz yil muttasil yugurib, darvozaga bironta ham to'p kiritgan olmagan Akmal Lazizxo'jayevning oyoqlari ostiga tashladim. To'p kiritishning gashtini bu bechora ham bir surib ko'rsin dedim-da. Shundan keyin komandamizning o'n bir o'yinchisiga ikkitadan, chapdastrog'iga uchtadan to'p tashlab berdim. Hisob bizning foydamizga 24—3 bo'lgan edi. O'yin asosan mehmonlar darvozasi oldida bo'ldi. Bizning darvozabonimiz Yura Kukuruznikov zerikkanidan dublyordagi bir yigitni chaqirib, ko'k choy ichishib, shaxmat

o'ynab o'tirishaverdi. Stadion esa hamon buloqdek qaynab, bo'ronda qolgan dengizdek to'qlinlanardi.

Vaqt ham, baxtsizlik ham oyoq ostidan chiqadi deganlari to'ppa-to'g'ri ekan. Agar so'nggi to'pni qo'ltig'imga qisishim boshimga ne-ne kulfatlar solib, bir umr meni futboldan judo qilishini bilganimda, zinhor uni qo'limga olmagan bo'lardim, bir chekkaga chiqib o'yinning qolgan o'n besh minutini maza qilib tomosha qilgan bo'lardim.

O'zimizning maydonga o'tib ketgan to'pni chaqqonlik bilan ushlab, g'izillaganimcha mehmonlar darvozasiga qarab ketayotgan edim, shu payt chap tomonimdan qarshi tomonning himoyachisi o'qdek otilib chiqdi-da, to'pni osmonga tepib qaytarmoqchi bo'ldi shekilli, kuchli zarb bilan chap biqinimga tepdi. Shilqillab yerga tushdim. O'shanda ham qaysarlik qilib to'pni qo'yib yubormagan ekanman, boshqa biri kelib yelkam aralash tepganini sal-pal eslayman... Keyin nima bo'lganini bilmayman, xushdan ketib qolibman...

Bir mahal ko'zimni ochsam, janub tomondan zar kokillarini tarab qo'yosh ko'tarilib kelyapti. Nariroqda ikkita kampir, bir qo'lida chelak, bir qo'lida uzun sopli supurgi, gangur-gangur gaplashib atrofni supurish bilan ovora.

— Qo'shni, kechagi o'yinda ko'rinmadingizmi? — deb so'radi novcha kampir.

— Kecha cholim belimga kepak qizdirib bosasan, deb o'yinga chiqarmadi, — tushuntirdi pakana kampir, — siz-chi, qo'shni? Siz chiqdingizmi?

— Kechagi o'yinni ko'rmabsiz, dunyoga kelmabsiz, qo'shni. Voy, bunaqangi o'yinni, tavba qildim-ku, xudoyi taoloning o'zi ham hali ko'rmagan bo'lsa kerak. Sizga yolg'on, menga chin, hoy qo'shni, qiyqiriqdan mana shu stadion naq yorilib ketay dedi-ya.

— Nima bo'ldi o'zi, qo'shni, tezroq aytsangiz-chi.

— Biznikilar mehmonlar darvozasiga 25 ta to'p kiritishdi-ya. Eng qizig'i o'yinning oxirida bo'ldi. Mehmonlar

o'yin tugashi bilan yugurib kelib darvozabonlarini qo'llariga ko'tarib, osmonlarga otishdi. Nega unday qilaszlar deb so'rasha: «Agar shu hushyor bo'lmaganda, darvozamizga ellikta to'p kirishi hech gap emas edi, balli shunga!» — deyishadi deng. Shunday qilib deng, qo'shni, darvozabonlarini ko'tar-ko'tar qilib e'zoz-ehtirom bilan olib chiqib ketishdi. Bo'ldi kulgi, bo'ldi qiyqiriq. Kampirlarning gapiga quloq solib yotib, u yoq-bu yog'imni paypaslab ko'rdim. Ikkita qovurg'am qattiq shikastlangan, belim chiqib ketibdi, aftidan, hushsiz bo'lib yiqilganimdan so'ng ustimdan u yoq-bu yoqqa rosa yugurib o'tishganga o'xshaydi — boshim yorilgan, tizzamning ko'zidan haligacha qon oqib yotibdi. Ne-ne mashaqqatlar bilan boshimdagi qalpoqchamni olib maykam ichidan osib olgan xaltaga joyladim-da:

— Xolajon! — deya ingradim. Kampirlar darhol boshimga yugurib kelishdi.

— Voy, bolaginam, qayoqdan paydo bo'la qolding? — so'radi novchasi.

— Shu yerda edim.

— Voy o'lay, qo'shni, bola bechoraning hammayog'i qonku! Qani, o'ningdan tur-chi, o'g'lim.

— Turolmayman, belim chiqib ketgan.

— Voy, sho'rim! Hoy, qo'shni, yuguring, iskara pomsh chaqiring! Bolam bechora-ey! — der edi tinmay novcha kampir, — kimning o'g'lisan o'zi?

— Musofirman, xolajon. Hech kimim yo'q.

— Onaginang aylansin! — dedi kampir yana boshimdan silab, — kechasi bezorilarning qo'lga tushibsanda.

Yigirma minutilardan so'ng meni o'lik tashiydigan usti berk mashinada kasalxonaga olib ketishdi. Yonimda dag'al qo'llari bilan boshlarimni silab, ko'zlarimga termilib novcha kampir borardi.



## INJENERMAN, INJENER

Ikki oydirki, mana kasalxonada yotibman. Karavotim shundoqqina oynaning tagida, bor-yo'g'i ikki kishimiz. Eshikning oldida, kiraverishdagi o'rinda Said aka yotadi, juda qiziqchi odam. Kuldirgani-kuldirgan. Qurilishda ishlarkan, o'zi Mehnat Qahramoni, ammo yulduzini hecham taqmaydi. Agar o'shanaqangi yulduz menda bo'lganda jonjon deb xalbatimning ustidan taqib olgan bo'lardim. Ishxonasida ham obro'yi zo'r bo'lsa kerak, uni ko'rgani nuqul shoirlarga o'xshab movut shlyapa kiygan, qorni katta odamlar keladi. Birovi tovuq pishirib keladi, birovi uzum, olma tashlab ketadi, gul ko'tarib kelganlari ham ko'p. Pishirilgan tovuq kelgan kuni, Said aka qanaqa bo'layotganini bilmayman-ku, ammo men ich-ichimdan sevinib ketaman. Nega desangiz, Said aka parranda go'shtini uncha xushlamas ekan, nuqul menga uzatadi.

Uni ko'rgani hamma keladi, jag'i-jag'iga tegmay gapiradigan xotini, ko'zi menga tushishi bilan qo'rqqanday yig'lab qochadigan Hasan-Husan ismli o'g'illari, birga ishlaydigan yor-birodarlari — ishqilib yonidan odam arimaydi. Hasan bilan Husan menga Jirafa deb nom qo'yishgan. Kasalxonaga tushgan kunimning ertasiga bunday qaragam, meni yosh bolalarga qo'shib qo'yishibdi. Biri yig'laydi, biri to'polon ko'taradi. Na uyquda orom boru, na mundoq bir maza qilib, tinchgina dard tortasan.

Kattalar xonasiga o'tmoqchi bo'lib:

— Qalpoqcham, qalpoqcham, bo'yimga bo'y qo'shib ber,— deya iltimos qildim.

— Beling gipsda-ku, qanday qilib qo'shaman, — deydi qalpoqcham.

-- Bir ilojini qil.

— Bo'ying cho'zilib ketadi-da.

— Mayli.

Bir mahal bundoq qarasam, bo'ynim uch qarichgacha cho'zilib ketibdi, boshimni ko'targan edim — Afrika o'rmonlarida yashaydigan jirafaning xuddi o'zginasi bo'lib qolibman.

O'sha kuni kechasi Said akaning yoniga olib o'tishdi. Shu yo'sin ikkovimiz hamxona bo'lib qoldik. Undan hol-ahvol so'ragani, hali aytganimdek hamma keladi, mening esa yo'qlaydigan kishim yo'q. Kun bo'yi yetimchadek ko'zimni mo'ltillatib eshik poylayman. So'roqlab orqamdan hech kim kelmasligini bilamanu, shunday bo'lsa ham allakimning kelishidan umidvorman. Oh, hozir singillarim bo'larmidi! Akajonim, Sizga nima bo'ldi deb kechalari boshimda o'tirib chiqishmasmidi, zirqirab og'riyotgan oyoqlarimni bittadan bo'lib olib uqalashmasmidi? Oyijonim-chi, meni shu ahvolda ko'rib, bilaman, avval jig'ibiyroni chiqib bir urishardi-da, keyin isitmasi lovillab turgan peshonamdan o'pard, sochlarimdan silardi. Mana kech ham kirib qoldi. Hozir oyijonim povillatib sigir sog'yapti. Bir nafasdan so'ng cho'tir yuzli shofyor mashinasini haydab, bidonlarni qaltiratib keladi-da, sutlarni olib rayonga jo'naydi. Oyim hovliqib uyga keladi, atrofga qarasaki, men yo'q, hamon qaytmaganman. Yig'lay-yig'lay mangalkaga o't yoqadi. Ko'cha eshik oldida mototsikl ovozi eshitilgandek bo'ladi. Bu — dadam albatta!

— Dadajon, dadajonim! — deb qichqirib yubordim. Said aka xayol surib o'tirgan ekan, bir cho'chib tushdi.

— Iye, kuyov bola, nega yig'layapsiz?

— Yig'laganim yo'q, shunchaki o'zim mashq qilyapman.

— Iye, yig'ining ham mashqi bo'larmikan?

— Bo'ladi-da.

Yana ikkimiz ham jim bo'lib qolamiz. Men derazaga tikilib qushchalarning sayrashini, daraxtdan-daraxtga sakrab o'tishlarini tomosha qilaman. Oshxonaning mo'risidan buralib-buralib qora tutun chiqyapti, hu nariroqda, osmoni falakda ortidan ko'k chiziq qoldirib, kumush qanotlarini yaltiratib samolyot uchib boryapti.

Qayoqdan kelayotgan ekan, ehtimol qishlog'imiz tepasidan uchib o'tgandir.

— Shunday qilib, kuyov bola, injenerman, deng? — sekin so'raydi Said aka.

Said akaning mashhur quruvchi ekanligini eshitib, zora o'sha atrofda biron shuhrati tezroq chiqadigan, kattaroq ish topilib qolsa degan umidda o'zinni quruvchi injener qilib tanitgan edim.

— Ha, injenerman, — deb qo'yaman.

— Institutni bu yil bitirdingizmi?

— Ha, bu yil bitirganman.

— Hammasi bo'lib bir hafta ishladingiz xolosmi?

— Ha, bir hafta.

— Qurilishda, uka, ehtiyot bo'lish kerak.

— Nimasini aytasiz, — deyman yengil uh tortib, — o'zim qurayotgan uyning u yoq-bu yog'ini ko'ray deb tomiga chiqqan edim, oyog'im toyib ketdi-da.

— Lekin, uka, kollektivimiz menga ma'qul bo'lmadi. Ikki oydan buyon loaqal bittasi holing ne kechdi, deb so'rab kelmadi-ya! Bunaqangi kollektivning boridan yo'g'i.

— Shuning uchun ham o'sha yerdan ketmoqchiman-da.

— Xo'p desangiz, mana bizga boring, quruvchi injener anqoning urug'i bo'lib turibdi hozir. Boring, birgalashib ishlaymiz, bilmaganimizni bir-birimizga o'rgatamiz.

— Borib kimga uchrashamiz? — deb so'rayman gap orasida.

— Xo'p desangiz, birgalashib boramiz, o'zim o'rtada turaman. Bosh injenerimiz yoshlarni joni dilidan yaxshi ko'radi.

Oltmish to'rt kun deganda Said akaning tosh tushib majaqlangan oyog'i tuzalib, qo'ltiqtayoqsiz, hech kimning ko'magisiz bir o'zi yurib chiqib ketdi. Uy adresini qoldirib, tez-tez kelib holimdan xabar olib turishga va'da ham berdi.

— Tezroq chiqishning payidan bo'lavering, — dedi u xayrlashayotganda. — Siz bilan bizga bu yerda yotaverish

yarashmas ekan. Ish masalasida esa ko'nglingiz tinch bo'lsin, o'zim gaplashib qo'yaman.

Said akaning o'rniga uzoqdan qarasangiz samovarga o'xshab ko'rinadigan qo'l-oyog'i kalta, xo'ppa semiz bir odamni yotqizishdi. Juda uyquchi ekan, faqat ovqat mahalida uyg'onadi. O'shanda ham bir ko'zi paqqos uyquda bo'ladi. Buning ustiga shunaqangi xurрак tortadiki, rang-barang ovozlarni shunaqangi ko'p chiqaradiki, diqqat bilan quloq solsang, xuddi ichida orkestr chalinayotganga o'xshaydi. Bir qarasangiz, bo'g'izlangan qo'ydek xirillab qoladi, bir qarasangiz, buzuq karnay chalayotganga o'xshaydi, ba'zan eski parovozdek pishillagan ovozlari chiqaradi, tongotarga yaqin surnay, doira sadolariga o'xshash g'alati ovozlari yangraydi. Gohida qo'rqib ketib, beixtiyor hamshirani chaqirib yuborganimni o'zim ham bilmay qolaman.

Baxtimdan o'rgilayki, xo'ppa semiz amaki bilan uzoq turmadik. Said aka ketgach, o'n kun deganda meni ham chiqaradigan bo'lib qolishdi. Bechora Said aka menga boshdan-oyoq yangi sarpo qilib, o'z «Volga»sini haydab kelibdi. Mendan qo'rqib qochadigan o'g'illari bir dastadan gul ko'tarib olishgan.

— Iye, amaki bo'yingizning qolgani qani? — deb so'radi Hasan.

— Voy, amaki, tag'in siz boshqa odam bo'lmang? — so'radi Husan.

Gipsdan chiqishim bilan qalpoqchamga yolvorib bo'yim bilan oyog'imni bir oz qisqartirib belimga bel qo'shib, asli odam holiga kelib olgan edim.

— Yo'q, men o'sha Hoshimjonman, — tushuntirdim bolalarga, — faqat dard tortaverganimdan bo'yim cho'zilib ketgan edi-da.

Said akaning «Volga»sida jimgina boryapmiz. U rulda o'tirgani uchun yuzi ko'rinmaydi, nima to'g'risida o'ylaganini bilolmayman. Hasan bilan Husan yo'l bo'yi dadasi qurgan imoratlarni sanab boryapti. Men bo'lsam Said

aka, uning menga ko'rsatgan cheksiz mehribonliklari borasida o'ylayman. Kasalxonadaligimda ovqatimdan xabardor bo'lib turdi, yaxshi gaplar aytib ko'nglimni ko'tardi. Mana bugun kiyim-bosh qilib kepti, uyiga olib ketyapti, ishga joylab qo'ymoqchi. Bu o'zi qanaqa odam, nega bunchalik saxiy, o'ylab o'yinga yetolmayman. Katta bo'lsam, deyman, o'zimga-o'zim, men ham odamlarga yaxshiliklar qilaman, kasalxonada yotganlardan ko'ngil so'rab turaman...

Said akalarning uyi shaharning bir chekkasida ekan. Uchastka yangi qurilganga o'xshaydi. Ko'cha tomoni hali suvalmagan. Darvozaga bo'r bilan «Hasan-Husan» deb yozib qo'yishibdi. Ichkariga kirishim bilan og'zim ochilib qoldi. Xoh ishonang, xoh ishonmang, ixtiyor o'zingizda, ammo-lekin men bunaqangi dang'illama uchastkani haligacha ko'rgan emasman. Hatto kolxozimizning raisi Nosir akaning uyi ham buning oldida ip esholmaydi. Bu yerda hamma narsa mexanizatsiyalashgan: priyomnik, televizor, telefon, xolodilnik, kir yuvadigan mashina, gaz qozon, narigi uy bilan berigi uy o'rtasida ham telefon aloqalari o'rnatilgan. Hatto, umivalnikda ham knopka. Ko'k tugmani bossangiz sovuq suv keladi, sariq tugmani bossangiz qaynoq suv keladi. Ikkovini tengdan bosgan edim, ilimiliq suv jildirab tusha boshladi. Bularni ko'rib Said akaning xotini ham jindak mexanizatsiyalashgan bo'lsa kerak, deb o'ylab qo'ydim ichimda. Nega desangiz, Fotima kelinoyim bidirlab gapiraveradi-gapiraveradi, Said aka ko'zini sal olaytirib qo'ysa, to'satdan o'ti o'chib qolgandek taqa-taq to'xtaydi. Ko'zini chetga olishi bilan yana gapga tushib ketadi. Keyin bilsam, Fotima kelinoyim mexanizatsiyalashmagan ekanu, miyasi shamollab bechora shunaqangi kasalga chalinib qolgan ekan. Xonadonning erkato'y o'g'li bo'lib darmonga kirguncha shu yerda qolib ketdim. Bir-ikki marta stadionga ham borib keldim, albatta. Lekin ichiga kirishga yurak qurgur betlamadi. Nazarimda, o'sha kuni yegan tepkilarim bilan futbolga bo'lgan muhabbatim ham jindek lat yeganga

o'xshaydi. Bora-bora futbol desa ko'nglim ozib. o'qchiydigan bo'lib qoldim. Fotima kelinoyim Said akadan ham mehribon ekan: «O'g'lim, tezroq tuzaling», deb tuxumlar pishirib beradi deng, go'shtlar qovurib bergan kunlari ham ko'p bo'ldi. Tanijoni soppa-sog' yigitlardan emasmanmi, o'n besh kun deganda o'ziyam naq boquvdagi otdek gijinglab ketdim.

Bir yuzu ellik uchinchi qurilish trestining o'n to'rtinchi uchastkasiga injener etib tayinlandim. O'sha kunlarda yoshlardan zarbdor brigada tuzib, injenerni qayoqdan topsak ekan, deb boshlari qotib, garang bo'lib yurishgan ekan. Trestning bosh injeneri meni ko'rishi bilan:

— Qadamlariga hasanot azizim, — deb qo'llarimni qattiq qisdi. Bu gaplarga yaxshi tushunmasam ham odob yuzasidan biror narsa deyishim kerak-ku, degan o'y bilan lab-lunjimni endi yig'ishtirayotgan edim, bosh injener:

— Hojati yo'q, hojati yo'q, azizim, — deb qo'limni yana ham qattiqroq qisdi, — hamma gapni Said aka aytib berganlar. Biz uchun bu kishining har bir so'zi oltin. Faqat azizim Ro'ziyev, ishga qachon tushmoqchisiz? Shuni aysangiz bas.

— Ertadan tusha qolay.

— Muvaffaqiyat tilayman, azizim! — dedi bosh injener.

O'sha kuni qimmatli vaqtni qo'ldan boy bermaslik uchun biror tajriba o'rganarman, degan niyatda qurilish ob'ektlarini ko'zdan kechirib chiqdim. Hay-hay, bu yerda qurilishlar shunaqangi avj olganki, shunaqangi avj olganki, nazarimda shahar, besh-olti oydan buyon men darbadar bo'lib yurgan shu katta shahar ulkan qurilish maydonchasiga aylangan. Bir yoqda kinoteatr binosiga so'nggi pardoz berilyapti, bir yoqda shoshilib bolalar bog'chasi qurilyapti, turar-joy binolarining qavatlar shunaqangi ko'pki, tepasiga qarasang, do'pping tushadi. Bugun-erta shu atrofda men qurgan imoratlar ham qad ko'tarib, husnini ko'z-ko'zlab turadi. Ha, ha, albatta shunday bo'ladi. Ana undan keyin o'tgan-ketgan yo'lovchilar:

— Shoshmang, shoshmang — deydi sherigining yengidan tortib, — bu go‘zal imoratlarni kim qurgan?

— Iye, bilmaysizmi? — deydi boshqasi.

— Yo‘q, bilmayman.

— Bilmasangiz bilib qo‘ying. Bu imoratlarni Farg‘ona tomondan kelgan mashhur injener Hoshimjon Ro‘ziyev qurgan.

— E, bildim, bildim! Ana u algebra o‘qituvchisi Qobilov, sevimli direktor Otajon Azizovichlar bilan bas boylashib kelgan yigit bo‘lmasin tag‘in?

— Topdingiz, xuddi o‘sha.

— Barakalla Otasiga ming rahmat. Qarang-a, direktori o‘qimasang sendan injener chiqmaydi degandi. Chiqibdi-ku, barakalla...

Ana shunday shirin xayollarga berilib bir kunning o‘tganini sezmay qolibman. Ertasiga esa, hurmatli o‘rtoqlar, injenerlik faoliyatim qizigandan-qizib ketdi.

Yetmish kishidan iborat qurilish brigadasiga boshchilik qilishim kerak ekan. Bosh injener Olimjon Olimjonovich:

— Mana bu siz qurishingiz kerak bo‘lgan 71-uyning loyihasi, — dedi devoriy gazeta chiqaradigan qalin qog‘ozni qo‘limga berib, — mana bu esa, azim, genplan, qurilish ob‘ektingizni mana shularga qarab belgilab olaverasiz. Menga savolingiz yo‘qmi, azim?

— Tushunarli, azim, — dedim ikkinchi qog‘ozni ham uning qo‘lidan olib.

Olimjon Olimjonovich ketgach, qog‘ozlarning goh unisiga, goh bunisiga tikilib ancha vaqtgacha xunob bo‘lib o‘tirdim. Rostini aytsam «loyiha», «genplan» degan so‘zlarga hech tushunmayman. To‘g‘ri, qog‘ozlarda maydachuyda chiziq, hech tushunib bo‘lmaydigan katta-kichik belgilar to‘lib yotibdi. Lekin kallamni har qancha ishlatsamda, hech narsaga tushuna olmayapman. Shuning uchun ham qog‘ozlarga tikilganicha, uyat ish qilib qo‘ygan yosh boladek, lalayib o‘tiraverdim.

— O'rtoq injener, ishga qachon tushamiz? — so'radi ishchilardan biri.

— Hozir men loyihalarni bir o'rganib olay, — dedim sir boy bermay. Brigadaning hamma a'zosi, asosan, yoshlar. Oralarida qop-qora sochlarini qizil durrachalar bilan tang'ib olgan oy yuzli qizlar ham o'tiribdi. Shu payt boshimga ajoyib bir fikr keldi-yu, sevinganimdan qarsak chalib yuborayozdim.

— Ilgari qurilishda ishlaganlar bormi? — deb so'radim. O'n beshtasi tengdan qo'l ko'tardi. Sevinchimga sevinch qo'shildi. — Ish boshlashdan avval sizlardan imtihon olmoqchiman.

— Marhamat! — dedi yetmish kishi bir og'izdan.

— Qani ayting-chi, qo'limdagi qog'ozlarning qaysi biri loyiha-yu, qaysi biri genplan? — Shunday deb qog'ozlarni baland ko'tardim. Yonginamda o'tirgan jingalak sochli yigit.

— O'ng qo'lingizdagi loyiha, chap qo'lingizdagi genplan, — deb javob berdi.

— Molodes! Qani kim aytadi, qurilishning birinchi ishi nimadan boshlanadi?

— Fundamentning o'rnini qazishdan, — degan ovozlar eshitildi har tomondan.

— Fundamentning chuqurligi qancha bo'lishi kerak?

— Loyihada ko'rsatilganidek.

Shunga o'xshash savollarni ustma-ust beraverdim, shunga o'xshash javoblarni ham ketma-ket olaverdim. Bir mahal bunday qaragam, ancha-muncha narsadan xabardor bo'lib, aqlim to'lishib qolibdi. «Qani endi ishga, o'rtoqlar!» deb yubordim.

Lekin ish demaganning ham changini osmonga chiqarvordik-da, bir kun o'tar-o'tmas fundamentning o'rnini qazib qo'yibmiz-a. Qurilish ob'ektining shundoqqina yonginasiga brezentdan palatka tikib oldim. Yotish-turishim shu yerda. U yoq-bu yoqqa yugurib vaqtingiz ketmasin, deb telefon ham tushirib berishgan. Ba'zan Olimjon Olimjonovich:

— Alyo, bu kim? — deb qoladi.



— Shoshmang, shoshmang — deydi sherigining yengidan tortib, — bu go‘zal imoratlarni kim qurgan?

— Iye, bilmaysizmi? — deydi boshqasi.

— Yo‘q, bilmayman.

— Bilmasangiz bilib qo‘ying. Bu imoratlarni Farg‘ona tomondan kelgan mashhur injener Hoshimjon Ro‘ziyev qurgan.

— E, bildim, bildim! Ana u algebra o‘qituvchisi Qobilov, sevimli direktor Otajon Azizovichlar bilan bas boylashib kelgan yigit bo‘lmasin tag‘in?

— Topdingiz, xuddi o‘sha.

— Barakalla Otasiga ming rahmat. Qarang-a, direktori o‘qimasang sendan injener chiqmaydi degandi. Chiqibdi-ku, barakalla...

Ana shunday shirin xayollarga berilib bir kunning o‘tganini sezmay qolibman. Ertasiga esa, hurmatli o‘rtoqlar, injenerlik faoliyatim qizigandan-qizib ketdi.

Yetmish kishidan iborat qurilish brigadasiga boshchilik qilishim kerak ekan. Bosh injener Olimjon Olimjonovich:

— Mana bu siz qurishingiz kerak bo‘lgan 71-uyning loyihasi, — dedi devoriy gazeta chiqaradigan qalin qog‘ozni qo‘limga berib, — mana bu esa, azizim, genplan, qurilish ob‘ektingizni mana shularga qarab belgilab olaverasiz. Menga savolingiz yo‘qmi, azizim?

— Tushunarli, azizim, — dedim ikkinchi qog‘ozni ham uning qo‘lidan olib.

Olimjon Olimjonovich ketgach, qog‘ozlarning goh unisiga, goh bunisiga tikilib ancha vaqtgacha xunob bo‘lib o‘tirdim. Rostini aytsam «loyiha», «genplan» degan so‘zlarga hech tushunmayman. To‘g‘ri, qog‘ozlarda maydachuyda chiziqalar, hech tushunib bo‘lmaydigan katta-kichik belgilar to‘lib yotibdi. Lekin kallamni har qancha ishlatsamda, hech narsaga tushuna olmayapman. Shuning uchun ham qog‘ozlarga tikilganicha, uyat ish qilib qo‘ygan yosh boladek, lalayib o‘tiraverdim.

— O'rtoq injener, ishga qachon tushamiz? — so'radi ishchilardan biri.

— Hozir men loyihalarni bir o'rganib olay, — dedim sir boy bermay. Brigadaning hamma a'zosi, asosan, yoshlar. Oralarida qop-qora sochlarini qizil durrachalar bilan tang'ib olgan oy yuzli qizlar ham o'tiribdi. Shu payt boshimga ajoyib bir fikr keldi-yu, sevinganimdan qarsak chalib yuborayozdim.

— Ilgari qurilishda ishlaganlar bormi? — deb so'radim. O'n beshtasi tengdan qo'l ko'tardi. Sevinchimga sevinch qo'shildi. — Ish boshlashdan avval sizlardan imtihon olmoqchiman.

— Marhamat! — dedi yetmish kishi bir og'izdan.

— Qani ayting-chi, qo'limdagi qog'ozlarning qaysi biri loyiha-yu, qaysi biri genplan? — Shunday deb qog'ozlarni baland ko'tardim. Yonginamda o'tirgan jingalak sochli yigit.

— O'ng qo'lingizdagi loyiha, chap qo'lingizdagi genplan, — deb javob berdi.

— Molodes! Qani kim aytadi, qurilishning birinchi ishi nimadan boshlanadi?

— Fundamentning o'rnini qazishdan, — degan ovozlilar eshitildi har tomondan.

— Fundamentning chuqurligi qancha bo'lishi kerak?

— Loyihada ko'rsatilganidek.

Shunga o'xshash savollarni ustma-ust beraverdim, shunga o'xshash javoblarni ham ketma-ket olaverdim. Bir mahal bunday qarasam, ancha-muncha narsadan xabardor bo'lib, aqlim to'lishib qolibdi. «Qani endi ishga, o'rtoqlar!» deb yubordim.

Lekin ish demaganning ham changini osmonga chiqarvordik-da, bir kun o'tar-o'tmas fundamentning o'rnini qazib qo'yibmiz-a. Qurilish ob'ektining shundoqqina yonginasiga brezentdan palatka tikib oldim. Yotish-turishim shu yerda. U yoq-bu yoqqa yugurib vaqtingiz ketmasin, deb telefon ham tushirib berishgan. Ba'zan Olimjon Olimjonovich:

— Alyo, bu kim? — deb qoladi.

— Injener Hoshimjon Ro'ziyev, — deb qo'yaman.

— E, salom, azizim, ishlar qalay boryapti?

— Joyida!

— Taxminan necha protsent bajarildi?

— Yaqinda yuz bo'ladi!

— Barakalla, ofarin! — deydi Olimjon Olimjonovich. —

Shuning uchun ham yoshlarni yaxshi ko'raman-da, yoshlar

— olov qalblar, yoshlar — burgutlar, yoshlar, eh yoshligim!..

Lekin, azizim, bu yog'iga ham bo'sh kelmaymiz.

Yigirma bir kun deganda o'ttiz sakkiz kvartirali yetmish birinchi uy bitib foydalanishga topshirsa bo'laveradigan darajaga kelib qoldi. Oh, o'sha kungi mening quvonchimni aytsangiz. Sevinganimdan yuragim koptokdek o'ynab turibdi, yuguraman, yelaman, yuzlarimni o'zim bitkazgan uyning devorlariga surib: «Uyim, uyginam, ey men bitkazgan turar joylar!» — deb irg'ishlayman.

Qabul marosimi tantanaliroq o'tib, shuhratim Farg'ona tomonlarga ham borsin degan umidda juda ko'p tashkilotlarga qo'ng'iroq qildim, vakillar yuborishini so'radim. Ertasiga, o'zim kutgandek, hammayoqda shlyapa kiygan basaylat odamlar bosib ketdi. Shahar ijroiya komitetidan ko'zoynakli o'rtoq Qurbonov, gazetadan bo'yniga fotoapparat osgan novcha bo'yli o'rtoq Ibrohimov, trestimizning gapirganda «tak-tak» deb gapiradigan boshlig'i o'rtoq Malikov, militsiyadan jamiki militsionerlarning kattasi o'rtoq Toshmatov — hamma-hammalari yetib kelishdi.

— Boshladikmi? — dedi Olimjon Olimjonovich komissiya a'zolariga murojaat qilib.

— Ta-aak, boshladik! — dedi o'rtoq Malikov. Uchtadan-to'rttadan bo'lib uyning sifatini tekshirishga tushib ketishdi.

— iye, — dedi Olimjon Olimjonovich hayron bo'lib, — uyning kanalizatsiyasi qani?

— Qanaqa kanalizatsiya? — dedim rangi qutim o'chib.

— Rasvo qilibsiz-ku! — deb baqirdi bosh injener. Shu payt narigi tomondan ham komissiyaning bir gruppasi a'zosi hovliqqancha kelib qoldi.

— O'ртоqlar, uyni qabul qilolmaymiz, — dedi bittasi, — xonalarning hammasi qiyshiq.

— Nega endi qiyshiq bo'lar ekan? O'zingiz qiyshiq,— dedim jahlim chiqib. Ammo gapimni tugatmasimdan yuqoridan qahqaha ovozi eshitildi-yu, zinadan kula-kula odamlar tushib kela boshlashdi.

— O'ртоqlar, yangilik... — dedi oldingisi o'zini kulgidan arang tiyib, — tepasidagi xonalarning hech qaysisiga eshik ochilmagan, uylar bamisoli gugurt qutisiga o'xshaydi...

Bo'ldi kulgi, bo'ldi qahqaha. Qahqaha ovozlari bosilmasdan turib ko'cha tomondan ham komissiyaning ikki a'zosi entikib bir narsadan quruq qolayotgandek hovliqib kelib qolishdi.

— Bu uy bo'lmapti, ko'chaga ko'prik bo'lipti.

— Nima? — so'radi Gorispolkom vakili.

— Mana loyiha, ishonmasangiz o'zingiz tekshirib ko'ring. Uy ko'chaga ko'ndalang tushib qolgan, ha-ha ko'ndalang!

Yana gurillab kulgi ko'tarildi. Ammo bu galgi kulgida na quvonch, na shodlik, na taajjub bor edi. Unda olam-olam g'azab, olam-olam nafrat mujassam. Hammasi kulyapti. Mening ustimdan kulyapti. Shu g'azab, shu nafratning hammasi mening boshimga yog'ilyapti... Bir nafas avval o'zimda yo'q, shod edim, xursand edim, sevinchlarim bir dunyo edi... Endi-chi? Boshim egilgan, ko'zimdan miltillab yosh oqyapti, yig'layapman.

— Jinoyatchi! — dedi vakillardan biri.

— Brakchi! — dedi boshqasi qo'lini bigiz qilib.

— Qamash kerak! — deb o'shqirdi yuqori tashkilot vakili, — ushlang uni, o'ртоq Shermatov.

Sehrli qalpoqchamni sekin boshimga kiydimu, ko'zdan g'oyib bo'la qoldim. Qayoqqa boraman, endi qaysi dargohdan boshpana axtaraman?..

Albatta, Said akaning yoniga borishim, hamma gapni ochiq aytib menga shuncha yaxshilik qilgan, o'z dadamdek boshimni silagan bu mehribon odamdan yana maslahat so'rashim kerak. Qalpoqchamni olib avvalgi holimga,

oltinchi sinf o'quvchisi Hoshimjon Ro'ziyev holiga qaytdim-da, borib ko'k darvozali hovlining tugmachasini bosdim. Yo'l-yo'l pijama kiyib, hozirgina palov yegan bo'lsa kerak, tishini kovlab, yo'l-yo'lakay kekirib Said akaning o'zi chiqib keldi.

— Salom, — dedim ko'rishish uchun qo'limni cho'zib.

— Nima?

— Salom deyapman.

— Hasanning sen bilan o'ynagani vaqti yo'q, bor ishingni qil, — dedi Said aka meni tanimay.

— Men... men, meni tanimadingizmi? — dedim duduqlanib.

— Sen kimsan o'zi?

— Men Hoshimjonman, Hoshimjon Ro'ziyev.

— Bor ishingni qil. Bitta Hoshimjonning sharmanda qilib qochgani ham yetar. Endi sen bormiding. Bor, Hasan bugun o'ynamaydi...

Darvoza oldida uzoq, turib qoldim.

## VIII bob

### MANA, ARTIST HAM BO'LDIM

**Y**ana ish axtarib yuribman. Ko'nglimda xafagarchilikdan asar ham yo'q. Nega endi xafa bo'lar ekanman. Nima, imorat ko'chaga ko'ndalang tushib qolgan bo'lsa ayb mendami? O'zlaridan ko'rishsin, ajab bo'pti! Bundan keyin birovni ishga oladigan bo'lishsa surishtirib, ma'lumotini tekshirib, sehrgarmi-sehrgar emasmi, mana shuni ham aniqlab, keyin olishadi.

Shunday qilib yana ish axtarib yuribman. Bu shaharda ishga kirishdan osoni yo'q. Gazetalarning to'rtinchi betida katta-katta harflar bilan «Ishga taklif qilamiz» deb e'lonlar bosishadi. Undan keyin tramvay-trolleybuslarning ostanovkalaridagi simyog'ochlarga yopishtirilgan qog'ozlarga qarab ham qayerda qanaqa ish borligini bilib

olsa bo'ladi. Ana shunday qog'ozlarning birida: «Qo'g'irchoq teatriga artistlar kerak. Ishlashni xohlovchilar uy-joy bilan ta'minlanadi. Moyana ishbay asosida. Spravka olish uchun kunduz soat ikkiga qadar kadrlar bo'limiga murojaat qilish mumkin. Direksiya», deb yozilgan ekan. O'qiymanu, ko'zlarimga ishonmayman. Takror-takror o'qiyman, pichirlab, ovoz chiqarib o'qiyman. Nahotki, nahotki, shu rost bo'lsa! Nahotki, baxtim yana kulib boqqan bo'lsa! Ha, ha, men o'zi shunaqa baxti kulgan yigitman-da, ishim doim o'ngidan kelaveradi.

Bunday qaragam, tepamdagi soat o'n minuti kam ikki. O'qdek uchib ketdim. Tramvay-trolleybuslarni ortda qoldirib ketyapman, yengil mashinalarning ustidan xatlab o'taman. Chorrahada o'n tonnalik gruzovik yo'limga ko'ndalang bo'lib o'tgan edi, bu eshigidan kirib, narigi eshigidan chiqib ketdim. Odamlar hayron, militsionerlar churillatib hushtak chaladi. Shunday katta tezlik bilan boryapmanki, hay-hay, olimpiada chempioni Ivan Bolotnikov ko'rganda og'zi ochilib qolgan bo'lardi.

— Nima balo, jinni-pinni bo'lganmi, — deydi odamlar.

— Sportchi bo'lsa kerak.

— Sportchi emas, bezori. Ana qarang, militsioner hushtak chalyapti, — degan ovozlari eshitiladi.

Besh minuti kam ikkida to'ppa-to'g'ri direktorning eshigiga qora brezent mato qoplangan kabinetiga kirib bordim. To'g'ridagi kresloda yosh bola desam yosh bolaga, katta kishi desam katta kishiga o'xshaydigan bir odam o'tiribdi. Bo'yi mendan bir qarich past. Said akaning o'g'li Hasancha keladi... Kresloda o'tiribdi-yu, oyog'i yerga yetmaydi. Qop-qora soqoli ko'ksiga tushib turibdi. «Ishqilib, menga o'xshash selrgar bo'lmasin», deb qo'ydim ichimda. Shu payt devlarnikiga o'xshash yo'g'on ovoz bilan:

— Xizmat, yigitcha? — deb so'rab qoldi.

— Kechirasiz, menga direktor kerak, — dedim.

— Shahar qo'g'irchoq teatrining direktori men bo'laman.

— Haligi... men ish so'rab keluvdim.

— Qanaqa ish?

— Ishda. E'londa yozib qo'yibsizlar-ku, o'shanaqa ish.

Direktor oyoqlarini pitirlatib bir amallab kreslodan tushdi-da:

— Ukajon, bu teatr yoshlar teatri bo'lsa ham, tomoshalarimizni asosan yoshlar ko'rsa ham, — deb tushuntira boshladi, — bizda katta odamlar ishlaydi. Sizni ishga qabul qilolmayman. Siz hali yoshsiz. teatrshunoslik institutini ham bitirmagan ko'rinasiz. Artistlik oson ish emas. Unga talant, qobiliyat kerak. Artistlarimiz ko'proq hayvonlarning obrazlarida chiqishadi; payti bilan it bo'lib uvillashadi, lozim bo'lganda sigir bo'lib ma'rashadi, echki bo'lib tog'dan-toqqa sakrashadi.

— Men ham o'shalardek bo'la olaman. — deb oyog'imni tirab turib oldim. Direktor borib o'rniga o'tirdi-da, boshini bir tomonga hiyol solintirgancha o'ylanib ketdi. Keyin menga yuzlanib: «Qani, bir it bo'lib vovillang-chi» deb qo'yadi.

— Qanaqa it bo'lay?

— Masalan... nima desam ekan? Siz, xo'sh, aytaylik qari itsiz, kun bo'yi ko'chada, darvoza yonida yotasiz, o'tgan- ketgan bilan ishingiz yo'q. Hamma narsa joningizga tekkan. Faqat sizni tinch qo'yishsa bas. Lekin yosh bolalar sizga kun bermaydi: toshmi, baqlajondan bo'shagan konserva qutisinimi, otib turishadi. Qani uyg'oqmikin, deb juningizdan tortib ham ko'rishadi. Mana, bir yo'lovchi bexosdan etigining poshnasi bilan dumingizni bosib oldi. Qani ayting-chi, siz shunda qanday muomala qilasis?

Boshimni ko'tarib: «Irrrrrrrr» deyman-da, yotaveraman, — dedim shosha-pisha.

— Barakalla! — dedi direktor xursand bo'lib, — tarbiyalasam sizdan ajoyib it chiqdi.

Bir oy sinab ko'rish sharti bilan qo'g'irchoq teatriga qabul qilishdi. Moyana esa, e'londa ko'rsatilgandek, ishbay asosida. Endi hamma narsa o'zimga bog'liq bo'lib qolgan edi. Ertasiga teatrning bosh rejissyori Oqil Turg'unov bilan

uchrashdim. O'sha kunlari hayvonlar to'g'risidagi bir spektaklni sahnaga qo'yishayotgan ekan. Menga o'z-o'zidan it roli tegdi. O'sha kundan boshlab mashqlar ham qizib ketdi.

— Qani, ona it bo'lib bir vovillangchi, — deb iltimos qildi rejissyor. Vovillagan edim, ovozimning nimasidir u kishiga yoqmadi.

— Bo'lmaydi, — dedi boshini chayqab, ona it ovoqidagi mayinlikni berolmayapsiz. Qani, boshqatdan vovillang.

Yana vovilladim.

— Yo'q, — dedi rejissyor xafsalasi pir bo'lgandek qo'lini siltab, — nazarimda sizdan artist chiqmaydiganga o'xshaydi.

— Nega endi chiqmas ekan, chiqadi! — deb qaysarlik qilib turib oldim.

— Menga qarang, yigitcha, — kuyib-pishib gap boshladi Oqil Turg'unov, — teatrimiz xozraschyotga o'tgan. Agar spektakl sifatsiz o'tsa, tomoshabinlar qaytib teatrga tushmaydigan bo'lib ketadi. Spektaklni jonli, qiziqarli qiladigan esa siz bilan biz. Sahnada vovillaganingizda kishilar sizni Hoshimjon Ro'ziyev deb o'ylamasin, balki haqiqiy it deb o'ylasin. Tushunarlimi, yigitcha?

— Tushunarli.

— Boring, mashq qiling. Bir haftadan so'ng uchrashamiz.

Darhol shaharning chekkarog'idan xoliroq bir joyni kvartiraga oldimu, mashqni boshlab yubordim. Ko'cha eshik ustiga «Ehtiyot bo'ling, hovlida qopag'on it bor» deb yozib qo'yganman. Kunning birinchi yarmida onasini yo'qotib och qolgan kuchuk bolaga taqlid qilaman, ona it bo'lib bolalarimni erkalayman. Kunning ikkinchi yarmida esa, ayniqsa, kechalari haligi cho'ponlarda bo'ladigan bir xil katta itlar bo'ladi-ku, xuddi o'shalarga o'xshatib uvillayman.

Biror kasbni chin yurakdan sevib qolsang, uning mashaqqatlari jonga huzur bag'ishlarkan. Mashqlarga shunday berilib ketdimki, gohida kechalari ham uyqum kelmaydi deng. Shunday qilib desangiz bir hafta o'tar-o'tmas haqiqiy itning o'zi bo'ldim-qo'ydim. Endi ko'chalarda ham jim yurmayman. O'quvchi bolalarga qarab jo'rttaga irillab



qo'yaman. Bechoralar goho papkalarini uloqtirib qochib qolishadi...

Yo'q, uyqusiz o'tkazgan kunlarim bekorga ketmagan ekan. Rejissyorimiz vovillashimni eshitib, xuddi yoqimli muzika tinglagandek erib ketdi. Yelkamga qo'lini qo'yib:

— Mana endi haqiqiy artist bo'libsiz, — deb qo'ydi.

O'sha kundan boshlab oz-oz sahnaga ham chiqa boshladim. Kelishib olganimizdek ishim «izdelniy»: ya'ni bir marta «vov» deb qo'ysam ikki tiyin olaman, ikki martasiga to'rt tiyin. Ba'zida uch so'm-to'rt so'm ishlab qaytgan kunlarim ham bo'ladi. Cho'ntagingda puling ko'p bo'lsa tashvishlardan xoli bo'larkansan. Shu kunlarda qayg'u nima bilmayman, og'zimdanda ashula tushmaydi. Undan keyin har xil rejalar ham tuzaman. «Agar, — deyman o'zinga-o'zim, — shu yo'sin pul ishlab boraversam, o'ning oxirigacha to'plangan pulimga uyimizga sovg'a-salom qilib jo'natsam ham bo'ladi...»

Ammo rejalar tuzishga tuzdimu, amalga oshirishga kelganda ishni o'zim buzib qo'ydim. Teatrimizda Karim aka degan laylak uyaga o'xshatib soch qo'ygan, yurganda xuddi shamolda qolgan terakdek lapanglab yuradigan novcha bir artist bor. U doim birovlarining g'iybatini qilib yuradi. Men ham o'shaning dastidan qochgani joy topa olmay qoldim. Obro'yim kun sayin, balki soat sayin o'sib borayotganini ko'rib, mening sha'nimga har xil tuhmatlar yog'dira boshladi. Men emish, har kuni choyxonaga chiqib palovxo'rlik qilarmishman, undan keyin choyxonada o'tirib olib: «O'rtoqlar, teatrdagi narsalarning hammasi yolg'on, qalbaki. U yerda birorta tirik it ham, bironta tirik parranda ham yo'q. Hammasini menga o'xshagan artistlar o'ynaydi. Agar haqiqiy hayvonlarni tomosha qilaman desanglar, hayvonot bog'iga boringlar, ana u yerdagi hayvonlarni tomosha qilsa arziydi. Sizlarga maslahatim shu, pul to'lab qo'g'irchoq teatriga tushib yurmanglar», — degan emishman. Direktorimiz Sarvar Mira'zamov o'z kabinetiga chaqirib: «Hali shunaqami?» — deb so'radi.

— Nima, shunaqami? — so'radim men ham.

— Choyxonada nima deb laqilladingiz?

— Hech narsa deb laqillaganim yo‘q.

— Bo‘lmagan gap, siz teatrimizga qarshi propaganda yuritgansiz. Men sizni tarbiyalayman, odam qilaman, shu yilning o‘zidayoq teatrshunoslik institutiga kiritib qo‘yaman, deb yaxshi niyatlar bilan tarbiyamga olgan edim. Siz bo‘lsangiz sirlarimizni fosh qilyapsiz.

— Yolg‘on, men hech kimga hech narsa deganim yo‘q.

— Yolg‘onmi? — deb direktor Karim akani chaqirtirib keldi-da, uning o‘zidan so‘radi, — qani Karimjon, aytingchi, bu yigit choyxonada nima deb laqilladi?

— Og‘ziga nima kelsa shuni dedi-da. Hali sizga aytdim-ku, bu bola hammamizni sharmanda qildi, — deb yolg‘ondan tushuntirdi Karim aka.

Ikkovlari bir bo‘lgandan keyin mening gapim inobatga o‘tmay qo‘ya qoldi. Shunday qilib birovning tuhmati tufayli nomim yomon otliqqa chiqib qoldi. Direktor meni qattiq ogohlantirdi. Ikkinchi marta bu odatimni takrorlasam, teatrdan butunlay haydaladigan bo‘ldim. Tashqariga chiqqach:

— Bu nima qilganingiz? — so‘radim Karim akadan oyoq-qo‘lim qaltirab.

— Qarasam, shuhrating oshib ketyapti, direktorimiz oldida obro‘li, e‘tiborli bo‘lib qolyapsan. Shuning uchun popugingni sal silab qo‘ydim-da, ukajon! — dedi Karim aka meni mazax qilgandek qiqirlab kulib. O‘sha kundan boshlab bu odamni jinimdan battar yomon ko‘rib qoldim-u, xap senimi, deb ko‘nglinga ham tugib qo‘ydim.

Kechqurun navbatdagi spektakl o‘ynalishi kerak edi. Men keng yaylovlarda yosh cho‘pon bilan qo‘y boqaman, egamning ortidan dumimni solintirib, ba‘zan oyog‘iga boshimni surkab, erkalanib, ergashib yuraman. Qo‘ylar dam olgani yotganda cho‘pon ularning yoniga meni qorovul qilib qoldiradi-da, o‘zi ovul tomonga ketadi. Shu payt qayoqdandir tishlarini taqillatib och bo‘ri — Karim aka paydo bo‘lib qoladi. U yangi tug‘ilgan barra go‘shqli qo‘zichoq yoniga kelib:

— Seni hozir yeyman! — deb og'izlarini katta ochib, yirtqich tishlarini ko'rsatadi.

— Qoplonjon, yordam ber! — deb baqiradi qo'zichoq.

Shunda men, ya'ni qoplon, bo'ri, ya'ni Karim aka ikkimiz o'rtamizda omonsiz olishuv boshlanadi... Oxirida men bo'rini bo'g'ib o'ldirishim kerak.

Mana, spektakl ham boshlandi, zalga odam sig'maydi. Yosh cho'pon menga bir parcha go'sht berib, boshimni silab o'zi ovul tomonga jo'nab ketdi. Sahnada och bo'ri — Karim aka paydo bo'ldi.

— Qoplonjon, yordam ber! — deb qichqirdi qo'zichoq.

Bir sakrab o'rnimdan turdim-da, sehrli qalpoqchamni boshimga kiyib, och bo'riga tashlandim: betidan, qo'lidan, ko'krigidan — duch kelgan joyidan tishlayverdim. Bechora Karim aka qochgani joy topolmay qoldi.

— Qutqaringlar! — deb qichqirdi nihoyat u. Bizni ajratish uchun sahnaga artistlarning hammasi yugurib chiqishdi. Lekin men ko'zga ko'rinmas edim, yelkasiga minib olib Karim akani hamon qiynardim, tishlab badanlarini ko'kartirardim.

— Yana birovga tuhmat qilasanmi? — deb so'radim.

— Tavba qildim, voydod!! Ajratinglar... — deb Karim aka jonholatda o'zini zalga, tomoshabinlar orasiga urdi. Qiy-chuv, to'polon ko'tarildi, hamma o'rnidan turib tashqariga qochib chiqa boshladi, o'n minut o'tar-o'tmas teatrda artistlardan o'zga hech kim qolmadi.

O'sha kundan boshlab, tomoshabinlarni teatrdan bezdirib qo'yganimiz uchun, Karim aka ikkovimizni hamma yomon ko'rib qoldi. Pyesaning avtori ham o'sha to'polon bo'lgan soatda zalda o'tirgan ekan, uning ko'ziga ham xunuk ko'rinib qolibmiz. O'z asarini qayta ishlab, qoplon bilan bo'rining obrazini butunlay chiqarib tashladi. Bularning o'rniga yosh cho'ponning rolini kuchaytiribdi.

— Afsuski, siz bilan xayrlashishga to'g'ri keladi,— dedi direktor Mira'zamov, — sokrosheniyega tushib qoldingiz.

— Bo'lmasa, boshqa rol bering, — deb yolvordim.

— Boshqa rolni o'ynay olarmikansiz?

— O'ynayman, juda boplab o'ynayman, — deb ishontirishga harakat qildim uni. Bosh rejissyorimiz bilan uch kun mashq qildik. Harchand tirishsamda, boshqa rolni durustroq, o'ynay olmadim. Sigir bo'lib ma'rasam, ovozim ho'kiznikiga o'xshab chiqadi. Qushlarning ovozini esa, ochiq iqrora bo'lishim kerakki, hech o'xshatolmadim. Direktor yana o'z kabinetiga chaqirdi:

— Uka, hali yoshsiz, — ko'nglimni ko'tara boshladi u. Xo'p desangiz, teatrshunoslik institutiga kiritib qo'yaman.

— O'qishgami — dedim rangi-qutim o'chib.

— O'qiysiz, o'rganasiz... Xafa bo'lganimni sezdirmaslik uchun, jo'rttaga arslon bo'lib «auuuu» deya bir ulidim-da, tashqariga chiqib ketdim...

## IX b o b

### QAYERDASAN, MAKTABIM

**M**eni aldab-suldab ko'chaga haydab chiqarishdi, ha, shunday qilishdi. Bo'lmasa teatrdan ish to'lib yotgan edi. Hech bo'lmasa ko'cha eshik oldida turib bilet yirtay desam «o'shanga ham ma'lumot kerak» deyishdi. Gapni qaranga. O'qing, o'rganing emish! Nega endi o'qir ekanman.

— Nega?

To'xtang, nega endi ishim doim ketga ketaveradi? Agronom bo'ldim — quvildim. Shoir bo'ldim — nomim yomonga chiqdi. Injener bo'ldim — arang qochib qutuldim.

— Nega?

Sayohatchi bo'lmoqchi edim, Petrov amaki bilan Vlasov amaki hamrohlikka olishmadi, yonlariga ham yo'latishmadi. Artist bo'lib nomimni shonu shuhratga burkamoqchi edim, bo'lmadi.

— Nega?

Hoy, ko'chadagi odamlar, javob bering. Hoy, shumshayib turgan azim daraxtlar, osmondagi erkin uchgan qushchalar,

yelib-yugurgan mashinalar, javob bering, sizdan so'rayapman:

— Nega, nega?!

Yo'q, hech kimdan sado chiqmaydi. Hamma jim, o'z ishi bilan band.

Safarga chiqqanimdan bo'yon ko'p ajoyibotlarni ko'rdim, ko'p g'aroyibotlarning guvohi bo'ldim. Xursand bo'lgan kunlarim bo'ldi, xafa bo'lgan kunlarim bo'ldi. Ammo hech qachon bugungidek ko'nglim o'ksimagan, bugungidek xo'rligim kelmagan. To'g'ri, oyijonimni sog'inganman, singillarim ko'z o'ngimdan nari ketmay qolishdi, birga o'qigan o'rtoqlarim: malla sochli Ortiqvoy, darsda uxlab o'tiradigan Shokirjon — hamma-hammalarini sog'indim, ko'rgim keladi. Ammo nachora. Men o'qimasdan agronom bo'lmoqchi edim, shuning uchun ham barcha azoblarga, barcha mashaqqatlarga tishimni tishimga qo'yib chidagan edim, maqsadimga erisha olmadim, sharmanda bo'ldim!

— Nega?

Ho'ngrab yig'lab yubordim. Turtinib-surtinib o'z uyimga bordim-da, boshimni ko'rpaga burkab ko'zlarim-da yosh tamom bo'lguncha yig'ladim.

— Qalpoqcham, ey safarlarda hamisha yo'ldoshim, maslahatgo'yim, qani, o'zing aytchi, nega men maqsadga erisha olmadim.

— Chunki ilming yo'q edi, — deydi qalpoqcham.

— Ilm olish uchun nima qilishim kerak edi?

— O'qishing kerak edi...

— Nima?!

— Ha, ha, o'qituvching Qobilov, sevimli direktoring Otajon Azizovichlarning gapiga quloq solishing kerak edi.

— Demak, sen meni chalg'itgan ekansan-da, aldabsan-da!

— Yo'q, aldamadim, chalg'itmadim. Fikrlaring xato ekanligini tushunib olgin, deb qo'limdan kelganча ko'maklashdim, yordamimni ayamadim. Och qolsang ovqat

berdim, usting yirtilsa kiyim-bosh berdim. Faqat sen o'z xatoyingni tushunib olgin dedim, — deb so'zlaydi qalpoqcham.

Yana o'ylanib ketaman, yig'layman. Xato qilgan bo'lsam bordir, buni shu paytda o'zim ham tushunib turibman. Ammo o'z xatosini bo'yniga olishdan og'ir narsa bo'lmas ekan. Mayli, yigirma gradusli sovuq suvda yalang'och suvga tushay, mayli, jazirama issiqda bir hafta suvsiz yuray, istasangiz. Moskvagacha piyoda yugurib boraman, istasangiz, bundan ham og'irroq ishlarni buyuring, hammasini bajoni dil bajaraman. Ammo o'zim yo'l qo'ygan xatoni bo'ynimga olgim kelmay turibdi. To'g'ri, kishi o'qimasa, yoshligida ilm o'rganmasa agronom ham, shoir ham, injener ham, artist ham bo'la olmas ekan, ha, bo'la olmas ekan. Ishonmasangiz, mana, qalpoqcham bugundan e'tiboran bo'shadi, uni kiyib charchaganingizda dunyoni aylanishingiz mumkin...

Sekin o'rnimdan turib, yuz-qo'limni yuvdim. To'yib ovqatlandim. Qorning to'q bo'lsa miyang yaxshi ishlaydi deganlari rost ekan. Qornim to'ygach, miyam ham yog'langan motordek ishga tushib ketdi. Darhol sovg'a-salomlar olish uchun magazinlarga qarab yugurdim. Qishlog'imizda yurganimda, vazifalarni birovdan ko'chirib olishni kashf qilganimdan keyin, darsliklarimni o'rtoqlarimga esdalikka deb ulashib bergan edim. Shuning uchun to'plangan pulimning beshdan bir qismiga chamadonni to'ldirib darsliklar, 54 ta umumiy daftar oldim. Singlim Donoxonning qo'ng'ir sochiga deb, oq lenta, Oyshaxonga olti xonalik charm papka, oyimga ko'k shohi durrayu dadamga atab jun qo'lqop xarid qildim. Hurmatli o'qituvchim Qobilov bilan Otajon Azizovichni ham quruq qo'ymadim, albatta. Biriga avtoruchkayu ikkinchisiga gul soladigan vaza oldim.

Qanday qilib poyezdga chiqib olganimni o'zim ham bilmayman. Xayr, ey qadrdon shahar! Shlyapa kiygan shoirlar, gapga usta artistlar, Sizlarga ham xayr, yaxshi

qoling! Said aka, mehribon Said aka, Sizning oldingizda qarzdorman. Og'ir kunda boshimni siladingiz, uyingiz to'ridan joy berdingiz, injenerlik kasbiga havas uyg'otdingiz. Injener bo'laman, albatta, bo'laman. O'qiyman, qunt bilan, havas bilan o'qiyman. Avval a'lo baholar bilan o'ninchi sinfni, so'ngra institutni ham bitiraman. Ana undan so'ng qaytaman. Hozircha xayr, yaxshi qoling!

Ketib boryapman, jonajon qishlog'imga, ona maktabim quchog'iga qaytyapman.

Poyezddan tushib chamadonlarimni ko'tardim-da, hovliqib qishlog'imiz tomon yo'l oldim. Hamma narsa hal bo'ldi hisob, ammo ishonsangiz, haligacha bir muammoni yecholganim yo'q. Qadrdon qalpoqchamni nima qilishim kerakligini shu soatgacha o'ylab ko'rmabman. Olib ketaveray desam, yana selrgar bo'lib ketishdan qo'rqaman. Ko'chada yolg'iz qoldirib ketgani, gapning ochig'i, ko'zim qiymaydi. Yaxshisi, qayerdan topib olgan bo'lsam, o'sha yerga olib borib tashlayman, dedim-da, sekin o'zidan so'radim:

— Xo'sh, bunga nima deysan?

— Juda yaxshi fikr. O'z joyimga, lattaga o'rab oxurga tashlab ket... Sendan boshqalarga ham kerak bo'lib qolarman.

Nihoyat, ikkimiz ajralishadigan minutlar ham keldi. Qayerdan olgan bo'lsam o'sha yerga olib bordim-da, o'pib, bag'rimga bosib xayrlashdim. U ham mening peshonamdan cho'pillatib o'pib oldi, oz-ozdan ko'z yoshi ham to'kdik.

— Xayr, qadrdon qalpoqcham!

— Xayr, quvnoq do'stim Hoshimjon.

Uyimizga kirib borganimda qorong'i tushay deb qolgan edi. Ko'cha eshikni ochishim bilan birinchi bo'lib ko'zim oshxonaga qo'ltig'ida o'tin olib kirayotgan Donoga tushdi. U ham meni ko'rdi-yu, yugurib kelib bo'ynimga osilish o'rniga qo'lidagi o'tinni yerga tashlab yuborib, turgan joyida haykaldek qotib qoldi. Keyin:

— Opa, akamning arvohi keldi! — deb qichqirib yubordi.

Oshxonadan qo'lida kagir, hovliqqancha Oysha yugurib chiqdi-yu, u ham menga ko'zi tushishi bilan: «Arvoh, arvohmisan!» deya dodlab yubordi.

— Nima qilganlaring bu? Axir, men akalaring Hoshimjon bo'laman, — dedim achchig'im chiqib.

— Yo'q, sen bizning akamiz emassan, akamiz o'lgan!

— O'lgan?!

— Ha, o'lgan, biz uni ko'mganmiz. E, arvoh, sen qayoqdan kelding? — qo'rqa-pisa so'rashdi singillarim.

— Ochiq mozordan! — dedim tobora achchig'im chiqib.

— Voy, ana, ochiq mozordan deyapti, — dedi Dono qo'rqqanidan rangi dokadek oqarib. Men ortiqcha toqat qilib turolmadim. — Ehtimol, o'lgandirman, ehtimol, o'lmagandirman, lekin men sizlarni sog'inganman, singillarim! — Ularni ushlab ko'rishmoqchi bo'lib oldinga tashlangan edim, ikkovlari ham: «Bizni arvoh quvdi», deb dodlagancha ko'chaga chiqib ketishdi.

O'ylab o'yimga yetolmayman. Nima gap o'zi yoki uzoq vaqt dom-daraksiz bo'lib ketganimga meni o'ldiga chiqarishib qo'yishganmikan. Unday desam, sizni ko'mganmiz deyishyapti-ku? Tavba...

Uyda hech kim yo'q, oyim ishdan qaytmaganga o'xshaydi. Ayvonda dadamning mototsikli turibdi. Demak, u cho'ldan qaytganu, choyxonagami, idoragami chiqib ketgan. Uyimiz, nazarimda hech o'zgarmagandek. Faqat men suv, don bermay qiynaganim tovuqlarning xonasini sal kengaytirishibdi. Tovuqlar «tag'in keldingmi» deyishayotgandek setkadan boshlarini chiqarib, menga tikilib turishibdi. Shu payt ko'chadan oyijonimning ovozi eshitilib qoldi.

— Bolaginamning arvolini menga ko'rsatinglar. Mayli, arvoli bo'lsa ham bag'rimga bosay, to'yib-to'yib yuzlaridan o'pay. Hoshimginam, qani sen?

— Oyijon! — deb yubordim o'zimni tutolmay. Oyim meni bag'riga bosib, sochlarimdan o'pdi, uzoq yig'ladi.

— Bolaginam, tirikmiding? Yo chindan ham arvohmisan? — deb so'radi u qaytadan orqasiga tisarilib.



— Oyijon, nega men arvoҳ bo‘lar ekanman? Axir, men o‘g‘lingiz Hoshimjonman-ku, Hoshimjon Ro‘ziyevman.

— Demak, o‘lmagan ekansan-da?

— Qasam ichib aytamanki, o‘lgan emasman.

— Seni deb biz boshqa bolani ko‘mibmizda bo‘lmasa...

Gap bunday bo‘lgan ekan: mendan xat-xabar yo‘q bo‘lib ketgach, dadam bilan oyim yurak-bag‘irlari ezilib militsiya organlari orqali qidirishga tushishibdi... Uzoq vaqt hech qanday xabar bo‘lmapti. Nihoyat, men yashab turgan shaharning militsiya bo‘limidan «kelib o‘g‘lingizning o‘ligini olib keting» degan telegramma kelibdi. Oyim bilan dadam faryod qilib, darhol yetib borishibdi. O‘liklar saqlanadigan muzxonada bo‘yi mening bo‘yimga teng keladigan, egnida men uydан kiyib chiqib ketgan kostyumga o‘xshash kostyum, oyog‘ida xuddi menikiga o‘xshash botinkasi bor bir o‘lik yotgan emishu, kallasi mashina gildiraklari ostida qolib majaqlanib ketganidan kimga o‘xshashligini bilib bo‘lmas emish. Shunda oyim o‘likka o‘zini tashlab, darrov uning ko‘kragini ochib ko‘ribdi. Chap yelkasida xuddi menikiga o‘xshash xolni ko‘rib:

— Bolaginam! — deb sochlarini yulibdi. Keyin o‘sha o‘likni samolyotga yuklab qishloqda keltirishibdi-da, yuvib-tarab, barcha rasm-rusmlarni joyiga qo‘yib, yig‘i-sig‘i bilan ko‘mishibdi.

— Bugun roppa-rosa ikki oy bo‘ldi, — dedi oyim ko‘z yoshlarini artib. Oyijonimning hikoyasi tugamasdan ko‘chadan nominni aytib chaqirgancha dadam ham kirib keldi. Keyin qo‘shnilar, birga o‘qiydigan sinfdosh o‘rtoqlarim, o‘qituvchilarim to‘planishib hovlimizga odam sig‘may ketdi. Dadam darhol kolxoz fermasidan qo‘y oldirib kelib so‘ydirib yubordilar. Ziyofat boshlanib ketdi. O‘ziyam o‘sha kuni rosa maza qildim-da: qovurilgan go‘shlardan, kaboblardan to‘yib-to‘yib yeyman-da, yonginamda erkalanib o‘tirgan Donoxonning sochidan tortib:

— Puchchuqqinam! — deb qo‘yaman.

# SARIQ DEVNI MINIB

I b o b

## BIZNING QISHLOQ

**V**oy, esim qursin, voy xomkalla bo'lmay ketay! Qarang-a, shunchadan buyon siz bilan gaplashib o'tiribmanu, qanchadan-qancha hikoyalar so'zlab beribmanu, sizga qishlog'imiz haqida bir og'iz ham gapirmapman-a. Axir bir kunmas-bir kun Mullahoshimboyni ko'rgingiz kelib qolsa yoki xat orqali ko'nglini so'ramoqchi bo'lsangiz, loqal, adresimni bilmaysiz-ku! Yo'q, bari bir qachon bo'lmasin sizni qishlog'imizga bir taklif qilaman. Kelib uch-to'rt kun dam olib, mevalardan maza qilib yeb ketasiz.

Esingizda bo'lsin, rayonimiz markazidan har kuni qishlog'imizga besh-olti marta avtobus kelib-ketadi. Avtobusning naq, peshanasida «Yaypan — Xo'jaqishloq» deb katta-katta harflar bilan yozib qo'yishgan. Yozib qo'yishmasa ham bo'lmaydi-da. Nega desangiz, shofyor Xo'jaqishloqdan mashinani qaytarish o'rniga yanglishib Rafqonga o'tib ketishi mumkin. Shuning uchun ham «Xo'jaqishloq» deb yozib qo'yishgan. Ana shu qishloq bizning qishloq bo'ladi. Esingizdan chiqmasin — Xo'jaqishloq.

Nima uchun Xo'jaqishloq deb atashgan desangiz, buning ham bir sababi bor. Dadamning aytishiga qaraganda, ilgari zamonlarda bizning qishloqda xo'jalar, katta-kichik eshonlar, eshonbachchalar juda ko'p yashashgan ekan. U yoq-bu yoqqa bitta-yarimta ro'dapo eshonmi, qorni katta domlami, yoki qulog'ini cho'zib azon aytadigan so'fimi, kerak bo'lib qolsa, bizning qishloqdan olib ketishar ekan. Bordiyu bitta-yarimta qishloqda eshonpochcha yoki domla imom ishni pachava qilib qochadigan bo'lsa, sallani qo'ltiqqa urib, eshakka teskari o'tirib to'ppa-to'g'ri bizning

qishloqni mo'ljalga olib qochar ekan-da, Uzunquloq ota mozorida ayshini surib, kun kechirar ekan. Shuning uchun ham bizning qishloqni Xo'jaqishloq, deb atashgan ekan. Qishlog'imiz shundoqqina tog'ning etagiga joylashgan. Bu yerda har xil mevalar shunaqangi ko'p bo'ladiki, kelib ko'rsangiz og'zingiz ochilib qoladi. Sarg'ayib pishadigan o'riklar, ustida mayizak bo'lib, tagiga to'kilib yotadigan olchalar, nordon gilolar deysizmi, shaftoli, uzum, olma deysizmi, har bittasi chala pishgan tarvuzdek keladigan anoru, ko'rganda og'zingiz suv ochib ketadigan oltindek sarg'ayib pishadigan non behilar deysizmi — yo'q, bari bir, hammasini aytib ado qilolmayman. Odamlarning aytishiga qaraganda, bizning qishloq vitamin zavodining o'zginasi emish.

Tog' ichkarisiga bir kilometrcha yursangiz, Uzunquloq otaning qabri bor. Qabr atrofiga osmon bo'yi keladigan chinorlar, tepasiga qarasang do'pping tushib ketadigan sadalar, besh kishining ham qulochi yetmaydigan yo'g'on tollar soya tashlab turadi. Bu atrofda katta-kichik o'n uchta zilol suvli buloq ham bor. Ziyoratgohning qoq o'rtasidan sharqirab muzdek suvli anhor oqadi. Suvi biram muzdekki, cho'milaman desangiz darrov oyog'ingizning tomiri tortishib qoladi. Ziyoratgohga yoz oylari, ayniqsa, chorshanba kuni odam demagani yog'ilib ketadi. Buvijonimning aytishicha, Uzunquloq otaga astoydil sig'ingan odam murodi maqsadiga yetmasdan qolmas ekan.

— A'lochi ham bo'p ketadimi? — deb so'rayman buvijonimdan.

— Ha, a'lochi ham bo'lib ketadi, — tushuntiradi buvijonim.

— O'zi, Uzunquloq ota qaysi fandan dars bergan, buvijon?

— Tavba qildim, de, esi yo'q!

— Tavba qildim, buvijon, — deb qo'yaman men ham...

Shunday qilib, rayon markazidan avtobusga o'tirasizda, to'ppi-to'g'ri Xo'jaqishloqqa kelib tushasiz. O'ng qo'l

tomonda ko'k g'ishtdan chiroyli qilib solingan magazin, choyxona, kunduzi faqat bir soat ochib, boshqa vaqtda doim qulf turadigan dorixona, undan sal naribroqda sartaroshxona ham bor. Sartaroshxonada bir oyog'i yo'q usta Usmon amaki degan kishi ishlaydi.

Qachon soch oldirgani kirsangiz:

— Sochingizning hammasini olaymi yoki bir lankalik qoldiraymi? — deb so'raydi.

— Hammasini olaverar ekansiz, oyim aytdila, — desangiz:

— Pulingiz oz-ku akasi! — deb qo'yadi usta amaki.

— Bo'lmasa pulimga yarasha olib qo'ya qoling.

Usta amaki xaholab kuladi-yu, sochingizni mashina qaychi bilan birpasda qirtishlab tashlaydi.

Magazinning orqasida bir gektarcha keladigan bog' bor. Maktabimiz mana shu bog'ning qoq o'rtasiga joylashgan. Orif, Zokir, Ikrom — hammamiz mana shu yerda o'qiyimiz. Yashirib nima qilaman, bir-biridan chiroyli bo'lgan ikki baholarni men mana shu yerda olganman. Sevimli o'qituvchim Qobilov ham mana shu yerda ishlaydilar. Hozir bu yerda hech kim ko'rinmaydi. Nega desangiz, hammasi kanikulda, maza qilib dam olishyapti.

Qishlog'imiz markazidagi odamlarning ishi tushib turadigan binolarning bori yo'g'i shu. Qolgani kolxoz markazida. Ishi bor odamlar o'sha yoqqa borishadi. Ba'zan kunbo'yi qishlog'imizda ziyoratga kelgan begona odamlarning keti uzilmaydi, u yoq-bu yoqqa o'tib turishadi, mayda-chuyda so'rab uyma-uy eshik qoqib yurishadi.

Magazin oldidan yuqoriga qarab ketgan yo'l to'ppato'g'ri toqqa olib boradi. Ikki tomoniga yangi imoratlar solishgan. Imoratlarning orqa tomoni poyonsiz paxtazorlar. Bu yerlarda Ikromning dadasi Xoliq tog'a brigadirlik qiladi. Odamlarning aytishicha, u g'o'zaning tilini bilar emish, u bilan pichirlashib gaplasharmish. Shuning uchun ham o'tgan yili Moskvaga borib bir yo'la ikkita orden taqib kelgan. Paxtazor tugab, ketidan o'rik maydon, undan keyin

anorzorlar boshlanib ketadi. Anorzorlardan u yog'iga o'tmay qo'ya qoling. Hammayoq tosh, toshdan boshqa hech narsa topmaysiz. Tog'dan turib pastga qarasangiz, qishlog'imiz xuddi ichiga gul solingan katta piyolaga o'xshab ko'rinadi. Bu yerdan eski qishloqdagi masjidning tomi, yangi mahalladagi televizorlarning antennalari ham bemaol ko'rinib turadi. Yonma-yon turgan ikkita antennadan sal balandrog'i bizniki, pastrog'i Oriflarniki, albatta. Ammo buvijonim biznikiga kelganidan bo'yon televizorni kamdankam qo'yadigan bo'lib ketganimiz yomon bo'ldi-da. Dadam bilan oyim doim ishda bo'lgani uchun men sal buzilib qolgan emishman. Meni tartibga solish, tarbiyalash uchun oyim bilan dadam maslahatlashib, buvijonimni ko'chirib olib kelishgan.

Buvijonim aytadilarki, televizor shaytonning o'yini emish. Hadeb ko'raversak, uyimizdan baraka ko'tarilarmish. Undan keyin gunohimiz ko'payib, narigi dunyoga borganda savol-javobda qiynalib qolar ekanmiz.

— Buvijonim, narigi dunyoda savol-javob ham bo'ladimi?  
— deb so'rayman.

— Ha, savol-javob ham bo'ladi.

— Savolni kim beradi o'zi?

— Ishingni qil, tentak! — deb urishib beradi buvijonim. Men bo'lsam hammasini bilib olgim keladi. Shuning uchun qayta-qayta so'rayveraman:

— Yaxshi javob berganga beshu yomon javob berganga ikki qo'yadimi-a?

Buvijonim javob bermaydi-yu, ko'zlarini olaytirib qo'yadi. Bu — gapni bas qil degani bo'ladi. U kishi ko'chib kelgandan buyon mening ishlarim hech yurishmay qoldi. Ko'chaga chiqadigan bo'lsam ham, kechqurun sheriklarim bilan kinoga boradigan bo'lsam ham, bari bir buvijonimdan ruxsat olishim kerak. Keyin qo'li ishdan bo'shadi deguncha, meni yonginasiga o'tqizib olib, tarbiyalashga tushib ketadi: har xil rivoyatlarni yod oldiradi. Mazmuni esa xuddi algebra formulalariga o'xshab juda-juda ham qiyin, kallamni ming ishlatsam ham, bari bir tushunolmayman.

— Buvijon, bularingiz nima o‘zi, yo she’rmi-a? — deb so‘rayman.

— Ha, she’r desa ham bo‘ladi, bolam.

— Kimning she’ri o‘zi?

— Buncha ezma bo‘lib ketding, qoqbosh!— deydi buvijonim achchig‘i chiqib.

Buvijonimdan o‘rgatayotgan narsasi kimning she’ri ekanligini surishtirishimning ham bir sababi bor-da. Bir marta mana shunaqangi she’rni deb (o‘shaniyam buvijonim o‘rgatgan edi) maktabda rosa kulgi bo‘lganman. O‘shanda beshinchi sinfni bitirayotganimizga bag‘ishlab kecha o‘tkazayotgan edik. Sheriklarim she’r o‘qishyapti, o‘yinga tushishyapti, ashula aytishyapti — ishqilib, o‘zlarini ko‘rsatishyapti-da. Odiljon nemischa she’r o‘qib, hammani og‘ziga qaratdi. Keyin shunaqangi qattiq qarsak chalindiki, naq maktabning tomi ko‘chib ketay dedi. Men ham o‘zimni bir ko‘rsatib qo‘yay deb shartta o‘rtaga chiqdim.

— Ha, Hoshim, o‘ynab berasanmi? — xursand bo‘lib so‘radi vojatiymiz.

— Yo‘q, she’r o‘qiyman.

— Jim, bolalar! — dedi vojatiy ikki qo‘lini ko‘tarib, — Hozir Hoshimjon Ro‘ziyev sizlarga she’r o‘qib beradi... Qani boshla, Hoshim.

Buvijonim o‘rgatgan o‘sha she’rni nomini aytishim bilan bolalar qiyqirishib, chapaklar chalib «unaqa she’rni buvijoningning o‘ziga o‘qib beraver» deb og‘iz ochirtirgani qo‘yishmadi. Shunaqangi uyalib ketdimki, ishonsangiz yig‘lavorayozdim. O‘shandan buyon bolalarning nega og‘iz ochirtirmaganiga hech tushunolmayman... Mana hozir ham buvijonim menga eski odatlari bo‘yicha yana bitta she’rini o‘rgatmoqchi bo‘layapti.

— Bu rivoyatni kim yozgan? O‘zi yozganmi yoki birovdan ko‘chirib olganmi? — deb so‘rayman buvijonimdan. Mana shunaqangi paytda o‘ng betimga yo chap betimga tarsaki kelib tushadi.

— Tavba qildim de!

— Demayman!

— Demaysanmi? — buvijonim bu betimga ham bir tarsaki tushirmoqchi bo'lib intilganda sapchib o'rnimdan turamanda, shataloq otib qochib qolaman. Nariroqqa borib, oyoqlarimning uchida turib, boshimni goh o'ngga, goh chapga burib chaqiraman:

— Abdurayo'o'o'm,

— Madrayo'o'o'm,

— Mol qano'o'o',

— Ho', mano'o'o',

— He, o'o'o'!

Ana shundan keyin desangiz, buvijonim shunaqangi tutaqib ketadiki, qani endi tutib olib sochlarimdan bittalab yulsa!

— Dadang kelsin hali, seni oyog'ingdan ostirmasammi!  
— deydi buvim ikki qo'lini musht qilib.

— Ostirsangiz ostiravering. Menga bari bir. Qayta, narigi dunyoda maza qilib yuraman, — deyman-da, boqqami, ko'chagami chiqib ketaman.

— Shuni bilginki, men seni odam qilmaguncha qo'ymayman, — orqamdan baqirib qoladi buvijonim.

Shunday qilib, buvijonimning tarbiyasidan birpasgina bo'shab, katakdan qochib chiqqan tovuqdek, erkin qanot qoqib uzoq-uzoqlarga o'ynagani ketaman.

## II bo b

### YO'Q, ZOKIR DANGASA EMAS

**B**uvijonim otinbuvi xolanikiga «Mushkulkushod» o'qigani ketgan edi.

Ko'cha eshligimiz oldidagi qum to'kilgan maydonchada ikki qo'limni yerga, oyoqlarimni osmonga qilib shu alfozda oldinga, orqaga yurib singlim Donoxonni qiqirlatib kuldirayotgan edim, ko'chadan Zokir o'tib qoldi. Zokir bilan

birinchi sinfdan buyon birga o'qiymiz. Gavdasini ko'rsangiz o'n birinchi sinfda o'qiydimi, deysiz. Ammo yurak degan narsadan zig'ircha ham yo'q. Hatto o'zi tengi qiz bolalardan ham qo'rqib, bitta-yarimtasi bexosdan tegib ketsa darrov borib o'qituvchimizga chaqimchilik qiladi, direktorga aytishdan ham toymaydi. Qizlar ham aksiga yurib nuqul o'shanga tegajaklik qilishadi. Maktabdan qaytayotganda to'rtta-beshtasi bir bo'lib, oldilariga solishib, quvalab kelishadi. Tutib olib urishmaydi-yu, ammo uramiz deb bechoraning naq yuragini yorishadi. Buning ustiga Zokirning darsda uxlab o'tiradigan odati ham bor. Uxlaganda ham juda qattiq uxlaydi. Turtkilab uyg'otib:

— Nega uxlaysan? — desangiz, og'zini katta-katta ochib esnaydi-da:

— Qani, uxlaganim, — deb tonib turib oladi. Hatto bir kuni maktabimiz hovlisidagi maydonchada, fizkultura mashqlari o'tkaziladigan yog'ochning ustida og'zida noni bilan yog'ochga posangi bo'lganicha uxlab qopti. O'qituvchimiz turtkilab:

— Uyat emasmi, yiqilib ketsang nima bo'ladi! — degan edi, Zokir ko'zini uqalab:

— Uxlaganim yo'q, o'zim shunday... dam olib yotuvdim, — deb qo'ya qoldi.

— Ha, Zokirjon, yo'l bo'lsin! — deb chaqirdim uni. Zokir yurishdan to'xtab men tomonga o'girildi-da, negadir o'zida yo'q sevinib ketdi. Chap qo'ltig'ida uch-to'rtta kitob, o'ng qo'lida bodring.

— Iya, sen shu yerdamiding, sherik? Men bo'lsam, qaramabman ham. O'zim ham o'ylanib ketayotuvdim-da.

— Nimalarni o'ylayapsan?

— Har narsalarni-da. Zokir qo'lidagi bodringni qarsillatib yeyishga tushdi keyin shimining cho'ntagidan bitta barragina bodringni olib Donoga uzatdi-da, menga qarab: — Yeysanmi? — deb so'radi.

— Olchi, — dedim og'zim suv ochib, — o'zi qayoqqa ketayotuvding?



— Dars tayyorlagani.

— Hamma kanikulda yuripti-yu, nega endi sen dars tayyorlar ekansan?

— Eshitganing yo'qmi?

— Nimani eshitaman?

— Men kuzgi imtihonga qolganman. Ona tilidan, rus tilidan, undan keyin algebradan ham... Uchovidan kuzgi imtihon topshirishim kerak. Kuratorimiz sen o'zing bo'ladigan bolasan, aql-hushing ham joyida, faqat yozda jindakkina hafসা qilsang hammasini beshga topshirasan, dedilar.

— Hali kuzgacha ancha bor-ku, bari bir esingdan chiqib qoladi.

— Men ham shunaqa desam, oyim «bugundan boshlab dars tayyorlashga kirishmasang, kechasi uxlatgani qo'ymayman, boshingdan suv quyaman» deyapti... Bilasan-ku, kechasi uxlamasam, men kasal bo'lib qolaman... Bodringdan tag'in bitta beraymi? Ma, olaver, bu cho'ntagimda ham bor. Oyimga bildirmasdan asta boqqa o'tdim-da, cho'ntaklarimni to'ldirib bodring uzdim. Keyin shimimni yechib devordan irg'itib yubordim. Chiqayotganda oyim «shimingni kiyib ol» degan edi:

— Trusikda ketaveraman, shim kiysam terlab ketib, yuragim qisiladi, — dedim. Ko'chaga chiqsam shim ariqqa tushib jiqqa xo'l bo'pti... Orqamni oftobga to'g'rilab ketyapman. Bilasanmi, hozir men Abboslarnikiga boryapman... U menga ota bo'lgan.

— Ota dedingmi? Qanday qilib ota bo'lar ekan? U sendan kichkina-ku! — dedim hech narsa tushunmay.

— Bilmasam, o'qish tamom bo'layotgan kuni zavuchning kabinetida uchala fandan ham yaxshi o'zlashtirishiga o'zim yordam beraman, ota bo'laman dedi-da.

— Otaliqqa olaman degandir? — deb so'radim.

— Bilmasam, ishqilib shunaqa dedi-da.

Dononi uyga kiritib yuborib, Zokir bilan anchagacha gaplashib o'tirdik. O'ziam bir-birimizni rosa sog'inib

qolgan ekanmiz. U mening yo'g'imda maktabda bo'lib o'tgan voqealarni bir boshdan gapirib berdi. Qizlar unga kun bermay qo'yishibdi. «Uyquchi», «dangasa» deb rosa jig'iga tegishibdi. Zokir bitta-yarimtasini tutib olib rosa do'pposlamoqchi ham bo'lipti-yu, ke qo'y, shularga teng bo'lib obro'yimni to'kib yuramanmi, deb indamapti.

— O'zing aytchi, — deb so'radi mendan ketma-ket esnab, — men uyquchimanmi-a?

— Hech ham-da. Dunyoda sendan kam uxlaydigan bola yo'q.

— Buning ustiga meni doim dangasa deyishadi.

— Bo'lmagan gap, seni dangasa deganlarning o'zi dangasa! — dedim do'stimning ko'nglini ko'tarib. Keyin ikkovimiz ko'zgi imtihon masalasini ham bafurja o'tirib gaplashib oldik. Aslini olganda buning hech keragi yo'q. Bir yo'la uch fandan yomon baho olgandan keyin, yaxshisi o'sha sinfda qaytadan o'qib, ilmning poydevorini tagidan mustahkamlab chiqqan ma'qul. Tagidan mustahkamlamasang ishlar chatoq; yettinchiga o'tganingda imtihonlarda yana yiqilib qolasan, sakkizinchida undan battar bo'ladi, o'ninchini bitirguningcha mana shunaqangi kuzgi imtihonlarga qolaverib naq iyig'ing chiqib ketadi. Undan ko'ra oltinchi sinfda ilmning poydevorini mustahkamlab olish kerak. Ana undan keyin yuqori sinflarda doim beshga o'qiyasan, ehtimol, hurmating oshib ketsa, seni sinfkom ham qilib yuborishar, a'lochi sifatida lagerlarga borasan, maza qilasan, deb tushuntirdim do'stinga.

— Qalay bo'larkin-a? — dedi Zokir ikkilanib.

— Qalay-palayi bormi. Bilasanmi, men sayohatda yurganimda bitta bilimdon bola bilan do'stlashib qoldim. O'zi yettinchida o'qiydi-yu, bilimi shunaqangi zo'rki, gaplashsang og'zing ochilib qoladi. Nega siz bunaqangi bilimdonsiz desam, akasi, men har bir sinfda ikki yildan o'qiganman, oltinchida uch yil o'qidim, deydi. Shuning uchun ham o'qituvchilar uni sizlab gapirar ekan.

— Rostdanmi-a? — deb so'radi Zokir havasi kelib.

— Rost. Xo'p desang, oltinchida birga o'qiymiz. Hatto bir partada o'tiramiz. Uyqung kelib qolsa, mening tizzamga bemalol boshingni qo'yib xurракni tortib uxlayverasan...

— Qo'lni ber! — dedi Zokir o'rnidan turib.

— Gapingdan qaytmaysan-a?

— Yo'q, qaytmayman.

Shu paytda, negadir, ich-ichimdan sevinib, ishonsangiz, o'zimda yo'q xursand bo'lib ketdim. Nazarimda, Zokir ham shunaqangi bir xilni boshidan kechiradi. Biz beixtiyor bir-birimizni quchoqlab shunaqangi o'pishib ketdikki, uzoqdan ko'rgan odam, bular, albatta, jinni bo'lsa kerak deb o'ylashi mumkin edi.

Buvijonim «mushkulkushod»ga ketayotganida, Dono ikkovlarning shaftolini terib yorib qo'yinglar deb tayinlagan edi. Birpas o'ynay, birpas o'ynay deb, kunni yarim qilgan edim. Zokirni ishlashga ko'ndirgach, shoshilib boqqa kirib bordik. Kun tepaga kelib, hammayoqni yondirayotgan bo'lsa ham, bog' salqin, gir-gir shabada esib turganidan bahavo edi. Gapni ko'paytirib o'tirmay ishga kirishib ketdik. Yo'q qasam ichib aytamanki, Zokirvoyni dangasa deganlarning o'zi dangasa! Bunaqangi chaqqon ishlaydigan, bunaqangi pahlavon bolani men umrimda ko'rgan emasman...

Bir soat o'tar-o'tmas, yetti tup shaftolining mevasini terib, eson-omon tomga chiqarib oldik.

— Sherik, endi yorib ham tashlaymizmi? — deb so'radi Zokirvoy peshonasidan terini sidirib.

— Yo'q, endi birpas dam olamiz.

— Men charchaganim yo'q, — dedi Zokirvoy, — sen bo'lmasa birpas damingni ol, men yorib turaman.

— Men sen charchab qoldingmi deb o'ylovdim. Charchamagan bo'lsang ishlayveramiz. Men-chi, Zokirjon, charchaganimda yaxshi ishlayman.

Kun biram qizidiki, naq miyamizni qaynatib yuboray deydi. Oyoqning ostidan esa tomning issig'i urib nafas oldirgani qo'ymaydi. Zokirjon xomsemiz bola emasmi, hademay pishillab qoldi. Joni qiynalganidan o'zini qo'yarga

joy topolmay, nuqul g'ing'illab ashula aytadi, og'zini katta-katta ochib, men hech tushunmaydigan shakllar yasaydi. Men bo'lsam, badanim sal salqin bo'larmikin degan umidda qahraton qishni, oppoq qorlarni, oyog'im sovuq qotib yaxmalak uchgan paytlarimni eslayman. Nihoyat, peshindan keyin shaftolini yorib bo'ldik. Zokir o'rnidan turib, uyushib qolgan belini changallab, kerishdi-da:

— Yana bormi? — deb so'ramoqchi bo'lgan edi, ovozi chiqmadi.

— Qani, tushdik endi, — dedim gandiraklab o'rnimdan turib, — yana birpas o'tirsak o'zimiz ham shaftoli qoqi bo'lib qolamiz.

Boqqa kirib ariq bo'yidagi maysa ustiga yonboshladik. Qorinlar ham rosa ochgan edi. Bir oz dam olgach, uydan suzma qatiq bilan non olib chiqish uchun o'rnimdan turdim. Qaytib chiqsam, Zokir allaqachon uxlab qolibdi. Hatto, tush ham ko'rayotganga o'xshaydi, nega desangiz xuddi uyg'oq odamdek, kulimsirab har zamonda lablarini uchirib-uchirib qo'yadi. Kim biladi, tushiga nimalar kirayotgan ekan. Yo bitta-yarimta sinfga allaqachon sinfkom bo'lib oldimikin-a!

Men ham jindak mizg'imoqchi bo'lib shuncha urinsam ham, bari bir bo'lmadi — endi ko'zim ilinganda qiziqroq bir voqea esimga tushadi-yu, piqillab kulib yuboraman, uyqum qochib ketadi...

### III b o b

#### AMERIKANCHA FOKUS

**B**ilmadim, shunaqangi odat mana bu yonginamda pishillab uxlab yotgan, shirin-shirin tushlar ko'rayotgan Zokirvoyda ham bormi, yo'qmi, bunisini aniq, bilmayman-ku, ammo-lekin men biron yaxshi ishni bajarib qo'ysam, ketidan yana tag'in shunaqangi ishlarni qilgim kelaveradi. Bir marta rahmat eshitgan kunim ikkinchisini ham eshitmaguncha tinib-tinchimayman. Mana, shaftolilarni bitta

qo'ymay tomga chiqarib yorib tashladik. Buning uchun buvijonimdan rahmatlar eshitishim aniq. Hatto dadam ham yelkamga qo'lmi qo'yib:

— Obbo Hoshimboy-ey, barakalla, o'g'lim! — deyishi turgan gap. Lekin shunday bo'lsa ham, shu paytda qo'shaloq rahmat eshitgim kelib, sapchib o'nimdan turib ketdim.

Ko'cha eshigimiz oldidagi qumni uyimizni alebastr suvoq qildirish uchun to'kkanmiz. Dadam bir necha marta shu qumni elab qo'ygin deb tayinlaganu, men o'zimni jo'rttaga eshitmaganga solib yurardim. Sim elak bilan belkurakni olib ishga kirishib ketdim. Endigina ikki-uch elak elagan ham edimki, shu payt, qo'llarini orqasiga qilib kerilganча Orif o'tib qoldi. Kechadan buyon shunaqangi qilib uchinchi bor o'tishi. Nimanidir aytmoqchi bo'ladi-yu, men gap tashlamaganim uchun bahona topolmay, jimgina o'tib ketaveradi. «Obbo, nimasiga kerilar ekan, yettinchiga o'tgani uchun bo'lsa kerak-da! Biqiniga ikkita mushtlasamu yettinchisi ko'rinib qoladi-ya...» deb o'ylab:

— Orif, qayoqqa ketyapsan? — deb gapga soldim uni.

— Ishing nima qayoqqa borishim bilan! — qo'llarini biqiniga tirab yurishdan to'xtadi Orif.

— O'zim so'rayapman-da.

— Bilasanmi, men lagerga borib keldim.

— Lager, qanaqa lager?

— Lager nimaligini bilmaysanmi hali?

— Yo'q.

— Oh-oh! Lager shunaqangi maza bo'lar ekanki, shunaqangi rohatijon bo'larkanki... Lekin u yerga faqat a'lochi o'quvchilar boradi-da, senga o'xshaganlarni qabul qilishmaydi...

Mana shu gapi menga hech ma'qul bo'lmadi. Qarang-a, menga o'xshaganlarni olmas emish.

— Kartoshka tergansizlar-da... — dedim achchig'im chiqib.

— Hecham-da... Biz u yerdan yaxshi niyatlar bilan qaytdik.

— Niyat? Qanaqa niyat?

— Niyat degani maqsad degani, bildingmi, shuniyam bilmaysan-a. O'sha yerdagi rahbarimiz: har birlaring bittadan maqsad bilan uylaringga qaytinglar. Kelgusi yil mana shu yerda yana uchrashamiz. O'shanda, kim o'zining yaxshi niyatini amalga oshirdi, kim oshira olmadi, surishtirib ko'ramiz. Birinchi o'rinni olgan kishiga mukofot beramiz dedi, bildingmi! Men uyimizda kutubxona ochmoqchiman.

— Kutubxona?

— Bo'lmasam-chi. O'zim kitob to'plab kutubxona ochaman.

— Shuni o'rganish uchun lagerga bordingmi-a?

— Hecham-da... Biz u yerda voleybol o'ynadik, tog'larga chiqdik, soylarda maza qilib cho'mildik... Undan keyin har xil o'yinlar ham o'rgandik...

Orif o'zi maqtanishni yaxshi ko'radigan bola. Qachon qarasang, maqtangani-maqtangan. Hatto birovdan kaltak yeb kelsa ham, boplab savaladim, deb keriladi. Bir kuni: «Men tog'dan arslonning bolasini ushlab keldim, quloqlari bir qarichdan, tumshug'i naq, chelakdek keladi, har qanday bo'rini ham tappa bosadi», deb maqtanib qoldi. Borib ko'rsak, mushukdan sal katta bir laycha ekan, bizni ko'rishi bilan bog' tomonga qarab vangillab qochib qoldi.

— Arsloning sal yuraksizroq ekanmi?! — desak, o'shanda ham bo'sh kelmay «shoshmay turgin hali, katta bo'lganda ko'rasan!» deydi.

— Ayt-chi, qanaqa o'yinlar o'rganib kelding? — deb so'radim Orifdan.

— Har xilidan o'rgandik... Xo'p desang, senga amerikancha fokus o'rgatib qo'yaman...

Rostini aytsam, sayohatda yurganimda juda ko'p fokuslarni ko'rganman. Bir xillari shunaqangi qiyin bo'ladiki, aqlingni har qancha ishlatsang ham, bari bir hech narsa tushunolmaysan. Lekin amerikancha fokusni birinchi marta eshitishim. Ehtimol juda qiziqdir, o'rganib olsam bir kun ish berib qolar, deb o'yladim-da:

astoydil o'qimoqchi edim, o'zimni bir ko'rsatib qo'yay, degan orzum bor edi.

Buvijonim kechgacha bir og'iz ham gapirmadi, qovog'ini ham ochmadi. Faqat dadam ishdan kelgandan keyin ovqatlanib bo'lishgach:

— Hoshimingni tartibga chaqirib qo'lasanmi yoki ustiga kerosin quyib o't yoqvoraymi? — deb so'radi.

Dadam darrov javob qaytarmadi, choy ho'pladi, yana ho'pladi. Men bo'lsam so'rida chalqancha yotib osmondagi jim-jim yulduzlarni tomosha qilaman, amerikanча fokus tufayli yegan tepkidan yelkalarim zirqirab og'riydi, «ishqilib, maktabdan haydatmasa bo'lgani, haydatmasa bo'lgani...» deb o'ylayman.

— O't qo'ysangiz, o't qo'yavering, — dedi nihoyat dadam.

— Senga doim hazil bo'lsa-da!

— Hazil emish... Yopishganlarning Hoshim bo'lib qoldi. Bolani hadeb undoq qil, bundoq qil deyaverish ham yaramaydi. To'g'ri ketayotgan mashinaning rulini u yoq-bu yoqqa buraversangiz avariya bo'ladi, oyi. Bola ham bamisoli mashinaday gap. Uni qil, buni qil deyaversangiz, anqov bo'lib qoladi. Ishingizga yordamlashyapti. Mana butun shaftolini yorib beribdi.

— Yorgan shaftolisi ham qurib ketsin, — hali ham shashtidan tushmay dedi buvijonim, — xomini termagin devdim, keyin qo'lim tegmaydi deb xomigacha qo'shib uzibdi.

— Mayli, ishlashga ham sekin-asta o'rganadi. Shu paytda o'choq boshida idish-tovoq yuvib o'tirgan oyim ham gapga aralashib qoldi:

— Adasi, Odiljon bugun o'g'lingizni maktabdan haydataman, deb ketdi.

— Haydatmaydi, — dedi dadam oyimga ham bo'sh kelmay, bordiyu haydatsa, xafa bo'ladigan joyi yo'q. Shuncha o'qigani ham yetar. Injener bo'lmasa, traktorchi bo'lar... Nima, traktorchi bo'lib men kam bo'ldimmi! Kimdan kammiz. Mana, uy-joy qildik, mol-xol qildik,

kassada pulimiz bor. Aytgandek, oyisi, xushxabar olib keldim. Qani, choydan quy-chi!

— Qanaqa xushxabar ekan? — oyimdan oldin soʻradi buviyonim.

— Choʻlda ishlab kelganlarga mukofot uchun ikkita «Moskvich» ajratishgan ekan. Bittasini bizga beradigan boʻlishdi.

— Voy, mashinami? — hovliqib dedi oyim.

— «Moskvich» mashina boʻlmay, toychoq boʻlarmidi, mashina-da... Choydan quy, deyapman!

Shu paytda juda xursand boʻlib ketganimdan naq boʻlmasa urra deb qichqirib yuborayozdim. Ammo oʻzimni halidan buyon uxlaganga solib yotganim uchun ovozimni chiqargani gapning ochigʻi, jindak uyaldim. Ammo, shodligimni biror yoʻl bilan ifodalashim kerak edi-da. Shuning uchun boplab bir xurрак tortib qoʻya qoldim. Kimdir koʻcha eshigimizni shiddat bilan qoqdi. Oyim borib eshikni ochgan edi, Zokirning oyisi ekan:

— Mabodo Zokir bu yerga kelmadimi? — dedi u entikib.

— Kelgani yoʻq, tinchlikmi?

— Osh vaqtida chiqib ketgancha daragi yoʻq, — yigʻlamsirab dedi Karomat xolam, — qidirmagan joyimiz qolmadi...

— Zokir shu yerda! — deb sakrab oʻnimdan turib yugurdim. Kunduzi boʻlgan gʻalvalar bilan ovora boʻlib, Zokirni paqqos unutib yuborgan ekanman. U ariqning boʻyida, qanday yotgan boʻlsa oʻshandayligicha dong qotib uxlab yotardi. Turtkilab uygʻota boshlaganimda orqamdan oyisi ham kirib bordi.

— Tur-e, odam ham shunaqa qattiq uxlaydimi! — dedim ikkala qulogʻidan baravar choʻzib.

— Qani, uxlaganim, — dedi Zokir esnab, keyin tepasida turgan oyisiga koʻzi tushib qoldi shekilli, shosha-pisha qoʻshib qoʻydi.

— Ogʻzingga qarab gapir, qani uxlaganim. Men bu yerda dars tayyorlab oʻtiribman, bildingmi!..



## KINNA SOLADIGAN APPARAT

**E**ndi o'zingiz ham bilsangiz kerakki, va'da bergandan keyin uni bajarish masalasi ham bor. Kecha Zokirjonga alg'ov-dalg'ov ishlaymiz, deb so'z berganman. Shuning uchun ham u menga ishlashib berdi, yomon ishlamadi, terlab-pishib ishladi. Bugun men unikiga borishim kerak. Ammo buvijonimdan qanday ruxsat olsam ekan? Kechagi gaplardan keyin darrov javob bera qolmas. Ehtimol, Zokirning o'zi u yoq-bu yoqqa o'tib qolar, unda javob olish juda osonlashib ketardi-ya. Shu fikr bilan tez-tez ko'chadan xabar olib turibman.

— Hoshim, tug'adigan tovuqdek buncha betoqat bo'lib qolding? — deb so'radi buvijonim, ke, ignadan mana bu ipni o'tkazib bergin, ko'zim o'tmayapti.

— Betoqat bo'lganim yo'q, — deb tushuntirdim buvijonimga.

— O'tir bo'lmasa, namozlik o'rgataman.

— Yuragim qisilib ketyapti, buvijon.

— Bo'lmasa boqqa chiqib salqinda birpas sabzi o'tagin. Qara, shunday o't bosib ketibdi.

Buvijonimga Zokirga bergan kechagi va'dam haqida yotig'i bilan gapirib bergan edim, avval qoshlarini chimirib o'ylanib turdi-da, keyin sal yumshab:

— Boshimga biror g'alva orttirib kelmaysanmi? — deb so'radi.

— Yo'q, buvijonim, hech qanday g'alva orttirib kelmayman.

— Bora qol bo'lmasa, birpas o'ynab darrov qaytgin.

Oh, mening buvijonim o'zi boshqachada. Sho'xlik qilsang qulog'ingdan cho'zishdan ham qaytmaydi. Yotig'i bilan gapirsang, mana shunaqangi gapingga darrov tushuna qoladi. Buvijonim-ey, ming rahmat sizga! Katta bo'lganimda sizga qo'shqavatli ko'zoynak olib berib bir xursand

qilmasammi!.. Shu paytda mehrim shunaqangi tovlanib ketdiki, yugurib borib buvijonimning oppoq sochlaridan, tirish bosgan yuzlaridan qayta-qayta o'pdim-da, sakrab-sakrab, irg'ishlab ko'chaga yugurdim. Ostona oldida andak bo'lmasa Donoxonni ko'kragim bilan urib yuborayozdim. Dono ikki bukilib, chap qo'li bilan qornini changallagancha yig'lab kirib kelar edi.

— Kim urdi?

— Qornim og'riyapti, akajon!.. — Dono battarroq yig'lab yubordi. Bechoraning sochlari to'zg'igan, rangi bir ahvol, yuzi kichkina bo'lib ketibdi — rahmim kelib ketdi unga. Darrov qo'ltig'idan oldim. Tikayotgan chokni yerga qo'yib buvijonim o'rnidan turdi. Ichkarida tepki mashinada chok tikib o'tirgan oyim ham chiqib keldi. Xuddi birov chaqirtirib kelgandek idoraga naryad topshirgani ketgan dadam ham kelib qoldi.

Dononi so'riga avaylab yotqizib bugun ertalab nima yegani, kecha, avvalgi kuni nima yegani to'g'risida surishtirib ketishdi. O'n minutlardan keyin ma'lum bo'ldiki, Dono qorin og'ritadigan hech narsa yemagan ekan. Qaymoqdan, umuman, qorin og'rimas ekan.

— Kinna kirgan bolangga! — dedi buvijonim go'shtsiz, g'adir-budur kaftini dononing peshonasiga qo'yib, — bor, Sora kampirni aytib ke.

Men yalt etib oyimga qaradim. Nazarimda, dadamga qaraganda, oyim ko'proq tashvishga tushib qolganga o'xshaydi — qo'llari bilinar-bilinmas qaltirab, yuzi juda-juda ham g'amgin bo'lib qopti.

— Yugur, — dedi oyim ham, — darrov oldingga solib kel.

Ochiq aytib qo'ya qolay, Sora xolamni jinimdan battar yomon ko'raman. Uyimizdan shaytonning ovozi keladi, deb o'g'li Mirobiddinxo'jani xumga qamab, qo'liga taqinchoqlar taqib ming kuyga solib o'ynatganini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Sharmandasini chiqarganman ham. Ammo bu haqda hech kimga aytmaganman, ayta olmas ham edim.

Nega desangiz, bu ishlarning hammasini qadrdon do'stim — Sehrli qalpoqcham bilan birgalikda bajarganmanda. Oh, qalpoqcham, qadrdonim, qayerlarda yotibsan, hozir?..

— Oyi. — dedim e'tiroz bildirmoqchi bo'lib.

— Yugur deyaqman, haliyam shu yerdamisan? — urishib berdi oyim.

Rostdan ham ikkilanishning payti emas hozir. Bu yoqda jondan aziz singlim azob chekib, chinqirib yotibdi-yu, men bo'lsam qayoqdagi xayollarga borib o'tiribman-a. Ehtimol, Sora xolam rom ochishni yaxshi bilmasu, kinna solishning ustasidir. Hozir borib «kinna soladigan apparatingizni olib darrov yurar ekansiz...» deyman-da. Yo'q, bormayman, bari bir, u aldaydi, bechora singlimning joniga ozor beradi.

— Oyi, u aldoqchi-ku' — dedim ko'cha eshik oldiga yetganda orqamga qaytib.

Oyshani yuborishdi. Sora xola bir nafasda hovliqib yetib keldi-da, ayvonda yotgan Donoga ko'zi tushishi bilan og'zini katta ochib esnab yubordi. Xoh ishoning, xoh ishonmang shu paytda meni ham, oyim bilan dadamni ham esnoq tutib qolsa bo'ladimi, og'zimizni kap-kap ochib, naq uch minut chamasi «hay-hay-hay»lashib na'ma qildik-da.

— Toza kul bilan isiriq keltir, — buyurdi Sora xolam. Keyin bir narsalarni pichirlab fотиha o'qidi. Piyolaga solingan kulning betini ro'mol bilan berkitib Dononing qorniga surkay boshladi:

— Chiq, chiq, chiqmaganingga qo'ymayman, — derdi xolam o'zi ham ketma-ket esnab, — eski tegirmonlarga bor, qorni katta boylarga bor! Chiq, chiqmaganingga qo'ymayman...

Xuddi shu paytda, nazarimda Dononing yuzi yorishganday bo'ldi. Esnab, dadamga qarab kulimsirab qo'ydi. Hammamiz xursand bo'lib ketdik. Oyim kinnachi xolamga pul, ikki banka qaymoq chiqarib berdi.

Sora xolam ketdi. Men esa so'rida oyoqlarimni solintirib o'tirganimcha o'ylanib qoldim... Shu Sora xolamga hech

tushunib bo'lmaydi-da, o'zi. Bir qarasang, odamlarni aldayotgan bo'ladi, yana bir qarasang, eng og'ir kasallarniyam ko'z yumib-ochguncha davolab qo'yadi... Har qalay, men o'shanda chakki ish qilganga o'xshayman. Bechora Mirobiddinxo'janing yelkasiga igna sanchib jonini qiynabman-a. Yo'q, hoziroq borib undan kechirim so'rayman, velosipedining qosqonini bukib qo'ygan edim, haqini to'layman. Velosiped olaman deb, shaftoli sotib pul yig'ib yurgan edim, yarmini oldim-da, Sora xolaning orqasidan yugurdim...

Mirobiddinxo'ja bo'sh chelakni taraqlatib chalib uydan chiqib kelayotgan ekan.

— To'xta! — dedim entikib.

— Aytaver gapingni, — dedi Mirobiddinxo'ja hayajonlanganimdan bir oz tashvishga tushib...

— Senga pul bermoqchiman.

— Nega endi menga pul berar ekansan?

— Bergim kelib qoldi-da, to'xta.

Sekin qo'limni cho'ntagimga solgan edim, Mirobiddinxo'ja meni uradi deb o'yladi shekilli, chelakni salanglatib qochib qolsa bo'ladimi! Menam bo'sh kelmay orqasidan quvlab ketdim. Yo'l-yo'lakay pulni ko'rsatib boryapmanu o'shandayam ishonmaydi, deng.

— To'xta! — deb qichqiraman.

— To'xtamayman! — deydi Mirobiddinxo'ja orqa-o'ngiga qaramay.

— Pul bermoqchiman axir, tushunsang-chi.

— Puling o'zingga buyursin, niyatingni bilib turibman, — deydi bechora qo'rqib. Oxiri yetib oldim-da, o'ng qo'lim bilan yelkasidan tortib o'zingga qarattim:

— Ma, ol!

— O'z-o'zingga beryapsanmi? — ko'zlarini katta-katta ochib so'radi Mirobiddinxo'ja.

— O'z-o'zingga. Dono butunlay tuzalib qolsa yana beraman, xo'pmi? Faqat tuzalib qolsa bo'lgani. Bechora biram qiynaluvdiki.

Mirobiddinxo'ja mana shu gapimdan keyingina menga ishondi. Pulni qo'liga olib, o'zida yo'q sevinib ketdi:

— Xafa bo'lma, butunlay tuzalib ketadi.

O'zim ham shu paytda xursand edim. Ammo uyga qaytgach, mana shu shodligimdan asar ham qolmadi. Dono o'zini yerga ko'tarib urib chinqirib yig'lar edi.

— Bor, Sora xolangni yana aytib kel, — dedi buvijonim yig'lagudek bo'lib turgan Oyshaga.

Oyim buvijonimning gapini qaytarishga hech botinolmasdi, qo'rqa-pisa:

— Doktor chaqirtirsakmikan-a? — deb e'tiroz bildirdi.

— Doktoringga balo bormi! — urishib berdi buvijonim.

— Doktorlar yara-chaqaga tuzuk.

Bir zum o'tmay Sora xolam yana yetib keldi. Bu gal kinna solmadi-yu, Dononing u yoq-bu yog'ini ko'rib:

— Qorning og'rimasdan avval qayerda o'ynovding? — deb so'radi.

— Gunning tagida... — yig'lab yubordi Dono.

— Bolaginamga devlar nazar solibdi. Gunning orqasidagi changalzorda har chorshanba kuni devlar bazm qurishadi, changalzor sariq devlarning makoni...

Buvijonim, dadam, oyim, Sora xolam to'rtovlari bir narsalar haqida uzoq maslahat qilishdi. Ulardan ancha narida o'tirganim uchun gaplarini shuncha diqqat bilan quloq solsam ham, baribir, eshitolmadim. Negadir, dadam bir-ikki marta jahl qilib o'rnidan turib ketdi. Buvijonim meni urishgandaqa qilib urishib bergan edi, dadam uf tortib, yana o'rniga o'tirdi. Sariq qo'y, sariq qo'yning kallasi deganlarinigina arang eshitib qoldim. Keyin Oysha ikkovimiz qorilarni aytib keladigan bo'ldik. Dadam mototsiklga minib, qayoqqadir jo'nab ketdi. Nazarimda yo sariq qo'y yoki sariq qo'yning kallasini topib kelgani ketgan bo'lsa kerak.

— Oysha, sen eshitdingmi, nima qilmoqchimiz o'zi? — deb so'radim.

— Chilyosin qilmoqchimiz, — tushuntirdi Oysha.

Chilyosin deganlarini ilgari ko'p eshitgandimu, ammo qanaqa bo'lishini, rostini aytsam, hech ko'rmagan edim. Ma'lum bo'lishicha, bu qori pochchamlarning «tadbiri» ekan.

Qishlog'imizda uchta qori pochcha bor. Uchovlari qishloqning uch chekkasida turishadi. Odamlarning aytishiga qaraganda, yaqinroq turishsa bo'lmas emish — bir-birlarining go'shtlarini yeb qo'yisharmish. Menimcha, bu yolg'on bo'lsa kerak. Axir o'zingiz o'ylab ko'ring, hech jahonda odam ham bir-birining go'shtini yeydimi?

Soy bo'yida turadigan qori pochcha juda-juda ham pakana, semirib dum-dumaloq bo'lib qolgan. Uzoqdan qarasangiz, xuddi Dononing yelim qo'g'irchog'iga o'xshab ko'rinadi. Odamlar uni Danak qori deb atashadi. Uchinchi sinfda o'qiydigan Hanifaning bobosini esa Bodom qori, deb chaqirishadi. Bodom qori Danak qoridan sal novcharog'u, ammo oyoqlari juda-juda ham kalta, qo'llari undan kalta. Uzoqdan qarasangiz ham, yaqindan qarasangiz ham bari bir mis samovarning o'zginasi deysiz. Uchinchisini, Yong'oq qori deyishadi. O'ziyam xuddi po'sti archilmagan yong'oqdek dum-dumaloq. Buning ustiga doim boshiga savatdek salla o'rab yuradi. Bir kuni uzoqdan ko'rib qolib, ishonasizmi, bug'doyzorda qo'ziqorin unib chiqibdimi deb, yugurib borib qarasam — qori pochcham engashib o'tirgan ekan.

Mana shu uchovlarini chilyosinga taklif qilib keldik. Eng oxirida yong'oq qori pochchannikiga borgan edim. Qaytib kelsam Danak qori bilan Bodom qori allaqachon yetib kelishibdi-yu, ammo ko'cha eshik oldida til uchida bir-biriga mulozamat qilib turishgan ekan.

— Qani, marhamat qilsinlar! — dedi Danak qori qo'li bilan eshikni ko'rsatib.

— Yo'q, yo'q, o'zlaridan bo'lsin, — dedi Bodom qori kalta qo'lini ko'ksiga qo'yib.

— Yo'g'-e, pirim, marhamat, boshlasinlar!

— O'zlaridan bo'lsin, taqsir.

— Yo‘q, yo‘q, pirim...

Xuddi shu paytda ikkovlari ham eshikka baravar yaqinlashib, bir vaqtda yonbosh bo‘lishib ichkari kirmoqchi bo‘lishgan edi, qorinlari katta emasmi, eshikka qisilib qolishdi.

— Qani, taqsir! — dedi bittasi.

— Yo‘q, o‘zlari bir zo‘r bersinlar, — dedi boshqasi. Nazarimda ikkovi tengdan intilgan bo‘lsa kerak, eshikning narigi tavaqasi sharaqlab ochilib ketdi-yu, ichkariga qarab munkib ketishdi.

Hovliga kirsak, Yong‘oq qori pochcham allaqachon uyda o‘tiribdi. Tavba, bu o‘ngimmi yo tushimmi deb yoqamni ushladim. U axir hozirgina uyida edi-ku! Yoki qanot bog‘lab osmondan uchib keldimikin, yo dalama-dala g‘o‘zalarning ichidan yugurib keldimikin?..

Besh minutdan keyin chilyosin deganlari ham boshlanib ketdi. Qozonga yangi so‘yilgan qo‘yning go‘sh tidan to‘ldirib sho‘rva solindi. Men qo‘l-oyog‘i chaqqon bola emasmanmi, yugurib-yelib choy-poy tashib xizmat qilib turibman. Qori pochchamlar cho‘kka tushib kim o‘zarga bosh silkitishyapti. Danak qori amakim menga o‘xshab qaynatma sho‘rvani yaxshi ko‘rsa kerak, nega desangiz, ikki ko‘zi hovlidagi o‘choqda: qozonga kartoshka tushadimi, piyoz tushadimi, hammasini ko‘rib, kuzatib turibdi. Bir mahal bo‘ynini cho‘zib:

— Kelin, ikkitagina garmdori ham tashlavoring! — deb iltimos qilib qolsa bo‘ladimi.

Yong‘oq qori pochcham dadamdan juda qo‘rqar ekan. Nega desangiz, dadam uyga kirdi deguncha, ovozi baland chiqarib qiroat bilan o‘qiydi. Chiqib ketsa, yana ovozi ichiga tushib ketadi-yu, faqat «bay-bay-bay» degandek boshini silkitib o‘tiraveradi.

Peshinga borib, hammasi tamom bo‘ldi. Dadam uchovlariga ham pul, oltitadan chala ko‘pti patir, gazetaga o‘ralgan go‘sh t ulashdi. Yong‘oq qori pochcham ko‘cha eshikka borganda:

— Inshoollo, qizingiz shu soatdan e'tiboran chopqillab ketadi! — deb qo'ydi.

— Iloyo aytganingiz kelsin, taqsir! — dedi dadam qo'lini ko'ksiga qo'yib.

## V bob

### LAYLATULQADR

**A**mmo, Yong'oq qori pochchamning aytgani bo'lmadi. Hali pichirlashib bir narsalarni o'qiganda butunlay boshqa narsalar to'g'risida gaplashib o'tirishgan ekanmi yoki qori pochchalardan Dononing qorniga nazar solgan sariq Dev mutlaqo qo'rqmas ekanmi, ishqilib, Dono tuzalmadi. Qaytaga battar bo'lib ketdi. Biz Oysha ikkovimiz hozir sariq Dev qori pochchalardan qo'rqib shataloq otib qochib qoladi deb o'ylovdik, bunaqa bo'lmaganini ko'rib, ikkovimiz ham hayron bo'lib qoldik. Bunday qaragam, oyim bilan dadam ham hayron bo'lib, bir-birlariga tikilishib o'tiribdi.

— Dadajon, dadajon-ey! — deb baqirib yubordi Dono qornini changallab.

Dadam sakrab o'rnidan turib ketdi.

— Yana qayoqqa o'tlanib qolding shu paytda? — tashvishlanib so'radi buvijonim.

— Doktor olib kelaman.

— Qo'ysang-chi, bolam bechorani olib ketib qoladi.

— Olib ketsa yana yaxshi, — dadam shoshilib borib mototsiklni ko'chaga olib chiqa boshladi — bechoraning shuncha qiynalgani ham yetar. Sizning gapingizga kirmay, doktor olib kelganimda allaqachon tuzalib qolarmidi...

Chilyosin degani, rostini aytsam, buvijonimdan chiqdi. U kishining odati o'zi shunaqa. Doim qori pochcha, chilyosin, laylatulqadr degani-degan. Buvijonimning gapiga kirib, huv birda ham butun qishloqqa gap bo'lishimizga sal qoluvdi.

Buvijonim ro'za tutardi. Meni ro'za tutmasang ham saharlikda turib mening yonimda o'tirsang o'rniga



o'taveradi deb, bunday bir miriqib uxlashga ham qo'ymasdi, har kuni uyg'otardi.

Bir kuni biznikiga Buvotin xola, Orifning oyisi Obida kelinoyim, farzand ko'rmagani uchun eri bilan doim qo'ydi-chiqdi bo'lib yuradigan Hojarxon opam hammalari to'planishib bir narsalar haqida rosa gaplashishdi. Keyin bilsam, o'sha kechasi laylatulqadr o'tishi kerak ekan, poylamoqchi bo'lib to'planishibdi.

— Voy o'lay, qanaqa rangda ko'rinadi dedingiz? — deb so'radi Hojarxon opa.

— Odam bo'lib ham ko'rinadilar, — tushuntirdi buvijonim, — o't bo'lib o'zlarini o'choqqa ham uradilar... Nimaniki tilasangiz, o'shani darrov muhayyo qiladilar, aylanay! Laylatulqadrni ko'rgan paytingizda nimaniki ushlangiz o'sha sariq tilloga aylanadi, aylanay...

Buvijonimning aytishicha, o'tgan yili qaysi bir qishloqda qaysi bir juvon kechasi laylatulqadrni ko'rib, farzand so'ragan ekan, to'qqiz oyu to'qqiz kun deganda qo'chqordek o'g'il tug'ib olibdi. Buni eshitib Hojarxon opam xuddi o'sha bolani o'zi tuqqandek sevinib ketdi.

Saharlikdan keyin hech birimiz uxlamadik. Birimiz ko'chada, birimiz hovlida, hammamizning ko'zimiz osmonga tikilgan — postda turgan soqchidek hushyor turibmiz. Bir mahal ko'chada allaqanday sharpa eshitilib qoldi-ku! Hojarxon opam o'ngi-tersiga qaramay, yugurib borib o'sha sharpani quchoqlab oldi.

— Qo'yvoring meni! — dedi sharpa qo'rqib.

— Aylanay, laylatulqadr buvam! — yig'lagudek bo'lib dedi Hojarxon opam, — birinchi bo'lib sizni men ko'rdim.

— Qanaqa laylatulqadr?.. Men Abduqodir bo'laman.

— Aylanay ovozingizdan. Tilagim shuki...

— Qo'yvoring meni, uyat bo'ladi!

— Qo'yvormayman, birdan-bir iltimosim.

Xuddi shu paytda Obida kelinoyim halloslab kelib, haligi odamning etagidan mahkam ushlab oldi.

— Oling, qo'lingizni! — dedi Hojar opam achchig'i chiqib, — birinchi bo'lib men ko'rganman.

— Voy qo'shni, ikkovimiz teng ko'rdik-ku, — Obida kelinoyim ham qizishib ketdi.

— Qo'yvoringlar, — dedi begona odam silkinib, — men hech qanday laylatulqadr emasman. Bekobodlik Abduqodir bo'laman. Fermadan kelyapman, tushunsangizlar-chi, fermadan! Mollarga xashak solib kelyapman.

Shunday deb, Abduqodir aka bir silkinib ayollarning qo'lidan chiqdi-da, yo'lto'sar xotinlarga uhradim deb qo'rqib ketgan ekan shekilli, qo'llaridan eson-omon chiqib olganiga shukr qilib qochib qoldi. Ko'ylagining etagi Obida kelinoyimning qo'lida qolibdi...

• Hovliga kirsam, buvijonim katta tolni mahkam quchoqlaganicha qimir etmay qotib qolibdi.

— Buvijon, tolimiz sariq tilloga aylanyaptimi?— deb so'radim.

— Ishingni qil, tirmizak, — urishib berdi buvijonim.

Ertasiga bu gapni qo'ni-qo'shnilar eshitib, bizning ustimizdan rosa kulishibdi. Nazarimda, buvijonimning gapiga kirib bugun ham aldanganga o'xshaymiz, bo'lmasa, nega endi sariq Dev haligacha Dononi qo'yib yubormay qornini changallab, jonini qiynaydi? Rostdan ham gunning oldida devlar yasharmikin-a? Kechasiku, o't qalab o'yinga tushishar ekan, kunduzi qayoqda ketishadi? Changalzorning ichiga berkinib olisharmikin-a...

O'y-xayollarga berilib, hovliga dadam bilan ketma-ket doktor kirib kelganini ham payqamay qolibman. Doktor dardi og'irligidan qora terga botib hushidan ozay deb yotgan Dononi shoshilib u yoq-bu yog'ini ko'rdi-da, boshini keskin ko'tardi:

— Ko'richak bo'пти!

— Nima qil deysiz? — Shoshilib so'radi dadam.

— Qani, mashinaga olib chiqdik.

Birinchi bo'lib buvijonim yig'lab yubordi. Ketidan oyim bilan Oysha ham jo'r bo'lishdi. Bemehr deb nomimni

yomonga chiqarib qo'yishlaridan qo'rqib, men ham yig'lashga shuncha urinsam ham ko'zimga yosh kelmasa bo'ladimi?

«Tez yordam» mashinasida rayon markaziga — Yaypanga jo'nadik. Dononing o'ng tomonida doktor, chap tomonida dadam, oyoq tomonida men o'tirib olganman. Mashina qushdek uchib boryapti-yu, men bo'lsam negadir nuqul sariq Dev haqida o'ylayman...

Ko'richakni operatsiya qiladigan oriqqina doktor kasalxonaning bufetida ovqat yeb o'tirgan ekan. Chap qo'lida stakanda bug'i ko'tarilib turgan choy, o'ng qo'lida bir burda non ushlagancha yugurib chiqdi-yu:

— Men hozir... — deb yana bufetga kirib ketdi.

Bir zum o'tar-o'tmas xalat kiygan erkak-ayol doktorlar, haligi maktabga komissiya kelganda o'qituvchilar tipirchilab qolishadi-ku, ana shunday tipirchilab qolishdi. Buvijonimga o'xshab ko'zoynak taqib olgan bir kampir dadam ikkovimizni orqasidan ergashtirib har xil dorilarning hidi anqib turgan bir xonaga olib kirdi-da:

— Shu yerda o'tirib turinglar,— deb tayinladi.

— Qalay, qizaloqning ahvoli yaxshimi? — tashvishlanib so'radi dadam.

— Operatsiyaga olib kirishdi.

— Operatsiya?! — dadam beixtiyor o'rnidan turib ketdi. Men ham qo'rqqanimdan o'tirgandan o'tirib qoldim... Bordi-yu yo'q... Yo'q... Unday bo'lmaydi, soppa-sog' chiqadi, albatta, sog' chiqadi!

Dono-ey, singilginam-ey! Men bo'lsam doim seni xafa qilaman-a, ish buyuraman-a. Bundan keyin senga hecham ish buyurmayman, hammasini o'zim bajaraman, Hoshimjon bajaradi...

— Yig'lama, — dedi dadam menga o'girilib, — ko'z yoshlaringni artib ol. Erkak kishi yig'lamasligi kerak.

Dadam divanga cho'kib, bolishiga suyangancha jim o'tiribdi, bir narsalar haqida o'ylayotganga o'xshaydi. Ammo nima to'g'ridaligini bilmayman. Men bo'lsam ope-

ratsiya stolida qiynalayotgan singlimning ahvolini ko'z oldimga keltirishdan qo'rqib jo'rttaga Danak qori. Bodom qori, Yong'oq qori pochchamlar to'g'risida o'ylab ketdim... Demak, sariq Devni haydaymiz deb yolg'on gapirishgan ekan-da, dadamning mashina olaman deb yig'ib yurgan puliga chang solgilari kelib qopti-da! Mirobiddinxo'ja-chi, Mirobiddinxo'ja! Tishimning kovagida asrab yurgan pulimni olib borib beribman-a. «Qaytib olmasanmi?» deydi-ya tag'in... Hammalari ham shoshmay turishsin hali, qaynatma sho'rvaga garmdori solib ichishni ko'rsatib qo'ymasammi ularga!

Eshik ochilib yo'l-yo'lakay qo'lidagi kapron qo'lqopini yechib oriq doktor kirib keldi. Peshonasidan, yuzlaridan ter quyilyapti, juda charchagan ko'rinadi, mast odamdek gandraklab-gandraklab ketyapti.

— Qalay, tuzukmi? — shoshilib so'radi dadam. Doktor xiyol kulimsirab, yaxshi degandek, boshini silkitdi-da:

— Besh minut kechikkaningizda... qizchadan ajralib qolardingiz, — dedi dadamga qaramay. Keyin oppoq sochiq bilan yuzlarini artayotib, — nega dard tutgan zahoti olib kelmadingiz? — deb so'radi. Dadam o'zi juda kam gapiradi. Ba'zi paytlarda gapirishga gap topolmay kun bo'yi g'ing'illab ashula aytib yuraveradi. Qarasam, shu paytda ham dadam hali-veri javob beradiganga o'xshamaydi.

— Biz uni chilyosin qildirdik! — deb tushuntirdim doktorga.

— Chilyosin? Qanaqa chilyosin? — qiziqib qoldi doktor amaki. Qiziqib qolgani uchun men ham sal tushunadiganroq qilib gapirdim.

— Qori pochchalarni to'plab «vecher» qildik.

Doktor amaki, nazarimda, yana hech narsa tushunmadi. Yelkasini qisib menga boshdan-oyoq razm soldi-da, «bunaqangi joyga yosh bolalarni olib kelish yaramaydi», deb tanbeli berdi dadamga.

— Qizaloq tuzukmi o'zi? — deb so'radi yana dadam.

— Biror soatlardan keyin kirib ko‘rishlaring mumkin, — shunday deb doktor amaki chiqib ketdi. Aytganidek, roppa-rosa bir soat o‘tgach, dadam ikkovimizga oq xalat berib, ko‘rishga ruxsat etishdi. Kirsak, Dono oppoq choyshablarga o‘ralib mushuk boladek beozorgina pishillab uxlab yotibdi. Uyg‘otgani ko‘zimiz qiymay, oyoq uchida yurib tashqari chiqdik.

— Yur endi, — dedi dadam meni ko‘chaga boshlab, — singling uyg‘onguncha qishloqqa borib kelamiz, oying bilan buvijoningning ko‘nglini tinchitmasak, naq yurak o‘ynog‘i bo‘lib qolishadi-ya.

O‘sha kuni uyda buvijonim bilan oyimning yo‘qligidan foydalanib, Sehrli qalpoqchamni berkitib qo‘ygan joyga borib eski-tuski lattalar orasidan uni yana topib oldim.

— Qalpoqcham! — qichqirib yubordim sevinganimdan...

— Hoshimjon! — dedi qalpoqcham ham quvonchini ichiga sig‘dirolmay.

— Men seni sog‘inib qoldim, do‘stim!

— Men ham qachon kelasan deb kutib yotgandim, azizim.

## VI bob

### SARIQ DEVNI MINIB OLDIM

— **Sh**unday qilib, Donoxonga hamla qilgan sariq Dev bilan olishsam maylimi? — so‘rayman qalpoqchamdan.

— Olish, albatta, olish.

— Yordam berasanmi?

— Berganda qandoq.

— Xo‘sh, seningcha ishini nimadan boshlasam ekan?

— Ko‘zlaring yumilib ketyapti, hozircha to‘yib uxlab ol, — maslahat berdi dono qalpoqcham, — ertaga bir gap bo‘lar.

Chindan ham uyqum kelib qolgan ekan, boshimni yostiqa qo‘yishim bilan pishillab uxlab qolibman. Tong

saharda, hali hammayoqda xo'rozlar basma-basga qichqirishayotgan bir paytda buvijonim turtkilab uyg'ota boshladi.

— Tursang-chi, ko'zing ochig'u o'zingni uxlaganga solasan-a.

— Hali erta-ku, buvijon, — deyman ko'zimni ochgim kelmay.

— Namoz o'qiymiz, tur, bolam.

— Kecha o'qidik-ku, tag'in o'qiymizmi?

— Har kuni o'qiladi. Tur deyaрман.

— Buvijon, — dedim sekin ko'rpamni ustimga tortib, — bugundan boshlab namoz o'qimayman.

Yo'q, buvijonim bilan hazillashib bo'lmaydi. Oyim bo'lsa boshqa gap, jahli chiqqani bilan urmoqchidek bir hamla qiladi-yu, bari bir urmaydi. Ammo buvijonim... bu kishi kelganlaridan buyon quloqlarim cho'zilaverib har bittasi naq supraday bo'lib ketdi-ya.

Sakrab o'rnimdan turib yuvindim, namoz o'qidik. Keyin qaymoq bilan choy ichdik. Nonushta tugagach, dadam o'z ishiga, buvijonim bilan oyim Donoxonning holidan xabar olgani Yaypanga jo'nab ketishdi. Men bo'lsam oyoqni qo'lga olib, Zokirvoynikiga yugurdim.

Lekin borganim ham ko'p yaxshi bo'lgan ekan-da, nega desangiz, bechora do'stim bir o'zi beda o'rgisi kelmay, ertalabki salqinda jindak mizg'ib olsammi, deb o'ylanib turgan ekan. Menga ko'zi tushishi bilan o'zida yo'q, sevinib ketdi.

— Men bo'lsam, kelmaysan deb turuvdim, — dedi u nima deyishini bilmay.

— Kecha kelardim-u, Dono kasal bo'lib qoldi-da.

— Aytgandek, Donoga nima bo'ldi o'zi?

— Dev hamla qilibdi unga!

— Dev! Qanaqa Dev?! — Qo'rqqanidan sapchib o'rnidan turib ketdi do'stim.

Kecha uyimizga folbin xola, Danak qori, Bodom qori, Yong'oq qori pochchamlar kelib o'sha Devni quvishga ko'p

harakat qilganlarini, ammo hech bir natija chiqarolmay dadamdan pul olib ketganlarini gapirib berdim.

— Men bugun u bilan jang qilmoqchiman, — dedim gapimni tugatib.

— Kim bilan? — shoshilib so‘radi Zokir.

— O‘sha sariq Dev bilan-da, kim bilan bo‘lardi.

Zokir o‘zi qo‘rqoq bola emasmi, Devning nomini eshitgandayoq rangi oppoq oqarib ketgan edi. U bilan olishmoqchi bo‘lganimni eshitib, ishonasizmi, og‘zini ochgancha angrayib qoldi. Keyin ishga tushib bedani o‘rib bo‘lgunimizcha ham bu haqda bir og‘iz gap ochmadi. Jo‘rttaga gapni nuqul boshqa yoqqa buradi deng. Agar biz ikkimiz doim birga bo‘lsak, har qanday mushkul ishni ham ko‘z yumib-ochguncha bajarib tashlar emishmiz, darslardan ham nuqul besh olarmishmiz, eng bezori bolalardan ham zig‘ircha qo‘rqmas emishmiz.

Men mavridi keldi deb o‘yladimu Zokirni ham kechasi men bilan birga borasan, Devga qarshi jang qilamiz, deb taklif qildim. Zokir bosh chayqab:

— Men kechasi kitob o‘qimoqchiman, — deb ko‘nmadi.

Mening g‘alati bir odatim bor. Birovga aytmayman, deb so‘z bersangiz sizga ham aytib berishim mumkin... Agar bitta-yarimta odamni gapimga ko‘ndirolmasam, darrov uni maqtashga tushib ketaman. Maqtayverib, eng qaysar odamni ham bir zum o‘tar-o‘tmas yog‘dek eritib yuboraman. Shu paytda, o‘ziga sezdirmasdan, Zokirvoyni ham maqtab yubordim-ku. Botirlarning eng pahlavoni, pahlavonlarning eng botiri sen, dedim. Bora-bora o‘zini bu gapga ishontirdim ham.

— Bilagingdagi kuchni qara, — dedim gapimning oxirida, — to‘rtta dev bilan ham bemalol olishsang bo‘laveradi.

Zokir sal yumshagandek bo‘ldi.

— Shunday qilib, sariq Dev bilan olish deysanmi? — bilaklariga ko‘z tashlab so‘radi u.

— Nega endi sen olishar ekansan. Mening o‘zim olishaman. Faqat suvsab qolganimda suv berib tursang bo‘ldi.

— Qo'lni ber! — Zokir pahlavonlardek oyoqlarini kerib o'rnidan turdi-yu, nimadir esiga tushib ketdi shekilli, shoshilib so'radi: — Bordi-yu Dev meni osmonga olib chiqib ketsa nima qilaman?

— Qo'rqma, olib chiqib ketmaydi. Bordi-yu qo'rqsang arqon olib borib men seni tutga mahkam bog'lab qo'yishim ham mumkin.

— To'g'ri aytasan. Yaxshisi, boylab qo'ya qol meni. — maslahatga ko'ndi Zokir, — tag'in Dev ko'tarib ketsa oyim axtarib yurmasin.

Zokir bilan gapni bir joyga qo'yib, tashqariga chiqdimu qadamim sustlashayotganini sezib qoldim. Bundoq o'ylab qaragam, hazil-hazil bilan katta ishni boshlab yuboribman. Axir Dev Orifning kuchugi emaski, biqiniga poylab turib bitta tepsang vangillab qochib qolsa. Ertaklarda aytilishicha, devlar juda kuchli, juda makkor bo'lishadi. Buning ustiga ularning sehrgarlikdan ham xabari bor. Shunday bo'lgandan keyin men ham tuzukroq, tayyorgarlik ko'rishim, iloji bo'lsa, uni g'aflatda bosishim, hech bo'lmaganda maydonga o't qalab o'yinga tushayotgan paytida hujum qilib qolishim kerak.

To'ppa-to'g'ri Sora xolamnikiga yo'l oldim. Avval Mirobiddinxo'jani topib kechagi pulimni qaytarib olaman. Nega desangiz, oyisi kinna solgani bilan, bari bir Dono tuzalmadi. Tuzalmagandan keyin birovning pulini cho'zib qo'ysinda... Undan keyin Sora xolamdan sariq Dev haqida kecha birinchi bo'lib folbin xolam gap ochgan edi-da.

Mirobiddinxo'ja uylarida ko'rinmaydi. Sora xolam g'ir-g'ir shabada esib turgan ayvonda atlas ko'rpachalarning ustida maza qilib dam olib yotibdi, har zamonda qo'lidagi bir dasta rayhon bilan xira pashshalarni haydab qo'yadi.

— Assalomu alaykum, xolajon! — dedim kelganimni sezdirish uchun.



— Mulla bo'ling, mulla bo'ling, — deb folbin xolam asta o'rnidan turib o'tirdi, — kel, o'g'lim, kel.

— Mirobiddinxo'ja bo'lsa o'ynaymiz deb keluvdim.

— O'rtog'ing dalaga qovunga ketuvdi-ya. Xabaring yo'q-mi bugun kolxoz qovun uzibdi... Dono tuzukmi?

— Tuzuk. Kecha operatsiya qilishdi. Doktor yaxshiyamki kinna soldirganlaring, bo'lmasa o'lib qolar ekan, dedi.

Shunday deyishim bilan negadir, Sora xolam kulib yubordi. Oyog'iga qo'ngan pashshani rayhon bilan bir urib:

— Obbo o'g'lim-ey, shunday dedimi-a? — deb so'radi.

— Ha, shunday dedi.

— Bundan keyin yolg'on gapirmagin, o'g'lim, xo'pmi?

— Xo'p bo'ladi, xolajon, — dedimu yolg'on gapirganimni sezib qolgani uchun bu yog'ini sal to'g'rilab gapira boshladim.

— Undan keyin, buvijonim, gunning oldiga bormanglar, u yerda Devlar makon qurgan, ziyon yetkazadi deyaptilar... Rostdan ham o'sha yerda Dev bormi, xolajon?

— Mana endi o'zingga kelding, bolam, — Sora xola qo'lidagi rayhondan bir shincha uzatdi, — ma, iskab-iskab o'tir, makon ko'rgan. Bemahalda u yoqlarga bora ko'rmagin.

— Kechasiyu kunduzi bo'ladimi-a?

— Yo'q, ko'proq kechasi bo'lishadi.

— Kunduz-chi, kunduzi qayoqqa ketishadi?

— Kunduzi Ko'hiqofga uchib ketishadi, bolam.

Keyin Sora xolam, men yaxshi bola bo'lganim uchun, boshqa narsalar haqida ham gapirib berdi. Devlar goh qanot chiqarib qushdek uchar ekan, goh shamol bo'lib guvillar ekan, goh suv bo'lib shaldirar ekan, goho odamga o'xshab ham ko'rinib qolar emish... Bir kun Sora xolam narigi qishloqdan kelayotgan ekan, yo'lda Mirobiddinxo'jaga o'xshagan bir bola yig'lab o'tirgan emish, nega yig'laysan desa — battar yig'larmish. Yur, uyga olib ketay desa, yurolmayman dermish. Shunda Sora xolam rahmi kelib orqasiga opichib olgan ekan, avval qushdek yengil tuyulibdi,

keyin tegirmon toshdek og'ir bo'lib ketibdi. Sora xolam ter bosib:

— Ke, o'g'lim, endi birpas piyoda yurgin! — deb bundoq yelkasi osha nazar tashlasa, orqasida bir qop tezak turgan emish.

— Xola, siz qo'rqib ketmadingizmi? — deb so'radim.

— Qo'rqmadim, qo'rqsam zarar yetkazardi, — deb tushuntirdi Sora xolam.

Yuragimga vahima tushib qoldi. Qiziq, vahima kuchaygan sari Dev bilan bo'ladigan olishuvga bo'lgan qiziqishim ham oshaverdi. Oxiri omonsiz jang qilishga qaror qildim. «Mayli, buvijonim namozlik o'rgataman deb naq jonimni hiqildog'imga keltirib qo'ydi. Qulog'imdan cho'zaverib bezor qildi. O'lsam, qayta shulardan bir yo'la qutulaman. Bordi-yu uni o'ldirsam yana shuhratim chiqadi, obro'yim oshadi, yana mulla Hoshim, bo'lib ketaman...»

Kun botarga borib hammasi tayyor bo'ldi. Zokirnikiga borib, oyisidan «Zokirjon kechasi biznikida yotsin, kitob o'qiyimiz», deb ruxsat oldik. Biznikiga kelib buvijonimni «Zokirlarnikida yotib ikkovimiz namozlik o'rganmoqchimiz», deb ko'ndirdik-da, jang bo'ladigan joyga qarab yo'l oldik.

Gum deganimizni sizga tushuntirib bersam, u uyimizdan yarim kilometr narida. Past tomondan paxtazor, tog' tomoni odam o'tib bo'lmaydigan changalzor. Ana shu changalzorlar orasidan yoyilib katta anhor oqib chiqadi-da, paxtazorga yetay deganda uch metr balandlikdan pastga shaldirab tushadi — mana shu yerni gum deb ataymiz.

Qorong'i tushishi bilan o'sha joyga yetib oldik. Darhol u yoq-bu yoqqa ko'z yugurtirib jang bo'ladigan joyni o'zimcha chamalab ham qo'ydim.

— Sherik, ho sherik, — deb meni turta boshladi Zokirjon, — men... men... qaltirab ketyapman.

— Sovqotdingmi?

— Yo'q, sovqotmadim.

— Nega qaltiraysan bo'lmasa?

— Yur, keta qolaylik. Jangni ertaga qilarmiz.

— O'lardek qo'rqoqsan-da.

— Kim qo'rqoq?

— Sen-da, kim bo'lardi.

— Men-a!

— Ha, sen.

— Bo'pti, — dedi Zokir achchig'i chiqib, — qani o'sha Deving kelsin-chi, yakkama-yakka olishmasammi!

Shunday deb, Zokir jim bo'ldi. Ikkovimiz xarsang toshning panasiga yonboshlashib olganmiz. Bu yerdan qishloqdagi uylarning chiroqlari bemalol ko'rinib turadi. Shamol qulog'imizga odamlarning baqirib-chaqirganini, sutga to'ymay qolgan buzoqchalarning erkalanib ma'ragan ovozini keltirib uradi, bugun klubda kino bo'layotgan bo'lsa kerak, kimdir «Olg'a!» deb baqiryapti.

Oy chiqib, changallarning uchi yiltirab qoldi, osmon xiralashib atrof yorishgandek bo'ldi. Endi changalzorni ham, paxtazor tomonni ham bemalol ko'rsa bo'ladi.

— Bugungi voqea haqida birovga og'iz ochsang, joningdan umidingni uzaver! — deb pichirladim Zokirga.

— Xo'p, — dedi Zokir ham, — hech kimga aytmayman.

Shu paytda suvning shaldirashi bir oz pasaydi-da, to'satdan yana kuchayib ketdi. Changalzor orasida nimadir qichqirmoqchi bo'lgan xo'rozdek qanotlarini tapillatib «huv-huv» deb qo'ydi. Keyin hammayoq yana suv quygandek jimjit bo'lib qoldi.

Bunday qarasam, Zokir allaqachon uxlab qopti. Bechoraga shu paytda negadir juda rahmim kelib ketdi, ohistagina boshini silab qo'ydim. So'ngra va'damga binoan arqon keltirgan edim, o'shaning bir uchini do'stimning qorniga bog'ladim, ikkinchi uchini dev tugul alvasti ham yecholmaydigan qilib tutga chandib tashladim. Sovqotib shamollab qolsa oyisidan baloga qolmay deb ko'ylagimni yechib ustiga yopib ham qo'ydim...

Yolg'iz qolgach, qo'ltig'imdagi qalpoqchamni chiqarib boshimga kiyayotgan edim:

— Nega qaltiraysan? — deb so‘radi qalpoqcham.

— Rostini aytsam, qo‘rqyapman.

— Qo‘rqma. Qo‘rqoqlar hech qachon murodiga yetolmaydi. Shu gap esingdan chiqmasin, — ko‘nglimni ko‘tardi qalpoqcham.

Ko‘zga ko‘rinmaydigan bo‘lib olgach, xanjar bilan miltiqni olib nariroq ketdim... Kutyapman, kutyapman, vaqt yarim kechadan o‘tib, uyqularim kelib ketdi hamki, ammo sariq Devdan hamon darak yo‘q... Bir mahal ko‘zim uyquga ketay deb qolgan ekan, changalzor ichidan shatirshutur ovoz eshitilib qoldi. Sakrab o‘rnimdan turib ketdim... Ana, kelyapti! O‘zingni dadil tut, Hoshim. Singling Donoxonning o‘chini oladigan payt keldi! O‘ng qo‘limda yalang‘och xanjar, chap qo‘limda o‘qlangan miltiq, maydonda pahlavonlardek tik turibman. Dev menga qarab bostirib kela boshladi, ana, u yaqin qoldi: yelkasida bir qop yuk. Nazarimda, changalzorda o‘tirib olib, 20—30 odamning go‘shini yeb, boshini qopga solib ko‘tarib kelayotganga o‘xshaydi. Obbo makkor-ey, afti angorini boplab o‘zgartirib, odamzod qiyofasiga kirib olibdi-ya, xoh ko‘ring, xoh ko‘rmang, Danak qori pochchamning o‘zginasi, deysiz!

— To‘xta! — dedim bir odim oldinga tashlab.

Dev to‘xtab, u yoq-bu yoqqa nazar tashladi-da, odamga o‘xshab:

— Astag‘firullo! — deb qo‘ydi. Keyin xuddi eski parovozdek pishillab men tomonga yana bostirib kela boshladi. Meni nazarimda, kajava savatdek keladigan qorni bilan bosib o‘ldirmoqchiga o‘xshaydi.

— To‘xta! — deb na‘ra tortib yubordim pahlavonlardek.

Dev oyoqlarini kerib to‘xtadi-da, yana «astag‘firullo!» deb qo‘ydi. Keyin pichirlab afsun o‘qiy boshladi. Ha, mana endi jang boshlanadi, endi qo‘rqoqlik qilishning payti o‘tdi, qani olg‘a, Hoshimboy!

— Qani ayt, qilichbozlik qilishamizmi, miltiqda otishamizmi yoki kurash tushasanmi?

Dev o'zini mug'ambirlikka solib avval qaltiradi, so'ngra meni chalg'itish uchun:

— Sen kimsan o'zi? — deb so'radi, — insu jinsmisan yoki devu parimisan?

— Men odamzodman.

— Odamzod? Odamzod bo'lsang nega ko'zga ko'rinmaysan?

— Bu mening ishim... Xo'sh, sening o'zing kimsan? Sariq Devmisan yoki qora Devmisan? Ayt?

— Men Danak qori bo'laman.

— Danak qori?! Nega bo'lmasa changalzorda yuribsan? Nega begunoh odamlarning kallasini ko'tarib yuribsan?

— Kalla emas, bu — qovun. Qovun olib kelyapman.

— Qaysi mamlakatdan o'g'irlab kelyapsan?

— Mamlakatdan emas, o'zimizning brigadadan. Kunduzi borsam mehnat kuningiz yo'q ekan, deb bermadi. Shuning uchun kechasi o'g'irlab kelyapman... Astag'firullo, e xudo, o'zing asragin.

Dunyoda o'zi devdan ayyori bo'lmas ekan. Meni gapga chalg'itib, hayolimni o'g'irlab sekin-asta tappa bosishning payidan bo'lyapti. Yo'q, Hoshimboy unaqangi osonlikcha aldanadiganlardan emas. Yalang'och pichoqni shartta ko'kragiga tirab:

— Pichoqbozlikmi? — deb so'radim.

— Yo'q, yo'-o'-o'-o'q, pichoqdan qo'rqaman...

— Otishamizmi bo'lmasa?

— Aslo, aslo! E odamzod, qo'rqitma meni! — shunday deb, Dev yelkasidagi qovunni tashlab yubordi. Demak, masala ravshan. U men bilan kurash tushmoqchi. Fursatni qo'ldan bermay, bir sakrab yelkasiga minib oldim.

— Yengilganingni tan ol, bo'lmasa chilparchin qilaman.

— Yengildim. E odamzod, yengildim.

— Bundan keyin odamzodga ziyon-zahmat yetkazmayman...

— Hoshimjonning singlisi Donoxonga nazar solganim uchun tavba qildim de.

— Dam solganim uchun ming tavba qildim.

— Bundan keyin brigada dalasidan qovun o'g'irlamayman, deb so'z berasanmi?

— So'z beraman, qovun o'g'irlamayman, — dedi Dev dag'-dag' qaltirab. Endi nima qilsam ekan, deb o'ylanib qoldim. Ertaklardagi pahlavonlar Devlar bilan olishib, ularni yenggach, o'zlariga qul qilib olishadi. Tog'dan o'tin tashittiradi, xarsanglar keltirib, hashamatli uylar soldiradi. Tomimiz to'la o'tin, uyimiz hali yap-yangi. Shunday bo'lsa ham Devga osonlikcha javob berib yuborgim kelmasdi.

— Qani bir yugur-chi! — dedim Devning jag'iga pichoqning dastasi bilan urib.

— Qayoqqa yuguraman?

— Qishloqni bir sayohat qilib kelaylik.

Dev bir uf tortib oldi-da, lo'killaganicha, yugurib ketdi. Lekin o'ziyam rosa maza qildim-da. Qasam ichib aytamanki, umrimda bunaqangi rohatijon bo'lmagan. Men sizga aytsam, velosiped minib kataysa qilgandan Devni minib kataysa qilgan ming marta yaxshi ekan. Oyog'ing ham charchamaydi, o'zing ham terlamaysan, qadami sal susaysa, boshiga bir mushtlab qo'ysang, tamom — zipillab yugurib ketadi.

Qishloqni ikki marta aylanib, Devni yana gumning oldiga qaytarib keldim-da, qopdagi qovunlarni yelkasiga ortib:

— Qani, endi o'sha Ko'hiqofingga qarab uchib qol! — dedim, — bundan keyin yana shu atroflarga keladigan bo'lsang joningdan umidingni uzaver!

Dev qushdek uchib ketdi.

Shu paytda Zokirjon esimga tushdi-yu, rostini aytsam, juda ham qo'rqib ketdim. Hali men qari Dev bilan olishayotganimda uning bolalari kelib Zokirni ko'tarib Ko'hiqofga olib ketgan bo'lsa-ya! Yugurib borib qarasam, yo'q, do'stinam o'z joyida ekan — oqshom qanday uyquga ketgan bo'lsa shundayligicha uxlab yotibdi. Qalpoqchamni boshimdan olib qo'ynimga soldim-da, turtkilab uyg'ota boshladim. Qani endi qimir etsa. Dev bo'g'ib ketgan bo'lsa-

chi, deb o'yladimu shoshilib yuragi uryapgan-urmayapganligini bilish uchun qulog'imni ko'kragiga bosdim. Xayriyat, bo'g'magan ekan — yuragi gupillab ishlab turibdi. Yuragi duk-duk, dik-dik deb biram chiroyli uryaptiki, eshitgan saring eshitging keladi. Birpas eshitay deb yotib ko'ksiga boshimni qo'yganimcha ko'zim uyquga ketganini o'zim ham sezmay qolibman.

Kimdir qulog'imdan qattiq cho'zganday bo'ldi. Ko'zimni ochsam, tepamda oyim, buvijonim, yana ikki-uch ayol yig'lab turishibdi. Zokirni ham turtkilab uyg'otishmoqda. Oyisi yig'lab belidagi arqonni yechish bilan ovora. Quyosh ko'tarilib naq tepamizga kelib qolipti.

— Oqshom qayerda yotgan edilaring? — dag'-dag' qaltirab so'radi buvijonim.

Zokir menga qaradi, men unga qarab ko'zimni qisdim-da:

— Zokirlarning tomida, — deb javob berdim.

— Bu yerga qanday kelib qoldilaring?

— Bilmaymiz, — dedik Zokir ikkimiz.

— Miltiq bilan pichoq qayoqdan keldi?

Zokir ikkimiz nima deyishimizni bilmay baravariga yelkamizni qisib qo'ya qoldik. «Aytmadimmi, bularni Dev ko'tarib kelgan...» dedi buvijonim vahimali ovoza. Keyin Zokir ikkovimiz Devning qo'lidan eson-omon chiqqanimiz uchun bizga hurmatu e'zozlar bildirishib uy-uyimizga olib ketishdi.

O'sha kuni xunuk bir xabar eshitdim.

Danak qori pochcham «kechasi gumning oldida menga Dev hamla qildi, tong otguncha olishib chiqdim...» deb gap tarqatibdi.

Buni eshitib, peshonam terlab ketdi. Men yanglishib, sariq Dev o'rniga qori pochchamni kechasi bilan minib chiqqanga o'xshayman...

## QORI POCHCHAM PENSIYA SO'RAYAPTI

Uch-to'rt kungacha ko'nglim gash bo'lib yurdi. Nimadanligini, o'lay agar, o'zim ham bilmayman. Shu deng, ko'nglim gash bo'lgan paytlarda qo'lim hech ishga bormay sal anqovroq bo'lib qolaman.

— Hoshim, sal mashqing pastroq ko'rinadi, — deb so'radi dadam ishga jo'nayotib.

— Nima dedingiz?

— Xafaroq, ko'rinasan deyman.

— Bilmasam.

— Yo men bilan birga borging kelyaptimi?

— Qayoqqa, dada?

— Men ishlayotgan joyga-da.

— Jon deb boraman, rahmat, dadajon! — Sakrab o'rnimdan turib ko'ylagimni kiyayotgan edim, gapimizni eshitib o'tirgan buvijonim:

— Ro'zi! — deb dadamni chaqirib qoldi.

— Nima deysiz? — dedi dadam mototsikl minayotib.

— O'zing ketaver, Hoshimning ishi bor.

— Darrov orqasiga qaytarib yuboraman, — dadam menga qarab ko'zini qisib qo'ydi. Yugurib borib mototsiklning orqasiga o'tirib oldim.

Jo'nab ketdik.

Toqqa qarab chiqib boryapmizu, sevinganimdan dadajonimni mahkamroq quchoqlagim keladi. O'zi mening dadam ajoyib-da. Mototsiklni mana shunaqangi uchirib haydaydi, universal haydab paxta chopiq qilishni ham joyiga qo'yadi, buldozer minib yerlarni tekislab ham ketaveradi. Undan keyin mashinaga o'tirib olib g'isht desangiz g'isht, shag'al desangiz shag'al tashib ishingizni birpasda bitirib beradi. Shuning uchun ham dadamni u yoq-bu yoqqa taklif qilishgani-qilishgan. Bolalar lageri qurilayotgan joyning direktori Abdushukurov amaki cho'lga borib, ataylab



damni bu yoqqa olib kelgan. O'ziam Abdushukurov amaki dadamning boshlig'i bilan naq ikki soat tortishibdi.

— Yo'q, Ro'zivoyni berolmayman, — debdi dadamning boshlig'i.

— Nega endi berolmas ekansiz? Yuqoridan topshiriq, olib kelganman, — deпти Abdushukurov amaki.

— Chunki Ro'zivoyni biz universal deymiz, universal cho'lga juda ham zarur.

— Afsuski, berishga majbursiz, — deb ikki boshliq qattiq tortishib qolishibdi-yu, oxiri dadamning o'zidan so'rashga majbur bo'lishibdi.

— Boshqa joyga bo'lsa bormasdim, albatta, — deпти dadam, — ammo lager qurilishi bo'lgani uchun yo'q deyaolmayman... bolalarni ham bir xursand qilaylik-da, axir...

Shundan keyin Abdushukurov amaki dadamni o'zining yengil mashinasiga o'tkazib, to'ppa-to'g'ri lager qurilayotgan joyga olib kelibdi-da:

— Ishni bugun boshlaymizmi yoki ertagami? — deb so'rabdi.

— Paysalga solib o'tiramizmi? — deb dadam yenglarini shimarib ishga tushib ketibdi.

Xayollarga berilib, qishloqdan chiqib tog' yo'lga burilganimizni ham bilmay qolibman. Bir kilometr yurilgach, Uzunquloq ota mozori keladi. Bugun chorshanba bo'lgani uchun uzoq-yaqindan kelgan ziyoratchilarning hammasi o'sha tomonga qarab ketishyapti: birovi mashinada, birovi dadam ikkimizga o'xshab mototsiklda, eshak minganlaru piyoda ketayotganlar ham ko'p.

Biz ziyoratgohdan yigirma metrcha pastroqdan to'ppa-to'g'ri qurilish bo'layotgan joyga qarab o'tib ketdik. Dadam mototsiklning oldingi g'ildiragini chinorga qadab:

— Tush! — deb o'zi ham sekin tusha boshladi. Chinorning shundoqqina yonboshidan hayqirib katta soy oqyapti. Soyning o'ng tomonidigi yalanglikda g'ishtlar uyumi, qop-qop sementlar, yog'och bilan taxta yer-ko'kka sig'maydi.

Chap tomonda esa skreperda adirlarning past-balandini tekislashyapti.

— Dada, tekislab nima qilishadi? — deb so‘radim kiyimini almashtirayotgan dadamdan.

— Badantarbiya maydonchasi bo‘larmish.

— Nariroqdagi chuqurcha-chi, yerto‘la bo‘ladimi?

— Yerto‘laga balo bormi. Bolalar cho‘miladigan sement hovuz bo‘ladi u yerda.

— Dada, rostdan ham bolalar uchun qurilyaptimi-a?

— Bo‘lmasam-chi.

— Faqat a‘lochilar dam oladimi?

— Bo‘lmasam-chi.

— Dada, menchi, bu yil faqat «5» olib o‘qimoqchiman.

— Qani endi qo‘lingdan kelsa... Soz bo‘lardi-ya... Hoshim, birpas u yoq-bu yoqni tomosha qilginu, darrov qaytib ketgin. Bo‘lmasa buvingdan baloga qolamiz.

— Xo‘p bo‘ladi, dadajon.

Dadam korjomasini kiyib olgach, sekin borib yalanglikda tuproq oladigan cho‘michini yerga tiragancha dam olib yotgan buldozerning ustiga chiqib, menga qarab qo‘lini bir silkitib qo‘ydi-da, ishga kirishib ketdi. Cho‘michiga shag‘alni to‘ldirib oladi-da, uni osmoni falakka ko‘tarib, asta-asta burib, do‘nglik orqasiga to‘kadi. Keyin yana boshqatdan boshlaydi. Berilib tomosha qilayotgan edim, orqamda kimdir xaholab kulib yubordi — bir cho‘chib tushdim. Burilib qarasam Abdushukurov amaki ekan, ikki qo‘lini biqiniga qilib turibdi.

— Hoy bola, nega muqom qilasan? — so‘radi u.

— Qani muqom qilganim?

— Goh o‘ngga burilasan, goh chapga burilasan.

— Men buldozerni tomosha qilyapman, bildingiz-mi?! — dedim achchig‘im chiqib.

— Kimning o‘g‘lisan?

— Ro‘zivoy traktorichining.

— E, og‘aynim ekansan-ku. Qani beri kelchi, tegirmondan topib olgan o‘g‘li sen bo‘lasanmi?

— Hecham-da, meni oyim tuqqan, — dedim battar jahlim chiqib.

Abdushukurov amaki bilan birpasda inoq bo'lib ketdik. Qiziqchi, dadamga o'xshash oq ko'ngil ekan. Ishimning o'ngidan kelganini qarangi, men ham unga juda ma'qul tushib qolibman. Bolalarni jon-dilidan yaxshi ko'rarkan...

— Lagerni bu yil qurib bitirasizlarmi, kuzgi imtihonni topshirgan bolalar kelib dam olib ketadimi? — deb so'ragan edim:

— Bu yil bitirardik-ku... Ammo Yong'oq qori pochchang ishimizning beliga tepib turibdi-da, Hoshimboy, — deb qo'ydi Abdushukurov amaki. Keyin yonida o'tirgan begona bir odam bilan xuddi shu masala haqida gaplasha boshladi. Ma'lum bo'lishicha, bolalar lageri Uzunquloq ota mozori joylashgan yerlarni ham o'z ichiga olishi, xuddi qabrning o'rniga yozgi kinoteatr binosi tushishi kerak ekan. Yong'oq qori pochcham bu gapni eshitib, g'azabga kelib, avliyo-anbiyolarga murojaat qilamanu, sizni to'ppa-to'g'ri do'zaxga jo'natib, ikki ming gradus issiqda kuydirib ta'ziringizni beraman depti. Keyin sal g'azabdan tushib:

— Bordi-yu, gapingizga ko'nsam, mening ham kichkinagina bir shartcham bor, bazarasizmi? — deb so'rabdi.

— Qanaqa shart? — xursand bo'lib so'rabdi Abdushukurov amaki.

— Shartim shuki, — depti qori pochcham tomog'ini qirib, — menga davlatdan jindakkina pensiya undirib berasiz.

— A?! — depti Abdushukurov amaki o'rnidan turib.

— Ha! — depti qori pochcham ham o'rnidan turib.

— Axir, siz hech joyda ishlamagansiz-ku?

— Ishlaganmiz... Birovlar yo'lida aziyat chekkanmiz.

— Bo'lmasa pensiyani o'sha birovlaringiz bersin sizga.

— Hali shundaymi?

— Ha, shunday!

Hozir chinor tagida o'tirib Abdushukurov amaki mana shu gaplarning hammasini oqizmay-tomizmay begona odamga gapirib berdi. Begona odam qo'lida o'ynab o'tirgan lappak toshni soyga otib:

— Menga qolsa, o'sha qabrga bugunoq buldozer qo'yib yuboraman, — deb qo'ydi. Abdushukurov amaki:

— Hay-hay, shashtingizdan qayting. Bunaqa ishda sabr-toqat kerak. Tushunmagan xalq g'alayonga kelishi mumkin... Yaxshisi, shoshmasdan tushuntirish kerak... — deb uni fikridan qaytardi.

Bu gaplarni eshitib, men sizlarga yordam berishim mumkin deb aytay ham dedimu, tag'in o'ylanib qoldim. Bilasiz-ku, yosh bolalar katta odamlarning ishiga aralashsa, ularning achchig'i keladi yoki bo'lmasa avval burningni artib ol, keyin bir gap bo'lar, deb ustingizdan kulishadi. Shuning uchun ham indamay qo'ya qoldim.

Abdushukurov amaki bilan begona odam o'rinlaridan turishib, yog'och-taxtalar uyilib yotgan tomonga jo'nashdi. Qurilish ketayotgan joy bilan ziyoratgohning orasi taxta devor orqali ajratib qo'yilgan ekan. Bir sakrab devorga chiqdim-da, narigi tomonga o'tib ketdim..

## VIII bob

### O'RGATILGAN ILON

Ziyoratgoh bugun ziyoratgoh emas, bamisoli katta sayilning o'zginasi bo'libdi — odam demagani hech joyga sig'maydi: oriq-semiz xotinlar, uzun-qisqa kampirlar, men tengi bolalardan tortib Donoxon tengi qizlargacha, dadamga o'xshash erkaklardan tortib Yong'oq qori pochchamdek salla o'ragan, ikki beti qip-qizil chollargacha — hamma-hammasi shu yerda. Buloqlarning bo'yida, katta tollarning tagida, bo'yi osmonga teng chinorlarning salqinida odamlar to'p-to'p bo'lib qozon qaynatishyapti. Aroqni choynakka quyib yashirib ichayotganlar ham bor, pivo ichayotganlar

undan ko'p. Hatto, bittasi butilkadagi pivoni shundoqligicha ko'tarib og'ziga qult-qult quydi-da, labini kafti bilan artib:

— Savobini Uzunquloq otamga bag'ishladim, — deb bo'shagan shishani to'ppa-to'g'ri soyga irg'itib yubordi.

Katta chinordan sal nariroqda Uzunquloq otaning qabri bor. Qabrga tosh zinalardan yurib chiqasiz. Zinaning pastrog'ida Danak qori pochcham, sal yuqorirog'ida Bodom qori amakim, eng tepasida uch xonali tosh uyning eshigi oldida baxmal ko'rpachalar ustida Yong'oq qori pochcham cho'kka tushib olib chilyosinda o'qigandek allanarsalarni o'qiyapti. Odamlar pul berib, xursand qilib ketishyapti.

Ziyoratgohning chekkarog'ida kichkinagina bozorcha ham bor. Savdo-sotiq avjida. Yana tag'in qanaqa savdo deng — nuqul ko'tarasiga. Uzumu, chala pishgan qovun deysizmi, shaftoliyu qurt tushgan olma deysizmi, hatto, ishonasizmi, bitta kampir xaltachada garmdori ham pullab o'tiribdi. Bir mahal Orifga ko'zim tushib qolsa bo'ladimi! Bir xalta qurutni oldiga qo'yib.

— Kep qoling, mazali qurut, yog'li qurut! — deb bulbuldek sayrab yetibdi.

— Quruting sho'r-ku! — dedim bittasini og'zimga solib. Orif meni ko'r-di-yu, xoh ishoning, xoh ishonmang, ixtiyor o'zingizda, ammo bola bechora tarrakdek qotib qoldi. Bir vaqt o'ziga kelib:

— O'chingni olmoqchimisan-a! — deb so'radi mendan.

— Bo'lmasam-chi! — dedim men ham jo'rttaga jiddiy turib, men endi senga nemischa fokus ko'rsataman.

— Men... men... axir, o'zing o'tgan yili meni yam kaltaklovding-ku?

— Bo'pti, kechirdim, — dedim qurutdan yana bittasini og'zimga solib.

— Rostdanmi?

— Rost.

— Agar kechirsang, bilasanmi... men bu yil o'zim yomon o'qisam ham, senga yordam beraman, seni a'lochi qilmaguncha qo'ymayman... Ol qurutdan... Men buni

oyimdan yashirib tomda quritganman. Uncha-muncha tuprog'i bor-ku, lekin o'zi shirin... Kep qoling, mazali qurut, yog'li qurut! — deb yana sayrab ketdi Orif. — Bilasanmi, sherik?

— Yo'q, bilmayman.

— Men, mana shu qurutlarning puliga kutubxonam uchun yangi kitoblar sotib olmoqchiman... Kep qoling, mazali qurut!

Nariroqqa o'tsam, bozorchaning shundoqqina chiqaverishida chordana qurib o'zimizning Zokirvoy o'tiribdilar. Oldiga gazeta yozib, ustiga yigirmatacha burrak-surrak, o'tobda nosqovoqday sarg'ayib ketgan bodringni terib qo'yibdi.

— Nima qilib o'tiribsan? — deb so'radim bodringdan bittani olib.

— Bodring sotyapman, — xursand bo'lib dedi Zokir. Keyin cho'ntagini paypaslab qo'shib qo'ydi: — Bilasanmi, bu pulga men nima olaman?

— Yo'q, bilmayman.

— Miltiq olaman.

— Miltiqni nima qilasan?

— Sen bilan yana Dev ovlashga chiqaman... Bilasanmi, o'sha kundan buyon men ancha botir bo'lib qoldim. Ilgari mozorning oldidan o'tsam, ko'zlarimni chirt yumib, «bismillo, bismillo», deb o'tardim. Endi bo'lsa ikkala ko'zimni ham ochib ashula aytib o'tyapman, hech narsadan qo'rqmayapman.

Ikkovimizning suhbatimiz chala qoldi. Nega desangiz, shu paytda odamlar o'rtasida shov-shuv bo'lib «pirim chiqarmishlar, va'z aytar emishlar...» degan gaplar tarqab qoldi. Hamma katta chinorning tagiga to'plana boshladi. Zokir ikkovimiz ham o'sha tomonga qarab yo'l oldik. Borib yetmagan ham edikki, kimdir:

— Ana, chiqyaptilar! — dedi yig'lamsirab.

Bunday qararak, qabrning yonidagi tosh uydan Yong'oq qori pochcham chiqib kelyapti. O'ng tomonida Danak qori,

chap tomonida Bodom qori amaki. Uchovining ham boshida har bittasi laylak uyacha-laylak uyacha keladigan oq salla, uchovining ham eguida etagi yerni supurib kelayotgan malla chopon. Nazarimda uchovi ham hozirgina yog'li palov yeganga o'xshaydi — lab-lunjlari yaltirab turibdi.

Yong'oq qori pochchamning qo'lida uzunligi ikki metrcha keladigan hassa. Oyoqlari ostiga qaramay negadir osmonga qaragancha bitta-bitta bosib zinadan tushib kelyapti. Shu paytda mening yonginamda turgan bitta bolali xotin «pirimdan aylanay!» deb piqillab yig'lab yuborsa bo'ladimi!

— Gunohkor bandalar! — qaltiroq ovoz bilan dedi Yong'oq qori pochcham, — siz bilan biz insonparvar hukumatimizning soyayi davlatida, hazrati Uzunquloq pirimning himoyatida, oblo-taoloning nozu ne'matidan rizqi-ro'zimizni tergilab yeyapmiz... Iloyo ovmin, yetimparvar ham beva-bechoraga rahmdil bo'lgan hukumatimiz yana ham barqaror bo'lsin, hazrati raykomu, hazrati ispolkomning paxtayu jun tayyorlash plani ikki yuz poyiz bajarilsin!

— Ovmiin!.. — deb Danak qori pochcham qichqirib yubordi.

Odamlar ham:

— Ovmiin! — deb fotiha o'qishdi. Yong'oq qori pochcham davom etadi:

— So'nggi paytda shaytonning vasvasasiga uchib, ro'za tutmay, namoz o'qimay gunohga botayotganlar ko'payib, yurt vazmin bo'lib qoldi. Bundan uch-to'rt kun avval Hoshimjon, Zokirjon degan ikki gunohsiz bo'taloqni insu jinslar changalzorga boylab ketishdi. O'sha kechasi hazrati Danak qoriga sariq Dev hamla qildi...

— Voy xudoyim-ey! — deb yig'lab yubordi mening yonimdagi bolali xotin. Zokir bo'lsa meni sekin turtib, labini g'alati qilib burib qo'ydi.

Yong'oq qori pochcham osmonga qaragancha gapida davom etdi:

— Yurt vazmin. Bu nimaning oqibati? Aziz avliyolar yo‘liga xayru ehsonni kamaytirib yubordik — bu mana shuning oqibati. Bedinlarning diliga shayton vasvasa solib, shu kecha-kunduzda hazrati Uzunquloq pirimning qabrlarini buzib, o‘rniga lager qurmoqchi bo‘lishyapti. Bundan xudoyi taolo qattiq g‘azabda, bundan pirimning arvohlari ham bezovta... Yurtimizga ofat yog‘ildi, ajdarho paydo bo‘ldi...

— Ilon!!! — baqirib yubordi odamlardan biri.

Bunday qarasam, chindan ham Uzunquloq otaning qabri yonidan uzunligi besh metr, yo‘g‘onligi samovar karnaycha, kallasi qumg‘oncha keladigan qop-qora ilon buralib-buralib, vishillab chiqib kelyapti. Hammayoq olatasir bo‘lib ketdi. Birov dodlagan, birov yig‘lagan, mashinaga chopgan qaysi, velosiped mingan qaysi, eshakning to‘qimini axtargan qaysi — bilib bo‘lmaydi. Birinchi bo‘lib hu haligi butilkadagi pivoni paqqos ko‘tarib savobini Uzunquloq otaga bag‘ishladim, degan yigit qochishga tushdi. Mototsiklga bir sakrab mindi-da, tepkisini bosgan edi, qani endi o‘t olsa! Mototsiklni qoldirib, o‘zi shataloq otgancha toqqa qarab chiqib ketdi. Bolalar chinqirib yig‘layapti. Bozorcha ham ayqash-uyqash bo‘lib ketdi. Qovunlar dumalab yuribdi, olmalar har tomonga sochilgan. Kimdir qochayotib, sho‘rva pishayotgan qozonni bilmadan ag‘darib yuborgan edi, boshqasining oyog‘i kuyib qoldi. Zokirni ham yo‘qotib qo‘ydim — qush bo‘lib osmonga uchib ketganga o‘xshaydi.

Danak qori pochcham bezgak tutgandek, dag‘-dag‘ qaltirayapti. Bodom qori pochcham qaltiramayapti-yu, ammo maktabimiz hovlisidagi haykaldek qotib qolibdi. Yong‘oq qori pochcham bo‘lsa ikki qo‘lini osmonga ko‘tarib:

— E xudo, bu ofatni o‘zing yubording, o‘zing daf qilgin!  
E Hazrati Uzunquloq pirim, qo‘llab yuboring!— deb tinmay javrayapti.

Qanday qilib qalpoqchamni qo‘limga olib boshimga kiyganimni o‘zim ham bilmay qolibman. O‘shanda juda shoshib qolgan bo‘lsam kerak, nega desangiz, uzun tayoq qo‘limga qayoqdan kelganini hatto hozir ham eslay



olmayman... Bir sakrab qora ilonning yonida paydo bo'ldim. «Kecha Dev bilan olishgan edim, bugun sen bilan jang qilishga tayyorman, ey insu jins!» dedim-da, tayoqning yo'g'on tomoni bilan tosh zinadan shiddat bilan tushib kelayotgan ilonning boshiga tushirdim. Shoshib qolganim uchunmi, mo'ljalni jindak noto'g'ri olgan ekanman, tayoq ilonning boshiga emas, yelkasiga tegdi. Og'riq zarbidan g'azabga kelgan qora ilon buralib, havoda muallaq yurgan tayoqni quvlashga tushib qoldi-ku! Qochmay ilojim qancha, qochdim. Ammo qochganda ham sal kallani ishlatib qochdim. Ingichka chinorni gir aylanaverdim-aylanaverdim. Bir mahal ilon chinorga o'ralib qolgandek bo'lib ko'rindi. Shartta burildim-da, yerda turgan katta tosh bilan qora maxluqning qoq beliga tushirdim. O'zi ilondan joni qattig'i bo'lmas ekan, beli uzilay-uzilay deb qoldi-yu, shunda ham boshini yarim metr ko'tarib, og'zini qappa-qappa ochib, meni quvlab kelyapti-ya! Shu paytda qabriston tomondan qirqlardagi qiziqchilarga o'xshab quroqdan ko'ylak-ishton kiygan bir odam yugurib chiqdi-da, qo'limdagi tayoqqa tashlanib qoldi. Bu ham insu jins bo'lsa kerak, deb o'ylab tayoq bilan keltirib turib boshiga bir tushirgan edim, ikki qo'li bilan tayoq tekkan joyini changallaganicha qanday tezlik bilan chiqqan bo'lsa, ana shunday tezlik bilan ichkariga kirib ketdi.

Birini yenganim uchunmi, shu nafasda charchog'imni ham unutib, o'zimni yana ham kuchliroq, yana ham chaqqonroq his qilgandek bo'ldim. Yaqinlab kelayotgan ilonning boshiga tayoq bilan uch marta ketma-ket tushirdim.

Ilon shilq etib yerga yiqildi-da to'lg'ana boshladi. Keyin yugurib borib o'choq boshida turgan boltani keltirdim-da, qiyma-qiyma qilib tashladim.

Suvsab ketgan ekanman, borib soydan hovuchlab suv ichayotgan edim, bir-biriga suyanishib hangu mang bo'lib turgan qori pochchamlarga ko'zim tushib qoldi.

— Astag'firullo, kutilmagan voqea bo'ldi-ya! — dedi Danak qori tilga kirib.

— Yo, navizambillo, — deb ko'kragiga tuflab qo'ydi Bodom qori amakim.

— Boring, odamlarni chaqirib keling, — deb buyurdi Yong'oq qori pochcham Danak qoriga, biz ichkariga kirib anavi injiqni ko'ndiraylik endi, bo'lmasa...

Soy bo'yida o'tirib anchagina dam oldim, odamlar tashlab qochib ketgan qozonlardan go'shtlarni olib maza qilib yedim. Keyin, qani ko'ray-chi, qori pochchamlar nima qilib o'tirishibdi ekan deb, ularning oldiga kirib bordim.

Kirsam, Yong'oq qori pochcham, Bodam qori amakim, undan keyin haligi mendan kaltak yeb qochgan quroq ko'ylakli odam uchovlari bir narsalar to'g'risida gaplashib o'tirishibdi.

— Siz, taqsir, ilonni odamlarga bir ko'rsatasiz, degan edingiz, shundaymi? — so'radi qo'roq ko'ylakli Yong'oq qori pochchamdan, — buning uchun menga uch yuz so'm va'da qilgan edingiz.

— Va'da qilingan pulni oldingiz-ku!

— Buning uchun rahmat... Lekin siz mening ilonimni o'ldirib qo'ydingiz.

— Men emas, xudoyi taolo o'ldirdi, — tushuntirdi Yong'oq qori pochcham.

— Men bu ilonni besh yildan buyon boqayotgan edim, qo'lga tushirganimda ikki qarichgina edi... Men uni bugun-erta sirkka topshirib kattagina pul olmoqchi edim, ilonimning xunini to'laysiz.

— Xunini to'laysiz?

— Ha, to'lab berasiz. Bo'lmasa hoziroq chiqib odamlarga hamma gapni aytaman...

Yong'oq qori pochcham Bodom qori amakinga qaradi. Bodom qori amakim tushunmadim, degandek, yelkasini qisib qo'ydi.

— Xo'sh, o'sha sirkingiz qancha pul bermoqchi edi? — qovog'ini osiltirib so'radi qori pochcham.

— Uch ming so'm.

— Yuz so'm beraman.

- Yo‘q. Ilonimni topib berasiz.
- Ikki yuz manot olasiz.
- Menga pul kerak emas.
- Yana yuz so‘m qo‘shdim, ko‘ndingizmi? — cho‘ntaklarini paypaslab qoldi qori pochcham.
- Ikki mingdan bir so‘m ham kamiga ko‘nmayman. Bu ilonni deb men besh yil azob chekdim-a!
- Ortiqcha bir so‘m ham qo‘sholmayman.
- Bo‘lmasa hozir tashqariga chiqib odamlarga arz qilaman.
- Men ham chiqaman-da, bu odamning gapiga ishonmanglar, bu shayton, bizga ofat keltirdi, deyman. Ana unda sizni olomon qora kaltak qilib o‘ldiradi, bildingizmi?
- Quroq ko‘ylakli bir nafas o‘ylanib qoldi. Nazarimda qattiq qo‘rqib ketdi shekilli:
- Mayli, taqsir, ming so‘m bering bo‘lmasa, — dedi shoshilib.
- Menda hozir pul yo‘q.
- Ana, besh yuz so‘mga ko‘ndim, pulni tezroq chiqaring.
- Menda pul yo‘q deyapman, qulog‘ingiz og‘irmi?
- Qancha pulingiz bor bo‘lmasa?
- Sariq chaqam ham yo‘q. Gapni ko‘paytirmasdan tezroq jo‘nab qoling. Bo‘lmasa sizni hoziroq shayton deb e‘lon qilaman.
- Demak, ilonning xunini to‘lamaysizmi?
- Yo‘q, to‘lamayman.
- Insofingiz yo‘q ekan.
- Gapingizni qaytib oling, bo‘lmasa hozir cho‘ntagingizdagi pulni ham qaytarib olaman.
- Vijdonsiz ekansiz!
- Nima, nima?! — shunday deb Yong‘oq qori pochcham o‘rnidan turib ketdi. Qattiq g‘azablangani shundoqqina ko‘zlaridan bilinib turardi. Quroq ko‘ylakli odam, qarasa, qori pochchamdan yaxshilik chiqadiganga o‘xshamaydi. Ichida so‘kinganicha ilon solib kelgan

sandiqni yelkasiga oldida, tez-tez yurib chiqib ketdi. U chiqib ketishi bilan xonaga pildirab Danak qori pochcham kirib keldi-da:

— Taqsir, sizni xaloyiq kutyapti! — deb qo‘ydi.

Yong‘oq qori pochcham tashqariga chiqib, hali nutq so‘zlagan joyiga bordi-yu, osmonga qarab shoshmasdan gapira boshladi:

— Xudoning marhamati ulug‘. Ko‘z oldingizda insu jinsni daf qildi. Ana, uning qiymalangan gavdasi, yerda yotibdi. Bularning hammasi hazrati Uzunquloq pirimning qo‘llab-quvvatlashlari tufayli bo‘ldi. U kishining pokiza ruhlarini shod etmoq uchun nazru niyozni ayamaylik, jonlik so‘yib is chiqaraylik...

Yong‘oq qori pochcham shundayligicha, ya‘ni ikki ko‘zini osmonga tikkancha, bitta-bitta yurib tosh uyga kirib ketdi. Danak qori pochcham to‘nining o‘ngiriga odamlardan pul yig‘a boshladi...

Lekin pul demagani ham yog‘ilib ketdi-da! Haligi butilkada pivo ichgan yigit qori pochchamning etagiga bitta o‘n so‘mlikni tashlab:

— Savobini Uzunquloq otaga bag‘ishladim, — deb qo‘ydi.

Bir soatlardan so‘ng Zokir, Orif uchovimiz qishloqqa qaytib ketdik.

## IX b o b

### OVDA

**X**uddi o‘sha soatdan boshlab Yong‘oq qori pochchamning obro‘lari shunaqangi oshib ketdiki, shunaqangi oshib ketdiki, asta qo‘yaverasiz. Ko‘cha-kuydan eshak minibmi yoki piyoda yuribmi o‘tib qolgudek bo‘lsa buvijonimga o‘xshash bir xil kampirlar to qori pochchamning qorasi o‘chib ketguncha egilib salom qilib turadi, deng. Buning ustiga «nima deysan, Yong‘oq qori to‘ppa-to‘g‘ri

xudoga murojaat qilib, Uzunquloq ota mozorida paydo bo'lgan ajdahoni qiymalab tashlagan emish.

— U kishining o'zlari yarim avliyo-da!

— Kechirasiz, yarim avliyo emas, to'liq avliyo!

— O'sha kishi bo'lmaganda Hoshim bilan Zokirni insu jinslar to'ppa-to'g'ri osmonga olib chiqib ketar edi.

— Karomatlaridan aylanay, qori pochchamlarning! Danak qori sariq Dev hamla qilganda darrov yordam qo'llarini cho'zibdilar...»— degan har xil gaplar ham tarqab qoldi. Qori pochchamning obro'lari mana shunaqa ortavergan sari, ochig'ini aytib qo'ya qolay, mening achchig'im chiqa boshladi. Gapni qarang-a, qo'rqinchli ilon bilan olishib, andak bo'lmasa men o'lib ketayozdimu, maqtanishga kelganda qori pochcham maqtanar ekan-da, yolg'onchilik ham evi bilan-da... Sariq Dev deb yanglishib, Danak qori amakimni kechasi mingan men edim-ku, nega endi hamma aybni Devga to'nkashadi?

Shunday qilib desangiz, Yong'oq qori pochchamni butunlay yomon ko'rib qolganimni o'zim ham sezmay qolibman. Qanday qilib endi u kishini fosh qilsam ekan, deb o'ylanib yurgan kunlarimning birida, ya'ni Dononi kasalxonadan olib kelgan kunimizning ertasiga, dadam, oyim, buvijonim uchovlari dasturxon ustida nima to'g'risidadir uzoq bahslashib o'tirishdi. Men tomonga tez-tez ko'z tashlab qo'yishlari undan keyin buvijonimning ikkovlarini jerkib-jerkib tashlayotganidan sezdimki, gap mening to'g'rimda boryapti.

— O'qishi-chi, o'qishi? — so'radi dadam.

— O'qishining boshlanishiga hali ikki oy bor, — tushuntirdi buvijonim, — ungacha borib kelib xizmatlarini qilsin, duolarini olsin. U kishining duolarini olgan odam u dunyoyu bu dunyo kam bo'lmaydi. Zora, xudo ko'ngliga solib, Hoshimjonginam quyilib, kechalari qochib ketish odatini tashlasa...

— Bilganingizni qiling! — dedi oxiri dadam qo'l siltab.

— O'zim ham tushunolmay qoldim, — dedi oyim ikkilanib.

— Gap bitta. Men nabiramni odam qilmoqchiman, shuning uchun bu yerga kelganman, — dedi buvijonim, keyin oyim bilan dadamga javob berib yubordi-da, meni sekin chaqirib peshonamdan, sochlarimdan silab, yuzimdan ikki marta o'pib ham qo'ydi.

— O'g'lim, esli-xushli bo'lganingdan juda xursandmanda!— deb maqtadi oxirida.

— O'zim ham xursandman, — dedim men taltayib.

— Yong'oq qori pochchangga shogirdlikka bersam borasanmi?

— Jon deb boraman, buvijon!

— Voy tilingdan aylanay, bolaginam, — xursand bo'lib ketdi buvijonim. — Hoy Ro'zi, eshityapsanmi, o'g'ling ko'ndi. Aytmadimmi, xudo ko'ngliga soladi deb.

Bir soatdan so'ng qori pochchamga atab bir savat yog'li patir, bitta avra chopon, oq surpdan yaktak-ishton olib, buvijonim ikkimiz yo'lga tushdik. Shu paytda negadir juda xursandman. Boshimda savat, go'sht o'ng yelkamni oldinga chiqarib, goh chap yelkamni oldinga chiqarib, ba'zan muqomlar qilib o'ynab boryapman... o'ziyam xo'p omadi kelgan bolaman-da, qaysi ishga ixtiyor qilmay, o'ngidan kelgani-kelgan.

— Assalomu alaykum! — dedim ostonadan o'tishimiz bilanoq.

— Vaalaykum... — deb qori pochcham menga qaramadi-yu, boshimdagi savatga tikilib kulimsirab qo'ydi.

Buvijonim nima maqsadda kelganimizni aytgan edi, omadimning yana bir marta kelganini qarang, qori pochcham savdolashib o'tirmasdan:

— Barakalla, o'g'lim! — deb o'ng qo'li bilan yelkamni siladi. — Inshoollo, mulla Hoshimni o'zim odam qilaman.

O'sha kuni qori pochcham menga uyga kirib chiqish, hovlida harakat qilish qoidalarini o'rgatib qo'ydi. Chaqirsa «labbay, taqsir», ish bo'yursa «xo'p bo'ladi, taqsir!» deyishim kerak. Uyga kirayotganimda o'ng qo'limni ko'ksimga qo'yib xiyol egilib, chiqayotganimda orqam bilan

yurib chiqishim kerak ekan. Undan keyin bu yerda ko'rgan-bilganlarim, eshitganlarim haqida birovg'a og'iz ochsam, qornim yorilib o'lar ekanman, shunday deb tayinladi qori pochcham.

Shunday qilib desangiz, shogirdmisan shogird bo'lib qoldim: sochimni oldirib, boshimg'a oq do'ppi, egnimga ityoqa ko'ylak kiygizib qo'yishgan. O'zim tengi bolalar qori pochchamga shogird tushganimni eshitib, havaslari kelganidanmi yoki alam qilganidanmi, ishqilib, menga ham «Jiyda qori» deb laqab qo'yishgan.

Qiladigan ishim, rostini aytsam, uncha og'ir emas. Qori pochchamga tahorat uchun suv keltirib beraman, ko'kchoy damlab beraman, dam soldirgani odamlar kelsa, ichkari kirib bu haqda qori pochchamga xabar beraman. Bu kishining ona-bola eshagi ham bor. O'shanga yashirincha borib, kolxozning bedasidan o'rib kelaman, eshaklarning tagini tozalayman. Qori pochchamning katta xotini Eshon oyim qoshiga o'sma qo'yish, pishillab uxlashdan boshqasiga yaramaydi. U kishi uyqudan uyg'ongunlaricha o'choqning kulini olaman, hovli supuraman, idish-tovoq yuvaman... Undan keyin qo'lim bo'shadi deguncha:

— Bo'tam, — deb chaqiradi qori pochcham.

— Labbay, taqsir!

— Qani, belimni ikkita siqib tashlang-chi! — deb buyuradi qori pochcham. U kishini darrov teskari ag'darib, avval belini, keyin oyoqlarini, eng oxirida kalta qo'llarini rosa ezg'ilab uqalayman. Qori pochcham ba'zan juda xursand bo'lib ketib: — Barakallo, bo'talog'im, — deb qo'yadi, — siz asli jannati bolasiz-da, jannati!

— Jannat yaxshimi-a? — deb so'rayman.

— O, nimasini aytasiz, bo'tam!

— Ikkovimiz o'sha yoqqa keta qolsak bo'lmaydimi-a?

— Nima?! — qori pochcham shartta o'rnidan turib ketadi, — tavba qildim de, shaytonbachcha.

— Tavba qildim, taqsir.

— Kel endi, qolgan gunohing uchun tizzamning pastini ham bir uqalab qo‘y.

Oyoqlarini butun kuchimni ishga solib siqib-siqib yana uqalashga tushib ketaman.

— Qattiq og‘riyaptimi-a? — deyman jim turolmay.

— Judayam.

— Birovlarga dam solguncha o‘zingizga ham bir dam solib olsangiz bo‘lmaydimi?

— Sen shaytonbachchaga ming marta aytdim-ku, gap so‘ramaguncha og‘zingni ochmagin deb. Muncha shakkok bo‘lmasang.

Ba‘zan og‘riq juda ham zo‘rayib ketadi shekilli, qori pochcham qo‘limga o‘n tiyin berib:

— Yugur! — deb qoladi. Bu — dorixonaga borib kel, degani. Pulni aptekachiga uzatsam:

— Buning oz-ku? — deb so‘raydi u.

— Qolganiga qori pochcham duo qilib qo‘yar ekan, — deyman-da, dorini olib qaytayotganda yo‘l-yo‘lakay «nega endi qori pochcham o‘z oyog‘i salgina og‘risa ham dori ichadi-yu, birovlarniki og‘risa dam solib inshoollo, hech narsa ko‘rmagandek bo‘lib ketasiz», deb qo‘yar ekan, deya o‘ylanib ketaman. O‘ylaymanu, xuddi arifmetikadan berilgan mashqni yecha olmagandek, buni ham yecha olmay, bor-e, menga nima, deb qo‘l siltab qo‘ya qolaman.

Bir kun qori pochcham bilan tog‘ ichkarisidagi olis-olis qishloqlarga ovga boradigan bo‘lib qoldik. Buni eshitib, xayriyat, uch-to‘rt kun bel uqalashdan qutulib, u yoq-bu yoqni tomosha qilib kelar ekanman, deb o‘zimda yo‘q sevinib ketdim. Dadamning qo‘shrig‘ini ko‘tarib, hovliqib chiqib ketayotgan edim, buvijonim:

— Miltiqni nima qilasan? — deb jerkib berdi.

— Biz qori pochcham bilan murda ovlagani ketyapmiz!  
— dedim achchig‘im chiqib.

Buvijonim qotib-qotib kuldi-da:

— Murda emas, murid degin, bolam, murid, — deb tushuntirdi. Keyin murda bilan muridning farqini ham



gapirib berdi. Shoshilib turganim uchun, bari bir, hech narsa anglamay, miltiqni tashlab qori pochchamnikiga qarab yugurdim.

Yo'lga chiqdik.

Qori pochcham eshakda, men esa eshakning to'qimidan mahkam ushlab u kishining yonida zipillab boryapman. Xo'tikcha goh orqada qoladi, goh yugurib, shataloq otib, mening havasimni keltirib oldinga o'tib ketadi.

Yo'l yurdik, yo'l yursak ham mo'l yurdik. Yetti dovonni ortda qoldirib qancha-qancha soylardan kechib, buloqlardan suv ichib, archazorlarda ag'anab dam olib, kun botay deganda kichkinagina bir qishloqqa kirib bordik. Magazin oldiga yetganda qori pochcham eshakdan tushayotgan edi. Magazinchi ko'rib qoldi-yu:

— Pirim! — deb baqirib yubordi. Keyin prilavkadan bir sakrab o'tdi-da, yugurib kelib avval qori pochchamning oyog'idan o'pdi, keyin ko'rishayotib qo'llarini ko'ziga surtdi:

— Zap tashrif buyuribsiz-da, taqsir, zap kelibsiz-da! — derdi u tinmay. Keyin bilsam, mana shu magazinchi qori pochchamning muridi ekan — biz o'shani ovlagani kelgan ekanmiz. Bu kichkinagina qishloqchada qori pochchamning yana uchta muridi bor ekan. Ertalabgacha uchovini ham boplab ovlab chiqdik: biri qo'y so'ydi, boshqasi echki so'ydi, yana bittasi kiyik go'shti solib boplab qovurma palov tayyorladi.

Ertalabki namozdan keyin qori pochcham dami chiqib ketib kasal bo'lgan kishilarga bismillo deya yenglarini shimarib dam solishga tushib ketdi. Hammalaridan pul oldik, xurjunlarning ko'zini to'lg'izib, go'sht, yog', yong'oq, pista olib yana hayyo-huv deb yo'lga ravona bo'ldik.

Yo'l yurdik, yo'l yursak ham mo'l yurdik. Yam-yashil o'tloqlardan, qo'yu qo'zilar ba-bulashib o'tlab yurgan keng yaylovlardan o'tdik, tepasiga qarasang do'pping tushadigan baland qoyalarni, usti yam-yashil archalar bilan qoplangan past-baland adirlarni ortda qoldirib, peshin mahalida soy bo'yiga joylashgan yana bir qishloqchaga kirib bordik.

Yo'q, bu qishloqning qanchalik go'zal ekanligini sizga ta'riflab berolmayman. Bilasiz-ku, so'zga juda ham kambag'alman. Qishloqning past tomonidan toshdan-toshga urilib, yaylovdagi toychoqdek o'ynoqlab katta soy oqadi. Yuqori tomon esa past-baland adirlar. Adirlarda gurkirab yam-yashil archalar o'sib yotibdi. Uylarning tommlarida yovvoyi gullar, har bittasi chinni piyoladek keladigan qip-qizil lolalar qiyg'os ochilgan, qishloqchanning yuzini har kuni ikki mahal yomg'ir yog'ib, yuvib turar ekan. Havosini aytmaysizmi, biram toza, biram musaffoki... Yo'q, yo'q, bu yerning go'zalligini bari bir ta'riflay olmayman, qo'limdan kelmaydi.

Pastakkina uy oldida to'xtab eshakdan xurjunni olayotgan edik, shu payt ichkaridan biri besh yoshlarda, ikkinchisi uch yoshlarda bo'lgan ikkita qip-yalang'och bola otilib chiqdi-da:

— Dadam, dadajonim! — deb charchab turgan qori pochchamning yo'g'on bo'yinlariga osilib olishdi. Qori pochcham hali ularning peshonasini o'pishga ulgurmagan ham ediki, xuddi shu paytda bolalar chiqqan uydin, hamir qorib o'tirgan bo'lsa kerak, tirsaklarigacha oppoq uni bilan 23—24 yoshlardagi bir juvon ham hovliqqancha chiqib keldi:

— Voy, to'ram! Bizni ham yo'qlar ekansiz-a!

— Qalay, eson-omonmisilar? Onang salomatmi? — so'radi qori pochcham.

— O'n kundan buyon yo'lingizga ko'z tutamiz-a...

— Ish ko'p-da, onasi. Qo'l tegmadi...

Ana shu gaplardan keyin eshakni hovliga boylab, pastqam uylardan biriga kirib bordik. Keyin bilsam, haligi «bizni ham yo'qlar ekansiz-a», degan juvon qori pochchamning xotini, ya'ni mening kelinoyim bo'lar ekan. Kelinoyim xurjundagi sovg'a-salomlarni ko'rib juda xursand bo'lib ketdi. Bitta atlasni ko'kragiga bosib:

— Yarashdimi? — deb so'radi qori pochchamdan.

— Bahorda ochilgan lolaning o'zi bo'ldingiz! — dedi qori pochcham.

Biz bu yerda to'rt-besh kun qolib ketdik. Kunduzlari yana qishloqma-qishloq yurib ov qilamiz, xurjunlarning ko'zini har xil narsalarga liq to'ldirib qaytamiz. Kechqurunlari men haligi yalang'och bolalarni galma-gal yelkamga mindirib ot-ot o'ynataman. Ayniqsa, kattasi juda shilqim ekan. Hatto kechalari ham uyqumdan uyg'otib, tag'in mindirasana, deb xarxasha qiladi deng.

Beshinchi kun ertalab orqamizga qaytdik. Butunlay boshqa yo'ldan yurgan ekanmiz. Yangi-yangi qishloqlarga tushib, yana ziyofatlar yedik, qimizlar ichdik, kaklik go'shtidan kaboblar pishirtirdik.

— Osh bo'lsin, to'yib-to'yib ol, bo'tam! — deb qo'yadi qori pochcham ko'zini qisib.

— Yo'q, endi yeya olmayman, — deyman qornimni silab.

— Bu yog'ida endi qishloq yo'q ochqab qolasan.

— Bir haftalikni yeb oldim, taqsir.

Nihoyat, oxirgi manzilni tark etib yana yo'lga ravona bo'ldik. Eshakdagi ikki xurjunning ham ko'zi liq to'la, olmayu yong'oq deysizmi, yangi so'yilgan qo'y go'shti, kuvda pishilgan yog' deysizmi, sutda yo'g'rilgan chala ko'pti patiru shisha bankada asal deysizmi — hammasi bor. Xurjunga sig'maganini men orqalab olganman. Mendan ortganini qori pochcham katta qiyiqqa tugib yelkasiga tashlab olgan. Eshaklarni haydab ikkovimiz sal orqaroqda kelyapmiz, qorinlar to'q, kayfimiz chog' qori pochcham ashula aytib kelyapti, men jo'r bo'lyapman.

Kutilmaganda qori pochcham ashulani to'xtatib, og'izlarini katta-katta ochib entika boshladi:

— Bo'tam, eshakni to'xtating! — dedi u kishi yelkasidagi yukni yerga qo'yib, — men bo'may ketyapman...

Eshaklarni to'xtatib, bunday qarasam, chindan ham qori pochcham terga botib ketibdi.

— Qorin shishib ketyapti, qorin... — deb ustozim bironvi axtarayotgandek u yoq-bu yoqqa qarab qo'ydi.

Darrov qori pochchamning ustki kiyimlarini yechib, yerga chalqancha yotqizdim-da, ko'ylagi bilan yuzini, qorinlarini yelpiy boshladim. Ilgari qorin og'riganini ham, qorin shishganini ham ko'rgan edim-u, lekin bunaqasiga hech duch kelmagan ekanman... Hoy, ishonasizmi, qorinning shishgani, sekin-asta ko'tarilib borayotgani bemalol ko'rinib turibdi-ya! O'ziyam ovqat nomi borki, aralash-quralash qilib rosa tushirgan edik-da: so'lqillatib pishirilgan qatlama, yangi olingan qaymoq, murch sepilgan go'shtkuydi, har xil dorivor o'tlardan solinib tayyorlangan qaynatma sho'rva, kiyik go'shti solingan qazi, pista-magiz aralash tuyilgan tolqon, kashnich solingan ikki kosa mastava, bir tog'ora yog'liq qatiq, yetti piyola qimiz... Yo'q, ayb qori pochchamning o'zida ekan. Axir, bitta qoringa shuncha narsa qayoqdan sig'sin!

— Hoshim, bo'talog'im! Men o'lyapman! — deb ingradi Qori pochcham. Bunday qarasam, chindan ham qorni naq to'nkarilgan tandirdek bo'lib ketibdi. Betlari kichrayib, kuygan kulchadek, oyoqlari ham ingichka tortib, xoh ko'ring, xoh ko'rmang, xuddi o'qlog'idek bo'lib qolibdi. Qo'rqib ketdim. Nima qilsam ekan?

— Doktorga yugur! — dedi qori pochcham entikib.

— Yaqin o'rtada qishloq yo'q-ku, taqsir?

— Hu tiling kesilgur! Doktor top deyapman!

«Nima qilsam ekan? Ey qalpoqcham, ey aqli raso do'stim, yordam ber. Aql o'rgat. Qanday qilib qori pochchamni o'limdan olib qolsam bo'lar ekan?» — deb yolvordim maykamning ichidan taqib olgan qalpoqchamga.

— Qorniga suv quy! — tilga kirdi qalpoqcham.

— Suv yo'q-ku?

— Nariroqda buloq, bor.

— Suvni nimada keltiraman?

— Gilam xurjunni bo'shat, o'shanda keltirasan, — aql o'rgatdi qalpoqcham.

Qori pochchamga ustingizdan suv qo'ymoqchiman, degan edim, ko'zini ochmasdan boshi bilan ma'qul degan ishorani qildi. Shoshilib gilam xurjunni bo'shatishga tushdim.

— Ehtiyot bo'l, tuxum sinmasin... — ingradi qori pochcham.

Shundan keyin u kishining do'mbiradek shishib ketgan qorniga buloqning muzdek suvidan roppa-rosa yigirma sakkiz xurjun keltirib quydim. Shundan so'ng qorin sal pasayib, qori pochchamning chehrasi ham ochilgandek, bo'ldi.

— Ofarin, bo'tam, ofarin! Inshoollo, sizni keyinchalik o'zimning o'rnimga shayx qilib qoldirib ketaman.

Ammo bu xursandchilik uzoqqa cho'zilmadi. Sal o'tmasdan qorin yana shisha boshladi. Bu gal xuddi men bilan o'chakishmoqchi bo'lgandek juda tezlik bilan ko'tarilib borardi... Endi nima qilsam ekan? Ilgari oyim fermaga ishga kirmasdan avval, ola sigirimiz bo'lardi. Nafsi yomon bo'lgani sababli ko'p yeb qo'yib, qorni shishib bamisoli do'mbira bo'lib ketardi. Shunda dadam baqaterakning shoxidan kesib sigirning og'ziga kergi solsa — shish qaytardi-qolardi. Buloqning bo'yida baqaterak o'sib yotibdi. O'shandan kesib qori pochchamning og'ziga kergi solsam qalay bo'larkan deb, fikrimni o'ziga aytgan edim:

— Tezroq, bo'tam, tez yuguring! — dedi qori pochcham ko'zlari ola-kula bo'lib.

Yo'g'onligi tesha sopidek keladigan kergi kesib, qori pochchamning og'ziga ko'ndalang soldim-da, sallasi bilan bo'yniga chandib, ikki qo'lini orqasiga qayirib turdim. Ustozim kaltakni chaynab, o'qchib, ko'zlar olayib, ter bosib, besh-o'n minut qiynaldi-yu, bora-bora qorni pasayib, yorilgan koptokdek puch bo'lib qoldi. Keyin qori pochcham toshga boshini qo'yib shiringina uyquga ketdi. Qancha uxlaganini bilmayman. Bir mahal ko'zini ochib:

— Hoshimjon, bugun haftaning qaysi kuni? — deb so‘radi.

— Seshanba.

— Seshanba? — sakrab o‘rnidan turib ketdi qori pochcham, — ertaga chorshanba deng... Qani, eshakka orting xurjinni!

Qori pochcham ertaga chorshanbada Uzunquloq ota mozorida bo‘lishi kerak. Bo‘lmasa o‘rniga Danak qori pochchammi yoki Bodom qori amakimmi o‘tirib oladi-yu, tushgan pulni paqqos cho‘ntakka uradi.

Shoshilib yo‘lga tushdik.

Asta-asta tezligini oshirgan mashinadek biz ham bora-bora yurishni tezlatib, bir-birimizni ortda qoldirib keta boshladik. Goh choponining etaklarini pirpiratib qori pochcham o‘zib ketadi, goh tumshug‘ini oldinga cho‘zib qari eshak o‘zib ketadi, goh oldinga men chiqib olaman, goho xo‘tikcha o‘tib, shataloq otib hammamizni ortda qoldirib ketadi...

Xufton mahalida Xo‘jaqishloqqa eson-omon kirib oldik.

## X bob

### YONG‘OQ QORINING ZIYOFATI

**E** singizda bo‘lsa kerak, qori pochchamning hech kimga ma‘lum bo‘lmagan sirlarini fosh qilib tashlayman degan niyatda u kishiga shogird tushgan edim. Ammo bora-bora bu niyatimdan qayta boshladim. Nega desangiz, bu yerga kelganimdan buyon jonginam rohatda bo‘lib qoldi. Qori pochcham buvijonimga o‘xshab rivoyat o‘rgataman deb qiynamaydi, qulog‘imdan cho‘zg‘ilamaydi. Birgalashib namoz o‘qiymiz, deb qistamaydi.

— Mulla Hoshim! — deb chaqiradi qori pochcham.

— Labbay, taqsir! — deyman darrov qo‘limni ko‘ksimga qo‘yib.

— Yuraklar qisilib ketyapti-ku, bo‘tam.

— Belingizni uqalab qo‘yaymi, taqsir?

— Yo‘q, bo‘tam, anavi obizamzandan oling.

Obizamzam degani nima ekanligini haligacha bilmayman. Ammo uning rangi ham, hidi ham dadam xumchaga solib chiqaradigan musallasga juda o‘xshab ketadi.

Buyruqni eshitib, darrov o‘rnimdan turaman-da, ko‘zadagi obizamzandan bir piyola quyib, ustozimga uzataman.

— Bay-bay-bay! — deydi qori pochcham piyoladagini simirib, — obikavsarning o‘zi-ya!

— Qori pochcha, men ham jindak ichsam maylimi? — deb so‘rayman ba‘zan, — mening ham yuragim qisilib ketyapti.

— Yuragingiz qisilmay o‘lsin, bo‘tam, — deb urishib beradi qori pochcham, — bu bolalar uchun zaharning o‘zi-ya!

— Ichsam o‘lib qolamanmi?

— Til tortmay o‘lasiz, bo‘tam. Qani, yana bir piyola quyding-chi... Ha, barakalla... Endi boring, ichkari kirib eshoni oyingizga qarashib yuboring. Odamlar kelsa, mening yonimga kiritmang, kitob ko‘ryaptilar deng...

Shunday qilib, biz qori pochcham bilan apoq-chapoq yashab, maza qilib yurgan edik. Hali aytganimdek, u kishini fosh qilishni unutayozgan edim. Bir voqea sabab bo‘ldi-yu, men yana to‘nimni teskari kiyib.

— Ha, shoshmay tursinlar hali! — deb qo‘ydim.

O‘sha kuni nimadanligini aniq bilmayman-u, lekin juda xursand edim. Ashula aytib Uzunquloq ota mozoriga, qori pochchamning oldiga ketayotgan edim? Yo‘lda Orif bilan Zokirga duch kelib qoldim. Xunob bo‘lib nimanidir axtarishyapti.

— Nima yo‘qotdilaring? — so‘radim sekin. — Pul. Ko‘rmadingmi? — dedi Orif.

— Qanaqa pul?

— Puldaka pul-da. Qanaqa bo‘lardi, — jerkdi Orif.

Ma‘lum bo‘lishicha, ertalab ikkovlari mana shu yo‘ldan yurib, ona tili o‘qituvchimiznikiga o‘tishgan ekan. Orif

Zokirga ona tilidan o'rgatayotgan edi-da. Bugun imtihon topshirgani borishibdi.

— Rostdan topshirdingmi-a? — sekin turtib qo'ydim Zokirni.

— O'lay agar, topshirdim.

— Nechta savol berdi?

— O'nta savol berdi.

— Rostdan-a?

— Rost. Undan keyin mashq daftarimni ham bir boshdan varaqlab ko'rdi. Chakki emas, ancha mehnat qilganing bilini b turibdi, dedi. Ishonmayapsan-a? Ishonmasang, senga ham aytib berishim mumkin. Qani, so'ra-chi... So'rayver. Gapni aytib beraymi? Gap tugal fikr anglatgan... Tugal fikr anglatgan. Orif, u yog'i nima edi?

— Ishingni qil! — deb urishib berdi Orif. Zokir chap qo'lining ko'rsatkich barmog'ini chakkasiga qo'yib birpas o'ylanib turdi-da:

— Topdim, — dedi hovliqib, — tugal fikr anglatgan so'z yoki so'zlar birikmasiga aytiladi.

— Shunday qilib, ona tilidan qutilibsanda?

— Qutuldim. Endi algebra qoldi... Ana undan keyin to'ppa-to'g'ri yettinchi sinfga kirib o'qiyveraman... Agar sen bilan yuraverganimda, bilasanmi, men ham qolib ketar edim.

Negadir shu paytda Zokirning gaplariga quloq solgim kelmay qoldi. Undan shartta yuzimii o'girdim-da:

— Pulingni topdingmi? — deb so'radim ariqning bo'yiga o'tirib olib o'tlarning orasini titkilayotgan Orifdan.

— Yo'q, — boshini ko'tarmay dedi Orif, — ertalab Zokir kelguncha mana shu yerga o'tirib sanagan edim. Keyin cho'ntagimga solib mana bu tutdan chumchuq bola olib tushgan edim.

— Xafa bo'lma, — deb ko'nglini ko'tardim do'stimning.

— Bilasanmi, men uni kutubxona tashkil qilaman deb bittalab yiqqan edim. Kelasi bozorga oyim bilan shaharga borib, oynali javon olib kelmoqchi edim...



Shunday deb, hech narsadan-hech narsa yo'q, Orif yig'lab yuborsa bo'ladimi. Ko'nglim buzilib ketdi, yupatay desam hech gap topolmayman.

— Ko'pmidi? — dedim nihoyat.

— Yigirma bir so'm edi, — hiqillab dedi Orif.

Uchovimiz yana izlashga tushib ketdik. Kun tepaga kelguncha axtardik hamki, bari bir topilmadi.

Uzunquloq ota mozoriga ko'nglim g'ash keldi. Bugun garchi chorshanba bo'lmasa ham odam yana hech joyga sig'may ketibdi. Qori pochcham o'z joyida, duxoba to'shaklarda o'tirib nazr-niyoz qabul qilyapti.

— Nega kech qoldingiz, bo'tam? — deb so'radi asta.

— Bu yoqqa kelish esimdan chiqibdi, — bahona qildim.

— Boring, eshaklaringizdan xabar oling, ertalabdan buyon hech narsa solganim yo'q — och yotgandir.

Qori pochchamning eshagi ancha narida, pastqam bir joyda turadi. Och yotgan bo'lsa xashak solib, suv ham berib qo'yay, deb o'sha tomonga o'tgan edim, ona-bola eshakni xotinlar, men tengi, mendan kichkina bolalar qurshab olishibdi. Kap-katta bir odam xo'tikchanning boshidan ushlab, besh-olti yoshlar chamasidagi bitta qizchani hadeb mindirmoqchi bo'lyapti.

— Mindirmang, belini sindirib qo'yasiz, — dedim jahlim chiqib.

— Belini sindirsam pulini to'layman, akasi.

— Bo'lmasa avval to'lab qo'ying.

— Qancha olasan?

— Topganingizni beravering.

O'zim ham mana shunaqa ishlarga suyagi yo'q bolamanda. Xo'tikchanning ustiga eski to'n tashlab, qizchani mindirib bir aylantirib kelgan edim, boshqa bolalar ham ishqiboz bo'lib qolishdi. Bilasiz-ku, bizning tomonlarda motorli velosiped chiqqandan buyon eshak zoti kamayib, ajoyibxonadagi hayvondek odamlarni qiziqtiradigan bo'lib qolgan. Uch-to'rt so'm ishlab, Orifga bersam zoraki ko'ngli ko'tarilsa, kutubxonasiga kitob olib,

xursand bo'lsa degan niyatda darhol yeng shimarib ishga kirishib ketdim. O'zim tengi bir bolani kassir qilib tayinladim. Eshakchaga bir-ikkitasini mindirib soy bo'yiga oborib kelgunimcha kassir bola yangilaridan pul olib, navbat belgilab qo'yadi. Bir borib kelishim bora-bora ellik tiyinga chiqib ketdi. Shunday qilib desangiz, rosa pul ishladim-da. Xo'tikniyam naq bo'lmasa o'ldirib qo'yayozdim, bechora madori qurigandan oxiri ter bosib yurolmay qoldi. Endi ishni yig'ishtirib, tushgan pullarni bir sanab ko'ray-chi, deb turgan edim, o'n sakkiz-o'n to'qqiz yoshlardagi bir qiz kelib:

— Hoy bola, xo'tikchangga meni ham bir mindir, — deb iltimos qildi.

— Yo'q, xo'tikcha charchab qoldi.

— Voy, charchasa nima qipti?

— Xo'p desangiz, qari eshakka mindiraman. Quloqlarini qarang, har bittasi karnaydek keladi...

— Juni hurpaymay o'lsin eshagingni!.. Anvar aka — deb yonidagi turgan yigitga murojaat qildi qiz, — siz ayting, jo-o-on Anvar aka.

— Kel endi, uka, kelinoyingni bir kataysa qildir!— deb yelkamga qo'lini qo'ydi Anvar aka.

— Yo'q, besh so'm bersangiz ham ko'nmayman.

— Bir so'm bersakchi? — so'radi qiz.

— Yo'q, to'rt so'mga ham ko'nmayman.

— Ha, ana, bir so'm ellik tiyin!.. Tur endi!

— Yo'q, uch so'mga ham ko'nmayman.

— Ikki so'mga-chi? — qoshlarini chimirib dedi qiz.

«Ha, mayli», deb o'yladim ichimda. Ikki so'mni olsam ola qolay, shunda pulim roppa-rosa o'n to'qqiz so'm bo'ladi. Orifni rosa quvontiradigan bo'ldim-da. O'zim yaxshi o'qimagandan keyin yaxshi o'qiganlarga yordam berib turishim kerak-da.

— Avval bersangiz, keyin mindiraman, — deb sekin o'rnimdan turdim, — lekin o'ziyam xudda «Volga»ga tushgandek maza qilasiz-da, kelinoyi.

Falokat oyoq ostida deganlari paqqos rost ekan. Kelinoyimni xo'tikchaga mindirib, tepalikka olib chiqayotganimda, jonivor avval oyoqlarini kerib, ter bosib, qaltiradi. Keyin baqadek yerga yalpayib qoldi — beli uzilib ketgan ekan. Qayoqdandir paydo bo'lib qolgan qori pochcham qulog'imdan cho'zib:

— Nima qilding, badbaxt?! — deb so'radi.

— Hali o'lgani yo'q, — dedim nima deyishimni bilmay. Qulog'imdan cho'zganча tosh uyga olib kirib ketdi qori pochcham. Men endi rosa kaltakni ham yesam kerak, deb jonimni hovuchlab turgan edim, yo'q, qori pochcham to'satdan yumshab qoldi.

— Qancha pul tushdi, bo'tam?

— Pul tushgani yo'q.

— Yolg'on gapirmang, bo'tam. Yolg'onchining joyi do'zax bo'ladi. — Avvalgidan ham yumshab, yarim kulib, yarim jiddiy turib davom etdi qori pochcham: — Kira qilayotganingizni ertalabdan buyon kuzatib o'tirgan edim... Qani, pulni oling-chi, bir sanaylikchi.

— Men bu pulni Orifga beraman, bildingizmi? Kutubxonа tashkil qilmoqchi u, bildingizmi?

— Kutubxonaga balo bormi, qani, pulni chiqaring.

— Bermayman.

— Nima?

— Bermayman, vassalom!

— Nima-nima?! — shunday deb qori pochcham meni tappa bosdi-da, cho'ntagimdagi pullarning hammasini olib qo'ydi. Orasidan ikkita besh tiyinlikni tanlab menga uzatdi:

— Mang, bunga xo'rozqand olib yeng, bo'tam!

Shunaqangi xafa bo'ldimki, shunaqangi xafa bo'lib ketdimki, ishonasizmi yig'lavorayozdim. Yo'q, yig'lagan ham ekanman, buni men qori pochchamning gapidan bilib qoldim.

— Iye, iye, bo'talog'im, nega yig'laysiz? — deb avra choponining o'ngiri bilan ko'z yoshimni artib qo'ydi ustozim, — bitta xo'tikchaga ham shunchа xafa bo'ladimi odam.

O'lsa o'libdi-da. Men sizga unaqasidan ertaga bir yo'la ikkitasini keltirib beraman. Ustiga chiroyli gilam to'qimchalar bosib, peshonasiga ipak popukchalar taqib, ko'zmunchoqlar osib qo'g'irchoqdek yasatib beraman... Siz kirakashlik qilib turasiz, men tushgan pullarni to'plab turaman. Ana undan keyin men sizga yangi «Moskvich» olib beraman... Haydashni bilasizmi?

— Yo'q! — dedim burnimni tortib.

— Hechqisi yo'q, inshoollo, o'rganib olasiz. Endi, o'rningizdan turib mana bu go'shtlarni qassobga topshiring-da, pulini naqd berar ekansiz deng. Inshoollo, sizni o'zimdand keyin mana shu yerga shayx etib tayinlab ketaman...

Qori pochcham bir so'zli odam ekan. Kechasi qayoqqadir yo'q bo'lib ketdi-yu, ertasiga ertalab o'zi aytgandek chiroylikkina ikkita xo'tikchani yetaklab keldi. Hatto gilam to'qimchalar, o'zangiyu taqinchoqlarigacha hamma-hammasini taxt qilib kelibdi. O'sha kuni chorshanba bo'lgani uchun ziyoratgohga kechagidan ham ko'p odam kelib, bamisoli katta sayilning o'zginasi edi.

— Qani, bo'tam, boshlamaysizmi? — deb imo qilib qo'ydi qori pochcham.

— Hozir boshlaymi yoki haliroq boshlaymi?

— Yo'q, yo'q, darhol boshlang!

— Boshlasam boshlayveraman-da... — dedimu shoshilib kechasi o'ylab qo'ygan rejamni amalga oshirishga kirishdim. Xo'tikchalarni odamlar ko'proq to'plangan joyga yetaklab keldim-da, dumining tagiga changal qistirib, ketma-ket qo'yib yubordim. Nariroqdagi bolasidan ajrab shumshayib turgan qari eshakni ham xuddi shunday qildim, u ham bir yayrab olsin dedim-da!

— Qoch, eshak bosib ketadi! — dedi kimdir.

— Oyi! — deb dodladi bir bola.

Bir nafasda hammayoq alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi. Eshaklar ham nuqul odamlar turgan tomonga yugurib shataloq otadi deng. Qiyqirib kulgan kim, chapak chalgan kimsa voy-voylab yig'lagan kim — ajratib bo'lmaydi. O'zim

ham bu tomoshaga berilib qulog'imning tagiga tarsaki kelib tushganini ham bilmay qolibman.

— Badbaxt!

— Labbay, taqsir? — deb o'girildim qori pochchamga.

— Betavfiq, — qori pochcham bu qulog'imning tagiga ham bir tarsaki tushirdi.

— Xo'p bo'ladi, taqsir, — dedim nima deganlariga tushunmay. Qori pochcham bilagimdan ombir bilan qisganday qisib, dikonglatganicha, oyog'imni yerga tekkizmay hujraga olib kirib ketdi...

Bu yerda qanaqangi voqealar yuz berganini sizga aytmay qo'ya qolay. Faqat shuni aytmoqchimanki, qori pochcham meni boplab ziyofat qildilar. Lekin bu ziyofatda og'ir-og'ir musht, qaynoq-qaynoq tarsaki, yengil-yengil tepkidan boshqa hech narsa yemadim.

— Tavba qildim, de, betavfiq! — dedi qori pochcham ziyofatning birinchi qismini tugatib.

— Tavba qilmayman, taqsir, — dedim juftakni rostlab qolish uchun sekin eshikka yaqinlashib, — shoshmay tursangiz hali boshqa sirlaringizni ham ochib tashlayman.

— Nima-nima?!

Bir sakrab ostonadan o'tib ketdim.

## X I b o b

### YARASH-YARASH

Qori pochchamdan kaltak yeganimni eshitib buvijonim rosa xafa bo'lar, degan uyda bo'lgan voqeani oshirib-toshirib so'zlab bergan edim, buvijonim sevinganidan ko'zlari qisilib:

— Xayriyat-ey! — deb qo'ydi.

— Nega endi xayriyat deysiz, axir, biqinlarim og'rib ketyapti...

— Og'risa yana yaxshi, bolam. U kishining qo'llari tekkan joy do'zaxda kuymaydi. Aylanib ketay pirimdan...

Bundan keyin o'ng betingga ursalar, chap betingni ham tutib bergin, bolam...

Xullas, o'sha kuni buvijonim u dedi, men bu dedim, oxiri qori pochcham bilan yarashishga, hoziroq borib kechirim so'rashga ko'na qoldim. Ko'nmas edimu, ammo hali u kishining odamlarga ma'lum bo'lmagan sirlarini ochganimcha yo'q edi-da. Rostini aytsam, u kishining sirlarini ochib tashlash oson ish emas. Qori pochcham shunaqangi puxta, shunaqangi ishbilamonki, mening o'zimni shaytonning bolasi deb odamlarga tutib berib, o'ldirib yuborishi hech gap emas. Danak qori pochcham bilan Bodom qori amakim u kishining nomini eshitgandayoq zir-zir titrab qolishadi. Hatto bir kuni ikkovlarini qori pochcham shunaqangi boplab savaladilarki, toshkentlik birinchi razryadli boksyor Imomaliyev aka ham bunaqangi chaqqon, bunaqangi kuchli bo'lmasa kerak deb qo'ydim ichimda.

Qori pochchamga shogird tushganimning birinchi haftasimidi, ikkinchi haftasimidi, hozir aniq eslay olmay turibman, ishqilib, chorshanba kuni edi-da. Kech kirib, ziyoratchilar ketib bo'lgan. Men qori pochchamning hujrasini changitib supurayotibman, u kishi eshikka teskari o'tirib olib, kun bo'yi tushgan pullarni ikki oyog'i orasiga to'kib sanash bilan ovora. Hujra eshigini birov avval tirnog'i bilan tirnagandek bo'ldi. Keyin so'roqsiz kirsam kaltak yeyman, deb o'yladi shekilli, qo'rqa-pisa taqillatdi.

— Kimdir u? — oyog'ini birov bosib olgandek og'riq bilan so'radi Yong'oq qori pochcham.

— Bu bizmiz, taqsir, — surnayning ovozigaga o'xshash ingichka ovoz eshitildi.

Qori pochcham pullarni shoshilib qiyiqqa solib beliga mahkam bog'lab, ustidan malla choponini kiydi-da:

— Bo'tam, eshikni oching! — deb qo'ydi. Eshikni ochdim.

— Assalomu alaykum, — deb avval Danak qori pochcham, ketidan Bodom qori amakim ikkovi ham kalta qo'llarini ko'ksiga qo'yganicha, pakkidek bukilib kirib kelishdi.

— Vaalaykum, — Yong‘oq qori pochcham to‘satdan qovog‘ini uyib oldi.

— Taqsir... — dedi bittasi gapini yo‘qotib.

— Biz... — dedi boshqasi ham tutilib.

— Bo‘tam, siz chiqib turing-chi, — buyurdi menga Yong‘oq qori pochcham.

Tashqariga chiqdimu, darrov qo‘ltig‘imdagi qalpoqchamni boshimga kiyib, ko‘zga ko‘rinmaydigan bo‘lib olgach, yana orqamga qaytdim. Ichkariga kirishim bilan Yong‘oq qori pochcham eshikning zanjirini solib:

— Xo‘sh? — dedi ikkovlariga bir-bir qarab, qo‘log‘im ixtiyorlaringizda.

— Siz boshlang, — dedi Danak qori pochcham.

— Yo‘q, o‘zlari boshlasinlar, — dedi Bodom qori amakim orqaga tisarilib.

— Belingizdagi pulni arra qilamiz, — deyishdi keyin ikkovlari baravariga.

Yong‘oq qori pochcham o‘ng qoshini pastga, chap qoshini balandga qilib xo‘mraydi:

— Nima?

— Shunday, taqsir! — deyishdi yana ikkovlari, — bugundan boshlab, tushgan pul o‘rtada arra qilinadi.

— Arra qilinadi?

— Ha, taqsir, arra qilamiz.

— Siz, Bodom qori, jindak aqldan ozgan ko‘rinasiz. Siz, mulla Danak, butunlay tentak bo‘lib qopsiz.

— Yo‘q, taqsir, — deb bir odim oldinga tashlashdi ikki qori, — biz, xudoga shukur, soppa-sog‘miz. Soppa-sog‘ bo‘la turib, kasal odamchalik ham pul ishlay olmayapmiz. Qishloqma-qishloq yurib qavmlarga Yong‘oq qori hazratlarining dami o‘tkir deb tushuntirgan kim? Biz Yong‘oq qori Uzunquloq pirimning so‘nggi avlodi bo‘ladi, deb, yana o‘sha qavmni ishontirgan kim? Biz har kim o‘z mahallasidan chiqqan o‘likning janozasini o‘qiydi, deb kelishib olgan edik. Siz bizdan oldin borib janozani o‘qib qo‘yyapsiz, pulini olib bizga hech narsa bermayapsiz... Anavi

kuni Hoshim degan shogirdingiz tahorat suviga qalampir, tuz solib bizni ko'p qiynab qo'ydi. Buni kim o'rgatgan, siz!.. Yo'q, taqsir, bugundan boshlab pul arra.

— Nima, ikkingiz isyon ko'tarmoqchimisiz? — g'azab bilan so'radi Yong'oq qori pochcham.

— Ha, taqsir, — deb gapga aralashdi Danak qori pochcham, — biz isyon ko'tarmoqchimiz.

Bodom qori amakim ustozimning belidagi pulga sekin qo'l uzatgan edi, u kishi:

— Nari tur, betavfiq! — deb baqirib berdi.

— Yo'q, taqsirim, o'z ulishimizni berasiz. Yong'oq qori pochcham og'zini katta ochib, ko'zlarini yumib:

— Apchshu! — deya qattiq chuchkirib yubordi, — ana sizlarga pul, bo'lib olinglar!

— Biz hali sizning mishig'ingizga teng bo'ldikmi?

Danak qori bilan Bodom qori amakim jon talvasasida ustozimning belidagi pulga yopishishdi. Yong'oq qori pochcham ikkovini baquvvat qo'llari bilan ikki tomonga itarib yuborgan edi, biri hujraning o'ng devoriga, ikkinchisi chap devoriga borib urildi. Yana qaytib yopishmoqchi bo'lgan edi, ustozim engashib kalla solishni mo'ljallab kelayotgan Bodom qori amakining betiga «bismillohi rahmoni rahim» deb tarsaki tortib yubordi.

Ana shundan keyin desangiz, zo'r mushtlashish boshlanib ketdi, agar televizorda olib ko'rsatsa, «yo tavba, qori pochchalar ham boksga tushar ekan-da», deb yoqangizni ushlardingiz.

Bir mahal Yong'oq qori pochcham ikkovini ham yerga yotqizib, ustiga minib oldi-da, yenglarini shimarib olib:

— Yo Hasan, yo Husan! — deya do'pposlashga tushib ketdi. Urib-urib charchadi shekilli, hushidan ozgudek bo'lib yotgan Bodom qori amakimning qulog'idan buvijonim mening qulog'imdan cho'z gandaka cho'zib:

— Pul haqida yana og'iz ochasanmi? — deb so'radi.

— Yo'q, taqsir, minba'd og'iz ochmayman. Ustozim Danak qori pochchamning ham o'ng qulog'idan cho'zib:



— Xo'sh, mulla Danak, ahvollari qalay? — deb kalta soqolini silkitib, he-helab kuldi. Nazarimda, Danak qori pochcham ham unga o'xshatib kulmoqchi bo'ldi-yu, ustidagi yuk og'irlik qilib:

— He... — deb qo'ya qoldi.

Yong'oq qori pochcham ostida hansirab yotgan azamatlarga yana bir mushtdan sovg'a qilib:

— Tavba qildilaringmi? — deb so'radi.

— Ming bor tavba qildik!

Uchovlari ham bir-birlaridan hadiksirashib, etaklarini qoqa-qoqa sekin o'rinlaridan turishdi. Yong'oq qori pochcham og'zini katta ochib kulib turibdi. Bodom qori amakimning labi kulyapti-yu, ko'zi xo'mraygan, Danak qori pochcham kulishini ham, xo'mrayishini ham bilmay, entikib, goh unisiga, goh bunisiga qaraydi.

— Lekin taqsir, xudoyi taolo sizga kuchni ham bergan ekan-da, — deb qo'ydi Bodom qori amakim. Keyin, negadir uchovlari ham baravariga kulib yuborishdi.

— Ho, ho-hoh, — deb qornini silkitdi mening ustozim.

— He-he-he! — deb yelkasini uchirdi Bodom qori amaki.

Danak qori pochcham bo'lsa xuddi echkinging ma'rashiga o'xshatib uzoq kuldi-da:

— Taqsir, biz shunchaki hazillashgan edik, — deb qo'ydi.

— Men ham hazillashib urdim, — soqolini silab qo'ydi Yong'oq qori pochcham, — chinakamiga urganimda biringizni do'zaxga, biringizni undan nariga jo'natardim.

Keyin uchovlari yarash-yarash qilib bu gap shu yerda qolishi kerak, odamlar eshitsa sha'nimizga yaxshi bo'lmaydi, kulgi bo'lamiz. Kimki bu xususda gap ochsa, soch-soqoli to'kilib pes bo'lsin, deb fotiha o'qishdi. Go'yo hech gap bo'lmagandek mehribon aka-ukalardek bir-birini qo'ltiqlashib tashqariga chiqa boshlashdi. Yong'oq qori o'rtada, Bodom qori o'ng qo'ltig'idan, Danak qori chap qo'ltig'idan ko'tarib olishgan.

— Qani, taqsir, marhamat qilsinlar.

— Yo'q, yo'q, o'zlaridan bo'lsin.

— Yo'g'-e, xo'jam, qani, boshlasinlar.

Shu gaplardan so'ng uchovlari eshikdan barvariga qiya bo'lib chiqib ketishdi.

Xullas, Yong'oq qori pochcham hazilakam odam emas. U kishining sirlarini oshkor qilish uchun puxta tayyorgarlik ko'rishim kerak. Tayyorgarlikni esa o'zlari bilan birgalikda olib borishim zarur.

— Shunday qilib, buvijon, borib kechirim so'ra deysizmi? — deb so'radim o'rnimdan turib.

— Oyoqlariga yiqil, — dedi buvijonim, — u kishining dargohlari keng, albatta kechiradilar.

— Qani, ketdik, bo'lmasa.

Bir qiyiq chala qurigan shaftoli qoqi olib buvijonim bilan ustozimnikiga jo'nadik. Haqiqatan ham u kishining dargohi juda keng ekan, menga o'xshab birovga kek saqlashni yomon ko'rar ekan. Buvijonim mendan oldin kirib yotig'i bilan tushuntirgan edi, qori pochcham:

— Bola-da, bola, — deb qo'ydi. Keyin mening boshimni silab, qo'shimcha qildi, — obbo qochqoqvoy-ey, ertaga xo'tikchalarni to'qimlab, ziyoratchilarni xursand qilamizmi?

— Bo'lmasam-chi, taqsir, — dedim xursand bo'lib.

— Barakalla, bo'tam, lekin Bibirobiya, nabirangizdan ajoyib mulla chiqadi-da. Inshoollo, o'rnimga qoldirib ketmoqchiman. Avvalgi gapim gap.

Buvijonim qori pochchamni duo qilib, chiqib ketdi. Ustozim meni yoniga o'tqizib olib, mulla bo'lish juda mashaqqat ekanligi, bu yo'lda ko'p zahmat chekish zarurligini aytib, hatto o'zi Buxoroda roppa-rosa uch yil tuproq yalaganligini ham gapirib berdi.

— Ko'nglingiz aynimadimi? — deb so'radim qo'rqa-pisa.

— Nega endi ko'nglim aynar ekan, bo'tam?

— Axir tuproq yalabsiz-ku?.. Men tuproq yalagam, darrov ko'nglim ayniydi.

Qori pochcham javob qaytarmadi-yu, qornini silkitib kuldi. Kulib bo'lgach:

— Endi, bo'talog'im, sizga andakkina yumush bor, — dedi.

— Buyuring, taqsir.

— Xozir qo'shni qishloqqa, Rafqonga o'tasizda, kimlar kasal yotganini, ismi nima, yoshi nechada, qanaqa kasal bilan og'rigan — hammasini bilib qaytasiz. Lekin, bo'tam, zinhor kimligingizni birovg'a ayta ko'rmang. Kasal qarindoshimiz bor, otini bilmayman, o'shani izlab keldim, deng. Uddasidan chiqa olasizmi?

— Qoyillatib tashlayman, taqsir.

— Ofarin, bo'tam, inshoollo, sizga yangi «Moskvich» olib beraman.

Rafqonga borib peshin mahaligacha beshta kasal borligini aniqlab keldim. Kechqurun qori pochcham bolasi o'lgan qari eshakni minib o'sha qishloqqa shoshilinch jo'nab ketdi.

## XII bob

### QOCHMAGAN NOMARD

**T**o'satdan bolalar lageri qurilishi uchun keltirilgan yog'och-taxtalar kuyib ketdi. Kechasi bo'lgani uchun odamlar to'planib to'etni o'chirguncha yog'och-taxtaning ancha qismi yonib tamom bo'ldi.

— Bu mana shu pismiqning ishi, — dedi dadam kechqurun hammamiz so'rida choy ichib o'tirgan edik.

— Pismig'ing kim? — so'radi buvijonim.

— Kim bo'lardi. Yong'oq qori-da.

— Hoy, og'zingga qarab gapir, bolam.

— Og'zimga qarab gapirsam ham, qaramasdan gapirsam ham bu ishda o'shaning qo'li bor. Lager qurilishiga kim qarshi chiqyapti? Yong'oq qori qarshi chiqyapti. Negaki, lager bitsa, qori mo'may daromaddan mahrum bo'lib qoladi-da. Ba'zi bir go'l odamlarni qurilishdan ketib qolishga undayotgan ham, mana shu pismiq. Shu bugundan kechikmay uchastkavoy militsionerni boshlab kelaman.

— Hoy, bolam, astag'firullo de, — buvijonimning achchig'i chiqib ketdi.

— Qo'ying-e, — qo'l siltadi dadam. — Hoshim, bugundan boshlab sen ham o'sha haromxo'rnika bormaysan.

Buvijonim juda xafa bo'lib ketdi shekilli, lablari uchib, shartta o'rnidan turdi:

— Ro'zi, bu gaplarni bilib gapiryapsanmi?

— Bilib gapiryapman. Hozir borib militsiyaga xabar qilaman.

— Menga qara, men seni tuqqan onangman-a?

— Ha, onamsiz.

— Oq sut berib katta qilganman-a?

— Ha, katta qilgansiz.

— Yaxshi yemadim, yaxshi kiymadim, — yig'lamsirab dedi buvijonim, — otasi yo'q, o'ksimasin, deb, topganimni senga berdim, odam qildim. Oqibat sendan ko'rgan hurmatim shu bo'ldimi? Mening ko'z oldimda mening pirimni haqorat qiladigan bo'ldingmi? Bir oyog'i go'rda bo'lib qolgan onangning hurmati shu bo'ldimi?!

Shunday deb buvijonim ho'ngrab yig'lab yubordi. Shunaqangi bir alam bilan yig'ladiki, rostini aytsam, andak bo'lmasa men ham yig'lavoray dedim. Ichkaridan oyim chiqib dadamga qarab o'qrayib qo'ydi. Xuddi kelishib olgandek, Oysha bilan Dono ham buvijonimga jo'r bo'lib qolishsa bo'ladimi?

Buvijonim yelkasini silkitib-silkitib o'rnidan turdi-da, ichkariga kirib eski paranjini qiyshiq yopinib chiqdi:

— Men... Men... sig'may qoldim endi bu uyga.

— Oyim borib buvijonimning yo'lini to'sdi. Dono bilan Oysha oyog'iga yopishib:

— Buvijon, qayting! — deb battar yig'lay boshlashdi.

— Hoy erkak, nega o'shshayib turibsiz, — jerkib dedi oyim. — Qaysi o'g'il o'z onasini uyidan haydab chiqaradi!

Shu paytda dadam bo'lganicha bo'ldi. Nazarimda aytgan gapiga ham ming bor pushaymon bo'lib ketdi.

— Bo'pti endi, oyi, bir aytdim-qo'ydim-da.

— Tavba qilmaguningcha orqaga qaytmayman, —  
oyog'ini tirab turib oldi buvijonim.

— Ha, ana, tavba qildim. Ko'nglingiz joyiga tushdimi?

— Anavi uchastkavoyingga bormaysanmi?

— Yo'q, bormayman. Qayting, endi, oyi!

Buvijonim ko'z yoshlarini artib uyga kirib ketdi. Dadam so'rida do'ppisini o'ynab o'tirgandan o'tirib qoldi. O'zi men qiziqman-da! Hozirgina yig'layotganini ko'rib buvijonimga achingan edim... Endi bo'lsa dadamga rahmim kelib o'tiribdi... Dadamga hech kun berishmaydi. Biror narsani o'ylab amalga oshirmoqchi bo'lsa, avvalo oyim qarshilik ko'rsatadi. Oyimning qarshiligini yengib o'tsa, bu yoqda buvijonim yeng shimarib turgan bo'ladi. Shunda dadam:

— Bilganlaringni qilinglar, — deb qo'l siltaydi-da, dalaga qarab jo'nab qoladi. Mana hozir ham bechora juda xafa bo'lib o'tiribdi.

— Dada, issiq choy quyib beraymi? — deb so'radim.

— Ke qo'y, shu topda choy ham tomoqdan o'tmaydi, — dadam do'ppisini kaftiga qoqib, boshiga kiydi-da, qayoqadir chiqib ketdi.

U juda xafa edi.

Tuni bilan o'ylab chiqdim. Yo'q, endi yeng shimarib kirishmasam bo'lmaydiganga o'xshaydi. Qori pochchamning hamma kirdikorlarini odamlarga aytib berishim, ertadan qolmay uni fosh qilishim kerak. Shunchadan buyon ikkilanib yurganim ham yetar, bas endi. Ertagayoq ziyoratgohga borib to'plangan odamlarga hammasini oqizmay-tomizmay aytib beraman. Qori pochcham g'azablanib meni shaytonning bolasi deb toshibo'ron qildirmoqchi bo'lsalar, qalpoqchamni kiyib olamanu... u yog'iga yana biror narsa o'ylab topaman. Ammo sirlarini fosh qilib, shataloq otib qochmagunlaricha qo'ymayman...

Ertasiga choshgoh mahalida u kishining chillaxonalariga salom bermasdan kirib borgan edim, atlas ko'rpacha ustida biram chiroyli uxlab yotibdilarki... kim biladi, allaqachon

jannatga borib olib, huru paykarlarga bellarini uqalatyaptilarmi, ammo xurrakniyam juda keltirib tortyaptilar-da. Sekin turtib uyg'otgan edim, avval xurrak tindi. Keyin qori pochcham ko'zlarini ochib, boshlarini sekin ko'tardilaru:

— Yo'q, ko'tarolmayapman, — deb tap etkazib yana yostiqaq tashladilar, — la'nati, musallasga spirt qo'shgan ekanda...

— Boshingiz og'riyaptimi? — deb so'radim nima deyishimni bilmay.

— Og'riyapti, qattiq og'riyapti. Mulla Hoshim bo'talog'im, ichkarida ko'zada obizamzam bor, ana shu zormandadan bir piyola qo'yib chiqing.

— Xo'p bo'ladi, taqsir.

Ichkari kirib anor suvidek qip-qizil obizamzamdanda guruch o'lchaydigan katta piyolada to'ldirib olib chiqdim. Ustozim ko'zlarini yumib, huzur qilib simirdilarda, kaftlarining orqasi bilan lablarini artib:

— Bay-bay-bay, muzdakligini qarang-a, — deb qo'ydilar.

— Yana bir piyola olib chiqaymi?

— Olib chiqsangiz, olib chiqing!

Yana bir piyolani pok-pokiza urib oldilar. Urilib oldilaru, nazarimda Shotursunning dadasiga o'xshab qip-qizil mast ham bo'lib qoldilar. Buni men ko'zlarini xiyol suzib kulimsirab turishlaridan sezib qoldim.

— Bari bir o'lib ketamiz, bo'talog'im. Yana bir piyola olib chiqing-chi...

Xiyol o'tmay qori pochcham butunlay mast bo'lib, to'shakka cho'zilib qoldilar.

Kimdir ko'cha eshikni shiddat bilan do'pira-dupiriga olib qoqa boshladi. Yugurib chiqsam, sochlari to'zg'igan, ko'zlari yoshli, oltmish yoshlardagi bir kampir. Yonida uchta devdek-devdek barvasta yigit ham turibdi. Yigitlar aka-uka bo'lishsa kerak, nega desangiz, hammasining afti bir-biriga o'xshab ketadi. Uchovi ham velosipedda, juda tez haydab kelishgan bo'lsa kerak — hansirab turishibdi.

— Yong‘oq qorining hovlisi shumi? — so‘radi kampir.  
— Shu.  
— Yer yutkur o‘zi uydami?  
— Uyda. Lekin o‘rinlaridan turolmaydilar, mast bo‘lib yotibdilar.

— Mast? — to‘rt kishi birdan so‘radi.  
— Ha, mast. Obizamzandan ko‘p ichib mast bo‘lib qoldilar.

Shunday deyishimni bilaman, sochi to‘zg‘igan xotin o‘zini eshikka urdi. Ketidan yigitlar ham kirib borishdi. Bir nafasda hovli to‘polon, qiy-chuv bo‘lib ketdi. Nima gap bo‘ldiykin, deb ichkari hovlidan o‘sma qo‘yib o‘tirgan eshon oyim ham bir qoshida o‘sma, bir qoshi o‘smasiz yugurib chiqdi. Bepul tomosha ko‘rish uchun qo‘ni-qo‘shnilar ham chiqishdi. Bundan to‘rt kun avval sochi to‘zg‘igan xolaning kichik o‘g‘li o‘lib qolibdi.

— O‘g‘limni topib berasan, nomard, — deb nuqul qori pochchamga tashlanadi deng. Qori pochcham bo‘lsalar qattiq mast bo‘lib qolgan ekanlar, shuncha surgalashsa ham qani endi bunday ko‘zini ochsa — nuqul ruschalab so‘kinadi deng. Nihoyat, bir mahal muborak boshlarini ko‘tarib:

— Kim u, bemahalda shovqin ko‘targan? — deb so‘radilar.

— Piyanista, bolamni o‘ldirding. Shuhratjonimni topib ber! — deb sochi to‘zg‘igan xola qori pochchamning soqoliga yopishib qoldi-ku! Odamlar ajratib qo‘ymaganda, kim biladi bu janjal nima bilan tugardi.

Qori pochchamning kayfi uchib, ko‘zlari katta-katta ochilib ketdi-yu, gandraklab sekin o‘rinlaridan turdilar:

— Nima gap o‘zi?

— Shuhratjonim o‘ldi!!

— O‘lgan bo‘lsa, joyi jannatda bo‘lsin, oblovhu akbar!

Shunday deb qori pochcham sekin eshikka chiqib ketmoqchi bo‘lgan edilar, ayol u kishining yo‘lini to‘sdi:

— To‘xtang, o‘sha kuni bizning uyni qanday topib borgan edingiz?

— Aytdim-ku, xobimda ayon bo'lgan edi...

— Ismi-chi, axir siz, Shuhratjonimning nomini aytib kirib bordingiz.

— Ismi ham, kasali ham xobimda ayon bo'lgan edi,— deb qo'ydilar qori pochcham.

— Axir siz, meni o'sha kuni sariq qo'y so'yishga majbur qildingiz, issiqqina terisiga bolaginamni o'rab yetti xil mevaning novdasi bilan savaladingiz... Endi doktorga ko'rsatmang, inshoollo, o'g'lingiz ertagayoq chopqillab ketadi dedingiz... Bechora Shuhratjonim doktor chaqiring, deb biram zorlandiki, biram zorlandiki, o'ligini ko'rgan doktorlar bir kun avval bilganimizda kasali hech gap emas ekan, olib qolardik deyishdi... Voy bolaginam-ey, voy Shuhratjonim-ey... Shu piyanistaning gapiga kirguncha, onaginang o'zi o'lsa bo'lmasmidi!

Ayol shunday bir alam bilan yig'ladiki, to'planganlar ham o'zlarini tutolmay ho'ng-ho'ng yig'lab yuborishdi. Mehrim qattiqligi bilan nom chiqargan bo'lishimga qaramay, ishon-sangiz, shu paytda men ham yig'lab yubordim.

— Shuhratjonim dilida armon bilan ketdi, armoni bilan ketdi, — deb yig'lardi ayol.

Demak, masala ravshan, men ahmoq qori pochchamning gapiga kirib, qishloqma-qishloq yurib kasallarning kasali qanaqa ekanligini, ismi nima ekanligini bilib kelar ekanman-u, qori pochcham «xobimda ayon bo'ldi» deb asta borib, bechoralarni shilib kelar ekanlar. Yashavorsinlar-ey! «Bo'talog'im», deb yelkamni silab qo'yishlarida gap bor ekan-da. Shartta o'rtaga chiqdim:

— Xolajon, meni taniyapsizmi?

— Yo'q, seni tanimayman.

— Uyingizga kirib o'g'lingizning ismini, kasali nima ekanligini so'ragan edim-ku?

— Voy esim qursin! Kirgan eding, kasal qarindoshumizni axtarib yuribman, deb eding...

Shundan keyin butun voqeani to'planganlarga shartta-shartta gapirib berdim. Zodiyon, Makiyon, Elash, To'lash



degan qishloqlarga ham borib, kasallarni surishtirib kelaman deb, yo'llarda rosa itlarga talangan edim. Ana shulargacha hammasini gapirib berdim.

— Bu betavfiqning gapiga quloq solmanglar! — deb xuddi bo'g'ib tashlamoqchidek ikki qo'lini changak qilib, tishlarini g'ijirlatib qori pochcham men tomonga qarab bostirib kela boshladilar, — bu aqldan ozgan bola. Buvijoni o'qib, dam solib odam qiling, deb bergan edi. Mana bunday qilib bo'g'ib tashlamoqchi edimu...

Qori pochcham menga tashlangan edilar, lip etib qo'ltiqlarining tagidan o'tdim-da, bexavotirroq joyga borib:

— Obizamzamni siz icharkansizu, aqldan biz ozar ekanmiz-da, — deb qo'ydim.

Xuddi shu payt sochi to'zg'igan xolaning o'g'illari domla pochchamning ikki qo'lidan mahkam ushlab:

— Qani, oldimizga tushsinlar-chi! — deb qolishdi.

— Qayoqqa borar ekanman?

— Sizni hoziroq prokurorga topshiramiz.

— Prokurorga?!

— Ha, prokurorga! Prokurorga topshirmaguncha o'lgan ukamizning alamidan chiqolmaymiz.

— Chuchvarani xom sanabsizlar! Uyimga bostirib kirib, meni o'ldirmoqchi bo'lganlaring uchun o'zlaringni sudga beraman, — deb shovqin solib qoldilar qori pochcham, — hali sizlar meni bilmas ekansizlar...

Yigitlar qori pochchamning ikki qo'ltig'idan olib, kalta oyoqlarini yerga tekkizmay dikonglatgancha olib chiqishayotgan edi:

— To'xtanglar, to'xtanglar! — deb oyoqlarini pitillatib qoldilar qori pochcham. — Men kiyimimni almashtirib chiqay bo'lmasa... Lekin siz tuhmatchilar bilan o'sha yerda gaplashaman... E parvardigor, qanaqa kunlarga qoldim-a!

Qori pochcham shunday deb, go'yo kiyinib chiqsalar butun dunyoni osti-ustin qilib yuboradigandek bir vajohat bilan ichkari hovliga kirib ketdilar...

Besh minut, o'n minut, e boringki, yigirma besh minut kutdik hamki, qani endi qori pochcham chiqsalar. Bir mahal ko'cha eshik tomondan hovliqqancha Mirobiddinxo'ja kirib keldi.

— Qori pochcham qochdilar! — dedi u entikib.

— Qochdilar?! — Baravariga so'radi yigirma chog'li odam.

— Katta ariqning bo'yida ko'rdim. Motorli velosipedga minib, tog' tomonga qarab qochib ketyaptilar.

Yopirilib ichkari hovliga kirgan edik, chindan ham hech kim yo'q, bog' tomonga chiqadigan eshik lang ochiq.

— Oldimizga poxol solib ketibdi-yu! — deb baqirdi qasos olgani kelgan azamat yigitlardan biri. Keyin ko'chaga chiqib, uchovlari ham shoshilinch velosipedga o'tirishdi. Men ham ustozim bilan hech bo'lmasa xayrlashib qolay degan yaxshi bir niyatda Mirobiddinxo'janing motorli velosipedini bir soatga so'rab oldim-da, orqalaridan quvib qoldim.

Maktabimizda bo'ladigan velosiped poygalariga ilgari ham ko'p qatnashgan edi-u, ammo bunaqa poygani, o'lay agar, birinchi marta ko'rishim. Qasos olgani kelgan yigitlar chinakam pahlavon yigitlar ekan. Yarim soat deganda qori pochchamni quvib yetishdi. Ustozim avra choponlarining o'ngirini pirpiratib, haybatli bir qushdek ikki yuz metr oldinda uchib borar edilar. Yigitlar butun vujudlaridan ter chelaklab quyilayotgan bo'lishiga qaramay, tinmay pedalni tepib, olg'a intilishadi. Qori pochcham ilgari ham shunga o'xshash quvdi-quvdilarda ishtirok etib, tajribalari ortib ketgan ekanmi yoki Uzunquloq pirim madad qilyaptimi, ishqilib, qochganda ham jo'n qochmay, o'yin ko'rsatib, yigitlarning jig'iga tegib, jahlini chiqarib qochyaptilar. Motorni uchirib sekinlatib boradilar-da, yigitlar yetay-yetay deganda motorni o't oldirib, yana juda-juda ham oldinlab ketadilar...

Nihoyat, tepalikka chiqayotganda yigitlar holdan toyib ketma-ket velosipeddan yiqilib tushishdi.

— Obbo, mug'ambir-ey! — deb qo'ydi biri entikib.

— Devdek kuchi bor ekan— dedi boshqasi.

— Qaytdik, — dedi uchinchisi hafsalasi pir bo‘lib.

Dovonning tepasiga eson-omon chiqib olgan qori pochcham velosipeddan tushib sallalarining uchi bilan yuz va peshonalaridagi terni artib, menga qarab qo‘llarini musht qildilar:

— Sen hali qarab turgin! — degan bo‘lsalar kerak. Men ham darrov ikki kaftimni og‘zimga quvacha qildim-da:

— Oyog‘ingizni uqalab qo‘yaymi, taqsir! — deb baqirdim.

Tog‘dan qaytib kelgunimizcha azamat yigitlar negadir bir-birlariga gap qo‘shishmadi...

O‘sha kuni qishloqda har xil gaplar tarqab ketdi. Xotinlar, chollar, ilgari qori pochchamga dam soldirib ketgan kasalmand odamlar to‘p-to‘p bo‘lib olishib:

— Yong‘oq qori Uzunquloq pirimning qarg‘ishiga qolibdi.

— Yo‘g‘e, u kishi Makkatilloga ketibdi-ku?

— Qip-qizil piyanista ekan, hujrasidan yetmishta butilka chiqibdi.

— O‘ziyam ko‘hnabisot boy edi-da.

— To‘g‘ri aytasiz, qo‘shni, qorining tillasi ham bor edi, — singari gaplarning keti uzilmas edi.

Men bo‘lsam, hammasidan xabardor bo‘lganim uchun odamlarning: «Bu yoqqa kel-chi, bir boshdan gapirib ber-chi», deb chaqirganlariga ham parvo qilmay sovun olib magazindan qaytar edim. Ko‘chada taxta qo‘ltiqlab ketayotgan Zokirga duch kelib qoldim. Men keyingi paytda, nimagadir, Zokir bilan nuqul ko‘chada uchrashadigan bo‘lib qoldim. Dars tayyorlayman deydi-yu, doim mana shunaqa ko‘cha changitib yuradi.

— Qori pochcha qochib ketibdi, endi nima qilasan?  
— xuddi «ajab bo‘lsin» degandek bir ohangda so‘radi Zokir.

— Nima qilardim, endi sen bilan Dev ovlaymiz-da, — dedim jo‘rttaga.

— Hecham-da, — Zokir qo‘lidagi taxtani yerga qo‘yib gapida davom etdi, — endi men hech shunaqa ishlarga yurmayman. Rostini aytsam, sherik, endi sen bilan kamroq bordi-keldi qilaman... Oyim Hoshimga qo‘shilsang, odam bo‘lmaysan, deyapti... Mana, Orifga qo‘shilib odam bo‘p qoldim. Sen kuzgi imtihon emas, yaxshisi, oltinchi sinfda ikkinchi yili ham qolib o‘qish kerak, deb eding. Mana shu gaplar g‘irt yolg‘on ekan. Kuratorimizga aytgan edim, «bu — dangasaning gapi», deb meni urishib berdi... Men-chi, sherik, algebraniyam topshirdim.

— Hisobga juda usta bo‘lib ketibsanda, bo‘lmasa?

— Rost, sherik, hisobga juda usta bo‘lib qoldim o‘qituvchimiz o‘zi sen bo‘ladigan bolasan, deyapti.

— Hozir biqiningga bitta tepsam, yelkangga ikkita mushtlasamu, shuni uchga ko‘paytirsam hammasi nechta bo‘ladi?

— Iya, sherik, meni urmoqchimisani?

— Yo‘q urmayman, qani ayt-chi, nechta bo‘ladi?

— Umumiy yig‘indisini so‘rayapsanmi?.. Hozir... Qo‘lingni musht qilmay turda, adashib ketyapman... Hozir o‘n beshta bo‘ladi!

— Topding, qandingni ur! Qani yur endi, taxtangni eltishib beray.

Taxtaning bir uchini Zokir, ikkinchi uchini men yelkamga qo‘yib Oriflarnikiga jo‘nadik. Yo‘l-yo‘lakay Zokir Orif tashkil qilayotgan kutubxona to‘g‘risida gapirib berdi. Uning aytishicha, bunaqangi kitobga boy kutubxona butun dunyoda ham topilmas emish. Darslikdan boshqa hamma kitobni o‘sha yerdan olsa bo‘larmish. Hatto qalinligi bir qarich keladigan kitoblar ham bor emish. Mana shu taxtani so‘kichak qilish uchun olib borayotgan emish. Umuman, Orifning aytishicha, kitoblarni ozoda saqlash uchun oynali javondan so‘kichak yaxshi bo‘lar emish.

— So‘kichakni kim qilib beradi?

— Kim bo‘lardi, men-da...

— Voy-boy, sen hali mix qoqishni bilmaysan-ku!

— Orif o'rgatib turgandan keyin... bilaman-da!

— Menga qara, kitoblarni to'plab-to'plab, keyin nima qilaszlar?

— O'qiyimiz-da. Orif, uxlagandan kitob o'qigan yaxshi deydi. Sherik, seni ham ro'yxatga qo'shib qo'ydik. Kitob o'qiging kelsa, kirib avval qo'l qo'lasan-da, istagan kitobingni olaverasan. Biz ikkinchi sinf bolalariga kitob bermaydigan bo'ldik. Bilasan-ku, ularning qo'lga kitob tushsa rasmini qirqib olib qo'g'irchoq yasashadi.

Gap bilan bo'lib Orifjonnikiga kirib borganimizni ham bilmay qolibmiz. Orif qo'lida dastarra, biz ko'tarib kelgandan sal kaltaroq bir taxtani arralayotgan ekan. Bizni ko'rdi-yu, sevinib ketdi. Hammadan ham taxtaga xursand bo'ldi. Darsxonasining to'riga qilayotgan so'kichagi bitay deb qopti. Menga ko'rsatib:

— Qalay? — deb so'radi.

— Taxtasini randalamabsan-ku!

— Shunisi yaxshi. Randalasa silliq bo'lib kitob turmaydigan bo'lib qoladi, — tushuntirdi Orif.

O'sha kuni oyim sovunni tezlik bilan keltirib bergin deganini ham unutib kun botguncha Oriflarnikida qolib ketdim. So'kichakni bitkazmaguncha, uchovimiz ham uydan chiqmadik.

### XIII bob

#### QOTILLAR MASLAHATI

**K**echasi bilan qo'rqib uxlay olmadim. Ko'zim uyquga ilindi deguncha, qori pochcham orqa tomondan pisib kelib, xuddi tovuqni tappa bosgandek bosadi-da, ikki qo'llab bo'g'ib:

— Ha, hali senmiding meni sharmanda qiladigan? — deb qiynay boshlaydi. Qo'rqib uyg'onib ketaman. Uyg'onam, yo og'zinga ko'rpa to'g'ri kelib qolgan bo'ladi, yo yerga qarab yotib qolgan bo'laman. Bir mahal tushimda qornim

tarsillab yorilib ketgandek bo'ldi. Endi ovqatni qayerimga yer ekanman, deb xafa bo'lib yig'lab, yig'laganimcha uyg'onib ketdim.

Qori pochcham ikkovimiz o'rtamizdagi sirni birovga aytsang qorning yorilib o'lasan, degan edi... Demak, endi qornim yorilar ekan-da, deb qo'rqib, ko'zimni ochib o'zimga quloq solib yotdim. Kun chiqib qoldi hamki, qornim yorilmadi. Demak, meni qo'rqitish uchun shunday degan ekanda, deb ko'nglimni to'q qilib, xursand bo'lib o'rnimdan turdim. Yetti marta kerishib, uch marta esnab muzdek suvda mazza qilib yuvindim. Keyin husayni uzum bilan choy ichdim-da, qori pochcham hoyna-hoy Uzunquloq ota mozorida berkinib yotgandir, qani, bir boray-chi, ehtimol, belini uqalab qo'yishga to'g'ri kelar, degan o'y bilan to'ppa-to'g'ri ziyoratgohga jo'nadim.

Qori pochchamning hujrasiga har kuni chopqillab kirib boraverardim, bugun, negadir to'ppa-to'g'ri kirib borishga botinolmadim. Tushim o'ngidan kelib qori pochcham bo'g'ib o'ldirib qo'ysa ko'nglimdagi orzularim amalga oshmay qolib ketishidan qo'rqdim. Hamisha mushkulimni oson qiladigan qarddon qalpoqchamni boshimga kiyib, ichkari kirib bordim... Yong'oq qori pochcham o'tiradigan atlas ko'rpachalar to'shalgan marmar supachada bugun, negadir, rasmga tushayotgandek savlatli bo'lib, xoda yutgandek kekkayib Bodom qori amaki o'tiribdi: boshida oppoq salla, egnida olacha chopon, tasbeh o'girib bir narsalarni pichirlab o'qiyapti. Hujraga kirishim bilan orqamdan Danak qori pochcham ham kirib bordi.

— Xo'sh, mulla Danak, keldingizmi? — tasbeh, o'girishdan to'xtab so'radi Bodom qori amakim, — avvalo eshikni ichidan berkitib qo'ying... Barakalla! Qani endi, beriroq, kelib o'tiring-chi. Ko'p ajoyib ishlar bo'ldimi-a?

— Nimasini aytasiz, xo'jam.

— Ammo lekin xalq Yong'oq qorini toshbo'ron qilib o'ldirganda savobga qolardi-da.

— Qochib qoldi-da, bo'lmasa o'ldirish ham gapmi, terisiga somon tiqardi.

— Endi, mulla Danak u kishining o'rinlariga bugundan e'tiboran men o'tiraman.

— A? — og'zini va ko'zlarini katta ochganча angrayib qoldi Danak qori pochcham.

— Nima, o'zlari ham umidvormidilar? O'ttiz yildan buyon Yong'oq qori hazratlari o'rnimga sizni qoldirib ketaman, deb kaminaning ko'nglini gul-gul yashnatib keladilar... Bugun men murodi maqsadimga yetdim...

— Kaminani kechiring. Ammo bu o'rin shu soatdan e'tiboran meniki bo'lsa, — deb sekin Bodom qoriga yaqinlashdi Danak qori pochcham, — avvalambor, Uzunquloq ota hazratlarining avlodlaridan bo'laman. So'ngra, Yong'oq qori bu o'rinni menga o'ttiz besh yildan bo'yon va'da qilib: «Mulla Danak, belni mahkam bog'lab, xizmatni qilavering, o'zimdān so'ng bu mozorni sizga xat qilib berib ketaman...» — deb ko'nglimni tog'dek ko'tarib keladilar.

— Chuchvarani xom sanabsiz, mulla Danak.

— O'zlari xom sanabdilar mulla Bodom.

— Bu o'ringa siz noloyiqsiz, — ovozi bir parda yuqorilatib dedi Bodom qori amakim, sababkim, halqumingiz nopokdir. Kuni kecha qisir g'unajinni bo'g'oz deb pulladingiz va yana kolxozning poliziga qorovul bo'lib turganingizda yetti pud piyozni bir qadoq ko'knoriga almashtirib ichgansiz...

— Yo navzambillo! — yoqasini ushlab o'rnidan turdi Danak qori pochcham — halqumi nopok deb o'zlarini atamoq darkorkim, bog'laridan kesib olingan behi tayoq Makkatillodan kelgan hassai Muso deb avomni aldab yuribdilar.

Qarasam, ikkovlari o'rtasidagi janjal hali-beri tugaydigan emas. Kechasi uyqudan qolgan emasmanmi, bu yoqda uyqum kelib ko'zlarim yumilib ketyapti. Nariroqdagi bo'sh ko'rpachaga cho'zilib to'satdan uxlab qolibman. Qancha uxlaganimni eslay olmayman. Bir mahal ko'zimni ochsam,

ikkovlari bir o'ringa o'tirib olib, xuddi yelimlab qo'yilgandek bir-birlariga qapishib yelkalari bilan hadeb biri ikkinchisini itaryapti.

— Qani, nariroq o'tirsinar-chi! — deydi Bodom qori.

— Yo'q o'zlari nariroq o'tirsinar, — dedi Danak qori pochcham.

O'zi uyqudan zo'ri bo'lmas ekan. Shu paytda men o'zimni shuncha xushyor tutishga harakat qilsam ham bari bir yana uxlab qoldim. Nazarimda bu gal uncha uzoq uxlamadim shekilli. Nega desangiz, ko'zimni ochganimda ikkovlari hamon bir joyda o'tirishar edi. Endi ular Yong'oq qori hammamizning obro'yimizga putur yetkazib qochdi, endi mana bu lagerni qurayotganlar kuchayib, hech kimdan hayiqmay bugun-erta Uzunquloq pirimning qabrlarini buzib tashlaydi, shuning oldini olishimiz kerak, deb maslahat qilishar edi. Danak qori endi odamlar bizning gapimizga kirmaydi, deb bu taklifga qo'shilmadi.

— Xo'sh, unda nima qilamiz, mulla Bodom?

— Abdushukurovni o'ldiramiz.

Danak qori juda qo'rqqoq ekan, bu gapni eshitib, rangiquti o'chib ketdi:

— Ra'yingizdan qayting.

— Qaror qat'iy. Aks holda, Uzunquloq pirimning qabrlaridan judo bo'lamiz.

— Men bu ishga bosh qo'sholmayman, — qaltirab dedi Danak qori pochcham, — yaxshisi, mozor ham o'zingizga bo'la qolsin. Menga xatmi-qur'on bilan janozadan tushgan pul ham yetadi... Sizning yuragingiz dadilroq, qo'rboshiga yigit bo'lgansiz botirsiz!

Keyin ikkovlari Abdushukurov amakini qanday hech kimga bildirmasdan o'ldirish to'g'risida rejalar tuza boshlashdi. Bu ishni, mana shu lagerda tilanchilik qilib o'tiradigan beli bukri, soqoli oppoq oqargan bir darvish bor edi, o'shanga topshiradigan bo'lishdi. Bukri bukri emas, balki «Qizil yulduz» kolxozining omborchisi Sultonov degan yosh yigit ekan.



O'n yilga qamalib ketayotganda qochib mening ustozim bo'lmish Yong'oq qoridan panoh so'rab kelgan ekan. Qori pochcham o'z qo'li bilan oppoq soqol yasab berib boshiga ham yasama soch kiygizib, beli bukri bo'lsin deb yelkasiga uvada bog'lab: «Uzunquloq piringa xizmat qil!» deb tayinlagan ekan.

— Yong'oq qori ko'p puxta odam edilar, — deb so'zini tugatdi Bodom qori amakim. Danak qoriga tashqariga chiqib darvishni chaqirib keling, deb buyurdi.

Men qora oshqovoqning yarim pallasini bo'yniga osib olgan, bir yildan buyon qo'liga ham, yuziga ham suv tegmaganidan soch-soqoligacha sarg'ayib ketgan juldur kiyimli bu darvishni har kuni ko'raman, gaplashaman. Kun bo'yi tilanchilik qiladi. Aziz avliyolarning she'rlarini aytib, boshini tebratib, parangi yopingan xotinlarni rosa yig'latadi, cho'ntagidagi bor pulini qoqib oladi.

She'rlarini ko'p eshitganimdan ohangi yoqib qolgani uchunmi, xatto uni yodlab ham olganman:

*Bismillodin bayon aylab,  
Hikmat aytdim toliblarga,  
Durri-gavhar sochdim mano,  
Riyozatni qattiq tutib,  
Qonlar yutib,  
Men daftariy sonin so'zin  
Ochdim mano...*

Danak qori darvishni boshlab kirdi. Darvish uzun irgay tayoqqa osilib, Bodom qori amakimga ta'zim qilib, qo'l qovushtirganicha buyruq kutardi.

— Xo'sh, mulla Bolta, ishlar qalay?

— Bir navi, pul yaxshi tushmayapti.

— Pulni qo'ya turing hozircha, — qo'lini siltab qo'ydi Bodom qori, — sizni xavf-xatardan ogoh qilib qo'ymoqchiman.

— Qanaqa xavf? — qaddini rostlab ko'zlarini o'ynatib so'radi darvish.

— Sizni bu yerda ekanligingizdan hech kimning xabari bormidi?

— Xudoyi taolodan boshqa hech kimning xabari yo‘q.

— Lager qurilishining direktori Abdushukurovni taniysizmi?

— Taniyman. Lekin u meni tanimaydi.

— Shu odam sizning kimligingizni bilib qolibdi.

— Kecha yonimdan o‘ta turib: «Ivirsimay o‘l!» degan edi-ya, — dedi darvish tashvishlanib.

— Ha, barakallo! — xursand bo‘lib dedi Bodom qori amakim.

— Shu odam sizni melisaga chaqib bermoqchi.

— Melisaga?! — qattiq qo‘rqib ketdi shekilli, darvishning ko‘zlari naq joyidan chiqib ketayozdi.

— Ha, melisaga, — tasdiqladi Danak qori pochcham ham.

— Men hoziroq borib uni chavaqlab tashlayman! — darvish yonini paypaslab pichog‘ini axtara boshladi, — ichagini boshiga salla qilaman.

— Hay, hay, o‘zingizni bosing. Shaytonga hay bering, — nasihat qildi Bodom qori. Keyin Abdushukurovni o‘ldirish yo‘llarini axtara boshlashdi. Pichoqlab o‘ldirish — bu jinoyat bo‘lar ekan. Shuning uchun darvish uni bo‘g‘ib o‘ldiradiganu, qori pochcham ertasiga odamlarga: «Yigit bechora Uzunquloq piri mozorini buzib o‘rniga lager quraman» deb o‘z joniga jabr qildi. Bu xudoyi taoloning g‘azabini keltirdi, xudo o‘z omonatini oldi-qo‘ydi... Esizgina, yosh ketdi-da... bolalariga jabr bo‘ldi...» deb hammadan oldin yig‘laydigan bo‘ldi.

— Kechasi, el uxlaganda qishloqqa tushib borib o‘z uyida, uxlab yotgan o‘rnida bo‘g‘asiz, — deb davom etdi Bodom qori amakim.

— Ko‘nglingiz tinch bo‘sin, taqsim, — kulib qo‘ydi darvish, — bunaqangi ishni birinchi qilayotganim yo‘q xudoga shukr, ishim doim o‘ngidan kelgan.

— Iloyo omin! — qo‘l ko‘tarib fотиha berishdi qorilar, — xayrli ishingizda Uzunquloq pirim madadkor bo‘lsin,

ziyoratchilar ko'payib, nazri niyozga baraka kirsin, oblovhu akbar!

Har kuni fотиha o'qib o'rganib qolgan emasmanmi, qayerda o'tirganimni ham unutib men ham ovozimni cho'zib:

— Oblovhu akbar! — deb yuboribman. Yashirmay qo'ya qolay, shu paytda o'zimni yo'qotgudek shoshib qolgan edim. Nima qilishimni, ishini nimadan boshlashimni bilmayman deng. Qori pochchamning qo'lidagi behi tayoqni olib hammalarini savalab ketay desam, o'zingdan katta odamni urish aqldan emas...

Shartta o'rnimdan turib uchastkovoy militsionerni axtarib ketdim. Uchastkovoy amaki qiladigan ishi bo'lmagani uchun qishlog'imizdagi aptekachi bilan kun bo'yi shaxmat o'ynab o'tiradi. Uni bugun ham xuddi aptekaning o'zidan topdim.

— Amaki, amakijon! — deb yuboribman osongina topganim uchun o'zimda yo'q sevinib.

— Sal o'zingni bos, nima gap o'zi? — xavotirlanib o'rnidan turdi uchastkavoy amaki.

— Siz Bolta Sultonovni tanirmidingiz?

— Taniyman. Ikki yil avval qamoqdan qochgan.

— Men uning qayerdaligini bilaman.

— Rost aytyapsanmi? — negadir yonboshidagi naganini paypaslab qo'ydi uchastkavoy amaki.

— Menga qara, sen anavi Ro'zi traktorchining o'g'limisan?

— Topdingiz, o'shaman.

— Yong'oq qori uxlab yotganda... ushlab bergan senmiding?

— O'sha men edim-da, — deb qo'ydim yaxshiroq gap eshitsam kerak deb taltayib.

— Agar bu gaping ham rost bo'lsa, men senga... Men seni drujinachilar ro'yxatiga yozib qo'yaman. Yo'q,... yaxshisi, militsiya nachalnigiga aytib, katta mukofot olib beraman.

— Amaki, menga mukofot kerak emas, — dedim shoshib-pishib, — mengachi, kitob soladigan bitta javon olib berasiz. Men uni Orifga sovg'a qilmoqchiman...

— Ketdik! — dedi uchastkavoy amaki qizil shapkasini boshiga kiyib, — gaping rost bo'lsa, bitta emas, ikkita javon olib beraman.

Oradan yarim soat o'tar-o'tmas, diydiyo o'qib xotinlarni yig'latib o'tirgan darvishning qo'lini orqasiga bog'lab, iyagiga yelim bilan yopishtirib olgan uzun soqolini yulib tashladik.

— Qani, yur! — dedi uchastkavoy amaki yelkasiga naganning sopi bilan turtib.

— Javon esingizdan chiqmasin, amaki! — deb qichqirdim orqalaridan.

#### XIV b o b

### UZUNQULOQ OTA YOKI URG'OCHI ESHAK QISSASI

**Y**uguraverib rosa holdan toygan ekanman, muzdakkina tosh ustiga o'tirib har narsalar to'g'risida o'ylanib ketdim. O'ylab-o'ylab zerikkanimdan keyin qo'ltig'imda turgan qadpoqcham bilan shiringina suhbat qurdim.

— Balli senga, qalpoqcham, hammasi sen tufayli bo'lyapti. Xo'p desang, uchastkavoy amakiga aytib, senga ham bir mukofot olib bersam?

— Menga mukofot kerak emas, — tilga kirdi qalpoqcham, — hozir o'rningdan turib, Bodom qorining orqasidan yugur.

— Uni qayerdan topaman?

— Uyiga ketyapti, yo'ldan topasan.

Shartta o'rnimdan turib qadrdon qalpoqchamni boshimga kiydim-da, nariroqda ziyoratchilar qozonda sho'rva pishirishayotgan ekan, Yong'oq qori pochchamning haqlari deb go'shtining yarmini oldim-da, yo'l-yo'lakay yeb Bodom qori amakimning orqasidan yugurdim.

Qorin go'shtga to'ygan odam yaxshi yugurishini men o'shanda bildim. Ishonasizmi, yarim soatlik yo'lni o'n besh minutda bosib qo'yibman-a! Qori amakim yo'l yurganda, men uyqumda gapirib chiqqandek, u ham gapirib yurar ekan. Mana, hozir ham ovozi chiqarib, javrab boryapti:

— E parvardigori olam, marhamatingga ming qatla shukr. Mana, eson-omon kattagina mozorning shayxi ham bo'lib oldim. Kechalari qilgan nolamni, tezroq, Yong'oq qorini gumdon qilgin, deb qilgan iltijolarimni inobatga olibsan-da. Mana endi, jaraq-jaraq pullar, nazru niyozlar, meva-cheva, o'z oyog'i bilan yurib keladigan qo'yu echkilar...

Bir mahal qarash, Bodom qori amakim, haligi radiodan Mulla Do'stning ashulasini beradi-ku, xuddi o'shaning ohangiga moslab ashula aytib yelkalarini uchirib o'ynavorsa bo'ladimi!

— *Mullo Bodom, oving keldi,  
oving keldi.*

*Davringni sur, doving keldi,  
doving keldi.*

*Ho, doving keldi... —*

Deb ashulani vang qo'yib, yana birov ko'rib qolmadimikan, deya u yoq-bu yog'iga qarab qo'yadi deng.

— Juft bo'lsin, qori pochcha! — deb yuborganimni o'zim ham bilmay qoldim.

Qori amaki atrofiga ko'z yugurtirib hech kimni ko'rmagach, «qornim quldiradi shekilli...» deb qo'ydi o'ziga.

— Ashuladan yana eshitaylik, — dedim yana.

— A? Birov gapirgandek bo'ldimi?

— Ha, men gapirdim.

— Tavba, sen kimsan o'zi?

— Men Hoshimjon... Yo'q, men... Dev bo'laman!

— Dev?! E xudo, e xudovando! — qori amakim og'zini katta ochib ko'zlarini olaytirib qo'lidagi tayoqdek qotdi-

qoldi. Anchadan keyin o'ziga kelib o'ng va chap tomoniga dam soldi-da:

— Mendan nima istaysan, e ulug' Dev? — deb so'radi.

— Hozir borib Uzunquloq pirimning mozorini buzasiz.

— Buzasiz?!

— Ha, tekislab tashlaysiz. O'rniga yozgi kinoteatr solinadi.

— Nima, qabrni boshqa yoqqa ko'chiramizmi?

— Ko'chirsak ham bo'ladi. Qani orqaga qayting, — deb qo'lidagi xassani tortib olib o'sha bilan sekin turtib qo'ydim qori amakimni, — bo'lmasa joningizni olaman.

Qori amaki qanaqa voqea yuz berayotganiga aqli yetmay, o'ngimi-tushimi, xatto shuni ham aniqlay olmay, qo'rqa-pisa duolar o'qib mozorga qarab yo'l oldi. Nima qilish kerakligini, ishni avvalo nimadan boshlash zarurligini uqdirib boryapman. Yo'lda boryapti-yu, aroqni ko'p ichib qo'ygan odamdek gandiraklab-gandiraklab ketadi. Ikki marta shataloq otib qochmoqchi ham bo'lgan edi, to'sib qo'limdagi tayoq bilan yengil-yelpi turtib qo'ydim.

Ziyoratgohga yetgach, qabrni quchoqlab:

— Ey, Uzunquloq pirim, o'zingiz panohingizda asrang, — deya iltijo qila boshladi, — qabringizni boshqa joyga ko'chirmoqchilar... insu jinlar yelkamga tayoq, tirab turibdi... Ey pirim!

Qori amakim men nima deb tayinlagan bo'lsam, xuddi shunday qildi. Ziyoratchilarni, tilanchilarni, qassobu choyxonachini, lager qurilishida ishlayotgan ishchilarning hammasini qabr atrofiga to'plab:

— Pirimning hoklarini boshqa joyga olamiz, — dedi qaltiroq ovoz bilan.

Ziyoratchilardan yetti kishi ho'ngrab yig'lab yubordi, besh kishi yuzini teskari o'girdi. Uch kishi bu dargohdan darrov jo'nab qoldi. Ishchilarning ko'pchiligi, nazarimda, qarsak chalib yuborgandek bo'ldi. Qurilish direktori, ertalab qori amakim tomonidan o'linga mahkum etilgan Abdushukurov amaki:

— Qori pochcha, siz o'zi ajoyib odam ekansiz! — dedi sevinib.

— Ajoyib bo'lmay o'lay! — deb qori amakim qabrga ketmon urdi. Keyin ko'plashib ketishdi. Hash-pash deguncha Uzunquloq pirimning suyaklari ham chiqib qoldi.

— Ie, bu eshakning suyagi-ku! — dedi qabrdan suyaklarni olayotgan kishi.

To'planganlar angrayib qolishdi. Bir xili xuddi «apshu» deb aksirmoqchi bo'lgandek og'zini ochib, ko'zini yumgancha; bir xili ham ko'zini, ham og'zini ochgan-cha; oldingi qatorda turganlar boshini orqaga tashlab, orqada turganlar xiyol oldinga egilgancha qotib turishardi. Nariroqda Bodom qori amakim bilan Danak qori pochcham xuddi jin chalib ketgandek tildan qolib, yoqalarini ushlab, galma-gal yelka qisishyapti.

— Yo'q, otning suyagi, — dedi odamlardan biri nihoyat tilga kirib.

— Kechirasiz, bu xachirning suyagi, — dedi ikkinchisi.

Ziyoratgohning mo'ylovdor qassobi suyaklarni qo'liga olib, ko'zini qisib u yoq-bu yog'iga nazar tashladi-da:

— Eshakniki, — dedi ishonch bilan, — urg'ochi eshakning suyagi...

Odamlar asta-sekin o'ziga kelib qabrni yana ham chuqurroq kovlab ko'rish kerak, pirimning suyaklari ehtimol pastroqdadir, deb iltimos qilishdi. Qabr yana kovlandi. Toshdan boshqa hech narsa chiqmadi. Yigirma choqli odam o'sha atrofni ilma-teshik qilib yubordi hamki — hech narsa yo'q.

— Xo'sh, taqsir, bu qanaqasi bo'ldi? — deb so'radi ziyoratchilardan biri Bodom qori amakimdan.

— Men... yo'g'e, yaxshisi, mullo Danak gapirsinlar, — orqaga tisarildi qori amakim, — bu kishi Uzunquloq pirimning avlodi bo'ladilar...

— Yo'q, o'zlaridan bo'lsin, — shunday deb Danak qori Bodom qorining orqasiga o'tib, bekinib oldi.

Odamlar o'rtasida avval pichir-pichir, keyin g'ala-g'ovur bosilmadi. Qorilar bizni laqillatib yurishgan ekan, degan

gaplar ham bo'ldi. «Pirimning suyaklarini kofirlar o'g'irlab, o'rniga urg'ochi eshakning suyagini ko'mib ketishgan ekan..., mazmunidagi mulohazalar ham o'rtaga tashlandi. Nihoyat, lager qurilishida ishlayotgan soqolsiz bir chol o'rtaga chiqib: «Tog'ning ichkarisida bir yuz o'ttiz to'rt yoshga kirgan Qobilbobo ismli bir chol yashaydi. Har gal ko'rgani borganimda: «O'sha eshakka sig'inuvchilar», deb so'rashadi. Ehtimol, o'sha kishidan bir gap chiqar...» — degan edi, ko'pchilik chuvillab:

— O'sha cholni olib kelish kerak!

— Darrov mashina yuborish kerak! — deb qoldi.

Hazil-hazil bilan haligi soqolsiz cholni qurilishda ishlayotgan bir mashinaga o'tkazib toqqa jo'natib yuborishdi.

Pirimning qabridan urg'ochi eshakning suyagi chiqqani to'g'risidagi shum xabar birpasda yaqin o'rtadagi qishloqlarga ham tarqab, to bir yuz o'ttiz to'rt yoshga kirgan cholni olib kelgunlaricha ziyoratgohni odam demagani chumolidek bosib ketdi. Eski paranjini yopinib, hatto buvijonim ham kelib qoldi.

— Sen nima qilib yuribsan, Hoshim? — deb so'radi mendan.

— O'zim, shunday... O'ynab yuribman, — tushuntirdim buvijonimga.

Qobilboboni mashinaning kabinasida olib kelishdi. Qo'ltig'idan olib Yong'oq qori pochcham va'z aytadigan tepalikka olib chiqishdi:

— Endi bolalarim... — entikib dedi Qobilbobo, — qarilik qursin, charchab qoldim. Bir oz nafasimni rostlab olay... zap to'planibsizlar-da, hammasini gapirib beraman...

Bu voqeaga bir yuzu yigirma yetti yil bo'ldi. O'shanda men yetti yoshli bola edim. Pastki qishloqda Rahim o'tinkash degan bir chol yashardi. Bechoraning bitta urg'ochi eshagidan boshqa hech narsasi yo'q edi. Toqqa chiqib o'tin kesib, o'sha eshagiga yuklab bozorga borar edi. Bir kuni tog'dan archa ortib kelayotganda, eshak mana shu men



turgan tepalikdan pastga tushayotib, oyog'i tiyg'onib, yiqiladi-yu, beli cho'rt uzilib ketadi... Chol yig'laydi, siqtaydi, yigirma yil ro'zg'orini tebratishga yordam qilgan bu qari eshakni ko'p hurmatu e'zoz bilan mana shu yerga ko'madi. Charchab, qabrga suyanib dam olayotganida tog'dan begona o'tinchilar tushib kelishib:

— E, bobo, bu qanaqa qabr? — deb so'rashadi. Chol yig'lab:

— Valine'matimni ko'mdim, — deydi yarim hazil, yarim chin qilib, — meni yigirma yildan bo'yon boqib kelgan... Uzunquloq pirimni ko'mdim...

O'tinchilar bechora cholga achinib, bir tanga, yarim tangadan berib o'tib ketishadi.

Chol uch-to'rt yil mana shu yerda tilanchilik qilib Rahimqul o'lgandan keyin Azizxon eshon bu yerga kelib dahma soldirdi, tol, chinorlar ektirdi, buloqlarning atrofiga ko'rib turganlaringdek, harsang toshlar yotqizdirdi. Qabrning ustiga marmar toshdan sag'ana qildirib:

— Uzunquloq pirim katta avliyo edilar. Kofirlar bilan jang qila-qila mana shu tepalik yonida shahid bo'ldilar... — deb boplab ma'ruza qildi.

Shu-shu bo'ldi-yu, Uzunquloq pirimning ovozi yetti muzofotga tarqalib ziyoratchilar bu yerga seldek oqib kela boshlashdi. Kimki, bu gaplar yolg'on desa, uni toshbo'ron qilishga buyurdilar... Eh-he, bu yerda ne-ne eshon, eshonvachchalar boyib davru davron surmadi... qo'rboshi zamonida ne-ne yigitlarning qoni to'kilmadi, bosmachilarga qarshi chiqqani uchun kofir deb atalib, bu qabr atrofida ne-ne azamatlar qo'ydek bo'g'izlanib ketdi...

Bir kun men ham bu yerga eshak ko'milgan, deb baloyi azimga qoldim, toqqa qochib, arang qutuldim.

Bundoq qarasam, odamlar xuddi gipnoz qilingandek qotib qolishibdi. Ammo hammalari ham qo'llarini musht qilib, tishlarini g'ijirlatib turibdi. Buvijonim bo'lsa nima qilarini, shuncha yil aldanib kelgani uchun alamini kimdan olarini bilmay, bezgak tutgandek dag'-dag' qaltirayapti.

— Endi so‘z qorilarga, qorilar gapirsin! — dedi Abdushukurov amaki.

Qori pochchalar Qobil bobo gapirib odamlarni og‘ziga qaratib turgan paytda xayr-ma‘zurni nasiya qilib sekingina juftakni rostlab qolishgan ekan, hech joydan topib bo‘lmadi.

Odamlardan biri ajoyib bir taklif kiritib qoldi. O‘sha aqlli odamning ta‘rifi bilan eshakning suyaklarini yig‘ib, sim bilan bog‘lab, chinorga, eng novcha odamlarning ham qo‘li yetmaydigan joyga osib qo‘yishdi. Tagidagi bir parcha taxtachada esa birinchi sinf o‘quvchilari ham bemalol o‘qiy oladigan katta-katta harflar bilan mana bunday yozuv yozilgan edi:

«Bir yuz yigirma yetti yildan buyon ishonuvchilar sig‘inib kelgan, beli sinib o‘lgan urg‘ochi eshak — hazrati Uzunquloq pirimning suyaklari mana shu bo‘ladi...Qo‘l tekkizilmasin, shtraf o‘n so‘m».

## XV bob

### YAPROQLAR QARSAK CHALADI

**Sh**unday qilib desangiz, ishlarim yana yurishgandan yurishib ketdi. Buvijonim meni boplab tarbiyalayman deb, o‘rtoqlarimdan ajratib olib, uyga qamab, eshon pochchamga shogirdlikka berib jonginamni qiynayotgan edi. Endi u bu fikridan butunlay qaytganga o‘xshaydi, nega desangiz, bugun ertalab namozga meni uyg‘otmadi.

Ko‘zimni ochib:

— Buvijon, men ham turaymi? — deb so‘radim.

— Uxlayver, bolam, — dedi buvijonim qo‘l siltab, — mening aldanganim ham yetar.

Buning ustiga xuddi o‘sha kuni ertalab uchastkavoy amakim va‘dasining ustidan chiqib yuk tashiydigan mashinaga eskiroq bo‘lsa ham bitta kitob soladigan javon yuklab kelib qoldi. Mashinaning orqasini to‘ppa-to‘g‘ri Oriflarning ko‘cha eshigiga to‘g‘riladik. O‘zimizning uyga

tushirsak ham bo'lar edi-yu, lekin gap-so'z ko'payishidan qo'rqdim. Buvijonimning odatini bilasiz-ku, axir har xil savollarni qalashtirib tashlashda algebra o'qituvchimizdan keyin qishloqda ikkinchi o'rinda turadi. «Nega militsioner senga shkaf keltirib berdi, nega boshqaga bermaydi, yo yashirincha aloqang bormi?..» degan savollarga ko'milib ketishim turgan gap. Shuning uchun to'ppa-to'g'ri Oriflarnikiga tushiraverdik.

Uchastkavoy amaki shkafni chertib:

— Taraqlashini qara, — deb qo'ydi, — eski bo'lsa ham, yangisidan yaxshi!

— To'g'ri, — dedim men ham sevinib, — bo'yab, ko'chgan taxtalarini qaytadan qoqsa — yap-yangi bo'ladi.

Orif shunaqangi xursand bo'ldiki, shunaqangi xursand bo'ldiki, shkafning bir chekkasidan ko'tarish o'rniga, mening yelkamdanda quchoqlab:

— Sherik, sherikvoy! — deydi nuqul irg'ishlab, — kitoblarimning hammasi sig'adi endi, bermalol sig'adi. Ming rahmat senga!..

— Hatto o'zing ham sig'asan, — deb yana ham xursand qilib yubordim do'stimni, — oying bilan arazlashib qolgan kunlaringda ichiga kirib bermalol uxlayverasan...

Shkafni ko'plashib joyiga qo'yib kitoblarni tartibi bilan terib bo'lgan ham edikki, qovog'ini ayron xaltadek osiltirganicha Mirobiddinxo'ja kelib qoldi. «Senga aytadigan yashirincha gapim bor», deb meni qo'ymasdan tashqariga olib chiqib ketdi:

— Sherik, maslahat so'rab keldim, — dedi u shivirlab.

Xayriyat, mendan ham maslahat so'raydigan odam bor ekan bu dunyoda deb, ishonsangiz shu paytda boshim osmonga yetdi:

— Qanaqa maslahat?

— Hech kimga aytmayman, deb so'z bergin avval.

— Birovga aytsam, kalamni shartga kesib tashlayman.

— Men, sherik, bugun kechasi qochib ketmoqchiman...

Sen menga yo'l-yo'rig'ini o'rgatib qo'y. Axir sen bunaqa ishlarga ustasan-ku.

— Nima, sen ham qalpoqcha topib oldingmi? — deb yuborganimni bilmay qolibman. Aytishga aytdimu qo'ltig'imda turgan qalpoqchamni paypaslab ko'rdim, yo'q, joyida turgan ekan.

— Qalpoq, topganim yo'q, — dedi Mirobiddinxo'ja, — men, bilasanmi, yangi do'ppimni kiyib qochmoqchiman.

— Nega endi qochmoqchi bo'lding?

— Ishlar chatoq, men rasvo bo'ldim, — yig'lamsirab dedi Mirobiddinxo'ja, — hech kimga aytmaysan-a? Xo'p, ochig'ini aytaman. Men o'tgan yili Azroil boboni ko'rganman. Xumga qamab olib, meni rosa savalagan. Yana tag'in yolg'on gapirib, odamlarni aldasang, joningni olaman degan.

— Rostdan-a? — deb qo'ydim jo'rttaga.

— Rost. Oyim, mana, qorilar rasvosi chiqib qochdi, endi qishloq o'zimizga qoldi. Tag'in xumga tushasan, bolam, deyapti. Men endi tushmayman desam, oyim boshimga mushtlab «tushmasang teringga somon tiqaman» deydi. Bu yoqda Azroil bobodan qo'rqaman, qori pochchalarniyam, oyimniyam — hammasini yomon ko'rib qoldim. Yo'q, oyim o'zlari yaxshi-ku, mana shu yolg'on gapirtirgani yomon-da. Bu yoqda o'qishim ham rasvo bo'lgan, xumda o'tirib o'yinga tushaverib hammayoqni «2»ga bostirib yuborgan ekanman. Ko'chmay qoldim, oltinchida qolib ketganman.

Bir xil vaqtda, nima sababdanligini bilmaymanu, ammo gapga juda chechan bo'lib ketaman. O'zimdan katta odamlarni ham og'zimga qaratib o'tirgan paytlarim ko'p bo'lgan. Shu topda ham gapdonligim juda tutib ketdiyu Mirobiddinxo'jani ham xash-pash deguncha uydan qochish to'g'risidagi fikrdan butunlay qaytardim-qo'ydim.

— O'qish masalasida esa tashvishlanma, — dedim, — ikkovimiz birga o'qiymiz. Xo'p desang, derazaning yonidagi katta partada birga o'tiramiz. Men bu yil albatta sinfkom bo'lsam kerak. Seni tozalik komissiyasiga rais qilib qo'yaman. Qara, qo'llaring oppoqqina, tirnoqlaring

olingan... Oyingni, hali aytganimdek, shu bugundan qoldirmay o'zim ko'ndiraman. Lekin mening borishimni avvaldan aytni, xo'pmi?

— Xo'p, — dedi Mirobiddinxo'ja xursand bo'lib.

— Demak, kelishdik. Qani, oppoq qo'lingni bir qisib qo'yaychi, tozalik komissiyasining bo'lajak raisi, — deb qo'llarini qattiq qisib, peshonasidan o'pib, qiqirlatib kuldirib do'stimni kuzatib qo'ydim.

Uyga kirib Sora xolaning odamlarni aldaydigan katta xumini qanday qilib sindirsam ekan, deb har xil rejalar tuzayotgan edim, ko'chadan avval mashinaning signali, ketidan bolalarning qiyqirig'i, Hoshim deb chaqirgani eshitildi. Tashqariga chiqib kelgan buvijonim:

— Hoshimjon, chiq, o'g'lim, o'rtoqlaring keldi, — deb qistadi, — lager qurilayotgan joyga borib, tosh terarmishsizlar.

— Chiqmayman, buvijon, — dedim jo'rttaga.

— Nega endi chiqmaysan, bolam?

— Men siz bilan o'tirib bu yerda har xil she'r o'rganaman. Narigi dunyoning payidan bo'laman... Nima qilaman, esi yo'q bolalarga qo'shilib.

— Narigi dunyosi qurib ketsin! — shunday deb buvijonim menga yaqinlashib asta meni tizzasiga oldi. Erkalab peshonamdan o'pdi. — Obbo o'zimning eslik o'g'lim-ey, buvijoningning oltmish yil eshakka sig'ingani ham yetar... Seni behuda qiynab qo'yibman. Mayli, yomon o'qisang ham o'rtoqlaringning ichida bo'l. Tur endi, qarab qolishdi.

Shartta o'rnimdan turdim-da:

— Buvijon, mana shu gapingiz uchun sizga, albatta, ko'zoynak olib beraman, — deb tashqariga chiqa boshladim.

— Umringdan baraka top, bolam.

— Yo'q, buvijon, qo'shqavatligidan olib beraman, qo'shqavatligidan! — Yugurib ko'chaga chiqib ketdim.

Besh tonnalik katta mashina liq to'la bola ekan. Meni ko'rishlari bilan qiyqirishib, darrov qo'limdan tortishdi. Qancha vaqtlardan buyon bunaqangi ko'pchilik bo'lib

to'planmagan edik. Sevinishib, qarsaklar chalib, ashula boshlab yuborganimizni o'zimiz ham bilmay qolibmiz. Sheriklarim mening o'yinlarimni sog'inib qolishgan ekan, men ham tarang qilib o'tirmay darrov kabinaning tomiga teskari o'tirib, o'ynashga tushib ketdim:

*Bo'sh bola, bo'sh bola,  
O'yinlari besh bola,  
besh bola,*

deyishib qarsak chalishganda egilib hammalariga salom berib qo'yaman.

O'yin-kulgi bilan ziyoratgohga yetib borganimizni sezmay qolibmiz. Mashinadan tushib birinchi qilgan ishimiz chinorga osib qo'yilgan eshakning suyagini tomosha qilishu ostidagi yozuvni o'qish bo'ldi. Orifning fikricha, «eshak» deganda ikkita «sh» yezilar ekan. Men darrov e'tiroz bildirib nega endi, ikkita «sh» yozilar ekan, qari eshakka bitta «sh» yozishsa ham bo'laveradi, deb zo'rg'a ko'ndirdim.

Shu atrofda bir yo'la beshta buldozer ishlab, o'ngir-cho'ngirlarni tekislayotgan ekan. Tekislangan yerlardagi tuproqdan chiqib qolgan katta-kichik toshlarni tezroq terib olishda yordamlashishimiz kerak ekan. O'ng-tersini surishtirib o'tirmay, ko'ylaklarni yechib har tomonga uloqtirdik-da, ishlash mana bunaqa bo'ladi deb, ishga tushib ketdik. Men darrov yigirma chog'li bolani ajratib, alohida brigada tuzib, narigi brigadani o'zaro musobaqaga chaqirdim. Bilasiz-ku, qishlog'imizning bolalari sho'xlik qilib, doim oyilaridan gap eshitib yursa ham, ammo ishga kelganda katta odamlarni ham qochiradi. Ikki soat o'tar-o'tmas, uch paykal yerning toshini terib, chinorning tagiga uyub tashladik.

— Tag'in ish bormi, ko'rsating? — deb so'radi o'qituvchimiz Abdushukurov amakidan.

— Bir oz dam olib turinglar, hozir buldozer narigi yerga o'tib ketadi.

Endigina ziyoratchilar har kuni maiza qilib dam oladigan salqin buloqlar bo'yiga, soy ustidagi bahavo so'rilarga o'tirib, birpas dam olsak o'laylik, deb turgan edik, qishloq tomondan halloslaganicha Zokir kelib qoldi:

— Meni chaqirmabsizlar-a! — dedi u xafa bo'lib.

— Chaqirish ham gapmi, — deb qo'ydi tosh tashishda hozircha ikkinchi o'rinni egallab turgan Mirobiddinxo'ja, — mashinaning signalini chalaverib, qishloqni ko'chirib yuboray dedik-ku!

— Men bo'lsam bog'da uxlab yotuvdim, — o'zini oqladi Zokir, — signalni eshituvdimu tush ko'rayotgan bo'lsam kerak, deb yotaverdim. Qani, menga ham ish bormi?

— Bor, — dedi o'qituvchimiz, — qani, bir «Kichkinajon»ga o'ynab yubor-chi.

Sizga aytaman deb, esimdan chiqib qolgan ekan, Zokir jindak uyquchiroq-ku, ammo qiziqchilik o'yinlariga tushishda undan o'tadigani yo'q. Ayniqsa, «Kichkinajon»ni qiyib tashlaydi.

Hammamiz katta chinor tagiga to'planib, davra olib, Zokirni o'rtaga chiqardik. Avval uyalib turdi-da, keyin qo'llarini yoniga qisib san'atini ko'rsata boshladi Zokir.

*Kichkinajon, kichkina,  
Tovuqdan ham kichkina,  
Taruvdan ham kichkina  
Kichkinajon, kichkina,  
Tariqdan ham kichkina,  
Kichkinajon kichkina  
Qo'noqdan ham kichkina,  
Kichkina, kichikkina.*

Yeru ko'kni qarsak, qiyqiriq ovozi tutib ketdi. Ishonasizmi, xuddi shu paytda xursand bo'lganidan tepamizdagi chinorning yaproqlari ham bizga qo'shilib qarsak chalar edi.

O'sha kuni lager qurilishidan qosh qorayganda xayrlashdik. Do'stlarim bilan xayrlashib, uyimizga tomon jadal kelayotgan edim, to'satdan qalpoqcham:

— Sheriklaring bilan uchrashganingdan xursandmisan?  
— deb soʻrab qoldi.

— Boʻlmasam-chi?! — deb qoʻydim.

— Bugun-erta oʻqishlar ham boshlanadi, xabaring bormi. Xabarim bor. Men bu yil yeng shimarib oʻqimoqchiman.

— Unda meni oʻz uyimga eltib qoʻy, — dedi qalpoqcham,  
— qachon yordamim kerak boʻlsa tortinmay boraver sen uchun hamisha xizmatga tayyorman...

Shunday qilib desangiz, men oʻsha kuni qadrdon qalpoqcham bilan ikkinchi bor xayrlashdim.

— Xayr, qalpoqcham! — dedim koʻzimga yosh olib, — biz yana koʻrishamiz.

— Xayr, quvnoq doʻstim, — dedi qalpoqcham ham yigʻlab, — albatta, koʻrishamiz.



# MENING HAM DO‘STLARIM BOR

## I bob

### BIR TOVOQ SHIRGURUCH

**Y**igirma oltinchi avgust kuni, yo‘q, kechirasiz, yigirma yettinchi avgust ekan. Yigirma yettinchi avgustmikan-a? Har qalay, o‘sha kuni havo juda ham issiq edi-da, qishloq ko‘chalari jimjit, zog‘ ham uchmaydi. Tirik jon borki hammasi o‘zini salqinga urgan. Orifning kuchugi ham muzdekkina ariqda bag‘rini berib tilini chiqarib, hansirab yotibdi. Daraxtlar ham qilt etmaydi, butun narsalar turgan joyida qotib qolgandek. Tol shoxiga berkingan chumchuqlar ham chirqillashmay qolishgan, atrof dim, juda ham dim.

Biz bo‘lsak, ya‘ni Orif, Zokir, Ikromiddin olako‘z, Mirobiddin injiq — hammamiz tutdan chumchuq bola olib Mirzabuvaning bog‘idan shaftoli o‘g‘irlab, gumning etagida cho‘milishib, maza qilib o‘ynayotgan edik. Uzoqdan Dono chaqirib qoldi.

— Beriroq kelsang-chi! — dedim o‘rnimdan turgim kelmay.

— Yalang‘ochsizlar, uyalaman.

— Bo‘lmasa gapingni qattiqroq ayt.

— Sizni yangi muallim so‘rayapti.

Suvdan chiqqim kelmasa ham yangi kelgan muallim bilan tanishsam tanishib qo‘ya qolay, deb shoshilib kiyindim-da, uyga jo‘nadim.

Borsam, chindan ham hovlimizda begona yigit o‘tiribdi. Yoshi yigirma ikki-yigirma uchlarda, bo‘yi novcha, o‘zi oriq, qop-qora sochini silliq qilib tarab olgan, yaqiniga borib tikilgan edim, yuzi cho‘ziq, ko‘zlari katta-katta, peshonasi do‘ng bir kishi ekan. Menga yer ostidan razm solgan edi, beixtiyor yurishdan to‘xtab:

— Assalomu alaykum! — deb yuborganimni o‘zim ham sezmay qolibman.

— Hoshimjonmisiz? — yangi muallim bir bosh uzumni cho‘qilab yeb o‘tirgan ekan, uni laganga qo‘yib, sekin o‘rnidan turdi-da ikki qo‘lini menga uzatdi.

Ma‘lum bo‘lishicha yangi muallimning ismi shariflari Vohid Soliyevich Soliyev ekan. Institutni bu yil bitirib, to‘ppa-to‘g‘ri bizning qishloqqa ishga kelibdi. O‘zi algebradan, matematikadan dars berarmish. Bundan uch kun avval, men o‘qishim kerak bo‘lgan 6 «B» sinfiga kurator etib tayinlanibdi. U, bu gaplarni menga emas, buvijonimga qarab gapirardi. Buvijonimga qarab yana davom etdi:

— Sinf o‘quvchilarining shaxsiy delosi bilan tanishib chiqdimu, bir xillari bilan alohida-alohida gaplashib ko‘rishga qaror qildim, — dedi u yana uzum yeyishga tushib.

— Yaxshi qilibsiz-da, aylanay, — deb qo‘ydi buvijonim ham.

— Endi opoqi, o‘z sinfingdagi o‘quvchilarning ota-onasi, uy sharoiti bilan ertaroq tanishib qo‘ygan yaxshi-da... Yolg‘iz o‘zim turaman. Qiladigan ishimning tayini ham yo‘q.

— Ota-onalaringiz qayerda, aylanay? — deb so‘radi buvijonim.

— Shaharda... Lekin uzumlaringiz shirin ekan, opoqi.

— Osh bo‘lsin, yeyavering, qoqindiq. Uylanganmisiz?

— Yo‘g‘-e, hali yoshmiz-u, opoqi.

— Kiyim-boshlaringiz kir bo‘lsa, tortinmay olib kelavering. Vaqti bemahal issig‘ingizdan ham, aylanay, o‘zim xabar olib turaman... Ishqilib, mana shu shumshuqni sal epaqaga keltirib bersangiz bo‘lgani. Dadasi ishdan boshqasini bilmaydi. Oyisi kunbo‘yi fermada. Menga bo‘yin egmay qo‘ydi bu bola. Qarang, orqangizga o‘tib olib, yelkasini uchirib menga muqom qilyapti...

— Qani muqom qilganim, orqam qichiyapti, o‘shani qashiyapman, — dedim buvijonim begona odamga meni yomonlagani uchun sal jahlim chiqib.

Yangi o'qituvchi dadamga o'xshab xotin kishilarning gapiga ko'pam quloq solavermaydigan bir kishi ekan. Buvijonim gapiryapti-yu, u bo'lsa, nuqul uzum yeydi. Nihoyat, uzum ko'ngliga urdi shekilli, laganni chori bilan nariroq surdi-da, labidagi shirani oppoq sochiq bilan artayotib:

— Qani, Hoshimjon, beriroq keling-chi, — deb qo'ydi. So'rining bir chekkasiga omonatgina o'tirdim. Buvijonim nima ish bilandir boqqa kirib ketdi.

— Kanikulni yaxshi o'tkazdingizmi? — so'radi muallim.

— Yaxshi o'tkazdim.

— Qanaqa kitoblar o'qidingiz?

— Kitob o'qimadim, domla.

— Nega o'qimadingiz?

— Kitob o'qisam, shu deng, uyqum kelib, yuragim qisilaveradi.

— Yuragim qisilaveradi? — muallim hayron bo'lgandek menga tikildi, — nega endi yuragingiz qisilar ekan?

— Men o'zi nervinniyan-da, domla, — dedim jo'rttaga hazilga olib.

— Nervinniyan? Halitdan-a, qanday qilib nervinniy bo'la qoldingiz?

— Domlalar uy vazifalarini juda ko'p berishadi-da, o'shalarni ishlayman deb, nervinniy bo'lib qolganman.

Muallim tizzasiga shappalab, kulib yubordi. Qotib-qotib kuldi. Kulganda og'zini katta-katta ochib, osmonga qarab kular ekan. Qahqaha ovozidan toldagi chumchuqlar xurkib har tomonga uchib ketishdi. Yangi muallimning bunchalik xursand bo'lganini ko'rib, men ham gapimni davom ettiraverdim:

— Undan keyin, singlim Oysha ham nervinniy, mendan qo'rqqanidan shunaqa bo'lib qolgan. Eng kichkina singlim Dono bor-ku, hu, ana qarang — so'rining tagida mushuk bolani o'ynatib o'tiribdi, o'sha ham nervinniy.

— Zig'irday qizcha-ya?

— Zig'irdak emas, ikkinchida o'qiydi... u ham nervinniy, bog'chada qo'g'irchoq talashaverib shunaqa bo'lib qolgan... biz hammamiz nervinniymiz.

Muallim yana kulib yubordi. Bu gal ham chin yurakdan kulgan bo'lsa kerak, nega desangiz ko'zlaridan yosh chiqib ketdi.

— Obbo Hoshimboy-ey, Siz ja qiziqchi ekansiz. Menga ma'qul bo'lib qoldingiz.

— Mana shu qiziqchiligim uchun buvijonim meni tiriklayin ko'mmoqchi bo'lib yuribdi, — arz qildim yangi muallimga.

— Nega ko'mar ekanlar?

— Bilmasam. Ishqilib, tiriklayin ko'mmasam murodimga yetmayman, deydilar.

Muallim menga tikilib, kulimsiragancha jim bo'lib qoldi. Nimalarnidir o'ylab ketdi. Peshonalari tirishib, ko'zlari qisilganini shundoqqina ko'rib turibman.

— Buvijoningizni xafa qilmang. Mening ham ana shunday buvijonim bo'lganda boshimga ko'tarardim. Qarang, kiyimlaringizni yuvib, dazmollab beribdilar. Hovlilaring ozoda, hammayoq supurilgan, saranjom-sarishta... Xo'sh, darsliklarning hammasi butmi?

— Hammasi tayyor-da, domlajon.

— Qani, olib chiqing-chi.

G'izillab kirib uydan katta papkamni olib chiqdim. Bir xil fanlardan hali darsliklarim yetishmas ekan, buni men papkamni olib chiqayotganimda eslab qoldim.

O'sha kuni muallim meni boshlab borib, maktabdan darsliklar olishib berdi. Keyin menga o'xshash qoloqroq bo'lgan yana uch o'quvchining uyiga birgalashib bordik. Soy bo'yidagi Akromlarnikiga ham birrov kirib chiqdik. Hovlilarida hayvonu qushlar shunaqangi ko'pki. avvaliga hayvonot bog'iga kirib qoldikmi, deb ikkovimiz ham hayron bo'lib qoldik.

— Domla, boshqa bolalarnikiga ham kiramizmi? — deb so'radim qaytayotganda.

— Yo'q, endi bo'ldi, — deb qo'ydi muallim.

— Nega boshqalarnikiga kirmaymiz?

— Biz uylariga kirgan bolalar beshinchi sinfda yaxshi o'qimagan. O'shalar bilan alohida-alohida shug'ullanishga to'g'ri keladi.

— Demak, men bilan ham alohida shug'ullanasizmi?

— Siz ham o'tgan yili sinfda qolgansiz. Demak, siz bilan ham alohida shug'ullanishga to'g'ri keladi...

Gap bilan bo'lib maktabimiz hovlisidagi muallimlarga ajratib berilgan uyga yetib borganimizni ham sezmay qolibmiz. O'tgan yili bu uyda er-xotin Ryabovlar turishar edi. Eri nemis tilidan, malla sochli xotini rus tilidan dars berardi. Ikkala fandan ham sal chatoqroq bo'lgani uchun bu uyning yaqiniga ham yo'lamasdim. Hatto, o'sha atrofdan o'tganda jo'rttaga teskari qarab o'tardim. Vohid Soliyevich kutilmaganda meni mana shu uyga taklif qilib qolsa bo'ladimi. Ichkariga sal qo'rqibroq kirib bordimu, xoh ishonimg, xoh ishonmang, hangu mang bo'lib qoldim. Bu yerni kitobxonaning o'zginasi deysiz. Tokchalarga ham, oriq-semiz kitoblarni shunaqangi ko'p tahlashibdiki, asti qo'yaverasiz.

— Hammasi o'zingiznikimi? — birinchi savolim shu bo'ldi.

— Yo'q, Ryabovlarniki ham bor, — tushuntirdi muallim.

U, negadir, o'zi juda kam gapiradiyu nuqul meni gapga soladi. Kunbo'yi mendan, so'ramagan narsasi qolmadi. Nega algebrani yomon ko'raman qochib ketishimning sababi nima, qaysi bolalar bilan mushtlashganman. Yong'oq qoriga shogird tushishga buvijonim nega majbur qildi, qishloqda namoz o'qiydigan nechta bola bor, qizlar ham namoz o'qiydimi — xullas, mana shunaqa narsalarni rosa so'radi-da.

— Jurnallar ham Ryabovlarnikimi? — deb so'radim jo'rttaga gapni chalg'itish uchun.

— Yo'q, bular meniki. O'qimoqchi bo'lsangiz, ola qoling. Keyin keltirib berarsiz.

— Shaxmat-chi, shaxmat ham ularnikimi?

— Yo'q, shaxmat meniki. O'ynaysizmi?

— Men shashkani bilaman-da.

— Qani oling, bir kuch sinashib ko'raylik-chi! Lekin bilib qo'ying. Men qattiq, o'ynayman.

— Men ham bo'sh kelmayman, domla.

Shashkani o'ynayotibmiz-u, lekin mening xayolim butunlay boshqa yoqda. Shu kungacha bironta o'qituvchim menga o'zini yaqin olib muomala qilgan emas. Hammasi bezoridan olib, bezoriga soladi, sendan odam chiqmaydi, deb kamsitgani-kamsitgan. Vohid Soliyevich bo'lsa, mana meni odam qatoriga qo'shib, men bilan gaplashgani uyimizga boribdi, yonma-yon o'tirib shashka o'ynayapti.

— Domla, mendan tuzukroq odam chiqmaydimi-a? — deb so'raganimni o'zim ham bilmay qoldim.

— Nega unday deysiz?

— Hamma shunaqa deydi-da.

— Bo'lmagan gap, — dedi Vohid Soliyevich ketma-ket ikkita toshimni olib, — shoshmay tursangiz... hammasi uyalib qoladi.

O'sha kuni har qancha urinsam ham, baribir shashkadan omadim kelmadi: ketma-ket to'rt marta yutqizib qo'ydim. Lekin shunday bo'lsa ham yana to'rt marta yutkaziib, Vohid Soliyevichni xursand qilishga tayyor edim. Nega desangiz, hali aytganimday, bu kishini astoydil yaxshi ko'rib qoldim.

— Hovlingizga suv sepib beraymi? — dedim shartta o'rnimdan turib.

Vohid Soliyevich bosh chayqadi:

— O'zim sepaman. Siz mening ishimni qilib bersangiz, bora-bora men dangasa bo'lib qolaman-ku, Hoshimjon.

— Bo'lmasa picha qatiq olib beraymi? Judayam shirinda. Xuddi qaymoqning o'zi deysiz.

— Rahmat, uka, qatiqni uncha xushlamayman.

— Bo'lmasa, domla, men Sizga hali yegan uzumingizdan bir chelak keltirib beraman.

— Rahmat, uzum kerak bo'lsa o'zim boraman. Bahonada buvijoningiz bilan birpas gaplashib o'tirib kelaman. Ajoyib kampir ekanlar...

Vohid Soliyevich o'qib, rasmini tomosha qiling deb, menga bir dasta suratli jurnallar berdi. O'zimda yo'q, sevinib ketdim. Nega desangiz, surat tomosha qilib tagidagi xatlarni o'qishni joni dilimdan yaxshi ko'raman.

Qo'ltig'imdagi jurnalni ko'rib, xayriyat, sening qo'lingda ham kitob ko'radigan zamonlar kelar ekan, deb buvijonim ham sevinib ketdi.

— Endi meni tiriklayin ko'mmaysizmi? — deb so'radim buvijonimdan.

— Voy tentagim-ey, shu gaplarni haliyam eslab yuribsanmi-a? Qani, beriroq kel, bir achomlashib qo'yaylik.

Buvijonim bilan achomlashib bo'lganimizdan keyin so'riga chordana qurib o'tirib olib, singillarimu buvijonim, dadajonimu oyijonimga jurnallardagi suratlardan ko'rsatdim. Tagidagi xatlarni sharillatib o'qib berdim. Hammalari o'zlarida yo'q xursand bo'lib ketishdi. Hatto nazarimda shu paytda Oysha ham ich-ichidan sevinib o'tiribdi. Akam o'qishga havas qo'ysa, uy vazifalarini o'zi ishlab meni jonim ham tinchir ekan, deb sevinayotgan bo'lsa kerak.

Kechqurun so'rida shirguruch yeb o'tirib men yana Vohid Soliyevichni eslab ketdim... bechora bir o'zi maktabning katta hovlisida zerikib o'tirgandir. Ehtimol, zerikkanidan hushtak chalib u yoq-bu yoqqa yurayotgandir, yo ovqat pishirmoqchi bo'lib, primusga o't qalay olmay qiynalayotganmikin-a?

— Oyi, ovqatingizdan yana bormi? — dedim.

— Dadangga olib qo'yganim qoldi. Yeysanmi?

— Muallimga olib bormoqchi edim.

— Kelin, ustiga sariyog'dan ko'proq solib bering, — gapga aralashib qoldi shu paytda buvijonim ham, — bir parishtalik yigit ekan. Hoshimjon, aytgin, tez-tez kelib tursin.

Bir minutdan so'ng tovoqdagi shirguruchni katta sochiqqa o'rab, maktab tomonga qarab o'qdek uchib borardim. Aytganimdek, Vohid Soliyevich kastryulga sho'rva solib, o'zi kattaligi xontaxtadek keladigan bir kitobni varaqlab

o'tirgan ekan. Meni ko'rib, rostini aytsam, uncha xafa ham, xursand ham bo'lmadi:

— Ie, o'zim ham ovqat qiluvdim-ku, — deb kulimsirab qo'ydi, xolos.

Qaytayotganimda domlamiz yashab turgan uyning hovlisiga ko'zim tushdi-yu, yuragim «shuv» etib ketdi: Ryabovlar ko'chib ketgandan buyon bu atrofga suv kelmapti. Gullar qurigan, rayhonlar so'ligan, markazdagi ajriqlar sarg'aygan, olmalarning pastki shoxi suvsizlikdan quriy-quriy deb turibdi.

Kechasi Vohid Soliyevichga sezdirmasdan sug'orib qo'yishga, u kishini to'satdan juda-juda ham xursand qilishga qattiq ahd qildim. Buvijonim uyquga ketishi bilan katta ketmonni olib, maktabning hovlisiga jo'nadim. Hovliga suv kiradigan quloq, ariqlarni ochib, asta-sekin katta anhorga chiqib bordim-da, yarim tegirmon keladigan suvni ochib yubordim. O'sha yerda, anhorning shundoqqina labida jindakkina mizg'ib olmoqchi bo'lib, uyqum qurib ketsin, tong otguncha dong qotib uxlab qolibman. Uyg'ondimu oyoqni qo'lga olib maktabning hovlisiga yugurdim. Andak kechikkan ekanman. Hammayoqni suv bosib ketibdi. Vohid Soliyevich tizzasidan suv kechib, nishabini qayoqqa olishni bilmay, garang bo'lib turgan ekan:

— Ketmon kerakmi? — deb so'radim nima deyishni bilmay.

— Tezroq, keltiring, tezroq! — dedi muallimimiz entikib. Ertalabgacha suv bilan olishib chiqdik.

## II bob

### JARANGLA, QO'NG'IROG'IM

**E**rta o'qish boshlanadi, degan kuni kechasi, rostini aytib qo'ya qolay, uxlay olmadim. Har xil shirin xayollar surib, bir mahal uxlab qolibmanu xayolimning bir tomoni sekingina tushga ulanib ketganini o'zi payqamay qolibman.



Bir vaqt bunday qaragam, Otajon Azizovich jamiki o'quvchilarni to'plab, menga maqtov qog'ozini topshirmoqchi bo'layotgan emishlaru men xomkalla bo'lsam, uni olmayman deb, qochib yurgan emishman. Nihoyat, meni ushlab qo'linga maqtov qog'ozini zo'rlab berishdi. Qarsak demagani, hammayoqni qoplab ketdi. O'zim ham qo'shilishib qarsak chalib yuboribman deng.

— Hoshim, tek yotasanmi, yo'qmi — deb buvijonim sekingina biqinimga turtib qo'ydi.

— Maqtov qog'ozim qani? — so'radim uyqusirab.

— Qanaqa maqtov qog'oz?

— Hozir qo'limda turuvdi-ku?

— Uyqusirama. O'ng tomoningni bosib yot.

O'ng tomonimni bosib yotgan edim, chindan ham dong qotib uxlab qolibman. Qattiq zang ovozidan uyg'onib ketdim. Maktabimizning hovlisidagi qari tutning shoxiga katta temir osib qo'yishgan edi. Kimdir ana o'shani jaranglatib uryapti. Xiyol o'tmay gorn ham chala boshlashdi, yana xiyol o'tmay yoniga childirma ovozi qo'shib ketdi.

— Salom, maktab, salom, sentyabr! — dedim-da, sakrab o'rnimdan turdim. Nonushta ham qilmay papkani qo'ltiqqa olib, o'zimni ko'chaga urmoqchi bo'lgan edim, buvijonim:

— Singillaring bilan ketasan! — deb yo'limni to'sdi.

Bunday qaragam... Obbo, sochlariga lentalar taqib, oppoqqina ko'ylaklarini kiyib, bir gazeta gulni bag'riga bosib bir chekkada Donoxon turibdilar!

— Xohladinga boryaptilarmi? — deb sekingina biqinidan chimdib qo'ydim.

Nariroqda Oyshaxon ham yasan-tusanni joyiga qo'yib, tayyorgarlik ko'ryaptilar.

— Qani, maktab tomon shagom-marsh! — dedim-da, ikkovini oldimga solib ko'chaga chiqdim.

Hay-hay, bugun ko'chada chindan ham bayram bo'lyapti, hamma yasangan-tusangan, qo'llarida gul, lablarida kulgi, maktabga shoshishyapti. Maktab tomonda hamon gorn yangraydi, childirma gumburlaydi:

<i>Gumbura gum,</i>	<i>Maktab borar.</i>
<i>Gumbura gum,</i>	<i>A'lo o'qish</i>
<i>Chal tezroq!</i>	<i>Niyati, niyati,</i>
<i>Mulla Hoshim</i>	<i>Algebra,</i>
<i>Ona tili</i>	<i>Chal tezroq.</i>
<i>Hanmasi ham</i>	<i>Chal tezroq,</i>
<i>Besh bo'lar,</i>	<i>Gumbura gum,</i>
<i>Besh bo'lar.</i>	<i>Gumbura gum!..</i>

Maktab hovlisiga o'yinga tushib, muqomlar qilib kirib bordim. Gornni Asad degan bola-yu childirmani Sulton yig'loqi chalayotgan ekan. Shartta qo'lidan oldimda, yengni shimarib, barmoqlarimni ho'llab, childirma chalish mana bunaqa bo'ladi, deb savalab ketdim.

*Taqa tum-tum, tum taka tum,*  
*Har yonlarni kezib yurdim.*  
*Yaxshi-yomon barin ko'rdim,*  
*A'lo o'qiyman deb keldim.*

Ana shunaqangi gaplarni xayolimdan o'tkazib, childirmani zavq bilan urayotgan edim, kimdir orqamdan kelib bilagimdan mahkam qisdi. Qarasam, Vohid Soliyevich ekan:

— Barakalla, childirmani yaxshi chalar ekansiz!

— Boplab tashlaymiz-da, domlajon!

— Chalavering, qattiqroq chaling! — deb Vohid Soliyevich yana qayoqqadir ketdi. Aksiga yurib xuddi shu paytda qo'llarim charchab qolgan edi. Childirmani yonginamda ko'zni mo'ltillatib turgan Sulton yig'loqiga uzatdim-da, do'stlarim bilan quchoqlashib ko'rishib ketdim. Maktab hovlisiga birin-ketin yettinchi sinfga bir amallab ko'chib olgan Zokirvoy, kutubxona tashkil qildim, deb kerilib yurgan Orifboy, mendan qo'rqqanidan doim oxirgi soatdan qochib ketadigan Hakimjon, Mirobiddinxo'jalar kirib kela boshlashdi. Bolalar to'p-to'p bo'lib gaplashishar, lagerlarda, sayohatlarda ko'rgan-bilganlarini bir-biriga so'zlab maqtanishar, kulishar edi. Ikrom kemaga tushib, daryoda

suzibdi, Shoolim dadasi bilan cho'lda qovun ekishgan ekan, bitta qovunni so'yishsa, ichidan tarvuzning urug'i chiqib kelibdi.

— Yolg'on! — dedi Zokir ishonmay.

— Bas boylashaman, — dedi Shoolim gapiga hech kim ishonmaganiga yig'lagudek bo'lib.

Yettinchi sinfda o'qiydigan bir oyog'i cho'loq Rafiq shaharda Afrikadan kelgan negrlarni o'z ko'zi bilan ko'rib, o'shalar bilan bitta stolda yonma-yon o'tirib ovqat yebdi. Qorasi kiyimiga yuqarmikan, yo'qmikan, deb sinchiklab qaragan ekan, ko'ylagining yoqasi oppoq emish. Bu yil biz bilan o'qiydigan Shohida mening oyim ishlaydigan fermada buzoq boqqan ekan, ferma mudiri: «O'ninchini bitirsang, seni sigir sog'uvchi qilib olaman, rasmingni gazetada chiqartiraman», deb va'da beribdi.

Xuddi shu paytda turnikka chiqa olmaydigan fizrugimiz Odiljon aka baland ovoz bilan, hamma bo'y-bo'yi bilan, sinf-sinfi bilan safga tizilsin, deb buyruq berib qoldi. Bir-birimizni itarishib, turtishib, endigina safga tizilib bo'lgan edikki, ichkaridan mening jonajon muallimlarim — Vohid Soliyevich, algebra o'qituvchisi Qobilov, qadrdon direktorimiz Otajon Azizovichlar birin-ketin chiqib kelishdi. Otajon Azizovich meni ko'rsin, deb oyog'imning uchida turib shuncha bo'ynimni cho'zaman, qani endi bir qiyo boqsa!

Direktorimiz o'quv yili boshlangani bilan bizni tabriklab, hammamiz a'lo o'qishda, a'lo xulqli bo'lishda bir-birimizga namuna bo'lishimiz kerakligi to'g'risida roppa-rosa 21 minut gapirgandan keyin o'qimagan kishi u dunyoyu bu dunyo odam bo'lmaydi, degan mazmunda ham yetti minutcha gapirib, oxirida:

— To'g'rimi, Hoshim? — deb so'rab qo'ydi mendan.

— Juda to'g'ri, — dedim men ham shoshib-pishib.

— A'lo o'qish bu senga childirma chalish emas! — dedi bir chekkada turgan Qobilov domla.

— Bu yil algebrani ham childirma qilib yuboraman, domlajon, — dedim men ham gapdan qolmay.

Majlis tugab qiy-chuv, to'polon bilan sinf rahbarlarimiz boshchiligida o'z sinfimizga qarab yo'l oldik. Mirobiddinxo'ja bilan kelishib, deraza oldidagi partani tanladik. Nega desangiz, bu yerdan ko'chadan o'tgan- ketganlarni bemalol ko'rib o'tirsa bo'ladi. Joy-joyimizga o'tirishimiz bilan Vohid Soliyevich:

— Qani, galstuklarni bir to'g'rilab olinglar-chi!— deb buyurdi.

Galstuklarni to'g'rilab oldik.

— Abbosov, nega sen kir galstuk taqib kelding? — so'radi muallim.

— Yangisini taqsam kir bo'lib qoladi-da, — hazilga olib dedi Akrom.

Bolalar sharaqlab kulib yuborishdi. Muallim kulmadi. Akromga qarab shunday bir tikildiki, bolalar kulgisi bo'g'zida qotib qolgandek bo'ldi.

— O'quvchining intizomi galstukni qanday taqqaniga qarab bilinadi. Tushunarlimi?

— Ertaga yangisini taqib kelaman, — sekingina dedi Akrom.

Xuddi shu paytda sinfning eshigi ovozsiz ochilib ostonada Akromning bu yil birinchi sinfga kelgan singlisi Hojar ko'rindi.

— Aka, mening familiyam nima bo'ladi? — deb so'radi u qo'rqa-pisa. Bolalar yana kulmoqchi bo'lib chog'lanishdi-yu, ammo muallimning haligi qarashi eslariga tushib ketdi shekilli, hech birlari botina olmadi.

— Familiyang Abbosova bo'ladi, — tushuntirdi Akrom singlisiga.

Shundan so'ng muallim yo'qlama bo'yicha o'quvchilar bilan birma-bir tanisha boshladi. Oxirida o'zini ham tanitdi:

— Meni Vohid Soliyevich, deb chaqirasizlar!

— Xo'p bo'ladi, domla, — dedi Mirobiddinxo'ja!

— Domla degan so'z, bugundan e'tiboran ishlatilmasin!

— ta'kidladi Vohid Soliyevich, — kimki meni domla deb chaqirsa, javob bermayman. Qani, sinfkom qilib kimni saylaymiz?

Bo'yim novcharoq bo'lgani uchun omadim kelib meni saylab yuborisharmikan, degan yashirin bir umidda negadir o'zimdanda-o'zim ham xursand bo'lib, ham uyalib qizarib-bo'zarib o'tiribman. Bordiyu saylaymiz, deyishsa, shoshib qolib yo'q, deb qo'ymay deb o'zimni xushyor tutishga tirishib turgan edim:

— Hamroqulning o'zi bo'la qolsin! — deb qoldi kimdir oradan. Shundan keyin butun sinf:

— Hamroqul bo'lsin!

— O'zi a'lo o'qiydi.

— Intizomi ham yaxshi, — deb har tomondan chuvillab yubordi. Bolalar chuvillashgan sari men o'zimdanda-o'zim battar uyalib, bo'ynimni ichingga tortaman deng.

— Tozalik komissiyasiga raislikka kimni ko'rsatamiz? — so'radi Vohid Soliyevich. Hamma jim. Nazarimda kimni saylasak ekan, deb har biri o'zicha o'ylayotganga o'xshaydi. Shartta o'rnimdan turdim:

— Mirobiddinxo'jani saylaymiz. Qaranglar, bo'yoni ham oppoq, kiyimlari ham yuvilgan, dazmollangan. Oyisi dazmol bosishni bilmaydi, o'zi dazmollagan. To'g'rimi? Undan keyin, bitta-yarimtalaringni tugmalaring uzilib ketsa, darrov qadab ham beraveradi, do'ppisining ichiga doim igna qadab yuradi, to'g'rimi? — shunday deb do'stiginamning do'ppisini olib, ich tomonini o'quvchilarga qo'rsatgan edim, chindan ham qizagida ikkita ko'rpa qaviydigan igna turgan ekan — bolalar kulib yuborishdi. Hazil-hazil bilan Mirobiddinxo'ja tozalik komissiyasiga rais bo'lib ko'tarildi.

Ana shundan keyin sinf rahbarimiz o'quvchilar bir-birlari bilan musobaqalashib o'qishlari kerak, a'lochi o'quvchilar qoloq o'quvchilarni musobaqaga chaqirsin, bir-biriga qo'lidan kelgancha ko'maklashishsin, deb qoldi. Hamroqul birinchi bo'lib Akromni musobaqaga chaqirdi. O'qituvchi:

— Ko'ndingmi? — deb so'ragan edi, Akrom o'rnidan turib kafti bilan og'zini bekitdi-da:

— Im... — deb qo'ydi.

— Xo'pmi, yo'qmi? — yana so'radi muallim.

— Imm, — dedi yana Akrom. Xuddi shu paytda uning ko'zlari olayib, lablari qiyshayib ketdi. Hammamiz qo'rqib ketdik. Yonida o'tirgan bola:

— Vohid Soliyevich tomog'iga non tiqilib qoldi, — dedi shoshilib. Keyin zarb bilan yelkasiga bir musht tushirgan edi, yo'q, do'stimning tomoqqinasiga qurib ketmagur kolbasa tiqilib qolgan ekan, og'zidan bir parcha go'sht uchib chiqdi. Hamma kulib yubordi. Bu gal Vohid Soliyevich ham o'zini tutib tura olmadi. Halidan buyon jiddiy turganini ko'rib, rosa siqib suvimizni ichadigan sinf rahbariga uchrab goldik shekilli, deb hammamiz ham qo'rqib, yuragimizni hovuchlab turgan edik. Kulganini ko'rib, o'zimizni sal erkinroq tuta boshladik.

— Men u bilan musobaqa o'ynamayman, — dedi Akrom sinfda g'ovur bosilgach.

— Nega o'ynamaysan?

— O'tgan yili varragimni olib, pulini bermagan.

— Hecham-da, — o'rnidan turib ketdi Hamroqul, — men senga uning o'rniga avtoruchka bergan edim-ku!

— Avtoruchkang yozmas ekan, varragimni to'lab qo'y. Vohid Soliyevich shartta o'rnidan turib:

— Uyat emasmi! — dedi-da, ikkovini ham o'rniga o'tkazib qo'ydi. Keyin musobaqa o'ynagan boshqa bolalarning familiyasini daftarga yoza boshladi. Bir mahal navbat menga yetib qoldi-ku.

— Ro'ziyev kim musobaqaga chaqiradi? — so'radi muallim. Hozir bolalar meni talashib qolishsa kerak, deb o'yladimu, o'zimdanda o'zim xursand bo'lib ketdim. Ammo bir minut, ikki minut... mana o'n minut o'tdi hamki, hech kimdan sado chiqmaydi. Shunaqa o'sal bo'ldimki, asti qo'yaverasiz. O'tirishimni ham tikka turishimni ham bilmay, nuqul barmoqlarimni g'ijimlayman deng.

— Nahotki, Ro'ziyevga hech kim do'stlarcha yordam berishni istamasa, — hayron bo'ldi muallim. Shundan keyin ham bittasi g'ing demasa-ya, qizarib-bo'zarib endi o'rnimga o'tirayotgan edim:

— Men musobaqaga chaqiraman! — deb qoldi oldingi partada o'tirgan Saddinisa. Avvaliga, o'lay agar butunlay ishonmadim, meni mazax qilyapti, deb o'yladim. Nega desangiz, anovi kuni Saddinisa boshiga o't qo'yib daladan qaytayotganida ariqning ichiga berkinib olib, it bo'lib vovillab, panalab orqasidan quvib rosa o'takasini yorgan edim. O'sha kuni Saddinisa dadangga aytib bir kaltaklatmasammi, degan edi. Esidan chiqib ketdi shekilli, dadamga aytib kaltaklatmadi. Kaltaklatish o'rniga, bugun, hech kim meni mensimay, odam qatoriga qo'shmay turgan bir paytda, hijolatdan qutqarib jonimga ora kirib o'tirsaya, bunisi necha puldan tushdi endi, Mullahoshim!

— Hazillashayotganing yo'qmi? — so'radim qo'rqa-pisa.

— Rost aytyapman, — menga emas, muallimga qarab dedi Saddinisa.

Sal vaqt o'tmasdan qo'ng'iroq chalinib darslar ham boshlanib ketdi. Dars boshlangandan keyin, o'zingiz ham bilasizki, o'qituvchilar ishni darrov savol-javobdan boshlashadi. O'sha kuni to'rtta fan kirdi. Lekin to'rtovida ham yangi dars o'tilmay, nuqul o'tganlarni qaytarishdi, javob bermagan bola qolmadi. Men kamtarlik qilib derazadan o'tgan-ketganlarni tomosha qilib, jimgina o'tiraverdim. Nega desangiz, o'tgan yili safarda bo'lganim uchun hammasi esimdan chiqib ketgan ekan. Geografiya muallimimiz menga ko'zi tushishi bilan:

— Iy-e, Hoshim sen ham shu yerdamisan? — deb negadir kulimsirab qo'ydi.

Xullas, oltinchi «B» sinfida men yana o'qishlarimni boshlab yubordim. Darsdan qaytayotganimizda Saddinisa yonimga kelib:

— Hoshim aka, darsni biznikida tayyorlaymizmi yoki sizlarnikiga boramizmi? — deb so'radi.

Bugun men yangi-yangi do'stlar orttirganim, hech qaysi fandan ikki olmaganim, bironta ham o'qituvchim dakki eshitmaganim uchun o'zimda yo'q xursand edim. Shuning uchun ham:

— Yo‘q, darsni ertaga tayyorlaymiz, — deb qo‘ya qoldim.

— O‘zingiz bilasiz. Lekin oyingiz anovi kuni biznikiga borib, oyim bilan gaplashib o‘tirganlarida yig‘ladilar...

— Nima deb yig‘ladi?

— Hoshim meni kuydirgani-kuydirgan, deb yig‘ladilar.

— Hechqisi yo‘q, hozir borib bir kuldiraman, hammasi esidan chiqib ketadi, — dedim-da, tezroq yurib ilgarilab ketdim. Meni Akrom kutib turgan edi-da.

### III b o b

#### SADDINISA

**E**ndi bu qizning kimligini sizga aytib bersam, ko‘zlari katta-katta, yuzlari cho‘ziqqina, sochini maydalab o‘rib, uchiga o‘zimizning paxtadan jamalak qilib, orqasiga tashlab yuradi. O‘zi juda nozik, qattiqroq yo‘talib yuborsangiz shabadasiga uchib ketadigandek. Yegan ovqati aql bo‘lib, to‘ppa-to‘g‘ri miyasiga boradimi, kallasi shunaqangi tez ishlaydiki, uning oldida hozir yettinchi sinfda o‘qiyotgan Orif ip esholmaydi. Arifmetikayu geometriya deysizmi, rus tiliyu nemis tili deysizmi — hammasidan besh. Faqat bo‘lar-bo‘lmasga uf tortib burnini jiyiraverishi menga yoqmay qoldi. Uning tirishqoqligini aytib bersam, yoqangizni ushlaysiz. Kun bo‘yi tinim yo‘q — g‘imir-g‘imir. Mitti qo‘llari charchamaganiga hayronman. Buning ustiga haddan tashqari yopishqoq, haligi, bahorda yomg‘ir yoqqanda o‘riklardan yelim chiqadiku, xuddi ana o‘shaning o‘zi deysiz.

— Hoshim aka, qachon dars tayyorlaymiz?

— Hoshim aka, bugun o‘ynagani bormaysiz, — deb bir minut bo‘lsin holi-jonimga qo‘ymaydi.

— Ko‘p qiynayverma, puchuq, — deb qo‘yaman ba‘zan.

— Nega unaqa deysiz? — xafa bo‘lgandek so‘raydi.

— Axir burning puchuq-da.



— Puchuq bo'lsa sizga nima, — deb Saddinisa arazlagan kishi bo'lib ba'zan teskari o'girilib oladi.

Shu paytda biz Saddinisalarning uyida oftobga qarab tushgan torgina bir xonada dars tayyorlab o'tiribmiz. Hovlida Saddinisaning bog'bon bobosidan boshqa hech kim ko'rinmaydi. Dadasi hisobchi bo'lib ishlaydi, hozir idorada, chiq-chiq qilib cho't qoqib o'tipgan bo'lsa kerak. Oyisi bog'chada tarbiyachi, u ham ishda hovli yuzida tuxumdan qolgan tovuqlar timirskilanib yurishibdi. Tepaga baland qilib ko'tarilgan tokning uzumi hali uzilmaganligi uchun zag'chalar chag'-chag'lashib uzum talashishadi.

— Ey, Hoshim aka, muncha angrayasiz? — jerkib berdi Saddinisa.

— Qani angrayanim?

— Meni o'qitib qo'yib, o'zingiz butunlay boshqa tomonlarga qarab o'tiribsiz... rus tilidan nechanchi mashqni bergan edi?

— Esimda yo'q.

— Uch yuzu ellik birinchi mashq. Bilib turibsizu, o'zingizni bilmaganga solasiz-a, kundaligingizga yozib olgan edingiz-ku.

— Yozishga yozuvidimu, Nina Timofeevna shartini tushuntirayotganda yaxshi anglamay qoluvdim, — deb o'zimni oqlay boshladim. Saddinisa mening kitobimdan 351-mashqni qanday bajarish kerakligini ruschalab dona-dona qilib o'qib berdi.

— Endi tushundingizmi? — qoshlarini chimirib so'radi u.

— Yo'q, butunlay tushunmadim.

— Qani ayting-chi, rus tilida nechta rod bor?

— Oltita... yo'q, uchta.

— Qani, birma-bir ayting-chi?

— Mujskoy, jenskiy, sredniy.

— Qaysi so'zlar mujskoy rodga kiradi?

— Mujskiy so'zlar, — dedim shosha-pisha.

— Yo'q, qanday tovush bilan yakunlanishini so'rayapman.

— Jenskiy rodni aytaymi? Jenskiy rodning oxirgi tovushi a, ya... Topdimmi?

— Topdingiz.

— Endi sredniy rodni aytib ko‘ring-chi?

— Hozir... yo‘q, esimdan chiqib qolibdi.

— Pero qanaqa rod?

— Topdim, — sevinganimdan o‘rnimdan turib ketayozdim, — o, ye bilan tamom bo‘lgan so‘zlar sredniy rod bo‘ladi. Pero, pole, metro...

— Hoshim aka, hammasini bilar ekansiz-ku, — xursand bo‘lib dedi mening kichkina muallimacham, — faqat o‘zingiz dangasasiz-da.

Mana shu maqtovlardan keyin o‘zim ham jindakkina taltayib ketdim-da:

— Puchuvvoy, biz ham chakana emasmiz! — deb o‘rimdan turib o‘yinga tushib yubordim. Ana shundan so‘ng mening talabchan muallimacham qoshlarini chimirib kipriklarini pirpiratib, 351-mashqning shartlarini tushuntira ketdi. Uch xil roddagi so‘zlar ishtirokida so‘z birikmalari tuzishimiz kerak ekan. Darrov daftarimning bir varag‘ini qalam bilan uchga bo‘lib, har bir bo‘lak ustiga rodlarni yozib qo‘ydimu, ikkovlashib, ishga kirishib ketdik.

— Tovarish qanaqa rod? — deb so‘raydi Saddinisa.

— Mujskiy rod-da, tovarish Saddixon, — deb qo‘yaman.

— Yoniga bitta so‘z qo‘shingchi.

— Moy tovarish Akram xoroshiy, — dedim yana.

— Molodes, Hoshim aka, — yana maqtab yubordi Saddinisa, — endi shu so‘zlarni daftarga yozamiz.

Shunday qilib desangiz, birpasda bir varaq daftarni liq to‘ldirib tashlabmiz. Aqlim ko‘payib, buning ustiga chidamli ham bo‘lib borayotganimdan Saddinisa o‘zida yo‘q xursand, o‘zimni esa asti qo‘yaverasiz, har bitta so‘zni yozib bo‘lganimdan so‘ng qo‘limni ko‘ksingga qo‘yib daftarimga salom berib qo‘yaman.

— Voybo‘y, — dedi bir mahal Saddinisa daftarimga ko‘z tashlab, — vij-vij xato-ku!

— Nimasi xato? Hammasi to'g'ri, — dedim jahlim chiqib.

— Zelyoniy so'zi «e» bilan yoziladi. Siz bo'lsangiz «i» bilan «zilyoniy» deb yozibsiz. — Saddinisa daftarimni qo'lga olib, xuddi Nina Timofeevnaga o'xshab qizil qalam bilan hamma xatolarini ko'rsatib berdi. Narigi betga qayta boshdan yozishim kerakligini aytdi. Gapni ko'paytirsam, Saddinisa sen bilan endi dars tayyorlamayman, ezma ekansan, qani endi jo'nab qol, deyishi mumkin edi. Shuning uchun ham aytganiga darrov ko'na qoldim. Irodamni ishga solib, qiynalib, terlab-pishib bo'lsa ham bir bet yozuvni qayta ko'chirib chiqdim. Umrim bino bo'lib bir o'tirishda mana shunchalik ko'p xat yozmagan edim. Mana shu bugun quyosh charaqlab yer-ko'kka mo'lu ko'l nur sochayotgan bir pallada, Saddinisaning sichqonning hidi anqib turgan torgina darixonasida bu ishni bajardim.

— Saddinisa! — dedim boshimni ko'tarib, — hovlingni supurishga yordamlashib yuboraymi?

— Nega endi, boshqa ishingiz yo'qmi?

— Senga yordamlashgim kelyapti-da, — dedim sekin hovliga chiqib, — ochig'ini aytsam, senga biron yaxshilik qilgim kelyapti.

Ammo Saddinisa juda qaysar qiz emasmi, o'z gapida turib oldi. Hech ishga qo'l urdirgani qo'ymadi.

— Agar menga yaxshilik qilmoqchi bo'lsangiz, — dedi u ingichka qoshlarini chimirib, — fizikani takrorlaymiz.

— Fizikadan topshiriq bergani yo'q-ku?

— A'lochi bo'laman desangiz, o'qituvchi topshiriq bermasa ham o'tgan darslarni takrorlab borish kerak.

Boshqa birov shunday deganda ishonmagan bo'lardim. Ammo Saddinisaning hamma gaplariga hech ikkilanmay ishonadigan bo'lib qolganman. Shuning uchun ham darrov fizika kitobini ochib:

— O'tgan darsda «Torozi» temasini o'tganmiz, — dedim.

— Qani ayting-chi, torozi deb nimaga aytiladi? Esimdan chiqib qolgan ekan, kitobdan o'qib berdim.

— Endi esingizda qolganini ayting, — qistab turib oldi Saddinisa.

— Jismlarni tortish uchun ishlatiladigan asbob torozi deyiladi.

— Torozi necha turli bo'ladi?

— Laboratoriyalarda analitik torozi, magazinlarda stol torozi ishlatiladi, — dedim-da, — u yog'iga o'zimdanda ham junday qo'shib qo'ydim, — chayqovchilar o'g'ri torozi ishlatishadi...

Saddinisa kulib yubordi. Uning kulganini ilgari hech eshitmagan ekanman. Ovozi juda tiniq, jaranglab chiqar ekan. Yuzlarida kuldargich ko'rinib, ko'zlari butunlay yumilib ketdi.

— Kitobda o'g'ri torozi haqida yozilmagan-ku? — dedi u kula-kula.

— Kitobda yozilmagan bo'lsa, bizning kitobda yozilganda, Saddinisaxonim...

Fizikaning ketidan ona tilini ham tayyorlab bo'lgach, Saddinisa, bas endi, deb kitoblarni yig'ishtira boshladi.

— To'xta, yana birpas tayyorlaylik, — dedim qizishib.

— Dalaga o't tergani boraman, — gapimga quloq solmay dedi Saddinisa.

— Unda dalaga men ham boraman. Senga o't terishib boraman. Faqat yo'q dema, yo'q desang, ertaga dars tayyorlagani kelmayman...

O'sha kuni quyosh charaqlab turgan bo'lsa-da, havo uncha salqin ham, uncha issiq ham emas edi. Ariqlar bo'yidagi o'tlar sarg'ayib qolgan, daraxtlarning bargi to'kilib oyoqlar ostida shildiraydi, osmon shishaday tiniq olis-olislarda qushlar to'p-to'p bo'lib uchib, oppoq bulutlarni cho'qilab o'ynashadi. Suvi ozayib qolgan anhor bo'ylab dalaga boryapmiz, anhorning suvi shunaqangi tiniq, shunaqangi musaffoki, ostidagi qumlar, shisha siniqlari, yaltiroq toshlar bemalol ko'rinib turibdi.

— Saddinisa, ke, quvlashamiz! — dedim shu paytda negadir zavqim oshib...

Ertasiga oyim kundaligimdagi ikki to'rt bahoni ko'rib sekingina peshonamdan o'pdi-da:

— Dadasi, Hoshimjonga shim-kostyum olib bersangiz bo'larkan, qarang, shimi titilib ketibdi, bolam bechoraning, — deb qo'ydi.

Shunday qilib, men ham nihoyat yaxshi o'quvchilar qatoriga qo'shila boshlagan edimu, ammo... qurib ketmagur mana shu «ammo» tufayli doim ishlarim chappasiga aylanib ketaveradi... ammo bir voqea bo'ldi-yu... ha, mayli, qolganini ertaga aytib berarman.

#### IV b o b

#### AKROM BO'RI USHLABDI

**P**apkamni yelkamga osib, Saddinisalarnikiga dars tayyorlagani ketayottan edim. To'yib qatiqli go'ja esh ichganim uchun kayfim chog', ona tilidan o'tgan kishilik olmoshlarini o'zimcha kuyga solib, «men, sen, u; biz, siz, ular», deb ashula qilib borayotgan edim, chorrahada yigirma chog'li bola to'planganini ko'rib qoldim. Bolalar kimnidir o'rtaga olib, bir-birlariga gal bermay, nima to'g'risidadir chug'urlashib yotishibdi. Borib qarasam, o'rtaga olganlari Akrom ekan. Bechoraning ham oyog'i qon, ko'ylaklari uzilib ketgan, kiyim-boshi jiqqa ho'l. Simyog'ochga tizza barobar keladigan, tumshuqlari uzun, oriqqina bir kuchuk bolani bog'lab ko'yishibti.

— Kuchuk kimniki? — so'radim Zokirdan.

— Iye, sherik, senmisan? — dedi u negadir sevinib, — bu kuchuk emas, bo'rining bolasi.

— Yo'g'-e.

— Rost, katta odamlar ham ko'rib hayron qolishyapti.

— Kim ushlabdi uni?

— Akrom ushlabdi.

— Yo'g'-e, — dedim yana ishonmay.

— Nega ishonmaysan, bir soatcha bo'пти ushlaganiga.

— Tezroq gapirsang-chi, qanaqa qilib ushlading o'zi?— deb so'rab qoldi shu paytda yettinchi sinfda o'qiydigan bir ko'zi g'ilay Olim. Akrom ikki qo'lini biqiniga qo'yib to'planganlarga bir-bir qarab chiqdi-da:

— Maktabdan qaytib kelsam, — deya shoshmasdan gap boshladi, — oyim, «jon o'g'lim, dashtga borib piyozga suv tuzab kelgin, yakshanba kuni yulamiz, yo'q demagin, bir do'ppi yong'oq beraman», — deb qoldi. Mayli, deb ketmonni ko'tarib dashtga jo'nadim. Borib anhordan endi suv ochaman deb engashganimni bilaman, changalzor bilinar-bilinmas shitirlagandek bo'ldi. Boshimni ko'taraman desam, mana shu maxluq belimga tashlanib qolsa bo'ladimi.

— Juda bo'ladi-da, — deb qo'ydi Olim.

— Sen gapga aralashmay turgin-da, adashib ketaman, — jerkib berdi Akrom, — tashlandi-yu, remenim aralash orqamni tishlagandek bo'ldi... mana ko'ringlar, belimdagi tishning izini...

Akrom so'zlashdan to'xtab ko'ylagini ko'tardi. Chindan ham belining pastrog'idan qon tomchilab sizib turardi. Buni ko'rib bir xil bolalar hangu mang bo'lib qolishdi. Bir xillari xuddi bo'riga yolg'iz o'zi duch kelib qolgandek, qo'rqib, bir-ikki odim orqaga tisarilib ham olishdi. Akrom maqtanchoqlik bilan so'zida davom etdi:

— Olim, qani ayt-chi, sen bo'lganingda shu payt nima qilar eding?

— Menmi, men, — deb duduqlanib qoldi Olim.

— Ana, sen ikkilanyapsan, men bo'lsam, hech ikkilanmay, o'zimni anhorga tashladim. Bo'ri og'ziga, qulog'iga suv kirib, qochmoqchi bo'lgan edi, orqa oyog'idan tortib yiqitdim... bilasizlar-ku, ulardek itbozman. Uydagi itlarim bilan suvda olishaverib usta bo'lib ketganman... Yiqitdimu, kallasini suvga tiqib, turaverdim. Oyoqlari bilan tepinib, mana ko'ringlar ko'kraklarimni qonatib yubordi. O'shanda ham bo'sh kelmadim. Oxiri xushidan keta boshlagan edi, shartta mana bu qopga soldim-da, Cho'tivoy akaning uyiga qarab yugurdim. Cho'tivoy aka avvaliga:

— Qo'yib yubor, onasi hammamizni g'ajib tashlaydi! — deb turib oldi.

— Yo'q g'ajimaydi, — deb men ham turib oldim.

Oxiri qopdan chiqarib, og'ziga mana shu sim to'rni tutib, endi tezroq jo'nab qol bu yerdan, dedi. Hozir o'sha yoqdan kelyapman.

Akrom so'zlashdan to'xtab, to'planganlarga birma-bir qarab chiqdi. Ochig'ini aytsam, Akrom anovi kuni chaqimchilik qilgani uchun uni jinimdan battar yomon ko'rib qolgan edim. Darsdan kech qolib bildirmasdan sinfga kirib o'rnimga o'tirayotgan edim, Akrom:

— Vohid Soliyevich, domla pochchani qarang! — deb chaqimchilik qildi. Eng orqadagi partada arifmetikadan berilgan uy vazifalarini tekshirayotgan sinf rahbarimiz boshini ko'tarib:

— Domla pochchang kim? — deb so'radi.

— Kim bo'lardi, Hoshim-da.

— Hoshimjon, nega kechga qoldingiz? — so'radi Vohid Soliyevich.

— Suv ichgani o'tuvdim, — deb bahona qildim.

— Nega ruxsatsiz kirdingiz?

— Sizni butunlay ko'rmay qolibman, — deb yana bahona qildim. Bahona qilib, jazodan qutuldimu, ammo chaqimchilik qilgani uchun va meni «domla pochcha» deb chaqirib jig'imga tekkani uchun Akromni jinimdan battar yomon ko'rib qoldim. Tanaffusda hisob-kitobni to'g'rilab olmoqchi edim, yonginam-da turgan Saddinisa:

— Qo'ying, direktor eshitib qolsa, beshinchi sinfga tushirib yuboradi, — deb qo'limdan tortib koridorga olib chiqib ketdi.

Shu paytda bir o'zi bo'rining bolasi bilan yakkama-yakka olishgan bu bolani, ishonsangiz, jonu dilimdan yaxshi ko'rib qoldim. Yugurib borib peshonasidan o'pib olmoqchi ham bo'ldimu, ammo yoniga o'tishning hech iloji bo'lmadi...

Shunday qilib, Akrom so'zlashdan to'xtab, ko'rdila-

ringmi, men qanaqa bola ekanman, degandek atrofga alanglay boshladi.

— Qo'rqmadingmi-a? — so'radi Zokir ko'zlarini katta-katta ochib.

— Nimasidan qo'rqadi uni, — bo'ri bolasini mensimagandek qo'l siltab qo'ydi Akrom, — men katta bo'rini aldab ketganmanu, bu nima bo'пти uning oldida...

— Hecham-da, katta bo'rini aldab bo'larkanmi, — dedi Zokir Akromni ko'proq gapga solish, vahimali gaplardan yana ham ko'proq eshitish maqsadida.

— Aldaganman, ishonmasang, ana, Olimdan so'ra. To'g'rimi, Olim?

— To'g'ri, o'tgan yili qishda aldagan...

— Qanaqa qilib aldading-a? — sal orqasiga tisarilib so'radi Zokir. Shu paytda har qanday ishning bahridan o'tib Akromning hikoyasini tinglashga, gapning ochig'i, mening o'zim ham tayyor edim. Akrom ham tarang qilib o'tirmadi-da, ko'k bo'rini qanday qilib aldab ketganini gapira boshladi.

— Mayli, aytsam-ayta qolay... Piyozga suvni ochib qo'rganman. O'zi qonib ichaveradi... O'zlaring bilasizlar, biz soyning bo'yida turamiz, atrofimizda qo'ni-qo'shnilar yo'q... Bir kuni kechasi xolamnikidan qaytayotgan edim. Xolam o'sha kuni qo'y so'yib kallasho'rva qilgan edi. Murch sepilgan kalla go'shtiga rosa to'yib, adam bilan oyimga ham picha olib qaytayotgan edim. Atrof qop-qorong'i. Buning ustiga siyrak tuman ham tushgan. Qo'limda fonus, g'ing'illab ashula aytib kelyapman. Bir mahal yigirma metrcha oldinda bir narsa cho'nqayib menga qattiq tikilib turganini ko'rib qoldim, ko'zlari cho'g'dek yonyapti, tumshuqlari uzun, kalta quloqlari chimirilgan... «Bo'ri» deb o'yladimu, yuragim shig'etib ketdi. Nima qilish kerak? Olim, qani aytchi, o'shanda sen bo'lganingda nima qilgan bo'lar eding?

— Men, men... — d uduqlanib qoldi Olim.

— Ana, sen allaqachon qo'rqib ketding... men bo'lsam, o'zimni yo'qotmadim. Chunki, qo'lida chirog'i bor odamga



bo'ri yaqinlay olmaydi. Dodlaganim bilan baribir befoyda. Atrofdagi hech kim yo'q. Oldinga qarab yurishga yuragim dov bermadi. Ikki ko'zim bo'rida-yu, orqam bilan yurib, sekin-asta tisarila boshladim.

Ammo, bo'ring ham rosa ochiga uchragan ekanman, yursam yuradi, to'xtasam to'xtab tishlarini mana bunday qilib takillatadi... Tisarilib-tisarilib, bir yo'lni kesib o'tgan ariqqa borib qolibman, orqam bilan yiqilishimga oz qoldi. Ariqqa tushdim-da, fonusni uning chetiga o'rnatib yoniga boshimdagi charm telpagimni ham qo'ydim. Sekin mo'ralab qarasam bo'ring ikki ko'zi telpak bilan fonusda. «Seni aldab ketmasam, Akrom otimni boshqa qo'yaman», dedim-da, sekin ariqning ichidan emaklab jo'nab qoldim. Uyga borsam, dadam bilan oyim menga ilhaq bo'lib, uxlay olmay o'tirishgan ekan. Bo'lgan voqeani aytgan edim, dadam ichkari yudan qo'shotarni olib chiqdi-da:

— Qani, yur-chi! — deb qoldi. Oyimning dod-voyiga ham qaramay, men kelgan ariqning ichi bilan panalab borgan edik, bo'ri yo'q, fonus ham o'chib, ag'anab yotibdi. Telpagimning ustki qismi qora xromdan edi. Bo'ri tishlari bilan titkilab tashlabdi. Nazarimda aldangani uchun o'chini telpakdan olganga o'xshaydi.

Akrom so'zlashdan to'xtab, yana kimda savol bor degandek, to'planganlarning og'zini poylay boshladi. Ammo bu gal unga hech kim savol bermadi. Nega desangiz, hammaning diqqati bo'ring bolasida bo'lib qolgan edi. U bo'lsa, arqonni uzish uchun bor kuchli bilan intilar, og'zidan ko'piklar oqizib, boshini yerga urar, tishlarini ko'rsatib, irillar edi.

— Kontsert tamom... bo'richam sizlardan begonasirayapti, — dedi-da, borib bo'ring bolasini yechib, uyiga jo'nab qoldi. To'rt-besh bola orqasidan ergashgan edi, ularni urishib berdi: — Agar bittang orqamdan ergashadigan bo'lsang, bo'rini qo'yib yuboraman! — deb qo'rqitib ham qo'ydi. Men bo'lsam, xuddi sehrlangandek, uning orqasidan izma-iz boraverdim. — Sen nega kelyapsan, domla pochcha?

— so‘radi Akrom yurishdan to‘xtab. Yo mushtlashmoqchimisana?

— Bo‘rini yenggan bola bilan mushtlashib bo‘larmikan, — deb e‘tiroz bildirdim, — bari bir sen zo‘rsanda.

— Yo‘q, menga qara, ke, bir kuch sinashib ko‘raylik. Yettinchi sinfning bolalari Hoshim balo, unga yaqinlasha ko‘rma, ta‘ziringni berib qo‘yadi, deyishadi. O‘zimizning bolalar bo‘lsa sen Hoshimdan zo‘rsan, deyishadi. Ke, bir kuch sinashaylik.

— Hech ko‘nglim bo‘lmayapti-da.

— Nega endi?

Nega desang, men seni hozir jon-dilimdan yaxshi ko‘rib qoldim. O‘zing ayt-chi, qanday qilib men iyagingga mushtlay olaman.

— Bo‘lmasa, kurash tusha qolaylik, — taklif qildi Akrom.

— Bu boshqa gap, — deb men ham darrov ko‘na qoldim.

Xuddi shu paytda biz Akromlarning soy bo‘yidagi bog‘iga yetib qolgan edik. Hovliga kirib, urinaverganidan og‘zidan oppoq ko‘piklar oqayotgan bo‘ri bolasini o‘rikka bog‘ladikda, kurashga tushib ketdik. Kurashga tushayotganimizda bo‘rini yenggan shu bolaga yiqilib berib, bir xursand qilay, degan niyatim bor edi. Ammo, qizishib ketib, yerga chalpak qilib urganimni o‘zim ham bilmay qolibman.

— Darrov yiqitmagin-da, — deb qo‘ydi Akrom o‘rnidan turayotib.

— Boshqatdan tushamizmi?

— Bo‘lmasam-chi.

Yana olisha boshladik. Akrom belimni buka olmagach, asta qo‘lini oldi-da:

— Bo‘ri bilan olishaverib, kuchim tamom bo‘lib qolganga o‘xshaydi, — deb qo‘ydi, — sen bilan ertaga kurash tushaman.

**BO'RINING BOLASINI ARAVACHAGA QO'SHMOQCHI  
BO'LGANIMIZ**

— **E**ndi buni nima qilasan? — deb so'radim bir oz dam olgach.

— Rostini aytsam, o'zim ham bilmay turibman.

— Sen hech sirkda bo'lganmisan?

— Haligi... ot o'yinini aytasanmi?

— Yo'q, sirk boshqacharoq bo'ladi.

— Teatrmi?

— Yo'q butunlay boshqacha.

— Bo'lmasa men unaqa kinoni ko'rmagan ekanman... nima edi? — deb so'rab qoldi Akrom.

— Bilasanmi, men sayohatda yurganimda, — dedim-da, shu paytda ishonsangiz orzularga shunaqangi berilib ketdimki, asti qo'yaverasiz. Agar biz mana shu bo'ri bolani kuchuk bola bilan yonma-yon aravachaga qo'shishni mashq qilsak, aravachaning ustiga quyonga o'xshash biror beozor hayvonni o'tkazib, unga aravakashlikni o'rgatsak va bu sirkni biz «Hayvonlar do'stligi» nomli sirk deb atasak, qani aytgin-chi, qaysi bola buni havas qilmaydi, ko'rganda qaysi bolaning og'zi ochilib qolmaydi. Avval maktabimizda tomoshalar ko'rsatamiz kanikulda qishloqma-qishloq yurib san'atimizni boshqalarga ham namoyish qilamiz... oxiri bora-bora sirk artistlari bo'lib qolishimiz hech gap emas. Bu yoqda men qiziqchilik qilib odamlarni kuldirib turaman, u yoqda Akrom polvon bo'rini o'ynatib turadi. Ammo o'qishni hecham tashlamaymiz. Bir mahal bunday qarasam, Akrom og'zi ochilib angrayib qolibdi.

— Qalay? — deb so'radim gapni tugatib.

— Juda mazaku-a! — dedi Akrom kaftlarini bir-biriga ishqab.

— Mazalikka maza-yu, ammo qiyinchiligi ham bor-da.

— Men qiyinchilikdan qo'rqmayman.

— Bo'lmasa, ishni boshlaymiz.

— Nimadan boshlaymiz?

— Avvalo aravacha yasashimiz kerak... bir yonida it, bir yonida bo'ri bo'ladi. Aravaning ustiga quyonxonni o'tkazib qo'yamiz.

Akromning dadasi mol doktori bo'lib ishlagani uchunmi, hovlilarida katta-kichik itlar, oq-ko'k rangdagi quyonlar, qafaslarga solinib daraxtlarga ilib qo'yilgan sayroqi qushlar juda ko'p edi. Dadasi shahardagi katta institutda sirtidan o'qir ekan. Imtihon topshirish uchun bundan uch kun avval o'sha yoqqa ketibdi. Oyisi — Inobat opam hozir ishda. Bo'rini o'rgatish uchun bunaqangi qulay sharoit hech joyda bo'lmaydi. Dadasining eski velosipedi bor ekan o'shani buzib, g'ildiraklarini oldikda, qo'pol, xunuk bo'lsa ham ikkita ot qo'shiladigan pirgon aravaga o'xshatib, aravacha yasay boshladik.

Aravachani sudraydigan shotisigacha tayyorlab qo'ydingu, ammo uni qanday qilib birlashtirishni, ochig'ini aytsam, ikkovimiz ham bilmas ekanmiz.

— Xo'sh, endi nima qildik? — so'radi Akrom.

— Avval g'ildirakka o'qni o'tkazamiz, — dedim men bilag'onlik qilib g'ildirakka o'qni o'tkazgan edik, u ikkilanmay, g'ildirakni sudray boshladi. Akrom menga qaradi, men unga qaradim. Ikkovimiz ham yelkamizni qisganimizcha bir nafas jim qoldik.

— Topdim, — dedi nihoyat Akrom sevinib, — o'qning g'ildirak aylanadigan joyini yo'nib, ingichkaroq qilamizda aftol bilan moylab qo'yamiz.

— Aqlingga qoyil! Ke, peshonangdan bir o'pib qo'yay, — deb yubordim sevinganimdan.

Akrom aytganidek qilgan edik, g'ildiraklar o'q atrofida ravongina aylana boshladi. O'sha kuni Akrom oyisi ishdan qaytgunga qadar arava deb atash mumkin bo'lmasa ham, har qalay, shotisidan tortsa g'ildiraydigan bir narsa yasadikda, aravachaning shoti bilan tutashadigan joyiga esa kichikroq, bir yashikni mixlab qo'ya qoldik — bu aravakash

quyonboy o'tiradigan joy edi. Xuddi shu paytda, ya'ni biz o'zimiz yasagan aravachani sinovdan o'tkazish uchun hovlida u yoqdan-bu yoqqa sudrab ko'rayotgan bir paytimizda Akromlarning ko'cha eshigi taqillab qoldi.

— Oyim! — dedi Akrom rangi quti o'chib, — darrov aravachani og'ilxonaga olib kir. Tez bo'l! Undan keyin ayvonga borib, kitoblarni ochib o'tir. Tez-tez qimirlasang-chi!

Shu paytda eshik yana taqillab qoldi.

— Hozir... — shunday deb do'stim ko'cha eshik tomon yugurdi. U to eshikni imillab ochib, oyisi bilan boshlashib kirguncha men uning topshirig'ini bajarib, kitoblarni ochishga ulgurgan edim. Inobat opam Akrom bo'ringning bolasini ushlaganini eshitib, yuragi vahm olib, ishdan ertaroq qaytibdi.

— Xayriyat, o'zing salomat ekansan, — dedi Inobat opa ko'ngli joyiga tushib, — qani, bo'ringni menga ko'rsat-chi... Voy, juda kichkina-ku?

— Hechqisi yo'q, o'zim katta qilib olaman.

— Yaxshisi, uni darrov qo'yib yubor, onasi izlab kelib hammamizni nobud qiladi, — dedi Inobat onam tashvishlanib.

— Qo'rqmang, — dedi Akrom kerilib, — men bor ekanman, bu uyga bo'ri yaqin kelolmaydi.

Xuddi shu paytda Inobat opam ayvonga ko'z tashlab, meni ko'rib qoldi. Men bo'lsam jo'rttaga ovozimni chiqarib astoydilroq o'qiy boshladim.

— Bu yigitcha kim?

— Hoshim, Ro'zivo'y akaning o'g'li, birga o'qiymiz, — tushuntirdi do'stim. Men asta o'rnimdan turib, odob bilan salom berdim.

— Assalomu alaykum, kelinoyi, hormang!

— Bor bo'ling, barakalla.

— Kelinoyi, biz Akromjon bilan dars tayyorlab o'tiribmiz, — dedim og'ilxona tomonga ko'z qirim tashlab. Nega desangiz, og'ilxonaning eshigidan aravacha bemalol ko'rinib turgan edi-da.

— Oyi, endi Hoshimjon bilan har kuni dars tayyorlamochimiz, maylimi? — erkalanib Akrom.

— Lekin o'yinga berilib ketmaysizlarmi?

— Yo'q, — dedik Akrom ikkimiz baravariga, — biz o'yinni yomon ko'ramiz, o'ynasak, darsimiz qolib ketadiku!

Shundan so'ng bo'rining bolasini og'ilxonaga olib kirib, kattaroq qafas bor ekan, ana o'shanga kiritdik-da, oldiga bir parcha xom go'sht tashlab, eshigining ustidan zanjirini solib qo'ydik.

Ertasiga, yashirmay qo'ya qolay, ikkovimiz ham darsda o'tirolmay oxirgi soatdan quyon bo'lishga qaror qildik. Kelsak, bo'rining bolasi qafasdan chiqib ketish uchun urinaverib, charchab uxlab qolgan ekan. Bizni sezib uyg'ondi-yu kurak tishlarini ko'rsatib, irillab qo'ydi.

— Shoshmay tur, toychog'im, hozir seni aravachaga qo'shamiz! — sekin dumidan tortib qo'ydi Akrom.

U hadeb tishlashga urinavergani uchun og'ziga kecha Cho'tivoy akaning uyidan tutib kelgan sim to'rni yana tutib, arava shotisining bir tomoniga bog'ladik-da, ikkinchi tomoniga Akromning laychasini bog'lashga harakat qildik. Ammo har qancha urinsak ham bari bir foydasi bo'lmadi — bo'riga ko'zi tushishi bilan laycha dumini qisib, orqaga tisarilaverdi.

— Ko'zini boylaymiz, — taklif qildim men, — ko'zini boylasak bo'rini ko'rmaydi.

— Bari bir hidini bilib turadi-ku, — e'tiroz bildirdi Akrom, — it bo'rining hidini yetti chaqirimdan ham biladi, deyishadi.

— Bordi-yu, burniga paxta tiqib qo'ysak-chi?

— Unda dami qaytib o'lib qoladi.

Xuddi shu paytda juda qiziq bir voqea yuz berdi, aravachaning shotisiga omonatgina bog'langan bo'ri bir hamla bilan chilvirni uzdi-da, Akromning qo'lida qo'rqqanidan junlarini hurpaytirib, dir-dir qaltirab turgan laychaga jahl bilan tashlanib qoldi.

— Qo'yib yubor, bir urishib olsin, — dedim.

Bo'ringing bolasi bir nafasda laychani piypalab tashladi. Laycha uning tagidan chiqishga harakat qilib, oyoqlarini tipirlatar, ingrar, xuddi bizni yordamga chaqirayotganday bo'lar edi. Bo'ri bo'lsa, butun gavdasi bilan uni bosim sim to'r tutilgan tumshug'ini bo'g'ziga qo'yib olgan Laycha bir amallab uning ostidan chiqdi-da qochishga tushdi. Bo'ri negadir uni quvlamadi. Aksincha, o'zi ham hovlining boshqa tomoniga qarab yugura ketdi...

Ikkovini ushlab aravachaga qo'shgunimizcha naq, yarim soat ovora bo'ldik. Nihoyat, ularning boshini eski to'n bilan o'rab:

— Qani endi bir yetakla-chi, — dedim Akromga. Ammo bari bir yana natija chiqmadi. Ikkovi ham oyog'ini tirab turgandan turib oldi. Ularni yonma-yon yurgizish aravachani sudrashga o'rgatish uchun nima qilish kerakligi haqida yana bosh qotira boshladik.

— Yolg'iz-yolg'iz qo'shib ko'raylik-chi, dedim oxiri nima deyishimni bilmay.

Aqlliroq deb hisoblaganimiz uchun, avval laychanning bir o'zini aravachaga qo'shdik. Ammo, u ojizlik qilib aravachani hatto joyidan ham qo'zg'ata olmadi. Shunda yana bir aqlli tadbir hayolimga keldi-yu, sevinib ketdim. Ya'ni Akromni ham aravachadagi kuchukning yoniga qo'shishga to'g'ri kelardi. Bu fikrni unga aytgan edim, darrov ko'na qoldi. Laycha ikkovlari aravachani hovlining u boshidan-bu boshiga sudray boshlashdi. Faqat tezroq haydashning hech iloji yo'q edi, nega desangiz, Akrom emaklab borardi.

— Bo'ldi, tizzalarimning ko'zi og'rib ketdi... — dedi u ikki marta borib kelgandan keyin.

Ikkovlarini aravachadan chiqarib, o'rniga bo'ri bilan men tushdim. Ammo bo'ringing bolasidan ahmoq hayvon bo'lmas ekan yo chapga qarab tashlab qoladi, yo kutilmaganda orqaga tisariladi, ba'zan oldinga shunaqangi tezlik bilan yuguradiki, hech yetolmayman. Ikki marta aravachani ag'darib yubordik.

— Sen chiq endi, ikkovini yana qo‘shib ko‘raylik-chi, — toqati toq bo‘lib dedi Akrom.

— To‘xta, tumshug‘iga bir tepay! — dedim o‘rnimdan turib. Bo‘ri bilan laychani aravachaga qo‘shib ikkovimiz ikki yonidan yetaklab bordik. Ikkovimizning qo‘limizda ham kaltak, laycha qochmoqchi bo‘lib tipirchilasa, Akrom savalab qoladi, bo‘ri irillagudek bo‘lsa, tumshug‘iga men tushiraman. Kechga tomon ikkala hayvon ham charchab, holdan toyib yiqilgudek bo‘lib qoldi-yu, ammo bari bir aravachada yurishga ko‘nmadi.

— Men endi ertaga kelmayman, — dedim nihoyat xafsalam pir bo‘lib.

— Nega endi? — qo‘rqib ketdi do‘stim.

— Zerikib ketdim.

— Hecham-da, ishning qizig‘i endi chiqadi. Biz hali «Hayvonlar do‘stligi» sirkini maktabga ham olib borib ko‘rsatamiz. Bir bolalarning havasini keltirsakmi...

Ertalab endi maktabga jo‘naymiz deb Dono, Oysha uchovimiz taraddud ko‘rayotgan edik, kutilmaganda Akrom kirib keldi.

— Qulog‘ingga bir gap aytmoqchiman, — dedi shivirlab.

— Ayt-chi?

— Birinchi soatga bormaymiz... Nemis tiliga bording nima-yu, bormading nima, baribir emasmi?!

Akromning gapida ham jon bor — yangi kelgan nemis tili o‘qituvchimiz hech yo‘qlama o‘qimaydi, kim keldi, kim kelmadi, surishtirmaydi ham. Buning ustiga hech kimga yomon baho qo‘ymaydigan ajoyib bir odati bor ekan. Faqat uy vazifasini bajarib kelgan o‘quvchilardan so‘raydi, xolos. Shunday bo‘lgandan keyin, bir soat-yarim soat progul qilsak hech narsa qilmas, deb o‘yladim-da:

— To‘g‘ri aytasan, — deb do‘stim bilan yetaklashib ko‘chaga chiqdik. O‘sha kuni kechasi bilan yaxshi uxlamay, ajoyib bir reja tuzgan edim. Akromga aytsam, sevinganidan qichqirib:

— Aqlingga qoyil! — deb yelkamga urib qo‘ydi.



— O'sha soatdan boshlab it bilan bo'riga oz-ozdan go'sht berib, shu ovqat bahonasida ularni ishga o'rgatmoqchi bo'ldim. Laychani aravachaga qo'shib hovlining narigi burchagiga yetaklab boramiz-da, oldiga bir parcha go'sht tashlaymiz. Buni och-nahor yotgan bo'ri bolasining ko'z o'ngida qilamiz, ishtahasini qo'zg'ab, og'zidan so'lakaylarini oqizib yuboramiz. «Ko'rding-mi, ishtasang ovqat yeysan, ishtamasang tumshug'ingga tepki yeysan...» degandek bo'lamiz. Bu ishni to'rt-besh bor takrorlagan edik, bo'ringing bolasi kulrang ko'zlarini mo'tlilatib, uzun tishlarini taqillatib, tipirchilab qoldi. Ana shundan so'ng uni ham aravaga qo'shdik. Nihoyat, bir oz murosaga ko'ngandek bo'ldi. Men bilan yonma-yon yurib, uch marotaba aravachani sudrab bordi.

— Endi ikkovini teng qo'shamiz, — taklif qildi Akrom.

O'sha kuni ikki hayvon bizning ko'magimizda aravachani sudrab hovlini to'rt-besh marta aylanib chiqishdi. Oh, o'shanda bizni ya'ni bo'lajak sirkning artistlari bo'lmish Akrom bilan mening quvonganimizni aytsangiz. Xuddi rosmana sahnada o'yin ko'rsatayotgan bir-birlarimizni quchoqlab, yelkalarimizni siqib tabriklashdik...

...Maktabga borish butunlay yodimizdan ko'tarilib ketibdi. Ertasiga ham, indinisiga ham negadir maktabga borgimiz kelmadi. Hayvonlarga har xil o'yinlarni o'rgatishga juda berilib ketdik. Bir haftada deganda laycha bilan bo'ringing bolasi aravachani mustaqil o'zlari sudrab yuradigan bo'lishdi...

Akrom ikkimiz sirk artistlarinikiga o'xshatib paxta qoplaydigan kanor qopdan ko'ylak, keng ishton tikdik-da, artistlarinikiga o'xshab olachipor bo'lsin uchun siyoh bilan har joyini bo'yab ham qo'ydik. Men qiziqchilik rolini bajarishim kerak edi. Qog'ozdan qubbali qalpoq yasab, uni ham olachipor qilib bo'yab oldim. Yuzimning bir tomoniga un, bir tomoniga siyoh surtdim.

— Qalay? — so'radim do'stimdan.

— Rostini aytsam, seni hech tanib bo'lmaydi, — dedi Akrom.

— Tanimaganing yaxshi bo'пти. Tanisang, mening artistligim qayoqda qolardi... Hech kim tanimasa, o'shanda qiziq bo'ladi.

Ana shundan so'ng ikki hayvonni aftu angorimizga, ustimizdagi ola-bula kiyimlarga ko'niktirish uchun mashqlarni qaytadan boshlab yubormoqchi bo'ldik.

— Iye, bo'ri qani? — deb qoldi Akrom to'satdan hushyor tortib. Bo'ringing bolasini hovlidagi o'rikka bog'lab qo'ygan edik. Arqonni uzib, xayr-ma'zurni nasiya qilib juftakni rostlab qolibdi. Bog'ning eshiga ochiq, o'sha tomonga qochgan bo'lsa kerak, deb boqqa chiqdik, qaramagan joyimiz qolmadi. Hech joyda yo'q!

— Tamom! — yig'lagudek bo'lib dedi Akrom, — mana, izni ko'rgin, devorga sapchib chiqa olmagandan so'ng mana bu ariq, bilan yurib obchindan o'tib ketibdi.

Devordan o'tib paxtazorlarning ichini-yu, soy bo'yidagi changalzorlarni birma-bir titkiladik — bari bir izini ham topa olmadik.

— Xafa bo'lma, quyon go'shti yegisi kelsa, o'zi qaytib keladi, — ko'nglini ko'tardim Akromning.

Hech narsaga qo'limiz bormay qoldi. It bilan quyonni aravachaga qo'shishning esa hech qizig'i yo'q edi, sekingina uyga jo'nadim.

Ko'cha eshigimizdan shundoq qadam bosishimni bilaman, hovlidagi katta so'rida dadam, sinf rahbarimiz Vohid Soliyevich, meni jinidan battar yomon ko'radigan vojatiyimiz Zokirjon aka uchovlari choyxo'rlik qilib o'tirishganini ko'rib qoldim. Orqaga qaytishimni ham, to'ppa-to'g'ri bostirib boraverishimni ham bilmasdim. Orqaga qaytay desam, meni allaqachon ko'rib bo'lishgan, boraveray desam, bir haftadan buyon maktabga bormay, maktabga bordim darsdan so'ng Akromlarnikida dars tayyorlab rosa charchadim, deb uyimizdagilarni ishontirib yurgan edim.

Oldilariga dadil boraverishga qaror qildim. Yaqinlashgan sari uchovlari ham baravar o'rinlaridan turib, bir-birlariga

qarab yelka qisishib, orqalariga tisarilaverishdi. Negadir, uchovlarining ham kayfi uchganroq ko'rinadi.

— Assalomu alaykum, Vohid Soliyevich, — deb salom berdim odob bilan.

— Iye, Hoshim, bu senmisan? — deb so'radi dadam.

— Menman, nima? Ovozim o'xshamayaptimi, dada?

— Ovozing-ku o'xshayapti-ku, lekin afting xuddi alvastining o'zi.

Turgan joyimda qotib qoldim. Alvasti degan so'zni eshitganim uchun emas, yo'q, yo'q, unday deb o'ylamang. Sharmanda bo'lganim uchun qotib qoldim. Hali Akromlarning uyida sirk qiziqchilariga o'xshab o'zinga pardozi berganimni bo'rini axtarish bahonasida paqqos esimdan chiqarib yuborgan ekanman. Hatto boshimdagi qubbali qog'oz qalpog'imni olishni ham unutibman...

— Bor, yuvinib chiq, — dedi dadam, keyin gaplashamiz degandek bir ohangda.

## VI bob

### MENING HAM DO'STLARIM BOR

**Y**uvinaman deb ko'ylagimni yechgan edim, o'ng qo'lim qo'ltig'imning tagi aralash tirsillab shishib ketganini ko'rdim. Anovi kuni bo'rining bolasini ovqatlantirayotganimda uch-to'rt bor qattiq-qattiq tishlagan edi. Mashg'ulotga berilib ketib, qo'lim gazak olib shishib ketganini ham sezmay qolibman. Shu paytda qattiq og'riyotganini, badanimda isitmam ham borligini payqab qoldim. Shunday bo'lsa ham mehmonlarning oldiga chiqdim.

— Ha, barakalla, mana endi o'zingizga keldingiz, — dedi Vohid Soliyevich, — qani, beriroq, o'tiring-chi, shu kelishda qayoqdan kelyapsiz?

— Menmi? — dedimu, u yog'iga duduqlanib qoldim.

— Keyingi kunlarda maktabga qadamranjida qilmay qo'ydilar? — kesatib so'radi vojatiyimiz.

— Maktabgami? — deb soʻradim men ham.

— Ha, maktabga! — oʻshqirib berdi dadam.

Qarasam, ish sal chatoqroqqa oʻxshaydi. Uchovlari bekorga toʻplanishmagan, nima qilish kerakligini avvaldan kelishib olishgan boʻlsa ham ajab emas.

— Kasalman, — dedim yigʻlamsirab, — mana ishonmasalaring qoʻlimni koʻringlar, shishib ketgan, mana.

Koʻylagimni yechib bilagimni koʻrsatgan edim hammalari bir-birlariga qarab qolishdi.

— Nimadan shishdi? — mehribonlik bilan soʻradi Vohid Soliyevich. Uning chindan ham achinib soʻrayotganligi shundoqqina gap ohangidan sezilib turardi. Shunday bir odamni, muallimlar ichida birinchi boʻlib «sendan yaxshi yigit chiqadi», deb koʻnglimni koʻtargan, kunora darslarimni surishtirib turgan, mana bugun qimmatli vaqtini sarflab, mendan xabar olgani kelgan bir kimsani hech aldagim kelmasdi.

— Boʻrining bolasi tishlab oldi... — dedim sekin boshimni koʻtarib. Keyin boʻlgan voqeani ipidan-ignasigacha gapirib berdim.

— Esizgina, qochmaganda biz undan biror gap chiqarardik, — deb afsuslandi Vohid Soliyevich, — menda hayvonlarni qoʻlga oʻrgatishda nom chiqargan mashhur bir odamning kitobi bor, ana oʻsha yerda hamma narsa yozilgan.

Shu paytda ishni yashirincha olib borganimiz, boshidayoq hamma gapni Vohid Soliyevichga aytmaganimiz uchun afsuslandim, alamimdan sochlarimni yulgudek boʻldim.

— Tentak, — dedi dadam achchigʻi chiqib, — mana shunaqa bemaʼni ishlarning ketidan quvib, boʻying terakdek boʻlsa ham oʻqishni bitira olmay yurasan... Nega maktabga bormading?

Nima deyishimni bilmasdim.

Xufton mahaligacha uchovlari gaplashib oʻtirishdi. Buvijonim darrov palovga unnab ketdi. Men choy-poy tashib xizmat qilib turdim. Oysha bilan Dono boʻlsa bizni odobli bolalar deb atashsin, deb joʻrttaga derazaning

ro'parasiga o'tirib dars tayyorlashardi. Vazifa ishlashyaptimi yoki yaxshi gaplardan benasib qolmaylik, deb quloqlarini dikkaytirib gap poylashyaptimi, bilib bo'lmasdi. Mehmonlar direktorimizning uch yashar novvosi kunjaraga bo'kib o'lib qolgani, sinfimizdagi Saddinisa, Hamroqul eng a'lochi bolalar ekanligi, bu yilgi paxta har yilgidan ham mo'l bo'lganligi to'g'risida so'zlashib o'tirishardi. Gap a'lochi bolalar haqida yetganda dadam meni eshitsin deb, jo'rttaga baland ovoz bilan qayta-qayta so'radi:

— Bu Saddinisa yaxshi o'qiydimi-a?

— Bugun o'tiladigan darsni bir hafta avval o'qib qo'ygan bo'ladi, — tushuntirdi Vohid Soliyevich.

— Qiz bola-ya?

— Qiz bo'lsa ham balo!

— Anu kinnachining o'g'li-chi?

Mirobiddinxo'ja bahona bo'ldi-yu, eski urf-odatlar, kinna solish odamni aldash ekanligi, nihoyat, meni «Yong'oq qori»ga shogirdlikka berib ko'p xato ish qilishganligi to'g'risida gapga tushib ketishdi.

— Hoshim, mehmonlarning qo'liga suv quy, — deb qoldi shu paytda buvijonim.

Oshdan so'ng mehmonlar o'rinlaridan turishdi. Ular o'zi nega kelishdi, axir faqat ovqat yeb ketgani kelmagandir, meni maktabga bormayotganligim uchun nega savol-javobga tutishmadi... Jimgina qaytib ketganlaridan ko'ra ikki og'iz urishib koyishganda ancha yengil tortgan bo'lardim-ku!

— Vohid Soliyevich, nega meni urishmaysiz? — deb so'radim oxiri toqat qilolmay.

— Nima deb urishay?

— Axir progul qildim-ku?

— Progul qilganingiz uchun afsuslanayotganingizni bilib turibman... yo afsuslanmayapsizmi?

— Endi hecham progul qilmayman.

— Mana bu gapingiz uncha to'g'ri emas, bundam keyin qo'lingizdan kelmagan ishga hecham va'da bermang.

— Progulsiz o‘qish qo‘limdan kelmaydimi?

— Ehtimol kelar. Lekin Siz, baribir, va‘dangizni unutib qo‘yasiz.

— Xo‘p bo‘lmasa, mana dadam, oyim, buvijonim, hammalarining oldida tantanali va‘da berib aytamanki...

— Qo‘ying, bunaqangi tantanali va‘dalarangizni...— Vohid Soliyevich biz bilan xayrlashib chiqib ketdi. Alam qilganimdan yig‘lab yuboray dedim. Endi, maktabimizda menga ishonadigan birdan-bir odam ham qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga artadigan bo‘lsa... yo‘q, bunga toqat qilolmayman.

— Nega simyog‘ochdek qotib qolding? Ke endi bu yoqqa! — deb chaqirib qoldi oyim.

— Mazam bo‘lmay ketyapti, — dedim negadir o‘kchigim kelib. Oyim peshonamga qo‘lini qo‘yib:

— Dadasi, Hoshimingizning isitmasi bor! — vahimali bir ohangda. Qo‘ltig‘imning tagiga muzdekkina termometr qo‘yishgan edi, haroratim 39 ekan. Isitmam juda tezlik bilan ko‘tarilib borayotganini, suyaklarim zirqirab, boshim aylanayotganini sezib turardim. Dadam eri armiyaga ketgan hamshira Sobira opani aytib kelganini, kastyulkaga o‘xshash idishda har bittasi mol bog‘lanadigan qoziqdek-qozoqdek keladigan shprintsarlarni sharaqa-shuruq, qilib qaynatayotganlarini sal-pal bilaman. Keyin isitmam 40 dan oshib, butunlay hushdan ketib qolibman.

Bir mahal ko‘zimni ochsam, uyda yolg‘iz o‘zim yotibman. Hurmatimni joyiga qo‘yib oppoq choyshabu atlasu ko‘rpalarga o‘rab qo‘yishibdi. Tashqarida quturgan bo‘ridek uvillab shamol esyapti. Shamol derazalarning oynasiga cho‘p-xaslarni, qumtuproqlarni keltirib zarb bilan uradi, daraxtlarning boshini yerga tekkudek-tekkudek qilib egib qochadi. Hu naridagi tollar faryod qilib to‘lg‘anadi, shohlarini bir-biriga ishqab, g‘iyt-g‘iyt qilib yig‘laydi... Bosh tomonimda, ko‘zidan miltillab yosh oqib oyim o‘tiribdi.

— Suv! — dedim sekingina.

— Voy, toylog'im, ko'zingni ochdingmi? — shunday deb oyim engashib peshonamdan o'pdi-da,— hoy dadasi,— deb chaqira boshladi. — Hoshimjon ko'zini ochdi.

Xonaga dadam, ketidan hu birda singlim Donoxonning qornini yorib, ko'richagini olib tashlagan o'sha doktor amaki kirib kelishdi.

— Aytmadimmi, isitmasi tushsa ko'zini ochadi, deb. Obbo azamat-ey, — dedi-da, doktor amaki peshonamga qo'lini qo'ydi, — qalay, bosh og'rimayaptimi?

— Sal-pal...

— Hechqisi yo'q, kechga borib, bosh og'riq ham qoladi. Ertaga o'rningizdan ham turib ketasiz... indinisiga bemalol bo'ri oviga borishingiz mumkin.

— Dadasi, Hoshimjoningiz o'ziga kelganini sinf rahbariga xabar qilaylik. Bechora kechadan bo'yon adoyi tamom bo'ldi, — deb gapga aralashdi oyim.

— Vohid Soliyevich ham bildilarmi, oyi?

— Uch marta keldi-ya... muncha endi seni yaxshi ko'rmasa!

— Men o'zi yaxshi bolaman-da, oyijon, — deb hazillashgim kelib.

Doktor amaki dadam bilan oyimga har uch soatda kiyimni yechib, tish botgan joyni avval margantsovka bilan yuvib, ketidan mana bu doridan surtib qo'yasiz deb tayinladi-da, xayrlashib chiqib ketdi. Shamol zo'raygandan zo'rayib, xiyol o'tmay, qor ham uchqunlay boshladi.

Hozirgina maktabdan qaytgan Oysha:

— Aka, akajon! — deb oyog'imdan tortqilay boshladi.

— Nima deysan?

— Uyg'oqmisiz?

— Uxloqman.

— Ho, aldayapsiz. Ko'zingizni bittasi ochiq-ku.

— Tush ko'ryapman-da, o'shaning uchun bittasini ochib yotibman, — deb qo'ydim.

— Aka, Sizni ko'rgani sinfingizdagi o'rtoqlaringiz kelishar ekan.

— Mening nimamni ko'rishar ekan?

— Tuzalib qolganingizni so'rashsa kerak-da...

Oysha gapini tugatolmadi. Nega desangiz, xuddi shu paytda eshik tomondan dapir-dupur oyoq tovushi, bolalarning sen kir, sen kir, deb pichirlashayotgani eshitilib qoldi. Men yotgan xonaning eshigini ochishdi-yu, ammo o'shandan keyin ham, sen boshla, sen boshla, deb besh minutcha tarang qilib turishdi. Nihoyat, ostonada kulimsiragancha Hamroqul ko'rindi.

— Tuzukmisan, sherik? — dedi u negadir kulib yuborgudek bo'lib.

— Xayriyat, tuzalib qolibsana, — deb orqasidan Mirobiddinxo'ja mo'raladi. Shundan keyin bolalar uyga yopirilib kirishdi. Bir dasta sovuq urgan gul, popukli qand, o'n dona olma olib kelishibdi. Uni tokchaga qo'yib, biri qo'limni, biri peshonamni ushlab har tomondan har xil savollar yog'dira ketishdi. Vohid Soliyevich shoshilib kirib keldi-da, «yo'q, yo'q, kasal ko'rish bunaqa bo'lmaydi», deb hammalarini o'tirishga taklif qildi.

Negadir yuragim xapqirib, ich-ichimdan yig'i kela boshladi. Yashirmay qo'ya qolay, shu kungacha bu sinfga tushib qolganim uchun kishi bilmas xafa edim. Nazarimda bolalarning hammasi ham menga begonadek, biri maqtanchoq biri qo'rqqoqdek bo'lib ko'ringan edi. Sinfga kirsam, xuddi qafasga tushgandek betoqat bo'lib qolardim... Ular bo'lsa men dard bilan olishayotganda ahvol so'ragani, ko'nglimni ko'targani kelishibdi. Demak, yomon bolalar emas ekan demak, o'zim yomon ekanman-da. «Rahmat, hammalaringga rahmat...» deb o'ylardim o'zimcha.

— Isitmang qoldimi? — so'radi orqa partada o'tirib, qizlarning sochini bir-biriga bog'lab qo'yadigan Abdusamat.

— Rahmat, tuzalib qoldim.

— Qori pochcha, o'zingga o'zing bir dam solib olmabsanda, — dedi G'iyos. Bolalar gur etib kulib yuborishdi.

Orqamdagi partada o'tiradigan Shohida hijolat bo'lganimni sezib qoldi shekilli:



— Ho'kiz minaman deb, boshini yorib olgan odamning gapini qarang, — deb qo'ydi. Bolalar yana sharaqlab kulib yuborishgan edi. G'iyos o'rnidan turib, o'zini oqlay boshladi:

— O'sha ho'kiz juda baland ekan, ustiga shoti qo'yib chiqaman desam, yurib ketdi. Shoti bilan shaloplab yerga yiqildim-da.

Hammadan ham oyim bechora o'zida yo'q xursand edi, o'zini qo'yarga joy topolmay:

— Voy xudoyim-ey, mening o'g'limni ham orqasidan yo'qlab keladigan o'rtoqlari bor ekan, — deb goh uyga kirar, goh eshikka chiqar, nima qilayotganini o'zi ham bilmay choyqutini qo'lga ushlab olib, Oyshadan, «qurib ketmagur, choyqutini ko'rmadingmi», deb so'rar edi. Bolalar turamiz, deb qo'zg'alishgan edi, oyim «bir piyoladan qaynoq-qaynoq choy ichirmaguncha hech yo'qqa qo'ymayman», deb yo'llarini to'sib turib oldi. Keyin hammalarini mehmon qila boshladi. Oldilariga shkafda qulfloqlik turadigan shokoladlardan, mevalardan qo'yib tashladi. Bolalar qorong'i tushay degandagina o'rnilaridan turishdi.

— Hoshimjon, tezroq tuzaling, sinfimiz sizsiz huvillab qoldi, — dedi Vohid Soliyevich.

— Yo'q, hecham tuzalmayman, — dedim betimga ko'rpani tortib.

— Iye, nega tuzalmaysiz?

— Hammasi meni doim «domla pochcha» — deb chaqirishadi. Ana shu odatlarini tashlamaguncha tuzalmayman, cho'zilib yotaveraman.

Bolalar hazillashayotganimni payqab, kulib yuborishdi.

— Bugundan e'tiboran hech kim Hoshimjonni «domla pochcha» deb chaqirmasin. Kelishdikmi, bolalar? — dedi Vohid Soliyevich.

— Kelishdik, — umumiy xor bo'lib takrorlashdi o'rtoqlarim.

— Men ham bugundan e'tiboran tuzaldim bo'lmasa, — deb sekin betimni ochdim.

Hammalari chiqib ketishgach, ancha mahalgacha oyim peshonamni silab o'tirdi. Entikdi, keyin yig'lam'siragandek.

— Biram ajoyib bolalar ekanki, — deb qo'ydi — biri biridan quvnoq-a.

— Shular bilan o'qiyman deb ataylab sinfda qolgan edimda, oyijon.

— Anovi, o'rtog'ing bor edi-ku, oti nima edi bo'ring bolasidan ushlagan-chi?

— Akrommi?

— Ha, o'sha. O'shaning ham kecha derazaning yonidan ketmadi. Ichkari kir desam, uyalaman, deb shataloq otib qochadi... Bechora senga biram tashvishlandiki. Hammalari ham yaxshi bolalar ekan. Shulardan ajramagin etaklarini mahkam ushla.

## VII bob

### «IYA, MENING KALLAM QANI?»

**B**ilasiz-ku, men uncha-muncha kasalni parvoyimga ham keltirmayman. Agar hushimdan ketib qolmaganimda, o'lay agar, cho'zilib yotmagan bo'lardim. Uch kun deganda oyoqqa turib, gijinglagan toychoqdek bo'lib ketdim. Oyim bilan buvijonimning hayhaylashiga ham qaramay, maktabga, qadrdon sinfimga jo'nadim. Mayli, ikki olsam ham o'sha yerda bo'lganim yaxshi. Ammo sinfga kirishim bilan ta'bim juda tirriq bo'ldi, bundan ko'ra kasal bo'lib yotaverganim ming marta yaxshi edi. Sinfimizda «A'lochi» degan devoriy gazeta chiqardi. Ana o'shanga Akrom ikkimizni boplab urib chiqishihti. Tanqid qilishgani ozlik qilib, yoniga rasmimizni ham chizib qo'yishibdi: Akrom bo'ring bolasini minib turibdi, men pakanagina laychani minib olganman. Ikkimizning ham kallamiz yo'q, kallaning o'rnida doira-yu, doiraning ichiga familiyalarimiz yozilgan. Ostiga:

— Iye, nega bularning kallasi yo'q?

— Kallasi bo'lsa o'qishdan qolarmidi! — deb bir chiroyli qilib yozib ham qo'yishibdi. Avvaliga, yashirmay qo'ya qolay, rosa maza qilib kuldim. Nega desangiz rasm o'zimga ham juda ma'qul bo'lgan edi-da. Keyin boshqalar ham bizning ustimizdan mana shunaqangi qilib kulishgan bo'lsa kerak, hatto uylariga ham borib kulishgandir, deb o'yladimu, alam qilganidan tishlarim g'ijirlab ketganini o'zim ham bilmay qoldim.

— Kim chizdi buni? — xuddi rahmat aytmoqchidek kulimsirab so'radim. Toshtemir degan chapaqay bola gazetaga redaktor edi. Men gazeta ko'rayotganimda yonginamda turgan edi. Sal tisarilib, maqtangandek:

— Men chizdim, — deb qo'ydi, — apsh-u, nariroq tur, tumovman.

Men bu yoqda uyatdan o'lay deyapman-u, u bo'lsa maqtanib, ikki qo'li biqinida, iljayib turibdi. Shartta yoqasidan oldim.

— Nega chizding?

— Chizdim, apsh-u...

— Nega deyapman?

— Apshu, apshu...

— Toza ko'rib ol-chi, mening kallam bormi-yo'qmi?— deb boshimni Toshtemirning qorniga ishqab qo'ydim.

— Hozir bor, apshu.

— Hey, «apshu», nega bo'lmasa mening rasmimni kallasiz qilib chizding?

— Nega bo'lmasa, apshu... o'zing bo'lar-bo'lmasga progul qilib davomatni orqaga sudraysan, apshu... hozir yettinchi o'ringa tushib qoldik, bildingmi!

— Hozir rasmni olib tashlaysan!

— Apshu, olmayman.

— Mana bo'lmasa, — Toshtemirni itqitib yubordim-da, devoriy gazetaning xuddi o'sha kallasiz rasm solingan burchagini yirtib tashladim. Sinf to's-to'polon bo'lib ketdi: birov mening qo'limga yopishgan, birov Toshtemirni o'rnidan turg'azib yelkasidan changini qoqqan, birov

chaqimchilik qilib yaxshi ko'rinish umidi-da direktorning kabinetiga qarab yugurgan. Qayoqdandir vojatiyimiz Zokirjon aka paydo bo'lib qoldi.

— Uyat emasmi! — dedi u menga yaqinlashayotib, — qani joy-joylaringga o'tiringlar-chi... nega yirtding?

— Bilmay qolibman, — dedim boshimni sekin egib.

— Darsdan keyin hech kim ketmasin... Otryad majlisini o'tkazamiz.

Zokirjon aka chiqib ketdi. Men qani, xafa bo'ldimikan-yo'qmikan, deb sekin Toshtemirga qaragan edim, yuzini teskari o'girib oldi. Bir xayolim darmonim qurib ketyapti, deb majlisdan oldinroq juftakni rostlab ham qolay dedimu, hamma meni qo'rqqoq deb atashidan cho'chib, nima bo'lsa ham peshonamdan ko'rdim, deya qolishga qaror qildim. Akrom:

— Ayb o'zidan o'tdi, — deb ko'nglimni ko'tardi, — men senga guvoh bo'laman, qo'rqma.

Shunday qilib sinf majlisi ham boshlandi. Avval Zokirjon aka, ketidan Otajon Azizovich kirib keldi. Vohid Soliyevich yuqori sinf bolalari bilan rayonga allaqanday kengashga ketgan ekan, majlisga qatnashmadi. Majlisni otryad kengashining raisi oriqlikda mendan ham oriqlik, novchalikda mendan ham novcha Mamatjon olib boradigan bo'ldi. Uning o'ng tomoniga qadrdon direktorimiz, chap tomoniga undan ham qadrdonroq bo'lgan vojatiyimiz o'tirib olishdi.

— Oltinchi «B» sinfi o'quvchilarining davomat masalasiga bag'ishlangan... — deb Mamatjon mushtiga bir yo'talib olib, stolning qirrasini mahkam ushlagancha, bilinar-bilinmas qaltirab so'zida davom etdi, — bag'ishlangan majlisi ochiq.

Bolalar eshitilar-eshitilmas qarsak chalishdi. Men chalmay boshimni egib, juda uyalgan kishidek, har zamonda burnimni tortib jimgina o'tirardim. Otajon Azizovich o'rnidan turib, avval xiyol kulimsiradi, keyin qovog'ini solib hammaga bir-bir ko'z tashlab chiqdi-da:

— Xo'sh, bolalar, qani aytinglar-chi, hozir sinflaring davomat masalasida nechanchi o'rinda turibdi?— deb so'radi.

— Yettinchi o'rinda, — har tomondan chug'urlashdi bolalar.

— Nega birinchi o'rinni ololmadilaring?

— Chunki bizda progulchilar ko'p-da.

— Xo'sh. Eng ko'p progul qilganlar kimlar ekan?

— Hoshim.

— Akrom.

— Umriniso.

— Sherqo'zi, — chuvillab qolishdi bolalar. Men xayriyat progulchi bir men emas ekan, ko'pchilik qiz birgalashib javob bersak osonroq bo'ladimi qaddimni rostlabroq o'tirib oldim. Otajon Azizovich so'rashda davom etdi:

— Demak, sinfning davomatini orqaga surib qora doskaga tushib qolishlaringga sababchi bo'lganlar shular ekanda?

— Xuddi shularning o'zi!

— Qani, bu yoqqa chiqinglar-chi, tortinmasdan chiqave-ringlar, barakalla! Qaranglar-a, bir-biridan chiroyli bolalar-a... Qanday qilib progulchi bo'lib qolganlaringga hech aqlim yetmaydi... Mamatjon, endi so'z yana o'zingizga. Majlisni davom ettiravering, men bir chekkada o'tiraman. Qani, oltinchi «B» sinfining o'quvchilari haqiqiy o'quvchilarmi, o'rtoqlarining kamchiliklarini ochib tashlash qo'llaridan keladimi, bir sinab ko'raychi.

Mamatjon o'rnidan turib nima deyishini bilmay qo'llarini qisirlatib, angrayib turdi-da, keyin:

— Otajon Azizovich, Akromning qo'ltig'ida kirpi bor, qarang, pitirlayapti, — deb qo'ydi. Vojatiyimiz Akromning qo'ltig'idagi xaltachaga solingan kirpining bolasini olib, doskadagi latta ilinadigan mixga osmoqchi bo'lgan edi, direktorimiz «partaning ostiga qo'ying, partaning ostiga!» deb jerkib berdi. Sinf yana suv quygandek jim bo'ldi Mamatjon so'radi:

— Kim gapiradi?

Toshtemir qo'l ham ko'tarmasdan o'rnidan turib gapirmoqchi bo'lgan edi, Mamatjon «avval qo'l ko'tar, ruxsat bersam, keyin gapirasan», deb o'rniga o'tqizib qo'ydi. Toshtemir partaga o'tirdi-yu, arazlab endi gapirmayman, deb turib oldi.

Sinfimizning bolalari mana shunaqangi majlisni anchadan bo'yon sog'inib yurishgan ekan. Yeng shimarib progulchilarni muhokama qilishga, nega progul qilding, nega uy vazifasini bajarmaysan, nega sinfimizni sharmanda qilasan, deb har xil savollar berishga tushib ketishdi. Oxiri progulchilar endi qilmaymiz, tavba qildik, agar yana takrorlasak, mayli, bilganlaringni qilinglar, deb arang qutulishdi.

— Endi navbat Hoshimjon Ro'ziyevga, — deb qolsa bo'ladimi bir mahal Mamatjon, — xo'sh, Hoshimjon haqida kim birinchi bo'lib gapirmoqchi?

Hamma jim edi. «Ming marta raxmat sizlarga, do'stlarim», deb endigina yonboshimga qarayman, desam xuddi shu paytda Toshtemir qo'lini ko'targanicha o'rnida turdi-da, shu holida, qo'lini tushirmasdan bidillab gapira boshladi:

— Davomat masalasiga bag'ishlab, apshu... kechirasizlar, tumovman, devoriy gazeta chiqargan edik. Vohid Soliyevich aytgan edilar. Domla pochcha, yo'q, Hoshim Ro'ziyev bezorilik qilib uni yirtib tashladi, apshu. Bizda axir bezorilik qilish man etilgan. Javob bersin! Apshu...

— Hali devoriy gazetani ham yirtdimi? — o'zini bilmaganga solib so'radi direktorimiz, — nega yirtding?

— Nega bo'lmasa mening rasmimni boshsiz qilib chizadi? — deb so'radim men ham.

Yo'q, ish butunlay chappasiga aylanib ketdi. Majlisga raislik qilishni Otajon Azizovich o'z qo'lga oldi. Akromni ham mening yonimga turg'azib qo'yishdi. Meni endi ham progulchi, ham bezori sifatida muhokama qila boshlashdi. Men sinfdan haydab yuborishlaridan qo'rqardim. Oyim

aytganidek, bunaqangi sinfni, bunaqangi yaxshi bolalarni hech joydan topib bo'lmaydi.

— Qani, aytinglar-chi, o'quvchining birinchi burchi nimadan iborat? — sinfga savol tashladi Otajon Azizovich.

— A'lo o'qishdan.

— Yana?

— Intizomli bo'lish.

— Yana?

— Progulsiz o'qish!

— Barakalla! Demak, o'quvchi Hoshimjon Ro'ziyev o'z burchini ado eta olmayapti. Shundaymi?

— Shunday.

— O'z burchini ado etolmagan bola maktab o'quvchilar safida yurishga loyiqmi?

— Yo'q, loyiq emas.

«Tamom, — deb o'yladim ichimda — hammasi tamom bo'ldi... nega endi Vohid Soliyevich tezroq kela qolmadi ekan? O'sha bo'lganda meni olib qolarmidi...»

— Xo'sh, kimda qanday taklif bor?

— Menda, — sakrab o'rnidan turib ketdi. Miroddinxo'ja, — men aytmoqchimanki, men... umuman aytmoqchimanki...

— Nima demoqchisan o'zi?

— Men hech narsa demoqchi emasman... men aytmoqchimanki, Hoshim yaxshi bola, o'zi sal dangasaroq, xolos. Agar uni o'quvchilar safidan chiqarsalaring men ham o'qimayman. Gapim tamom.

— Yana kim gapirmoqchi?

Saddinisada o'rnidan turib sochining jamalagini o'ynagancha birpas derazaga tikilib turdi-da:

— Hoshimni maktabdan haydasak, oyisi o'zini osib qo'yadi, — deb hammani qo'rqitib yubordi, — oyisining o'zi aytgan. «Agar Hoshim bu yil ham tuzuk o'qimasa o'zimni-o'zim osaman, yo ustimga kerosin quyib, o't qo'yaman» degan...

Saddinisadan keyin Toshtemir yana gapirib, progul qilgani uchun kechirim so'rasin, devoriy gazetamni esa

qayta boshdan yozib bersin, meni turtgani uchun keyinchalik hisob-kitobni o'zimiz to'g'rilab olamiz, dedi. Sinfkomimiz Hamroqul: «Hoshim sinfdan tashqari ishlarga hech qatnashmaydi, uni redkollegiyaga a'zo qilib olish kerak, xati chiroyli», — deb qo'ydi. Mamatjon ham mushtiga yo'talib ancha gapirdi: «Maktabdan haydamaylig-u, unga qanday yordam berish kerakligini kelishib olaylik», dedi. Kimdir bittasi, boshiga to'n yopib, bir savalash kerak, deb taklif kiritdi. Har xil gaplar shunaqangi ko'payib ketdiki, oxiri qulog'imga hech narsa kirmay, burnimni jiyirib, angrayganimcha o'tiraverdim. Esnoq tutib, uyqum kela boshlagan edi, direktor shartta o'rnidan turdi:

— O'quvchilik burchini ado eta olmagan uchun, Hoshimjon Ro'ziyevni kimda-kim o'quvchilar safidan o'chsiz desa, qo'lini ko'tarsin.

Direktorimizning mana shu «iliq» gapidan keyin ko'zlarim yarq etib ochildi-yu, uyqum ham o'chib ketdi... hech kim qo'l ko'tarmayapti. Bir minut, ikki minut, uch minut... yo'q, hech kim qo'l ko'tarmadi.

— Yaxshi! — dedi Otajon Azizovich, negadir xursand bo'lib, — o'zim ham shunday bo'lishini kutgan edim, barakalla! Endi boshqa bir taklifni o'rta qo'ymoqchiman. Hoshimjon Ro'ziyevni tarbiyalanib, yaxshi o'quvchi, intizomli, yaxshi xulqli bo'lib yetishishiga qo'limdan kelgan yordamni ayamayman, degan o'quvchi qo'lini ko'tarsin.

Bu gal o'ttiz olti bola baravariga qo'lini ko'tardi. Nazarimda, bir xil bolalar ikkala qo'lini ham ko'targanga o'xshadi. Sanashganda ikkita qo'l ortiq bo'lib chiqdi. Sevinib ketganimdan o'sha paytda o'zim ham qo'limni ko'tarib yuborgan ekanman.

— Xo'sh, Hoshimjon, o'zing nima deysan? — so'radi qadrdon direktorimiz.

— O'zimmi, o'zim butun sinfdan kechirim so'rayman, bunaqangi ishlarni endi qilmayman!

— Demak, tantanali va'da berasanmi?

— Yo'q, va'da berolmayman.



— Nega? — o'ttiz olti bola baravariga so'radi.

— Chunki, ilgari va'dalar beraverib, va'damning g'ururi ketib qolgan, — deb tushuntirdim do'stlarimga, — shuning uchun bu ishni va'dasiz bajarmoqchiman...

Majlis yopildi.

Maktabning bufetidan bir tovoq mastava olib ichdim-da, Toshtemirning yonginasiga o'tirib olib devoriy gazetani boshdan-oyoq ko'chirib chiqdim.

— Qalay? — deb so'radim redaktordan.

— Xating chiroyli-ku, lekin xatosi ko'proq ekan, — deb qo'ydi Toshtemir, — tayyorlanib yur, yanagi chorshanba kuni gazetaning yangi sonini chiqaramiz.

— Nimaga tayyorlanib yuray?

— Progulchilarni, yomon baho olganlarni, bezorilarni hisobga olib yur. O'shalar haqida boplab maqola yozasan.

Maktabdan xursand qaytdim. Axir men redkollegiya a'zosi bo'lgan edim-da. Umrim bino bo'lib birinchi marta amal tegdi-yu, xursand bo'lmaymanmi!

## VIII bob

### ODAM BO'LAY DEB KELDIM

Ochig'ini aytsam, men shu kunlarda juda irodali bo'lib ketganman, yo'q, kulmang. Rost aytyapman. Ishonmasangiz — oyimdan so'rang. Bechora men darsdan boshimni ko'tarmaganim uchun rahmi kelib:

— Hoshimjon, o'g'lim, bor, birpas o'ynab kelgin! — deb qo'yadi.

— Hecham-da, — deyman bosh chayqab, — men endi charchamaydigan bo'lib ketganman. Charchasam, bolalardan orqada qolib ketaman, hammaga kulgi bo'laman.

Bunday deyishimga bir jihatdan ho' birdagi devoriy gazetaga yozgan maqolam sababchi bo'ldi. Esingizda bo'lsa kerak, Toshtemir, bolalarni kuzatib yur, kamchiligi bo'lsa devoriy gazetaga urib chiqamiz, degan edi. Men

kuzatib yuraverdim. Oxiri bir kuni kattagina maqola yozib xatosini hech kimga sezdirmasdan Saddinisaga tuzattirib oldimda, gazetada bostirib chiqardim. O'sha katta janjalga sabab bo'lgan maqolada taxminan mana bunday so'zlar bor edi: «Akrom yovvoyi hayvonlarni yaxshi ko'radi, shuning uchun yomon o'qiydi. Umrinisa darsda non yeb o'tiradi. Mirobiddinxo'ja o'qituvchi bir narsa so'rasa avval ichida duo o'qib oladi. Saddinisa juda ko'p uh tortadi. Hamroqulning ovozi ingichka bolalar mendan hayiqsin deb, ataylab ovozi do'rillatib gapiradi. Ikrom yog'ochoyoq darsdan qaytayotganda bo'r bilan birovlarining eshigiga yomon so'zlarni yozib ketadi. Orifjon — chaqimchi. Zarif darsda uxlab o'tiradi. Sharifaning adasi nos chekadi. Shohida bo'lar-bo'lmasga qiqirlab kulaveradi. Adham arifmetikadan beriladigan uy vazifalarini dadasiga ishlatib keladi...» Xullas, o'sha maqolada o'ttiz olti o'quvchining hamma kamchiligini ko'rsatib o'tgan edim-da.

— O'zing-chi, o'zing? — deb hammalari meni qurshab olishdi.

— Menda kamchilik yo'q. Borini ham sizlar tugatdilaring, — dedim bo'sh kelmay.

— Senda kamchilik yo'qmi?

— Yo'q, zig'ircha ham qolmadi.

— Maktabdagi eng katta yolg'onchi, irodasiz bola sen emasmisan?.. Irodang bo'lganda, yomon baho olib sinfni orqaga sudramas eding... Bolalar, kelinglar, o'zini ham gazetaga urib chiqamiz, bir boplab yozaylik-ki...

O'sha kuni bizning tortishuvimiz hazil-hazil bilan sinf majlisiga aylanib ketdi. Vohid Soliyevich:

— O'rtoqlar, Hoshimjon Ro'ziyev sizlarni juda to'g'ri tanqid qilgan, — deb mening tarafimni oldi, — kimda-kim shunaqangi kamchiligim yo'q desa, o'rnidan turib o'zini oqlasin. Qani, kim birinchi bo'lib chiqadi?

Vohid Soliyevich ikkovimiz o'n minut chamasi kutib turdik hamki, hech kim o'rnidan qo'zg'almadi.

— Demak, ayblaringga iqrorsizlar? — so‘radi sinf rahbarimiz, — o‘rtoqlar, bu katta gap. Kishi o‘z kamchiligini tan olsa, undan yaxshi odam chiqadi.

— O‘zi-chi, o‘zi? Yolg‘onchiligini bo‘yniga olarmikan? — deb, chuvillashib har tomondan savollar bera boshlashdi bolalar.

— Yo‘q, bo‘yninga olmayman, — dedim o‘rnimdan turib. — Men sizlarga yolg‘onchi emasligimni, irodam kham chakana emasligini ko‘rsatib qo‘yaman.

Butun sinf bilan bas boylashib qoldim. Vohid Soliyevich mening tarafimda edimi yoki u ham bolalar tomonidamidi, buni o‘sha paytda aniqlay olmadim. Ammo hammalari bir bo‘lib menga ikkinchi chorakning oxirigacha muddat beradigan bo‘lishdi. Ana shu paytda men kim ekanligimni, o‘sha iroda degan narsadan bizda ham oz-moz borligini ko‘rsatib qo‘ymoqchi edim-da...

Mana bugun ikkinchi chorak yakuni o‘qib eshitiriladi. Sinf majlisiga har kim o‘z otasini yoki onasini birga olib borishi kerak. Vohid Soliyevich shunday deb tayinlaganlar. Kimni olib borsam ekan, oyimnimi yoki dadajonimnimi? Bechora dadam hech xursandchilikni ko‘rgan emas. Yo oyimdan, yo buvijonimdan gap eshitgani-eshitgan. Buning ustiga, o‘tgan yili xuddi mana shunaqa ikkinchi chorak yakunini eshitgani borganida men u kishini aldagan edim. O‘shanda bir yo‘la to‘rt fandan ikki bahom bor edi-da. Chorak yakuniga negadir dadam boradigan bo‘luvdi.

— Adasi, Siz ham boshqa erkaklarga o‘xshab, bolalarinigizning o‘qishiga bunday bir qiziqsangiz-chi, — deb xafa bo‘ldi oyim.

— Qiziqmay nima qilyapman, qiziqish shunchalik bo‘ladi-da, — deb qo‘ydi dadam ham bo‘sh kelmay.

— Qiziqsangiz, bugun sinf majlisi bo‘lar ekan, borib keling, — dedi oyim, — suyukli o‘g‘lingizning baholarini eshitib kelasiz.

Dadam bilan maktabga boryapmizu, qanday qilib uni yo‘ldan qaytarish haqida o‘ylayman. Nega desangiz,

dadamni jon-dilimdan yaxshi ko'raman. Men tufayli uning o'sal bo'lishini, odamlar oldida izza tortishini hecham istamayman. Maktabga qadam qo'ygunimizcha ham biror qarorga kelolmadim. Borsak, majlis boshlanib qolgan ekan.

— Qaysi sinfga kiraman? — deb so'radi dadam.

— To'g'ringizdagi sinfga, — dedim-da, hatto qaysi sinfga ham o'qishimni bilmaydigan dadamni uchinchi sinfga kiritib yubordim. Uyga qaytib kelgach, oyim:

— Xo'sh, nima gaplar bo'ldi, gapirsangizchi — deb so'radi.

— Hech qanday gap bo'lmadi.

Ataylab aytqizib yuboradi-yu, hech narsa demaydimi?

— Qanaqa sinf rahbari ekan u?

— Birov nega kelding deb so'ramadi ham! — achchig'i chiqib dedi dadam. Keyin boltani olib o'tin maydalash uchun tashqariga chiqib ketdi. O'shandan buyon o'zimdanda ham xafa bo'lib yurgan edim.

Mana bugun yana sinf majlisi, yana xuddi o'sha kungidek chorak yakuni eshittiriladi. Ammo, ishonamanki dadajonim bugun, albatta xursand qaytadi.

— Bugun bizda sinf majlisi bo'ladi, — dedim hovlida qor kurayotgan oyimga.

— Xabarim bor.

— Vohid Soliyevich, dadang, albatta kelsin, dedilar.

— Ehtimol, oying kelsin degandir?

— Ishqilib, bitalaring borar ekansizlar-da... Dadam boradigan bo'ldi.

— Ishqilib, baholaring tuzukmi? — so'radi u yo'lga chiqqanimizda.

— Borganda bilasiz.

O'sha kuni ertalab qor yoqqan edi. Oppoq qor daraxtlarning novdasida, elektr simlarida, tomlarning bo'g'otida osilib qolgandek. Quyosh charaqlab, nur to'kayotgandan hammayoq tovlanib, ko'zni qamashtiradi. Ko'nglimda shodlik uyg'otadi. Dadajonimning qo'lidan

ushlab yugurib ketgim, qichqirgim keladi. Dadam bo'lsa jim, nimalarnidir o'ylab ketyapti.

— Dada, lager bitdimi? — so'radim gaplashib ketish uchun.

— Lager-ku, bitib qoldi-ya, lekin men hozir boshqa narsani xayol qilib ketyapman... nazarimda sendan o'qimishli odam chiqmaydiganga o'xshaydi. Sen tengi bolalar yettinchi, sakkizinchi sinflarda o'qishyapti. Sen bo'lsang, haliyam oltinchida yuribsan... o'qishdan chiqarib olsam nima deysan?

Dadam hech qachon birovga hazillashib gapirmaydi. Shuni o'yladimu, yuragim «shuv» etib ketdi. Endi o'qishga havas qo'yib, yayrab o'qiyman deganimda-ya...

— Dod deyman! — dedim yurishdan to'xtab.

— Axir, o'zingda ham o'qishga havas yo'qqa o'xshaydiku?

— Ilgari shunaqa edi. Hozir boshqacha. Majlisga borganingizda bilasiz.

Maktabga yetgunimizcha bir-birimizga gap qotmadik.

Sinfga kirsak, Hamroqulning dadasi, Saddinisaning oyisi, Toshtemirning traktorchi akasi — xullas, ancha-muncha odam to'planib, o'zaro har narsalar to'g'risida suhbatlashib o'tirishgan ekan. Devoriy gazetaning eng keyingi sonida Saddinisa menga bag'ishlab ochiq maqola yozgan edi.

— Devoriy gazetamizni ko'rmaysizmi? — deb so'radim.

— Gazetangni qo'ya tur hozir, — dadam Toshtemirning akasi Akrom tog'aning yoniga o'tirib oldi-da; qor bosgan yerni shudgor qilish foydalimi yoki zararmi — shu to'g'rida bahslasha boshladi. Men qanday bo'lsa ham, maqolani dadamga o'qitishni juda ham istar edim.

— Dada, gazetamizning rasmlari juda chiroyli chizilgan-da, — dedim yana.

— Mayli, gazetada rasm bo'lgani ma'qul, — qo'lini siltab qo'ydi Akrom tog'a.

— Lekin Toshtemir ikkovimizni boplab urib chiqishgan...

— Nima?! Urib chiqishgan? — dadam bilan Akrom tog'a o'rinlaridan turib ketishdi, — nega endi urib chiqishar ekan, yomon o'qigandirsizlar-da?

Ikkovlari orqama-ketin borib gazetani bir boshdan o'qiy boshlashdi. Ularning shoshib borganini ko'rib, biron qiziqroq gap borgan o'xshaydi deb boshqalar ham yopirilishdi. Kimdir baland ovoz bilan «Hoshim tirishqoq bola chiqib qoldi» sarlavhali maqolani o'qiy boshladi. Ko'nglim joyiga tushgach, odam degan sal kamtar bo'lishi kerak, deb o'yladim-da, tashqariga chiqib eshikning tirqishidan mo'ralab turdim.

— Ro'zivoy aka, o'g'lingiz chakanaga o'xshamaydi-ku! — deb qo'ydi Toshtemirning akasi.

— Bo'lmasa-chi, kechasiyu kunduzi o'qiydi-yu... — maqtanib dedi dadam, — Saddinisa odam qildi uni...

O'n minutlardan so'ng sinf majlisi boshlandi. Vohid Soliyevich jurnalni ochmasdan avval oltinchi «B» sinfi qanaqa sinf ekanligi, kimlar o'qishi, qanday o'qiyotganlari to'g'risida gapirdi:

— Umuman, bu sinfga rahbar bo'lganimdan xursandman. O'ttiz olti o'quvchining hammasi ham qobiliyatli, tirishqoq, bir so'zli bolalar desam xato bo'lmas... Bu bolalar bilan har qancha ishlasang, mehnating zoye ketmaydi... Mana, Hoshimjon Ro'zиеvni olaylik. Olti yillik tabelini ko'rib chiqdim. Ko'pchilik fanlardan hamisha uch yoki ikki baho olib kelgan. Ammo, bu chorakda u deyarli barcha fanlardan, o'zlashtirdi. Fizika bilan geografiyadan to'rt, ona tilining og'zakisidan besh baho oldi.

Kimdir, sekingina qarsak chaldi, keyin boshqalar ham jo'r bo'lishdi. Yashirmay qo'ya qolay, o'zim ham qo'lni yuqori ko'tarib qarsak chalib yubordim...

Qarsak bahona bo'ldi-yu, Vohid Soliyevich so'zlashdan to'xtab baholarni eshittirishga kirishdi. Faqat Saddinisagina hamma fanlardan besh olibdi. Hamroqulda oltita besh, Toshtemirda to'rtta, qolganlarida esa ikkita yoki uchtadan edi. «Hali shoshmay tursalaring, mulla Hoshim o'zining kim

ekanligini ko'rsatib qo'yadi. Uchinchi chorakda uchta fandan, to'rtinchi chorakda eng kamida beshta fandan a'lo baho olmasam otimni boshqa qo'yaman...» deb o'ylar edim, ammo, xursandchiligim uzoqqa bormadi. Eng yaqin do'stim Akromni bir yo'la to'rtta fandan yomon baho olganini eshitib, dilim xufton bo'lib ketdi. Qani endi majlis tezroq tugasa-yu, tezroq borib do'stginamning ahvolidan xabar olsam, deb betoqatlanganligim uchun nima to'g'risida gap bo'lganligini yaxshi anglay olmadim. Faqat qaytayotganimizda, dadam:

— Hoshimjon, nimalarni o'ylab ketyapsan, o'g'lim?— degandagina o'zinga keldim.

— O'qishni tashlab, Sizning yoningizga borib traktorchi bo'lsammikan, deb o'ylayapman, — dedim hazilga olib.

— Esi yo'q, bunaqangi gapni ikkinchi og'zingga olmagin, sendan tuppa-tuzuk odam chiqadiganga o'xshab qoldi.

## XOTIMA

Tog' bag'riga joylashgan bolalar lageri. Tepasiga qarasang, do'pping tushib ketadigan azim chinorlar, kishining qulochi ham yetmaydigan sershoh tollar soya tashlab turadi. G'ir-g'ir shabboda esyapti. Lagerning shundoq biqinidan o'ynoqlab o'tadigan soy bo'yida o'n besh chog'li bola qumlarga dumalab, yelkasini oftobga toblab yotibdi. Hech birining atrofdagi go'zallik bilan ishi yo'q. Hammalari butun vujudini quloqqa aylantirib, hikoya tinglashyapti. Qotmadan kelgan, yoshiga qaraganda bo'yi novcharoq, timqora ko'zlari chaqnab turgan bola hikoya so'zlashdan to'xtab, o'rnidan turib kerishdi.

— Keyin-chi, keyin nima bo'ldi? — betoqat bo'lib so'rashdi tinglayotganlar.

— Endi charchadim, qolganini ertaga aytaman.

— Yo'q, bugun aytaqol!

— Hadeb cho'zaverasanmi, bugun tugatib qo'ya qol.

— Qalpoqcha nima bo'ldi, o'shandan gapir, — deb bolalar har tomondan savollar yog'dira ketishdi.

Hikoya so'zlayotgan bola Hoshimjon Ro'ziyev edi. U bir marta kerishib, o'rniga o'tirdi-da, yalang'och oyog'ini qumga ko'mib, hikoyasini davom ettirdi:

— Xullas, og'aynilar, do'stim Akromga juda achindim. Ertalab barvaqt turdim-da, shoshilib ularnikiga borsam, allaqachon changalzorga chiqib tulki tutish uchun qopqon qo'yayotgan ekan.

— Nega kecha sinf majlisiga bormading? — Birinchi savolim shu bo'ldi.



— Endi o'qimayman... — qo'l siltab qo'ydi Akrom, — katta bo'lganimda o'qirman... Dadam ham 30 yoshga kiringandan keyin o'qigan ekan. — Akrom bir oz jim turdida, keyin tulki mug'ambir hayvon ekanligi, qopqonning ustini cho'pxas bilan bekitib bilinmaydigan qilib qo'yilmasa, darrov sezib qolishi mumkinligi to'g'risida gapira boshladi.

Do'stimning tepasida tik turganimcha o'ylanib ketdim. Fikri xato ekanligini unga qanday tushuntirsam ekan. O'zi o'lardek qaysar bola, unga gap tushuntirgandan ko'ra ho'kizning qulog'iga tanbur chalgan ming marta yaxshi.

Oxiri, o'ylay-o'ylay sehrli qalpoqchamni unga sovg'a qilishga qaror qildim. Akrom avvaliga angrayib, hangu mang bo'lib qoldi. Ertasiga sehrli qalpoqchani qo'lga olib, boshiga kiyib, sehrini sinab ko'rgach:

— Rahmat, yaxshiligingni o'la-o'lguncha unutmayman!— dedi-da, shu zahotiyuq ko'zdan g'oyib bo'ldi.

O'zim bo'lsam, o'qishga boshim bilan sho'ng'ib ketdim. Uchinchi chorakda uchta fandan besh oldim. Yil oxirida esa bir yo'la besh fandan a'lo baholar olganimni, o'lay agar, o'zim hech bilmay qolibman. O'qishlar tamom bo'layotgan kuni butun maktab xayrlashuv majlisiga to'plandik. Ana o'sha katta yig'inda mening qadrdon direktorim:

— Eng a'lo o'qigan o'quvchilar qatorida Hoshimjon Ro'ziyev «A'lochi» bolalar lageriga borish uchun tekin putyovka bilan mukofotlanadi, — deb e'lon qilib yuborsa bo'ladimi. Men o'zimning «Uzunquloq ota»dagi qo'lbola lagerimizda dam olmoqchiman, desam ham mehribon o'qituvchilarim hech ko'nishmadi. Odam degan o'z obro'yiga yarasha ish qilishi kerak, deb turib olishdi...

Shunday qilib, yalang'och do'stlarim, mana bugun men sizlar bilan maza qilib bu yerda dam olyapman. Boshimdan o'tgan voqealar mana shular. Gapimning oxirida sizlardan bir narsani iltimos qilmoqchiman: qizishib ketib unchamuncha yolg'on ishlatib yuborgan bo'lsam, kechirasizlar.

— Akrom nima bo'ldi, Akrom? — deb so'rashdi bolalar.

— Akromning boshidan o'tganlarini keyin gapirib beraman, og'zim charchab ketdi axir... — deb qo'ydi Hoshimjon.

Xuddi shu payt lagerda gorn ovozi yangrab qoldi. Bolalarni peshingi ovqatga chorlar edi u. Hammalari o'rinlaridan turib, bir-birlarini quvlashib, shataloq otishib o'sha tomonga qarab yugurishdi.

Hammadan oldinda Hoshimjon borardi.

# SARIQ DEVNING O'LIMI



## O'RTOQ POLKOVNIK

### YANGI KASB TANLADIM

**Sh**unday qilib desangiz, ishlarim yurishgandan yurishib ketaverdi, o'zi men shunaqa bolaman-da, qaysi ishni ixtiyor qilsam, albatta maqsadimga yetaman. Yettinchini bitirayotganimda, endi nima qilsam ekan, qaysi maktabga borib o'qiymanu, yana qaysi muallimlarning boshini qotiraman, deb o'ylanib yurgan edim. Baxtim kulib boqqanini qarangki, qimmatli direktorim Otajon Azizovich maktabni bitirish kechamizda bir soatu o'n minut nutq so'zlab, oxirida:

— Shunday qilib, — deb bir piyola choy ichib oldi,— aziz o'rtoqlar, endi ixtiyor o'z'laringda. O'qishni davom ettirmoqchi bo'lganlar, mana, Makarenko maktabiga o'tib o'qishaveradi. Ularning shaxsiy delosini bugunoq o'sha maktabga o'tkazib berishimiz mumkin. Hunar o'rganish payidan bo'lganlar bo'lsa, nima ko'p, shaharlarda hunar maktablari ko'p, o'sha maktablarga kirib o'qishlariga biz qo'limizdan kelganicha yordam beramiz. Xo'sh, Hoshim, sen nima qilmoqchisan?

— Men sartarosh bo'lmoqchiman, — dedim hech ikkilanmay.

— A?.. Sartarosh dedingmi?

— Ha, sartarosh bo'lmoqchiman. Buvijonim, o'qiyverib miyang suyulib ketdi, burning oqadigan bo'lib qoldi, deyapti.

— Shu qaroring qat'iymi?

— Qasam ich desangiz, qasam ichaman.

— Yo'q, qasam ichmay qo'ya qol, — dedi hurmatli direktorim, — shundoq ham gapingga ishondim. Bu niyatingni tabriklayman, mayli, biringiz sartarosh, biringiz duradgor bo'ling, yana bittangiz elektrga qaraydigan

montyor bo'ling. Ishqilib yo ilmli, yo hunarli bo'lish payidan bo'linglar.

Kim nima desa deyaversin. Lekin dunyoda sataroshlikdan yaxshi kasb yo'q. O'sha har xil uylar qurib, odamlarni xursand qiladigan injenerlar ham, maza qilib she'rlar o'qiydigan shoirlar ham, qiziqchilik qilib hammani qiqirlatib kuldiradigan artistlar ham bari bir egilib sataroshga salom berishadi.

Ho' birda aytuvdim-ku, maktabimizning shundoqqina qarshisida sataroshxonada bor deb. Tovuqning katagidan sal kattaroq o'sha sataroshxonada usta buva degan chol ishlaydi. Usta buvam boshqalarga qaraganda meni jonu dilidan yaxshi ko'radi. Darsdan kechga qolsam yoki darsdan qochib, pana joy axtarsam to'ppa-to'g'ri buvajonimning oldiga kiraman.

— Assalomu alaykum, usta buva! — deyman qo'limni ko'ksimga qo'yib.

— Ey-ha, Hoshimmisan? — deydi usta buvam.

— Ha, menman.

— Yana jurnal o'g'irlagani keldingmi?

— Yo'q, bugun hech narsa o'g'irlamayman, o'zim shunday...

— Senlar hammang shunaqa, fotogazeta chiqarmoqchi bo'lsalaring usta buvani sog'inib qolasizlar... Men, navbat kutayotganlar zerikmay varaqlab o'tirishsin, deb jurnal topib kelaman, senlar suratini qirqib devorga yopishtirasanlar... O'tir, sochingni olib qo'yay.

— Sochim o'sgani yo'q.

— O'tir deyapman. Soching kurk tovuqning patidek xurpayib ketibdi-yu, yana o'sgani yo'q deysan-a.

— Pulim yo'q-da, usta buva.

— Senlarda qachon pul bo'lgan o'zi. Hozirgi zamonning bolalariga hayronsan. Dadasidan, soch oldiraman, deb pul olib, tanaffusda muzqaymoq olib yeyishadi...

Usta buvam gaplashib turib sochingizni olib qo'yadi. Lekin, ko'pincha atir o'rniga boshingizga suv sepib:

— Oh, oh, oh! Hidini qara-ya buni! — deydi sochiq bilan yuzingizni yelpib.

Shunday qilib, men sartarosh bo'lishga qaror qildim. Bilasiz-ku, biror ishga ahd qilsam uni oxiriga yetkazmaguncha qo'ymaydigan odatim bor. Jonimni qiynab bo'lsa ham maqsadimga erishaman.

Bu niyatim mehribon buvijonimga, dadajonimu oyijonimga, hatto jondan aziz singillarim Oyshaxonu Donoxonlarga — hamma-hammalariga ma'qul bo'ldi. Faqat dadam sal ikkilanib:

— Ishqilib, odamlarning boshini kesib olib, bir baloga yo'liqmasang bo'lgani! — deb qo'ydi. O'sha kuniyoq buvamning huzurlariga kirib bordim.

— Assalomu alaykum! — dedim ikki qo'limni baravar ko'ksimga qo'yib.

— Vaalaykum, e ha, Hoshimmisan, tinchlikmi, buncha entikmasang?

— Tinchlik, tinchlik, buvajon.

— Yo orqangdan buvijoning quvlab kelyaptimi?

— Hech kim quvlagani yo'q. Buvajon, sizga bir iltimos bilan keldim.

— Qani eshitaylik-chi?

— Faqat, «xo'p» desangiz aytaman.

— Sen ko'ngli ochiq bolasan. Iltimosingni rad qilolmayman.

— Usta buva, men sizga shogird tushmoqchiman. Sartarosh bo'lmoqchiman...

Usta buvam mening gapimni yo eshitmadi, yo juda xursand bo'lib ketganidan nafasi ichiga tushib ketdi. Nega desangiz, o'n minut chamasi menga tikilganча jim qoldi.

— Hoshimjon, bu senmisan? — dedi nihoyat o'ziga kelib.

— O'zimman, buvajon.

— Beri kel, o'g'lim, peshonangdan bir o'pay.

Usta buvam hozir roppa-rosa 73 yoshga kiribdi. Oltmish yildan buyon sartaroshlik qilar ekan. Shu yillar davomida

taxminan 250 ming boshning sochini olib, 250 ming marotaba rahmat eshitibdi. Taxminan 400 ming bor soqol-mo'ylovga qo'l urib, yo'q deganda 350 ming bora rahmat eshitibdi. Usta buvamning aytishlaricha, bu dunyoda sartaroshchalik hurmatli odam yo'q ekan. Negaki o'likka ham, tirikka ham sartarosh birdek zarur ekan. Bu shunaqangi ulug' kasb ekanki, hatto Arabiston degan mamlakatning Makkayu Madina degan shaharlarida ham odamlar sartaroshsiz kun kechirisha olmas ekan.

— Afrika o'rmonlarida hammi? — jindek hazilga olib so'radim.

— Hamma joyda, o'g'lim. Kel, peshonangdan yana bir o'pay barakalla! Qarib qoldim, do'konni kimga qoldirib ketaman endi, deb tashvishda edim. Rahmat, rahmat, o'g'lim.

O'sha kuni usta buvam shogird bola nimalar qilishi kerakligi haqida ko'p narsalar o'rgatdi. Ish boshlashdan avval, ishdan so'ng, albatta, sovunlab yuvinishim kerak ekan. Bu — bir, ish boshlashdan avval, ishdan so'ng asboblarni artib tozalashim kerak ekan, bu — ikki, ish boshlashdan avval, ishdan so'ng, albatta do'konni supurish kerak ekan, bu — uch. Ustaxonaga qadam qo'yishim bilan, bugun odamlarga halol xizmat qilaman, deb uch bor takrorlashim kerak ekan, bu — to'rt. Usta buvam mana shunaqangi qoidalarni sanab hisobni o'n oltiga yetkazgan edi, shu payt do'konga qo'shni qishloqlik bo'lsa kerak, o'rta yoshli bir odam kirib keldi. Usta buvam mehmon bilan hol-ahvol so'rashib bo'lgach.

— Hoshimjon, — deb buyurib qoldi menga, — qani, qo'lingni bir ko'raylik-chi, amakingni boshlariga ko'pik surtib, sochlarini bir yumshatib tashla-chi.

— Xo'p bo'ladi, buvajon! — yeng shimarib ishga kirishib ketdim. O'ziyam haligi odamning boshi yetilib pishgan qo'zivo'y tarvuzcha kelar ekan. Qatiq ivitadigan tovoqdek keladigan ko'pikdonda ko'pik tayyorlab asta surtgan edim, sal suyuqroq qilib qo'ygan ekanman, betlaridan oqib tusha

boshladi. Ko'zlariga ham jindek kirib ketgan bo'lsa kerak, mehmon sapchib o'rnidan turdi-da:

— Qanaqa bolasan o'zing, — deb ko'zini ishqalay boshladi. — Nima, chelaklab quyyapsanmi?

— O'zi boshingiz silliq ekan, ko'pik turmayapti, — dedim nima deyishimni bilmay.

Suvga chiqib ketgan usta buvam qaytib kirib ishni darrov o'z qo'liga oldi... Mijoz chiqib keta turib menga, negadir, bir xo'mrayib qo'ydi.

— Parvo qilma, asta-sekin o'rganib ketasan, — ko'nglimni ko'tardi usta buvam.

Avval qaychi bilan ishlashni, keyin mashina qaychi tutishni o'rgandim. Uch oy deganda ustara bilan ishlay boshladim. Hushyorgina bola bo'lganim uchunmi, ropparosa to'rt oy deganda, juda zo'r bo'lmasam ham, har qalay, o'rtacharoq usta bo'lib yetishdim. Odamlar Hoshimjonning qo'li yengil ekan deb, orqavoratdan uncha-muncha maqtay ham boshlashdi. Hammadan ham buvijonim o'zida yo'q xursand, qo'ni-qo'shnilarnikiga chiqib maqtangani maqtangan. Faqat do'konimizning mazasi yo'qroq edi. Devorlariga shuncha rasm yopishtirganimiz bilan bari bir, kirgan odam diqqinafas bo'lib uzoq o'tira olmaydi. Bir kuni uning ham ilojini qildim.

Usta buvam qo'shni qishloqda to'yga ketib, do'konda yolg'iz edim. Kolxozimizning raisi hovliqib kirib keldi.

— Usta qanilar? — dedi u ostonada turib.

— To'yga ketganlar, — deb tushuntirdim.

— Sochimni eplab olib qo'yalasanmi?

— Anavi kuni «rahmat» deb chiqib ketdingiz-ku?

— Qani tez bo'l rayonga majlisga ketyapman.

— Marhamat, o'tirsinlar, — deb ishga shunaqangi tez kirishdimki, rais amakimning o'zi ham hayron bo'lib qoldi. Sochini ustara bilan olishim kerak ekan yarmini olgach, ishni to'xtatdim.

— Nega o'tirib olding, tez-tez bo'lsang-chi, — deb qistadi rais amakim.



— Ish tashlash e'lon qildim, — dedim beparvogina.

— Ish tashlash? Nega endi?

— Chunki ustaxonamiz zax, qorong'i, tor. Bunaqangi joyda endi ishlamayman.

— To'g'ri, mazasi yo'qroq ekan. Kel uka, tezroq bo'l, majlisdan kechga qolyapman.

— Kechga qolsangiz shunday ketavering.

— Esing joyidami?

— Bilmadim.

— Sochni ol deyapman!

— Olmayman!

Rais amakim meni urmoqchi bo'lib sekin o'rnidan turayotgan edi, lip etib eshikka chiqdim-da, derazadan boshimni suqib:

— Yangi ustaxona soldirib berishga so'z bersangiz, keyin olaman, — dedim.

— Xo'p, ana, so'z berdim.

— Usta buvamga ham o'n yildan buyon so'z berasiz-u, lekin bajarmaysiz.

— Seni aldamayman, ke uka, endi...

— Yo'q. Tilxat yozib berasiz, keyin olaman.

— Sen esi pastni ertagayoq ishdan haydayman!

— Iloji bo'lsa bugun haydang. Bunaqangi zax joyda ishlagandan bekor yurganim ming marta yaxshi.

— Xo'p, nima deb yozay?

— Ertadan boshlab yangi sartaroshxona qurdirib bermasam rais otimni boshqa qo'yaman. deb yozsangiz ham bo'laveradi.

Rais amakim, men u kishiga xuddi o'z tengimdek muomala qilganim uchun avvaliga juda tutaqib ketdi. Jahl bilan stolni tepib, chiqib ketmoqchi ham bo'ldi-yu, lekin bu ahvolda ko'chaga chiqsa odamlarga kulgi bo'lishini o'ylab, yana o'rniga o'tirdi. Shoshilib tilxat yozib, deraza orqali menga uzatdi.

— Mana, ko'ngling joyiga tushdimi, tirmizak!

— Yo‘q ko‘nglim joyiga tushmadi, — dedim tilxatni o‘ziga qaytarib, — muhr bosmabsiz-ku. Rais amakim yana qizarib ketdi.

— Agar o‘zimning o‘g‘lim bo‘lganingda bo‘g‘ib tashlardim hozir, — shunday deb shimining soat cho‘ntagidan damkaning toshiga o‘xshash muhrni olib, qog‘ozga bir urdi.

— Ma, tez bo‘l endi!

— Xo‘p bo‘ladi, amakijon.

Rais amakimning boshidagi ko‘pik qurib qolgan ekan, sochini qaytadan yumshatdim. Ikkovimiz ham jim, har zamonda ko‘zlarimiz uchrashib qoladi. Men, ishqilib, usta buvam bilan meni ishdan haydab yubormasaydi, deb sal qo‘rqibroq turibman. Sochni olib, atirlarning ham eng tozasidan sepib bo‘ldim. Rais amakim o‘rnidan turayotib, to‘satdan shunaqangi qattiq kulib yubordiki, xoh ishonang, xoh ishonmang, kulgi zarbidan eshiklar ham sharaqlab ochilib ketgandek bo‘ldi.

— Lekin juda boplading-da, uka, — dedi u boshiga do‘ppisini kiya turib. — Shuncha yoshga kirib hech kim meni bunaqangi boplamagan edi... Oting nima?

— Hoshimjon.

— Kimning o‘g‘lisan?

— Ro‘zivoy traktorining o‘g‘liman.

— E, o‘sha senmisan? Lekin, yoshing sal kattaroq bo‘lganida kolxozga ekspeditor qilib olardim-da! Birovdan narsa undirishga juda usta ekansan. Ma, manavi pulni olginda, yangi ustara, ko‘pikdon bilan atir-upa ham sotib olgin. Yo‘q desang, ustaxonani qurdirib bermayman.

Yo‘q, rais amakim o‘sha kuni aldamagan ekan. Ertasiga kolxozning bosh ustasi kelib, yangi tushadigan sartaroshxonaning o‘rnini lenta bilan o‘lchab, qanaqa qurilish materiallari kerakligini daftarchasiga yozib ketdi.

O‘n besh kun deganda ikki derazali, tagi polli ustaxonamiz bitdi. O‘n oltinchi kuni ustam ikkovimiz kun bo‘yi ko‘ch

tashidik, o'n yettinchi kuni endi ish boshlamoqchi bo'lib turgan edik, to'satdan usta buvamning mazasi qochib qoldi.

Uch-to'rt kun o'zim ishlab turdim. Bir kun ertalab Xayri xolam kelib, «usta buvang seni yo'qlayaptilar» dedi-yu, negadir yig'lab yubordi.

— O'zlari tuzukmilar? — dedim bo'shshib.

Borsak usta buvam ancha o'sal bo'lib qolibdi. Men tengi, mendan kichik nabiralari oyoqlarini uqalab ko'zlari mo'tillashib, atrofiga parvona bo'lib turishibdi. Usta buvam bir mahal ko'zini xiyol ochib:

— Keldingmi, o'g'lim? — deb so'radi.

— Keldim, buvajon.

— O'g'lim, ustachilikni tashlamagin. Do'kon berkilib qolmasin.

— Xo'p, tashlamayman.

— Hamisha pokiza bo'lg'in.

— Aytganingizni qilaman, buvajon.

— Hech tamagir bo'lmagin, o'g'lim... O'g'illarim... —

Usta buvam bir silkindi-yu, jim bo'ldi, boshi bir tomonga qiyshayib, ko'zlari olayib ketdi.

— Buvajon!

— Buvajon-ey!!!

Uyni dod-faryod qopladi. Hech qachon shu paytdagidek ich-ichimdan yig'lamagan bo'lsam kerak. Dodlagim, boshlarimni yerga urib dodlagim kelardi. Ichim kuyib, boshim aylanib, tishlarim g'ijirlar, ko'ksimdan esa: «Buvajonim!» degan faryod otilib chiqar edi.

Bir hafta tinmay yig'ladim. Lekin, o'zingiz ham bilsangiz kerakki, g'am-g'ussalarni tezroq unutishda qishlog'imizda menga teng keladigani yo'q. Bir ko'zim yig'lasa, boshqa ko'zim bilan kulib turaveradigan odatim bor. Usta buvamning arvohtarlarini shod qilish maqsadida tezdin ish boshlab yubordim. Temir taxtachaga: «Marhum usta Akrom bobo nomidagi sartarosh-xona» deb yozdirib, do'konning shundoqqina peshanasiga osib qo'ydim. Preyskurant o'rniga quyidagilarni yozdim.

1. A'lochi o'quvchilarning sochi bepul olinadi.
2. Yomon baho oluvchilar ikki hissa haq to'lashadi.
3. Chollar benavbat kiritiladi.
4. Yig'lagan bolalar chiqarib yuboriladi.

Bobojonimga motam tutib yurgan kunlarim do'kon berk bo'lib, soch-soqoli o'sganlar ko'payib ketgan ekan. Qo'l-oyog'i chaqqongina bola emasmanmi, hash-pash deguncha hammalarini tozalab qo'ydim. Lekin, bir qo'pol xatoga yo'l qo'yibman-ki, andak bo'lmasa meni tiriklayin ko'mib yuborayozishdi.

Usta buvam tirik ekanligida stakanga pashsha o'ldiradigan zaharli suv quyib qo'ygan ekan. Men kallavaram, uni ustarani chayqab oladigan xlorli suv deb o'ylab, soch yoki soqol olish oldidan ustarani o'shanga chayqab olaveribman.

Katta-kichikning boshi deysizmi, beti-yu bo'yni deysizmi — qayergaki ustara yoki qaychi tekkan bo'lsa, yara bosib ketdi. Unisiga u dedim, bunisiga bu dedim, oxiri bahona topolmay, do'konni qulflab uyga qarab qochib qoldim.

### **BUVIJONIM BILAN YIG'LAB-YIG'LAB XAYRLASHDIM**

Issiqqina ko'rpada o'rnimdan turaymi-turmaymi, deb ikkilanib, o'zimcha shirin-shirin xayollar surib yotgan edim, bir mahal ko'cha eshigimizni kimdir xuddi do'mbira chalgandek tapira-tupuriga olib urib qoldi.

— Kim u? — deb so'radim boshimni ko'tarib.

— Sherik, och. Bu menman, — dedi Zokir. Rostini aytсам bu dunyoda Zokirchalik mehribon, sadoqatli do'stim yo'q. Hamisha jonimga ora kiradi u. Urib boshini yorib tashlasang ham o'rnidan turib, «sherik, qo'ling og'rimadimi?» deb yana ko'ngil so'rayveradi.

Yugurib borib eshikni ochdim.

— Uylaringda hech kim yo'qmi? — birinchi savoli shu bo'ldi Zokirning.

— Ishga, o'qishga ketishgan.

— Sen-chi?

— Kasalman.

— Kasal bo'lganing yaxshi bo'libdi. Iloji bo'lsa yana uch-to'rt kun kasal bo'lib yot.

— Nega?

— Hozir aptekaga doriga boruvdim. Menga o'xshab boshiga, betiga yara toshib ketganlar to'planishib usta Hoshimning kir ustarasini qo'lidan tortib olib, o'zini rosa tepkilaymiz, deyishyapti.

— Endi nima qilsam ekan-a?

— Aytdim-ku, uch-to'rt kun kasal bo'lib yot, deb. Do'stginamning chin yurakdan bergan maslahatiga amal qilib, bir haftacha uydan chiqmay «kasal» bo'lib yotdim. Boshiga, betiga yara toshganlarning ahvoli haqida sadoqatli do'stim har kuni axborot berib turdi. Shu sadoqatli do'stim bir kuni yana hovliqib kelib qoldi:

— Sherik, ustaxonaga yangi sartarosh keldi! Bor, chaqirib kel, deb meni yubordi.

— Yangi sartarosh?! — shunday degancha ko'chaga otildim. Rost. Sartaroshxonamiz oldida begona odam o'tiribdi. Qo'lida kichkinagina, bir chekkasini sichqon kemirgan qora chamadonchasi ham bor. «Laylum, laylum» ohangida hushtak chalyapti.

— Assalomu alaykum! — deb odob bilan salom berdim.

— Siz Hoshimjon bo'lasizmi? — so'radi haligi odam salomimga alik olmay.

— Xuddi shunday.

— Marhamat qilib, qulfni ochsalar.

— Xo'p bo'ladi.

Yangi sartarosh ichkari kirib, ikki qo'lini shimining cho'ntagiga solgancha hushtak chala-chala, xonaning u yoq-bu yog'iga nazar tashlab chiqdi.

— Xo'sh, yigitcha, avval eshik tepasidagi bema'ni viveskangizni ko'chirib tashlang! — dedi nihoyat hushtak

chalishdan to'xtab. Usta Akromning o'zi kim? Davlat sartaroshxonasi nega endi uning nomiga qo'yilar ekan!

— U mening ustozim bo'ladi, bildingizmi!

— Sartaroshxonaga uning nomini qo'yish uchun maxsus ruxsatnoma oldingizmi?

— Yo'q.

— Bo'lmasa, viveskani tezroq ko'chirib tashlasinlar.

— Ko'chirmayman, — dedim negadir shu paytda yig'lagim kelib.

Yangi sartarosh tashqariga chiqib, o'zining bo'yi ham ikkita narvonni o'lchagandan balandroq ekan, viveskani yulib, magazinning tomiga otdi. Ichkari kirib, preyskurantning oldida to'xtadi:

— Bu nima maynavozchilik?!

Bir narsa demoqchi bo'lib shuncha urinsam ham, ovozim chiqmadi. Iyagim o'chib, lablarim tortishib, gapirolmay turaverdim. Yangi sartarosh, xonaning burchagida yotgan bo'sh yashikka usta buvamdandan qolgan jamiki asboblarni joyladi-da, yana ikki qo'lini cho'ntagiga soldi. Keyin, rayon sartaroshxonalar idorasi uni bu yerga sartarosh etib tayinlagani, men bugundan qolmay o'sha yerga borib uchrashishim zarurligini, agar bundan so'ng sartarosh bo'lib ishlashni xohlasam, ma'lum komissiyaning imtihonidan o'tishim shart ekanligi haqida axborot berib:

— Endi sekin jo'nab qolsinlar, — dedi. Yashikni asta qo'ltig'imga oldim.

— Sog'intirib qo'ymay tez-tez qadam ranjida qilib tursinlar, — dedi u zaharxandalik bilan kulib.

— O'zlari... o'zlari... — Yo'q, bari bir gapira olmadim. Yashikni ko'tarib, yugurgancha tashqariga chiqib ketdim. Jahldanmi, xo'rligim kelganidanmi, bunisini aniq bilmaymanku, ishqilib, shu yugurganimcha to'ppa-to'g'ri uyga borib to'xtadim. Kechgacha ko'ksimni yerga berib qorong'i uyda yotdim. Kechga tomon qattiq uxlab qolgan ekanman. Singlim, Dono'xon oyog'imdan tortib, uyg'ota boshladi. Ko'zimni ishqalab hovliga chiqsam, ayvondagi

so'rida buvijonim, dadam, yana bitta begona odam ham o'tiribdi. Kim ekan, deb ko'zimni kattaroq ochgan edim, — ishqilib ishning buyog'i pachava bo'lmasa edi-da, — uchastkovoy amaki kelibdi! Demak, masala ravshan. Meni qamashmoqchi. Iflos ustara bilan soch-soqol olib yarani ko'paytirib yuborganim uchun meni qamashga jazm qilganga o'xshaydi. Qochaman, hozir bet-qo'limni yuvmoqchi bo'lib chorvoqqa o'taman-u, Akromdan zo'rg'a qaytarvolib kundaning o'rniga ko'mib qo'ygan qadrdon qalpoqchamni olib boshimga kiyaman-da, juftakni rostlab qolaman. Yo'q, Hoshimjon anoyi bolalardan emas. Uni osonlikcha qamab bo'lmaydi!

— Hoshim, mehmon bilan ko'rishmaysanmi? — deb qoldi dadam.

— Hozir, chorvoqqa o'tib kelay, — dedim chaynalib.

— Avval ko'rish, odobsiz!

Shu payt uchastkovoy amaki o'rnidan turib, ikki qo'lini cho'zganicha, ko'rishish uchun men tomonga yura boshladi:

— O'h-ho', katta yigit bo'lib qolibsiz-ku!

— Ha, aqlning o'rniga ham xudo unga bo'ydan beryapti, — deb qo'ydi buvijonim.

— Yigit kishi mana shunaqa bo'ydor bo'lgani yaxshi, — dedi uchastkovoy amakim men bilan ko'rishib bo'lgach.

«Qochaymi, qochmaymi, aftidan meni qamoqqa oladiganga o'xshamaydi, juda xursand ko'rinadi, qani bir azmoyish olay-chi, qochishga hamma vaqt ulguraman». Shu uy bilan so'rining chetiga omonatgina o'tirdim. Dadam uchastkovoy amakimga, uchastkovoy amaki dadamga zimdan qarab qo'yishyapti.

— Gapirsang-chi, Ro'zi, yo o'zingning bolangdan ham uyalasanmi! — urishib berdi buvijonim. Bechora dadam-ey. Gapga shunaqangi no'noqki, asti qo'yaverasiz. U ishiga faqat ish bo'lsa-yu, gapni menga qo'yib berishsa-da. Dadam do'ppisini olib, boshini qashidi. Yo'taldi, joylashibroq o'tirib oldida, do'ppisini kaftiga urib, yana kiydi.

— Endi, o'g'lim!... Choy ichasanmi?

— Yo‘q.

— Xo‘sh, men yigitligimda kim bo‘lishni orzu qilganimni senga aytganman-a?

— Militsioner bo‘lmoqchi bo‘lgansiz.

— Nima uchun meni ishga olishmagan?

— Qulog‘ingiz kar bo‘lgani uchun.

— Kar emas, og‘irroq edi. Hozir, mana ochilib ham ketdi. Xo‘sh, nima uchun militsioner bo‘lishni orzu qilgan edim?

— Bir militsioner sizni o‘limdan qutqarib, o‘zi o‘lgani uchun.

— O‘lgan emas, qahramonlarcha halok bo‘lgan, — deb tuzatib qo‘ydi uchastkovoy amaki.

— Uyning to‘riga kimning suratini osib qo‘yganmiz? — so‘rashda davom etdi dadam.

— Marhum kapitan Akromovning, — javob berishda davom etdim men ham.

Dadamning peshanasida yiltirab ter ko‘rindi. Cho‘ntagini paypaslab ro‘molchani topolmagach, engashib, dasturxonga artmoqchi bo‘lgan edi, buvijonim jerkib berdi:

— Soqolingga oq kirsam ham aqling kirmas ekanda, Ro‘zi!

— Hadeb soqol-soqol deysiz, — dadam ham bo‘sh kelmadi, — bu Hoshimingizga gap tushuntirish oson bo‘lsa ekan. Yo‘q deb qolmasin, deb bu yoqda o‘zim jonimni hovuchlab turibman.

Dadam bundan yigirma ikki yil oldin, kech kuzda shaharga uzum sotgani boribdi. Yaxshi pul qilib kelsa, oyim ikkovlarining to‘ylari bo‘lishi kerak ekan. Uzunni sotib bo‘lguncha qorong‘i tushib qolibdi. Dadam qo‘rqa-pisa qaytayotgan ekan, jar yoqasida o‘g‘rilar yo‘lini to‘sisib:

— Qani, pulni chiqar! — deyishibdi. Dadam shunaqangi qattiq dodlabdiki, yer-ko‘k larzaga kelibdi. Nariroqdan bir militsioner velosipedga qizchasini mindirib o‘tib borayotgan ekan. Dam olish kuni bo‘lgani uchun yonida to‘pponchasi ham yo‘q ekan. Shunday bo‘lsa ham, bir zumda yetib kelib, o‘g‘rilarga tashlanibdi. Dadam unga ko‘maklashish o‘rniga, eson-omon qutulganiga shukr qilib, qopni qo‘ltig‘iga urib,



soatiga 50 kilometr chamasi tezlikda qochishga tushibdi. Pulni oldirib qo'yishdan qo'rqqanmi yoki o'g'rilar bilan mushtlashib ko'ylagimni yirtib borsam, buvijonim urishadi deb o'ylaganmi, ish qilib, qochib qolgan-da.

Oradan olti kun o'tgach, dadam gazetada bir militsionerning surati bilan ta'ziyanomani ko'rib qolgan. Ta'ziyani o'qib, bu o'sha uni o'limdan qutqargan militsioner ekanini bilgan va yana dodlab yuborgan. Ertasiga marhumning uyiga borib, o'rtoq Akromov meni qutqargan edi, uni oilasi oldida gunohkorman, deb rosa yig'lagan. Shu holda, ya'ni yig'lagancha militsiya idorasiga borib, bo'lgan voqeani ochiqchasiga aytgan va uning o'rniga meni ishga olishlaringizni so'rayman, degan. Lekin, o'sha kuni tayinli javob ololmagan. Tayinli javob olguncha roppa-rosa bir oy qatnagan. Nihoyat, endi niyatiga yetay deganda qulog'i ishning beliga tepgan.

— Mayli, qulog'im og'ir bo'lsa ham ishlayveraman,— deb oyog'ini tirab turib olgan dadam.

— Yo'q, avval quloqni davolating, — deb maslahat bergan militsiya boshlig'i.

Bu voqeani dadam bizga bir necha martalab aytib bergan. Uchastkovoy amakiga ham aytib, iloji bo'lsa, o'g'lim Hoshimjonni militsioner qilmoqchiman, degan ekan.

Yaqinda shaharda yosh militsionerlar tayyorlaydigan o'rta maktab ochilibdi, bizning tomonlardan ham bir bolani tanlab yuborishlarini so'rab, pechat bosilgan xat yuborishibdi. Uchastkovoy amaki mening haqimda, mening Yong'oq qori pochchani fosh qilganim, ashaddiy jinoyatchi Sultonovni qo'lga tushirishga yordamlashganimgacha hammasini yozib yuborgan ekan. O'sha maktabning direktori: «Hoshimjon Ro'ziyevni tezda bizga olib keling», deb tayinlabdi. Uchastkovoy amakim bugun ertalab dalaga — dadamning yoniga borib, shunday-shunday debdi. Dadam, «men rozi, kechqurun uyga keling. Birgalashib buvijonisi bilan oyisini ham ko'ndiramiz», debdi.

Uchastkovoy amaki men uxlab yotganda kelgan ekan. Bu masalani oilamizning hamma a'zolari obdan muhokama qilishibdi. Buvijonim: «Yakkayu yagona o'g'limni o'limdan olib qolgan o'sha rahmatli militsionerning arvohini shod qilib Hoshimjonginam militsiyaga kirib, halol xizmat qilsa, men mingdan-ming rozi. Lekin, birovni o'g'ri tunasa yaqiniga bormay, uzoqdan hushtak chalib, to'pponcha otaversin...», debdi. Oyim: «O'zim ham bilmay qoldim, bolaginam ming hunarga qo'l uryapti-yu, bari bir tashlab ketyapti. Ishqilib kechasi navbatda turganda uxlab qolib hammamizni uyatga qo'ymasa bo'lgani...» debdi. Oyshaxon: «Akam militsioner bo'lsa Ortiq ola ko'zni qamataman, sochimdan tortib hech dars tinglatgani qo'ymaydi», debdi. Donoxon bo'lsa: «Urta akam militsioner bo'lsa, kechasi uxlaganda hushtagini o'g'irlyayman-da, maktabga borganimda maza qilib chalib yuraman», degan gaplarni aytibdi. Xullas, suyukli o'g'illariga, ya'ni mulla Hoshimga, uning ruxsatisiz, allaqachon militsiya formasini kiygizib, hushtagigacha o'g'irlab bo'lishibdi.

— Mana shunaqa gaplar... — dedi uchastkovoy amaki suhbatimizning oxirida. — O'zingiz nima deysiz?

Qiziq... Nimalar bo'lyapti o'zi, o'ngimmi, tushimmi? Men o'zi qanaqa bolaman? Shu paytda xursand bo'lishim kerakmi yoki xafa bo'lib yig'laymi? Hozirgina qochishga, yana darbadar bo'lishga tayyor edim. Endi bo'lsa... Tavba! Militsionerlik! To'g'ri, dadam bu haqda ko'p gapiradi, gapirganda ham shavq-zavq bilan gapiradi. Yigitning xo'rozi militsiyaga kiradi, deb maqtangani-maqtagan. Bordi-yu, militsiyaga kirib ketsam, unda sartaroshlikni kim qiladi? Axir men usta bobomga bu kasbni hech tashlamayman deb so'z berganman-ku. Yoki... kechasi militsionerligu, kunduzi sartaroshlik qilsa ham bo'larmikan?

— Gapir, nega jim bo'lib qolding? — qistadi dadam.

— Sartaroshlik nima bo'ladi? — so'radim uchastkovoy amakidan.

— Yigit kishiga yetmish hunar oz, — dedi uchastkovoy amaki. — Sartaroshlikni o'sha yerda ham davom ettiraverasiz.

— Qachon jo'naymiz?

— Demak, rozimisiz? — bu savolni uchastkovoy amaki berdi-yu, ammo javobini butun oilamiz a'zolari kutardi. Savolni qarang: «Rozimisiz» emish. Hoshimjon yangi kasb tanlash oldida hech ikkilanganmi o'zi? Yo'q, hech qachon! Asta o'rnimdan turdim-da, kaftimni qulog'im ustiga qo'yib:

— Polkovnik Hoshimjon Ro'ziyev buyro'g'ingizga tayyor! — deb hammalarini kuldirib yubordim.

Osh suzildi, ketidan tarvuz so'yildi, e boringki, sovib qolgan choylar ham ichib bo'lindi. Ertaga soat 9 da jo'nashga kelishib, dasturxonga fotiha o'qidik. Shu oqshom uydagilar menga biram mehribon bo'lib qolishdiki, asti qo'yaverasiz. Katta singlim Oyshaxon paypoqlarimni yuvgan, kichik singlim Donoxon shimimga dazmol bosgan! Oyim patirga unnab ketdi, dadam pul olib kelgani kassirning huzuriga otlandi.

Kechasi buvijonim ancha mahalgacha uxlamay bosh tomonimda o'tirib, sochlarimdan siladi, peshanamdan qayta-qayta o'pdi.

— Obbo' tentagim-ey, shunday qilib bizni yana tashlab ketar ekansan-da? — dedi u negadir yig'lamsirab.

— Tashlab ketaman, buvijon.

— Tez-tez xat yozib turgin.

— Xo'p bo'ladi, buvijon.

— Bemahalda ko'chaga chiqmagin.

— Yaxshi.

— Astoydil o'qib, odam bo'lish payidan bo'lgin.

— Aytganingizni qilaman, buvijon.

— Bema'ni bolalar bilan yurmagin.

— Xo'p.

— O'zingdan katta ish buyursa yo'q demagin.

— Hech yo'q demayman.

— Ko‘ylaging kir bo‘lsa oqshom yuvib qo‘ysang, ertalabgacha quriydi. Kir ko‘ylak bilan ko‘chaga chiqmagin.

— Xo‘p bo‘ladi.

— Yeyish-ichishdan o‘zingni qisma, shukr, dadangni topishi yomon emas. Pul jo‘natib turamiz.

— Meva-chevadan posilka ham qilib turinglar.

— Bo‘lmasam-chi, bolam, topganimiz seniki. Ishqilib, o‘lim bo‘lmasin...

Buvijonim to‘satdan yig‘lab yubordi. O‘rnimdan turib, yupataman deb shuncha urinsam ham, hech iloji bo‘lmadi. Ko‘z yoshlari ham to‘planib qolgan ekanmi, quyilib kelaverdi.

— Buvijon, siz hali o‘lmaysiz! — shunday deb mehribon buvijonimning ajin bosgan betlaridan, ko‘zlaridan o‘pa boshladim.

— O‘lib qolsam-chi?

— Yo‘q, o‘lmaysiz?

— O‘laman.

— O‘lmaysiz!

— Bordi-yu, issiq, jon-da... Eshitsang, darrov kelib hassa ushlagin.

— Buvijon!

— Bolaginam! Tentagim!

To‘satdan ich-ichimdan bir xo‘rsinish keldi-yu, ho‘ngrab yig‘lab yubordim. Nazarimda buvijonimdan ayrilayotgandek, onamdan ham aziz bo‘lgan, meni deb o‘tga ham, suvga ham urgan mehribonimdan ajralib qolayotgandek bo‘lib ketdim.

— Yig‘lama, bolam! — endi buvijonim meni yupata boshladi.

— Yo‘q, bormayman, o‘lib qolasiz.

— O‘lmayman!

— Bordi-yu... issiq jon-da...

— Unday dema. Xudo xohlasa, hali seni bolangni ham katta qilib beraman.

— Lekin uning qulog‘idan cho‘zmaysiz.

— Cho‘zaman...

Shu yo‘sin buvijonim ikkimiz goh yig‘lashib, goh kulishib, chaqchaqlashib tong ottirdik.

Ertalab uchastkovoy amaki bilan shaharga jo‘nab ketdim. Odamlar meni militsioner olib ketayotganini ko‘rib: «Hoshimni qamagani olib ketishyapti. Essizgina, yaxshi o‘qimasa ham, har qalay, yaxshi bola edi. Qayoqdan ham shu sartareshlikka qo‘l urdi-yu, baloga qoldi...», deyishibdi.

## SERJANT RO‘ZIYEV ISH BOSHLADI

Qasam ich desangiz, qasam ichib aytamanki, uch yilning qanday o‘tganini mutlaqo sezmay qolibman. Bu orada buvijonim bir necha marotaba shaharga kelib, meni ko‘rib ketdi. Men ham bir necha marotaba qishloqqa borib, ularning hol-ahvolini bilib qaytdim. Men asli militsionerlar o‘rta maktabining o‘quvchisimidim yoki o‘zim ochgan «marhum usta Akrom bobo nomidagi» bepul ishlaydigan sartareshxonaning sartareshimidim, ishonsangiz, keyinchalik o‘zim ham unutib yubordim. Aytgandek, sizga aytaman deb esimdan chiqib qolibdi.

— Men maktabga eson-omon kirib olgach, yotoqxonamizning shundoqqina biqiniga hurmatli ustozim nomida ustaxona ochdim. Avval o‘zimga o‘xshash kamxarj kursant bolalarning soch-soqolini olib yurdim. Keyinchalik muallimlarimiz ham, leytenantdan tortib, to polkovniklargacha kirib turadigan bo‘lishdi. Bir kuni, ishonsangiz, bitta generalning ham soqolini olib qo‘ydim. Komissiya bo‘lib kelgan ekan, yotoqxonalarining ahvolini tekshirib yurib, to‘satdan mening sartareshxonamga ham kirib qoldi. Darrov ikki oyog‘imni juftlab chest berdim:

— Kursant Hoshimjon Ro‘ziyev!

— Yaxshi, — dedi general, — «usta Akrom» deganingiz kim?

— Ustozim bo‘ladi, o‘rtoq general.

- Militsionermi?
- Yo'q, o'rtoq general, sartarosh bo'lgan.
- Tekinga ishlaydi, deganingiz nimasi?
- Ustozim shunday deb vasiyat qilgan, o'rtoq general.
- Soqolni yaxshi olasizmi?
- Sinab ko'rishingiz mumkin, o'rtoq general.
- Qani, sinab ko'rsak, ko'raylik-chi.

O'ziyam o'sha kuni boshqacha bo'lib ketdim-da. Sochig'u choyshablarning eng tozasidan ishlatdim. Ustaraning ham shunaqangi o'tkiridan tanladimki, haligacha o'zim o'zimga hayron qolaman. Xushbo'y atir-upalardan sepib, beozorgina massaj ham qilib qo'yganimdan so'ng general o'rnidan turib...

— Barakalla. Sendan qanaqa militsioner chiqishini aytolmayman-ku, lekin yaxshi sartarosh chiqishi aniq, — deb yelkamga urib qo'ydi.

Xullas, o'qishni tugatib, har kim har yoqda yo'llanma ola boshladi. Meni shaharning Kattasoy rayon militsiyasi ixtiyoriga jo'natishdi.

— Qaysi bo'limga lozim topishsa, o'sha bo'limda ishlayverasiz, xohlasangiz militsionerlarning soch-soqolini olib yuraverasiz, — deb jindak hazil ham qilib qo'yishdi.

Avval ishga joylashay, keyin qishloqqa borib, besh-o'n kun o'ynab, yoru do'stlarimni ko'rib kelarman, deb xayol qildimu militsiya bo'limiga jo'nadim. Bo'lim boshlig'i Ali Usmonovning qabulxonasiga kirib, shapaloqdek keladigan oynaga tikilganча labini bo'yab o'tirgan sekretar qizga nima maqsadda kelganligimni aytdim. Qiz ichkari kirib, darrov orqasiga qaytdi:

— Kirishingiz mumkin ekan.

Ichkari kirib, qoidaga qattiq rioya qilgan holda tovonlarimni bir-biriga urishtirib baland ovoz bilan chest berdim.

— Sartarosh Hoshimjon Ro'ziyev huzuringizga keldi!

Polkovnik xiyol o'rnidan turib

— Nima? — deb, so'radi.

— Kechirasiz, o'rtoq polkovnik, yanglishib ketibman. Serjant Hoshimjon Ro'ziyev huzuringizga keldi.

— Bu boshqa gap. Xo'sh, xizmat? Polkovnik men uzatgan yo'llanmaga ko'z yugurtirib chiqqach, shoshmasdan o'rniga o'tirdi. Kursda qanaqa o'qiganligim, kimlar dars berganligi, qayerlik ekanligim, ota-onam nima ish bilan mashg'ulligi to'g'risida yarim soatcha surishtirdi. Keyin kattaligi kichikroq xontaxtachadek keladigan, surguchlangan konvertni ochib mening shaxsiy delom bilan ham shoshmasdan tanishib chiqdi. Nihoyat, ma'qul bo'ldi shekilli, boshini ko'tarib:

— Chakki emas, — deb qo'ydi. — Xo'sh, qaysi bo'limda ishlamoqchisiz?

Xo'sh, qaysi bo'limda ishlasam ekan? Xabaringiz bormi, yo'qmi, militsiyada bo'limlar juda ko'p bo'ladi: jinoyat qidiruv bo'limi, jamoat mulkini talon-taroj qiluvchilarga qarshi kurashish bo'limi, aybiga iqrorga qildirish bo'limi, xizmat bo'limi, avtoinspeksiya bo'limi, qorovullar bo'limi, o't o'chirish bo'limi, e boringki... shunaqangi bo'limlar-da. Bir xayolim o't o'chirish bo'limiga kirib olib, oshxo'rlik qilib elektr choynakda achchiq-achchiq choy damlab ichib, maza qilib yuraverayin ham dedim-u, negadir, bu fikrimdan darrov qaytdim. Xo'sh, qaysi bo'limda ishlasam qimmatli dadajonimning orzularini tezroq ro'yobga chiqarar ekanman, qahramonliklar ko'rsatib, Orif, Zokir, Mirobiddinxo'jalarni hayratda qoldirar ekanman?

— Nega o'ylanib qoldingiz? — so'radi boshliq.

— O'rtoq polkovnik, buvijonim yetti o'lchab bir kes, deb aytardi.

— Demak, o'lchayapman deng?

— Ha, o'rtoq polkovnik, o'lchayapman.

— Lekin, o'rtoq serjant, juda uzoq, o'lchar ekansiz.

— Yo'q, javobim tayyor. Qaysi bo'limni lozim topsangiz, o'sha bo'limga o'tib ishlayveraman.

— Rahmat, o'rtoq serjant. Mana bu chinakam militsionerning javobi. Militsioner, ya'ni davlat

kantselyariyasining xodimi egarlangan otdek hamisha shay turishi kerak. Qaysi ishga yuborsak bo'yin tovlamay, uni qoyillatish payidan bo'lishi kerak. Men hozir sizni polkovnik Salimjon Otajonovga topshiraman. U kishidan ish o'rganasiz. Respublikamizning eng atoqli militsiya xodimlaridan biri u. Halol, sadoqatli. xalq, davlat ishiga jonini tikkan tengi yo'q odam. Undan ish o'rganishga harakat qiling. Keyin qaysi bo'limda ishlashingizni yana o'ylashib ko'rarmiz.

Boshliq knopkani bosgan edi, ostonada sekretar qiz ko'rindi:

— O'rtoq. Otajonovni chaqiring.

Xiyol o'tmay xonaga novcha bo'yli, ko'kraklari keng 55—60 yoshlardagi bir odam bosh yalang kirib keldi. Ali Usmonov bilan so'rashib, menga bir ko'z tashlab qo'ydi. Yuzi cho'zinchoqdan kelgan, o'ng betida chandig'i bor, peshanasi keng, tepa sochi tushib ketibdi. Ko'zlari, negadir sal g'alatiroq boqadi. Bir qarashda kishini erkalatayotgandek, yana bir qarashda: «To'xtab tur, sen o'zing kim bo'lasan?» — deb so'rayotgandek tuyuladi. Ikkala ko'zi bilan baravar tikilsa, xuddi birov ko'kragingga to'pponcha qadagandek, qo'rqib, beixtiyor o'rningdan turib ketasan. Lablari kulib turibdi-yu ammo yuragining qa'rida senga nisbatan yashirin g'azabi borga o'xshaydi. Men negadir qaltiray boshladim. Ali Usmonov qisqagina tushuntirib:

— O'rtoq Ro'ziyev sizning qo'lingizda ishlaydi, — dedi.

Polkovnik Otajonov:

«Mening bo'limimni bola bog'cha qilib yubordinglar-ku», deb kulib qo'ydi. O'rtoq Usmonov ham kulib: «Chunki siz mehribon murabbiysiz-da», deya javob qaytardi.

Men jimgina yangi boshlig'imning orqasidan ergashdim. Bay-bay-bay, bo'ydan ham bergan ekan-da, xuddi devga o'xshaydi-ya. Gursillatib qadam tashlagandachi, ishonsangiz, pollar lapanglab ketyapti-ya. Eshiklarning



hammasidan engashib o'tdi. Xonaga kirgach, divanga o'tirib, meni ham yoniga taklif qildi.

— Xo'sh, oting nima, o'g'lim? — deb to'satdan senlab gapira boshladi.

— Hoshimjon!

— Iye, mening amakim bilan adash ekansanda. Militsionerlar tayyorlaydigan o'rta maktabning birinchi bitiruvchilaridanman degin? Yaxshi. Xo'sh, militsionerlikni tanladingmi yoki birovning tavsiyasi bilan keldingmi?

— Dadam tavsiya qildi.

— O'zing bu ishni yaxshi ko'rasanmi?

— Yaxshi ko'raman.

— Unda ishimiz soz ekan. Bir xillar militsionerlikka formasi bilan hushtagiga ishqiboz bo'lib kiradi. Bunaqalar uzoqqa bormaydi. Ikki-uch yilda post tashlab qochib ketadi. Turadigan joying bormi?

— Hozircha, o'rtoq polkovnik, kursantlarning yotoqxona-sida turibman.

— Meni Salimjon aka deb chaqiraver, rasmiyatchilikni yomon ko'raman. Lekin, raport borayotganingda o'rtoq polkovnik deb murojaat qilmasang, naq tilingni sug'urib olaman... Hozir o'sha yerda tura tur. Keyin bir ilojini qilarmiz. Ehtimol uyimga olib ketarman... Bizning bo'lim qanaqa bo'lim ekanligini bilasanmi?

— Yo'q, bilmayman.

— OBXSS bo'limi deyiladi. Juda og'ir bo'lim. Nima ko'p desang, hozir jamoat, davlat mulkiga ko'z olaytiruvchilar ko'p. Ular shunaqangi ustaki, hushyor bo'lmasak, sen bilan mening boshimizga qalpoq kiygizib ketishadi. Men ularga nisbatan qattiqroq turish tarafdoriman. Lekin Ali Usmonovich tarbiyalash kerak, deb ko'pincha ko'ngilchanlik qiladi... Ha mayli, bular haqida keyin yana bafurja gaplashamiz... Nima bo'lganda ham militsiya qattiqqo'l bo'lishi kerak.

Mening Salimjon aka haqidagi fikrim o'sha kuni tez-tez o'zgarib turdi. Hali boshliqning huzurida bo'lganlarda,

ochig'ini aytsam, undan qo'rqib ketgan edim. Hozir esa, dilkashlik qilgani uchun sal-pal yaxshi ko'rib qolgandek bo'ldim. Kechga tomon mening ko'z oldimda yosh bir leytenantni qattiq urishganini, leytenantning dag'-dag' qaltirayotganini ko'rib, bu odamni yaxshi ko'rishni ham, yomon ko'rishni ham bilolmay, lanj bir tushuncha bilan yotoqxonamga qaytib ketdim.

Oradan o'n uch kun o'tgach, meni polkovnik Otajonov o'z huzuriga chaqirtirdi.

— Xo'sh, o'rtoq Ro'ziyev, endi ishni boshlasak ham bo'lar deyman?

— Bo'ladi, o'rtoq polkovnik.

— Mana bu shikoyatni o'qib chiqing-da, tezda chora ko'rishga kirishing.

— Xo'p bo'ladi, o'rtoq polkovnik.

Mehnatkashlar yozgan shikoyat xatni olib, o'z xonamga chiqib ketdim. Ish boshlandi! Serjant Hoshimjon Ro'ziyev ish boshladi! Mana endi, jamoat mulkiga ko'z olaytiradiganlar bo'lsa navbati bilan ta'zirini yeyaveradi!

## OSHXONANING BAXTI QARO DIREKTORI

Birinchi topshiriq juda g'alati bo'larkan. Bir tomondan, quvonchim ichimga sig'may, sakrab, o'yin tushvoray-o'yin tushvoray deyman. Ikkinchi tomondan, bordiyu ishni buzib qo'ysam-chi, deb o'zimdan-o'zim andak qo'rqib ham turibman. Yuragimni hovuchlab, shikoyatni qayta-qayta o'qiyman.

*«Kattasoy rayon militsiya bo'limining boshlig'i polovnik o'rtoq Usmonovga. «Rohat» oshxonasida ovqatlanib hamisha joni azobda yuruvchi bir gruppaxo'randalardan*

## SHIKOYAT

*Biz, siz hurmatli boshliqqa shuni yozib ma'lum qilamizki, 12-sonli oshxonada institut studentlari, poliklinika va dorixona xizmatchilari, mahalla ahlining katta-kichik mehnatkashlari ovqatlanib kelamiz. Bu oshxona emas, azobxona! Ovqatlari shunaqangi bemazaki, ta'rifini hech keltirib bo'lmaydi. Buning ustiga cho'michdan ham qoqib qolishadi. Shu oyning boshida shahar savdo inspeksiyasiga shikoyat qilgan edik, u yerdan kelib tekshirish o'tkazishuvdi, xo'randalarning haqidan 30—35 foizini urib qolinayotgani ma'lum bo'ldi. Biz, mana endi qo'li egri oshpazlar ta'zirini yeydi, deb turgan edik, yo'q, bunaqangi voqea yuz bermadi. Hammalariga bittadan hayfsan ulashib chiqishdi. Agar shunaqangi hayfsandan mingtasini ipga tizib, bo'yniga osib qo'yganingizda ham bu tovlamachilarga zig'irdek ta'sir qilmaydi. Negaki, bular uchun hayfsan bilan tashakkurning farqi yo'q.*

*Biz, bir gruppaga o'qituvchilar, vrachlar, studentlar va boshqa ko'ngli to'lmay yurgan xo'randalar, siz boshliqdan oshxonada tartib o'rnatishga yordam berishingizni so'raymiz.*

*Qambarov. Qosimov, Qodirov  
va boshqalar».*

Bu shikoyatni kechasi bilan qayta-qayta o'qiyverib, ishonsangiz, paqqos yodlab oldim. Yodlab oldim-u, ertasiga kunduz soat birgacha ishni nimadan boshlashni bilmay garang bo'lib o'tiraverdim. Nihoyat: «Avval borib, shu oshxonada ovqatlanaman, mazali-mazasizligi o'zim sinab ko'raman. So'ngra taomlarning hammasidan oz-ozdan olib, shaharning bosh laboratoriyasini tekshirtirib ko'raman», — degan qarorga keldim.

Oshxona «G'alaba» xiyobonining shundoqqina yongina-sida. Ko'p qavatli uyning ostida ekan. Odam shunaqangi ko'pki, xuddi vokzalning chiptaxonasiga o'xshaydi. Avval

qo'yilgan vitrinalarni ko'zdan kechirdim. Kotlet – 42 tiyin, lag'mon – 38 tiyin, palov – 63 tiyin – hammasi joyidaga o'xshaydi. Bufetga o'tdim. Boshiga oq surpdan xaltacha kiyib olgan, burni, peshanasi terlab turgan baqaloq bir yigit qo'li-qo'lga tegmay xizmat qilyapti: birovga aroq, birovga perashka, yana bittasiga konfet uzatyapti — norozilik yo'q, hammasi sizuz biz. Kassani ham ko'zdan kechirmoqchi bo'ldim. O'n yetti-o'n sakkiz yoshlardagi bitta qizcha o'tiribdi. Shunaqangi ozg'in, shunaqangi nimjonki, xuddi shu oshxonaga kirgandan buyon ovqat berishmaganga o'xshaydi. Ammo nozik barmoqchalari shunaqangi tez, shunaqangi aniq ishlayaptiki, xuddi sehrgarga o'xshaydi.

— Eshitaman, — deb so'radi mendan yaqiniga borganimda.

— Bir portsiya lag'mon, — dedim shoshilib.

— Non ham olasizmi?

— Yo'q.

— O'ttiz sakkiz tiyin, — dedi qiz chek uzatib.

— Qirq tiyin ola qoling, — deb iltimos qildim qo'lga tushirmoqchi bo'lib.

— Rahmat, yig'ib yursangiz morojenoye olib yeysiz! — shunday deb qizcha ikkita bir tiyinlik uzatdi.

Lag'monni olib, chekkaroq bir yerga o'tirdim. Endi yeya boshlagan edim, 55—60 yoshlardagi bir odam bir qo'lida kotlet, boshqasida shavla keltirib yonimga o'tirdi. Yuragim «shuv» etib ketgandek bo'ldi, bu odamning nimasidir Yong'oq qori pochchamga, velosiped minib qochgan o'sha ustozimga juda o'xshab ketardi. Yo'g'-ey, qori pochchamning moshguruch soqollari ko'ksilariga tushib turardi, qo'llarida tasbeh, boshlarida savatdek salla bo'lardi. Bu odamda bo'lsa, soqol degan narsa yo'q — qip-qizil ko'sa. Boshida shlyapa, ko'ksida tuguni mushtumdek keladigan gulli galstuk. Yo'q, yo'q. Bu butunlay boshqa odam.

— Tfuu! — dedi yonimda o'tirgan odam, qoshiq bilan tarelkani bir urib. — Shu ham ovqat bo'ldi-yu!

— Rostini aysam men ham yeya olmay o'tiribman, — dedim boshimni ko'tarib, — lag'mon emas, mag'zava.

— Men kotlet deb olsam, bilmadim nimani solib berishibdi, — deb yomonladi yana yonimdagi xo'randa.

— Qaylasiga go'sht o'rniga baqlajon solishibdi, — dedim men uni ko'proq gapga solish uchun.

— O'g'ri bo'l, insofli bo'l-da, nomard! — dedi begona odam battar tutaqib.

Taomlarning bemazaligi xususida ikkimizning fikrimiz bir joydan chiqib qoldi. O'n minut chamasi oshpazu, kassiru, direktorigacha aralashiga yomonlab, go'riga g'isht qaladik.

— Mana, siz militsiya xodimisiz, — dedi suhbatdoshim qizishib, — nega shunaqangi yulg'ichlarga chora ko'rmaysizlar?

— Ehtimol ko'rarmiz.

— Yo'q, sizlar chora ko'rmaysizlar, shikoyatni eshitib, chakkanglarni qashib, teskari qarab ketaverasizlar.

— Aksincha, men chora ko'rgani keldim.

— Ishonmayman.

— Ishoning. Mana, cho'ntagimda mehnatkashlarning shikoyati ham turibdi.

— Demak, chora ko'rasizmi?

— Ko'ramiz.

— Bo'lmasa, yuring, ichkariroqqa kiramiz. Alohida xona bor. O'sha yerda bafurja gaplashamiz.

Men ishingga yordami tegadigan sherik topilganidan o'zimda yo'q sevinib ketdim. O'zi omadi bor yigitman-da, biror ishga qo'l urgudek bo'lsam mana shunaqa o'z-o'zidan yurishib ketaveradi!

Zalning to'rida kichkinagina xona bor ekan. O'sha yerga kirib, eshikning ichidan berkitib oldik.

— Avvalo tanishib olaylik ismim — Odil, familiyam — Abbosov. O'zlarining ism-shariflari?

— Hoshimjon Ro'ziyev.

— Hoshimjon; men bu oshxonaning baxti qaro direktori bo'laman.

— A?! — beixtiyor o'rnimdan turib ketdim.

— Qo'rqmang, — sekingina yelkamdan bosib qo'ydi baxti qaro direktor, — men sizning ishingizga xalaqit bermoqchi emasman. Aksincha, yordam bermoqchiman... Men, ukaginam, bu yerda yakkalanib qoldim. Menga yordam kerak, yordam bering! Direktor bo'lib kelganimga olti oy bo'ldi, olti oydan buyon ovqatlarni lazzatli qilish uchun kurashaman. Ammo bu yerda ikkita pixini yorgan, g'irrom oshpaz bor. Biri milliy taomlar bo'yicha, ikkinchisi yevropacha taomlar bo'yicha bosh oshpaz bo'lib olishgan. Har birining beshtadan shogirdi bor. O'nta shayton birlashib olsa, direktorning qo'lidan hech ish kelmas ekan. Men chiday olmaganimdan yaqinda xo'randalarga aytib, shahar savdo inspektsiyasiga shikoyat yozdirdim... Afsuski, undan ham naf chiqmadi — bittadan hayfsan bilan qutulib ketishdi... O'rtoq serjant, sizga to'liq ishonсам bo'ladimi?

— Militsiyaga ishonmasangiz, unda kimga ishonasiz? — dedim sal achchig'im chiqib.

— Rahmat. Ming rahmat sizga, ukam. Sizga aytadigan sirim shuki, haligi oshpazlar har kuni 100 so'mdan pul ishlab ketishadi, Shogirdlari 25 dan olishadi.

— Yo'g'-ey! — dedim ishonmay.

— Rost aytyapman. Bu baloxo'rlar har qanday odamni darrov sotib olishadi. Lekin... sizdan ham qo'rqib turibman.

— Hoshimjon Ro'ziyev sotiladiganlar xilidan emas! — stolni mushtlab o'rnimdan turib ketdim.

— Bari bir, sizni ham tuzlab jo'natishadi. Har ehtimolga qarshi ogohlantirib qo'yyapman.

— Ko'ramiz, kim kimni tuzlar ekan!

— Siz hushyor yigitga o'xshaysiz. Ko'zlaringiz chaq nab turibdi. Yoshsiz-da, olovsiz, olov! Yaqinda yeng shimarib ishga astoydil kirishdim. Mehnatkashlarga aytib, yana shikoyat yozdirdim. Militsiyaga jo'natilganlar, xalq, davlat manfaatini o'sha yerda himoya qilishadi dedim... Shikoyat haligacha bormabdi-da?

Cho'ntagimdan shartta shikoyatni chiqarib, baxti qaro direktorga uzatdim. U shikoyatnomani o'qiyapti-yu, men bo'lsam: «Bechora Odil aka-ey, bitta o'zingiz o'nta shaytonga qarshi nima ham qila olardingiz, og'ir ahvolga tushib qolgan ekansiz, nega darrov mening boshlig'imga uchrashmadingiz. Ha, mayli, hali ham kech emas. Ta'zirini berib qo'yamiz...», deb o'ylayman. Unga rahmim keladi. Ko'nglini tog'dek ko'taradigan biror gap aytmoqchi bo'laman.

— Bu vrachlarni taniyman, — dedi Odil aka shikoyatni menga uzatib. — Mana bu Qambarov degani tish doktori bo'lib ishlaydi. Qo'li juda yengil, har qanday baquvvat tishni ham bir siltaganda sug'urib oladi. Qodirov bo'lsa — xirurg. Xuddi sizga o'xshash adolatparvar, hushyor yigit! Bo'lmasa endi amaliy ishga o'tsak.

— Men tayyorman.

— Tekshirtirib ko'rish uchun taomlardan qachon olasiz?

— Ertaga olsammi deb turibman.

— Yo'q, yo shanba, yo yakshanba kuni olasiz. Negaki, shanba va yakshanba nazorat qiluvchi jamiki idoralar berk bo'ladi, Sulaymon o'ldi, devlar qutuldi, deb bu shaytonlar o'g'irlikni uch-to'rt baravar ko'paytirib yuborishadi. Keyin, o'rtoq serjant, bunchalik soddadillik qilmang.

— Nima qilibman?

— Oshxonaga kirib vitrinadagi taomlarning narxini tekshirib yuribsiz. Sizning nima maqsadda kelganingizni men darrov sezdim. Oshpazlar mendan oldinroq sezishgan bo'lsa kerak. Tezroq bormasam, ichkariga tortib ketishadi, deb darrov oldingizga keldim... O'rtoq serjant, iloji bo'lsa, o'zingizdan oldin oshxonaga begona odamlarni kiritib, taomlarni o'shalarga oldiring-da, keyin tappa bosing.

— Bu maslahatingiz ham ma'qul, — dedim ich-ichimdan sevinib.

— Keyin, o'rtoq serjant, yana bir narsani aytmoqchiman. Bu yerda shikoyat daftari ikkita yuritiladi. Bittasiga faqat maqtovlarini yozdirishib, mukofot olishadi, ikkinchisiga

faqat shikoyatni yozdirishib, uni hech kimga ko'rsatishmaydi. Ikkovi ham bufetchida turadi. O'rtoq serjant, yana bir iltimosim bor. Lekin, yo'q demasangiz aytaman.

— Yo'q demayman.

— Bufetchini ham qo'shib tekshirsangiz, — dedi Odil aka. Garchi xonada ikkimizdan boshqa odam bo'lmasa ham, gapimizni birov eshitmayaptimi, degandek u yoq-bu yog'iga qarab oldi, keyin shivirlab davom etdi:— Aslida o'g'riboshi shu! Mehnatkashlarning yonini olganim uchun meni ishdan oldirib tashlamoqchi. Birorta to'g'ri ishi yo'q. Arog'u konyak — hammasi yasama 20 gramm aroqqa 80 gramm suv qo'shmasa, kechasi uxlay olmay chiqadi.

— Juda ochko'z ekan-ku!

— Ochko'z ham gapmi? Hozir sinab ko'rishimiz ham mumkin. Chiqib ikki stakan aroq keltiring, men chiqsam tozasidan beradi, xumpar!

— Qalay bo'larkin?

— Yana soddalik qilyapsiz-a! — urishib bergandek bo'ldi baxti qaro direktor. «Sodda» degan gapni eshitib, juda ham unchalik emasligimni isbotlash uchun shartta chiqib, burni terlab turgan baqaloq bufetchidan ikki stakanni to'ldirib aroq keltirdim.

— Barakalla, mard yigit ekansiz! — xursand bo'lib dedi direktor. — Endi bir stakanini ichib ko'ring-a, zig'ircha maza topsangiz, betimga tupurib yuboring.

— Men umrimda aroq ichgan emasman, — e'tiroz bildirdim.

Odil aka qo'l siltadi:

— Bu aroq emas-ku!

— Bari bir, icholmayman.

Odil aka hafsalasi pir bo'lgandek o'rnidan turib tez-tez yurib chiqib keta boshladi:

— Men sizni mard yigit deb, sirlarimni oshkor qilib o'tiribman-a...

Ish boshlash oldidan ishonchli yordamchidan ajralib qolishdan qo'rqib bir stakan aroqni shartta ichib yubordim.



— Qalay? — Orqasiga qaytib so‘radi direktor.

— Juda bemaza narsa ekan, — dedim aftimni bujmaytirib.

— Ofarin! Hushyor yigitsiz-da, darrov sezdingiz. Boshqa joyda aroq ichsangiz xuzur qilasiz, kayf qilasiz. Bu bo‘lsa odamning ko‘nglini aynitadi. Nomard, o‘g‘ri bo‘l, insofli bo‘lda! Mang, bunisini ham ichib yuboring, oshqozon to‘lsa, ko‘ngil aynashingiz bosiladi, bo‘lmasa kechgacha o‘qchiysiz.

— Boshim aylanib ketyapti.

— Shuning uchun ham iching deya man-da, mard yigit! Ko‘ngil bosiladi. Barakalla, ofarin! Lekin azamat yigit ekansiz! Siz bilan har qanday ishni bajarsa bo‘larkan. Qani, endi militsionerlarning hammasi sizdaka bo‘lsa.

Bir nafasdan so‘ng chindan ham boshimning aylanishi to‘xtadi-yu, ko‘nglim tog‘dek ko‘tarilib, ashula aytgim kela boshladi. Odil akaning peshanasidan o‘pib:

— Sizning bu xizmatlaringizni militsiya hech qachon unutmaydi, — deb xitob qildim. — Ashula aytib beraymi?

— Shoshmay tursangiz hali o‘yinga ham tushib berasiz, uka! — degandek bo‘ldi Odil aka. Keyin nima bo‘lganini bilmayman.

## TUSHIMMI, O‘NGIMMI

Ko‘zimni ochib, o‘zimni boshlig‘imiz o‘rtoq Otajonovning xonasida ko‘rdim, divanda cho‘zilib yotibman. Boshimdan suv quyishgan bo‘lsa kerak, kiyimlarim ho‘l. Xonada boshlig‘im, meni bolakay deb chaqiradigan bo‘limimizning eng keksa xizmatchisi — leytenant Ortiqov, tergov bo‘limidan kapitan Qoraboyevlar o‘tirishibdi. Hammalari qovoqlarini solib olishgan... Tushimmi, o‘ngimmi, nega men bu yerga kelib qoldim. «Rohat» oshxonasining baxti qaro direktori qayerda qoldi. «Assalomu alaykum!» deb sekin o‘rnimdan turmoqchi bo‘lgan edim, boshim tegirmon toshi osilgandek og‘ir, chayqalib ketdim. Hech kim javob qaytarmadi. Demak, tush

ko'rayotgan ekanman, deb o'ylab yana divanga cho'zilmoqchi bo'lgan edim Salimjon aka:

— Tirildingmi? — deb so'radi.

— Tirildim-u, lekin...

— Tur o'rningdan! — buyurdi boshlig'im. — Tashqariga chiqib bet-qo'lingni muzdek suvga yuvib kel.

Bet-qo'limni yuvib keldim, boshimning guvillashi bosilgandek bo'ldi, ko'zlarim ham yaraqlab ochilib ketdi.

— Qani, bir boshdan gapirib berchi! — yana buyurdi boshlig'im.

— Nimani gapiray? — hayron bo'lib so'radim.

— Oshxonada qilgan bezoriligingni gapir.

— Bezorilik, qanaqa bezorilik?

— Gapni cho'zma! — Salimjon akam bu so'zni shunday bir ohangda aytdiki, beixtiyor o'rnimdan turib ketdim. Oshxonada bo'lgan voqeani o'zimdan hech narsa qo'shmay, hech narsa olib tashlamay, qanday yuz bergan bo'lsa shundayligicha so'zlab berdim. O'tirganlar, tavba degandek, yelkalarini qisib, bir-birlariga ma'noli qarab olishdi. O'rtoq Otajonov Ortiqovga so'z berdi.

— Soat beshlarda, — o'rnidan turgani erinib, sekin gap boshladi Ortiqov, — oshxonadan telefon qilib, bizga o'rtoq Otajonov kerak, deyishdi. Men u kishi yo'q dedim. Unda o'zingiz keling, xodimlaring serjant Ro'ziyev to'polon qilib, hammamizni qiynab yubordi, dedi. Darrov yetib bordim. O'rtoq Ro'ziyev divanda o'chib yotibdi, direktor qo'limga mana bu akti berdi.

— Akti o'qing! — buyurdi Otajonov. Leytenant akti xuddi meni osib o'ldirish haqidagi hukmni o'qiyotgandek, g'amgin bir ovozda dona-dona qilib o'qib berdi:

«Bizlarkim, tubanda qo'l qo'yib, akt tuzuvchilar: «Rohat» oshxonasining direktori Odil Abbosov, oshpazlar O'roz Haydarov, Karim Tursunov, bufetchi Zokir Zaripovlar tuzamiz ushbu akti shu mazmundakim, militsiya serjanti Hoshimjon Ro'ziyev oshxonaga kirib, alohida oshxonada ziyofat qilishimizni so'radi, yarim litr aroq keltirilsin

deb buyurdi. Aroqni paqqos ichib olib, cho'ntagidan shikoyat chiqarib, hammangning joning mana shu qog'ozda, g'ijimlasam o'lasan, dedi. So'ngra, agar 300 so'm naqd pul bersalaring ishni bosti-bosti qilib ketaman, dedi. Maslahatlashib, so'ragan pulini berishga va tegishli organlarni xabardor qilib qo'yishga qaror qildik. Serjant pulni olgach, shikoyatni bizga berdi (ushbu aktga shikoyatni ham qo'shib topshiryapmiz) va «esizgina shikoyatning bahosi 500 so'm turardi, men uni juda arzon pullab yubordim. Yana hech bo'lmasa 100 so'm topib berasizlar», deb to'polon ko'tardi.

Ushbu akti to'g'ri deb...»

— Yolg'on, tuhmat!! — ich-ichimdan bir hayqiriq otilib chiqdiki, hayqiriq zarbidan, ishonsangiz, derazalar zirqirab ketgandek bo'ldi.

— O'zingni bos, — go'yo hech narsa bo'lmagandek, bir ohangda dedi Salimjon aka. — O'rtoq Ortiqov, o'sha paytda Ro'ziyevning cho'ntagini qarab ko'rdingizmi?

— Yo'q.

— Hozir qarangchi, pul bormikan.

— Xo'p bo'ladi.

Ortiqov cho'ntaklarimni titkilab gimnastyorkamning ko'krak cho'ntagidan bir dasta pul oldi. Ko'zimdan o't chiqib ketdi.

— Sanang! — buyurdi polkovnik.

Ortiqov barmoqlarini ho'llab, pulni negadir shoshmasdan sanay boshladi. O'zim ham, tag'in adashib ketmasin, dedim shekilli, ko'zimni lo'q qilib tikilib turdim.

— Roppa-rosa uch yuz so'm ekan, — dedi leytenant boshini ko'tarib.

Men, tuhmat, deb yana baqirmoqchi bo'lgan edim, negadir ovozim chiqmadi. Tishlarim-tishlarimga kirishib ketibdi. Qo'llarim musht bo'lgancha qotib qolibdi. Og'zimdan oppoq ko'pik chiqayotganini sezgan polkovnik:

— Suv beringlar! — degandek bo'ldi. Suv ichgach, sal o'zimga keldim.

— Ehtimol maxsus uyushtirilgan tuhmatdir, — xuddi o‘ziga-o‘zi gapirgandek bir ohangda dedi polkovnik, — ehtimol rostdir. Nima bo‘lganda ham bugun Hoshimjonga dam beraylik.

Leytenant Ortiqov qo‘ltiqlab yotoqxonamgacha eltib qo‘ydi. U ko‘pni ko‘rgan keksa xizmatchi edi. Har xil gaplar aytib, ko‘nglimni ko‘tarmoqchi bo‘ldi. Bizning ishimizda mana shunaqa tuhmatlar ham tez-tez bo‘lib turadi, qayg‘urma, hammasi joyiga tushib ketadi, degan gaplarni aytdi.

Nimalar bo‘ldi o‘zi, o‘ngimmi-tushimmi, bu? Qanaqa tuhmatlarga qoldim. Odil Abbosov baxti qaro emas, ichi qora ekan-ku. Meni shunaqangi bopladiki, shunaqangi ustalik bilan qo‘lga tushirdiki, nima deyishimni ham bilmayman. Menga hech kim ishonmaydi endi!

Bir xayolim shartta ishxonasiga borib, ko‘pchilikning oldida og‘zidan ko‘pik kelguncha savalay dedim. Unda chinakam jinoyatchi bo‘lib qolaman-ku, yo‘q, bunisi ketmaydi. Yo panada poylab turib boshiga tosh bilan urib, asfalasofinga jo‘natib qo‘ya qolsammikan? Yo‘q, bunisi ham ketmaydi.

Oh, mening maslahatchim, sehrli qalpoqcham, qayerlarda yotibsan, axir sen yonimda bo‘lsang bunchalik malomatlarga qolmas edim-ku!

O‘n kungacha bo‘limga kelib-ketib beish yurdim, hech qanday topshiriq berishmadi. O‘n birinchi kuni bo‘lim boshlig‘i Ali Usmonov huzuriga to‘plandik. Mening masalam ko‘rilar ekan. Ma‘lum bo‘lishicha, baxti qaro direktor OBXSS ustidan ministrlikka «Jinoyatchi, poraxo‘r militsionerga nega chora ko‘rilmaydi» degan mazmunda shikoyat yozibdi.

Komissiya kelibdi.

Majlis qisqa bo‘ldi.

Avval mendan eshitishdi. Bo‘lgan voqeani qanday yuz bergan bo‘lsa, shundayligicha so‘zlab berdim. Lekin, nazarimda, mening gaplarimga hech kim ishonmadi.

Komissiya boshlig'i esnab o'tirgandek bo'ldi. So'ngra Odil Abbosov bilan ikki oshpazga so'z berishdi. Voy-bo'y, shunaqangi gapga chechan ekanki ular, og'zim ochilib qoldiya! Baxti qaro direktor gapira turib, ikki marta yig'lab yuborsa bo'ladimi...

Ikki xil taklif tushdi: biri — meni o'z vazifamni suiiste'mol qilganim va pora olganim uchun O'zbekiston jinoyat kodeksining bir yuzu qirq to'rtinchi moddasiga binoan jinoiy javobgarlikka tortish, ikkinchisi — men hali yosh bo'lganligim va bunday ishni birinchi bor qilayotganim sababli militsiyadan haydash bilan cheklanish.

— Ovozga qo'yaman, — dedi polkovnik Ali Usmonov o'rnidan turib.

— To'xtang, — shunday deb mening boshlig'im ham o'rnidan turdi. — Jinoyatchilar bilan olishamiz, tartibbuzarlar bilan olishamiz, ishimiz qaltis. Biz ko'pincha tuhmatu ig'voni darrov anglab yetolmaymiz. Menimcha, bu ishda ham g'oyat usta, tajribakor tuhmatchining qo'li borgan o'xshaydi. Men shu kunlar davomida ba'zi bir narsalarni o'rganishga harakat qilib ko'rdim. Ikki yil ichida «Rohat» oshxonasi ustidan yuqori idoralarga yigirmata shikoyat yozilgan, bu shikoyatlar yigirma xil yo'l bilan yo'qqa chiqarilgan. Yigirma birinchi shikoyat ham, mana ko'rib turibsizlar, yo'qqa chiqib turibdi. O'rtoqlar, men maxsus komissiya tuzilishini talab qilaman, toki bu ish sinchiklab o'rganilsin.

Ko'pchilik ovoz bilan so'nggi taklif qabul qilinib, shu yerning o'zida darhol komissiya ham tuzildi. O'rtoq Otajonov unga boshliq etib tayinlandi.

Majlisdan ko'nglim tog'dek ko'tarilib chiqdi. «Xayriyat, — deyman o'zimga-o'zim, — yaxshi odamlar ham bor ekan. Endi qo'limdan kelgancha yaxshi xizmat qilganim bo'lsin».

Koridorda baqaloq bufetchi bilan baxti qaro direktorga duch kelib qoldim, majlisning natijasini kutib o'tirishgan bo'lsa kerak. Ikkovlarining orasidan o'ta turib, go'yo qoqilib

ketgandek bo'ldim-u, tirsagim bilan direktorning biqiniga turtдим, bechoraning ko'zlari olayib ketdi.

— Ey, to'xta! — dedi ingrab.

— Shikoyat daftaring ikkovi ham bufetchida, bittasiga maqtov, bittasiga shikoyat yoziladi, — shunday deb baqaloqning qorniga ham bir turtдим. Keyin raport bergani borayotgan militsionerga o'xshab tap-tup qadam tashlagancha tashqariga chiqib ketdim.

Yotoqxonamga bordim-u, bari bir, yuragim siqilib o'tira olmadim. Buvijonim shaftoli qoqi sotib, yig'ib yurgan puliga maktabni bitirishim munosabati bilan kostyum-shim olib bergan edi, o'shani kiydim-da, tashqariga chiqdim. Negadir ovqat ham yegim yo'q, kinoga jo'nadim. Qiziq, bu yerda ham g'ashligim tarqamadi. O'zi men juda g'alatiman. Bir xil paytlarda dunyoga sig'may ketaman, to'xtamay yurgim yoki ashula aytgim kelaveradi. Shaharda, o'zingizdan qolar gap yo'q, ashula aytib bo'lmaydi. Qishloqda bo'lsa, boshqa gap, kaftingni og'zingga likopcha qilib bir-ikki baqirib yuborsang g'ashliging tarqaydi-ketadi.

Uyqum kelguncha ko'chalarda tentirab yurdim. Zokirni esladim. Fermada molboqar bo'lib ishlayapti u. Ishqilib, dalada uxlab qolib mollarni yo'qotib qo'ymasa, degan fikr o'tdi boshimdan. Mirobiddinxo'ja-chi, qaranga, shu ham ishini o'nglab ketdi, politexnika institutida o'qiyapti.

Bir mahal qorong'i ko'chadan o'tib borayotgan edim, jarlik tomondan qiz bolaning: «Yordam, yordam bering!» degan qichqirishi eshitilgandek bo'ldi. Beixtiyor o'sha tomonga yugurdim, lekin ovoz qayerdan chiqdi ekan?

— Voy, voydod! — bu gal ovoz chinorning orqasidan chiqdi, to'rt hatlab yetib bordim. Ob-bo', nomardlar-ey! To'rt barzangi yigit nozikkina bir qizni o'rtaga olib turishibdi. Mana endi, mulla Hoshim, o'zingni ko'rsatishing kerak. Qo'rqma, chekinma! Butun ayblaringni yuvadigan payt keldi. Ha, sening ham kimligingni bilib qo'yishsin. Sen

poraxo'r emas, balki jasoratli militsionersan. Bugun sen dadajoningni ham o'chini olasan. O'sha kamsuqum, kamgap, oyingdan hamisha gap eshitib yuradigan dadang ham xursand bo'ladi. Dadil bo'l:

— Nima gap? — dedim ularga yaqinlashib.

— Mana bularni qarang, — yig'ladi qiz.

— Qo'yvoringlar uni, — shunday deb qizning bilagidan tortmoqchi bo'lgan edim, qiz aksincha mening qo'limdan tortib davraga olib kirdi-da, o'zini bir chekkaga olib:

— Kostyumni yech! — deb buyurdi.

— Iye, ha! Axir o'zing dodlading-ku!

G'azabdan qaltirab ketdim. Bilmadim, bu g'azabmidi, qo'rquvmidi, har qalay qaltirab tizzalarim bukilib ketayotganini sezdim.

— Dodlasam chopib kelaverasanmi, laqma! Kostyumni yech! — yana buyurdi qiz. Bunday atrofimga qaragam, to'rt barzangi har bittasi yarim metr dan keladigan pichoq o'qtalib, davrani qisib kelyapti. Demak, qiz o'zlarining odami ekan, nayrang ishlatishgan ekan. Mushtlashammikan? Nari borsa ikkitasiga kuchim yetadi, qolgani-chi? Hammasida yalang'ochlangan pichoq! Yo'q, nima bo'lganda ham mushtlashaman, osonlikcha taslim bo'lmayman! O'ldirib ketishsa, yana yaxshi, anovi tuhmatchilardan ham bir yo'la qutulib qo'ya qolaman... Kostyumimni yechmoqchi bo'lib xiyol orqaga tashlandim-da, qarshimdagi barzangining qorniga tepdim... Yo'q, bo'lmadi, har qalay, besh kishi besh kishi ekan-da! Yerga bosib, og'zimga kir latta tiqib, yechintirib ketishdi, bir oyog'imdagi paypog'im qolibdi, xolos.

Ha, mayli, buvijonim omon bo'lsa, shaftoli qoqi sotib yana bir kostyum olib berar... Ammo obro'chi! Shaftoli qoqi sotib, puliga obro' olib bo'lmaydi-ku!..

O'rnimdan turib chang-chunglarimni qoqdim-u, ketishimni ham, ketmasligimni ham bilmay serrayganimcha turib qoldim. «Yotoqxonaga qanday yetib oldim-a?»— deb o'ylardim. Yuragimni vahima bosa boshladi. Bitta tursikda shahar ko'chalarida yurib bo'lmaydi. Es-hushli odam shunday yursa hamma kuladi, jinni yursa hamma achinadi. Odamlarning kulgisiga qolgandan ko'ra o'zimni jinnilikka solib, ularda o'zimga nisbatan rahm-shafqat uyg'otganim yaxshi emasmi. Yoki dodlab o'tgan-ketganlarni yordamga chaqiraymi? Militsioner uchun bu uyat. O'zing militsioner bo'la turib, birovlariga yordam berish o'rniga shu ahvolda talanib o'tirsang. Militsiyaning sha'niga isnod keltirasan. Bordiyu, panalab chopib qolsam-chi? Yo'q, unda hamma seni o'g'ri deb o'ylaydi. Ushlab, ertalabgacha zax uyga qamab qo'yishlari hech gap emas. Yaxshisi, haligi yo'lim yo'l. O'zimni jinnilikka solib ketaveraman!

O'rta ko'chaga tushib, xuddi qizil maydondan tantanali parad bilan o'tayotgan askar boladek oyoqlarimni ko'tarib-ko'tarib tashlab, qo'llarimni qulog'imgacha silkitib jadal ketaverdim. Mashinalar signal bersa ham parvo qilmayman, ko'zlarimni chirt yumib olganman. Bir xil mashinalar meni chetlab o'tishadi. Shofyorlar:

— Karmisan! — deb qo'yadi ba'zan. Bir xillari:

— Bechora jinni bo'p qopti! — deb achinadi. Uchinchi biri bo'lsa:

— Bo'sh kelma, yigitcha! — deb kulib qo'yadi.

Bir mahal orqamdan kelgan mashina cho'zib-cho'zib ketma-ket signal berdi-da, buferini shundoqqina taqimimga qadab to'xtatdi. «Uvaz» mashinasi ekan. Biqinidagi eshigi ochilib, ikki militsioner ketma-ket tushib keldi. Biri haddan tashqari novcha, oriq. Ikkinchisi haddan tashqari pakana, semiz. Xuddi qiziqchilik uchun birga yurishganga o'xshaydi.

— Yo'l bo'lsin, grajdanin? — deb so'radi novchasi.



— Qovun sayliga, — dedim orqamga qaramaslikka harakat qilib.

— A?! — dedi pakanasi.

— Dushman qo'shinlari parokanda bo'lib qochmoqda, olg'a! — deb yo'limda davom etdim.

— To'xtang! — novchasi bilagimdan ushladi.

— Tegmang, portlab ketaman, bombaman! — deb qo'ydim.

Pakanasi sherigining etagidan tortib «qip-qizil jinniku, nima qilasan, qo'ysang-chi», dedi. Novchasi: «Senda o'zi rahm-shafqat degan narsa bormi, bechorani mashina urib ketsa nima bo'ladi. Qara, yoshgina yigitcha ekan, xuddi mening ukamga o'xshaydi... Ehtimol do'xtiri axtarib yurgandir», dedi. Pakanasi: «Xizmatdan kechikyapmiz axir», dedi. Novchasi: «Yo'q, men bu sho'rlikni shunday tashlab ketolmayman, vijdonim yo'l qo'ymaydi», deb oyog'i ham uzun emasmi, ikki qadam tashlab menga yetib oldi.

— Uka, otingiz nima? — Shunday bir mehribon ohangda so'radiki, Hoshim deb yuborishinga sal qoldi. Darrov o'zimni qo'lga oldim-u, yana pala-partish javob qaytara boshladim:

— Otim — Napolyon!

— Yaxshi, yaxshi! Familiyangiz?

— Bonapart.

— Yaxshi, yaxshi! Ana, tanishib ham oldik, shu ketishda janobi oliylari qayoqqa ketyaptilar?

— Yevropani zabt etgani.

— Ofarin, ofarin!

Yo'q, ortiq chiday olmadim. O'zimni qancha jinnilikka solib aljizam, militsioner shuncha rahmdillik ko'rsatyapti. Oqko'ngil odamni aldash qo'limdan kelmas ekan. Yurishdan to'xtab novcha militsionerga o'girildim. Keyin ikkovimizning o'rtamizda mana bunday suhbat bo'lib o'tdi:

— Kechirasiz, o'rtoq serjant, men jinni emasman.

— Men ham sizni jinni deyayotganim yo'q, grajdanin.

— Unda sizdan bir iltimosim bor.

— Bajonidil.

— Agar malol kelmasa, mashinangizda meni yotoqxonamga etib qo'ysangiz. Shu ahvolda yurish uyat.

— To'g'ri aytasiz. Juda uyat. Qani, mashinaga marhamat.

Novcha militsioner, negadir, mashinaga chiqishimga yordamlashib ham yubordi. So'ngra o'rtog'i ikkovi ikki yonimga jipsroq o'tirib olishdi.

— Qani, hayda, — buyruq berdi pakana militsioner shofyorga.

— Qayvotga hayday? — so'radi shofyor.

— Rubiy kasallar shifoxonasiga, — tushuntirdi novcha militsioner.

— Jimnixonagami?! — sapehib o'rnimdan turmoqchi bo'lgan edim, militsionerlar kuchli qo'llari bilan pastga bosishdi, xuddi mixlab qo'yilgandek, o'rnimdan qo'zg'alolmay qoldim.

— Tashvislanmang, uka, — mehribon, shu bilan birga yupaturvchi ohangda dedi novcha militsioner, — o'z uyingizga etib qo'yamiz. Xo'sh, uylari qaysi tomonda?

— Militsionerlar yotoqxonasida turaman, — deb tushuntirmoqchi bo'ldim.

— Yana boshlandi... — Gapimni bo'lib dedi pakana militsioner.

— Ishonmayapsizlar-a? Ochiqini aytsam, men ham militsiyada xizmat qilaman. Starshiy serjant Hoshinjon Ro'ziyev bo'lsam.

— Ehtimol polkovnikdirlsiz? — kulib dedi pakana militsioner. Men ham hazilga-hazil bilan javob qaytardim:

— Chindan ham yaqinda polkovnik bo'lmog'chiman.

Shundan so'ng jimni emashimni isbotlash uchun ko'p harakat qildim. Birga ishlaydigan militsiya xodimlari, boshlig'im o'rtog' Otajonovning nomini tilga oldim. Lekin, nima sababdan ko'chada bitta tursikda ketayotganligimni aytmadim. Qo'rqoq degan nom olishdan or qildim.

— Bugun chiqqanmidingiz? — yana haligidek yumshoq bir ohangda so'radi novchasi.

— Qayoqdan?

— Shu kasaxonadan-da.

— Men, kechirasiz, soppa-sog'man deyapman. Faqat...

— Nima faqat?

— Faqat o'g'rilarga uchrab qoldim: xoh ishonimg, xoh ishonmang, gapning ochig'i shu: ular meni yechintirib ketishdi.

— Qo'rqmang. Men davolovchi vrachingizga yotig'i bilan tushuntiraman. Axir siz bezorilik qilganingiz yo'o'q. to'polon ko'tarib, birovlarning oynasini sindirganingiz yo'o'q. Shunchaki shaharni aylanganu, tomosha qilgani chiqqansiz. Shunday emasmi?

— Ashida shunday edi, shaharni aylangani chiqquvdim.

— Ana endi o'zingizga keldingiz, uka.

— Lekin men jimni emasman.

— Men ham sizni jimni deya yotganim yo'o'q. Soppa-sog'siz.

— Sog' bo'lsam qo'yvoringlar, axir!

— Baqirnal! — jerkib berdi chap tomonimda mudrab ketayotgan pakana militsioner.

Ish rasvo bo'ldi. O'zinga-o'zim qildim. Uyi kuygan yolg'onchining o'zginasi bo'lib qoldim. Siz o'qigansizmi yo'o'qmi, lekin men to'rtinchi sinfdagiligimda bir she'r o'qigan edim. So'zlari esimda yo'o'g'-u, lekin mazmuni taxminan mara bunday. Bir odam qo'ni-qo'shnilarining o'ziga bo'lgan sadogatini sinab ko'rmog'chi bo'lib, uyiga o'ti tushmagan bo'lsa ham, «o'ti tushdi, yordam beringlar», deb dodlabdi. Qo'ni-qo'shnilar to'planib kelishsa, o't yo'o'q. Nega dodlading, deb so'rashsa, uy egasi «hazillashdim», debdi. Qo'ni-qo'shnilar xafa bo'lib tarqalishibdi. Ertasiga haligi odamning uyiga chindan ham o't tushibdi. Tomga chiqib shu dodlarnish, shu dodlarnish, qani endi birov yordamga kelsa. «Yana aldayapti bizni», deb hech kim joaqa! uyidan ham chiqmabdi. Yolg'onchining uyi kuyib kul bo'libdi.

Men ham hozir o'sha yolg'onchining ahvoliga tushib qoldim. O'zinni ming kuyga solmay, bari bir ishonishmaydi endi. Hoshinjon Ro'ziyev — jinni tamom-vassalom! Bo'lar ish bo'ldi. Xo'sh, yana bir-ikki soat jinni bo'lsak nimna bo'pti dedim-da, yana har xil qiliqlar ko'rsata boshladim. Maqsadim ularni g'afllatda qoldirib, darvoza oldida mashinadan tushayotganda qo'llaridan chiqib qochish.

— O'yinga tushib beraymi? — deb so'radim.

— Iye, hali o'yinga tushishni ham bilasizmi?

— Andijon polkasini qiyib yuboram.

— Hozircha qo'ya turing. Keyin o'zimiz alohida kelamiz. Mana, uyingizga ham kelib qoldik.

Mashina darvoza oldida to'xtadi. Darvozaning tepasiga katta-katta harflar bilan: «Shahar ruhiy kasallik shifoxonasi» deb yozib, ikki tomoniga lampochka osib yoritib ham qo'yishibdi. Darvozaning qanoatlari ovozsiz ochilib, mashina ichkari kirdi.

Novcha militsioner ancha mahal yo'q bo'lib ketdi. Nihoyat, pastakkin a uydan oq xalat kiygan bir ayol bilan chiqib kelishdi. Mashinadan tushirishayotganda:

— Voy oyog'im! — deb qichqirdim.

— Nima bo'ldi?

— Bosib oldingiz — pakana militsioner beixtiyor yerga engashdi. Bir sitanib qo'ldan chiqdim-u, o'zinni qorong'ilikka urdim. Bir soat chumasi berkinmachoq o'ynadik. Kasalxonaning ichi bir gektaracha keladigan bog' ekan, daraxtzor orasida rosa quvlashdik. Uchovlariga-ku, tutqich bermasdim-a, ammo ko'pchilik bo'lib ketishdi-da. Yana ikkita vrach, ikkita qorovul, beshita o'zinga o'xshagan jinni qo'shildi. Ayniqsa, jinnilarning bittasi — men bilan tengquri xuddi to'zi ridek chopog'on ekan. Chopganda ham ulog'ni yoppa qilgan chavandozdek «He-he-heel!» deb qiyqirib chopadi deng. Ana shunidan hech qutulolmay, oxiri qo'lga tushdim. Ikki qo'linni orgamga qayirib, qabulxonaga olib kiritishdi. To'rt kishi qo'l-oyog'imdan bosib turdi. Katta singlim Oys'ha'x'ondek keladigan, ikki beti tarang

olmadek qip-qizil bir qizcha yumshoq joyimga ukol qilgandi, butun vujudim jimirlashib ketdi-yu, to'satdan uxlab qoldim.

## QANOTLI ODAMLAR

**E**rtasiga uyg'ondimmi, indinisiga uyg'ondimmi, ehtimol bir haftadan so'ng uyg'onganidirman, bunisini aniq ayolmayman-u, har qalay, tong pallasida uyg'ondim, yig'isig'i, dodvoy, shovqin-suronidan uyg'onib ketdim. Uyg'ondim-u, dastlab qayerda yotganimni bilib olish maqsadida atrofmga nazar tashladim: xonani xuddi tong g'ira-shirasiga o'xshab ketadigan ko'kimtir nur yoritib turibdi. Meniki bilan to'rt karavot bor, sheriklarim uxlab yotishibdi. Bir kishi xona o'rtasida osmonga tikilgancha qotib qolibdi. Xonaning devorlariga chiroyli suratlar solingan, bittasida dengiz sohili tasvirlangan. Dengiz suvi to'lg'lanib qirg'oqqa urvapti. Qirg'oq bo'yida yam-yashil archalar gurkirab o'sib turibdi, ko'm-ko'k osmonda qushlar charr urib uchadi... Boshqa bir rasmda ikki tog' orasidagi keng vodiy tasvirlangan, yo'q, vodiy emas, poyonsiz lolazor! Lolalar qiyg'os ochilgan, tog' ortidan endigina ko'tarilib kelayotgan quyosh lolalarga qizil nur to'kyapti, butun vodiy alvon nur ichida, yal-yal yonayotgandek. O'n-o'n bir yoshlardagi bir qizcha lola terib yuribdi. Negadir shu paytda yuragimga shodlik, quvonch to'lg'andek bo'ldi. O'sha qizchaga o'xshab lolazor oralab chopqillab ketgim kelib qoldi: «Bu yer o'zi jinnixonami yoki kurortmi?» degan fikr o'tdi boshimdan.

Haligi odam xona o'rtasida hamon qotib turibdi, nazarimda xurram ham o'tayotganga o'xshaydi.

Tashqarida shovqin-suron yana kuchaydi. Oppoq choyshabga o'rilib o'sha yoqqa oshiqdim. Katta chinor daraxti ostida besh-olti kishi cho'zilib yotibdi, chinorning baland-past shoxlarida, ham to'rt-besh kishi — birovi ko'ylagidan, birovi ishtonidan osilib, qolgan. Do'xtirlar har

tomonga yugurgan, hamshiralar shoshgan, kimdir chinoraga narvon tirayapti.

— Voy, siz uyg'ondingizmi? — dedi orqandan kimdir. O'g'irilib qaradim, — menga ukol qilgan hamskira qiz kulib turibdi.

— Uyg'ondim, — dedim men ham kulishga harakat qilib.

— O'zingizni yaxshi sezyapsizmi?

— Otdelman. Ko'p uxladimmi?

— Ikki sutka, xolos.

— Rosa ma'za qilibman-da... Bu yerda nima bo'lyapti o'zi?

— So'ramang, fojia yuz berdi, — yig'lansirib dedi qiz.

— Yuring, palataga kiramiz. Katta do'xtirlar ko'rsa ikkovimizni ham urishib bershadi.

— Yo'q, avval bilaylik, nima bo'lyapti o'zi?

— O'zim ham bilmayman hali, qani, yuring tezroq.

Bu vogaaning tafsilotini ertasiga bildim. Men yotgan palatadan to'rt xona narada o'n kishilik yana bir palata bor ekan, rejimi biznikiga qaraganda qatitiroq ekan. U yerdagi kishilarning bir xillari ikki yil, bir xillari uch yildan buyon shu yerda davolanishar ekan. Oxiri qochib ketmoqchi bo'lishibdi. Tolib aka degan odam qochish rejasini puxtalab tuzib chiqibdi. Qannot chiqarib uchib ketamiz, to'ppa-to'g'ri o'yg'a borib qo'nib, u yerda magazin ochib, fagat teshikkulcha bilan savdo qilamiz, debdi. Har kim o'ziga oq choyshabdan qanot, adyoldan qirg'ib uzun-qisqa dum yasabdi. Yotish oldidan Tolib aka tayyorgarlikni tekshirib, osmonda yorug' yulduz ko'rinishi bilan, uni mo'ljaga olib parvoz qilamiz, deb tayinlabdi. Navbatchi vrach uxlagach, sharpasiz daraxtga chiqib, yorug' yulduz ko'rinishini poylab o'tirishibdi. Nihoyat yulduz ham ko'rinishibdi.

— Parvozi — deb qichqirib komanda beribdi Tolib aka. Yettitasi shaloplab yerga tushibdi, uchtitasi daraxtga ilinib qolibdi. Xayriyatki, chinor osti, vodoprovodning suvi toshib, uch-to'rt kundand buyon foy bo'lib yotgan ekan, hech biri o'lmabdi.

Hali nima deyotgan edim, ha, hamskira palataga kiring deb qistadi, deyotgan edim, shekilli. Shunday qilib hamskira meni palataga qaytarib olib kirib ketdi. Xonamga kirayotganimizda qulog'imga pichirlab:

— Bu odam tikka turib uxlaydi, — deb qo'ydi.

— Nega? — dedim men ham shivirlab.

— Yotsa og'ziga ilon kirib ketarmish... Qoringiz ham ochgandir?

— Ochganda qandoq.

— Menda ozgina patir bor yeysizmi?

— Agar bir piyola choy ham bo'lsa... — dedim tortinibroq.

Qiz hozir dedi-yu, chiqib ketdi. Xiyol o'tmay menga kiyimboshi keltirdi-da, «kiyimib, orqandan yuring» deb buyurdi. Hamshiralar xonasiga o'tdik. Non, bosh barmoqdan sal kattaroq termosda choy keltirdi. Bitta kichikroq piyolachadek keladigan apelsin bilan ikkita qutlab qolgan shokolad ham uzatdi. O'ziyam ochqab qolgan ekanman, ko'z yumib ochguncha berganlarini tushirib bo'ldim. Qiz nariroqda zimdan meni kuzatib o'tirardi. Men birpas gaplashmoqchi edim, ammo u ko'nmay, hali turadigan vaqtingiz bo'lgani yo'q, o'ringizga kirib yoting, deb iltimos qildi.

O'rimnga kirib yotdim. Haligi odam hamon haykaldek qotib turibdi, oyog'i tolmadimikan? Bechoraga juda qiyin ekan, bordi-yu, yiqilib tushsa unda nima bo'ladi.

Uxlab qolibman. Tushimga avval Zokir kirdi. Ho'kiz minib mol boqib yurgan emish. Ho'kizning usti shunaqangi keng emishki, men bir chekkasiga sartaroshxona qurmoqchi emishman. Keyin Mirobiddinxojani ham ko'rdim. Boshiga o'tuz chelak suv ketadigan xum kiyib olibdi. Nega bunday qilding desam, bolalar boshimga uraverib rosa qiyinab yuborishdi, xum kiysam urisholmaydi deydi. O'yijonimni ham ko'ribman. U meni rosa kutibdi-da, oxiri, men boravermagach, shu men yotgan kasalxonaga vrach bo'lib ishga kiribdi, sochlaramni silarmish, yoqlarimni ugaltarmish...

— Oyi, oyjonim! — deb baqirib yubordim.

O'zinning ovozimdan o'zim uyg'onib ketdim. Yo'q, tushim emas ekan, o'ngim. Oyog tomonimda yelkasiga oq xalat tashlab, boshiga chuchvara nusxa xalqa kiyib olgan, aft-angori oyjonimga juda, juda ham o'xshab ketadigan bir ayol o'tiribdi.

— Oyjon! — dedim uni quchoqlab olmoqchi bo'lib talpinib. Ayol sapchib o'rtidan turib ketdi. Yo'q, oyim emasga o'xshaydi. Oyim bo'lganda bunaga qilib qochmagan bo'lardi.

— Uyg'ondingizmi, yangi mehmon? — eshik oldida turgan chaqirg'ich qo'rga-pisa so'radi ayol.

Men angrayib qoldim.

— Kirib yuvining, nonushta mahali bo'lib qoldi, — dedi yana ayol.

Keyin bilsam bu ayol — mening davolovchi vrachim Fotima Salohiddinovna ekan, nonushtadan so'ng kabinetiga kirganimda bildim. Onam deb yanglishmagan ekanman, negaki onamdan ham mehribonroq muomala qildi u. Bir soat chamasi gaplashib o'tirdik. Boshqa do'xirlarga o'xshab kasallik varagasiga bo'lar-bo'lmas narsalarni yozib, savol ustiga savol yog'dirib, boshimni ham qotirib o'tirmadi. Qayerlik ekanligim, oilamizda kimlar borligi, oyim bilan dadajonim qanaga kasal bilan og'rganligi, ko'proq nimadan qo'rqqanim, nimani yaxshi ko'rishim — tamom, vassalom. Oxirida analiz uchun ko'rsatkich barmog'imdan uch tomchi qon, ozgina tupuk olib, miyamni suratga tushirdi.

— Lekin, opajon, meni tezroq chiqazib yuboring. Ko'rib turibsiz-ku, soppa-sog'man! — deb yolvordim.

— Men ham shu fikrdaman. Sizda hech qanday kasallik yo'qqa o'xshaydi, — ko'nglimni ko'tardi Fotima Salohiddinovna. — Bugun-erta chiqarib yuboram.

Palataga qaytib kirib, xoh ishonimg, xoh ishonmang, ajoyib bir voqeaning guvohi bo'ldim — hamxonalarim kontsert qo'yishmog'da edi. Kechasi tikka turib uxlaydigan

amaki, asli childirilmachi bo'lganni deymen, boshidagi marg'ilon nusxa do'ppisini qo'lga olib, «Vohay, bolaga» urib turibdi. Eshik tagidagi karavotda uxlaydigan qari amaki qo'llarini qisirlatib, yelkalarini uchirib, muqomlar qilib o'yinga tushyapti. Bir ko'zi sal qisiroq, o'tizlar atrofidagi yigit alyumin qoshiq bilan karavotning poyasiga urib, baqirib ashula aytyapti:

*Magazinlarga qiz bermang, vohay bolal!*

*Rasrati bor ekan, vohay bolal!*

Ochiq'ini aytсам, uch-to'rt kundan buyon dili siyohlik ustiga dili siyohlik bo'laverib, yuragim qon bo'lib ketan edi, beixtiyor o'yinga qo'shilib ketdim. Pollarni lipillatib, o'yinni endi avjga chiqarmog'chi bo'lib turgan edim, kechasi tikka turib uxlaydigan amaki:

— Qoch, ilon keldi! — deb baqirib yubordi-da, bir koridorga chiqib ketdi. Qari amaki karavotga yotib, boshini adyol bilan o'rab oldi. Ko'zi qisq yigit o'tirgan o'rtida bir nuqtaga tikilib, xuddi sehlangandek qotib qoldi. Shu kuyi yarim soatcha o'tirgach nihoyat menga yuzlanib:

— Oting nima? — deb so'radi.

— Hoshimjon.

— Ko'rimshingdan kasal emasga o'xshaysan.

— To'g'ri, kasalim yo'q.

— Unda nega yotding?

— Yanglishib olib kelishdi.

— Olma yeysanmi?

— Mayli.

Yigit ikkita olma olib mening karavotimga tashladi-da, engashib qulog'imga shivirlay boshladi:

— Senga ishonсан bo'ladingmi?

— Bo'ladi.

— Sot qinlik qilmaysanmi?

— Yo'q.

— Qulog sol bo'lmasa, — yigit gapimizni hech kim eshitmayaptimkan degandek, atrofga bir nazar tashlab oldi, — mana shu kasalxonani mening otam qurgan. Uylardan birining shipiga, panerining ostiga bir xalta oltin berkitgan. O'layotganda bu sirni menga aytib ketgan edi. Ana shu oltinni olish uchun yo'tbman bu yerda.

— Shu uydaligini qayerdan bilasiz?

— Boshqalarini qarab ko'rdim.

— Topilmadimi?

— Yo'q.

— Demak, shu uyda ekan-da?

— Shu uyda.

— Oltinni topsangiz nima qilasiz?

— Sotqinlik qilmaysanmi?

— Yo'q, dedim-ku.

— Ikkovimiz qochib Afg'onistonga o'tib ketamiz.

— U yerda nima qilamiz?

— Yengil mashina ishlab chiqaradigan zavod quramiz.

— Yo'q, men borolmayman, — dedim uzil-kesil qilib.

— Borasan.

— Boramayman!

— Hali shunagani!!!

Yigit sharta o'rnidan turib, yoqamga yopishib, malhamk siga boshladi. Nafasim chiqmay xirillab qoldim. Jon achelig'ida bir silkingan edim, yoqam yirtilib, bir parcha latta yigiting qo'lida qoldi. Yana bezlanib kelayotgan edi, yuragini mo'ljallab kalla urdim, shilq etib karavotiga yiqildi. Yorgan joyida xonani boshiga ko'tarib kulib yubordi.

— Hazillashgan edim, jinni.

— O'zing jinni ekansan.

— Lekin, Hoshim, meni sotmaysan-a.

— Sotmayman.

— Oltinni olishga yordamlashsanmi?

— Yordamlashaman.

— Oltin yersanmi?

— Oltinang boshingda qolsin! — deb xalatimni yelkanga soldim-da, koridorga chiqib ketdim.

Ammo sariq oltin jinnisi niyatiga yetolmadi. Kechqurun oblast militsiyasining jinoyat-qidiruv bo'limidan ikkita xushbichingina leytenant kelib, uni kiyintirib, olib chiqib ketishdi. O'n minutlardan so'ng eshik yonidagi karavotda yotadigan qari amaki ham men bilan qo'l berib xayrlashib, jo'nab ketdi.

Men kechiasi bilan o'ylab o'yininga yetolmadim. Ko'zi qisq yigitni militsionerlar rega olib ketishdi, nega anovi amaki ham to'satdan yo'q bo'lib qoldi, shu haqda rosa o'yladim-u, lekin, bari bir, javob topa olmadim. Bu savollarga ertasiga hamshira qiz Faridadan javob oldim. Farida negadir menga uylaridan ovgat olib kelibdi.

— Ie, nega bunday qildingiz? — deb so'radim o'zimni jindek noqulay sezib.

— O'zim, shunday... — dedi qiz yerga qarab.

— Chuchvarani yaxshi ko'rishimni qayoqdan bilasiz?

— Voy, rostdan ham chuchvarani yaxshi ko'rasizmi?

— Jon-dilim chuchvara. Oyim chuchvara qiladigan kuni ertalabdan ashula boshlayman.

— Mening dadam ham chuchvarani yaxshi ko'radilar.

— Bo'lmasa gaynatam ham o'zimga o'xshar ekan-da!

— deb xonani boshingga ko'tarib huzur qilib kuldim. Farida kulmay:

— Siz shu yerlikmisiz? — deb so'radi.

— Yo'q. Farg'ona tomondaman.

— Shu yerda o'qisizmi?

— Militsiyada ishlayman.

— Palatanglar o'zi militsionerlar palatasi bo'lib qopti.

— Nega unday deysiz?

— Anavi eshikning yonidagi karavotda yotadigan Orif aka ham militsioner ekan, — shunday deb Farida menga hamma gapni aytib berdi.

Bir ko'zi qisq yigitning oti Olim bo'lib, mashhur jinoyatchi, ashaddiy tovlamachi ekan. Uch bor qamalib, har

gal gamogdan chiqqanda mehnat daftarchasini yangilab, xuddi gamamagandek ish boshlayverar ekan. Oxiri u rayondagi kattakon vino zavodga omborchi bo'lib olibdi-yu, shaykalari bilan birlashtirib vino deysizmi, spirtu atroqlar deysizmi, hammasini tashqariga pullayveribdi. Juda usta bo'lgani uchun betayinroq bir vrach bilan til topishib, o'zini ruhiy xasta sifatida unga ko'rsatib boribdi. Kasallik tarixiga, falon yildan buyon shu kasal bilan og'riydi, deb qayd qildirib qo'yibdi. Omborda o'g'irlangan ichimlikning qimmatini sakson ming so'mga yetganda haligi vrachning yordami bilan shu kasalxonaga joylashibdi. Bu nayrangdan millitsiya xabardor ekan. G'ilay chindan ham ruhiy kasalga chalinganmi, chalingan emasmi, u kimlar bilan muomalada bo'ladi, sheriklari qanaga odamlar o'zi, ana shularni aniqlash uchun oblast millitsiya boshqarmasining xodimi Orif aka Asomov ham o'zini ruhiy kasal qilib ko'rsatib, shu kasalxonaga joylashibdi va olti oy davomida haligi ko'zi g'ilay jinoyatchini rosa o'rganishibdi, sheriklarini aniqlabdi. Bir ko'zi g'ilayning oltin haqidagi gaplari shunchaki bir aldov ekan.

— Buni kimdan eshirdingiz? — shoshilib so'radim Faridadan.

— Fotima Salohiddinova aytdilar, — shunday deb Farida u yiq-bu yog'iga qarab oldi.

— Sizni ham shunangangi bir ish bilan kelganga o'xshaydi deyaptilar.

— Ehtimol... — deb qo'ydim men ham mujnatroq qilib.

— Millitsionerlar shunangangi irodali bo'lishar ekan-a! Bechora Orif aka jinniligi to'g'risida shubha tug'dirmaslik uchun, men otman, deb olti oy davomida xonama-xona to'rt oyoqlab chopib yurdilar, ba'zan kechalari kishnab, yer tepinib, hammani uyg'otib yuboradilar... Sizning ham shunangangi irodali bo'lishingizni istardim.

— Buning uchun har kuni bir to'g'ora chuchvarta yeb turish kerak! — deb hazillashdim Faridaga. Lekin uning javobini

eshitmadim. Nega desangiz, xuddi shu paytda palataga Fotima Salohiddinova kirib keldi, qo'lida tugun. «O'rtoq Ro'ziyev, kiyinib bosh vrachning xonasiga kirar ekansiz» dedi-yu, yana orqasiga qaytib chiqib ketdi u.

Shoshilib tugunni yechdim, qiziq! Yangi kostyum-shim, yangi ko'ylak, yangi tufl, yangi botinka, yangi do'ppi, yangi mayka, yangi paypoq — hammasi yangi.

— Voy, Hoshim aka, tinchlikmi? — hayron bo'lib so'radi Farida.

— Siz ham tez kiyining, hozir ZAGSga boramiz, — dedim jo'rttaga govog'imni solib.

— Hazilingiz qursini! — Farida uyaldi shekilli, chopqillab tashqariga chiqib ketdi.

Apil-tapil kiyinib, bosh vrachning kabinetiga yugurdim. Hoynahoy yo oyim, yo buvijonim kelgan. Bechora buvijonim-ey! Mehribon o'yjonim, bekorga tushimga kirmagan ekansiz, hozir borib bag'ringizga otilaman, yuzingizdan, ko'zlaringizdan o'paman, to'yib-to'yib hidlayman; hidingizni yaxshi ko'raman!

Bosh vrachning xonasiga kirib, to'satdan o'ti o'chgan motordek taqqa to'xtadim. Qaynoq bir hayajon vujudimga yoyildi-yu, tomirlarim lovillab yonib ketgandek bo'ldi. Yuragim urib ketdi, tomog'imga minadir tiqilib, ko'zimga yosh keldi. Yig'lab yubordim. Qarshimda qulochini keng yozib, kulimsiragancha Salinjon aka Otajonov turardi!

— Yig'lama, tentak! — dedi u men tomon yurib, — ke bir achomlashaylik. U, barakalla! Endi Sur'at akang bilan ko'rish. U sendan kechirim so'ragani keldi. Borib aytmaganda, men seni qochib ketdiga chiqarib yuraverar ekamman.

O'zimga kelib qarasam, bosh vrachning shundoqgina yonginasida iljayganacha tunov kungi novcha millitsioner o'tiribdi. Ko'rishib hol-ahvol so'rashdik birgalashtirib kulishdik. Bir piyoladan issiq-issiq ko'k choy ham ichdik.

Nihoyat, Sur'at aka o'mudlar turdi: *... ..*  
— Keldikmi? *... ..*

Yuragim shuv etib ketdi:

— Qayoqqa?!

— Yevropani zabt etgani! — dedi kulib Sur'at aka. Men ham o'rimdan turdim:

— Yo'q, men endi bormayman!

— Nega? — kulimsiradi Sur'at aka. Jimixonani zabt etganim ham yetar!  
Yana kulishdik.

#### MEHMONGA BORDIM

**Shunday** qilib, mana, o'zingiz ham ko'rib turibsizki, ishlaring yana yurishdi-ketdi. Omadimni qarangki Sur'at aka vijdonli va men ta'rifi hech keltira olmaydigan darajada rahmdil bir kishi ekan. Meni jimixonaga ehtib qo'ygach, ehtimol, chindan ham o'g'ri talagandir, ehtimol chindan ham militsiya xizmatchisidir deb o'ylab, rosa uch kun o'zi bilan o'zi munozara qilibdi. Va, nihoyat, bugun ertalab mening boshlig'im huzuriga kirib: «Shunday-shunday yigit sizda ishlaydimi», deb so'rabdi.

— Ishlaydi, — degan javob bo'libdi.

— O'zi sog'midi? — deb so'rabdi yana.

— Sog'likka-yu, sog' edi-ya, tinchlikmi? — degan javob bo'libdi yana. E, boringki, ishim o'z-o'zidan o'nglanib ketibdi-da.

Osma ko'prik oldiga yetganimizda Sur'at aka, o'g'limni bog'chadan olmoqchiman, deb mashinadan tushib qoldi.

— O'rtoq Ro'ziyev, yana bir marta uzr so'rayman, — dedi u qo'limni siqib xayrlasharkan.

— Men esa sizga yana bir marta rahmat aytaman, — dedi Salimjon aka mening o'ringa javob qaytarib.

— Siz chinakam militsioner ekansiz!

Salimjon aka bilan ancha mahalgacha jim ketdik. «Volga» mashinalarini quvib o'tib, silliq yo'ldan uchi boriyapti.

«Rostdan ham o'g'rilarga uchrab qoldingmi?» — xuddi o'zi bilan o'zi gaplashgandek ohangda so'radi boshlig'im.

— Uchrab qoldim.

— Yechin desa yechinaverdingmi?

— Yo'q, avval mushtlashdim.

— Mushtlashib yaxshi ish qilibsan. Haqiqiy militsioner osonlikcha taslim bo'lmaydi.

— Ular besh kishi edi-da.

— Besh kishi dedingmi? — xushyor tortib qayta so'radi boshlig'im. — Oralarida ayol kishi ham bormidi.

— O'sha ayolni qutqaraman deb shu balolarga qoldim-da.

— Shu hafta ichida sen bilan ikki kishini talashdi. Ular har qalay bizning shahardan emas — gastrolog kelishganga o'xshaydi... Ha, mayli qo'lga tushib qolishar. Shofyor bola, to'ppa-to'g'ri biznikiga haydayver.

Salimjon aka boshqa gapirmadi, o'rindiqning orqa suyanching'iga boshini qo'yib, ko'zlarini yumib oldi. Kim biladi, nimalar haqida o'ylab ketdiykin? Hali o'g'rilarni ushlash rejasini tuza boshladimi yoki men bilmagani boshqa narsalar xususida o'ylayaptimi, bilib bo'lmasdi.

Mashina shag'al to'kilgan torgina ko'chaga burilib, ko'rimisizgina, rangi o'chgan ko'k darvoza oldida silkinib to'xtadi. Boshlig'im ko'zini ochib, qani tush, dedi menga. So'ng shofyorga, ertalab soat yettida kelgin, yana uxlab qoldim deb bahona qilsang taloningni teshib beraman, deb hazil qildi.

Qo'ng'iroq tugmasini galma-gal olib uzok bosdik. Nihoyat darvozaning bir tabaqasi ochilib, 45 yoshlardagi, og'loppi yuzli bir ayol ko'rindi. «Sigir sog'ib o'tiruvdim, eshitnabman», dedi-da, salom berib, ko'rishish uchun yelkama ikki qo'lmi baravar tashladi.

Ichkari kirdik. Sakkiz so'tixcha keladigan hovli, hovlida bir tup ham daraxt ko'rinmaydi. Ammo ikki ming desamku, lof bo'lib ketar, har qalay bir yarim ming tup keladigan rang-barang atirgullar gurkirab o'sib yotibdi.



— Polkovnik o'rtog Otajonovning kulbai oliy maqomi shu bo'ladi, — dedi Salimjon aka kulib.

— Lekin, gullarni rosa xillabsizi!

— Yur, avval yechimib chiqaylik, gul haqida bafurja gaplashamiz.

Shu payt qo'shni hovidan o'rtadagi kichkinagina eshikchani sharaqlatib ochib, bir-birini itarishib, bir yo'la besh bola yugurib chiqdi. Kattasi, yetti yoshlardagi malla soch bola oldinda, eng kichigi, ikki yoshlardagi, xuddi yelim qo'g'irchoqqa o'xshab ketadigan qizcha orqada chopib kelardi. Polkovnik hammalarini galma-gal achomlab, shokolad ulashib chiqdi.

— Bahrom, sen nega kelmayapsan? — deb chaqirdi so'ngra.

Gulzorning orasidan yosh bolaning ovozi eshittildi.

— Mening ishtonim yo'q-ku.

— Sen hech ishtonga yo'lchimading-da, — kuldi Salimjon aka. — Awwalgi kuni shim olib beruvdim-ku?

— Uningzni ho'l qilib qo'ydim. Salimjon aka unga ham bitta shokolad berib yubordi.

— Qo'shimizning bolalari, — deb tushuntirdi Salimjon aka menga. Bechoraning o'n bitta bolasi bor. O'zi magazinchu, ammo juda halol, pok yigit! Boshqalar bir-ikki yil magazinda ishlasa, dang'llama uchastka qurgan, mashina olgan, bosar-tusarini bilmay qoladi. Bu bo'lsa, yigirma yildan buyon magazinda-yu, bolalariga ishton olib berolmaydi!

Polkovnik o'rtog Otajonovning kulbai oliy maqomi to'rt xonali uy va bir oynavand ravondan iborat. O'n metrcha keladigan, tramvayning vagoniga o'xshash ravonning kunga betgay tomoniga ham har xil tuvaklarda gullar qo'yilibdi. «Gul jinnisi ekan» deb o'yladim ichimda. Lekin, menga o'xshab bolalarni ham yaxshi ko'rar ekan, degan fikr ham o'rdi boshimdan. Buyijonim, bolajon odamning yuragi toza bo'ladi, shunaga kishini uchratsang etagidan malkam ushla, der edi. «Etagidan malkam ushlayman», deb o'yladim yana.

Salimjon aka ichkaridan ola-bula shalvor kiyib, xuddi Afrika o'rmonlarida yashaydigan zebra qiyofasiga kirib chiqdi-yu:

— Boshlig'im nega meni uyiga olib keldi, deb o'ylayotgandirsan? — deb so'radi.

— To'g'ri, xuddi shunday deb o'ylab turuvdim, — dedim shoshilib.

— Yolg'iz turaman. So'qaboshman. Uy olguningcha men bilan tura tur. Senga o'xshagan o'g'lim, juda mehribon xotinim bor edi... Yur, ularni senga ko'rsataman.

Ichkaru uyda, yaltiroq stol-stullar, yaltiroq shkafflar, rang-barang vazalar qo'yilgan xonada ikki surat yonma-yon osig'lik turardi.

— Kelinying, — dedi Salimjon aka ovozi qaltirab, — qara, xuddi o'lmagandek! Nega kechga qoldingiz, qorningiz ham ochgandir, deb so'rayotgandek. Bunisi o'g'lim — Karimjon! Hozir gamoqda.

Boshlig'imning ko'zlarida mitillab yosh tomchilari ko'rindi, ovozi bo'g'ilib gapir olmay qoldi. Shoshilib tashqariga yurdi. Men han orqasidan ergashdim.

Tokqaychi bilan gullarning eng chiroyli ochilganlaridan qirgib kattaligi non qutichadek keladigan dastali savatni to'ldirdi-yu, indamasdan ko'chaga chiqib kerdi. Haligi oq lo'ppi yuzli ayol katta qora patmasda har xil qand, tandirdan yangigina uzilgan non, bug'i ko'tarilib turgan choy olib chiqib, ravonga qo'ydi-da:

— Ichib o'tiring, tortinmang. Salimjon akam qabristonga ketdilar chog'imda. Orasi yaqin... Bechoraga juda-jabr bo'ldi-da, har kuni boradi... — deb yana iziga qaytdi.

Xotini nega o'ldi? Xo'sh, u-ku qarib qolgan bo'lsa, ajali bilan o'lgandir, o'g'li-ehi, nega gamalati ekan? Tavba militsiya polkovnigining o'g'li ham gamaladimi? Butun shaharda uni tanimaydigan militsioner yo'q, hamma uni ustoz deb chaqiradi. Hammalari birlashib, o'g'lini qamoqdan chiqarib yuborishsa bo'lmaydimi? O'g'lini qamagan odam meni ham qamashi hech gap emas-ku! Anavi oshxonaning

baxti qaro direktori yozgan shikoyat tasdiqlanib qolgan bo'lsa-ya.

— Hoshimjon, zerikib qolmadingizmi? — degan ovoz eshitildi hovliidan. Salimjon aka qaytib kelibdi, haligi g'amginligidan asar yo'q, yuz-ko'zi charaqlab kulib turibdi. Yo'l-yo'lakay magazimga ham kirib chiqqanga o'xshaydi — savat to'la mayda-chuyda.

— Palov qilishni bilasanmi?

— Bilaman.

— Yechin bo'lmasa. Bir qo'lbola osh damlaylik.

Ikkovlashib oshga unnab ketdik. Zirvakni pishirgach, boshlig'im, tarelkada ozgina go'shtdan olib kel, deb buyurdi. O'zi haligi savatchadan bita konyak chiqardi.

— Ichasanmi?

— Yo'q, og'zingga ham olgan emasman.

— Yaxshi qilasan, og'zingga olma bu zaharni! Men ham ellik yoshimgacha og'zingga olmadim. Keyin tantanali kunlarda dixushlik uchun uncha-muncha tatib ko'radigan bo'ldim... Xo'p mayli, o'lim bo'lmasin! Bay-bay-buy, buncha baddur-a, bu! Shuni pulga olib ichamiz-a... Rahmatli kelinoyingning menga qilgan yaxshiliklaridan bittasi shu bo'ldiki, meni ichkiklikdan saqladi. Mana endi, meni yetimcha qilib tashlab ketdi. Go'ring to'la nur bo'lgur, ajoyib ayol edi... Ke, tag'in bir ichay, bunisi sen uchun, militsiyada unib o'shining polkovnik bo'lishing uchun ichaman.

— Kelinoyimning vafot etganlariga ancha bo'ldi.

— Bir yilcha bo'ldi, o'g'lim.

— Karim akam nega qamaldilar?

— Aytaman, hammasini aytaman. Aytсам dardim yengillashadi. Ob-bo', Hoshimjon-ey, nechaga kiringing?

— O'n sakkizga.

— Karim yigirmaga kirdi hozir. O'zingga o'xshagan paxlavon, zabardast yigiti bo'luvdi. Yelkalari keng, ko'kragi ing'ib chiqqan, xipcha bel... bor, qozonning o'tini tortib qo'y. Barakalla! Ichasanmi? — Yo'q.

— Ichma bu zaharni! Men ham, hali aytdim-ku ellik yoshimgacha yaqiniga yo'lamadim... Karimni o'zim qamadim. Kelinoying uni deb o'lib ketdi. Demak, u bechoraning o'limiga ham men sababchi bo'ldim. Farishtadek beozor ayol edi-ya! Tabiatidagi yunshoqlik, rahmdillik o'shandan yuqqan. Qatnig'og'ligim, nazarimda otandan yuqqanga o'xshaydi... Bechora, yosh ketdi! U meni odam qiluvti, buzilishdan, adolatsiz bo'lishdan saqlab, o'ttiz yil tarbiyaladi. Men endi odam bo'ldim deganimda u meni tashlab ketdi... Mayli, senga gapirib beraman, hammasini gapirib beraman. Gapirsam yengil tortaman.

### **POLKOVNIK O'ZO'GLININGA QAMADI**

— U paytlarda tog'li rayonda yashardik, tergov bo'limida ishlardim. Rayon markazidagi pilla qabul qiladigan bir punktda katta jinoyatlar bo'layotganini sezib qoldik. Uni fosh qilishni menga topshirishdi, sezdim-asdan ish olib borish kerak edi. Ko'p o'vara bo'ldim. Nihoyat, bir kun jinoyatlarining iziga ham tushdim. Shahardagi shoyi to'qiydigan kichkina artellar bilan aloqalari bor ekan. Artellar, o'z navbatida, magazinar bilan muomalada bo'lib, yashirincha to'qilgan atlaslarni o'sha magazinarlarga chiqarib pullashar ekan. Yigirmaga yaqin odam qamalishi kerak edi. Men militsiya xizmatiga kirganimdan buyon bunangani katta jinoyatni ochishga hech qo'l urmagan edim, ilhom bilan juda berilib ishlardim. Bir kun pochtradan xat kelib qoldi. «Salim, bizni tinch qo'y, bo'lmasa avlodning bilan qirib yuboramiz. Axir, hammamizni gamay olmay-san-ku!» deb yozilibdi unda. Boshlig'imiz Makarov degan chol edi, uni Makar buva deb chaqirardik... Qozonning o'tini o'chirib qo'yganmisan?

— O'chirib qo'yganman.

— Xatni Makar buvaga ko'rsatdim. O'qib, ko'zlarini yumganicha, barmoqlari bilan stolni chertib, uzoq mulohaza qildi.

— Qo'rg'apspanmi? — dedi nihoyat ko'zini ochib.

— Qo'rg'apman, — dedim ochiq iqror bo'lib.

— Qo'rqma, sen bilan meni butun xalq, qudratli hukumat himoya qilib turibdi, — deb Makar buva ko'nglimni tinchitgan bo'ldi.

O'sha kechasi shahar mlitsiyasidan yordam chaqirib, jinoyatchilarning hammasini qo'lga oldik. Endi meni ishim asosan tugagan edi. Tergovni oblast mlitsiyasiga o'tkazdik. Kelinoying o'sha paytlarda ham ishlar, uyimiz medpunkning shundogqina biginida edi. Ikki qizimiz bor edi. Biri uchda, ikkinchisi beshda, biram chiroyli, biram do'mboq ediki, tillarining biyronligini aytmayspanmi! Ishga bormay, kun bo'yi gaplashib o'tirsam derdim.

Xufton mahalida begona bir odam hakkalab uyma kiritib kelibdi, aft-basharasi, tizzalari qop-qora qon emish.

— Siz hamshiramisiz? — so'rabdi u entikib.

— Hamshiraman, — debdi kelinoying.

— Tez bo'ling, buloq boshida mashina avariya bo'ldi, hammayoq qon, odamlar o'lyapti.

— Voy, to'xtang! Qizlarimni qo'shimnikiga olib kiritib qo'yay! — debdi bechora kelinoying. Begona odam: «Oyog'im singanga o'xshaydi, yur olmayman. Siz kelguncha uyni poylab turaman, keyin menga ham dori-darmon qilasiz» debdi. Kelinoying ko'p oq ko'ngli ayol edi, laqqa tushibdi! Bechoraga o'sha paytda yangigina velosiped olib bergan edim. O'shani minib buloq boshiga jo'nab ketibdi. Haligi yovuz qizchalarimni uyma kiritib, ketidan qullab, kerosin quyib, o't qo'yib qochib-di... O'sha kuni men navbatchi edim. Kimdir menga telefon qilib, «qanaga odamsiz, uyingizga o't qo'yishdi-yu, yalpayib o'tirishingizni qarang-a», dedi. Mashinamiz yo'q edi. Otga minib uchib bordim.

Qishloqqa yetguncha yo'l anhor yozalab boradi, o'ng tonon qir, o'rikzor. Bir mahal ostimdagi ot munkib ketdi-yu, nimagadir osilib qoldim. Chilvir! Meni yiqitish uchun yo'lni chilvir bilan to'sishgan ekan. Hali o'zimga kelmasindan turib, odamlar ustimga yopirilib, boshimga

ho'l chakmon yopishdi. Ayni yetilgan paytim, o'zimmiam ho'kizdek kuchim bor edi. Boshimdagini olib tashlash uchun ko'p harakat qildim, bo'lmadi! Qo'l oyog'imni chilvir bilan bog'lab tashlashdi. Chuqurga itg'itishganini, ustimdan shaldirab suv tusha boshlaganini ham es-es bilaman... Qiziq, o'zim o'lib borayman-u, bechora qizlarim o't ichida qolmadimkin, onasiga nima bo'ldiykin. deb tashvishlanaman... Keyin o'zimdand ketib qolibman.

Bir mahal ko'zimni ochsam, tepamda entikib, o'n to'rt-o'n besh yoshlar chamasidagi bir bola turibdi.

— O'zingizga keldingizmi? — dedi u shivirlab.

— Kimsan? — deb so'radim.

— O'rningizdan tura olasizmi? — dedi bola yana. Turmoqchi bo'lgan edim, gandiraklab yuzim bilan yerga yiqildim. Yiqildim-u, qiziq, negadir darrov o'rimndan turib ketdim.

O'rikzor oralab qishloq tomonga yugurdik. Bola qo'shni qishloqdan, Odiljon muallimning o'g'li ekan, tegirmonga yuk tashlab qaytayotgan ekan. Men uning oldidan ot chopitirib o'tibman. Meni darrov tanib, ot urib ketmasin deb o'zini chetga olibdi. Ikki yuz metrcha narida men to'sardan yiqilibman, borib yordamlashmoqchi bo'lgan ekan, odamlar meni har tomondan qurshab, qo'l-oyog'imni bog'lashayotganini ko'rib, qo'rqib o'zini chetga olibdi. Chuqurga tashlashganini, ustimga suv ochib yuborishganini ham ko'rib turibdi. Keyin haligi odamlar otga minib, o'rikzor oralab toqqa qarab ketishibdi. Bola bir amallab meni chuqurdan chiqarib, yonidagi pichoq bilan chilvirni qirg'ib, yuragimga quloq solsa, tirik emishman. Oyog'imdan sudrab o'rikzorga olib o'tibdi.

— O'sha bola hozir hayotmi? — deb gapni bo'ldim.

— Hayot. Hozir qishloq Kengashining rasi. — Shunday deb, hikoyasini yana davom ettirdi Salimjon aka. — Daraxtzor oralab uyma yetib borsak, atrofga odam degani sig'may ketibdi... Bechora qizchalarim butunlay kuyib

ketibdi... Kelinoying... qo'shnimizning uyida behush yotardi... Ertalabgacha sochim oppoq oqarib ketdi.

— Uyga o't qo'ygani odamni topdinglarmi?

— Afsuski, topilmadi.

— Yo'to'sarlarni-chi? Ularni ham topisholmadimi?

— U paytda militsiya hozirgidek kuchli emasdi.

— Keyin-chi, keyin nima bo'ldi?

— Keyinni, keyin kelinoying kasal bo'lib yotib qoldi. Uni davolataman deb shaharga keldim-u, o'zim ham shu yerda qolib ketdim. Militsiyadan ketmog'chi bo'luvdim, rahmatli kelinoying ko'nmadi. Ichki dushmanlar bilan olishish o'rni ulardan qo'rqib, ishni tashlab ketish yig'ining ishi emas, dedi bechora. Jinoyatchilarni fosh qilib, bevaqt o'lib ketgan qizchalarimizning ruhini shod qilasiz deb turib oldi... Shuning uchun ham men jinoyatchilarga nisbatan shafqatsizman, qattiqqo'liman! Mendan zirillashlarining boisi ham mana shunda. Meni beralin de'yishadi, yolg'on. Yuragim rahim-shafqat bilan limmo-lim to'lati... Ammo jinoyatchini ko'rganimda, u otan bo'lsa ham, ayamayman, zarur bo'lsa o'g'limni ham qamayman!

Salimjon aka katta mushki bilan stolga bir urdi-yu, o'rnidan turib ketdi. Vodoprovodga shlanika ulab, gulzorga suv ochdi, o'choq boshiga borib, qozonga o't yoqdi.

— Tur, guruchni yuv! — dedi negadir menga zarfda bilan.

Fe'li aynab qolganini ko'rib, hikoyaning davomini so'ragani botina olmadim.

Salimjon aka oshni damlab, qaytib o'rniga o'tirdi-da, yarim bo'lgan butilkani qo'lga olib, negadir, chayqatib ko'rdi.

— Qolganini ichib qo'yganim ma'qulmi yoki endi bas qilaymi? — deb so'radi mendan.

— Endi ichmay qo'ya qoling.

— Har kuni ichadigan odatim yo'q, — deb boshlig'im ichimlikning qolganini stakimga qulqullatib quya boshladi.

— Ba'zan bir oyda, ba'zan ikki oyda ko'ngil qurg'ur mana

shunaga tortib qoladi. Ichsam yig'layman, yig'lansam, ko'nglim bo'shaydi. Lekin, hammaning oldida ham ko'z yoshi to'kib bo'lmaydi. Chayqovchining oldida yig'lab ko'r-chi, eshak qilib yelkanga minib oladi. Sen o'g'limni eslatib yubording. U hana senga o'xshab sal yolg'onchiroq edi. Qo'ldan kelmaydigan ishni buyursang ham «xo'p bo'ladi» deyaverardi. Osh qilishni bilmas ekansan-u, qiyib yuboraman deysan. Nazarimda, guruchni ham yuvmasdan solding.

— Chelakda suv tugab qolgan ekan, — deb o'zinni oqlamog'chi bo'ldim.

— Ha, mayli, lekin oqko'ngil bola ekansan... Hikoyamiz nimaga kelib to'xtagan edi? Ha, shaharga ko'chib keldik deyayotgandim, shekilli... Xalqqa, hukumatga sodiq o'g'il bo'lishga harakat qildim. Oblast militsiya bo'limida avval tergovchi, keyin bo'lim boshlig'i bo'lib ishladim. Boshqarmaga boshliq etib tayinlamog'chi bo'lib turishgan edi, kimdir ustindan tuihat yozib qolsa bo'ladi. Haq joyida qaror topuncha bir yilcha fursat o'tib ketdi, o'g'lim.

Bu orada Karimjon tug'ilib, onasi ikkovimizga ovunchoq bo'lib qoldi. Yakka o'g'il emasmi, uni shunanggi papalab katta qildikki, oxiri bola rasvo bo'ldi. Injiq, sirkasi suv ko'tarmaydigan, ishyoqmas, hali aytganimdek, jindek yolg'onchiroq bo'lib o'sdi. Shunday bo'lsa ham uni onasi ikkovimiz yeru ko'kka ishonmas edik, hadab erkalarardik. Sakkizinchi sinfni tugatgach, o'qishni butunlay tashlab yubordi. Uch yilcha salanglab bekor yurdi. Shu bekor yurgan paytlarida bola tamom bo'lgan ekan, sport to'garigiga qatnashib boksnii o'rganayapman deb, biza laqillatib yurgan ekan.

Bir kun ertalab tursam, yotoqxonamdagi yozuv stoli tortmasi ochilib qopti. Bu yerda mening sha to'pponcham saqlanar edi, uni menga marhum ministri o'sha pilla punktidagi jinoyatni ochgan yilim muk sifatida taqdim etgan edi. Kalit menda-ku, tortmani ochdi ekan, deb o'yladim. Lekin to'pponcha o'rnidayu,

o'q yetishmaydi. Yuragim urib ketdi. Hovliqib Karimning xonasiga kirdim.

Uxlab yotibdi. Shimiga ko'zim tushdi! Pochasiga loy yopishgan, loy hali qurimagan. Demak, u yaqinda qaytibdi. To'pponchani shu olgan! O'qi kimga ortdi ekan?!

Yutimb, orgamga qaytdim. Nonushta mahallada o'zinni hech narsa bilmanganga solib o'tirdim. Karim, negadir nonushta qilmadi, mazam bo'lmayapti deb yotoqxonasiga kirib yana yo'tib oldi... Ishxonada tilla magazin qorovulini magazinining yonida emas, Egarchi mahallasida, jarlikka tushaverishda otib ketishganini eshirdim. Kecha tomon qorovul to'pponcha o'qidan o'lganligi ham ma'lum bo'lib qoldi. Butun shahar militsiyasi qotini axtarishga tushdi.

Kechqurun Karimni yotoqxonamga chaqirib, tortmandan to'pponchani oldimu, oldiga tashladim.

— Ma, qolgan o'q bilan avval meni, so'ngra onangni ham otl!

Karim boshini egib oldi.

— Yaxshiyamki, qorovul o'lmadi, — dedim sekin gap olish uchun. Karim yalt etib menga qaradi. Ko'zida ta'rifga sig'mas bir dahshat bor edi.

— Qorovul seni tanib qolibdi... — dedim yana.

— Men otganim yo'q! — qichqirib yubordi Karim.

— Kim otdi?!

— Tolib!

— Nega otdi?!

— Cho'ntagida yigirmata oltin tanga bor edi.

— Oldilaringmi?!

— Olishdi.

— Qani oltinlar?!

— Tolibda.

— To'pponcha nega uning qo'lga tushib qoldi?!

— Karta o'ynovdik. Agar yuqizsam bir kechaga sizning to'pponchangizni o'g'irlab olib borib berishim kerak edi.

— Yutsang-chi!

— Menga tranzistorini berardi.

— Hozircha bu haqda onangga hech narsa dema!

— Yaxshi!

Kechasi bilan uxlayolmay, ilon chaqqan kishidek to'lg'anib chiqdim. Onasining yuragi kasal, eshitsu, chiday olmay bir gap bo'lib qolishi mumkin. Bu sirni berkitib yuborish ham mumkin emas, vijdonim yo'l qo'ymaydi bunga... Ehtimol qotini topisha olmas, axir undan hech bir nishona qolmagan-ku? Sirni oshkor qilsam, Karim qamaladi. Uning alamiga chidayolmay onasi bechora ham... farzand dog'ini endi ko'tarolmaydi u.

Ertalab voqeani onasiga aytdim. Beehora jim o'tirib tingladi-yu, oqarib ketdi. Dori ichirdim, o'ziga kelib:

— Ko'pga qamashmaydimi? — deb shivirladi...

Yana ikki kun azobda o'tdi. Oxiri bo'lmadi, vijdon qo'ymadi, o'g'lim!

Karimni yetaklab, ministrimizning huzuriga chiqdim.

Ozod Azimovich ham xuddi senga o'xshab mening qo'linda tarbiya topgan, rahmati kelinoyingni ham yaxshi bilardi. Oldiga ishdan bo'shatishlarini so'rab yozgan arizamni, to'pponchamni qo'ydim, bo'lgan voqeani og'zaki so'zlab berdim.

— Juda xunuk ish bo'pti! — dedi Ozod Azimovich boshini chayqab. — Hozircha Karim ochiqda yura tursin. Lekin siz ishdan ketmaysiz.

— Ketaman, endi ishlay olmayman.

— Ishdan ketish-ketmasligingizni siz emas, ministrlar hal qiladi.

— Yo'q, men vijdonim buyurganini qilaman! — Shunday deb xayrlashmasdan ham chiqib ketdim, uzog' o'tirishga yuzim chidamadim.

Lekin, Karimni sudga chaqarmashmadi, ministarning buyrug'i shunday bo'lgan ekan. Beehora o'g'lim ostona hatlab ko'chaga chiqmay, uch oy bemor onasining yonida o'tirdi. Biror mara bo'lsa ham betimga qaray olmadi sho'rtik. Qilgan ishiga ming bor pushaymon bo'lgan edi u. Ammo jazolanishi kerak edi! Har ganday jinoyat gaysi

asosda yuz berishidan qati nazar, jinoyatchi jazolanishi kerak! Eshityapsanmi, jazolanishi sharti!

Sud belgilangan kuni kelinoyingning ahvoli ancha og'ir edi, borilmadi. O'zim bordim, besh yil berishdi. Qaytib kelsam, bechora kelinoying, mening maslahatchim, hamdardim, yotgan o'rniida o'lib qolibdi! Xayrlasholmay qoldim, eshityapsanmi. Hoshinjon qirg'yillik qadrdonimning oxirgi so'zini eshitolmay qoldim-al!

— Qo'ying, yig'lamang! — deb, negadir o'zim ham yig'lab yubordim.

— Qo'y, o'g'lim, bir yig'lab olay, to'yib-to'yib yig'lasam yoziyman. Yoshlikdagi kuch-g'ayratim yana qaytgandek bo'ladi. Ertaga yana chayqovchi, tovlamachi, yulg'uchlar bilan jangga kirishib ketaveraman, haqiqat uchun kurashaveraman. Haqiqatni bilasanmi, o'g'lim?

— Bilaman.

— Bilsang, haqiqat bita bo'ladi. Ammo uni chayqovchi o'zicha tushumadi. Yuig'uch ham biroving cho'ntagini mo'ljalga olib turadi-yu, ammo men haqqan, haqiqat men tomonda deb o'ylaydi. Qo'lga tushib qolsa, miltitsiya bilan tikkama-tikka olishadi! Biz haqiqatning yuziga dog' tushiruvchilarga qarshi urishaniz, to'g'rimiz!

— To'g'ri.

— Ozgina quyib beraymi?

— Men ichmayman.

— Barakalla, ichmal! Kel, o'g'lim bir achomlashaylik. Hiding ham, tavba qildim-ey, xuddi Karimning hidiga o'xshaydi! Karim kelguncha men bilan birga turasan, endi sen ham o'g'limsan. Ikkovingni bir unda uylaniraman, uylanasanmi?

— Buviyonimdan so'rashim kerak. Salinjon akam kulib o'rniidan turdi-da, o'rni suzish uchun 'choq boshiga qarab ketdi.

## JINOYAT KODEKSINING 197-MODDASI

**Y**uragim g'ash, ko'ngli tashvishda. Bugun-erta gamab qo'yishlari ham mumkin. Axir, o'rtoq Oritqovning aytsincha, ba'zan tubmat bilan gamalib ketganlar ham bo'lgan-kul! Polkovnik o'z o'g'limi gamagan, kerak bo'lsa otamni ham gamayman deyapti. Ehtimol, meni chugurroq o'rganish uchun o'z uyiga olib borgandir? Menga ko'rsatilgan mehrbonchiliklarning hammasi yasama bo'lsaymi?

Komissiya uch kundun buyon rosa tekshir-tekshir qilyapti. O'sha baxti qaro direktoru, oshpaz Turunovu, baqaloq bufetchigacha rosa so'roq qilishdi, o'sha-o'sha gap—o'rtoq Ro'ziyev pul so'radi, berdik, tamom-vassalom! Bugun komissiyaning ikki a'zosi kelmadi, qarang, ikkovi ham gripp bo'lib qolibdi. Polkovnik bo'g'ilib, garchi kabinetining bo'yi bilan eni qancha ekanligi o'ziga avvaldan ma'lum bo'lsa ham, oyog'ini metr qilib, yana o'lehashga tushib ketdi. Nazarimda ellik martacha o'lehab chiqdiov! Nihoyat, bu mashg'ulot joniga tegib ketdi shekilli, yurishdan to'xtab:

— Qani ketdik! — dedi shoshilib.

— Qayoqqa?

— Oshxonaga boramiz. Ko'nglinga bir gap keilib qoldi. — dedi boshlig'im ko'tarinki bir kayfiyatda. — Umuman sen, men qanday ish olib borishimni ko'rganing yaxshi. Bu senga bir maktab bo'ladi. Kerak bo'lsa, men qo'ydek yuvosh bo'laman, kerak bo'lsa, talkidek ayyor bo'laman, sharoit taqozo qilsa, sherdek hamla qilaman... Oralarida bittasi sal oqko'ngliroq... O'shandan ish chiqishi mumkin.

Oshxonaga soat o'n birlarda yetib bordik. Negadir xo'rاندalar juda oz. Ozg'in kassir ish yo'qligidan bo'lsa kerak, qalamtarosh bilan tirnog'ini tozalab o'tiribdi. Direktorning xonasiga o'tdik, yo'q ekan. Bufetchi orqali oshpaz O'roz Haydarovni chaqirtirdik. O'roz xuddi Zokirga o'xshab oq lo'ppi yuzli, qo'y ko'zlari doim kulib turadigan,

yigirma ikki-yigirma uch yoshlardagi yigit bo'lib, kishi bilan gaplashganda uyning shiftiga qarab turar ekan.

— Xo'sh, O'rozboy, hali ham kechagi gapingda turibsanmi? — so'radi polkovnik.

— Men haqiqatni aytdim, — dedi O'roz.

— Ko'zlaring esa «yolg'on!» deb turibdi.

— Yolg'on bo'lsa tekshirib ko'ring.

— Shunday qilib, yuz so'm berganmisiz?

— Ha.

— Maoshing qancha?

— Sakson so'm.

— Maoshing sakson so'm bo'lsa, yuz so'm cho'ntagingga qayvoqdan kelib qoldi.

— Men uni yig'ib yuruvdim.

— Biror narsa olmogehimiding?

— Televizor olmogehi edik.

— Anchadan bo'yon yig'ayotganmiding?

— Uch oydan bo'yon.

— O'sha poraga bergan yuz so'ming qanaga pullar uch so'mlikmi, besh so'mlikmi, yo o'n so'mlikmi?

— Qanaga deysizmi?

— Ha, qanaga pullar edi deyapman.

— Qanagiligi... hozir esimda yo'q.

— Uch oy yoningda saqlaysan-u, qanaga pullar ekanligini bilaysanmi? O'rozvoy, ko'rib turibmanki, halol, rostgo'y yig'itsan, yolg'on gapirib o'rganmagansan. Shuning uchun ham ko'zingni olib qochayapsan. Ko'zlaring esa, hamma gapni aytib turibdi. Qani, ko'zingni olib qochmay tur-chi, ha, barakalla!

— Bolalaring bormi?

— Fotima-Zuhra qizlarim bor.

— Ota-onang hayotimi?

— Ha.

— Qamalsang, shularga jabr bo'ladi! Ochiq iqror bo'lsang, qamoqdan saqlanib qolishing mumkin. Sheriklaringdan bittasi hamma gapni yozib berdi! Ma, o'qib

ko'r. Faqat imzosini men berkitib turaman, sir saqlashga va'da berganman.

Oshpaz xatni bir emas, ikki marta o'qib chiqdi. O'qib chiqdi-yu, bu gal ko'zini shiftga emas, yerga qadab:

— Bilib qolsa, direktor meni tiriklayin ko'madi! — deb pichirladi.

— Sen direktorni emas, qizlaringni, xotiningni, qari ota-onangni o'ylai!

— Sir saqlashga so'z berasizmi?

— So'z beraman.

— Oshxonadan eson-omon bo'shab ketishingga yordamlashsizmi?

— Yordamlashaman.

— Menga qog'oz bering bo'lmasa.

O'rozvoy ikki yildan buyon oshxonada yuz berib kelayotgan barcha kirdikorlarni, menga qilingan tuhmatni, direktor nima deb tayinlaganigacha — hamma-hammasini batafsil yozib berdi. Chiqib ketgach, men boshlig'imdan:

— Uning sherigi chindan ham biror narsa yozib berganmi? — deb so'radim.

— Yo'o'q, bu qalbaki xat edi, o'zim yozuvdim, — kuib dedi Salimjon aka. — Senga hali aytdim-ku, shu bola ko'nglinga sal ma'qul tushib qoldi deb... So'roq boshlash oldidan avval odamning psixologiyasini o'rganish kerak. Bufetchi bo'lsa, tajribali, uni aldab bo'lmaydi. Unga temir qopqon tayyorlab keldim. Boshqasiga ilimmaydi. Baqaloq bufetchi ikki qo'llini ko'ksiga qo'yib, xiyol egilib, odob-nazokat bilan kirib keldi. Kiridi-yu, qo'llarini ko'ksiga qo'yganicha, o'tirmay tik turaverdi. Xona uncha issiq bo'lmasa ham, avval burni va peshanasida, so'ngra semiz, sergo'sht yuzida ter ko'rinish, bora-bora xuddi hammomga tushgandek pishillab ketdi. U goh menga qarab qo'yadi, goh boshini ko'tarmay, hamon bir narsalarni yozib o'tirgan polkovnikning yelkasiga salom beradi.

— O'tiring! — buyurdi polkovnik.

— Rahmat. Men hurmati boshliqlar huzurida tik turishga o'rganganman.

— Ismingiz?

— Kecha aytuvdim-ku, hurmati boshliqqa zarur bo'lsa, yana aytishim mumkin.

— Ismingiz deyaрман?

Bufetchi bir sakrab tushdi:

— Zokir Zaripov, xuddi shunday.

— Grajdanim Zaripov, siz qamoqqa olingingiz!

Bufetchi bir chayqalib ketdi. Uch minut chammasi og'zi ochilganicha, qoshlarini kerib, angrayib turdi. So'ngra «qamoqqa» deb pichirladi o'ziga-o'zi. Uning butunlay dovdirab qolganini ko'rib, polkovnik o'z hujumini yana ham shiddatliroq davom ettirdi. Kecha men Salimjon akani juda dilbar, rahmdil bir qiyofada ko'rgandim. Hozir u shunday bir vajohat va dalshat bilan bogardiki, ishonsangiz, bu bogshlardan o'zim ham dovdirab qolayotgandek bo'ldim.

— Kechiradilar, — dedi nihoyat bufetchi tilga kirib, — qamalishtimning sababini bilsam bo'ladimi?

— Shu yilning 22 martida shahar savdo inspeksiyasi bufetingizdan o'n to'rt butika qalbaki konyak topgan, shundaymi? — metindek og'ir bir ohangda so'radi polkovnik.

— Yo'o'q, yo'o'q, bir anglashilmovchilik bo'lgan edi!

— Mana akti! — Salimjon aka aktini uzatmoqchi bo'luvdi, bufetchi yana dovdirab qoldi shekilli, negadir, orgasiga tisarilib, yelkasini devorga urib oldi.

— Ha aytganday, shunday bo'luvdi, lekin chora ko'rishgan. Hayfsan olganman.

— Siz O'zbekiston jinoyat kodeksining bir yuzu o'n yetinchi moddasiga asosan jinoyi javobgar-tortilishingiz kerak.

— Lekin, men halol mehnatim bilan o'z aybimni yuvganman.

— O'ninchi fevral kuni drujinachilar tomonidan tekshiruv o'tkazilganda, bir xaridorani bir so'im yigirma ikki tiyinga aldagansiz?

— Yo'o'q, yo'o'q, o'rtoq polkovnik, men yanglishib ketganman. O'sha kuni kasal edim, ishimam bor edi!

— Mana, o'zingiz qo'l qo'rgan akt.

— Lekin, men o'rtoqlik sudida uzr so'raganman hayfsan berishgan.

— Siz O'zbekiston jinoyat kodeksining bir yuzu yetmish yettinchu moddasi bilan jinoyi javobgarlikka tortilishingiz kerak. Grajdanim Zaripov, siz qamoqqa olingingiz!

Baqalovq bufetchi nazarimda, shu paytda juda, juda ham ingichka tortib ketgandek bo'ldi. Dadasidan qo'rqgan yoshi boladek burchakka tiqilib, tizzalari dag'-dag' qaltiray boshladi. Haligi ter bosgan sergo'sht yuzi endi sovuq urgan pomidordek gezarib ketdi. «Ke-ke-ke...» dedi-yu, tili tutilib, yana jim bo'ldi. Yig'lamsiraganicha, xuddi yordam kutgandek bir menga, bir derazaga qarab ko'zlarini mo'htirab turaverdi. Nihoyat, kostyumi ichida yo'o'q bo'lib ketgan bo'yini sal cho'zib:

— Kechirasiz, bir narsa so'rasam maylimi? — deb so'radi.

— So'rangi! — jerkb bergandek bo'ldi polkovnik.

— Shu aktlarni qayerdan olganligingizni bilsam bo'ladimi?

— Kecha kechqurun direktoringiz Odil Abbosov olib borib berdi.

— Nomardi!

— Gap tamom. Bufetni qullangi! — shunday deb, Salimjon aka o'rnidan turib, stol ustidagi qog'ozlarini yig'ishtirib, portfeliga joylay boshladi.

— To'xtangi! Bir narsa aytmoqchiman! — shoshilib dedi bufetchi.

— Keragi yo'o'q. Kecha hamma gapni aytgansiz, — eshikka tomon yura boshladi mening boshlig'im.

— Yo'o'q, yo'o'q, kecha men sizni va butun komissiya a'zolarini aldagan edim, yolg'on so'zlagandim. U meni sotganda, men qarab turamanmi? Men o'rtoq Ro'ziyevga tushmat uyushiriganidan xabardorman. Odil-ehsas, kazzob, muttahn u, uchiga chiqqan poraxo'r u. Shahar savdo



inspeksiya-siyasiga ham, drujinachilarga ham tuxmat qilgan. Bechoralar tekshirgani kelgani bezillashadi.

E, ha, hamma gap bu yogda ekan-ku, deb o'yladim.

Bagalov bufetchining aytishicha, baxti qaro direktor uchiga chiqqan tuxmatchi, uchiga chiqqan poraxo'r ekan. Shaharning ikki mavzeida ikkita dang'illama uchaskasi, biroving nomiga olingan qora «Volgasi bor ekan. Har kuni bosh oshpazlardan ellik so'mdan, shu ko'ksiga mushlab so'zlayotgan bufetchidan 60 so'm olar ekan. So'ralgan pulni bermasa oshpazlarni kechasi olib qolib, perashka pishirtirib, vokzalga olib chiqib sotirarkan. Rayon oshxonalar trestining boshlig'i baxti qaro direktordan shunangangi qo'rqar ekan, boshqa oshxonalariga direktor tayinlanayotganda shu bilan maslahatlashar ekan.

Baxti qaro direktordan bufetchi ham qo'rqar ekan, o'g'rilikka o'rgatgan ham, qalbaki konyak tayyorlashga majbur qilgan ham shu yeb to'ymas direktor bo'ldi. Agar bufetchi uning qo'lidan eson-omon chiqib ketisa, avval elektromontyor bo'lgan ekan, yana o'z kasbiga jon-jon deb qaytishga tayyor ekan...

— Bolalaring bormi? — to'sardan gapni bo'ldi polkovnik.

— Olita qizim bor, o'troq boshliq.

— Xotining ishlaydimi?

— Ishlamaydi, o'troq boshliq. Kasal, nafasi qisadi.

— Aytgan gaplaringni yozib bera olasammi?

— Yozib beraman. U nomard meni sotibdi: endi men ham ochib tashlayman hammasini! Qo'lingidagi aktlarni bostibosti qilaman, deb mendan pul olgan. Xotinimni kurortga jo'nataman, deb bir amallab putyovka topuvdim, nomard, drujinachilarga beramiz, deb o'shani ham olib qo'ydi. Men... men...

— Yig'lama! — dedi Salimjon aka hamon avvalgi vahshatidan tushmay.

— Yo'q, men...

Bufetchi Salimjon akaning o'rniga o'tirib, tushuntirish xati yoza boshladi. Avval qo'llari qaltirab, ishi yuritishmadi,

yo'zganining ustidan uchraverdi. Keyin bir stakan suv ichib olgach, qaltirog'i bosilib, ravon yoza ketdi. Nihoyat, o'rimdan turib:

— O'troq boshliq, agar, ruxsat bersangiz, qizlarim bilan xayrlashib kelsam, — deb iltimos qildi.

— Hozircha seni ochiqda qoldiram, — deb Salimjon aka chiqib ketish uchun unga ruxsat berdi.

— Rostdan gamamaysizmi?

— Faqat halol ishlagin, qalloblik qilmagin.

— Halol ishlayman, qalloblik qilmayman!

— Lekin, o'tramizda bo'lgan bu gaplarni direktoringga aytna.

— Aytmayman, peshanamga to'pponcha qadasha ham aytmayman.

Bagalov bufetchi oyog'i yechib yuborilgan parrandadek sakrab-sakrab chiqib ketdi. Salimjon akadan o'sha aktlarni chindan ham direktor etib berganmidi, deb so'ragan edim, u kulib: «Sen direktorni o'zingga o'xshagan laqma deb o'ylayapsan shekilli», deb meni andak koyib ham berdi. Aktlarni u shahar savdo inspeksiya-siyasi bilan militsiya idorasidan olgan ekan, bufetchidan gap olish uchun ataylab, direktoring aytib berdi, degan gaplarni aytgan ekan.

Direktordan hamon darak yo'q. Oshpazlardan biri kirib, u kishi kelmas ekanlar, gripp bilan og'rib qolibdilar, deb chiqib ketdi. Ikkinchi oshpaz Karim Tursunov tungi smenada ishlarkan, uni kutmay bugungi ishini tugatib qo'ya qoldik.

Ko'nglim bir oz taskin topgandek bo'ldi. Xayriyat, haq joyda qaror topadigan bo'ldi, bu g'alvadan ham eson-omon qutulib ketadigan bo'ldim, deb o'yladim. Boshlig'imga, sizga mingdan-ming rahmat, sizga, militsiyaga o'la-o'lguncha sodiq bo'laman, dedim.

— Rahmat deyishingga hali erta, — dedi Salimjon aka o'ylab.

— Nega endi, hammasi besh qo'ldek ayon bo'ldi-ku?

— Odli Abbosov qari tulki, uni osonlikcha qo'lga tushirib bo'psan. Sen bilan men to'plagan faktlarni, bir hamla bilan

yo'qqa chiqarib qo'yishi mumkin! Bilaman, u bugun kasal emas, uyida ham yotgani yo'q. Shahar prokuraturasida og'aynisi bor, o'sha bilan maslahat qilgani ketgan. Qani endi selrgar bo'lsamu, ko'zga ko'rinmaydigan bo'lib olib, ovoz yozadigan apparatini qo'lliq lab ularning huzuriga kiritib, hamma gaplarini oqizmay-tomizmay yozib olsam... Afsuski, selrgarik qo'llimdan kelmaydi-da. Ammo bu sarig shaytonlar bilan oxirigacha olishish qo'llimdan keladi! Nima deding, Hoshingjon, olishamizmi?

Men indamadin. Negaki, shu paytda sehrii galpoqcham haqida o'ylardim. Bordi-yu, Salimjon akamga ochlig'ini aytсам-cha... Yo'q, yaxshisi, aytmadan borib olib kelaman. Bu galvalar tinchisin, uch-to'rt kunga javob olamanu, borib albatta olib kelaman. Ana undan so'ng sarig shaytonlaru, sarig devlarning ta'zirini beramiz.

— Qorin galay? — so'radi boshlig'im.

— Juda och!

— Yur, bir qabobxo'rlik qilaylik.

#### POLKOVNIKNING O'N BIR NABIRASI

**E**rtasiga Salimjon akam ham gripp bilan og'rib qoldi. Magazinchining xotini — o'in bir bolaning onasi Lutfi xola unga qatrab turadigan, men idoraga borib, yozuv-chizuv ishlari bilan mashg'ul bo'ladigan bo'ldim.

Kechaqun qaytsam, qo'shimizning Botir, Bobur, Sobir, Bahodir, Bahrom, Baxtiyor, Sevar, Savri ismi bolalari mening ustozimni har tomondan o'rab, chug'urchiqdek chug'urlashib boshini qotirishyapti.

— Amaki, oyog'ingizni uqalab qo'ysam menga rogatka olib berasizmi? — deydi ishtonsiz yuradigan Bahrom.

— Olib beraman, — deydi Salimjon akam ham ko'zini ochinay.

— Amaki, bo'lkaning yumshoq joyidan chaynab, kafimda dumalatib, qurt yasab beraymi? — deydi to'rt yoshli Baxtiyor.

— Mayli, yasab ber, — degan javob qaytardi unga ham.  
— Amaki, peshanangizga latta ho'llab bosaymi? — deb so'raydi Bahodir.

— Hozir bosding-ku?

— Tag'in bosgim kelyapti-da.

— Ha, mayli, bossang-bosa qol.

Sakkiz yoshli Sevar bilan to'qqiz yoshli Savri yenglarini shimarishib, olib, hammayoqlarini ho'l qilib, pishillashib pol yuvishyapti. Botir hovliga shlankada suv seplash bilan mashg'ul.

Suvni hovliga sepyaptimi, boshidan quyayaptimi, bilib bo'lmaydi, nega desangiz, xuddi suvga tushgan mushukdek hammayog'i shalabbo.

— Amaki, menga nima olib berasiz? — deb so'raydi Savri.

— Sochingga lenta olib beraman.

— Menga-chi? — erkalamadi Sevar.

— Sen kimsan o'zing?

— Men Sevartman-ku.

— E, anovi dadasi magazindan sotib olgan qizmi?

— Yo'q, meni oyim tuqqan.

— Ha, mayli, senga yelim qo'g'irchoq olib beraman.

Salimjon aka shu yotishda kasalga emas, qishlog'imizdagi bog'chaniq enagasiga o'xshardi, katta-kichik bolalar chug'urlashib, u yoq-bu yog'idan tortqilashib, unga hech tinchlik berishmasdi. Achchig'im chiqib: «Qani, uylaringga jo'nab qolinglar, — deb urishdim ularni, — bo'lmasa gripp yuqib qoladi». «Biz gripp bo'lib o'tganimiz, endi yuqmaydi», deb chug'urlashdi bolalar. Qo'limga supurgi olib, xuddi urmog'chi bo'lgandek o'dag'aylab hammalarini haydab solmog'chi bo'lavdim, Salimjon akam: «Qo'y, haydama, o'zim chaqiritirib chiqdim, shularni ko'rsam kasalim yengillashadi», deb ko'nmadi. Hamshira ukol qilgani kelgan edi, unga ko'zinni qisib: «Aval bolalarga nina tqarkansiz, Salimjon akam ayt'yaptilar», dedim.

Bolalar shataloq otib qochib qolishdi, hovli suv quygandek jimjit bo'lib qoldi. Ikkiti chinmi kosada mastava ko'tarib, magazinchu Ne'mat aka chiqdi.

— Tuzukmisiz? — dedi u Salimjon akaning oyoq tomoniga o'irayotib.

— Istimam tushdi shekilli, o'zingning ishlarining qalay?

— Bugun yana mushlashib ketishimga oz qoldi.

— Bo'lar-bo'larmasga mushlashaverar ekansan-da.

— Bo'lar-bo'larnasga emas. Hoshinjon, bor, ikkita qoshiq olib chiqin.. Salimjon aka, shu mastavani iching, terlaysiz. To'xtang, mana bu dorini avval ichib yuboring, buyam tertatadi shekilli, menam shundan tuzalдим.. Bo'lar-bo'larnasga mushlashma deysiz. Shu bartollar bilan mushlashmay bo'larkami. Ertalab yuz qop un kelib qoldi. Ekspeditor unni tushirmay, qopiga bir so'mdan berasan, deb turib oldi, bir tiyin ham bermayman desam, bo'lmasa bir qop ham un o'lmaysan, dedi. Olanam dedim, o'lmaysan dedi. Oz qoldi mushlashib ketishimga.

— Unni tashlab ketdimi, axir? — g'ijiniib so'radi polkovnik.

— Bermadi. Sizga yuz marta aytdim, shularning popugini bir silab qo'ying deb.

— Ulgurmayapmiz-da.

Salimjon akam mastavani qaynoq-qaynoq ichib, o'raltib yotib oldi. Magazinchil bo'shagan kosalarini olib chiqib kerdi. Men bo'lsam boshlig'im haqida o'ylay boshladim. Bechoraga juda qiyin, hatto kasal yotganida ham potaxo'rlar haqida shikoyat qilishib, tinchlik berishmaydi. Jinoyatchilar bo'lsa, kuchaygandan-kuchayib boryapti.

Uch kunda o'n to'rtta shikoyat tushdi. Hali bittasiga ham qo'l urganmiz yo'q. Birini tugatsang, ikkinchisi chiqadi. Kim biladi, hozir anovi baxti qaro direktor meni javobgarlikka tortish uchun qanaga tadbirlar ko'rayotgan ekan. Ishqilib, Salimjon akam tezroq tuzalsinlar-da, bo'lmasa, ular meni naq asfaldasofilinga jo'natishlari hech gap emas.

Salimjon akamning eski, shallog'i chiqqan, uzoqdan qarasangiz o'rnatlab ketayotgan qo'ng'izga o'xshab ko'riнадigan «Moskviychi» bor ekan. Raysobesning shofyori ikkovimiz uch kun o'ynab, uni oyoqqa turg'azdik. Shamba

kuni edi. Salimjon akam kasaldan butunlay sog'ayib yana avvalgidek quvnoq, avvalgidek hazilkash bo'lib qoldi. Ne'mat akaning bolalarini sirikka olib boradigan bo'ldi.

— O'zimiz boraversak bo'lmaydimi? — deb so'radim. Salimjon akam, sen nimani tushunasan, degandek bir ohangda kulib qo'ydi.

— Dadasiga achimaysanmi? — deb so'radi oxirida.

— Nega achinar ekannan, soppa-sog'-kul!

— Sog'liqquyu sog'-a, lekin unga juda qiyin. O'n bitta bolani katta qilaman deb, har kuni ikki smenada ishlaydi bechora, shoshmasdan tushuntira boshladi boshlig'im. Ularni sen bilan men o'ynatmasak, stadionga borib, butika yig'ishadi, bezorilar-ga qo'shilib ketishadi. Karim akangga o'xshab, rasvo bo'ladi.. Undan keyin, hali senga aytdimku, shu bolalar bilan birga bo'lsam, o'zim ham yayrayman. Karimning qamalganini, kelinoyingning vafot etganini bir oz bo'lsa ham unutaman.. Ne'mat akang yaxshi odam... Rahmatli kelinoying ham bu chug'urchiqlarni jon-dildan yaxshi ko'rardi. Hammasini o'zi tug'dirgan. Kindigini ham o'zi kessgan. Rahmatli, xo'p ajoyib ayol edi. Sen bolalarning sochini olib tur.

— Siz-chi?

— Magazinga boraman. Bolalarga ko'ylak olib bermogchiman. Bu pullarni saqlab gabristonga olib ketarimdim? To'g'rimi, o'rtog' sevjant?

— To'g'ri aytasiz, o'rtog' polkovnik. Iloji bo'lsa menga ham bitra ko'ylak olib bering, — deb qo'ydim.

Bolalar mening sartaurosh ekanligimni bilishmas ekan. Avvaliga boshimni kesib olasiz deb, ko'nishmadi. Men kim sochini oldirmasa Salimjon akam sirikka olib bormas ekan. degan edim, qiziq tomoshadan mahrum bo'lishdan qo'rqishdi shekilli, oldin men oldiraman, oldin menkini olasiz, deb navbat talashib qolishdi.

— Amaki, siz millitsiyada sartaurosh bo'lib ishlaysizmi? — deb so'radi Botir.

— To'g'ri, sartaurosh bo'lib ishlayman.

— Amaki, siz soch bo'yashni ham bilasizmi? — deb so'radi Bobur.

— Bilaman.

— Mening sochimni qoraga bo'yab bering.

— Nega endi qoraga bo'yar ekanman?

— Hammasi meni mallavoy deb chaqiradi.

— Seni kim mallavoy desa, o'tkir ustaram bor, o'sha bilan shartta qulog'ini kesib tashlayman.

— Ikkala qulog'ini ham kesasizmi?

— Ikkovini ham kesaman.

Bu gapdan Bobur juda xursand bo'lib ketdi shekilli, ishlattimaganidan zanglab, tishlari o'tmaslashib qolgan mashina qaychi sochlarni yulib olsa ham, bo'yini ichiga tortganча, jin o'tiraverdi.

Bir soat o'tar-o'timas chug'urchiqlarning boshini tarashlab tashladim. Bu orada Salimjon akam ham oladiganini olib qaytib keldi. Yangi ko'ylaklarni ko'rib, bolalar shunqangi sevinib ketishdiki, bu cheksiz quvonchlarni men hech ta'riflay olmasam kerak. Hamisha ishtonsiz yuradigan Bahrom o'ziga atalgan yangi shimni qo'ltig'iga qisganicha irg'ishlay boshladi. «Nega kiymayasan?» desam: «Kerak bo'lganda tugmasini yecholmasam, shumini ho'l qilib qo'yaman», deb sirkka ishtonsiz jo'nash payidan bo'ldi.

Yo'lga chiqdik. Men rulda, polkovnik oldingi o'rindiqda, chug'urchiqlardan yettiasini orqa o'ringa o'tkazib, bitta sal kattarog'ini bagajnikka yotqizdik; bagajnikda u o'tgan yili ikki marta lola sayliga ham borib kelgan ekan. Yo'lga chiqishimiz bilan men negadir juda, juda ham xursand bo'lib ketdim. Butun shahar militsionerlari ustoz deb hurmat qiladigan e'tibori bir odam bilan mana shunday yonmayon o'tirib, tomoshaga ketayotganimdanni yoki o'zim ham bilimagan boshqa biror sababdanmi, har qalay o'zimda yo'q xursand, galbim g'urur, iftixor hislari bilan limmo-lim to'lgan edi.

— Bolalar, ashula aytishni bilasizlarmi? — deb so'radim organgga o'girilib.

— Yo'q, she'r o'qishni bilamiz, — deyishdi chug'urchiqlar.

— Qani boshlanglar bo'lmasal!

*Uzunlar, uzunlar,*

*Lazzatli, sharbatli uzunlar...*

deya bir-biriga gal bermay she'r o'qib yuborishdi bolalar. Mashina yo'lining qoq o'rtasida pat-pat qilib tutun chiqardi-yu, taqqa to'xtab qoldi. Startyorni shuncha bossam ham o't olmadi. Benzin qolmayaptimikan deb, karbyuratorni qaragan edim — hammasi joyida. Ehtimol, tok uzilgandir, deb bahinani paypasladim — tok ham bor.

Salimjon aka ham tushib, mashinaning u yoq-bu yog'ini ko'zdan kechirgan bo'ldi-yu, «hammasi joyida-ku» deya yelkasini qisib qo'ydi.

— Akumulyator kuchsizlanibdi, itarish kerak, — deb taklif qildim. Mashahatim polkovnikka ham ma'qul bo'ldi. Bolalar tushib xuddi shirali bir narsaga yopishgan pashshadek har tomondan mashinaga yopirilib, uni chopirib ketishdi. Besh metr, o'n metr... Mana, ikki yuz metrcha yurib qo'ydik hamki, qani endi zormanda o't olasal! Boshlig'im bolalarni olib yo'lovchi mashinada sirkka jo'naydigan, men mashinani tuzatib, orgalaridan yetib boradigan bo'ldim.

Yana ko'p unab ko'rdim. O'tkinchi mashinalarning menga qaraganda xiyala tajribaliroq shofyorlari ham bir ish chiqarisholmay, «bu shaloq aravani temir-teresaklar do'koniga topshirib, o'rniga ov miltig'i olsa yaxshi bo'lardi...» deb maslahat berib, o'tib ketishaverdi. Oxiri ko'mir tashiydigan aravaga sudratib, uyga qaytib ketdim. Gullarga suv quygan bo'ldim, cho'ltoq supurgi bilan hovlini supurib chiqdim. Lutfi xolam bir lagan moshkichiri olib chiqqan edi, uni pok-pokiza tushirib olgach, kayfiyatim yana

o'z-o'zidan ko'tarilib ketdi. O'zi men doim shunaqaman, biror narsadan xafa bo'lib turganmda to'yib ovqatlanib olsam, xafagarchiligim tarqaydi ketadi. Hushtak chahb, xonani aylanishga tushdim. Biror narsa o'qish niyatida javoni ochgan edim, Salimjon akamning yozuvlariga ko'zim tushib qoldi. Birovning xatini o'qish aslida odobdan emas-ku-ya... Lekin men begona emas, Salimjon akamning tutingan o'g'liman-ku, nega endi o'z dadamning yozganlarini o'qishga haqqim bo'lmas ekan!

Boshlig'im yosh militsionerlar uchun kitob yozayotganini eshitgan edim. Bu yozuvlar o'sha kitobning qo'lyozmasi ekan. Tozarov yozilgan bir joyini topib o'qiy boshladim:

«Sen militsiyaga ishga keldingmi, demak xalqqa, hukumatga xizmat qilishga bel bog'labsan.

Endi, mulohazang chuqur, o'zing sovuqqon bo'l. Mehriti, shafqati, galbi qaynoq bo'l. Sof bo'l, egri qo'l bo'lma!

Sen, hukumat nomidan gapirasan, endi shunga loyiq bo'l.

Odamlarga ishon, odamlardan yordam kut.

Adashganlar ko'p, yordam qo'lingni tut.

Maqsadning gamash emas, qamoqdan olib qolish.

Odamlarga baho berishga shoshma, baho berdingmi, so'zingdan qaytma.

Sening obro'ying — militsiyaning obro'yi.

Militsiyaning obro'yi — hukumatning obro'yi.

Obro'yingga ehtiyot bo'l.

O'zing tartibli bo'lmasang, o'zgidan tartib kutma.

Qartiqqo'lik qilu, odil bo'l. Shunda hurmatli bo'lasan».

Blasiz-ku, ko'p o'qisam uyqum keladigan odatim bor, qo'lyozmaning u yog'ini o'qiy olmadim. Faqat bu menga bag'ishlab yozilganiga o'xshaydi, deb pichitishga uigurdim, xolos. Peshanamni qo'lyozmalarga qo'yganimcha dong qotib uxlab qoldim.

## BAXTI QARO DIREKTOR YANA HUJUMGA O'TDI

Jang qizib ketdi. Bir tomonda baxti qaro direktor boshliq tuhmatchilar yenglarini shimarib, tinim bilmay ishlab turishibdi. Bir tomonda polkovnik o'rtov Otajonov boshliq adolat komissiyasi ish ko'ryapti. Adolat komissiyasi o'rtov Ro'ziyevga, ya'ni menga tuhmat qilgan oshxonada direktori va uning qora qilmishlari xususida ikki papka hech rad qilib bo'lmaydigan hujjat yig'ildi. Mehnatkashlar tomonidan yuqori idoralarga yozilgan yigirma bir shikoyatning asl nusxasi so'rab olindi, oshxonadagi qalloblikni qayd qiluvchi shahar savdo inspeksiyasi, militsiya va xalq kontrolidan olingan aktlar, bir oshpaz, baqaloq bufetchining tilxat va yana men bexabar bo'lgan qanchadan-qancha aktlaru, faktlar jamujam qilindi, papkalariga joylandi.

Bularning hammasini rad qilish uchun baxti qaro direktor ham bir papka material to'plab, quyidagi da'volarni o'rtaga tashladi.

Birinchidan, militsiya bo'limi qattiq turib himoya qilayotgan serjant Ro'ziyev aslida ruhiy kasal, yaqinda besh sutka jimixonada yotib chiqdi. (Spravkaga qaralsin).

Ikkinchidan, adolat komissiyasiga boshchilik qilayotgan polkovnik Otajonovning o'zi ham pok emas, o'g'li ashaddiy jinoyatchi bo'lgan. Qamoqxonada yotibdi. (Spravkaga qaralsin).

Uchinchidan, poraxo'r serjant Ro'ziyev polkovnikning tug'ishgan jiyani bo'ladi. Uni o'z uyiga olib borib olgan. (Mahalla komissiyasi bergan spravkaga qaralsin).

To'rtinchidan, polkovnik o'rtov Otajonov komissiya a'zolarining kasal bo'lib qolganligidan foydalanib, oshxonaga borib, o'z xizmatini halollik bilan o'tab turgan bufetchi Zokir Zaripovning peshanasiga to'pponcha qadab: «O'rtov Ro'ziyevga tuhmat qilgan edim, direktor yomon odam, tuhmatni o'sha uyushtirdi...» deb yozib berasan, bo'lmasa otib tashlayman, deb do'q urgan. (Bufetchi

Zokirovning rayispolkom raisi muovini nomiga yozgan shikoyatini ilova qilamiz).

Xullas, ana shunday da'volardan yana yettirasi keltirilib, oxirida, biz bu adolat komissiyasiga endi ishonmaymiz, boshqa, chinakam adolati komissiya tuzilishini so'raymiz, deb yozishibdi.

Mana bugun adolat komissiyasi o'zining eng oxirgi majlisiga to'plandi. Yana bir necha soatdan so'ng mulla Hoshimning ishi yo u yoqli, yo bu yoqli bo'ladi. Bu yoqli bo'lsa, nur ustiga nur, yana o'ynab-kulib, sheriklarini ham kuldirib, militsiyada ishini davom ettiraveradi. Bordi-yu, u yoqli bo'lsa-chi, tamom. Mehribon buvijoni qamoqxonaga sovg'a-salom tashiyverib, oyoqdan qoldi deyavering.

Salimjon aka bugun har kungidek quvnoq emas, g'amgin o'tiribdi. Ko'zlari o'yechan, sertashvish boqadi. Atfidan, baqalovq bufetchining ikkiyuzlamachiligi uni o'ylantirib qo'yganiga o'xshaydi. Adolat komissiyasining ikkinchi a'zosi kapitan Karomat Hoshimova avval qanday bo'lsa bugun ham shunday, qovog'idan chakillab zahar tomib turibdi. Uni juda qattiqqo'l de'yishadi, o'zi shu militsiya bo'limidagi jamiki yoshlarning boshlig'i. Shuncha vaqt ishlab bir marta ham kulganini ko'rgan emasman. Ishga yangi kelgan mahalimda unga «kelnoy» deb murojaat qilib, naq baloga qolganman.

Adolat komissiyasining uchinchi a'zosi Jamol Qoraboyev xuddi kechasi yaxshi uxlamagan kishidek mudrab ahyon-ahyonda esnab qo'yayapti. Uning g'alati odati bor — hech qachon, hech kimga e'tiroz bildirmas ekan. Salimjon akam biror fikrni o'rtaqa tashasa:

— To'g'ri, ajoyib fikr, — deb qo'yadi u. Kapitan Hoshimova Salimjon akamga e'tiroz bildirib, boshqa fikrni bayon qilsa:

— To'g'ri, bunisi ham ajoyib fikr, — deb qo'yadi Qoraboyev. Goho mening boshlig'im bo'g'ilib:

— Sizda tayini bir fikr bormi, o'zi? — deb so'raydi.

Jamol Qoraboyev beozorgina, kulib:

— Adolatga ozor yetmasin deyman, — deydi.

Shunday qilib, uchovlari jamuljam bo'lib o'tirishibdi.

Kapitan Hoshimova baxti qaro direktorning papkasini uzog varaq'ladi, nihoyat boshini ko'tarib:

— Yotib qolguncha o'tib qol, qabilda ish tutishyapti.

Xo'sh, Salimjon aka, endi nima qildik? — deb so'radi.

— Menimcha, bufetchini chaqirish kerak.

— To'g'ri, — dedi Hoshimova. So'ng Qoraboyevga murojaat qildi. — Siz qanday fikrdasiz?

— Men ham chaqirish tarafdoriman, — deb sekingina esnab qo'ydi Qoraboyev.

Baqalovq bufetchini telefonda chaqirishgan edi, qanot bog'lab uchib keldimi, o'n besh minutdan so'ng ostonada hozir bo'lib, ikki qo'li ko'ksida egilib salom berdi.

— Sen nega o'z fikringdan qaytding? — so'radi polkovnik.

— Menga direktoringning kirdikorlarini yozib bergan eding-ku. Mana bu xat senikimi?

— Meniki, hurmatli boshliq.

— Nega fikringdan qaytding?

— Siz o'sha kuni meni qo'rqitdingiz.

— Nima deb qo'rqitdim?

— Otaman dedingiz.

— Men umuman to'pponcha taqmayman-ku?

— O'sha kuni qo'lingizda o'qlangan to'pponcha bor edi.

Polkovnik qaltirab ketdi. Hayajonlansa oq oralagan qalin goshlari past-baland bo'lib, bir ko'zi xiyol qisilib, boshqasi olayib ketardi. Hozir ham shunday bo'ldi. Salimjon aka boshini keskin ko'tarib:

— Qani, mening ko'zimga to'g'ri qarachi, barakalla! Ana shunday turib javob berasan. O'sha kuni mening qo'limda to'pponcha bormidi? — dedi.

— Bor edi! — baqrayib turib dedi bufetchi.

— Qanaga to'pponcha edi? Ko'zingni olib qochma.

qanaga to'pponcha edi, deyapman?

— Qanagiligi... eshmda yo'q.

— Rangi oqni, sarigmi?  
 — Esimda yo'q.  
 — Ehtimol oqdir?  
 — Ha, oq edi, shekilli.  
 — Yolg'on! Men doim sarig to'pponcha taqaman.  
 — Ha, ha, sarig edi!  
 — Yolg'on! Hamma to'pponchalarning rangi qora bo'ladi!  
 — Qo-*qo*, *qo-*qo**... — bufetchi Salimjon akaning yuziga qaragancha dag'-dag' qalirab, xuddi tuxum qilishga ketayotgan ona tovuqqa o'xshab, «*qo-*qo**»lay boshladi. Unga suv ichirmogchi bo'lishgan edi, tishlari stakanni taraqlatib, suvni to'kib yubordi. O'tkazib qo'yishuvdi, qalirog'i bosilish o'rni batar kuchayib ketdi, stollarni ham qisirlata boshladi. Nihoyat, o'ziga kelib:

— Meni otmogchi bo'lib qo'rqitgansiz, boshqa gapim yo'q, — dedi-da, shartta o'rniidan turib, xuddi birovdan orqasidan quvlayotgandek, yugurib chiqib ketdi. O'tirganlar sharaqlab kulib yuborishdi.

— Bechoraga juda qiyin! — dedi kapitan Hoshimova chindan ham rahmi kelib. — U yoqqa borsa, boshlig'i qo'ymaydi, bu yoqda sizning ko'zingizdan qo'rqadi... Lekin Salimjon aka, xafa bo'lmang-ku, ko'zingizda allaganiday bir kuch bor. Ochi'g'ini aytсам, astoydil tikilib qarasangiz, men ham qo'rqib ketaman.

— Men ham qo'rqaman, — deb yana esnadi Qoraboyev.  
 — Bu ko'zlarimda yaxshilar uchun shafqat, yomonlar uchun dalshat bor, — kulib qo'ydi polkovnik. — Astoydil tikilsam, irodasi bo'shiroq odamni uxlatib qo'yaman... Lekin bufetchi boplab qochib qoldi... Bari bir haqiqatni aytishga majbur qilaman uni.

Maslahatlashib, oshpaz O'rozni ham chaqiradigan bo'lishdi. O'roz kabinetga kirishi bilan darrov uyni shifliga qarab, o'sha yerdan ko'zni uzmay:

— Siz borgan kuni kechasi direktorning uyida hammamiz to'plandik. Men o'rtiq polkovnikka hech narsa yozib berganim yo'q, dedim.  
 — Direktorning uyida yana kimlar bor edi? — shoshilib so'radi Hoshimova.  
 — Ikki beshona odam ham bor edi.  
 — Siz ularni tanimaysizmi?  
 — Yo'q. Har galay obro'li kishilar bo'lsa kerak. Yaxshi kiyinishgan edi. Yana bir narsa aytmoqchiman.  
 — Xo'sh?  
 — Bog'ot ko'chasidagi qirg'inchida direktorning yuz qop o'g'irlangan uni bor.  
 — Shuncha unni nima qiladi u?  
 — Kechasi perashka pishirtirib, vokzalga chiqarib sotiradi.  
 Polkovnik xursand bo'lib ketdi shekilli, o'rniidan turib, hamon shifliga tikilib turgan oshpazga yaqinlashib, uning yelkasiga qo'lini tashladi.

— Sening vijdoni yigit ekanligingni birinchi uchrashuvdayoq sezgan edim. Sen bu iflos odamlar orasiga tasodifan tushib qolgansan. Halol yigit bo'lganing uchun mukofot tartiqasida boshqa oshxonaga o'tishingga yordamlashaman. Oshxonaga bosh oshpaz bo'lib o'tasan.

— Men ketsam maylimi? — so'radi oshpaz.  
 — Sizlarda boshqa savol yo'qmi? — komissiyaning boshqa a'zolaridan so'radi polkovnik. Ma'lum bo'lishicha, ikkovlarida ham hech qanday savol yo'q ekan.

O'rozdand so'ng baxti qaro direktorni chaqirtirishdi.

Qiziq, men bu odamga ilgari sinchiklab qaramagan ekanman. U doim ko'zlarini qisib, kishiga xuddi mazax qilayotgandek boqar ekan. Lablari bir-biriga mahkam yopishib, oldiga xiyol cho'cheyib turganidan, xoh ko'ring, xoh ko'rmas, xuddi oyoq ostida qolib ezilgan anjir shafollining o'zginasi deysiz. Do'ag' peshamasining yiltirab turishi, yuzining sergo'shtligi, burning baqaga o'xshab

yalpoqligi afini xuddi dovuchcha chaynab olgandek bujmayib turishi, bir qarashda, odamning rahmini keltirib yuboradi. Yana bir qarashda esa, a'chig'ini chiqaradi. Savol-javob uzoqqa cho'zilmadi. Baxti garo direktor «men bu komissiyaga javob bermayman, adolatlir oq komissiya tuzilishini talab qilaman», deya xayr-na'zurini nasya qilib chiqib ketdi.

— Sizing fikringiz? — Hoshimovadan so'radi polkovnik.

— Bu osonlikcha taslim bo'ladigan xilidan emas, — dedi

Hoshimova.

— Siz nima deysiz? — Qoraboyevga murojaat qildi mening boshlig'im.

— Men ham shu fikrga qo'shilaman, — degan javob qaytdi kapitandan.

Uzoq maslahatlashishgandan so'ng nihoyat oshpaz bergan ma'lumotga asosan, uchta operativ gruppaga tuzib, oshxonani, vokzaldagi perashka sotuvchi g'ildirakli aravachalarni, Bog'ot ko'chasidagi qirg'inchini nomerli uyni tekshirishdan o'tkazadigan bo'lishdi. Tekshirish kech soat o'nga belgilandi.

Drujinachi yigit-qizlardan, keksa pensionerlardan ko'prog' olishdi-yu, negadir, meni hech qaysi gruppaga qo'shishmadi.

— Menchi? Men kim bilan boraman? — so'radim boshlig'imdan.

— Sen shu yerda shtab boshlig'i bo'lib qolasan, — dedi Salimjon akam. Hazillashib aytdimi, chindan aytdimi, bunisini surishtirib o'tirmay, o'sha kuni tungi soat o'n ikkilargacha idorada qoqilgan qozidek qimirlamay o'tirdim. Birinchi bo'lib, Salimjon akamning operativ gruppasi qaytdi.

— Telefon qilishmadimi? — hovliqib so'radi polkovnik.

— Yo'q, — dedim uyqusirab.

— Hoshim, meni tabriklasang bo'ladi. Juda katta ishini ochib keldim. Un, yog', shakar, qop-qop mayizlar deysanmi! Bu hazilakam gap emas, o'g'lim!

Ikkinchi bo'lib Karomat kelnoyinning gruppasi qaytdi.

— Ishlar zo'r! — dedi u o'zini divanga tashlab. — Mingtacha perashka, olti yuztacha korjik, hammasi fakturasiz! Voy nomardlar-ey! Voy nomardlar-ey! — Salimjon aka, endi men boray, emizikli bolam bor. Yig'layverib, dadasi sho'rikni qynab yuborgandir. Mana aktlar, sotuvchilardan faqat bittasi qo'l qo'ymadi... Men ketdim.

Eng oxirida kapitan Qoraboyev boshliq gruppaga qaytdi. U ikkita ishbilarmon, tajribali pensioner chol bilan oshxonadan oshpazlarning tugun ko'tarib chiqishini poylashgan ekan. Oshpaz buni sezib qolib, orqa eshikdan chiqib, juftakni rostlab qolishibdi.

— Ishni rasvo qilibsiz! — dedi polkovnik bo'g'ilib.

— O'zim ham shu fikrdaman, — afsuslanib, bosh chayqab qo'ydi kapitan.

#### YURAKKA XANJAR URISHDI

Mana endi, qimmatli do'stlarim, hamma narsa kundek ravshan bo'ldi hisob. Mulla Hoshimjonning bo'yiniga qo'yilgan ayblarni olib tashlash soatlari ham yaqinlashdi. Baxti garo direktorning o'zi o'g'riboshi ekan, yashirincha pishirilgan taomlarning pulini paqqos cho'ntagiga urarkan. Bugun adolat komissiyasi doklad yozib, ikki nusxada ko'chirtirib, birini boshlig'imiz o'rtoq Usmonovga, ikkinchisini ministrlikka jo'natib yuborsa ham bo'lardi-yu, ammo o'rtaga bir xayrli ish tushib qoldi-da.

Nu'monjon Nasimov degan leytenant uylanadigan bo'lib qolibdi, to'y komissiyasi tuzilib, kapitan Hoshimova unga rais bo'libdi. Men ilgari militsionerlarning to'yini hech ko'rmanan edim, hammayoqni pogonlilar bosib ketib, bir-biriga chest berishaverib, to'y ham to'ydek bo'lmas, deb qo'rqqan edim, yo'q, unaga bo'lmadi. Mehmonlarning hammasi nafatlin bilan atirning aralash hidi angib turgan chiroyli ko'styumlar, yiltiroq tuffillar



Kiyib kelishibdi. Men Salimjon akamning topshirig'iga ko'ra, to'yxonada yugurib-elib xizmat qilardim. Qo'l-oyog'i chaqqongina yigit emasmanmi, goh oshxonaga yuguraman, goh o'choq boshida paydo bo'lib qolaman, goh samovarga o't qalab ketaman. O'rganib qolgan ekanman, unvoni o'zimmikidan kattaroqlarga hadeb g'oz turib chest beravergan edim, to'yboshi kapitan Hoshimova:

— To'yda chest berilmaydi, Hoshimjon! — deb shivirladi qulog'imga.

— Xo'p bo'ladi, kelinoyil! — deb unga ham chest, berib qo'ydim.

Ammo-lekin, to'yxonani ham qoyilmagom qilib bezab yubordik-da! Buviyonim ishlatadigan angishvonadek keladigan lampochkalaridan rang-barang gullar yasab, chor tomonga osib qo'yganmiz. Salimjon akamning hovvisidan ketirilgan quchoq-quchoq anvoyi gullar noz-ne'matlar to'la stollarga husn berib turibdi. Bir militsioner yigiti ola-bula tarvuzlardan chiroyli savatchalar yasarkan, o'sha savatchalarning yonlariga ham atirgullardan sanchib, stollarga terib qo'yganmiz. Bizning qishloqlarda to'ppa-to'g'ri qovurib yoki pishirib yeyilaveradigan qo'y go'shtlarni ham tarelkalarga yulduzsimon qilib terishib, o'rtasiga allaganday narsalar qo'yisharkan bu yerda.

Noz-ne'matlar mo'lligidan uzun stollarning beli naq egilay deb turibdi.

Nihoyat, mehmonlar kelib bo'lgach, to'yboshi Karomat opa bazmini ochib, kuyov-kelinlar baxtiga qadah ko'tarishlaringizni so'rayman, dedi. Men qadah degan so'zni eshitib, bir qadah aroq tufayli boshimga qanday tashvishlar tushganini esladim-u, yugurga nimcha tashqariga chiqib ketdim. Eshik oldida bir kishiga qormin bilan urilib ketdim. Bunday boshimni ko'tarib qarasham, yopiray, o'ngimni-tushimni, qarshimda kulimsiragancha, o'sha jimixonada tanishganim — kechasi bilan ot bo'lib kishnab chiqadigan Orif aka turibdi.

— Assalomu alaykum! — dedim ko'rishish uchun qo'llimni uzatib. — Qani, ichkariga mahramat.

— Yigicha, sizni qayerdadir ko'rganiga o'xshayman? — so'radi amakim. — Tag'in Napoleon Bonapartning o'zi bo'lmang!

— Yo'o'q, men qirchang'i otman, bir kishnab beraymi? — deb kulib yubordim. Kulisha-kulisha, Orif akani ichkari olib kirib, o'z obro'yi, o'z mavgeiga mos bir joy tanlab o'tkazdim.

Uni tinchitgunimcha bo'lmay, hurmatli mehmonlar kelishyapti, deb hamma gur etib o'rnidan turdi. O'girilib qarasham, Salimjon akam bilan shahar militsiya bo'limining boshlig'i, hu birda men sog'olini hafsala bilan olib qo'yganimda «sendan qanaga militsioner chiqishini ayolmayman-ku, ammo yaxshi sarrarosh chiqadi», degan general kirib kelyapti. Shoshmasdan boshlarini qimirlatishib, goh o'ngga, goh chapga salom berishib, kuyov-kelinning o'ng tomoniga o'tib o'tirishdi.

Shoshib qoldim. O'zinning sarraroshxonada emas, balki militsiyada ishlayotganligimni hurmatli generalga bir ko'rsatib qo'ygin kelib kerdi. Oldilariga qanday borsam ekan? Ha, topdim, oshxonaga kiraman-da, qovurilgan, qaynatilgan, dimlangan go'shtlardan bir lagan bosib chiqaman...

Laganni oldilariga qo'yayotib, odob bilan salom bergandim, general boshini ko'tardi.

— Sog'olingizni olib qo'ygandim, esingizda bor-mi?

— Bu, haligi kursant bola-kul! — deb general kulimganda menga qo'l uzatib qoldi.

— Qalay, o'qishlarni tugatdingmi?

— Tugatdim, o'rtog' general.

— Sarraroshxonada ishlayapsanmi?

— Yo'o'q, menda ishlayapti, — gapga aralashdi Salimjon akam, — birga ishlayapmiz.

— Juda g'o'r-ku — dedi general.

— G'o'rlikka g'o'r-a, lekin o'zim pishirib olaman.

— Adash, sening shu odating yaxshi, hammaga umid bilan qaraysan.

Xuddi shu paytda to'y kechasiga raislik qilayotgan Karomat kelimoyim mikrofonga yo'talib, shirin subhatimizni bo'lib qo'ydi.

— Navbat sozandalarga!

Shahar militsiyasi boshqarmasi qoshidagi yigirma ikki kishidan iborat badiiy havaskorlik to'garagi a'zolari tashrif buyurishib, ikki karavotni hq to'ldirib, sozlarini sozlashib, tomoqlarini ham oz-ozdan moylashib o'tirishgan edi. Ashula boshlab yuborishdi, ashula ketidan ashula, mashq ketidan mashq ulanib ketaverdi. Hammaning ko'z-qulog'i, butun diqqat-e'tibori karavotlarda bo'lib qoldi.

Bir mahal, so'rada o'tirgan sozandalardan biri sherigining tizzasiga qo'lini tirab o'rmdan turdi-da, mehmonlarga qarab negadir, bir kulib qo'ydi:

— Ruxsatingiz bilan, navbat serjant Sur'at Oripovga! Sur'atjon ajoyib iste'dod egasi, ham she'r yozadi, ham kuy yaratadi, ham ashula aytadi. Sur'atjon, mehmonlar sizni kutib qolishdi!

E-lla, hamma gap bu yoqda ekan-ku, deb o'yladim ichim-da. Shu paytda negadir juda xursand bo'lib ketdim. Sur'at aka faqat kechasi yo'ldan adashganlarni jimixonaga eltib qo'yish bilangina shug'ullanmas ekan, she'r yozarkan, kuy yaratarkan, qani bir eshitaylik-chi!

*El uchun, xalqim uchun, tanu kun xizmatdaman,*

*Shul sahab qadrim oshib, e'zozdaman, shuhratdaman,*

*Yong'in chiqsa sur bo'lib, sur to'sisa g'arvos bo'lib,*

*Elda tartib o'rnatib, har kuni hurmatdaman,*

*Niyatin shu, intizom har yerda barqaror bo'lsa,*

*Kata-kichik, siz biz — hurmatda barobar bo'lsa,*

*Sokin o'lsa postimiz ham g'arvasiz o'lsa tunlar,*

*Ko'ngillar ham misli tong — begarali beg'ahor bo'lsa.*

Sur'at aka tanbur chertib, shunangangi bir zavq bilan kuylardiki, yoqimli to'liqlar hatto o'choq boshidagi oshpazlarni ham sehlrab qo'ydi. Ular qo'llaridagi kappirru chovllarni qozonga tashlab, bo'yinlarini cho'zishib, o'rtaga tiqilganlaricha shamdek qotib qolishdi. Kuy hammadan ham generalni mahiyo qilib qo'ygandi. U o'zi ham sezmagun holda, ashula balandlansa sekin o'rmdan turadi, pasaysa yana sekin o'rimga o'tiradi. Ashula to'xtashi bilan shunangangi bir qarsak yangradi-ki, nazarimda, tepamizdagi lampochkalar-u, daraxtlarning yalang'och novdalari ham odamlarga qo'shiilib qarsak chalib yuborgandek bo'ldi.

— Ofarin, uka, ming ofarin! — General o'rmdan turib, Sur'at akani chaqirib yonidan joy berdi. Haligi Sur'at akaga nomer bergan sozanda yana o'rmdan turib:

— Qimmatli mehmonlar! — deya odamlarni o'ziga qaratib oldi. — To'yda o'yin-kulgi, xursandchilik yarashadi deyishadi. O'ynagani, kulgani to'planganimiz bu yerga. Mana, davramizda hurmatli akaxonimiz Jamol Qoraboyev o'tiribdi. Navbatni shu kishiga bersak.

Jamol akaning sozandalar bilan o'tirganini ko'ruvdimu, ammo u ham shularning gruppasidan ekanini bilmagan ekanman. Men shunchaki cho'y-poy qo'yib berib, ularga xizmat qilib o'tirgan bo'lsa kerak, deb o'ylovdim.

Kapitan o'rmdan turib, qo'llari bilan ikki sonini shapalab:

— Qu-qu-qu! — deya qichqirib yubordi. Odamlar avvaliga ovoz qayoqdan kelganini payqamay, bir xillari tomga, yana bir xillari daraxtlarning shoxiga ko'z tashlab olishdi. Kapitan ikkinchi marta qichqirgan edi, davrada gur etib kulgi ko'tarildi.

Kulgi bosilguncha kapitan o'rtaga chiqib oldi va:

— Onam tovuqboqar bo'lib ishlardi, bolaligim tovuqlar orasida o'tgan, — deya mehmonlarga murojaat qildi. — Tovuqlarning ovozigga taqlid qilishni o'shanda o'rganganman... Mana, dakang xo'roz don topib, makiyonlarni chaqiryapti...

Nazarimda, shu paytda Jamol aka chinakam xo'rozga aylanib qolgandek bo'ldi. Uning ovozi va harakatlari odamlarning ko'z o'ngiga haqiqiy xo'rozning o'zginasini keltirib qo'ydi.

Qarsak yangradi:

— Fe'mna mudiri tovug' sho'ra ichgisi kelib, ona tovug'ni ushiamog'chi bo'lyapti, ona tovug' lapanglab, mana bunday qilib qochyapti...

Davrada avval kulgi, qiyqiriq, so'ng yana qarsaq yangrab keldi.

— Fer'mamizda ikkita kaklik ham bo'lar edi, bir kuni yonlaridan o'tib keta tursam, mana bunday qilib sayrashayotgan ekan...

Yana kulgi, yana qarsak, yana ofarinar yog'ildi! Jamol aka chinakam san'atkor ekan. Nazarimda, uning qomiga har xil parrandalar joylashib olib, galma-galdan sayrashayotganga o'xshaydi. Goh bulbul nolish qilaypti, goh bedanalar «bitbidiq» otib ketishyapti... Yo'q siz nima desangiz deng-u, lekin men bunagasi hech ko'imganman. Mel'monlar qotib-qotib, tizzalariga urib-urib kulshardi. Kulb bo'lishgach, raislik qiluvchi:

— Kuyov-kelinni tabriklash uchun hurmati mehmonimiz Salimjon aka O'qayonovga so'z beriladi! — deb e'lon qildi.

Salimjon aka ikki qo'lini stolga tirab kulimsiragancha o'rnidan turayotgan edi, ko'cha eshik yonidagi uzun skameykada mahalla ayollari davrasida o'tirgan yoshgina bir juvon, qo'lidagi chaqalog'ini chinqiratib o'rtaga chiqqida, Salimjon akani mo'ljalga olib kelaverdi.

Hammaning ko'zi chaqaloq ko'targan juvonda bo'lib qoldi.

— To'xta, gapirma! — dedi juvon boshlig'imga do'q urib.  
— To'ylarda gapirguncha avval bolangni boqib olsang, bo'lmaydimi?

Shunday deb, nonia'lum ayol ingalab yig'layotgan chaqalog'ni Salimjon akaning oldiga tashladi. So'ng

odamlarga o'g'irilib, ko'ksiga mushtlab, dard-alam bilan gapira ketdi...

— Odamlar, nega qarab turibsiz, nega bu zolim xotinbozni tartibga chaqirib qo'ymaysizlar? Bola shunik! Aliment bermasa, kiyim-bosh olib bermasa, bu qanday bedodlik axiri! Xotinim o'lsa, uyimga olib borib olaman degan edi, mana, xotinimning o'lganiga ham bir yildan oshdi... Hamon turqich bermay qochib yuribdi... Ol endi, bola kerak bo'lsa o'zing boqib ol!

— Siz kimga gapirayapsiz? — hayron bo'lib so'radi Salimjon aka.

— Hali tonarsiz ham! — Salimjon akaning yuziga baqrayib turib dedi juvon.

— Jimmini bul! — Yelkasini qisib atrofiga qarardi Salimjon aka. — Men seni umrimda ko'rgan emasman-ku.

— Ol, bolangni o'zing katta qilib ol!

Ayol ikki qo'li bilan yuzini berkitib, yig'lagancha ko'chaga yugurdi.

Ana to'yu yana tomosha! Odamlar hangu mang, to'yxonada faqat chaqaloqning yig'isigina eshitiyadi. Haligi ayol banniso'i hammami sehlrab qo'ygandek. Barchaning boshi ham, kattayu kichik sukural!

Birinchi bo'lib to'yboshi Karomat Hoshimova o'ziga keldi. U, go'yo tez yursa, odamlarni uyg'otib yuborishdan qo'rqandek, bitta-bitta bosib, chinqirib yig'layotgan chaqaloqqa yaqinlashdi. Qo'lga olib, «boringlar, onasini qaytarib kelinglar», deb buyurdi.

Besh azamat bir-birini quvlashib, ko'chaga chiqib ketishdi. Yo'q, ayol allaqachon g'oyib bo'lgan ekan, azamatlar shalvirab qaytib kelishdi.

To'y azaga aylandi. Odamlar, negadir, bir-biriga qovusholmay qoldi. Bir xillar achingandek yer ostidan Salimjon akaga qarab-qarab qo'yishadi, bir xillar bo'yini cho'zib, o'choq boshida akillayotgan chaqaloq tomonga nazar tashlashadi, boshqa bir xillar pichirlashib, o'zlaricha har xil taxminlarni aytishadi.

— Polkovnik ham qariganda ayribdi-dal!  
 — Men bu odamni juda pokiza deb yurardim.  
 — Odanning olasi ichida, deb shuuni aytishsa kerak-da.  
 — Be, bu qip-qizil tulumat-ku!  
 — Tulumatigini qayoqdan bila qolding?  
 — Men bu shallaqa ayolni taniyman. Chor sudagi oshxonada ofitsiantka bo'lib ishlardi.  
 — Menimcha, juda o'ylab qilingan tulumat bu.  
 — Lekin, nima bo'lganda ham bechora Salimjon akaning yuragiga xanjar urishdi-dal!

— Men ham achiqyapman.  
 — Hammaga yordam qilardi u.  
 — Lekin, o'zining bolasiga alimant bermagani chakki bo'libdi-dal! — shunday deb mehmonlardan ikkilasi, ovoz chiqarmaslik uchun og'zini yumib, qornini silkitib kula boshladi.

— Valerianka bormi? — deb qichqirdi kimdir. Qarasam, Salimjon akam o'ng qo'li bilan yuragini changallaganicha, o'tirgan stulning suyanchig'iga boshini qo'yib, o'zidan ketib qolibdi.

### ZARBA USTIGA ZARBA

**B**oshlig'im tuni bilan uxlamadi.

O'ylayapti, tinmay o'ylayapti. Nimalar haqida o'ylayotgan ekan. Hoynahoy tulumatchilar haqida o'ylayotgandir...

Qiziq, oqshomgi ayol kim o'zi, nega bunaga qildi?

Salimjon akam to'yda nega o'zidan ketib qoldi?

Jumbog, hammasi jumbog...

Uxlab qolibman. Bir mahol ko'zimni ochsam, tashqarida tong yorishay deb qolibdi. Salimjon akam o'rni da yo'q. Shoshilib hovliga chiqdim — bu yerda ham ko'rimadi. Qiziq, bu mahalda qayerga ketdi ekan? Yo magazinchi olib chiqib ketdimikan?.. Eshikhadan Ne'mat akamkiga o'tdim. Derazadan asta mo'ralab qarasam, katta-kichik bolalari

birining oyog'iga biri boshini qo'yib, pishillab, quyon bolalaridek beozorgina uxlab yotishibdi...

Ne'mat akani turtkilib uyg'ordim. Avvaliga uyqusirab, meni katta o'g'li deb o'yladi shekilli, uxlatasamni, yo'qmi, deb bir poy botinkani qo'lga olib urmog'chi bo'ldi, keyin men ekanligimni bilgach, kulib, yelkasini qashidi.

— Tinchlikmi?

Salimjon akam yo'q bo'lib qolganlarini aytdim.

— Qabristonga ketgandir, — dedi Ne'mat aka og'ziga kafini tutib esnab. — Ba'zan shunaga odati bor. Keechasi, kunduzimi, xotinning oldiga boradi... Yur-chi...

Ketma-ket qabristonga yugurdik. Shinamgina ishlangan shiyponga uzog'dan sim tortib kelib lampochka tushirilgan ekan. Salimjon aka ana shu shiypon ostida o'tirardi. Gulzorga qo'yilgan marmar kursichada boshini ikki qo'li bilan changallab, butun borliqni unutib o'ziga tolib o'tirardi u. Bizni ko'rib, gunohkor odamdek kulimsirab o'rni da tundi:

— Sizlarni tashvishga qo'yibman-da?

— Tashvishga-ku qo'yganingiz yo'g'-a, lekin mana shunaga paytda bir og'iz aytib ketsangiz yaxshi bo'ladi, — ta'na ohangida dedi Ne'mat aka.

— Bu yerga qanday kelib qolganimni o'zim ham sezmay qolibman... Kelnoyning bilan bir ishini maslahatlashgani keluvdim. Boshingga qanaga mushkul tushsa, hamisha menga hamdard bo'lardi, aqli maslahatlar berardi. Ruhingiz tushmasin, dadi bo'ling, derdi!

— Qanaga mushkul ish tushdi yana? — tashvishlanib so'radi magazinchi.

— Hoshim aytib bermadimi?

— Hech narsa degani yo'q.

— Aytmagan bo'lsa keyinroq bilib olarsin, qo'shni. Lekin boplashdi meni! Bu hammasi Odil Abbosovning ishi, ofatim, tan berdim ungal Olishsang, mana shunagasi bilan olishsang-dal! «Pus» desang tovuqqa o'xshab pusaveradigan jinoyatchini uncha xushlamayman. Bunnagangi jinoyatchilar

millitsiyani dangasa qilib qo'yadi... Pistafurush ham jinoyatchi bo'libdi-yul To'g'rimi, o'rtog serjant?

— To'g'ri aytasiz, o'rtog polkovnik, — dedim shoshapisha, — qurtfurushlar ham jinoyatchi emas.

Gap bilan bo'lib uyga yetib kelganimizni ham sezmay qolibmiz. Nonushtaga Lutfi xolam jizzali non yopdi, yangi olingan qaymoqlar keltirdi, kulisha-kulisha nonushta qildik. Salimjon akam biror qarorga kelib olgandan so'ng, mana shunangangi dilbar, qiziqchi harakatlari keskin, jiddiyroq bo'lib qoladi. Shoshiib ishxonaga jo'nadik. Boshlig'im shunday tez va katta qadam tashlardiki, men uning ortidan deyarli yugurib borardim. Yo'lovchilar «tinchlikni» degandek orgamizdan qarab qolishardi.

Kabinetga kirgach, boshlig'im po'lat sandiqni ochib turib, xuddi tok urib olgandek sapchib o'rtidan turib ketdi:

— Seyf ochilib qolibdi-ku, Hoshim!

— Al! — men ham bir sapchib tushdim.

— To'xta, to'xta, hujjatlar ham yo'q!

— Qanaqa hujjatlar?

— «Rohat» oshxonasiga tegishli jami hujjatlar sarif papkada edi. Sarif papka yo'q! Yugur, odamlarni chiqir!!!

Hovliqib koridorga chiqdim. Avval katta boshlig'imiz polkovnik o'rtog Usmonovga xabar berdim. U ham, nazarimda, xuddi tok urgandek bir sakrab tushdi. Keyin o'zimni kapitan Karomat Hoshimovning kabinetiga urdim. Qiziq, bu shun xabarni kim eshiksa, bir sapchib tushaverdi. Kabinetimizga qaytsam allaqachon besh-olti chog'li odam to'planib qolibdi. Salimjon akamni, negadir, divanga cho'zilib yotqizib qo'yishibdi. Rangli dokadek oqargan, qo'llari ikki tomondan shalvirab osilib yotibdi... Nima bo'ldi o'zi? Nahotki... nahotki dadamdan ham mehribon bir kishimdan ayriib qolgan bo'lsam!

— Salimjon akal! — dedim-u, ho'ngrab yig'lab yubordim.

## SARIQ DEVNI QUVIB

### BAXTI QARO DIREKTORNING XAZINASI

Qishloqdan qaytyapman. Chamadonimda ikki banka qaymoq, olti bosh husayni uzum, sakkizta qatlama, bir hovuch ijda, bir hovuch shafoli qoqi, bir hovuch turshak — bularning hammasini buvijonim berib yubordi, boshlig'ingga bergin, kasalxonadan tuzalib chiqquncha yonidan jimagin, yaxshi kishi ekan, odam bo'lguningcha etagini mahkam ushlagin, deb tayinladi.

Xursand qaytyapman. Oyijonim, dadajonim, jondan aziz singillarim bilan maza qilib dam oldim. O'zlarim rosa sog'inshgan ekan, yuz-ko'zlarimdan o'paverib, naq hamma yog'imni shilib yuborishdi-yal Ammo qimmatli do'stim Zokirni ko'rolmaganim chakki bo'ldi. Oblastga ilg'or buzoqboqarlar kengashiga ketgan ekan. Qaytayotganda avtobusda uxlab qolib, yana o'sha avtobus bilan oblastga qaytib ketib qolibdi bechora.

Shaharga tushishim bilan qimmatli qalpoqchamni boshingga kiyib, o'zimni bir sinab ko'rmogchi bo'ldim. Mana, kiydim... mana, ko'zdan g'oyib ham bo'ldim.

— Salom, qalpoqcham! — dedim quvonib.

— Salom, Hoshimjon, — dedi do'stinam.

— Meni rosa kutdingmi-a?

— Betogat kutdim, Hoshimjon.

— Menga yana yordaming kerak.

— Niyating yaxshi bo'lsa hech narsani ayamayman.

— Men jamiki jinoyatchilarni tugatmoqchiman, aziz qalpoqcham!

— Men hamisha yordamchingman, quvnoq Hoshimjon.

— Ishni nimadan boshlay, dono maslahatchim?

— Baxti qaro direktorning orqasidan bor, qiziqchi do'stim.

— Rahmat, galpoqcham.

— Arzimaydi, Hoshimjon.

Ha, ha, deb yenglarimni shimarib, katfimga tufurib, g'ayratim jo'shib, o'zim ham ruhlamib Salimjon akamning uyiga qarab yugurdim. Sovg'a-salomimni uyimga qo'yib chiqqanimni Lutfi xolamga ma'lum qildim-u, to'ppa-to'g'ri «Rohat» oshxonasini mo'ljalga oldim. Keech kirib qolgani uchun oshxonada ham ishlar tugab, bosh oshpazlar hisob-kitob qilish uchun baxti qaro direktorning huzuriga yig'ilishgan ekan.

— Hech kim shikoyat qildimi? — so'radi direktor.

— Shikoyat qilganing tishini qoqib, qo'lga beryapmiz-ku — dedi oshpazlardan biri.

— Barakalla, bundan keyin ham xuddi shunday qilinglar! — ko'ngillarini ko'tardi direktor. — Majlis yopiq.

Odil Abbosov hammaga javob berib, xonaning ichidan berkitdi. Po'lat sandiqni ochib, bir dasta o'n so'mlik, bir dasta besh so'mlik, bir dasta uch so'mlik olib, portfeliga joyladi-da, keyin shoshmasdan tashqariga chiqdi.

Uning ham, qishlog'imizdagi Bodom Qori amakiga o'xshab, yo'l yurganda o'zi bilan o'zi gaplashib yuradigan odati bor ekan. Mana hozir ham xlvat ko'chalardan ketypati-yu, xuddi tushida aljigan odamga o'xshab javrab bor-yapti:

«...Ha, Salim, ahvoling qalay endi? Polkovnik emishi! Mening qo'limda o'yinchoqsan-ku. Istagan kuyimga o'ynatishim mumkin seni, yo'q, o'ynatmayman, triklay ko'maman seni. Yo'q, ko'mmayman, avval rosa joningni qiynayman! Sen oqko'ngilsan, soddasan. Men tulkiman, ayyor tulkiman! Bundan o'ttiz besh yil oldin men pilla zavodida tarozibon bo'lib yurganida mening ikki akamni, otamni gamading! Uch tonna pilla o'g'irlaganimiz uchun butun oilani vayron qilding. O'shanda biz seni ogohlantirgan edik, o'ch olamiz deb qasamyod qilgan edik. Ammo sen, hukumatning erka o'g'li, bizning yo'limizga yurmading, uyingga o't qo'ydirib, ikki qizingni kuydirgan men bo'laman!

Qamogda o'lgan akam, o'ligi janozasiz ko'milgan marhum otam haqi, senga tinchlik yo'q, hech qachon...

Sen oqko'ngilsan, soddasan. Meni tamimaysan. Men bo'lsam seni o'ttiz besh yildan bo'yon quvaman, oromingni o'g'irlab, baxtingga chang solaman. O'g'ling Karimni jinoyatchilarga qo'shgan, uyingdan to'pponcha o'g'irlatib, o'sha to'pponcha o'qi bilan qorovulni oltirgan ham men bo'laman.

Sen hukumatga sodiqsan, men jinoyatchilarga sodiqman. Sen jinoyatchilarni tugatish payidansan, men ularni parvarishlab, boshini silab, ko'paytirish payidaman. To'g'ri, jinoyatchilar oz qoldi. Oz-u, lekin sozi qoldi!.. To'yda qo'lingga chaqaloq tutqazib el o'rtasida sharmandangni chiqargan ham, po'lat sandig'ingdagi hujjatlarni o'g'irlatgan ham men bo'laman!.. Yo'q men seni halveri o'ldirmayman, joningni azoblayveraman! O'ligi janozasiz ko'milgan otam haqi, sendan o'ch olaveraman!..

Umrbo'yi qo'limda jarag-jaraq pul o'ynadi; qo'sha-qo'sha uchaskalar qurdim, qo'sha-qo'sha mashinalar oldim, bir sandiq oltin yig'dim. Qani, qo'lga tushira olmading-ku! Chunki, men yovuzman. Men jamiki sarqitlar yig'indisidan tashkil topgan. Odil battol bo'laman...»

Yo'q, aziz do'stim, ortiq chiday olmadim. Vujudimni qaltiroq bosib, ixtiyorimni yo'qotdimu, aljib borayotgan Odil battolning beliga qarab tepib yubordim. To'g'ri, xato qildim, juda katta xato qildim. Militsiya xodimi uchun bironi urish qar'iyan man etilgan. Lekin, boshqa ilojim yo'q edi... Qo'ltig'idan olib, o'rindan turishiga ko'maklashib yubordim. Odil battol, «tavba» degandek, u yuq-bu yuq'iga qarab yelkasini bir qisdi-yu, etagini qoqib yo'lida davom etdi. Ammo qaltirog'im hamon bosilgani yo'q, ishqilib, yana tepib yubormasam go'rga edi, deya o'zimdano'zim qo'rqibroq bor-yapman.

Odil battol qo'shqanoqli temir darvoza oldida to'xtab, tepadagi sariq tugmachani bosgan edi, darvozaning eshikhasi ochilib, yigirma besh yoshlardagi xushro'ygina,

kiyim-boshidan muattar atir-ugalar hidi ufu'rib turgan bir juvon ko'rindi.

— Assalomu alaykum! — dedi u boshli yerga yetguncha ta'zim qilib.

— Hech kim yo'qlab keldimi? — so'radi baxti qaror direktor.

— Yo'q, hech kim kelmadi, — dedi juvon darvozaning ichidan berkitayotib. — Daragingiz bo'lmadi, juda xavotir oldim.

— Katta kundoshingikida edim, — jerki baxti dedi direktor.

Yo'lakda men ayolga boshdan-oyoq razm solib chiqdim o'tiz ikkita tishni ombur bilan sug'urib olib, o'imga tilla tish qo'yishibdi. Qulog'ida, har birtasi chaqaloqning shapalog'idek keladigan oltin sirg'alar, o'n barmog'ida o'n uzuk — o'ntovi ham tilhadan, yoqur bo'lsa kerak, yal-yal yonib turibdi. Oqqopq bilaklaridagi tilla bilakuzuklarining sanab sanog'iga yetolmadim. Bunday egilib qarasham, yopiray, oyoqlaridagi xushbichim kavushchalari ham tilla suvi yuritilgan zardam tikilgan ekan... Yo'q, kechirasiz, men baxti qaror direktorning kichik xotini turadigan uyga emas, buviyonim aytib bergan etaklardagi podsholarning qasriga kelib qolganga o'xshayman. Ha, ha, xuddi qasrning o'zi Sakkiz xonali uyga sakkiz rangda bo'yoq berilgan, uylarning shifriga oltin suvi yuritib, rango-rang rasmlar solingan. Shiftlarning to'rt burchigiga, men nomini bilmaydigan, lekin billarga juda ham o'xshab keradigan yaltiroq oynalar qo'yilgan. Qandillarni aytmayisizmi! Sakkiz uyga sakkiz rangli billur qandillar osilgan. Qora-qizg'ish shkaflar, qimmatbaho vazalar, to'rt uydada to'rt xil televizor, qizil-sariq gilamlarning sanog'i yo'q, shkaflarda qimmatbaho, oltin suvi yugurtirilgan choynak-piyolalar, laganu taqsimchalar bamisoli yengil sanoat buyumlari ko'rgazmasi tashkil etilgan o'xshaydi.

— Oyg'imni ugulab qo'y! — dedi direktor atlas ko'rpa uchiga o'tirayotib.

Ayol uning oyg'imni ugulay boshladi.

— Belimga yostiq qo'y, — buyruq bo'ldi yana. Ayol beliga yostiq qo'ydi.

— Ovgatimgni olib keli!

Shoshilinch ovqat keltirildi.

— Bir piyola konyak quy.

Konyak qo'yildi.

Jimgina ovqatlanishga tushdi. Men ham, ochqab qolgan ekannan, tovoqdagi bug'i chiqib turgan mantini ko'rib, o'zimni tutolmay, cho'k-kalab bir boshdan tushira boshladim.

— Sal sekinroq yesang o'lasanmi? — o'shqirdi direktor.

Xotini bir cho'chib tushdi.

— Voy, men yeganim yo'q-ku!

— Yana yolg'on gapiradi-ya. Bor, yana suzib kel, — ko'zining paxtasi chiqib dedi direktor. Xotini g'izillab borib, yana bir tovoq manti keltirdi, uni ham birgalashib yedik.

— Darvozani qulflab kel, — buyurdi direktor. Darvozaga qulf solindi.

— Itni qo'yib yubor! — buyruq bo'ldi yana.

It ham qo'yib yuborilgach, hovlidagi chiroq o'chirildi, atrof go'ristondek qop-qorong'i bo'ldi-qoldi...

Odil battol ko'mixonaga qarab yo'l olgan edi har galay bir shum niyati bor-ku, deya sekin uning orqasidan ergashdim. Qo'l fonar bilan yo'lini yoritib, ko'mixonadagi lattalutlar bosilgan oxurni uzocq paypasladi. Nihoyat, bir tugnachani topib bosgan edi uy o'rtasidagi ko'mir bir tomonga surilib, yuz kilogrammi choy yashigidek keladigan, to'rt burchakli chuqurcha paydo bo'ldi. Chuqurchaga tushib kati bilan devorning bir chetini qattiq bosgan edi, ichkariga eshik ochilib, yana to'rt burchakli bir eshikcha paydo bo'ldi. Qo'l fonari yorug'ida Odil battol tepadan osilib turgan argonchani arang topdi. Argonchani yechib, chap tomondagi ipni uch bor tortgan edi, nazarimda, qarshimizdagi devor ichkariga qarab gulab tushgandek bo'ldi. O'ng tomondagi ipni uch bortortgan edi, lampochka yonib, ichkari yoritish ketdi. Zax hidi kelib turgan yerto'laga kirdik. Yerto'la uncha katta emas, nari bo'ssa

o'quvchi bolalarning darssonasigacha keladi, xolos. Yashiklarda konyak, aroqlar. Bitta yashikda liq to'la shoyi-atlas, yana bir yashikda yuz metrcha gora baxmal. Yerto'laning devorlari sement suvoq qilingan. Tagi negadir sementlanmagan, tuproq. Odil battol eshik oldidan yigirma poy o'Ichadi-da, engashib, qo'llari bilan tuproqni bir tomonga sura boshladi. Yana yil'tirab turgan knopka ochildi, knopkani o'rnidan sug'urib, teshikchaga sim uqib buragan edi, yerto'laning chap tomondagi devori asta-sekin yerga yota boshladi. Ichkarida katta-kichik o'ntacha tokecha bor ekan. Bir tokchadagi chamadoni olib ochgan edi, angrayib qoldim: ichi to'la 50 so'mlik, 100 so'mlik pullar! Umrim bino bo'lib, bunangani ko'p pulni ko'rgan emasman. Odil battol hali ishxonasida sumkasiga solib olgan pullardan taxminan yarmini chamadonga joyladi-da, uni o'rniga qo'yib, boshqasini ochildi. Bunisi liq to'la oltin ekan. Besh so'mlik, o'n so'mlik so'lkavoylar, har xil taqinchoqlar, yaxlit oltin parchasidan yasalgan, og'irligi ikki kilocha keladigan guldor lagan ham turibdi... Uch dona oltin tanga olib, chamadonini yana o'rniga qo'ydi.

Uchinchi chamadon ochildiganda, ishonsangiz, men haddan tashqari qo'rqib ketdim. Chamadonda xuddi Salimjon akamnikiga o'sshab ketadigan uchta to'pnoncha sovuq yal'tirab turardi... Yuragim urib ketdi. Qo'rqaypmanmi, unisini aniq bilmayman-ku, lekin dag'dag' gal'tiray boshlaganimi sezib turibman. Bir xayolim battolning beliga yana bir tepib, qo'l-oyog'ini bog'lab, to'g'ri militsiyaga olib borayin ham dedim-u, ammo katta bir jinoyat ochildi-shi oldida ishning pachavasini chiqarib qo'yishdan qo'rqdim.

Battol to'pnonchalardan birini olib, cho'ntagiga soldi Salimjon akam aytgandek, og'ir bo'lishga harakat qildim, tishimni-tishimga bosib, izma-iz uning orqasidan chiqdim. Yanim soatlardan so'ng ikkiniz taksiga o'tirib, noma'lum tomonga jo'nadik.

— Rahmat, qalpoqcham! — deb shivirlayman.

— Rahmatga hali erta, — deydi qalpoqcham ham shivirlab, — ishning kattasi mana endi ochildi...

#### YERTO'LADAGI MAXFIY KENGASH

**T** aksida shahar chekkasiga qarab uchib borardik. Qing'ir-qiyshiq, pastkam ko'chalaridan, o'g'ri topmas tor yo'llardan yurib, nihoyat, jarlik yoqasiga borib to'xtadik. Baxti qaro direktor mashinadan tushib shofyorga bitta o'n so'mlik uzatdi:

— Soat birida, xuddi shu yerda meni kutasiz.

Shofyor men tengi yigitcha ekan, o'n so'mlikni ko'rib, surati bor tomonidan o'pdi-yu, cho'ntagiga soldi:

— Aytgan vaqtinizda kelaman! Atrof shunaqangi qorong'i, shunaqangi vahimalki, kim biladi, boshimda sehrli qalpoqcham bo'lmaganda, dodlab qochib qolarmidim. Axlal to'kilgan tepalikkdan o'tib, suvi qurib qolgan anhor ichidan yarim kilometrcha yurib borib, o'ng qirg'oqqa chiqdik. Katta jarlikning tubida atrofi paxsa devor bilan o'ralgan kichkinagina qo'rg'oncha bor ekan, o'shanga kiridik. Uy eshigini, yoshi yetmishda desammi, to'qsonda desammi, ishqilib, nechaga kirganini hech aniqlab bo'lmaydigan bir kampir ochildi. Kampir qaddi bukkilib, hassaga suyalib qolibdi. Yurganda xuddi emaklayotganga o'sshaydi. Og'zida bitta ham tishi bo'lmagani uchun gapirganda hushtak chalib yuboradi. Xoh ko'ring, xoh ko'rmang, ertaklardagi yalmog'iz kampirning o'zginasi deysiz.

— Kechga qolding, bo'talog'im?

— Taksi topib bo'lmadi, — dedi Odil battol, — Hammalari kelishganim?

— Seni kutib o'tirishibdi, bo'talog'im.

Yalmog'iz kampir bizni dahlizga olib kirib, umivahimni bir tomonga sekin surgan edi, pastga yo'l ochildi. Zinadan gilamlar bilan bezatilgan katta yerto'laga tushdik. Xona issiq bo'lgani uchunmi, mehmonlar ko'ylaklarini yechib,



maykachan atlas ko'rpachalaru paryostiqlarda yonboshlashib yotishibdi. Bu shubhali odamlarni birinchi bor ko'rayotganim uchun, keyinchalik yana uchratsam yanglishib o'tirmay deb, militsiyaga xos ziyraklik bilan hammalarini ko'zdan kechirib, asosiy belgilarini, yuz tuzilishlarini yodda saqlab qolishga harakat qildim.

To'rida barmog'i bilan bodom chaqib yeb o'tirgani, yoshi qirqlarda, o'zi xuddi Ivan Poddubniyga o'xshatgan pahlavon, bo'ynidagi go'shtlari irtg'ib chiqqan, bag'bagalari osilib ketgan, qoshlari xuddi jundan to'qilgan argonga o'xshab, haddan tashqari quyuvq gapirganida pishillab qo'yayapti u. Pahlavonning o'ng tomonida beti xuddi yog'ochdan yo'nalgandek sip-silliq, sochi ham qirtilshab olingan, uzozdan qarasangiz ham xuddi yelim qo'g'irchoqqa o'xshab ko'rinadigan bir odam o'tiribdi. Yuz-ko'zlariga moy surtgan bo'lsa kerak, peshanasining ikki chakkasi xuddi xiragina lampochka osib qo'ygandek yiltirab ko'rinayapti. Pahlavonning chap tomonida o'tirgan o'ttiz yoshlardagi yigit bokschimi deyman, blagidagi muskullari dirkillab o'ynab turibdi. Betida uzun chandig'i bor, boshi xuddi oting kallasidek cho'zinchoq, badanida bo'sh joy qolmagan, hammayog'iga tush bilan har xil rasmlar solingan: bo'g'ma ilon deysizmi, pichog o'qalib turgan yigit deysizmi...

O'ng yelkasiga esa bir ayolning surati chizilib, ostiga «Ne zabudu mat rodnuyu», deb yozib qo'yilibdi. Bu yigitdan quyiroqda bir semiz odam o'tiribtki, bay-bay-bay, haligi biz tushgan teshikka qanday siqamiga o'zim ham hayronman. Qorni shumangangi kattaki, bir aravaga bemalol yuk bo'ladi. Bechora nafas ololmay, burnidan hushtrak chalayapti.

Eng poygakda cho'kka tushib, yana bir yigit o'tiribdi. Shu darajada ozg'inki, bechoraning o'n ikki qovurg'asi o'tirganlarga bemalol ko'rinish turibdi. Olmaning savog'idek ingichka bo'yini katta kallasini ko'tarolmayapti shekilli, u xuddi qo'g'irchoq o'ynayotgandek boshini silkitib o'tiribdi.

— Ana, ustoz ham keldilar! — deb hammalari «duv» etib o'millaridan turib, qo'llarini ko'ksilariga qo'yib, boshlarini egib, ta'zim bajo keltirishdi. Odil battol hammadan yuqoriga, baxmal ko'rpachalar to'shalgan o'rindiqqa o'tirgach, boshqalar ham o'tirib, haligi oriq odam fothha uchun qo'l ko'tardi:

— Militsiya hamisha g'aflatda qolsin!  
— Allohu akbar! — deysidi hammalari.

Shundan so'ng ular bir-birlaridan hol-ahvol so'rashga, bola-chaqalarining sog'hini surishtirishga tushib ketishdi. Gap aylanib borib, shahardagi yangiliklar, odamlar o'rtasidagi mishmishlarga taqaldi. Semiz kishi burnidan hushtrak chalib, hozir militsiya kuchayib, yoniga drujinachilaru, xalq kontroli vakillarini to'plab, jamiki jinoyatchini yo'q qilishga astoydil bel bog'laganligi, kemaket tadbiriy choralar ko'rayotganligini aytib zortlandi. «Bizga juda qiyin bo'lib qoldi» deb uf tortdi.

— Qo'rqoqlik qilavermal! — urishib berdi Odil battol. So'ng yonidagi yigitga buyurdi:

- Mutal, tur o'rningdan!
- Xo'p bo'ladi! — sapehib o'midan turdi Mutal.
- Men aytgan ishini bitirдингmi?
- Bitirdim, sarkor.
- Hujjatlar gani?
- Portfelimda, sarkor.

Mutal deraza yonidagi kattaligi lo'labolshdek keladigan qizil portfelni olib, ichidan «Rohat» oshxonasiga tegishli jamiki hujjatlarni chiqargan edi, o'zinni yo'qotib qo'yay dedim. Bu o'sha Salimjon akamning po'lat sandig'idan o'g'irlangan hujjatlarning aynan o'zginasi edi. Nima qilay, papkani qo'lidan tortib olib, g'izillaganimecha Salimjon akam yotgan kasalxonaga borib, boshlig'imdan suyunchi olsammikan? Yo'q, sabr qilishim kerak. Bizning ishimizda sabr-toqat hamma narsani hal qilib beradi.

- Gapir! — buyurdi battol.
- Nimani gapiray, ustoz? — shoshilib so'radi Mutal.

— Hujjat o'g'irlash operatsiyasini qanday bajarганиgni gapir, do'stlaring eshitingin.

— Xuddi siz o'rgatgandek bo'ldi, sarkor. Kechlasi militsiya mayori formasini kiyib militsiya bo'limiga bordim. Keksagina bir serjant navbatchilik qilayotgan ekan, o'zini oblast militsiya boshqarmasidan deb aytib, guvohnomamni ko'rsatgan edim, serjant xizmatningizga tayyorman, o'rtoq mayor! — deb chest berdi. Men navbatchilik qanday o'rayotganligini surishtirgan bo'ldim. Xuddi shu paytda sherigim — u ham militsiya formasida edi, qo'lda bir quchoq gul, oldimizga kirib keldi-da:

— Kechirasizlar, shu atrofdagi bir militsioner uylanayotgan edi, to'yxonani topolmay turibman, ko'rsatib qo'ya olmaysizlarmi? — deb so'radi. Serjant:

«Men postdamam, borolmayman», — degan edi. Men: — Darrov birga borib, to'yxonani ko'rsatib qo'ying birlaringga yordam berishni o'rganinglar, tokaygacha sizlarga o'rgatish kerak, deb urishib bordim. Keyin serjant qaytib kelguncha, polkovnikning po'lat sandig'ini ochib, hujjatlarni olib qo'ydim.

— Ofarini — sekingina qarsak chalib qo'ydi Odil battol. — Endi polkovnikning qo'liga chaqaloqni qanday topshirganingni gapir.

— Uni Sharifa bajardi.

— Sharifa, gaysi Sharifa?

— Siz uni tanaysiz, mening gruppamda ishlaydi. Ilgari oshxonada ofitsiantka edi, hozir idoramada yurib, palo o'g'irlaydi. Ersiz tug'ib qo'yib, isnodga qolib, boshi qotib yurgan edi. «Shahar markazidan ikki xonali uy olib beramiz, uch ming so'm pul ham beramiz», deb siz aytingizdek taklif qilgan edim, darrov ko'ndi.

— Sharifa hozir berkindimi? — so'radi baxti qaro direktor.

— Ha, berkindi.

— Ayt, ochiqqa chiqsin. Bo'lmasa ish rasvo bo'ladi. Har kuni militsiyaga borib, alimant talab qilaversin, — topshiriq

berdi Odil battol. — Biz hali polkovnikdan puli ham undiramiz, uni xonavayron qilamiz!.. Mana bu, Sharifaga va'da qilingan pul. Mana bu oltinlar — seniki. Tilla tish qo'ydirasammi, xo'ningga uzuk yasatib berasammi, ixtiyor o'zingda. Men o'z do'stlarimni hech qachon aldamayman, va'da qildimmi — bajaraman... Sallabodroq, tur o'riningdani Sallabodroq deganlari haligi pahlavon ekan, shoshmasdan, inqilab o'rimdan turdi.

— Aravang g'ildirab turibdimi?

— Yurib turibdi, sarkor.

— Ularni eltib berdingmi?

— Aytganingizdek bo'ldi, sarkor.

— Shakarni-chi?

— Olib chiqishning iloji bo'lmadi.

— Shu kechasi tincht.

— Xo'p bo'ladi, sarkor.

— Shoyi arteliga bordingmi?

— Bordim.

— Oldingmi?

— Siz aytgan joyga eltib tashladim.

— Ma, mukofotingni oli! — Shunday deb baxti qaro direktor sumkasidan bir dasta pul chiqarib, Sallabodroqqa uzatdi.

«Qanaga joyga kelib qoldim o'zi, bular kimlar? — deb o'ylanib qoldim. — Nahotki, hozir ham shunangani odamlar yashab kelayotgan bo'lsa. Biri o'g'iri, biri poraxo'r, biri tulumatchi, jamiki sarqilar makoni ekan-da, bu yer. Demak, men odamlarning halovatini o'g'irlab, militsiyaga tunu-kun tinchlik bermaydigan sarig devlar huzuriga kelib qolibman-da!»

— Chayqovchilar boshlig'i, Orif, tur o'riningdan!

Ozgi'm yigit qo'limi yerga tirab, arang o'rimdan turdi, turayotib bir munkib ham ketdi.

— Gapir!

— Ishlar chatoq, sarkor.

— Nimasi chatoq?

— Chayqovchilar kamayib ketiyapti.  
 — Nega?  
 — Miltisiya, chayqovchi urug'i borki, ushlab qamayapti.  
 — Sen o'z kadrlaringni saqlab qolish choralarini ko'rmayapsanmi?  
 — Ko'ryapman. Mahsifurush xotinlar nonidan tuhnmat uyushirib, uchashtkovoy mlitsioneni ishdan oldirdim.  
 — Yaxshi, shunga o'xshash ishlarni yana davom ettir. Kadrlarni ehtiyot qil. Xo'sh, bozorda narx-navo qalay?  
 — Ko'ngildagidek, sarkor. Yigirma bir so'mlik atlas ellikka ketyapti!  
 — Eshitdingmi, seniz? — so'radi Odil battol. Seniz kishi o'tirgan o'rimda «imn» deb qo'ydi.  
 — Bir yuz ellik so'mlik gilam ikki yuz ellikdan pullanyapti, — axborot berishda davom etdi chayqovchilar boshlig'i.  
 — Buni ham eshit, seniz! — yana buyurdi Odil battol. Seniz kishi yana «imn» deb qo'ydi.  
 — Andatra qalpog'ining bahosi hozir oltmishga... Chayqovchilar boshlig'ining so'zi og'zida qoldi: baxt qaro direktor biron oyog'ini bosib olgandek sapchib o'rimdan turib ketdi. Borib, xo'ppa seniz amakining yogasidan tortib, o'rimdan turg'izdi-da, bo'g'ib:  
 — Sen semizga qachon aql kiradi? Qalpoqning bahosi yuz so'mga chiqquncha omborda saqlab tur, degan edim-ku, nega magazinlarga chiqarib yubording, men mollarni osonlik bilan topib kelganimdim... — deb uning betiga tarsaki tortib yubordi...  
 — Axir, magazinchilar to'polon ko'tarishdi-da — o'zimi oqlamoqchi bo'yib dedi xo'ppa seniz amaki.  
 — Nima deb to'polon ko'tarishdi?  
 — Molni ber, bo'lmasa OBXSSga boramiz deyishdi.  
 — OBXSSdan endi qo'rqmasang ham bo'ladi! — tutaqib dedi baxti qaro direktor. — Uning boshlig'i hozir o'lim to'shagida yotibdi. Xudo xohlasa, yaqinda hammamiz janozasiga boramiz... Va'da qilingan pulni olib keldingmi?

— Yarmini. — Shunday deb, yana tarsaki tushib qolishidan cho'chib, ikki qo'li bilan ikki betini berkitib oldi xo'ppa seniz amaki.  
 — Qolganmi-ehi?  
 — Aytdim-ku, pora olish qiyinlashib ketyapti deb.  
 — Yolg'on aytayapsan, itvachehal! Pora olishni ikki barobar kuchaytirgamingdan xabarim bor. Tushgan pullarni shahar tashqarisidagi uyingga berkitib qo'yganingni ham bilaman... Mutali!  
 — Labbay, sarkor?  
 — Bugun kechasi tintuv o'tkazasan.  
 — Xo'p bo'ladi, sarkor.  
 — Kechirasiz, ustoz. — xo'ppa seniz amaki oyog'i kuygan tovuqdek pitillab qoldi. — pullarning hammasini olib kelgan ekaman, endi esingga tushdi. Chap cho'ntagimda edi, ha, ha, chap cho'ntagimda...  
 Seniz amaki shosha-pisha cho'ntagidan beliga ensizgina oq qog'oz yopshirilgan ikki dasta pul olib sarkorning oldiga qo'ydi.  
 — Laxtak magazinining tadbirkor direktori Qayum, tur, do'stlaringga hisob ber.  
 Peshanasi yiltiroq amaki dik etib o'rimdan turib, buyrug'ingizga tayyorman, degandek qo'l qovustirdi.  
 — Firmalardan kelgan mollarni sotingmi?  
 — Yarmini sotdim.  
 — Yarmi-ehi?  
 — Filiallarimga chiqarib yubordim.  
 — Qo'lga tushib qolshsa-ehi?  
 — Chorasini ko'rdim. Avval laxtakka bo'yib, so'ng chiqardim.  
 — Ofarin! — qarsak chalib qo'ydi sarkor. — Bizga tegishi pulni olib keldingmi?  
 — Olib keldim, ustoz...  
 Xuddi shu poyt yetro'larning qopqog'i ochilib, inqillaganicha yalimog'iz kampur tushib kela boshladi. O'n beshtacha

bilqillab pishgan tovuqni katta tog'orada arang ko'tarib kelardi u.

— Chiq bitrang, konyakni olib tush! — dedi Odil battol tamshanib. Peshanasi yiltiroq amaki g'izilaganicha tepaga chiqib, o'n butilka konyak olib tushdi.

Ziyofat boshlandi. Xuddi qarog'chilarga o'xshab, har bittasi bittadan tovuqni butunicha qo'lga olib, chinni kosalariga to'ldirib konyaklardan qujqillatib quyib, lablarini chapillatishib, pishillashib, bir-bitariga hazil-mutoyiba so'zlar ayitishib, ovqatana boshlashdi.

Ora-chora dasturxonga men ham qo'l uzatib turdim.

Bora-bora o'tgan-ketgan gaplardan, qiyimchiliklardan ham gapira boshlashdi. Gaplardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, shaharda jinoyatchilar kamayib ketavergach, millitsiya ta'qibidan bir amallab jon saqlab qolgan mana shu jinoyatchilar bir-birini himoya qilish, bir-biriga suyanish, bir-biriga ko'maklashish, bir-biriga foydali, foydasiz maslahatlar berish maqsadida bir necha oy muqaddam birlashib olishibdi. Odil battol hammasining boshlig'i bo'lib, uning har bir so'zi mana shu chapillatib tovuq go'shti yeyayotganlar uchun qonun ekan. Tarsaki yegan xo'ppa semiz amaki rayon matlubot jamiyatining omborchisi, oriq yigiti — Orif bozorda pattachi, Mutal yigirma ikkinchi bazada shofyor, peshanasi yiltiroq Qayum laxrak do'konning direktori ekan.

Boshliq millitsiyadan ehtiyot bo'lish, druujnachilariga qanday qilib chap berish haqida foydali maslahatlar berdi. Shubhali tuyulgan har bir kishini iloji boricha qo'lga olish, qo'lga olib bo'lmasa undan qanday qilib qutulish yo'llarini o'rgatdi: «Tuhmat qilish, mishmishlar tarqatish eng yaxshi qur'olimiz bo'lsin», degan gaplarni aytdi.

— Navbardagi uchrashuvimiz shu oying yigirma yetinchi chislosida soat o'nda bo'ladi, — deb gapini tugatdi Odil battol. — Eng muhim hushyor va dadil bo'laylik, hushyorlik va dadillik shiorimiz bo'lsin. Orifson, qani uka, shu yerdan o'tgan-ketganlarning ayoqligiga bir tilovat qilib yubor.

Chayqovchilar boshlig'i cho'kka tushib, xuddi bolasini yo'qotib qo'ygan ona echkining ma'rashiga o'xshash ovozlari chiqarib, tilovat qila boshladi. Oxirida:

— Hoyo omni! — deb ikki qo'lini chiroqqa yetgudek qilib baland ko'tardi. — G'animlar g'affatda bo'lsin ishimizga rivoj bersin, tadbirkor boshlig'imiz Odiljon akamilar hamisha salomat bo'lsinlar!

— Oblohu akbar! — deb hammalari o'rindan turishdi.

Hujjatlarni qayerga berkitishini ko'rish maqsadi-da, men Odil battolning orqasidan ergashdim. Boyagi taksi kutib turgan ekan. O'tirishimiz bilan mashina qushdek uchib ketdi.

Baxti qaro direktor orqa o'rindiqda yonboshlab, haddan tashqari xursand bo'lsa kerak, o'zicha xirgoyi qilib bor-yapit. Men bo'lsan Salimjon akamning so'zlarini eslayman. «Bilasan-mi, Hoshimjon — derdi ba'zan u, — yuz minglab vijdonli halol yashayotgan kishilar ichida ba'zan bita-ikkita turqi sovug'i ham uchirab qoladi-yu, hammaning dlini siyoh qiladi, oromini o'g'irlaydi. Sen bilan mening vazifamiz ana shu turqi sovug'larni topib, yaxshi yo'lga solish, yo'limizga yurmasa, boplab ta'zirini berishdan iborat...» «Xayriyat, deb o'ylayman yana o'zimcha, — rayonimizda turqi sovug'lar uncha ko'p emas, bor-yo'g'i olta ekan. Mana, men ularning iziga tushib ham oldim. Navbati bilan hammasini qo'lga olamiz...»

Baxti qaro direktor oshxonaga tegishli hujjatlarni yer ostidagi xazinasiga berkitganini o'z ko'zim bilan ko'rgach, ko'nglim tinchib, yarim tunda uyimizga jo'nab ketdim.

## UYQUSIZ O'TGAN BIR KECHA

Qo'ng'itiroqni har qancha jiringlatganim bilan Lutfi xolam bari bir uyg'ommasa kerak, deb o'ylab, Salimjon akamning hovlisiga devordan oshib tushdim. Hovliga tushgach, boshimdan qalpoqchamni olib, ko'zga ko'rinadigan bo'lib oldim. Qiziq, tushimmi, o'ngim-mi? Salimjon akam gulzor oralab, tokqaychi bilan gul qurqib

yuribdi. Axir, u men ketayotganda shahar kasalxonasida yotuvdi-ku, do'xtirlar ahvoli ancha og'ir, deb aytishayotgan edi-ku!

— Assalomu alaykum! — dedim yaqiniga borib.

— Iye, Hoshimjonmisan? — dedi boshlig'im qaddini rostlab. — Omondan tushdingmi, yerdan chiqdingmi.

— Devordan oshib tushdim, — dedim, — o'zingizni? O'zingiz qayoqdan paydo bo'lib qoldingiz? Oqshom yo'q edingiz.

— Kasalxonadan qochdim, — deb Salimjon akam negadir o'zini-o'zi oqjay boshladi.

— Bilasanmi, o'g'lim, men umrimda kasalxonada yotgan emasman. U yerda kasalim og'irlashsa og'irlashadiki, lekin tuzalmaydi. Do'xtirlarga bu gapni hech tushuntir olmadim. Bu yoqda, ko'rib turibsan-ku, ishlar chalkashib yotibdi... Bunaga paytda kasalxonada yotib bo'larkami... Hammasini uxlatib, sekin qochib qoldim. Bilasanmi, Hoshimjon, men qanday xulosaga keldim?

— Yo'q, bilmayman.

— Mening po'lat sandig'imdagi hujjatlarni o'g'irlashni Odil Abbosov tashkil qilgan.

— To'g'ri aytasiz.

— Chunki, bu hujjatlarni yo'qotishdan faqat shu odamgina manfaatdor. Lekin o'g'irligni o'zi qilmagan.

— To'g'ri aytasiz. O'g'irligni o'zi qilmagan.  
— Bu odam sen bilan men o'ylaganchalik soddagina emas. Tuzalmaydigan xilidan ekan... Yaxshi yo'lga tushib oiar, deb men unga qancha yaxshiliklar qildim. U bo'lsa doim meni aldash payida.

— Siz Odil Abbosovni ko'pdan tanaysizmi?

— O'n yilcha bo'ldi taniganimga.

— Pilla zavodidagi jinoatchilar orasida u ham bormidi?

Eslay olasizmi?

— Esimda yo'q, o'g'lim. Sal kam qirq yillik gap yodimda turadi deysanmi. Nega bularni so'rayapsan?

— O'zim... Shunday...

Yo'q, baxti garo direktordan eshitgan gaplarimni hozir aytishning mavridi emas. Boshlig'imning yuragi kasal, yana yotib qolishi mumkin. Unga faqat xursand qiladigan gaplarimga aytishim kerak. Hujjat qayerdaligini aytam, hoynahoy, sevinganidan kasali ham tuzalib ketishi mumkin.

— Salimjon aka, divanga o'tiraylik, — dedim mumkin qadar jiddiy bo'lishga harakat qilib.

— Biron muhimroq gaping bormi?

— Muhimdan ham muhimi!

Ketma-ket ayvonga chiqib, divanga o'tirdik. Sehrli galpogecham haqida hech narsa demay, qishloqdan qaytib oshxonaga bordim, direktorning ketidan tushdim, deb sekin gap boshladim. So'ngra shu kechasi nimani ko'rgan bo'lsam, nimani eshitgan bo'lsam, oqizmay-tomizmay so'zlab berdim.

— Nahotki, seni sezishmagan bo'lsa? — gapimga ishongiramay so'radi polkovnik.

— Men ko'zdan g'oyib bo'lish yo'lini bilaman.

— Yo'g'-el! — yana ishonmadi boshlig'im.

— Rost aytayapman. Ishonmasangiz sinab ko'rishingiz mumkin. Ko'zingizni yuning-a...

Polkovnik istar-istamay ko'zini yumdi. Boshimga galpogechamni kiyib, g'oyib bo'ldim. O'rindan turib:

— Endi meni ko'ryapsizmi? — deb so'radim.

— Rostdan ham ko'rinnay qolding! O'vozingni eshityapman... Tavba... Bu qanagasi bo'ldi? Tag'in sen sehrgar bo'lmagin?

— Yo'q, men sehrgar emas, serjant Hoshimjon Ro'ziyev bo'ldim.

— Tavba, tavba! Qani, yana ko'zga ko'rinchi!

— Bo'lmasa ko'zingizni yuning.

— Mana yumdum.

— Endi oching.

— Ey, tavba, ey, tavba! Hoshim, bu o'zingmisan! Yo men tush ko'ryapmanmi! Ey, tavba! Sen qip-qizil fokuschani ekan-san-ku. Qanaga qilib, ko'zdan g'oyib bo'lding-a?

— Dorisim ichdim.

— Qani, o'sha doridan bir kupa menga ham ber-chi.  
 — Bu dorini boshqa odam ichsa, til tortmay o'ladi.  
 — Yo'g'-el!  
 — Rost. Keyin bu sirni uchinchi bir kishi eshitsa, eshitgan zahoti uchovi ham o'ladi.  
 — Tavba, men tush ko'rayotganim yo'qmi?  
 — Yo'q, o'ngingiz, Salimjon aka.  
 — Bo'lmasa fokusingni yana bir takrorla-chi.  
 — Ko'zingizni yuning.  
 — O'n-o'n besh minut chamasi ayvonda berkinmachoq o'ynadik, ovozim chiqqan joyga borib, meni topa olmagach, Salimjon akam xonani boshiga ko'tarib, kulib yuborardi.  
 — Nihoyat yana divanga o'tirdik  
 — Bu dorini sen qayerdan topding? — hamon hayrati oshib borardi boshlig'imning.  
 — Buviyoning berdi.  
 — Buviyoning alximikmi deyman?  
 — Nima dedingiz?  
 — Katta olimmi deyapman.  
 — Shunaqaroq.  
 — Buviyoningni bu kashfiyoti uchun, meningcha, davlat mukofotiga taqdim etish kerak.  
 — Mumkin emas.  
 — Nega endi mumkin bo'lmas ekan? — bir oz ranjigandek bo'ldi boshlig'im. — Axir, bir xil odamlar otashkurak yasasa ham, mukofot berasan, deb to'polon ko'taradi-ku, sen bo'lsang...  
 — Bu sir oshkor bo'lgan kuni buviyoning ham o'ladi.  
 — Yo'g'-el!  
 — Rost aytayapman.  
 — Demak, bu sirni birovgaga aytib bo'lmaydi degin?  
 — Ha.  
 — Qiziq... — Boshlig'im o'rimdan turib, xonada u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. — Xalq orasida qadim zamonlardan buyon sehrgarlik ilmi yashab keladi, deysinchi. Men bo'lsam, ishonmas edim. Bundan uch yil oldin Leningradga seminariga

borдик. Bir qizchani ko'rsatib, ko'zi shunaqangi o'tkirk, yetti qavat po'lat sandiq ichidagi narsalarini ham bemalol ko'ra oladi deyishdi. Men ishonmadim. Qizcha yoniga kelib: «Sinab ko'rishingiz mumkin, amakim», dedi. Cho'ntaginda pasportimni, kelinoying bilan Karim birga tushgan rasmlar bor edi. «Qani, cho'ntaginda nima bor, top-chi», dedim. Qizcha ko'ksingizni tiklab turib: «Pasport bilan ikki kishining birga tushgan rasmi turibdi», desa bo'ladimil. Kim biladi, sening buviyoningda ham hali fanga ma'lum bo'lmagan biror ilim boridir...

— Salimjon aka! — murojaat qildim boshlig'imga.

— Nima deysan? — ham so'zlashdan, ham yurishdan to'xtadi boshlig'im.

— Siz meni yaxshi ko'rasizmi?

— O'g'limdan ham a'lo ko'raman.

— Men o'lib qolsam og'ir a'volga tushib qolasizmi?

— Unday dema, tentak! Shu gapingni eshitib, yuragim o'ynab ketdi.

— Unda bu sirni birovgaga ayta ko'rmang. Sir oshkor bo'lgan kuni avval men o'laman...

— Sir saqlashda menga teng keladigani yo'q, o'g'lim. Qirq yildan buyon miltisiyada ishlab, qirq yildan buyon odamlarning sirini saqlab kelaman. Lekin, o'g'lim, sendagi bu sir bilan mendagi tajriba qo'shilsa, jinoyatchilarga qiron kelardi-da!

— Shuning uchun ham qishloqqa borib keldim-da.

— Barakalla, o'g'lim! Endi ishga kirishaylik. Hozir men hujjatlar qayerda turganini polkovnik Ali Usmonovga xabar qilay. Lekin qo'rqma, sirningi ochmayman, bu sir endi men bilan birga qabrga ketadi.

Soat uchdan oshib qolgan edi. Salimjon akam telefon qoqib, Ali Usmonovning xotinidan, eringni uyg'otib ber, deb iltimos qildi. Bir oz vaqt o'tgach, telefoniga Ali Usmonovichning o'zi keldi shekilli. Salimjon akam: «Kasalxonadan emas, uydan gapiryapman. Qoqib kelganim yo'q, do'xtirlar ruxsat berdi. Senga muhim bir

gap aytmoqchiman, o'g'irlangan hujjatlar qayerdaligi aniqlandi. Hozir boraman deysanmi, yaxshi bo'lardi...» deb gaplashdi.

Yarim soatlardan so'ng, polkovnik Usmonov o'zi bilan birga jinoyat qidiruv bo'limining boshlig'i, hali yosh bo'lishiga qaramay sochlari oppoq oqarib ketgan mayor Xoligovni boshlab, hovliqancha kirib keldi.

Ravonga dumaloq stol qo'yib, to'rtovimiz uning atrofiga o'tirdik.

— So'z sizga, o'rtog' Ro'ziyev! — dedi polkovnik Usmonov.

O'rnimdan turib, nima ko'rgan bo'lsam, nima eshitgan bo'lsam — haligi jinoyatchilarning ism-familiyasigacha hamma-hammamini so'zlab berdim.

— Aqling bovar qilmaydigan gaplar-a... — o'ziga tolib dedi polkovnik Ali Usmonov.

— Men o'rtog' Ro'ziyevning gaplarini to'liq tasdiqlayman, — kutilmaganda mening foydanga gapirib qoldi mayor Xoligov. — Jarikda shubhali odamlar ondasonda yig'ilib turishi haqida bizda ma'lumot bor. Laxtak magazini esa, hozir bizning nazoratimizdan. Shoyi artelli bilan aloqada bo'lgani uchun ishni oclamay turibmiz. Men o'rtog' Ro'ziyevning ma'lumotlarini to'liq tasdiqlayman va bu yoshi yigitlarni jasorat ko'rsatgani uchun tabriklayman!

Shu gapdan so'ng jinoyatchilarni qanday qo'lga olish planini tuzishga kirishdik. Men, bu kechasiyoq baxti garo direktorning uyiga borib, hujjatlarni olish kerak degan edim, bu rejam hech birlariga ma'qul bo'lmadi. Sheriklarini harkitib qo'yamiz, deyishdi. Jinoyatchini jinoyat ustida qo'lga tushirish zarurligini ayushdi. Qolgan besh jinoyatchining iziga tushishi, ularning qora qilmishlarini puxtalab o'rganish, yana sheriklari bo'lsa, ularni ham aniqlash va navbatdagi yig'inlarida hammalarni o'sha jarikdagi yerto'larning o'zida qo'lga olishga qaror qildik.

— Xo'sh, bu operatsiyaga tahbarlik qilishni kimga topshirsaq ekan? — so'radi Ali Usmonov.

— Serjant Ro'ziyevning o'ziga topshiramiz, — dedi to'sardan mening boshlig'im.

— Serjant yoshlik qilib qolmasmikanlar? — ikkilamb qoldi Ali Usmonov.

— Seni o'z o'rimga rayon militsiyasiga boshliq qilib tayinlashlarini so'raganida, — qoshlarini kerib, har bir so'zini ta'kidlab gapira boshladi Salimjon akam, — boshqalar ham, «bu ona suti og'zidan ketmagan yigitcha nima karomat ko'rsatarkan...» deb kulishgan edi. Lekin men senga ishongan edim, yanglishmagan ekanman. Mana, leytenantlikdan polkovnik darajasiga ko'tarilding. Rayonda tartib o'rnatding. Odamlarga ishonish kerak, polkovnik! Men Hoshimjonga xuddi o'zinga ishongandek ishonaman.

— Salimjon akam, siz mening ustozim bo'lasiz, — kulib qo'ydi Ali Usmonov, — militsiyaning aifbesini sizdan o'rganganman. Har bir so'zingiz men uchun qonun! O'rtog' Ro'ziyev, sizni birinchi mas'uliyatli topshiriq bilan tabriklayman.

— Xizmatga tayyorman, o'rtog' polkovnik! — dik erib o'rnimdan turib, chest berdim.

— Lekin, — so'zida davom etdi polkovnik, — har bir qadamingizni men va Salimjon akangiz bilan maslahatlashib tashlaysiz.

— Xo'p bo'ladi, o'rtog' polkovnik.

Tong otib qolgan edi, samovarga tarasha tashlab, stol ustiga buvijonim berib yuborgan nozu-ne'matlarni keltirib qo'ydim. Chaqchaqlashib o'tirib nonushta qildik.

Isning bu yog'i juda tez yurishib ketdi, ha, ha, juda tezlashib ketdi. Salimjon akam bilan ikkovlashib, operatsiyani qanday amalga oshirish rejasini tuzib, unga shartli ravishda «Sariq devni quvib» deb non berdik.

— O'rtog' serjant, — dedi boshlig'im o'rindan turib endi — xo'ppa seniz poraxo'rning izidan tushasan.

— Baxti garo direktor-ehi, o'rtog' polkovnik?

— Uni nazorat qilish uchun ham ishonasiga, ham qorovulni o'zim qo'yaman.

— Juda soz, o'rtiq polkovnik.

— Oq yo'l, seijant bolam!

Fotoapparatni yelkamga osdim, militsiya xodimlari uchun maxsus ishlangan ixchamgina magnitofonni qo'tig'imga qisdimu, qayerdasan xo'ppa semiz poraxo't, deb rayon matubot jamiyatining omborxonasiga jo'nab ketdim.

Ana boyligu, mana boylik! Uzunligi ikki yuz metr balandligi 20 metr keladigan katta omborxonada har xil mollar bilan jimmo-lim to'lal Ipak gilamlaru devorga qoqiladigan gilamlalar, gulli shoylaru rang-barang tovlanib turgan — «Qizi kiyib, kelini kuyib o'lsin» deb nomlanadigan atlaslar, buvijonim hech yoqtimaydigan xolodilignu oyijonim izlab topolmay yurgan yaltiroq javonlar... Yo'q, yo'q, bilasiz-ku, men so'zga uncha chechan emasman, barchasini nommanom aytib berolmayman, yosh bolalarning bejirim kiyim-boshlarini aytсам, jersi paltolar qolib ketadi. Paxta gulli choynak, piyolalardan gap ochsam, uyulib yotgan andatra qalpoqlariyu toy-toy qilib bog'langan jun ro'mollarga navbat kelmaydi.

Omborga shundoqgina kiraverishda yuk tashiydigan mashinaning kabinasidek keladigan kichkinagina bir xona bor ekan, ochiq eshigidan bunday qarassam, xo'ppa semiz amaki shu yerda o'tiribdi. Boshida shiyapa, bo'ynida tuguni mushradek keladigan gulli galstruk. Qovog'i ayron xaltadek osilgan. Iyagini ko'kragiga tirab, kirgan odamni suzib olmoqchidek, pesthanasini eshikka o'xtalib, cho't qoqyapti. Tashqarida o'n-o'n besh chog'li magazin mudirari, ichkari kirgani yuraklari betlamay, sen boshla, sen boshla, deb bir-birini itarishib turibdi.

Magnitofonni ovoz yozishga shay qilib, fotoapparatimni ham tayyorlab turdim.

— Assalom alaykum! — dedi nihoyat bittasi ichkari kirib, javob bo'lmadi.

— Qalay, kayfiyatingiz yaxshimi? — yana so'radi kirgan kishi.

Xo'ppa semiz amaki nihoyat boshini ko'tardi. Uning shu paytdagi vajohatini ko'rib, magazinchi u yoqda tursin, mening o'zim ham qo'rqib ketdim, bay-bay-bay, bir odamning valshati ham shunday bo'ladimi!

— Men, men... — deb magazinchi dudug'lanib qoldi.

— Nima «men», «men» — jerkib berdi xo'ppa semiz amaki.

— Molga keluvdim.

— Mol yo'q.

— O'tgan safar ham ololmuvdim.

— Xudo xohlasa bu safar ham ololmayсан.

— Jon xo'jayin, besh-o'n ming so'mlik berib turing. Planni

hech bajartib bo'lmayapti.

— Nima kerak o'zi?

— Kecha atlas, gilam kelibdi deb eshitdim.

— Ularning xarajati bor.

— Xarajatiga biz ham sherik, xo'jayin.

— Qancha berasan?

— Yuz so'm.

— Yuz ellik, cho'z, o'nata gilam beraman.

— Yuz o'n berayin, xo'jayin.

— Ha, mayli, yuz qirq bera qol, sen o'zinning ukamsan.

— Yuz yigirma beray, axir akamdek bo'lib qolgansiz.

Aka-ukalar bozordagi ziqna chayqovchi bilan puli oz-u, lekin molni yoqtirib qolgan xaridoraga o'xshab rosa talashib tortishishdi. Oxiri bir yuz yigirma besh so'mga kelishib, magazinchi pulni uzatdi, xo'ppa semiz amaki qo'lini cho'zdi. Xuddi shu paytda mulla Hoshimjon ularni esdalik uchun suratga ham tushirib qo'ydi.

Odob, nazokat bilan salom berib, yana bir magazinchi kirdi. Hali pora olayotganida xo'ppa semiz amakining chehrasi gul-gul yashnab, labida iljayish desa iljayishga, tabassum desa tabassumga o'xshamaydigan allaqanday ifodalari paydo bo'lgan edi. Ular hozir qayoqqadir yo'q bo'ldi-yu, o'rnini dovuchcha chaynab olganda paydo bo'ladigan bujmayishga o'xshash bir ifoda qopladi.



- Assalomu alaykum! — dedi magazinchii yigit.
- Nima? — boshini ko'tarmani so'radi amaki.
- Salom deyapman.
- Gapingni aytaver.
- Biz ham molga keldik.
- Shakar beraman.
- Shakar magazinda tiqilib yotibdi.
- Yuz qop tuz ol bo'lmasa.
- Tuzni boshingga uramanmi?
- Boshqa hech narsa yo'q.
- Kecha apelsin, hind choyi kelibdi, deb eshitdim.
- O'shalardan bering. Xaridorlarni bir xursand qilay.
- Men-chi? Meni kim xursand qiladi?
- Kelinoyi xursand qilsinlar.
- Sen ayrgan narsalar yo'q.
- Bor. Kecha kelgan.
- Ularning chiqimi bor.
- Bo'lmagan gap.
- Yo'qoli!
- Ustingizdan arz qilaman. OBXSSga boraman!!!
- Yo'qol deyapmani! Sen xalq dushmani, savdoga dog' tushirib yurgan provakatorsani! — Shunday deb xo'ppa semiz amaki stolni mushlab, o'rnidan turib ketdi. Ikki qo'lini ikki tomonga yozib, xuddi jo'jasini himoya qilgan ona tovug'dek hurpayib, magazinchining ustiga bostirib bora boshladi.— Sen tayyor mollarni olib borib sotmasdan davlat planining bajarilishiga zarba berypasan. Sen yot unsur, ichki dushmanсан. Seni javobgarlikka tortish kerak, qamash kerak! Sen xaridorlar haqiga xiyonat qiluvchi ashaddiy yulg'ichsani!
- Bagirna, senga pora beradigan ahmoq yo'q, — dedi yigit ham, mushtlashsam mushtlashay dedi shekili, qo'lini mushl qilib.
- Yo'qol deyapmani!
- Mening yigitlarim halol ishlashadi, ulardan bir tiyin so'rashga or qilaman. Mol berasanmi, yo'qmi?

Yigit azamat ekan, xo'ppa semiz amakinig do'qidan qo'rqmay, qo'lga stol ustida turgan cho'tni oldi.

— Hozir boshingni yoraman.

Omborchi amaki orqasiga tisarildi-da, o'rniga o'tirib qoldi. Keyin kutimaganda xaholab kulib yubordi.

— Hazillashdim, tentak. Qancha choy kerak?

— To'rt yashik.

— Apelsindan-chi?

— Berganingizcha.

— Ob-bo tentag-ey, hazilni ham bilmaysan-a? Bolalaring yaxshimi?

— Yaxshi.

— Kelin bola o'qiyaptimi?

— O'qiyapti.

— Lekin, uka, hech bo'lmasa yigirma so'm berasan. Irimi shunaga, bo'lmasa kasal bo'lib qolaman.

— Bir tiyinin ham yo'q.

— Hech bo'lmasa bir so'm ber, tushlik ovqatim chiqsin.

— Yonimda avtobusning abonementidan boshqa hech vago yo'q.

— Ha, mayli, o'shani bera qol.

Yigit ikki dona abonement uzatib, mol yozilgan fakturani olib chiqib ketdi. Omborchi amaki: «Bo'shman, lattaman!» — deb negadir o'z biqinini chimdib-chimdib ola boshladi...

Keyingi kirgan magazinchilar uncha savdolashtiray, omborchi so'rgan pulni uzatib, aytgan mollarini, olib chiqib ketaverishdi. Omborchi ham xursand, magazinchilar ham xursand, magnetafonu fotoapparati yaxshi ishlab turgani uchun Hoshimjon ham xursand, xayrii ishga yordami tegib, milfsiya oldidagi o'z burchini o'tayotgani uchun sehrli galpoqcha ham xursand.

Hammayoq xursandchilik!

Xo'ppa semiz amaki kimdan qancha pora olgani, qanaqa mol berganini daftariga qayd qilib borarkan. U yozib bo'yapti-yu, men bo'lsam daftarni suratga tushirish bilan ovoraman. Omborchi pulni sanayotib, xirgoyi hann qila

boshladi. So'ng pul solingan sumkani bag'riga bosib, bir-  
ikki o'pdi. Po'lat sandig'ini ochish uchun engashgan edi,  
sekingina sumkasini olib qo'ydim. Bu pullar poraga tushgan,  
o'lishga haqqi yo'q uning. Shu bilan birga, ularni olib ketish  
uchun menga ham ruhsat berilmagan. Salimjon akam bilan  
maslahatlashaman, ungacha omborxonaning toniga berkitib  
qo'yganim yaxshi.

Pulni tomga berkitib tushsam, xo'ppa semiz amaki  
omborxonada oyog'i kuygan tovuqdek, har tomonga zir  
yugurib yuribdi. Mol taqsimlayotgan yigitchani yoqasidan  
bo'g'ib, oyog'ini yerga tekkizmay, zing'ilatgancha o'z  
xonasiga olib kirdi.

— Pulni ber! — dedi so'ng negadir kulib.

— Qanaqa pul? — yelkasini qisdi yigitcha.

— Hozir olding-kul!

— Tavbat!

— Yelkangni qisma, ko'rib turuvdim.

— Xudo ursin, agar pulingizni olgan bo'lsam, — deb  
yigitcha yig'lab yubordi.

Xo'ppa semiz amaki kechgacha o'zining xonasi-yu,  
omborning ichkarilarini tikilayverib, garang bo'lib ketdi.  
Boshlariga mushtab, biqinlarini chinchilab, «endi xotinimga  
nima deyman?» — deya, ishonsangiz, jindek ko'z yoshi ham  
qilib oldi.

Salimjon akam jinoyatning iziga tushdingni, uni oxiriga  
yetkaz, deb ta'lim bergan. Boshlig'imning ana shu so'ziga  
amal qilib, xo'ppa semiz amakining uyigacha kuzatib  
borishga ahd qildim. Baxti garo direktorning yer ostidagi  
xazinasiga o'xshash, ehtimol, buning ham berkitib qo'ygan  
xazinasini bordir.

Xotini Odil battoldan qo'rqardi, xo'ppa semiz amaki  
xotinidan qo'rqar ekan.

— Bo'rini, tulki? — deb so'radi xotini omborchi uyiga  
qadam bosishi bilan.

Tulki... — chaynalib dedi xo'ppa semiz amaki.

— A, tulki? Bekorlarni aytibsiz! — yenglarini shimarib  
eriga qarab o'dag'aylab kela boshladi xotini. — Kecha mol  
kelmadi, deb bahona qildingiz, bugun tulki deysiz. Yo'q,  
bunagasi ketmaydi...

— O'g'irlatib qo'ydim, axir, ishonsang-chi.

— Siz bo'laysiz, pul o'g'irlatasizmi? Yo'q, uyga qo'yamay-  
man. O'vgat ham yemaysiz. Bu yoqda qovoqlarim bo'shab  
yotibdi-yu, topgan bahonalarni qarang-a.

Qovoq, nega qovoq bo'sh qolarikan? Chindan ham bu  
hovlida bedana qovoqlar shunaqangi ko'pki, olmalarga,  
so'rilariga qatorlashtirib ilib tashlagan. Yigirma chog'li  
bedana bir-biriga gal bermay, «vovolag'u bitilg'ni ayjiga  
chiqarish-yapti. Qiziq, nahotki, bedana pul yesa! Yo'q, nima  
bo'lganda ham bir tekshirib ko'rish kerak. Militsiya  
xodimining vazifasi — shubhali tuyulgan har bir narsani  
tekshirib ko'rishdan iborat. Ayvonga yigirma beshacha gulli  
to'rgovoq osilgan, ikkitasida bedana borligi aniq. Negaki,  
to'rgovoqlar bilinar-bilinnas silkiniib turibdi. Qolganlar-chi?  
Narvonni qo'yib, bittasining yopkichini ko'tarib, sekin  
mo'ralagan edim, ana xolos, ana hangoma-yu, mana  
hangoma! Yashavorsinlar-ey! Ketma-ket boshqalarini ham  
ko'zdan kechirdim. Olmalarga, qari tarning ustiga ham  
chiqib tushdim. Ellik to'rgovoqning yigirmatasida sayroqi  
bedana-yu, qolganida liq to'la pul, oltin taqinchoqlar,  
tangalari!

Baxti garo direktor boyligini yer ostida saqlasa,  
bedanavoz kekinoyim osmonda, to'rgovoqlarda saqlarkanlar!

Yashavorsinlar-ey!

Jamiki to'rgovoqlarni shoshilinch suratga tushirib, it  
quvgan soqovdek, kechirasiz, juda shoshilib demogchi edim,  
halloslaganimcha idoraga qarab yugurdim. Laboratoriyaga  
kirib, kun bo'yi olgan suratlarimni chiqardim. Keyin o'ttiza  
surat, har xil subhatlar yozilgan 18 metr plyonkani ko'tarib,  
boshlig'imning huzuriga kirib bordim.

— Ishlar qalay, serjant? — o'rindan turib so'radi Salimjon  
akam.

— Ko'ngildagidek, o'rtiq polkovnik.

Keltirgan sovg'a-salomimini boshlig'imga uzatdim. Ularni ko'rib, avval Salimjon akam, o'n besh minutlardan so'ng polkovnik Usmonov sevinganlaridan andak bo'lmasa qichqirib yuborayozishdi. Magnitafoni qo'yib, polkovnik Ali Usmonov bir nafas yoqimli muzika tinglayotgandek chaqalib o'tirdi-yu, oxirigacha chiday olmadi shekilli, o'rnidan turib:

— Ofatin, o'rtiq serjant! — deb xitob qildi. — Salimjon aka, siz, to'rtqovoqli uyini darrov nazoratga oling.

— Xo'p bo'ladi! — O'rnidan turib dedi mening boshlig'im.

— O'rtiq Ro'ziyev, ombordagi eng ko'p molni o'n oltinchi magazin direktori oldi dedingizmi? — so'radi Ali Usmonov.

— O'ziyam poraning ko'pini o'sha berdi-da.

— Magazinni kuzating! Lekin, o'rtiq Ro'ziyev, yana bir marta rahmat. Siz favqulodda talant egasi ekanisiz. Sizga rayon militsiya bo'limi nomidan tashakkur e'lon qilaman va unvoningizni oshirishlarini so'rab, bugunqoq ministrlikka tavsiyanoma yozaman.

### MAHSUM POCHCHA, QALAYSIZ?

Men sai uyquchiroq bo'lganim uchun o'rnindan hamisha kech turaman. Boshimni ko'tarsam, Salimjon aka yo'q — allaqachon ishga ketib bo'libdi. Boshlig'im doim shunaga. Ikki soat oldin bormasa, ko'ngli joyiga tushmaydi.

Apil-tapil nonushta qilib, idoraga jo'ndim. Koridoridan o'tayotganimda yoshlar tashkilotining sekretari kapitan Hoshimovning xonasidan Salimjon akam ikkovlarining qattiq-qattiq gapirishayotgani eshitilib qoldi, nima gap ekan, deb sekin mo'ralagan edim, Hoshimova:

— Kiraveyng, — deb taklif qildi.

Kirib, bir chekkaga o'tirdim. Kapitan so'zida davom etdi:

— Shunday qilib o'sha sizga chaqaloq topshirgan juvoning izinga tushdim. Ohi Sherifa ekan. Bundan uch yil oldin Chorsudagi oshxonada ofitsiantka bo'lib ishlab yurgan paytida kamomad keltirib u yerdan qochgan. Bir yilcha poyezda provodnik bo'lib ishlagan. Keyin betayin odamlarga qo'shib, sayoq yura boshlagan.

— Siz u bilan yuzma-yuz uchrashdingizmi? — betoqat bo'lib so'radi Salimjon akam.

— Uchrashdim, ikki marta uchrashdim, — davom etdi kapitan. — Keyingi uchrashganimizda, singlim, chaqaloqning qoni bilan polkovnikning qoni solishtirib ko'rdik, hech qanday o'xshashlik yo'q, demak, chaqaloqning otasi boshqa odam. Menga ochig'ini ayt, men ham onaman, senga yordam berry, axir, — dedim.

— U nima dedi? — yana so'radi polkovnik.

— Yig'ladi, uzoq yig'ladi. Mana qog'oz, mana qalam, hammasini yozib ber, dedim. U juvon, uyda yozib kelaman, hammasini yozib beraman, dedi.

— Xo'sh, nima deb yozibdi.

— Afsuski, u qochib ketdi.

— Qochdi?!

— Hal!

— Ish yana chalkashibdi, kapitan. Chaqaloq qayerda?

— Bolalar uyida.

Suhbat xuddi shu yerga yetganda, men qo'lim bilan «hozir kelaman» degandek ishora qilib, tashqariga chiqib ketdim. Chunki, mening zimmaniga bundan ham muhimroq vazifa yuklatilgan. Uni tezroq bajarsam, ehtimol Sharfanning tulumati o'z-o'zidan ochilib qolar.

Boshingga qalpogchamni kiyib, ashqol-dashqollarnimni ko'tarib, aralash mollar magaziniga yo'l oldim. Borib birinchi qilgan ishim omborxonaga o'rib, kecha katta pora evaziga keltirilgan mollar butni, but emasmi, shuni tekshirib ko'rish bo'ldi. Xayriyat, hammasi joyida ekan.

Direktorning xonasiga kirdim. Direktor ellik yoshlardagi qosh-ko'zi qop-qora, yuzi ham qora turdan kelgan, o'zi

yoqqa pishirigan bo'g'irsoddek dum-dumaloqgina bir kishi ekan. Sochini tarashlab ustarada oldirib, boshiga qora do'xoba do'ppi kiyib olibdi. Kichkinagina mo'ylovchisiga yiltiroq moy surtgan bo'lsa kerak, uzoqdan qarasangiz, ustki labida ikkita qora qo'ng'iz o'rmalab ketayotganga o'xshaydi. Kecha xo'ppa semiz amaki unga «Mahsum pochcha» deb murojat qilgan edi, ishi ham nomiga munosib ekan, pichirlab, har xil duolardan o'qib o'tiribdi.

— Hoyo omin, — dedi bir mahal Mahsum pochcha qo'l ko'tarib, — el-yurtga qatu baraka ato qilginki, yuki bizga ham tegib tursin. OBXSSga insof berginki, uchl-to'rt kun magazinni bosmay tursin. Qaytim olmaydiganlar ko'payib, shikoyatchining qo'li kalta bo'lsin, oblohu akbar!

— Oblohu akbar! — deb yuboribman men ham beixtiyor. Mahsum pochcha cho't qoqib, bir narsalarni hisoblashga tushdi. Men magazina o'ldim. O'ttizta sotuvchining hammasi xotin-qizlar, savdo shunangangi ayjiga chiqibdiki, qo'l-qo'lga tegmaydi. Bitta qog'ozga: «Dugonajon, hushyor bo'ling, bugun OBXSSdan tekshiruv bor», deb yozdim-da, ikki beti naqsh olmadek qip-qizil bir sotuvchining oldiga tashladim. Sotuvchi, xatni o'qib, rangi sal oqarinqiragandek bo'ldi. Sherigiga bir narsa deb pichirlagan edi, sherigi o'ng tomonidagi ayolning qulog'iga shivirladi. Ko'z ochib-yumguncha o'ttiz sotuvchi bir-biriga nimalarnidir shivirlab chiqishdi. Shu paytda deng, sotuvchilarning hammasi ta'rifiab bo'lmaydigan darajada samimiy, sertakalluf, serjilva bo'lib qolsa bo'ladimi! Bir xillari ichkaridan xalat kiyib chiqqan, bir xillari sochini tuzatgan, bittasi negadir, labiga chaplab qizil bo'yov ham surtib oldi. Eshik oldida xaridor ko'rinsa, hammalari birdan eglilib, salom berishadi deng. Xaridorlar chiqib ketayotganda qo'llarini ko'ksiga qo'yib:

— Xush ko'rdiki!

— Kelib tursinlar!

— Pulni begona qilmasinlar! — deb kuzatib qo'yishadi.

Mahsum pochcha magazina kirib, seksiya mudirlari navbati bilan mening xonamga kirsin, deb qoldi. Direktorning huzuriga birinchi bo'lib, trikotaj seksiyasining mudiri, o'zi ayol bo'lsa ham, mushlashib qolgudek bo'lsa, ikkita erkakni bemalol yumaloq yostiqliq qilib tashlaydigan pahlavonnamo Anvara opa kirdi.

Magnatfonni o'rnatib, fotoapparatimni shay qilib turdim.

— Savdo galay, Anvaraxonim?

— Yomon emas, Mahsum pochcha.

— Qovog'ingiz osilganroq ko'rinadi?

— O'zim shunday...

— Sizingni xursand qilaymi?

— Ixtiyoringiz.

— Bo'limingizga besh ming so'mlik mol chiqarib beraman.

— Rahmat.

— Uch yuz so'm chiqimi bor.

— Qo'ying shunaga gaplarni, jonimga tegdi! — Pahlavon Anvara opa o'rimdan turdi. — U yoqda OBXSS, bu yoqda siz. O'rtada qolib, qaytaga yurak o'ynoq bo'lib qoldim. To'g'rima-to'g'ri ishlatsangiz ishlayman, bo'lmasa yo'q. Xudoga shukr, erim fan kandidati, topish-tutishi yomon emas, davlatimiz to'rt xonalik uy berib qo'ygan... Yo'q, endi chiqimni ishga hech yurmayman.

— Esingiz joyidami? — hayron bo'ldi Mahsum pochcha.

— Joyida.

— Qurug' oylik bilan ishlab bo'larkammi?

— Boshqalar ishlayapti-ku!

— Bor, chiqib ket! — baqirib berdi Mahsum pochcha.

Pahlavon Anvara opa chiqib ketgach, o'yinga tushayotgandek, barmog'larini qisillatib boshqa juvon kirdi.

— Ke, qizim, — yumshoqgina qilib dedi Mahsum pochcha.

— Keldim, dadajon. — Eshik yonidagi stulga omonatgina o'tirdi juvon.

— Savdo galay?

- Rasvo, dadajon.
- Nega rasvo bo'larkan, opoq qizim?
- Xaridorbop mollarni omborga qulflab o'tiribsiz-ku, opoq dada.
- Shaddodsan-da, Shohista, shaddodsani! Lekin, bugun seni xursand qilaman. Jersi patlolar keltirdim...
- Jersi! — xursand bo'lib o'rindan turib ketdi Shohista.
- Andatra galpog'idan besh yuzta.
- Voy dadajonim-ey! — Shohista yugurib kelib, Mahsum pochlaning peshanasidan ikki marta cho'pillatib o'pib oldi, qo'llarini qirsillatib o'yinga tushdi.
- Besh yuz so'm chiqimi bor, ona qizim.
- Yo'o'q, yo'o'q, yo'o'q! — Shohista qaytib borib, o'rniga o'tirdi. — Jinoyatdan qo'rqaman, qamali b ketسام, erimga Nigora tegib oladi. Meni tinch qo'ying, dadajon.
- Valdiramat!
- Yo'o'q, yo'o'q. dadajon, OBXSSdan qo'rqaman. Qamalsam, erginam shimiga dazmol bosolmay yig'lab yuradi.
- OBXSS, OBXSS! — direktor jahli bilan o'rindan turib ketdi. — Hammangning og'zangdan shu gap tushmay qoldi. OBXSSning boshlig'i mening cho'ntagimda!
- Qani, dadajon, ko'rsating-chi? — qiziqib qoldi Shohista.
- Direktor cho'ntagidan bir dasra pul olib, «tap» etkizib stol ustiga tashladi.
- Mana, OBXSSning boshlig'i!
- Shu pullaringizni yeb, maza qilib yuravering, dadajon.
- Shohista o'rindan turib chiqib keta boshladi. Ajoyib qiz ekan u. Bu yoqda direktor alaminan sochini bittalab yulgudek bo'lib o'tiribdi-yu, u bo'lsa qo'llarini qirsillatib:

*«Magazinga mol kelti,  
Bir dunyo g'ahva kelti,  
Tavant-tavaran...»*

deb, ashula aytib chiqib ketdi.

Quvnoq qiz ekan.  
Direktor uchinchil ayolni chaqirib:  
— Ehtimol, sen ham noz qilarsan? — deb piching qildi.  
— Chiqimi bo'lsa, kerak emasi! — Gapning oxirini ham kutmay chiqib ketdi ayol.

Direktor tutaqib, quturgan sherning o'zginasi bo'ldi-qo'ydi. Pechka oldidagi ko'mir to'la chelakni shunangangi bir zarb bilan tepdiki, chelak taraqlaganicha eshiklarni ochib, hovliga chiqib ketdi. «O'zim ahmoqman, — deb Mahsum pochecha xona o'rtasida tik turib, artistlarga o'xshab, monolog o'qiy boshladi, — bo'sh qo'ydim, taltaytirib yubordim hammasini. Ta'lim-tarbiya ishlari susayib ketdi... Halol ishlarnish, halol ishlab bo'psan. Chiqimsiz ishlarnish. Chiqimsiz mol bor ekanni bu dunyoda...»

Mahsum pochecha yarim soatcha monolog o'qigach, nihoyat, charehadi shekilli, eshikni qiya ochib:

- Xolto'rayeva! — deb chaqirdi.
- Labbay, — degan ovoz eshitildi narigi xonadan.
- Bu yoqqa kiring.
- Ostonada keksagina bir ayol ko'rindi.

— Tushki ovqat mahahida hamma sotuvchilarni mening xonamga to'playsiz. Anvara Odilovani ishdan bo'shatish haqida buyruq tayyorlang. Planlarni bajarmay kelayotganligini ko'rsatib o'ting.

Tushki ovqat mahalgacha direktor g'azabdan tushib, yana avvalgidek mo'min-qobil, quyon bolasidek beozorgina bo'lib qoldi. Kabinetga to'plangan ayollarning har biri bilan qo'l berishib, alohida-alohida so'rashib chiqdi. Keyin shoshmasdan juda uzozqdan gap boshladi: — Savdoda ishlash hozir juda og'ir bo'lib ketganmish, bazada shunangangi katta ajdarho o'tirgan emishki, og'zi g'ordek kelarmish... Unga bir narsa bermasdan mol olish juda mushkul emish... Bir magazin mudiri ishga yangi kelgan sotuvchisiga: «Akasi, menga ikki kilogramm go'sht tortib bergin», debdi. Yosh sotuvchi go'shtni olib kelgan ekan, mudir uni tortib ko'rsa, roppa-rosa ikki kilogramm emish. «Yo'o'q, akasi, mendanki

yuz gramm urtib qololmadingmi, sendan sotuvchi chiqmas ekan», deb ishdan bo'sharib yuboribdi.

— Mana shunaga gaplar, — dedi Mahsum pochcha, ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan nutqining birinchi qismini tugatib.

Ayollardan hech qanday sado chiqmadi, boshlarini egib olishgan, uxlab qolishganga o'xshaydi. Mahsum pochcha chiroyli nutqining ikkinchi qismini boshlab yubordi. Masalan, bir sotuvchi kuniga, o'rta hisobda, ikki yuz xaridor bilan muomala qiladi. Har birtidan molning bo'yi va enidan chegirib, qaytimini bermay, o'rta hisobda, besh tiyindan olganda ham, kuniga o'n so'm bema'lol ishlaydi. Bu ni OBXSS sezadi, na xalq kontroli. Ishlashni bilish kerak, muomalangiz yoqimli, so'zlaringiz shirin, harakatlaringiz nazokati bo'lsa, xaridor sizga mahliyo bo'lib, bir-ikki so'm ortiq tashlab ketganini o'zi ham sezmay qoladi...

— To'g'rimi, qizim?

— Noto'g'ri! — dedi Mahsum pochchaning qizi.

— Nima, nima, nima?! — sekin o'rimdan tura boshladi direktor.

— Ha, noto'g'ri! — umumiy xot bo'lib takrorlashdi qizlar. Direktor o'rimdan turib ketdi, qizlar ham qo'zg'alishdi. Siz bir yonda, biz bir yonda degandek, direktor bir taraf, jamiki sotuvchilar bir taraf, o'rtalarida tortishuv boshlandi.

Direktor. Nima, nima?

Qizlar. Hech qaysi magazinda yulg'ichlik yo'q, faqat siz o'rgataysiz?

Direktor. Bo'lmagan gap.

Qizlar. Qarshimizdagi magazin-chi? Ular hech qanday chiqinsiz ishlashadi-ku?

Direktor. Sluning uchun ham hech planlari to'lmaydi.

Qizlar. Yolg'on! O'tgan oyda oylik mukofotni ham olishdi.

Direktor. Jim bo'linglar, zaxchalalar! Men aytganni qilasanlar.

Qizlar. Qilmaymiz! Halol ishlaymiz!

Direktor. Hali shunagami? Xolto'rayeva, buyrugini o'qing.

Xolto'rayeva. O'qimayman.

Tortishuv xuddi shu yerga yetganida, qizlar direktorni har tomondan qurshab kela boshlashdi. Besh-tasi qo'lidan, besh-tasi oyog'idan, besh-tasi belidan ko'tarib, hovliga olib chiqishdi-da, tuzlangan baliq solinadigan kattakon bochkani avvaldan tayyorlab qo'yishgan ekan, direktorning dod-voyiga ham qaramay, qo'l-oyog'ini bog'lab, bochkaga solishdi.

— Bizni yulg'ichlikka o'rgatadigan hali sizmisiz? — deysildi qizlar.

— Hammangni ishdan bo'shataman! — baqirdi direktor. Qizlar chug'urlashib, qiqirlashib kulishib, bir-birini itarishib bechora Mahsum pochchaning ustidan chelaklab suv quya boshlashdi. Direktor dodlagan edi, haligi shaddod qiz, Shohista yuguramicha ichkaridan terisi burishgan bir childirmani olib chiqdi-da, do'pillatib chala ketdi. Qizlar bochkani o'rtaga olib, sakrashib, o'ynashib, ashula aytib, direktorning ovozi yo'q qilib yuborishdi:

*Mahsum pochcha qalaysiz?*

*Qaymoq bersa yalaysiz!*

*Chiqinsiz mol ber, desak,*

*Bahov bo'lib talaysiz!..*

— Qizlar, — buyruq berdi bittasi, — kechgacha tegnanglar! Bir ta'zirini yesin. Endi yuringlar, magazinni ochaylik, tanaffus ham tugadi.

Qizlar qilgan ishlaridan mamnun bo'lishib, kulishib, bir-birlarini chimchilashib, magazinga kirib ketishdi. Mahsum pochcha, tongtugacha suv ichida, dag'-dag' qalitrab, bochkaning ichida qolaverdi. Asta oldiga borib:

— Hoyo omin, — deb o'ziga o'xshatib fojia o'qidim, — mana shunaga shaddot qizlar ko'payib, sizga o'xshagan

ta'magirlarning tazirini beraversin, OBXSSning ishi yengillashaversin, oblohu akbar!

Ochqab qolgan ekanman. Ko'channing narigi yuzidagi oshxonaga qarab yugurdim.

## O'G'RI BILAN CHAYQOVCHI MILITSIVAGA CHAP BERDI

Oshxonada o'tirib, cho'zma lag'mon yeyapmanu, nazarim-da, men lag'moni emas, lag'mon meni yeyayotganga o'xshaydi. Xayolim Mahsum pochchada. Havo ayoz, izg'irin shamol esib turibdi. Bechora muzlab qolsa nima bo'ladi, deb o'ylayman. Xullas, ovqat yeganday bo'imadin.

Magazinning hovlisiga chiqsam kimdir Mahsum pochchani bochkadan olib, quruq kiyim-bosh ham keltirib beribdi. Idorasida o'tirib, tishlari tartaqlab, «me-me-me», «se-se-se», «ke-ke-ke» deydi-yu, qaliroq zo'riligidan gapini eplab gapirilmaydi. Nazarimda: «Men senlarga ko'rsatib qo'yaman», demogchi bo'lyapti shekilli. Bochkadan chiqarib olgan odam kosada qaynoqqa sho'rva bilan bir sarakan aroq keltirib:

— Tezroq ichib oling. — deya maslahat berdi. Lekin, juda boplashibdi-da!

— Ku-ku-kulnal! — o'shquirib berdi Mahsum pochcha.

Aroqni bir ko'tarishda ichib, sho'rvani ham pok-pokiza tushirib olgan Mahsum pochchanning rangiga qon yugurdi.

— Senlarga bir so'mlik ham mol bermayman! Magazin tomonga qo'lini mushk qilib, o'dag'ayladi u. Keyin po'lat sandiqlarni qullab, magazinning orqa eshigi bilan ko'chaga chiqdi. Bir shum niyati borku, deb o'yladimu, sekin orqasidan ergashdim.

Direktor chayqov bozoriga borib, qo'lda to'qilgan jun paypoq sotib yurgan semiz kampiridan: «Pattachilir boshlig'i

Orini qanday topsam bo'larkan», deb so'ragan edi, kampir kulib: «Orqangizda turibdi-ku, bolam», dedi.

Pattachi bilan suvga pishilgan magazinchi quchoqlashib uzoq so'rashishdi, negadir bir-birlarini yerdan ko'tarib ham qo'yishdi.

— Senga hech et bitmadi-da, novcha terak! — deb qorinni silkallatib kaldi Mahsum pochcha.

— Go'shtini o'zlarining yeb, suvagini menga tashlaysizlar, qanday qilib et bitsin. Valh-valh-valh! — Osmonga qarab og'zini katta ochib kaldi Orif.

— Xudo xohlasa, bugun xursand bo'lasan.

— Xushxabar olib keldim deng?

— Bir chekkaga chiqaylik...

Holiroq joyga borib olgach, Mahsum pochcha ko'zini baqraytirib turib, yolg'on gapira boshladi. «Kecha bazadan 20 ming so'mlik kanyob, xaridorgir mol keltirdim. Sotuvchilarim, tezroq bizga bering, ikki-uch ming so'm chiqarib beramiz, deb holi-jonimga qo'yamay, orqamdan quvlab yurishibdi... Lekin, uka, senga bir yaxshilik qilay dedim. Bu dunyoda bir-birimizga qilgan oqibatimiz qoladi...»

— Men o'g'il bolaman, biroving yaxshiligini unutmayman. — deb qasam ichib yubordi Orif chayqovchi. Keyin, «birovning yaxshiligini unutmaydigan o'g'il bolam» bilan hozirgina suvga pishilgan magazinchi o'rtasida savdolashish boshlandi. Mahsum pochcha har o'n so'mlik molga bir so'mdan foyda berasan dedi, chayqovchi uncha emas, buncha beraman, dedi. Magazinchi yo'q, meni juda yerga urib yubording, deb jo'nab ketayotgan edi, chayqovchi uning etagidan tortib:

— Oltinsh besh tiyindan! — dedi.

— Yo'ldan qo'yma meni, — etagini silrab tortib dedi magazinchi.

— Oltinsh yetti tiyindan.

— Iersi paltolar, andatra qalpoqlari!.. Xayr, salomat bo'li!

— Yetmishi!

— Ob-bo' sen-ey, qo'ymadning-da. Bor, baraka.

Magazinning omborida turgan mollar shu yo'sim chayqov bozorida pullanadigan bo'ldi. Pattachi Orif soat beshlarda, magazinda savdo ayni avjga chiqqan bir pallada orqa darvozadan mashina olib keladigan bo'ldi.

Lekin, o'zi aytgandek, bir so'zlik yigit ekan u. Va'da qilgan vaqtida ustiga brezent qoplangan yulk mashinasini darvozadan olib kirdi. Rulda... yo'g'-e, ehtimol yanglishayotgandirman, yo'q, o'sha, xuddi o'shaning o'zinasini! Kuni kecha ko'rgandim, yelkasiga «Ne zabudu mat rodnuyu» deb yozdirib olgan Mutal! Shapkasini peshanasigacha bostirib kiyib olibdi, hamma narsaga beparvo, loqayd qarab, bir kelib keting qishlog'imizga ohangida hushtak chalyapti.

Hozir bularni qo'lga olib bo'lmaydi, ishni buzib qo'yaman. Polkovnik Ali Usmonov aytganidek, hozir mening vazifam esdalik uchun suratga tushirish, ovozlarni yozib olish, kuzatish, kuzatish va faqat kuzatishdan iborat. Qani, molni qayoqqa olib borisharkin, shuncha gazmol, shuncha kiyimlarni bu chayqovchilar boshlig'i qayerga joylar ekan. Lekin, yurakdan ham bor ekan-da zig'ircha tap tortmaydiya, qoyi-ey!

Mashinaga chiqib, Mutal bilan Orifning gaplarini eshitib ketish niyatida kabinkaga yaqinroq o'tirdim. Omadimni qarangki, mashinaning orqa oynasi singan ekan, ularni bemalol ko'rish, ovozlarni ham baralla eshitish mumkin. Bir kilometrcha yurgan edik. Mutal:

— Izmizdan bir mototsikl yo'lga chiqdi! — deb qo'ydi. Orif chayqovchi eshikni qiya ochib, orqaga mo'traladi: — Militsioner! — dedi u kabinkaning eshigini qarshilatib yopib.

— Grajdan kiyimida-ku? — U ko'pincha formasiz yuradi, — tushuntirdi chayqovchilar boshlig'i.

Men, qani kim kelayotgan ekan deb, orqaroqqa borib brezentni sal ko'targan edim... nimalar bo'lyapti o'zi, nima balo, bugun barcha og'aynilarim bilan ko'rishadigan, kunmi deyman!.. Mototsiklda boshini egib, peshanasi bilan havoni

suzib kelayotgan mening tanishim, yaqinda unvoni oshirilib, shu atrofga uchastkovoy etib tayinlangan Sur'at aka edi.

«Demak, u ham chayqovchining iziga tushibdi-da. Xayriyat, yolg'iz emas ekaman, zarur bo'lsa, ikkovlashib harakat qilamiz», deb o'yladimu, o'zimdanda o'zim seviniib ketdim.

— O'ngga bur! — qichqirdi chayqovchi.

— Ko'chening boshi berki! — O'sha ohangda javob qaytardi shofyor.

— Chapga ol bo'lmasa.

— Yo'l tor, mashina sig'maydi.

— Gaz ber, gaz!

— O'zingni bos, o'pkal! — parvosiga ham keltirmay dedi o'g'iri.

Tekis, ravon yo'lga chiqqach, mashinaning spidometri yuzni ko'rsata boshladi. Chayqovchi qo'rqanidan dastmoldovog'dek burishib boryapti, Mutal bo'lsa pinagini ham buzmay, hushtak chalyib keyyapti.

— Hozir miyasini anjirdek ezaman! — dedi hushtak chalishdan to'xtab u.

— Urmoqchimisani?

— Yo'q mototsiklini yaqinroq keltiraman-da, to'satdan tormoz beraman.

— Tadbirkor yig'itsan, Mutal.

— Bunaga ishni birinchi bor qilayotganim yo'q.

Shoshib qoldim. Nima qilsam ekan? Yaqinlashib kelayotgan xavfdan, men uchun juda qimmatli bo'lgan Sur'at akani qanday ogoh qilsam bo'larkan? Boshimdan galpog'inni olib, o'zimni tamitib, ehtiyot bo'ling, deb baqiraymi, ha, ha, shunday qilaman, shunday!

— Gi'yyyyyg'g'! — teskari ag'darilib tushdim. — Demak, tormoz berildi. Kech qoldim, kech! Bechora Sur'at aka-ey! Jonholarda brezentni ko'tardim, qiziq. Sur'at aka yo'q. Sakrab pastga tushdim. Uchastkovoy ikki yuz metrcha oldinda mototsiklini o'qdek uchirib boryapti. Behuda tahlilkaga tushgan ekaman. Sur'at aka men o'ylaganchalik



sodda emas ekan. To'satdan tormoz berib qolishlarini hisobga olib mototsiklini sal chaproqdan haydab kelayotgan ekan. Qoyil! Sur'at aka! Bekoraga uchastkovoy qilib ko'tarilmagan ekan.

— Orqagal — entikib dedi Orif chayqovchi.

— Baqirma. Sen aytmasang ham bilaman.

Mashina ko'z ochib-yumguncha orgasiga burildi. Men ham ko'z yumib-ochguncha ustiga chiqib oldim. Yuz metrcha yurgach, o'ngga burilib, sertuproq yo'ldan keta boshladik. Orqadan burqsab shunangangi chang ko'tarildiki, hech narsani ko'rib bo'lmay qoldi. Sur'at aka biz tomonga burildi-yu, nazarimda yurolmay, turgan joyida to'xtab qoldi. Yarim soat chamasi qing'ir-qiysliq ko'chalardan yurgach, kutilmaganda shahar chekkasidagi asfalt yo'lga chiqib oldik. Ilon izi bo'lib, burilib-burilib chang ancha joygacha bizni quvib kelgandek bo'ldi. Bir mahal Sur'at akaga ko'zim tushib qolsa bo'ladimi! Mototsikli yo'q. Piyoda. Halloslaganacha asfalt yo'l tomon iniltardi u. Aslida unga mototsiklning keragi ham yo'q ekan. Nega desangiz, bechora mototsikldan tezroq, soatiga taxminan 100 kilometrga teng keladigan tezlik bilan yuguryapti... Ana, asfaltga ham chiqib oldi. Ustiga taxta yuklangan pritsepti mashinaga qo'l ko'tardi! E, attang, mashina to'xtamadi. Sur'at aka taxtaning uchini ushlab, bir oz yugurib bordida, sakrab, mashinaning ustiga chiqib oldi. Qorni bilan surilib, kabinaga yaqinlashib kelyapti, ana, kabinaning tomiga kaffi bilan urdi. Mashina to'xtadi. Sur'at aka kabinakaga tushib oldi. «Xayriyat, xayriyat!» — deb qichqirib yubordim. Pritsepti mashina sherdek o'kirib bizni quvib kela boshladi.

— Gaz ber, — yolvordi chayqovchi.

— Motor eski, bundan ortiq tortmaydi! — tishlarini g'ijirlatib dedi Mutal.

— Qo'lga tushdiki!

— Tirik qo'lga tushadigan ahmoq yo'q.

— Rasvo bo'ldik, tamom bo'ldik!

— Yig'lama, hajiqizi! — shunday deb Mutal chayqovchining ko'krasiga tirsagi bilan bir turtgan edi, uning yuragiga tegdi shekilli, ko'zlari olayib, ovozi ichiga tushib ketdi.

Pritsepti mashina yonimizdan pishqirib o'tdi-yu, yo'lning o'rtasiga tushib, orqa chiroqlarini barobar yoqib «to'xta» degandek, ketma-ket signal bera boshladi.

— Yondan borib uraman! — qora terga botib dedi o'g'ri.

— Lo ilohu ilollohu... — kalima ketira boshladi chayqovchi.

— Yo Jamshidi! — degan hayqiriq eshitildi. Mo'jiza yuz berdi, ha, ha, mo'jizal! Qatiq tormoz qilingan mashina churpirak bo'lib bir aylandi-yu, orgasiga o'girilib qoldi. Chayqovchi ko'zini ochib:

— Hazrati Bahovuddinga yetti tanga atadim! — deb qo'ydi.

— Menga-chi? — so'radi o'g'ri.

— Sening kira haqingga yana ellik bola qo'shdim... Faqat nomerini bilib olgani chakki bo'ldi-da.

— Bo'lmasa, yana ellik so'm qo'sh.

— Nega?

— Men mashinaning nomerini o'zgartirib olganman.

— Rost aytyapsanmi, akasi bo'yidan?

— Orqa va oldingi nomerlar qalbaki, boshqa oblast mashinasining nomeri.

— Bo'yingdan o'tgelay, tadbirkor ukam! Yana yuz so'm qo'shdim.

Orqaga qaytib, yana bir soatcha yelib-yugurdik. Nihoyat, mashina to'xtadi. Shofyor kabinakadan sakrab tushib, nomerlarini o'zgartirib oldi. Kuzov ustiga yozilgan brezentni surib, mollarning ustiga yopdi-da, dala yo'lidan shaharga qarab kirib bordi.

Mollarni chayqov bozori yonidagi chaqaloqlarga beshik yasab sotadigan ko'rimsizgina bir do'konchaga tushirishdi.

## POLKOVNIK ALI USMONOVNING RELJASI

— O'rtiq Ro'ziyev, gani suratlarini ko'rsating-chi?

— Marhamat.

— Qani, magnitafoni qo'ying-chi.

— Marhamat, eshishlaringiz mumkin.

Ikki polkovnik bilan mayor Xoligov Mahsum pochlamani suvga pishayotganlarida yozib olingan yo'g'on-ingichka ovozlarni eshitib, avvaliga jim turishdi-yu, keyin uchovlari baravar kuthib yuborishdi.

— Obbo, shaytonlar-ey, suvga pishishdimi-a? — zavqi oshib so'radi Ali Usmonov.

— Xuddi shunday, suvga pishishdi.

— Lekin boplashibdi, ofarini!

— Azamat qizlar ekan! — deb qo'ydi Salimjon akam ham. Gap aylanib borib, beshik yasaladigan do'konga berkitilgan molga taqaldi. Ma'lum bo'lishicha, mendan bir soatcha oldin uchastkovoy Sur'at aka jinoyat qidiruv bo'limiga telefon qilib, aralash mollar bilan savdo qiluvchi magazindan olingan kiyim-bosh va gazlamalar qo'shni oblastga o'tib ketdi, ruxsat bersangiz orqasidan bormoqchiman, degan ekan. Mening gaplarimni eshitib, mayor hangu mang bo'yib qoldi. Bu gaplarga ishonishni ham, ishonmasligini ham bilmay, bir oz ikkilandi-da, nihoyat, ishonishga qaror qildi shekilli, sekin o'rtidan turib:

— Barakallo, o'rtiq Ro'ziyev! — deb yana o'rniga o'tirib oldi.

Beshik yasaladigan do'konga berkitilgan molni shu kechasi yoq tappa bosib, chaygovchi bilan o'g'irini qo'lga olish kerakmi yoki sabr qilish to'g'iriroq bo'ladimi, shu xususda bahs boshlanib ketdi. Agar mol bugun qo'lga olinsa, biz iziga tushgan boshqa jimoyatchilar hushyor tortib, yashirin qo'ygana tuzoqqa ilimay qolishlari mumkin. Bordini-yu, unga tegilmasa, bir mashina xaridorgir, noyob atlasu shoyilar, paltoyu kiyimliklar chaygovchilar qo'lga o'tib ketishi mumkin.

— Men bu chaygovchilarga bir metrini ham bermayman! — qizishib dedi mening boshlig'im.

— To'g'ri, chaygovchiga sharoit yaratib berib, tomoshabin bo'yib o'tiraverishimiz o'rinni emas, — shoshmasdan gapira boshladi Ali Usmonov. — Lekin shu bir mashina molim deb, katta bir ishini barbod qilib qo'ymanlikamiz, men shundan qo'rg'yapman.

— Ba'zan mehnatkashlarning kayfiyatini ham hisobga olishimiz kerak, polkovnik!

— Biron gap eshitdingizmi, ustoz?

— Jinoyatchilar yallo qilib yurishadi-yu, militsiya ko'rib ko'rmaslikka oladi, deysihyapti...

— Salimjon aka, siz meni hamisha sovuqdon bo'lishga o'rgatib kelardingiz, shundaymi? — kuthib so'radi Ali Usmonov. — Lekin bu gal o'zingiz qizishyapsiz.

— To'g'ri aytiding.

— Chunki, — deb davom etdi Ali Usmonov, — sizga tuhmat qilishgan. Tezroq uni fosh qilib, el oldida yuzim yorug' bo'lsa deysiz.

— Bu gaping ham to'g'ri. Ochig'i, shu kunlarda ko'chaga chiqolmay qoldim.

— Lekin, sabr qilishdan o'zga choramiz yo'q. Keyin, hurmatli Salimjon aka, — bir oz o'ylanib qoldi rayon militsiya bo'limining boshlig'i, — ochiq aytganim uchun xafa bo'lmang, kuzatuvchilaringiz landovur ekan. Odli Abbosov uch kundandan buyon shaharda yo'q, qayerdaligini hech kim bilmaydi.

— Komandirovka qog'ozi bo'yicha aytadigan bo'lsak, — gapga aralashdi mayor, — direktor oshxonaga go'sht olish uchun oblast markaziga ketgan.

— Shaharda go'sht tiqilib yotibdi-ku, — e'tiroz bildirdi Ali Usmonov.

— Go'sht bir bahona, — o'z fikrini bayon qildi Salimjon akam, — aslida o'g'irlik mol axtarib ketgan.

— To'g'ri aytasiz, — tasdiqladi Ali Usmonov, — aftidan uning hamma shaharlar bilan aloqasi borga o'xshaydi.

— Men ham shuni aytmoqchi edim, — tasdiqladi mayor Xoligov.

Xullas, beshik yasaydigan do'kongga berkitilgan mollarga qorovul qo'yiladigan bo'ldi. Ya'ni, do'kning yaqinida bir militsiya xodimi hech yoqqa jilmay, shu bilan birga do'konda mol berilgidan mutlaqo bexabar bir kishidek, har xil narsalarni bahona qilib, shu atrofda o'ralshib yurishi kerak, degan xulosaga keldik. Xo'sh, bunday vazifani kim uddalay olishi mumkin?

— Shu keclasi o'sha do'kning qarshisiga avtoinspeksiyaning posti tashkil etilsa ganday bo'larkin?

— Shu soatda, shu soatning o'zida! — deb sevinganidan o'rmidan turib ketdi Salimjon akam. — Lekin, Ali Usmonovich, topqir yigitsan-dal Rejalarning hamisha kutilmagan, favqulodda rejalar bo'ladi.

O'sha kungi kengashimizda yana bir narsani muhokama qilib chiqdik. Kapitan o'troq Hoshimovning aytishicha, chaqaloqning onasi Sharifa to'satdan yo'q bo'lib qolgan. Uni sir ochilishidan qo'rqib, o'ldirib biron chugurga ko'tarib yuborishgan bo'lishlari ham mumkin... Lekin, oshxona direktori ham uch-to'rt kundani buyon yo'q. Bordi-yu, qayoqqa bo'lsa ham, birga ketishgan bo'lishsa-chi... Birga ketdi, deb faraz ham qilaylik, unda ikkovlari birlashib ganaga ish bajarishlari mumkin? Nima bo'lganda ham, oshxona direktori ustidan nazorat olib borayotgan kishi ishini rasvo qilgan, endi unga bunagangi mas'ul vazifani ishonib topshirib bo'lmaydi.

— O'troq Ro'ziyev! — menga murojaat qildi Ali Usmonov.

— Eshitaman, o'troq polkovnik!

— Siz...

— Bu ishning ham uddasidan siz chiqasiz, demogchimisiz?

— Husulyor yigitsiz-da, Hoshimjon!

— Salimjon akamning tarbiyasini olganman-da.

— Rahmat, ukal, ishonaman-ki...

— U sariq dev hozir qaysi tog'da makon qurganini ertagayoq bilib beraman, ketsam maylimi?

— Koridorga chiqib turing, lekin ketib qolmang.

Koridorga chiqdimu, o'ylanib qoldim. Nega endi meni chiqarib yuborishdi yoki mendan yashiradigan biron gap chiqib qoldimikan? Eshikka yaqin kelib, kalitning o'rni qulog'imni turdim. Ali Usmonovich: — Bu yigit kelirayotgan qimmatli hujjatlar meni dovdiratib qo'ydi. Esimni tamganimdan buyon biron militsiya xodimi ishini bunagangi qoyillatganini bilmayman. O'zingiz o'ylang. Jinoatchining har bir odinini suratga tushirish, har bir so'zini yozib olish, bu oson ish emas! Axir ular ham anoyi odamlar emas, rasmni oldirib qarab turaversal! Yo'q, bu yigit yo'q sehrigar, yo'q favqulodda talant egasi... — degan edi, Salimjon akam.

— Gaping to'g'ri, Hoshimjon katta iste'dod egasi. Esingda bormi, avvalgi yili Leningradda bir qizni ko'rdim, ko'zi shunagangi o'tkirki, yetti qavat po'lat sandiq ichidagi hujjatlarni ham bema'lol ko'ra oladi, degan edim. Hoshimjonda ham o'shanagangi, sen bilan mening aqlim yetmaydigan bir qobiliyat bor. Yaxshisi, unga ishonib, undan foydalamb qolaylik, — dedi.

Shu payt bir qiziqchilik qilgim kelib qoldi. «Kun bo'yi peshanalarini tirishirib, tartibbuzari!»u jinoatchilar haqida o'ylab, yuraklari qon bo'lib ketadi, tushlarida ham jinoatchilar bilan olishib chiqishadi. Bir kuldirib charchoqlarini tarqatay», dedim-da, boshimga galpogchamni kiyib, huzurlariga kirib bordim. Uchovlari ko'ksilarini berib subbattashayotgan stol ostiga kirib, boshimdan galpog'imni olib, chaqirishlarini kutib turdim.

Salimjon akam eshikni qiya ochib:

— Hoshimjon! — deb chaqirib qoldi.

— Men bu yerdaman! — deb stol ostidan chiqib keldim.

— Ovozlaringizni yozib o'tiruvdim...

Avval haykaldek qotib qolishdi, keyin bir-birlariga qarab yelka gisishdi, oxirida, xaholab, baravariga kulib yuborishdi.

Mayor Xoliqov juda qattiq kularkan, o'ziyam tug'ilganidan buyon mana shunagangi tizzalariga shappalab urib, ko'zlaridan yosh chiqib, huzur qilib kulishi birinchi marra bo'lsa kerak.

#### SHARIFA O'LINIGA HUKM ETILDI

**B**ugun, negadir, barvaqt uyg'ondim. Uyg'onishga uyg'ondimu, o'mimdan turgim kelmay, shirin-shirin xayollar surib, qiladigan ishlarimning rejalarini tuzib, jimgina yotaverdim. Siz qanaqaligingizni bilmayman-ku, lekin mening miyam yurayotganimdagiga nisbatan, oyog'imni uzatib yotganimda yaxshiroq ishlaydi. Mana hozir ham ajoyib bir fikr boshimga kelib qoldi. Bordi-yu... ha, ha, xuddi shunday qilaman. Lutfi xolam stolga qo'yib ketgan sutni, o'ziyam qaynoqqina ekan, bankasi bilan ko'tarib ichdim-da, yo'l-yo'lakay lab-lungimni artib, telefonga yugurdim.

Rayon matlubot jamiyatining omborchisi, xo'ppa seniz amakining nomerini topib, qo'ng'iroq qildim.

— Eshitaman! — xuddi burmidan chiqqanga o'xshash manqa bir ovoz bilan dedi amaki.

— Assalomu alaykum! — dedim cho'zib.

— Gapingni aytaver, kimsan?

— Ana shunaga ovozingizni ham tanimay qolasiz-da, — deb o'pkalandim.

— Har kuni mingtang telefon qilasan, qaysi biringni ovozingni eslab qolaman.

— «Rohat» oshxonasining soyai davlatingizda o'ynab yurgan buferchisiman.

— Zokir baqaloqman degin? Lekin ovozing juda ingichkaku!

— Xo-xo-xo-xo! — qotib-qotib kulgan bo'ldim jo'rttaga.

— Askiyalaringizni yaxshi ko'raman-da, akaxon!

— Ha, nima gap?

— Odil akam men kelguncha biron muhim gap chiqsa, shu akaxoning bilan maslahatlash degan edilar...

— O'zi bugun qaytadi-ku! — Xo'ppa seniz amakining yoniga birov kelib qoldi shekilli, past ovoz bilan «birpas chiqib tur, ahmoq», deb urishdi-da, so'ng yana menga gapira boshladi: — Kechasi telefonda gaplashdik... Oshni qachon yeymiz?

— Qanaqa osh? — dedim hech narsa tushunmay.

— OBXSSdan eson-omon qutilganingga osh qilib bermaysanmi, xasis!

— Osh ham gapmi, — deb xaholab kuldim yana, — shohona ziyofat qilib beraman!

Shunday deb, xayr-ma'zurmi ham nasiya qilib, trubkani o'rmiga qo'ydim.

Tushdan so'ng olis safardan qaytayo'tgan baxti qaro direktorni izzat-hurmatini joyiga qo'yib kutib olish uchun aeroportga yo'l oldim. Andak bo'lmasa, kechikib qolayozibman. Odil battol taksiga o'tirmoqchi bo'lib turgan ekan, birgalashib oshxonaga qaytdik. Xodimlari bilan qo'l uchida so'rashdi-da, charchadim, birpas mizg'ib olay, deb eshikning ichidan berkitib, allakimga telefon gila boshladi. So'ragan kishisi yo'q ekan, jahli chiqib:

— Ivtachehal! — deb qo'ydi.

Keyin xona o'rtasida tik turganicha, bir ko'zini xiyol qisib, ostki lablarini tishlab, o'yg'a tolib ketdi.

Telefon jingladi.

— Kim kerak? — so'radi Odil battol ovozi tishlarining orasidan chiqazib.

— Eson-omon qaydingizmi? — quvnoq ovoz eshittildi trubkadan.

— Eh, omborchi, senmisan? Qalay, ishlaring yaxshimi? Mollarni targatib oldingmi? — Bahri-dili ochilib ketdi direktorning. — Shahar tinchlikmi?

— Juda tinchlik ham emas, juda betinch ham emas.

— Tushunarli.

— Qalay bo'ladi ishlaringiz?

— Bizning oshing'imiz hamisha olchi-da! — ko'zlarini qisib, yengilgina kulib qo'ydi direktor. — O'n besh kundandan so'ng omboring molga to'lib ketadi. Suyunchini tayyorlayver...

Xo'ppa semiz amakidan so'ng Mutal o'g'ri telefon qilib, «juda muhim maslahat bor, telefonda aytib bo'lmaydi, uyingizga borsam maylimi», degan edi, Odil battol bir oz o'ylanib turdi-da: «Bo'lmasa kech soat to'qqizda Mugimiy parkining orqa eshigi oldida uchrashamiz, o'zing bilan Sallabodroqni ham olib kel», deb tayinladi. Shundan so'ng uch-to'rt joyga qo'ng'iroq qilib, allakimlar bilan hech tushunib bo'lmaydigan, qilib gaplasha boshladi. «Somonxonaga xashak tashlayman», dedi, «hamma joyda shamol», «ko'z ochib bo'lmaydi» dedi, «qurruq qoshiq og'iz yirtadi» degandek ham bo'ldi...

Men sabrsizlik bilan qorong'i tushishini, Sallabodroq, Mutal o'g'rilar bilan bo'ladigan uchrashuvni kutardim. Har galay, muhim bir gap bo'lsa kerak. Odil battol ancha-muncha joyga boradigan bekorchilardan emas, u har bir qadamini o'lchab bosadi, foydasi tegmaydigan joyga o'tib yuborsangiz ham bormaydi.

Kech kira boshladi. Maydalab yog'ayotgan yomg'ir qorga aylanib, daraxtlarning yalang'och novdasi, tomalar oppoq oqarib qoldi. Birgalashib chiqib taksi kuta boshladik. Shamol turib, daraxtlarning shoxini bir-biriga ishqab, qorlarni to'kib, ko'z ochirtmay qo'ydi. Elektr simlari uzildi shekilli, ko'chada lampochkalar o'chib, atrofga shunangangi bir qorong'ilik tushdiki, tag'in yo'qotib qo'ymay, deb qo'rqanmndan baxti qaro direktorning o'ngiridan ushlab olishga majbur bo'ldim. Havo sovuq, ikkiniz ham dag-dag' qalitrab turibmiz.

Parkning orqa darvozasi oldida taksidan tushdik. Odil battol sumkasidan to'pnoncha olib, o'qi bor-yo'qligini tekshirib ko'rdi-da, o'tishga shay qilib, qo'ltig'iga solib qo'ydi. Ana, huv narida ikkita gora ko'rindi. Devdek bahaybatlisi, hoynahoy, Sallabodroq bo'lsa kerak. Yonidagisi, sovuq qotganidan bo'ymini ichiga tortib kelayotgani Mutal, albatta.

Sovuqqina ko'rishib, bir-birlaridan hol-ahvol so'rashgan bo'lishdi.

— Sallabodroq, — murojaat qildi Odil battol.

— Eshitamam, ustoz.

— Bugun kechasi somonxonaga yem-xashak kelib tushadi, — direktor u yoq-bu yoq'iga nazar tashlab oldi, — ertaga yarmini katta sigiringga olib borib berasan.

— Xo'p bo'ladi, ustoz.

— Qolgan yarmini ikkiga bo'lib, bir qismini buzoqchangga elib tashla.

— Qolganini-chi? — shoshilib so'radi Sallabodroq.

— Qolganini ho'kizingga ber.

Qiziq, nega bular bunaga qilib gaplashishadi. Axir, baxti qaro direktor buzoqchalar boqiladigan fermaning mudiri emas, boshqa shaharlarga ham xashak tayyorlagani borгани yo'q-ku. Axir, mana bu gora dev ham hech molboqarga o'xshamaydi!

— Xizmat haqini qachon olaman? — sal tortinibroq so'radi Sallabodroq.

— Yigirma yetinchida, — deb direktor yana u yoq-bu yoq'iga qarab oldi. — Endi nariroqqa borib tur. Mutal bilan gapimiz bor, sharpa sezsang, hushtak chal.

Odil battol Mutal o'g'ri qo'ltiqlab parkka kirib ketdi. Ustini qor bosgan temir skameykaga o'tirib, portfelini tizzasiga qo'ydi-da, sovuqqotgan qo'llarini bir-biriga ishqalab, andak isitgan bo'ldi. Shamol kuchaygandan kuchayib qor uchqunlarini yuz-ko'zlarimizga urib turibdi. Daraxtlarning shoxi bir-biriga tegib, allaganday vahimali ovozlari chiqaradi, sim yog'ochlarga tarang tortilgan elektr simlari, nazarimda hushtak chalayotganga o'xshaydi. Butun borliq vahima ichida qolgandek.

Magnitofonni naq tumshuqlarining ostiga keltirib turdim. Qani endi ovozlari radioga ulab, butun oblastga eshittirsang, degan fikr o'tdi boshimdan.

— Tinchlikmi? — patosining yoqasini ko'tarayotib so'radi Odil battol.

— Sharifani gamab qo'ydim, — axborot berdi Mutal.  
 — Qayerga?  
 — Toshbuloq ko'chasidagi yigirma ikkinchi uyga, ikkinchi qavatning oltinchi xonasida turibdi hozir.

— Nega gamading?  
 — Fe'li aynagan.  
 — Sotmoqchini?  
 — Shunga o'xshash...  
 — Nega aynab qoldi, sababini surishtirmadingmi?  
 — Nazarimda, kapitan Hoshimova yo'ldan urganga o'xshaydi. Aytishlaricha, kapitan bironlarning ko'ngliga qo'l solishga juda usta emish. Sharifa bilan ikki-uch bor uchrashdi-yu, ishning rasvosini chiqardi. Sharifani ishga kiritishga, hamma ayblarini bo'ynidan olib tashlashga, kelasi yil bir xonali uy ham olib berishga va'da qilibdi. Hatto, bolangni bog'chaga joylab, o'zingni kechki maktabga o'qishga kiritaman, degan gaplarni ham aytibdi.

— Niyati buzilganini qayerdan bilding?  
 — Kechasi uyiga kirib, mana bu xatni topib oldim.  
 — Ko'p narsa yozibdimi?  
 — Ha.

— Agarda u iqror bo'lsa, hammamiz rasvo bo'lamiz!  
 — Shuning uchun qanab qo'ydim.  
 — Uni... tinchitish kerak! — o'rnidan turib ketdi Odil battol. — Xo'inning jazosi — o'lim!

Mutal o'g'ri ham o'rnidan turdi:  
 — Men ham shu fikrdaman, ustoz!  
 Ikkovlari bir-birlariga tikilishib jin qolishdi. Entikib, chuqur-chuqur nafas olislyapti. Qani endi, ularning sirini ochmoqchi bo'lgan Sharifa shu yerda bo'lsa-yu, go'shtini tiriklayin yeyishsa!

— O'ldirish kerak, — xuddi o'ziga-o'zi gapirgandek g'uldiray boshladi baxti qaro direktor, — shu kechasidan goldirmay gum qilasan. Hoji bo'lsa, bo'g'ro' o'ldirib, so'ng anihorga tashlaysan. Lekin, shoshmay tur.. Bor'di-yu, uning

o'limidan foydalanib qolsak-chi, ha, foydalanamiz! Uning nomidan polkovnikka xat yozib qoldiramiz.

— Xat yozishga ko'mmasa-chi? — tashvishlanib so'radi o'g'ri.

— Xatni sen yozasan, ikki nusxa yozasan. Bir nusxasini cho'ntagiga solib qo'lasan. Ikkinchi nusxasini ministrlk nomiga bitib, shu kechasidan goldirmay, pochta qutisiga tashlaysan.

— Nima deb yozaman?

— Nima deb yozsa bo'lar ekan-a... Nima bo'lganda ham ishonarli qilib yozish kerak. Hamma aybni polkovnikka to'rtak: «Mana, nomard er, murodingga yetding! Bolangni boqmasang, menga qaramasang, el o'rtasida sharmandai-sharmisor bo'ldim! Bunday benomus bo'lib yashagandan o'lganim ming marta yaxshi! Xayr, ey yaxshi odamlar. Hamma umidim sizlardan, men uchun, o'n gulidan bir guli ochilmay isnodga qolib o'lgan yetmicha qiz Sharifa uchun polkovnik Salim Otajonovdan o'ch olinglar! Uning gaplariga ishonmanglar, menga o'xshab sizlarni ham aldab qo'yadi... Xayr, ey bevafo dunyo!» deb yozasan.

— Bu gaplaringiz esimdan chiqib qoladi.  
 — Ishqilib, shunga o'xshatib yozasan-da.

— Yaxshi.

Magnitofonim lentasi uzilib, hushtrak chalganga o'xshash g'alati ovoz chiqargan edi, bu hushtakni Sallabodroq chalyapti, deb o'ylashdi shekilli, battol bilan Mutal o'g'ri ko'z yumib-ochg'uncha skameykaning ostiga kirib ketishdi. O'sha yerda yotib, bir-biriga peshanasini tirab, gaplasha boshlashdi:

— Ministrlikka yozgan xatni ishni bitirganingdan keyin pochta qutisiga tashla.

— Xo'p.

— Lekin, xatni shu kechasi, albatta tashla.

— Yaxshi.

— Xatni qayerda yozasan?

— Uyda.

— Demak, Sharifaning oldiga soat o'n birlarda borar ekansan-da?

— Ha.

— Anhor bo'yiga olib chiq.

— Yaxshi.

— Anhor bo'yiga yetguncha niyatingni sezdirma.

Bazimga boramiz, o'ynatib kelaman, de.

— Xo'p.

— Xushyor bo'li!

— O'rgatmang.

Engashib, o'g'riining cho'ntaklarini kovlagan edim, o'ntacha qalit topib oldim. Birtotasi Sharifa berkingan xonaga to'g'ri kelib qolar deb o'yladim u, parkning darvozasiga qarab yugurdim.

#### «YODCORBEGIM TIRIKMI?»

Nima qilish kerak, nima qilsam, Sharifani o'limdan qutqarib qolishim mumkin? Avval idoraga borib, bu slum xabarini Ali Usmonov bilan hurmatli boshlig'im Salimjon akamga yetkazaymi yoki avval Sharifa qamalgan uyga yuguraymi? Tavba qildim-ey. Buncha shoshib, entikmasam!

— Xo'sh, qalpoqcham, sen qanday fikrdasan? — deb so'radim qadrdomidan.

— Toshbuloq ko'chasiga qarab yugur! — maslahat berdi qalpoqcham.

— Bemaslakat ish tutib, boshliqlarimni ranjitib qo'yamaymanmi?

— Aksincha, xursand bo'lishadi sendan.

— Rahmat, qalpoqcham!

— Tezroq, tezroq yugur, Hoshimjon!

Taksi to'xtaydigan bekarga yugurdim. Ana xolos, bunisi necha puldan, tushdi endi! O'g'ri Mutal mendan oldin yetib kelibdi-ku! Nima balo, u ham menga o'xshab selgurami,

deyman. Shartta boshimdan qalpoq'imni olib, o'g'riga yaqinlashdim:

— Grajdamin, soat necha bo'ldi?

Mutal o'ng qo'lini cho'ntagiga soldi. Nazarimda, to'pponchasi borga o'xshaydi, o'shani paypaslab:

— O'rtoq sejtant, kechirasiz, soat taqmayman, — deb o'rni bo'lmasa ham, xi-xilab kulib qo'ydi.

— Taksi kutyapsizmi? — so'radim yana.

— Ha, aeroportga chiqishim kerak edi. Ustida oppoq qori bilan «Volga» kelib to'xtadi. Ikkovimiz baravar eshikka intilgan edik, Mutal:

— O'zingiz millitsiya xodimisizu, tartibni buzasis-a, — deb o'qraydi menga. — Avval men ketaman!

— Kechirasiz, men ham aeroportga bormoqchiman.

— Unda bemalol, men boshqasida ketsam ham bo'ladi, — deb Mutal menga yo'l berdi.

Qor yog'ib, shamol esib turgani uchun Toshbuloq ko'chasidagi yigirma ikkinchi uyini topguncha naq ona sutim og'zinga keldi. So'ray desam, ko'chada zog'yo'q, o'zim topay desam, bu atrofdagi uylar yangi tushgani uchun hali nomer osilmagan ekan. Bu yoqda esa, vaqt yaqinlashib qolyapti...

Hamma uylarda chiroq bor, ikkinchi qavatdagi bir xona qop-qorong'i. Tavakkal qilib, o'sha xonaning eshigini qoqdim. Javob bo'lmagach, meni o'g'ri deb millitsiyaga ushlab berishsa berisha qolsin, dedim-da, haligi kaitlardan biri bilan eshikni ochdim. Ichkari ham go'ristondek qop-qorong'i, paypaslab chiroqni arang topdim.

— Voy! — bir ayol divanda yotgan ekan, qo'rqi b choyshabni tortib oldi boshiga.

— Kechirasiz, Sharifa Usmonova emasmisiz? — yaqiniga borib so'radim.

— Tanimayman uni, — battaroq o'raltib oldi ayol.

— Ey attang, — dedim go'yo tarvuzim qo'ltig'imdan tushgandek bo'lib, so'ng orqaga qayta boshladim. — Bechoraning o'g'lichasi millitsyaning bog'chasida edi. O'lib qoldi! Shuni xabar qilgani keluvdim...

— Yodgorbegim o'ldimi? — Ayol bir galgib, boshini ko'tardi. Oq choyshabga o'ralib olgani uchunmi, shu turishida, u xuddi tobutdan boshini ko'targan murdaga o'xshab ko'rinardi. «Ha, qo'lga tushmay ko'r-chi!» deb o'yladim: — Men kelayotganda tirik edi, — deb yana orgamga qaytdim.

— Tirik edi, nima qildi unga?

— Bir militsionerning to'pponchasini o'ynab o'tirgan ekan, o'zini-o'zi otib qo'yibdi.

— Voy sho'im!

— Qo'rqmang, to'pponcha o'yinchog to'pponcha ekan, hech narsa qilmabdi...

Borib eshikni ichidan qulflab keldim. Divanning bir chekkasida o'tirib, Mutal o'g'ri bilan Odil battol uni o'ldirishga qaror qilganlarini aytgan edim, ayol men unaga odamlarini tanimayman, baxtsiz bir ojizaman, meni tinch qo'yib, marhamat qilib chiqib keting, deb turib oldi.

— Ishonmayapsizmi? — andak bo'lmasa baqirib yuborayozdim.

— Ilmos, meni tinch qo'ying.

— Ovozlarini magnitofonga yozib olganman. Marhamat, eshing.

Magnitofonni qo'yib bergan edim, ayol jim yotib eshidi. Tugagach, nozik qo'llari bilan boshiga mushtlab: «Muncha baxtsiz bo'lmasam!» — deb ingradi. Ishonsangiz, bu ovozdan o'zinning ham yurak-bag'rim ezilib ketgandek bo'ldi, o'lim oldida aytilgan so'z juda ham ayancli eshitilar ekan.

— Turing o'rmingizdan! — buyurdim.

Ayol boshidagi choyshabni olib, nari irg'itdi... Yo'q, hali to'g'ri aytgan ekanman, ayolning aftiga chindanam murdaning nusxi urib qolbdi: haddan tashqari ozib, yuzlari sarig'ayib ketgan, sochlari to'z'g'igan, ich-ichiga botib ketgan ko'zlarini aytmaysizmi, shu turishda tirik odamga hech o'xshamaydi u.

— Ochiq aytin! Yodgorbek tirikmi? — g'alati bir ohangda so'radi Sharifa:

— Men sizga hazil qiluvdim...

— O'rtoq serjant, mening bu dunyoda shu boladan boshqa hech ovunchog'im yo'q.

— Tezroq kiyining bo'lmasa.

— Olib ketmoqchimisiz?

— Bo'lmasa o'ldirib ketishadi.

— Nomardlar, nomardlar-ey! Hamma qora ishlarini bировlaring qo'li bilan qilib, o'zlari oppog bo'yib yurishaveradi... Yodgorbegim tirikmi?

— Maza qilib uxlab yotibdi.

— Hozir borib ko'rsam bo'ladimi?

— Bo'ladi, faqat tezroq kiyining.

Nima bo'lganda ham ona ekan-da, Sharifa shoshib, entikib goldi. Ayol kishi o'zi juda g'alati bo'lar ekan, bir nafas kechik-sak, biror kori hol bo'lishi aniq bo'yib turibdi-yu, u bo'lsa, toshoyna oldida turib olib, goh u ko'ylagini kiyib ko'radi, goh bunisini... Tavba qildim-ey, hatto shu paytda labiga qizil surtib o'tiribdi-yal.

— Men tayyorman, — dedi nihoyat, qora sumkasini qo'lga olib.

Mutal bilan Odil battol qalbaki xat yozib, militsiyani, odamlarni chalq'itmogchi bo'lishdi, bordi-yu, biz ham Sharifa nomidan qalbaki xat yozib ketsak-chi?

— Qog'ozingiz bormi? — so'radim Sharifadan.

— Nima qilasiz?

— Xat qoldirib ketamiz.

— Kinga?

— Qo'llargal!

— Hozir mening miyamga hech narsa kelmaydi.

— Men ayib turaman. Yozing: «Qimmatli M. Bu xatni senga qoldiryapman. O'g'limdan ayrildim. Sening ishonchingdan mahrum bo'ldim, endi yashadim nima-yu, yashamadim nimal! Sir ochiladigan bo'lsa, hammamiz nobud bo'lamiz! Senga va boshqa do'stlaringa bo'lgan sadogatimni isbotlash uchun o'zimni o'ldirishga qaror qildim. Hammalaringga xayr endi! O'limim oldidan, sendan bir



bo'lsa meni o'limdan qutqaryapiti... Buning uchun kingra rahmat aytishimni ham bilolmay goldim.

— Hukumatga rahmat deng.

Idoraga yetgach, Sharifa o'g'limni bir ko'rsating, deb talab qila boshladi. Meni kechasi bolalar uyiga borish noqulay bo'ladi degan edim, u hiqillab yig'lashga tushdi. Kapitan Hoshimovaning uyiga telefon qilib, shundoq-shundoq degan edim, «navbatchi mashiradan foydalaning, darhol mushitpar onaga o'z o'g'lini ko'rsating», deb topshiriq berdi. Xizmatchilik ekan, yo'q deyolmay, kechasi borib, tarbiyachilarning shirin uyqusini buzib bo'lsa ham, chaqaloqni olib kelishga majbur bo'ldim.

Sharifa yig'lab turgan o'g'ilchasini qo'lga oldi-yu, ho'ngrab «onaginang o'rgilisin!» deya yuz-ko'zlaridan o'pa boshladi. Butun vujudi to'lg'inlanib ketgandek bo'ldi. U tishlarini g'jirlatib, bolani bag'riga mahkam bosar, to'yib-to'yib hidlar, o'par «onaginang o'rgilisin, tirkimsan! Endi seni hech kingra bermayman, bermayman!» deya entikar. Yig'lar edi...

Shu paytda negadir mehribon o'yijonimni esladim-u, men ham o'zinni tutolmay yig'lab yubordim.

— Bolam, bolaginam! — deb yig'laydi Sharifa.

— Oyim, o'yijonim! — deb yig'layman men ham.

Qonun bo'yicha bolali ayolni qamab bo'lmaydi. Shuni hisobga olib, etralabgacha Sharifa ikkimiz boshlig'imning xonasida o'tirib chiqdik.

### SALLABODROQ AMAKI

— Oshxona direktori somnonxonaga xashak keladi dedim?

— Ha, shunday dedi.

— Somnonxonasi qayerda ekan?

— Bilolmay goldim.

— Sallabodroqni ilgari bilarmiding?

— Yo'q.

— Uyi militsiya idorasining orqasida-ku!

— Bilmas ekanman.

— Ammo, buai ham qo'lga tushirganingda antiqa ish bo'lardi-da, o'g'lim.

— Albatta tushiraman.

Salimjon akam ikkovimiz shu yo'sin gaplashib o'tiribmiz. Kechagi shamol tingan, hovilar, tomalar, devorlarning ushi oppoq qor. Asta-sekin ko'tarilib kelayotgan quyosh nurlari qor ustida o'ynab, ko'zni qamashtiradi, dillar quvonadi. Tashqariga chiqib, qorbo'ron o'ynaging, yugurging, chopping keladi.

Ko'nglim tog'dek ko'tarilgan, kayfim chog'. Ishlarim yaxshi ketayotgani uchun kattayu kichik menga havas bilan qaraydi, qo'limgi qisib, rahmat aytadi. Polkovnik Ali Usmonovning po'lat sandig'ini yashirinchha olingan suratlaru, magnitafon lentalari bilan to'ldirib yuborayotganim uchun, endi menga katta ishonch va umid bilan qarab: «O'rtoq Ro'ziyev kelajakda katta qahramonliklar ko'rsatadi...» deya sheriklariga ikki-uch bor maqtay ham qo'ydi. Sallabodroq, Salimjon akamning aytishicha, ilgari ko'mir olib-so'tib, chayqovchilik ustida bir qo'lga ham tushgan ekan. Hozir bog'chada aravakashilik qilib, bo'sh vaqtlarida ko'chama-ko'cha yurib, sallabodroq sotarkan.

— Lekin... somnonxona deganlarida bir sir bor-ku, to'g'rimi, Hoshimjon? — deb sekin o'rnidan turdi boshlig'im.

— To'g'ri aytasiz, — deb men ham o'rnimdan turdim.

Sallabodroqni tezroq topib, jumboqni tezroq yechish uchun shoshilib uning uyiga jo'nadim. Chindan ham hovlisi militsiyaidorasi bilan tutash ekan. Kirsam issiqgina tanchaga bag'rini berib, nonushta qilib o'tiribdi. Oldida bir tog'ora tuxum, xotini bir boshdan archib beriyapti, u og'ziga solib, xuddi don tiqilib qolgan xo'rozdek, bo'yinini bir cho'zib, tuxumni butunicha yutib turibdi. Elliktacha tuxumni eson-omon yutib olgach, xotini tog'orada elliktacha somsa keltirdi. Somsadan so'ng yana o'sha tog'orada limmo-lim

qilib ijitma moshxo'rdan olib chiqdi — hammasi katta qoringa tushib ketdi. «Yo'q, bu odam emas, dev! Bu vijonim ayrgan ertaklardagi qora devning o'zginasi, — deb o'yladim, — bo'lmasa odam bolasi ham ovqatni shunaga ko'p yeydimi?» Devqomatli pahlavon o'rindan turib, qo'llarini kerib, uch marra kerishdi, buzoqchani ma'rashiga o'xshatib, cho'zib-cho'zib kekirdi, so'ng tikka turganicha, yarim chelek suvni ichib, aravasini qo'shib, yo'lga tushdi.

Mol egasiga o'xshamasa harom o'ladi, deganlari pagos rost ekan. Sallabodroqning oti ham xuddi devlarning otidek bahaybat, oyoqlari shunagangi yo'g'onki, naq Afrika o'rmonlarida daydib yuradigan fillarning xartumidek keladi. G'ildirak o'rni masinaning balonini ko'ydirib olgan ush ochiq aravasining ichi shunagangi kattaki, bir mahallaning ko'ch-ko'roni bema'lol joylashib ketadi, desam ishonaveyng.

— Chu, toychoq'im! — deb gamchi urdi otiga devqomatli pahlavon.

Aravada uch savat sallabodroq, yarim qop pufak, yarim qop loydan xo'rozga, qushchaga o'xshatib yasalgan, ichiga suv quyib chalsangiz bulbul bo'lib sayraydigan har xil hushaklar, yarim qop katta-kichik yelim qo'g'irchoqlar, bir qop o'yinchoq childirma, xullas, oyisi hovliga gamab, o'zi bozorqa tushib ketganda bolalarqa ermak bo'ladigan har balolar bor edi.

Arava shahar markazidan chiqib, shag'al to'kilgan tor yo'lga burligach, devqomatli pahlavon qo'lga do'ppidek keladigan childirmaxani olib, chalib, uning ohangiga moslab, ashula ham ayta boshladi.

— *Key qo'ling, sallabodroq,*

*Tugadi, qoldi ozroq*

*Makkani qovurgaman,*

*Qiyomga yo'g'irgaman*

*Shirin-shakar oq bodroq,*

*Tugab qoldi, chop tezroq,*

*Shishalardan olib chiq,*

*Puldan ko'proq solib chiq...*

Ko'z yumib-ochguncha ko'chani bola demagani bosib ketdi: birining qo'lida shisha, boshqasining changalida tanga. Biri yalangoyoq yugurib kelyapti, boshqasi oyisi bilan dadasining kovushini poyma-poy kiyib, chap qo'li bilan ishtonimi ushlab chopyapti, uchinchi bir xillari akasining orqasidan dodlab kelyapti.

Savdo avjiga chiqib ketdi, shisha bilan tangalar tepagayuv, bodroqlar pastga tushib ketaverdi.

— *Shirin-shakar oq bodroq.*

— *Tugab qoldi, chop tezroq! — deya childirmaxini chalib qo'yadi devqomatli pahlavon.*

— *Amaki, menga ham bitta bering! — deb yolvord*

*oxirida bir bola.*

— *Bor, shisha olib chiq, — dedi devqomatli pahlavon.*

— *Shisha yo'q ekan... — yig'lab yubordi bola.*

— *Pul olib chiq, pul!*

— *Uyda hech kim yo'q.*

— *Bekorga berilmaydi.*

— *To'xtang, bo'lmasa, — bola g'izillaganicha uyiga kirib, bir tovoq tuzlangan go'sht ko'tarib chiqdi. Devqomatli pahlavon engashib, go'shtni tovoq-povog'i bilan oldi-yu,*

*bolaga ikkita sallabodroq uzatdi. So'ng:*

— *Chu, toychoq'im! — deb otiga yana gamchi urdi.*

*Ot yo'rtib ketdi, bolalar orqada qoldi, childirma yana ishga tushib, ashula ham boshlandi:*

*Qushlarin bor sayroqi,*

*Qo'g'irchoqlar o'ynoqi,*

*Mana bunday o'ynaydi,*

*Mana bunday o'ynaydi —*

deganicha devqomatli pahlavon yelkalarini uchirib, bellarini burrab, hushaklar chalib, o'yinga ham tusha boshladi. Birpasda orqamizdan qo'g'irchoq olaman, deb dadasidan pul olgan qizchalar, roqatka yasab, chumchuq ovlayman,

deb bugun maktabga bormay muvulishda berkinib o'tirgan bolalar ergashib qolishdi.

— *Surnaycha-yu, surnaycha,*

*Ko'proq olgin, hoy qizchal!*

*G'ur-g'ur surnayin,*

*Vag'vag' surnayin...*

Devqomatli amakim mahalladagi jamiki bolalarning yuragiga o't yoqib, sotganiga sotib, sotmaganiga qoshini qoqib, muqomlar qilib ketaverdi.

Bir mahal bunday qararasam, shahar tashqarisiga chiqib qolibmiz. Koltuzlararo bo'rdog'chilik fermasining katta devor qo'rg'oni oldida turibmiz. Mollarga yem tarqatadigan qo'sh darvozali ombor yonida echki soqolli bir odam o'ralashib yurgan ekan, bizni ko'rishi bilan:

— Pahlavon, ho' polvon! — deb chaqirdi.

Devqomatli pahlavon o'ring boshini o'sha yoqqa burdi. Yaqiniga borgach, aravadan tushib, echkisogol bilan bir narsalar to'g'risida gaplasha boshladi. Men gaplarini yaxshi eshitolmay qoldim. Nega desangiz, xuddi shu paytda ularni suratga tushirish bilan ovora edim-da. Devqomatli pahlavon aravani katta darvozali keng omborxonaga haydadi. Men sezmagani ekanman, aravaning ichi ikki qavatli bo'lib, o'yinchoqlar tepasida-yu, osti bo'm-bo'sh ekan. To'rt tomoni tekis qirgilib, simlar bilan mahkam o'rab bog'langan, og'itilgi taxminan yuz kilocha keladigan bir toy somoni devqomatli pahlavon dast ko'tarib, aravaning tag qavatiga joyladi, uski qismiga esa yana haligidek qilib o'yinchoqlarini terib qo'ydi.

— Bugun yana keladilarmi? — so'radi echkisogol.

— Soat uchlarda, — javob qaytardi devqomatli pahlavon.

— Xudo yor bo'lsin.

— Aytganingiz kelsin!

Biz yana yo'lga tushdik. Lekin, men bir narsaga juda hayron bo'lib qoldim. To'g'risi, shuqubraga tushib, o'zimni o'zim aldaganim uchun an'dak xafa ham bo'ldim.

Somonxona deganlari ham to'g'ri ekan, xashak deganlari ham to'g'ri ekan, mana, olib kelyapmiz-ku, axiri! Bekorga Salimjon akamning ham ko'ngliga shubha solgan ekanman... «Yo'q, yo'q, to'xta, mulla Hoshim, — deb o'ylay boshladim yana, — nega endi toy qilib bog'langan somoni yashirincha olib ketaypti, ochiq olib ketaversa bo'lmaydimi? Yo'q, bunda bir sir bor. Nima bo'lganda ham boraveray-chi, tayini chiqib qolar axir. Hech bo'lmasa baxti qaro direktor tilga olgan katta sigirni ko'rib kelarman. Yashirincha somon yeydigan sigir kanaga bo'lar ekan, ehtimol qisir yoki bo'g'ozdir, ehtimol chelaklab sut beriyotgan govminshdir!

*Qushlarini bor sayroqi,*

*Do'g'irchoqlar o'ynaqi.*

*Mana bunday o'ynaydi,*

*Mana bunday o'ynaydi! —*

deb devqomatli pahlavon yana childirimasini chalb, o'yinga tushib, muqomlar qilib, orqasidan bolalarni ergashtirib keta boshladi.

Soat roppa-rosa bir yarim bo'lganda eski shahardagi laxtak magazinining oldiga yetib keldi. Peshanasi yiltiroq amaki shu yerda direktor ekanligini bilardim. Shu haqda o'yladimu, negadir, yuragim shig' etib ketdi. Axir, bu magazinni siz kuzatmang, jinoyat qidiruv bo'limi nazorat olib boryapti, deb menga ming marta tayinlashgan edi-ku. Intizomsiz deb, hayfsan e'lon qilib qolishsa-ya! Ha, mayli, bo'lganicha bo'ldi, endi orqaga qaytish yo'q. Shuncha rahmatlar eshitganda, bitta hayfsan ham olsak, olibmiz-da... Magazin direktori tushikka o'tirgan ekan, qo'lidida somsa, lunji to'la ovqat, yugurib chiqdi-da:

— O-o... — deb ko'zlari olayib, bir yutimib oldi. — Orqaga!

Orqaga olib o'ting.

— Yaxshi, — deb qo'ydi devqomatli pahlavon somsaga qarab yutimib. Aravani orqaga olib o'tib, haligai toy qilib

bog'langan somonni ehtiyotlik bilan magazinning omboriga tushirdi.

— Qorin galay, polvon? — so'radi peshanasi yiltiroq amaki.

— Ochmani!

— Shuhrat, yugur, ellikta kabob buyurib kel.

O'n minutlardan so'ng, kabob tayyor bo'ldi shakili, men tengi bir yigit kelib, devqomatli pahlavonni boshlab chiqib ketdi. Shu paytda juda ochqab, qorinim quldirab turgan bo'lsa ham, somonni poylab, omborxonada o'tiraverdim.

Peshanasi yiltiroq amaki eshikni ichkaridan qullab somon o'ralgan simlarni jon-jahdi bilan bo'shata boshladi. Simlar yechilgach, somon har tomonga to'kilib, o'rtasidan qora choyshabga o'ralgan sandiqdek bir tugun chiqdi. Direktor qora choyshabga pichoq soldi-yu:

— Xayriyat! — deb, nazarimda, kulib yuborgandek bo'ldi. Men bo'lsam «Yo'g'-el!» deb o'rimindan turib ketdim, ha-ha, o'rimindan turib, hang-mang bo'lganindan besh minut chamasi angriyib qoldim. Ko'z o'ngimda ming metrcha namozshom gulli atlas yal-yal yonib turardi... Boshqa shaharlarda ganagaligini bilmayman-ku, lekin bizning shaharda namozshom gulli atlas hozir shunaga rasm bo'lganki, ba'zi bir ayollar shu atlasni deb, eri bilan qo'yidichiqdi bo'lib yurishibdi...»

Ana hiylakorligu, mana hiylakorlik! O'g'irlik mollarni olib kelishning mana bunaga yo'llari ham bo'lar ekan-ki! Katta sigir bo'lmay ketinlar-ey, yeganlari namozshom gulli atlas bo'lsa, qaymoqlari ham xo'p yog'li bo'lsa kerak! Shunday deb, kamoli g'azabim oshganidan, o'zimni yo'qotib qo'ydim shekilli, peshanasi yiltiroq amakining yuqasidan bo'g'ib oldim. Bo'g'dimu, lekin nachora, xizmatchilik ekan, qovun tushirib qo'yamay deb qo'rqib, darrov qo'yib yubordim. Ketma-ket beshta surat olib, yugurib tashqariga chiqib ketdim.

O'sha kuni kechgacha devqomatli pahlavon bilan aravada kataysa qildim. O'ziyam, childirma ovozdin naq

quloqlarim batang bo'lib ketdi-da. Shunday bo'lsa ham, buzoqcha bilan ho'kiz deganlari kimligini aniqlab, o'g'irlik mollar yonida ularning ham suratini olmagunumcha aravadan tushmay yuraverdim.

#### BUVJONIMI MENI MILITSIVADAN BO'SHATMOQCHI

**B**ugun o'yning yigirma yettisi! Shuncha kundun buyon apparat qo'tiqdab yugurib-elganim, uyqusiz o'tkazgan tunlarimga kattakon yakun yasaladi. Bu kunni, avvalo, sabrsizlik bilan baxti garo direktor kutyapti. Jarikdagi yerto'laga o'zining jinoyatchilarini to'plab, yaxshi ishlaganlariga mukofot beradi, yomon ishlaganlarining yuqasidan bo'g'ib, yuziga tarsaki tushiradi, jinoyatlar qilish uchun yana yangi-yangi rejalar tuzadi, ha-ha, bu kunni u sabrsizlik bilan kutyapti. Militsiyaga tuhmat toshini otish uchun u hamtovoqlari bilan maslahat qilib olishi, ularga ish taqsimlashi kerak. Bu kunni xo'ppa semiz amaki ham kutyapti, pulimni o'g'irlatib qo'ydim, rost aytayapman, xudo ursin, deb qasam ichmoqchi. Dev qomatli pahlavon bugun, juda ehtiyotlik bilan ishlagani uchun sarkorning maqlovini eshitradi, eng muhimi, yalmog'iz kampir pishirgan tovuqlardan besh-oltirasini maza qilib yeb, uch-to'rt kosa konyak ham ichadi.

Chayqovchi Orif bilan o'g'ri Mural militsiyani qanday aldatib ketganlarini aytib, maqtanishmoqchi: «Ish degan mana bunday bo'pti!» — deb sheriklariga dashnom berishmoqchi. Peshanasi yiltiroq amaki bugun ataylab o'ng tomonini bosib turdi, shuncha kun ishim o'ngidan keldi, bugun ham o'ngidan kelib, sarkor yana ming metr atlas hadya qilsin, deb orzu qildi.

Ha, bugun sariq devlarning bayrami. Qadim-qadim zamonlarda devlar Ko'xiqof tog'ida bayram qilisharkan, endi bo'lsa jarikdagi yerto'lada bayram qilishadi.

Bugungi kun Yangibog' militsiyasining ham bayrami, yo'q, kechirasiz, shoshqaloqliгим qursin, jindek oldinga ketib

qolibman. Bugun bayramga tayyorlarlik, chinakam bayram ertaga — jinoyatchilar qo'liga olingandan keyin bo'ladi. Bugungi kun qanday yakunlanishini ishonsangiz, shahar militsiya boshqarmasida, ministrlikka ham sabrsizlik bilan kutib turishibdi. Bugun, protokollarda nomi O'g'irlik, Tuhmatchilik, Poraxo'rlik, Chayqovchilik, Ta'magirlik deb qayd qilingan illatlar bilan militsiya o'rtasida so'nggi jang bo'ladi. Jangoh jarikdagi yerto'la. Kim biladi, qurbonlar ham bo'lar, ehtimol Hoshimjonga daydi o'q tegib, u buvijoni bilan xayrlasholmay nobud ham bo'lib ketar...

Biz oxirgi majlisga to'planganmiz. «Sariq devni quvib» operatsiyasiga ishtirok etayotganlar: men, ya'ni serjant Hoshimjon Ro'ziyev, hurmati boshlig'im, ya'ni polkovnik o'rtog Otajonov, rayon militsiyasining boshlig'i, ya'ni polkovnik o'rtog Ali Usmonov va nihoyat jinoyat qidiruv bo'limining g'oyat tadbirkor rahbari o'rtog Xoliqov — hammamiz butun diqqat-e'tiborimizni to'plab, jinoyatchilarni bezarar qo'lga olish rejasi ustida bosh qotirib o'tiribmiz. Rejani g'oyat puxta tuzishimiz va shahar militsiya bo'limini bu haqda kunduz soat o'n birgacha, albatta, xabarador ham qilib qo'yishimiz kerak.

Shoshilish, fagat shoshilish kerak!

— Hoshim, Hoshim-u-u-u-u! — degan ovoz eshittilib qoldi to'sardan qulog'imga.

Bir sapchib tushdim, yuragim urib ketdi, axir bu buvijonimning ovozi-ku! Ha, buvijonimniki!!! U yoq-bu yoqqa o'ynagani ketsam, tomga chiqib, kattini og'ziga quvacha qilib, ana shunday ovoz bilan chaqirardi u... Lekin hozir men qayoqda-yu, buvijonim qayoqda. Ehtimol, menga shunday tuyulgandir. Axir, ba'zan sog'inganningda mehribon kishingning ovozi qulog'ingga eshitiladi, deyishadi-ku.

— Hoshim-u-u-u-u! — degan ovoz keldi yana.

— Buvijonim! — deb o'rnimdan turib, yugurib koridorga chiqsam, ha-ha, buvijonim, belini oq doka bilan mahkam bog'lab, boshiga lakkisini o'rab olibdi. Qo'lida safarga chiqqan-da olib yuradigan irg'ay hassasi! Yo'lkadagi

skameykaning ustiga chiqib, qo'lini og'ziga quvacha qilib, tinmay chaqiryapti. Bir militsioner «Xolajon, bu yer unaga shovqun soladigan joy emas», desa ham, «nari tur, hamma joy xudoning joyi», deb siltab tashlab yana chaqirdi:

— Hoshim-u-u-u-u!

— Buvijon! — deb baqirib yubordim.

— Hoshim, toylog'im!

Yomon sog'inishib qolgan ekanmiz, achomlashib ko'rishib ketdik. Entikamiz, o'pishamiz, yana achomlashamiz.

— Tirikmisan, toylog'im?

— Tirikman, buvijon!

— Ke, tag'in bir achomlashaylik, bolaginam, ko'zimming nuri, nega xat yozmaysan?

— Xizmatchilik, buvijon.

— Xizmatning boshingdan qolsini! Yuragimni ezib yubording-ku! Bor, dadang bilan ko'rish endi.

Qaramagan ekanman, dadam naritroqda turgan ekan. Egnida kunduzli palto, oyog'ida katta kerzi etik, boshida quloqchin. Paltoni shunagangi uzumidan olibdiki, etagi polga tegay-tegay deb turibdi, yelkasida ikki ko'zi liq to'la xurjun.

— Dadajon!

Dadam yelkasidagi xurjunni ehtiyotlik bilan yerga qo'ydi-yu, ko'rishayotib, negadir, pigillab yig'lab yubordi. «Dada, dadajon!» dedim-ku, men ham o'zimni tutolmadim. Bechoraga juda qiyin, oyim bilan buvijonim ko'z ochirgani qo'ymaydi. Kunbo'yi dalada. Boshqalarga o'xshab bunday bir dam olsa-chi, qayoqda, dam olganda ham savat to'qib o'tiradi.

— Yig'lamang, dada! — dedim nihoyat o'zimni qo'lga olib.

— Qara-ya, katta yigit bo'lib ketbsan, — dedi dadam qadoc katti bilan ko'z yoshlarini artib.

— Oyim yaxshimlar?

— Jan urarmiidi uni?!

— Oysha, Donolar-chi?!

— Chopqillashib yurishibdi.

— Zokir-chi? Ishlari yaxshimi?

— Yaxshi. Senga rezinka tayov berib yubordi.

— Uni nima qilar ekanman?

— O'g'rilar bilan mushdhashganda kerak bo'ladi, dedi.

— O'b-bo, Zokir-ey!

— Medal oldi, paltosining ustidan taqib yuribdi.

Xuddi shu payt buvijonim bizga yaqinlashib:

— Ro'zi, ko'tar xurjanni, shuncha yalashganing ham yetar, — deb buyruq berib qoldi.

— O'rtoq Ro'ziyev! — deb chaqirdi koridorning narigi boshida turib Ali Usmonov. Ovoz chiqqan tomonga borayotgan edim, buvijonim:

— Hoshim! — deb to'xtatdi. Buvijonimga o'g'rilgan edim, orgamga qaytayotganimni ko'rib, Ali Usmonovich:

— O'rtoq Ro'ziyev! — dedi zarda bilan. Bir sakrab tushib, beixtiyor o'sha yoqqa yura boshladim.

— Qayt bu yoqqa! — buvijonim qo'lidagi igr'ay hasssa bilan polni bir urib qo'ydi.

Shundan keyin, koridor da goh o'ngga, goh chapga burilaverib naq garang bo'lib ketayozdim. Rahbarim oldiga boray desam, buvijonim qolib ketyapti, buvijonimga boray desam, ko'rib turibsizki, u yoqdan qo'yishmayapti.

Ali Usmonov kirib ketdi-yu, Salimjon akam chiqib kela boshladi. «E, ha, mehmonlar kelib qolipti-ku!» deb, dadam bilan qo'l berib ko'rishadi, so'ngra buvijonim bilan ko'rishmoqchi bo'lib yaqinlashayotgan edi, «sehrgarlik ilmidan xabari bor» deganim yodiga tushib qoldi shekilli, kutilmaganda orgasiga tisarildi.

— Tutingan dadang shu bo'lmasin tag'in! — deb buvijonim ko'rishish uchun qo'lini xuddi otashkurakka o'xshatib cho'zib, Salimjon akamning yelkasini mo'ljalga olib, unga yaqinlasha boshladi. Salimjon akam shoshilib:

— Assalomu alaykum, xolajon! — deb negadir, orgasiga tisarildi yana.

— Xayriyat, musulmon odamning bolasi ekanisiz, — buvijonim boshlig'imning yelkasiga urib ko'rishgan bo'ldi, qisqagina hol-ahvol so'rashdi. Hol-ahvol so'rashyapti-yu, boshlig'im, negadir qo'rqibroq turganga o'xshaydi, goh buvijonimga, goh menga nazar tashlab qo'yadi. «Hoshimjon bilan ikkovimizning maslahatimiz bor» degan edi, buvijonim: «shuncha yil majlis qilganlaring ham yetar, Hoshimni olib ketaman, o'zimizning qishloqda ham sataroshligini qilaveradi...» deb turib oldi.

— Xolajon, axir... — dedi boshlig'im.

— Hoshim, bor, bularning shapakasini topshirib chiq! — deb buvijonim hassasini yerga bir urib qo'ydi. Tamom, endi buvijonimga gap uqtirib bo'psan, polkovnik emas, general kelganda ham hassasini do'qillatib turaveradi.

— Shuncha ishlatib loaqal bitta to'pponcha bermabsizlar-a, bolamgal! Soch-soqollaringni oldirgani boshqa odam qurib ketganmidi?

— Nimalar deyapsiz, xolajon? — yelkasini qisib so'radi boshlig'im.

— Butun qishloqda gap, nima deysan, Bibirobiyaning nabirasi shaharda ish topolmay, militsionerlarning soqolini olib yurganmish, deyishadi. Uyat-ey!

— Yolg'on! — dedi boshlig'im.

— Gapirmang! — xuddi dadamni urishgandek urishib berdi buvijonim. — Nega bo'lmasa, loaqal bitta to'pponcha bermadilaring? Bolam sho'rlik qishloqqa ikki qo'lini burmga taqib bordi-yal! Xotinlarning ichiga kirolmay qoldim: «Yo, qo'shni, Hoshim sizni yana aldab ketibdi, militsiyada bo'lsa to'pponcha taqib kelmasmidil!» deb ko'z ochirtirishmayapti.

Bilasiz-ku, Salimjon akam kulganda juda qattiq kuladi, hozir ham deraza oynalarini zirqiratib yubordi. U kulaypti-ku, buvijonimning jag'i ochilib, ko'zlari olayib boryapti. Endi butunlay tamom bo'ldim, kengashni mensiz o'tkazishaversa ham bo'ladi. Agar buvijonimning ayrganini qilmay ichkariga kirib ketsam, organdan kirib «bali sen mening gapimni ikki qiladigan bo'ldingmi» deb, ko'pchilikning oldida hassasi

bilan savalab qolishi ham hech gap emas. Eh, buvjon, buvjon-ey! Yoshligimda-ku, «sen odam bo'lmaysan» deb, qulog'imdani cho'zaverib shalpanq quloq qilib qo'ygan edingiz, mana endi odam bo'lib, qo'limdan ish kelib qolganda hassa ko'tarib kelishingizga balo bormi!

Salimjon akam ham hushyor odam emasmi, gap nimada ekani, buvjonim kampirningizig'vosiga uchib, g'azabnok bo'lib kelganligini darrov payqadi. Kulimsiraganicha ichkari kirib, majlisi to'xtatib chiqdi.

— Qani bo'lmasa, melmonlar, uyga boramiz, — deb taklif qildi. — Mashina chaqirdim. Xurjumni menga berib, otingiz Ro'zivoymidi?

— Ha, — dedi nihoyat dadam tilga kirib, ammo xurjumni bermadi. Tashqariga chiqsak, idoramizning qora «Volgax»si xizmatga tayyorman deb, shay bo'lib turgan ekan, o'tirib uyga jo'nadik. Buvjonim o'qib yurganida ham ko'p kelgandi-yu, lekin bugundagani do'q qilmagandi: butun boshli kengashni to'xtatib qo'ydi-yal! Bordi-yu, ishingni yig'ishtir, deb turib olsa nima qilaman...

— Lekin, Ro'zivo, ajoyib o'g'lingiz bor ekan! — sekin gap boshladi Salimjon akam.

— Ha, endi... — mushitga yo'talib, gapirsam maylimi degandek, buvjonimga qarab qo'ydi dadam.

— Ajoyib bo'lmay ketsin, — gapni ilib ketdi buvjonim, — gap sotib hammamni ishdan qo'yib yurgandir-da... Gapiga ishonmang buni, ko'pincha yolg'on gapiradi...

— Hoshimjonga hammaning havasi kelyapti hozir! — shunday deb Salimjon akam meni maqtashga tushib ketdi. Shunangai maqtab yubordiki, eshitib, huzur qilganimdan, andak bo'lmasa, buvjonimning tizzasiga boshimni qo'yib, uxlab qolayozibman. Men buvjonimning nashatlarini qulog'imga olib shunangai xayrli ishlar qilayotgan ekamanki, bu kunlarda obro'yim shunangai zo'r ekanki, hatto butun boshli bir majlis men bo'lmaganim uchun to'xtab qolgan emish...

— Ana, aytmadimmi, Ro'zi! — dedi buvjonim to'satdan o'zgarib, — shu Hojar manqaning gapiga kirmaylik deb...

— Butun g'alvani o'zingiz boshladingiz-ku, — deb qo'ydi dadam qo'rqa-pisa.

— Nima qilay axir, tentagimni ko'rgim keldi-da, — deb buvjonim meni bag'riga bosib, peshanamdan o'pib qo'ydi. Qara, sug'surdek yigit bo'libdi! Inim, o'zingiz Salimjonmidi? Ochiq'ini aytib, rostdan ham sataroshlik qilayotgani yo'qmi?

— Hoshimjon hozir davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ishlarni bajaryapti, — tushuntirdi Salimjon akam.

— Xayriyat, Hoshim haqida ham yaxshi gaplar eshitarkanamiz.

— Siz nima deb o'ylovdingiz bo'lmasa? — deb qaddini sal rostdabroq oldi dadam.

— Sen jim ket, angov! — urishib berdi buvjonim. — Sening gapingga kirib-ku, kecha kunbo'yi sarson bo'ldim.

Kecha etalab yo'lga chiqib, stansiyaga kelisha, bo'sh avtobus turgan ekan, dadam bechora surishtirmay-netmay, darrov ikkita билет olib chiqibdi. Avtobus ularni butunlay boshqa shaharga olib borib tashlabdi. Yo'lda buvjonim: «Ro'zi, boshqa tomonga ketayotganga o'xshaymizmi?» deb so'ragan ekan, dadam, «boshingiz aylanib, ko'zingiz tinayotgandir, jindek mizg'ib oling» debdi. Xullas, kecha kunbo'yi sarson bo'lishibdi. Bechora dadam shuning uchun qo'rqib gapirilmay o'tirgan ekan.

Bora-bora buvjonim jahldan tushib, mening ham sataroshlik qilmayotganligimga astoydil ishonib, «eson-omon qishloqqa borsam, Hojar manqaning tilini sug'urib olaman», deb qasanyod qildi.

— Lekin, inim, bundan keyin Hoshim qishloqqa borsa to'pponchasiz jo'natmang, — deb iltimos qildi oxiri.

— Xo'p bo'ladi, xolajon, — va'da berdi boshlig'im, — iloji bo'lsa, ikkita to'pponcha taqib jo'nataman.

— Xudoyo umringiz uzog bo'lsin! — duo qildi buvjonim.

Uyga borgach, Salimjon akam choy qo'yimogchi bo'lgan edi, buvjonim ko'nmadi. Bitta choy bo'lsa, bir amallab qaynatib icharmiz, xizmatdan kechga qolmanglar,

Hoshimning gap tegib qolmasin tag'in, dedi. Chiqib ketayotganimizda, qulog'imga shivirlab:

- Hoshim, shu mashina o'zingnikimi? — deb so'radi.
- O'zimmiki! — dedim men ham maqtangim kelib.
- Qishloqqa minib borgin. Hojar mingga bir ko'rsini!
- Xo'p, bo'ladi, buviyon!

#### BAXTI QARO DIREKTORNING MASLAHATCHISI

shimning ba'zi bir tomonlari mutlaqo maxfiy bo'lganligi uchun bugungi majlisimizda qanaga masalalar ko'rilganligini, qo'lga olish, tintuv o'tkazish bo'yicha kimlardan iborat operativ guruhlar tuzganligimizni, kechirasiz, men ham sir tutmoqchiman. Faqat butun operatsiyaga polkovnik Ali Usmonov boshchilik qilishni o'z zimmasiga olganligini qulog'ingizga shipshitib qo'yishim mumkin. Agar juda, juda ham qiziqayotgan bo'lsangiz, shuni ham asta shivirlashim mumkin: qo'lga olish guruhpasiga boshliq etib meni tayinlashdi. Jamoatchilik vakillari, drujinachilar va militsiya xodimlaridan iborat yigirma kishilik otryad tuzish haqida ko'rsatma ham oldim. Kunduz soat uchlarigacha otryadni tuzib bo'ldim. Pensionerlardan Muslim bobo bilan tovlamachilarga qarshi kurashda nom chiqargan Mergan ota, drujinachilardan aka-uka bokschilar Hasan bilan Husan, militsionerlardan uchasikavoy Sur'at aka, xullas, tanlagan kishilarimning hammasi azamat, bos desa bosadigan xilidan. Hammasini to'plab, operatsiya planini g'oyat maxfiy saqlashga so'z berganim uchun, soat o'nda shu yerda to'planamiz, oblast markaziga kontsert ko'rgani boramiz, deb qo'ya qoldim.

Ixtiyorimda hali yetti soat vaqt bor. Uyg'a borib, buviyonimni dadajonim bilan, iyagimni iyagimizga tirab olib, gaplashib, oqjo'xoridan tuyub kelishgan bo'lsa, serqatig go'ja osh qilib ichib, maza qilib yotishim ham mumkin edi. Ammo allaganday bir g'ashlik paydo bo'lib yuragimga

g'ulg'ula sola boshladi. Bordi-yu, hamma ish tayyor bo'lib, katta-kichik oyoqqa turgan bir mahalda Odli battol qochib qolsa-ya! Sharifa, uning hamma joyda odami bor, degandi, militsiyaning rejasidan xabar topishi ham hech gap emas-ku, axir! Yo'q, nima bo'lganda ham uni ko'zdan qochirmashligim, orqasidan soyadek ergashishim kerak.

— Nima deding, qalpog'cham? — maslahat so'radim dono maslahatchimdan.

— Yaxshi o'ylading, Hoshimjon, — ko'nglimni ko'tardi qalpog'cham.

«Rohat» oshxonasiga jo'nadim. Har kungidek bugun ham odam gavyum, navbatning oxiri cho'zilib, naq ko'chagacha chiqib ketibdi. O'tirgani joy yo'q, bir xil xo'randalar tikka turtib ovqatlanishyapti...

Oshpazlarning oldiga o'tdim. Qo'li-qo'lga tegmaydi, entikishib, peshanalaridan chakillab ter oqib, goh cho'michni, goh kappirni ishga solib, ovqat taqsimlashyapti. O'roz oshpaz ko'rinnmaydi. Salimjon aka o'z va'dasining ustidan chiqib, uni ishchilar oshxonasiga o'tkazib janniki oshpazlariga boshliq qilib qo'yganga o'xshaydi. Bufetchining ishlarini ko'rib, ochig'ini aytсам, unga havasim kelib ketdi: biram chaqqon, biram tez ishlayapitiki, asti qo'yaverasiz. Aroq deganga suv, konyak deganga pami choy uzatib:

— Tez bo'ling, stakanni kutib qolishdi, — deb qistab ham qo'yadi.

Baxti qaro direktor ko'ksini stolga berib, cho't qoqib, pul sanab o'tiribdi. Yirigini portfeliga-yu, maydasi stohning tortmasiga joylayapti. Xuddi shu payt eshikni kimdir qo'rgapisa chertgandek bo'ldi.

— Eshiq ochig'ku! — o'shirdi direktor.

Xiyol o'tmay ostonada o'tiz besh yoshlardagi ozg'ingina bir ayol ko'rindi. Orqasidan, magazinchi qo'shimiz Ne'mat akaning o'g'illariga o'xshagan bolalar, yoshi taxminan olti, yetti, sakkizlarda bo'lgan, sovuq qotishgandan didirashib turgan uch bola ko'rindi. Men bu ayolni darrov tanidim.



Vokzalda perashka sotardi. Huv birda kapitan Hoshimova uni jinoyat ustida go'lga ham tushirgan.

Baxti qaro direktor qovog'ini osiltirib, go'yo ayolni ko'rmagandek, o'z ishini davom ettiraverdi.

— Men yana keluvdim... — dedi ayol xuddi «uh» tortgandek bir ohangda.

— Kelgan bo'lsang nima qilay, ashula aytib beraymi?

— Axir, rahmingiz kelsini!

— Menga kimning rahmi keladi? Trestga bor.

— Bordim, sizning ruxsatingizsiz hech narsa qilishmas ekan, — ayol piqillab yig'lab yubordi. — Hech bo'lmasa, mana bu yetimlarning rahmini yeng.

Odil batol boshini ko'tarib, zaharxanda bilan «xe-xe» lab kuldi. «Bolalarimi olib borsam, rahmi keladi, deb o'ylagandirsan-da, pismiq!» deb yana ishini davom ettiraverdi.

Ikki tomon ham o'n minutlar chamtasi jim qoldi.

— Eshikni topolmayapsanmi? — so'radi nihoyat direktor.

— Jon Odil aka, bola-chaqalaringizning havasini ko'ring.

— O'ringga xaridor chiqdi, sotib yubordim.

— Axir o'sha pulni men ham berardim-ku?

— Xo'sh, qancha olib kelding? — to'satdan boshini ko'tarib tabassum qildi Odil batol. Ayol:

— Uch oydan buyon ishsizman, menda pul nima qilsin, eson-omon ishimni boshlab yuborsam topganim sizniki, — degan edi, baxti qaro direktor haligidan ham achchig'roq bir tabassum bilan:

— Bilagingda oltin bliaguzuk, barmog'ingda tilla uzuk, pul yo'q degani uyalmaysanmi? — dedi. Ayol avval bliaguzugini, so'ngra bir oz ikkilanib turgach, «ha, mayli, bosh-ko'zimdand sadaga», deb o'yladi shekilli, barmog'idagi yoqut ko'zli uzugini ham chiqarib berdi.

— Ertaga ishga tushsam bo'ladimi? — so'radi oxirida.

— Ishgami? — uzukning u yoq-bu yog'ini ko'zdan kechirib dedi baxti qaro direktor. — Ishga deysanmi? Ishga hali erta.

— Voy nega? — go'rqib ketdi ayol.

— OBXSS bosgani esingdami? O'sha materiallar sudga oshirilgan. Bir yoqib bo'lsin, keyin tushasan...

«Yolg'on! Mutlaqo yolg'on! — baqirib yuborishingga oz qoldi. — Materiallar sening o'zingda — yer ostidagi xazinangga berkitib qo'ygansan! Shoshmay tursang, bugun-erta sud ham boshlanib qolar...» O'zinni go'lga olib, tishmini tishimga bosib, ovozlarni yozib olishda davom etdim.

Chiqillatib suratlarini ham olaverdim.

— Bu ishlarni tinchitdim, devdingiz-ku? — butunlay o'zini yo'qotib dedi ayol.

— Ha, tinchitmoqchi bo'lavdim... Lekin juda katta pul so'rashyapti...

Ayol goh direktorga, goh ko'zlari mo'llillab yig'lavoray-yig'lavoray deb turishgan o'g'illariga qarab, «koshki edi, pulim bo'lsal!» deya tizzalari bukilib dag'-dag' qatiray boshladi.

— Uyat, uyat-ey, — deb boshini chayqab go'ydi Odil Abbosov, — og'zing to'la tilla tish-u, pulim yo'q deysan-a!..

Ayol yana bolalariga qaradi, g'amalib ketsam, bu sho'r-tumshuqlarning ahvoli nima kechadi, deb o'yladi shekilli, tishi ham omonatgina qo'yilgan ekan, pastki tomondagilarini shartta olib, stolning ustiga qo'ydi.

— Shu bilan bosti-bosti bo'ladimi? Baxti qaro direktor xuddi nordon bir narsa chaynab olgandek, aftini burishtirib:

— O'nta tish bilan yuristni go'lga olib bo'larkan-mi? — deb chala qolgan ishini davom ettirishga tutindi.

Ayol tepa tishlarini ham sug'urib, stol ustiga tashladi.

— Endi bitadimi?

— Qachon ishga tushasan? — deb so'radi.

— Hozir desangiz ham tayyorman, — sevinganidan entikib ketdi ayol.

— Ertaga tusharsan. — Shunday deb Odil Abbosov o'rindan turib, po'lat sandig'idan qotib, po'panak boylab ketgan bir patirni olib ayolga uzardi. — Ma, gasamyod qili

Ayol cho'kka tushib, peshanasini nonga tegizib, layyor bo'lib turdi.

— Bu yerda bo'lib o'tgan gaplarni birovga aytсам non ursin, del! — buyruq berdi baxti qaro direktor.

— Bu yerda bo'lib o'tgan gaplarni birovga aytсам non ursini!

— Tushgan foydaning yarmini bermasam non ursini!

— Tushgan foydaning yarmini bermasam non ursini!

— Va'dalarimni bajarmasam boshim ketsa mayli, del!

— Va'dalarimni bajarmasam boshim ketsa mayli!

Shuncha yoshga kirib, bunaqangi vogueani hech ko'rmagan, hatto eshitmagan edim. Poraxo'ring bunaqangi qasamyodlari bo'lar ekan-kul! Yo'o'q, bu chunakam batlol.

Ta'rifiab bo'lmaydigan darajada batlol ekan! Yordam so'rab kelgan bir ayolning og'zidagi tishlarini qoqib oldi.

Bu vogueani birovga aytсам, o'lib qolsa ham ishonmaydi. Xayriyatki, bu g'amgin ovozlarni yozib, hayajonli yuzlarini suratga tushirib turibman. Bo'lmasa, bir nafasdan so'ng o'zim ham ishonmay qolaridim. Kamoli g'azabim oshganidan, qalitrab, tashqariga chiqib ketdim. Suv ichib, o'zinni bosishga harakat qildim.

Soat oltilarida direktor ikkiniz noma'lum tomtonga qarab yo'l oldik. Qayoqqa boryapmiz, bilimayman. Ashida buning menga ahamiyati ham yo'o'q. Faqat uning ortidan qolmay, har bir odinini suratga tushirib, har bir so'zini yozib olsam bas.

Eshigining tepasiga «Yuridik konsultatsiya» deb yozib qo'yilgan ko'rimsizgina bir idoraga kiridik. Xuddi Odil batlolning o'ziga o'xshash og'zi xaddan tashqari katta, yalpoq yuzli, serajin peshanasi eski mahsudek tirishib ketgan, ellik besh-oltmish yoshlardagi bir odam i-iyiab, sekin o'rnidan turdi:

— Qanday shamol uchlirdi. Odiljon?

— Do'stlarimni tez-tez sog'inib turaman, — ko'rinish uchun qo'l uzatdi baxti qaroq direktor. — Kecha un eltib tashlashibdimi?

— Bir yo'la uch qop! Saxisiz-da, Odiljon.

— Do'stlarimdan jonimni kam ayamayman.

— Umingiz ziyoda bo'lsin. Xo'sh, xizmat, do'stim?

Ikkovlarning subhataridan shu narsani bilib oldimki, bu odamning oti Shokir bo'lib, Odil batlolning qonundan tashqari jamiki xatti-harakatlariga yo'l-yo'riq ko'rsatib turuvchi qonunshunos ekan. Salinjon akam Odil

Abbosovning shahar prokuraturasida maslahatchisi bor, deb noto'g'ri taxmin qilib yurgan ekan. Batlolning maslahatchisi mana shu xonada, egasi ko'chib ketgandek huviillab qolgan ko'rimsizgina idorada o'tirar ekan.

— Mana bu kelinga, bizdan sovg'a... — dedi Odil Abbasov haligi uch bolali ayolning barmog'idan sug'urib olgan yoqut ko'zli uzukni uzatib.

Maslahatchi sevinganidan ko'zlari chaqnaib, o'rnidan turib ketdi. «Oo'ying, meni uyaltirib qo'yyapsiz» dedi-yu, tag'in g'aytib olib qo'ymasin deb qo'rqdi shekilli.

— Hotamtoysiz-da, hotamtoyl! — deya shoshilib uzukni cho'ntagiga soldi. Bu orada baxti qaro direktor portfelini asta ochib, Sharifaning o'limi oldidan yozib qoldirgan vasiyatnomasini ko'rsatdi.

— Mana bu xushxabarni ko'ring!

Maslahatchi vasiyatnomani qoshlarini chinirib, ovoz chiqarmasdan o'qib chiqdi-yu, xuddi birov bo'g'ayotgandek, xirillab kuldi:

— Tabriklayman, tabriklaymani! O'lgani aniqmi?

— Aniq.

— Denak, polkovnikning kuni bitibdi endi!

— Koshki edi-ya...

— Uni ishdan olib, javobgarlikka ham tortishadi, — sevinganidan o'rnidan turib ketdi maslahatchi. — Mana, mening maslahatimga yurib kam bo'lmadingiz.

Vasiyatnomani o'z qo'li bilan yozganni?

— O'z qo'li bilan yozgan.

— Endi bu yog'ini menga qo'yib bersinlar. Shu kechasiyoq ministrlilik nomiga imzosiz ariza yozamiz. O'n

gulidan bir guli ochilmagan Sharifani isnodga qo'yib o'ldirgan, poraxo'r Salim Otajonov qachongacha yallo qilib yuraveradi, deb yozamiz. Melnatkashar nomidan yozamiz!

— Yozgan shikoyatingizni menga ham, albatta, ko'rsating.

— Bo'lmasa-chi, do'stim.

— Go'sht-po'sht kerak emasmi?

— Qo'ying, odam uyaladi.

— Ertalab berdirib yuboraman. Xayr, men ketdim.

— Omon bo'ling, hotantoy do'stim, — deganча, ko'chagacha kuzatib chiqdi maslahatchi.

Soat o'nlarda baxti qaro direktorni jarlik tubidagi paxsa devorli qo'rg'onchaga kiritib yubordim, o'z g'ruppamni tezroq boshlab kelish uchun idoraga yugurdim.

## QO'RQINCHIL TUN

— Qo'rqyapsanmi, Hoshinjoni?

— Qo'rqyapman.

— Qo'rqma o'g'lim, sening organgda butun xalq, hukumat turibdi.

— Shundayku-ya...

— Nashani oldingmi?

— Oldim.

— Eng muhirci, shoshma, o'zingni yo'qotma.

— Xo'p.

— Hamma ishini men aytgandek qil.

— Yaxshi.

— Oq yo'l, o'g'lim! — deb Salimjon akam meni yo'lga kuzatib qoldi. O'zi ham birga bormoqchi edi-yu, lekin nachora, xizmatchilik ekan, borolmadi. Uning zimmasida ham menikidan og'itroq vazifalar turibdi. U ham tuni bilan uxlamay yugurib-elib chiqadi.

Yigirma kishi usi berk mashinada yo'lga tushdik. Shundan so'nggina men hamrohlaringa qayoqqa

borayotganligimiz, bizni qanday xavf-xatarlar kutayotganligi, bajarishimiz kerak bo'lgan ish g'oyat mas'uliyatli ekanligini tushuntirdim.

— U ochopatlarni allaqachon qo'lga olish kerak edi. — g'ijimib qo'ydi pensioner Muslim bobo.

— Xavf-yat, baloxo'rlarning ildiziga bolta uriladigan kunlarni ham ko'rar ekamiz, — xursand bo'yib dedi Mergan ota.

— Hammasi sakkiz kishi dedingizmi? — tashvishlanibroq so'radi Sur'at aka. — Ancha og'ir bo'larkan...

— Qo'rqmang, — deb qo'ydi drujinachi Hasan boksyor. U o'z kuchiga ishondi shekilli.

— Ikkitasini o'zim tinchitib beraman, — dedi ukasi Husan ham.

Axlarxona yonida mashinadan tushdik. Boshqa joylarda ehtimol bunday emasdirl-u, ammo, bizning shaharda qish tushishi bilan irillab shamol esgani-esgan. Bugun ham qattiq shamol turib, ko'kdagi qora bulutlarni goh o'ngga, goh chapga haydab tunni yana ham vahimalliroq, yana ham qo'rqinchlir-oq qilib ko'rsatyapti. Atrof shunaqangi qorong'iki, burningdan narini ko'rib bo'lmaydi. Aksiga olib, suvi qurib qolgan anhorga shu oqshom suv ochib yuborishibdi. Pensioner Muslim bobo bilan Mergan ota shatloplab suvga tushib ketishdi.

— Zarari yo'q, — shivirladi Mergan ota, — dushmanlar bilan olishganimizda bundan og'itroq kunlarni ko'rganmiz.

— To'xtanglar, mening kalishim oqib ketibdi, — deb qattiq gapirib yubordi Muslim bobo.

— Jim! — shivirladi Sur'at aka.

— Kampirimdan baloga qoldim endi! — Muslim bobo kutilmaganda xaholab kulib yuborsa bo'ladimi, hammamiz qo'rqib ketdik. Bir xillarimiz yerga yotib oldik.

Goh emaklab, goh panalab chopib, jar tubidagi paxsa qo'rg'onga yetib, avval kelishib olganimizdek, uni har tomondan qurshab oldik. Men ichkari kirib, hamma ish joyida bo'lsa gugurt chaqib, bostirib kirishga signal beradigan bo'ldim.

Bir sakrab devordan oshib o'tdim. Hovli xuddi go'ristondek qorong'i, jimlik, tiq etgan ovoz eshilmaydi. Faqat uyning mo'risidan ahyon-ahyonda jonsiz uchqunlar otilib chiqib, qorong'lik qa'rida yo'q bo'lib ketayapti. Uyning eshigi berk, derazaga parda tutilganga o'xshaydi — tirqishdan nirsiz yorug'lik ko'rinish turibdi. Uygaga qanday kiridim endi? Eshikni kim ochib beradi? Salgina ovoz chiqsa, hammalari hushyor tortib, rejamizni chippakka chiqarishi mumkin! Shu paytda go'g'irchoq teatrda artist bo'lib ishlaganligim juda go'l kelib qoldi-da. Boshingga qalpog'chamni kiyib ko'zdan g'oyib bo'ldi-mu, eshikka yaqinlashib, xuddi sovuqotib qolgan mushuk bolaga o'xshatib zorlanib, miyovlay boshladim, go'llarim bilan taxtani tatalab tirnadim. Xayriyat, yalmog'iz kampir qulog'ini ding qilib o'tirgan ekan, darrov eshita qoldi.

Eshikni qiya ochib:

— Hmm, sovuq badaningdan o'tib ketdimi, — dedi. Bu paytda men lip etib uygaga kirib oldim. — Kir, kira qol tezroq... Qo'rqvapsanmi, ha, mayli, sovuqotsang yana kelarsan, — deb, kampir eshikni ichidan bekiydi.

Dosh qozonda bigirlab sho'rva qaynayapti. O'ziyam naq yigirmatacha tovuqning boshi uzilganga o'xshaydi. Nega desangiz, qozon shunchalik katta bo'lishiga qaramay, go'stlar bir-biriga tiqilib qolibdi. Xushbo'y hid xonani tutib ketibdi. Ishtaham go'zg'ab, tamshanib, bir-ikki bor «qut-qut» etib yutindimu, «bor-ey, birpas kutishsa kutishar», deb chala pishgan bir tovuqni qo'limga olib, tikka turganimcha, puf-pulab, pok-pokiza tushirdim.

Salimjon akam ko'p tadbirkor odam-da. «Borayotgan joying juda xavfli, gapingga qaraganda, hammasi qurollanganga o'xshaydi. Ortiq urinishning nima hojati bor, ilojini topsang, taomlariga nasha qo'shib ber, garang bo'lib qolishadi, go'lga olish osonlashadi», deb o'rgatgan edi. Hatto cho'ntagimdagi chaqaloning mushitdek keladigan nashani ham o'zi topib berdi. «Bamiyati shifo bo'lsin», deb

uni qozonga tashladim assalomu alaykum deya sekin yerto'laga tushib bordim.

Ana tomosha-yu, mana tomosha! Hammalari avvalgidek shirakayf, ko'zlari biyo-biyo. Maykachen bo'lib olishibdi. Taglarida atlas ko'rpa-chalar, shishalar ochilgan, maylar qadahlarda gul-gul yashnab turibdi. Devqomati pahlavon o'rtada, yelkalarini uchirib, baquvvat bilaklaridagi mushaklarini o'ynatib, goh o'ngga, goh chapga shox tashlab o'yinga tushyapti, qolganlari qarsak chalib, ashula aytishyapti:

*Besti kun ekan bu dunyo*

*Ko'rarimgni ko'rib qol.*

*Yashligingda xo'b o'ynab*

*Davri-darvon sarib qol...*

Xo'ppa semiz amaki qarsakni negadir, erinibroq chalyapti, ashulaga ham qo'shilmayapti. Faqat ahyon-ahyonda, xuddi omonatini topshirayotgan bemorga o'xshab, iyak qoqib go'yayapti, xolos. O'g'ri Mutal bo'lsa, go'yo biroq unga qarsakni qatitiroq chalib, ashulani ham baqiribroq aytasang mukofot olasan, deb shipshitib go'ygandek, sheriklaridan o'zib keyapti. Peshanasi yiltiroq amakining jazavasi tutib qolibdi: hamma narsani unuttib, qora terga botib, og'zini qappa-qappa ochib, qarsakni ham boshqalardan ko'proq uryapti. Orif chaygovochi ashula boshi ekan. Ko'zlarini chirt yumib, bo'yini cho'zib, huzur qilayotgandek boshini chayqab, ashulani tobora avjiga chiqarayapti:

*Darvon keldi sur, begin!*

*Qanbingni ham ur, begin!*

*Omiad keldi ot chopgin,*

*Savlati zo'r, zo'r begim!*

— Yashavor, Bodroq! Besuyak bo'lib ketibsan-ku!

— Qiyib tashladig, ukal! — deb ora-chora qiyqirishib ham turishibdi. Sallabodroq amaki charchab, boshi aylandi shekilli, chayqalib ketdi-yu, o'yinni to'xtatib, baxti qaro direktorning qo'lidan torta boshladi.

— Turing, ustoz!

— Ha-ha, qani-qani!

— Qo'yamaysan, Bodroq! — deb har tomondan qiyqirib qolishdi. Y o'q, Odil Abbosov uncha tarang qilib o'timadi, labini cho'chaytirib, ko'zlarini qisib o'rtidan turdi-da, ikki qo'lini laylakning qanotidek keng yozib: «Qorasochim»ga chalinglar bo'lmasa», deb iltimos qildi.

— *Qorasochin o'sib qoshingga tushdi!*

*Na savdolar meni boshingga tushdi-ey!* —

deb Oriq chayqovchi ashulani boshlab yubordi. Tavba qildim-ey, nahotki bu o'sha butun shaharga jinoyat urug'ini sepib, nevasidan sheriklarini ham bahramand etib yurgan baxti qaro direktor bo'lsa! Axir u tuppa-tuzuk o'yinchi ekan-ku. Qo'llarini chiroyli o'ynatishini qarang, oyoqlarining ashula ohangiga mos tushayotganini aytmaysizmi. Nima balo, yoshligida estrada teatrining o'yinchisi bo'lganni deymani!

— Qoyil!

— Ofarin, ustoz!

— Bekorga sizni sarkorim demagannan, axir! — deb olqishlay boshlashdi sheriklari.

O'yin to'xtadi. Charchab qolishganga o'xshaydi, chuqur-chuqur nafas ola boshlashdi.

— Mutal! — xitob qildi baxti qaro direktor.

— Labbay, ustoz!

— Qadahlarni to'ldir, ukam, bugun mening eng baxtli kunim. Dushmanimning oyog'iga yana bir bolta urdim...

Biri stakanda, boshqasi kosada, biri oqidan, boshqasi qizildan o'tib olishgach, ko'zlarini suzishib, chala-chulpa so'zlar ayitishib, har xil narsalar to'g'risida gaplasha

boshlashdi. O'tgan safaridek, bu gal ham sarkor tobelaridan pul yig'ib, o'g'ri Mutal bilan Sallabodroqqa oz-oz berib, qolganini portfeliga joyladi. Chayqovchini tayyorgina mollarni haligacha bozorga chiqarib sota olmaganligi uchun koyidi. Beshik yasaydigan do'konchi oldidagi avtoinspeksiya xodimlarini chalq'itish uchun uch yuz metr narida avariya uyushtirish kerak edi, deb maslahat berdi.

— Bu fikringiz juda ma'qul, ustoz, — qo'lmi ko'ksiga qo'yib qulluq qildi chayqovchi.

— Mashinani o'zim topib beraman! — va'da berib yubordi o'g'ri Mutal. Peshanasi yiltiroq amaki bilan xo'ppa semiz amaki, bizga yana ham ko'proq xashak bering, bozor juda avjida, deb iltimos qilishdi.

— Ovgat pishdi! — e'lon qilib qoldi shu payt yalmog'iz kampir. Chayqovchi bilan Mutal yugoriga chiqib, bilqillab turgan tovuqlarni katta tog'oraga bosib tushishdi. Bir ozdan so'ng tovuq suyaklarining qirsillab sinishi, lablarning chapillashi, pasti-baland pishillash ovozlari, ora-chora kekirishlar ham quloqqa chalina boshladi.

— Mutal!

— Buyuring, ustoz!

— Quy, to'ldirib quy! Bugun men baxtliman!

— Sizing baxtingiz bizning baxtimiz, — chaynalib gapga qo'shildi chayqovchi.

— Siz bo'lmasangiz biz allagaqchon qo'lga tushgan bo'lardiki! — deb minnatdorehlik bildirdi peshanasi yiltiroq amaki.

— Men borman, hech qaysing qo'rqma, — kimnidir o'tib tashlamogchi bo'lgandek ko'rsatkich barmog'ini o'qalib gapira boshladi baxti qaro direktor, — chunki men ayyorman, tulkiman! Hammasiga chap beraman... OBXSSmi, u mendan qo'rqadi! Y uragini olib qo'ydim, xudo xohlasa, yaqinda hammasi ishdan ketadi, hali ko'p davri-davron suramiz. To'g'rimi, Mutal?

— Haq gapni aytdingiz, ustoz. Ularni hali ko'p o'ynatamiz.

— Mening tushingga har kuni OBXSSning boshlig'i kiriyapti, — yulini bo'qib chaygovechi.

— Men ham shunaga tushlar ko'ryapman, — asta boshini ko'tardi xo'ppa seniz amaki. — Hozir ham tush ko'rayotganga o'xshayman, boshim aylanib ketiyapti...

Peshanasi yiltiroq amaki:

— Aylanish... — dedi-yu, gapini yo'qotib qo'ydi shekilli, bir oz jim qoldi. — Hammamiz aylanyapmiz, tovoqlar, shishalar, shishalar aylanyapti, yerto'la aylanyapti...

Nasha asta-sekin o'z kuchini ko'rsata boshladimi, bir-birlariga qarab ifjayishib, tillari kalimaga kelmay qoldi.

— Xi-xi-xi — kuldi bitisi.

— Ha-ha-ha! — jo'r bo'ldi boshqasi.

— He-he-he! — deya davom ettirdi uchinchisi.

Vaqtni qo'ldan boy bermaslik uchun shoshilib ularni gurotsizlantira boshladim. Baxti qaro direktor bilan o'g'rida o'qlangan to'pnoncha, chaygovechi bilan devqomati paxlavonda xanjar bor ekan. Qolganlarida yo hech narsa yo'q, yoki topolmadim.

— Nashal! Tovuqdan nashaning hidi kelyapti! — baqirib o'rindan turib ketdi devqomati pahlavon.

— Nashal!

— Ha, ha, nashaning hidi bor! — deb yumilib borayotgan ko'zini kattaroq ochmogehi bo'ldi baxti qaro direktor. — Mutal, sen qildingmi bu ishm?

— Xudo ursini! — qasam ichdi o'g'ri.

— Chaygovechi, sendan shubham bor.

— Til tortmay o'lay, ustoz!

— Hozir til tortmay o'lasani! — baxti qaro direktor kosyuvning cho'ntagini parypaslab qoldi, tatalab portfelini ochdi, oxiri shimining cho'ntagiga qo'l suqib «to'pnoncham!» deb baqirib yubordi. Turmogehi bo'lavdi, munkib ketdi.

— Bodroq, ushla o'g'rini! — dedi yotgan o'rinda xirillab.

Bir nafasdan so'ng yerto'lada, tomosha qilsang arzilydigan mustilashish boshlandi. Devqomati pahlavon

o'g'rini, baxti qaro direktor chaygovechini, peshanasi yiltiroq amaki, negadir omborchini bo'g'ib oldi. Hammasi ham garang, tuzukroq mushlashay desa, boshi aylananayotganidan qo'lini ko'targani madori kelmaydi. O'n minutlardan so'ng bir-birlarini bo'g'ishganicha cho'zilib qolishdi.

Baxti qaro direktor boshliq jinoyatchilarning eng so'nggi bazni shu yo'sin bir-birlarini bo'g'ish, iyaklariga mush tushirish bilan yakunlandi.

— Lekin o'g'lim, dovyurak yigit ekansani! — dedi Muslim bobo jinoyatchilarni mashinaga yuklab qaytayotganimizda.

— Mana bu pahlavonning yotishini qara, lozaqal shundan ham qo'rqmadingmi-a?

— Sal-pal qo'rqdim ham, — dedim kamtarlik qilib.

Ertasiga ertalab Odil battolning yer osti xazinasi-dagi behisob boyliklar-u, o'g'irlangan hujjatlarni ham keltirib bergach, o'zim boshchilik qilgan «Sariq devni quvib» operatsiyasini shu bilan tugatgan bo'ldim. Ikki ming to'rt yuz dona har xil surat, subbatlar yozib olingan to'rt ming ikki yuz metr lentani boshliqlarimga topshirdim. Tergov ishlarini mendan ko'ra o'n barobar tajribaliroq bo'lgan mayor Xoligov olib boradigan bo'ldi. O'sha kuni kechga tomon idoramizning qora «Volgasida qishloqqa jo'nab ketdik.

## SARIQ DEVNING O'LIMI YOKI OLAM GULISTON BO'LGANI

### QISHLOQDA O'TGAN KUNLARIM

**Sh**unday qilib... nima deyaётgan edim, buvjonim bilan qishloqqa jo'nab ketdik deyaётgan edim shekili, ha, xuddi shunday deyaётgan edim... O'ziyam qishlog'imizni juda sog'inib qolgan ekanman. Zokir, Orif, Mirobidinxo'jalari ham meni intizor bo'lib kutishyaётgan ekan. Agar yana bir hafta kelmasam, Zokir meni ko'rgani bormoqchi, qaytayotganda to'yga taklif qilib kelmoqchi ham ekan.

Yo'q, yaxshisi bir boshdan gapiray. Orif, semiz jinoyatchilari, ularning qora qilinishlarini isbot qiluvchi ashyoviy dalillarni topshirgan kumim ertasiga rayon militsiya boshqarmasida polkovnik Ali Usmonov rahbarligida meni, ya'ni sariq devlarni qo'lga tushirishda katta jasorat ko'rsatgan serjant Hoshimjon Ro'ziyevni qanday rag'batlantirish masalasi ko'rib chiqilibdi. Kimdir, o'rtog' Ro'ziyevga pul mukofoti bersak yaxshi bo'lar edi degan ekan, ustozim: «Menimcha, Hoshimjonga pulning hojati yo'q, negaki pulni yomon ko'radi. Sarflashni ham bilmaydi, olgan maoshini bir kunda xarjlab, ertasiga yana qarz so'rashga tushadigan odati bor...» deb e'tiroz bildiribdi. Shundan so'ng Ali Usmonovich: «Agar qarshilik bo'lmasa Hoshimjonni Qrimga, militsionerlarning dam olish uyiga jo'natib, borish-kechish, yeyish-ichish xarajatlarini o'z bo'yini-mizga olsak», degan ekan, bu taklif kamoli ma'qul bo'lganidan o'tirganlar qarsak chahib yuborishibdi.

Shunday qilib men Qrimga jo'naydigan bo'lib qoldim.  
— Nima-nima?! — dedi buvjonim qoshlarini pasti-baland qilib. — Qanaga Karim chiqdi yana?

— Karimmas, Qrim!

— U yerda nima qilasan?

— Dam olaman.  
— Ho'kizdek yigit karavotning poyasiga oyog'ingni tashlab yotgani uyalmasanmi?

— Yo'q, uyalmayman.

— Hech yoqqa bormaysan. Qishloqqa olib ketaman, tappi dumalatasan.

— Tappi?!

— Bo'lmasa, to'nka yorasan.

— To'nka?!

— O'tgan yili otpuskaga bormading, avvalgi yili aldab qochding. Uydagi bir cho'p o'tin yo'q, bolam. Dadangga achimaysanmi? Bir o'zi qaysi biriga ulgursin?

— Bari bir tappingizni dumalatmayman, obro'yimga to'g'ri kelmaydi endi... Oysa bilan Dono qilishsin. Ular qoshiga o'sma, qo'lga xina qo'yib maza qilib yurisharkanu, biz tappi dumalatarakamiz-da!

— Gap qaytarmal! — o'shqirib qo'ydi buvjonim.

— Bari bir nachaligimiz ko'lmaydi. — deb oyog'imni tirab turib oldim men ham. O'zingiz blizasiz-ku, buvjonim bilan tortishib o'tirishning foydasi yo'q. Bari bir aytganini qildiradi. «Hozircha men tirik ekanman, nachaligim o'zim bo'laman, mendan keyin ixtiyoring o'zingda!» deb o'rindan turib mening kiyim-boshlarimni yig'ishtirib, chamadonga joylay boshladi. Paradga kiyib chiqadigan shapkam bor edi, uni dadamning xurjuniga soldi. Baxtimdan o'rgilayki, suibatimzni Salimjon akam ayvonda eshitib o'tirgan ekan. Chiqishim bilan kulib, bosh chayqab: — Kampir zo'r-al! — deb qo'ydi.

— Ko'rib turibsiz-ku! — dedim yig'lagunday bo'lib.

Birgalashib borib, Ali Usmonovichga Qrimga bora olmasligimni yotig'i bilan tushuntirdim. Lekin, kim nima desa deyaversin-ku, men shu yoshga kirib Ali Usmonovichdek mard, hotamtoy boshligi hech ko'rgan emasman. Mening gapimga kirmading, deb xafa bo'lish o'zinga ko'nglimni tog'dek ko'tarib yubordi. «Hali yoshsiz, dam olishga ulgurarsiz!» deb, boshqarma fondidan ikki yuz

so'm pul mukofoti ajratdi, o'zi minib yurgan qora «Volga»ni ixtiyoriga berib.

— Yuzimizni butun ministrlilik oldida yorug' qilgan yigitdan jonimni ham ayamayman, — dedi.

Kunduz soat uchlarda qishloqqa jo'rab ketdik.

Rulda o'zim, yonimda dadam mudrab kelyapti, orqa o'rindiqda yayrab ketayotgan buvijonim javrab, meni odam bo'lmaydi deb butun qishloqqa gap tarqatgan Hojar kelinoyimning go'riga g'isht qalayapti.

Dalalarda bahor boshlanib qolibdi: ariqlar bo'yidagi o'tlar ko'kargan, daraxtlar novdasi bo'rtib, kurtak chiqarishga moyil bo'lib turibdi. Traktorlar gurillab yer haydaydi, yer tekislayotgan, ariq ochayotgan erkagu xotinlar bizga tikilib, bir xillari go'l siltab qolishadi. Qushlar eson-omon bahorga chiqib olganlariga sevinib, osmonu falakda g'ug'on o'ynashadi... To'satdan, kutilmaganda, qalbimga quvonch, shodlik to'lib, ashula aytib yuborganimni o'zim ham sezmay qolibman. Buvijonim dag'al qo'llari bilan sochimni silab: «Ob-bo, tentagim-ey, ashula ayitishni qachon o'rgana qolding?» deb erkalar qo'ydi.

— Miltsiya xodimi hamma narsani bilishi kerak, buvijoni! — Xudoyo seni odam qilgan miltsiya u dunyoyu bu dunyo kam bo'lmasin, — qo'lini ochib foitaha o'qidi buvijonim. — Zokir o'rtog'ing uylanayapti, eshitdingmi?

— Kinga?

— Ovsar tegirmonchining nabirasi bor-ku, Hakima.

— E, turnikdan yiqilib, oyog'i cho'loq bo'lib qolgan qizgami?

— O'shanga. Fermada sut sog'uvchi bo'lib ishlayotgan edi.

Zokir andak bo'lmasa sharmanda bo'layozdi. Hakimaga ishqiy tushib qolgan ekan. Nuqul fermaning tomiga chiqib ashula aytarmish, bir-ikki mara Hakimani poylab borib, ko'cha eshiklari oldida uxlab qolibdi...

Qishloqqa namozgar mahalida kirib bordik. Xuddi sirk tomoshasi kelgandek, bolalar orqamizdan quvib uygacha

ergashib borishdi. Bechora oyijonim-ey, goh yig'laydi, goh kuladi. Meni o'tqazgani joy topolmay, nuqul mashina signalini eshitib, bir cho'chib tushganini gapiradi. Singillarim Oyshaxon bilan Donoxon bo'lsa sevinganlaridan igrishlashib, negadir, men bu yoqda qolib, bir-birlarini achontlashishadi, betlarimdan o'pishadi.

Ko'z yumib-ochguncha hovlimizga odam sig'may ketdi. Bir xillari men bilan omonatgina so'rashib, ko'prog men minib kelgan mashina bilan qiziga boshlashdi. Hatto bittasi: «O'g'itlab kelganga o'xshaydi, qarang, Hoshimning ko'zi bejo!» degan gapni ham ayitibdi. Dadam Umurzog qassobni chaqirib kelib qo'y so'ydiridi, katta qozonda sho'rva pishirishdi. Kechqurun, negadir, kolxozimizning raisi, buxgalter, agronom Anortboy tog'alar ham kelishdi. Uchastkovoy amakiga bola yuborib, uni ham chaqirtirib keldik. Bu yoqda maktabdosh do'stlarim Zokir, kamkulga kelgan Mirobidinxo'ja, oltinchi sinfdan o'qishni tashlab ketib, hozir traktorchil bo'lib ishlayotgan Akrom, Toshkentda qaysi bir institutda sirdan o'qib, kolxoza bosh tabelchilik qilayotgan Toshpo'lar, tish doktorligi texnikumini bitirib kelib, hech kinga gap bermay yurgan xumkalla Orif... e boringki, hamma og'aynilarim ham to'planib qolishdi. Garchi hammalari meni ko'rish, hol-ahvol so'rash uchun kelishgan bo'lsa ham, gap butunlay boshqa yoqqa burilib ketdi. Erkaklar bu yil qish cho'zilib, xashak tamom bo'lib qolgani, bozorda qo'y-molning bahosi tushib, bir bog' bedaga bitta qo'zi berryotgani haqida gaplasha boshlashdi. Ayollar magazin mudiri gardishi hallangan chinni kosa bilan paxta gulli piyolani chayqovga chiqarayotgani, xudo xohlasa, topgani o'limligiga buyurishi to'g'risida bahslashishga tushishdi. Oynisa kampir kelinini ko'z ochirmasamish, To'ponisa kampir kuyovini o'ziga isitib olish uchun domlaga qatnayotgan emish, Xolnisa kampirning eri, qariganda buzilmay o'lgur, xotini o'limlikka yig'ib qo'ygan pulini beliga tugib, kurortga ketib qolgan emish... Xullas, xotinlar bir-biriga gap bermay, bir-birlari bilan mana shunaqangi



shivir-shivir qilishardi. Biz, ya'ni sindoshlar, o'zingizdan qolar gap yo'q, kim qayerda o'qiyotgani, kim qanaga ishga kirgani, kim ishni uddalay olmay qochib ketgani, kim uylangani-yu, qaysi qiz eriga tekkani haqida suhbatlashdik. Donga to'y may qolgan xo'rozlar qichqira boshlaganda hamma uy-uyiga tarqaldi. Dadam niyat qilib qo'ygan ekan, uchashtovoy amakiga boshdan-oyoq sarpo kiygizdi, o'g'limni yaxshi yo'lga boshlaganingiz uchun o'la-o'lguncha xizmatangizda bo'laman, deb yolg'ondan bo'lsa ham qasam ichib qo'ydi. Oxiri ko'chada Zokir ikkovimiz qoldik.

— Ke, yana bir ko'rishaylik, — dedi u to'sardan qo'llarini yozib.

— Hai ko'rishdik-ku!

— Bir quchoqlab o'pmasam to'y maydiganiga o'xshayman, sherik. Ke, bir o'pishaylik...

Achomlashib, bir-birimizni o'pishib, yalashib, oxiri kurash ham tushib, ayiq bolardek rosa puypalashib oldik. Charchab eshigimiz oldidagi supachaga o'tirdik.

— Sherik, sendan bir narsani so'rasam ochiq javob berasanmi? — Shunday deb, Zokir, negadir, u yog'-bu yog'iga ko'z tashlab oldi. Nima so'rashini yuragim sezib turibdi. Uylamog'chi bo'lganini aytib, shu ishim to'g'rimi yoki noto'g'rimi, deb mendan albatta maslahat so'raydi.

— Menga qara, ochiq ayt, sen hech kimni sevasanmi? — dedi Zokir biron nojo'ya gap aytib qo'ygandek qo'rqib.

— Yo'q, sevmayman, — deb javob qaytardim.

— Men rasvo bo'ldim...

— Yo'g'-ei!

— Rost, Ovsar tegimonchining nabirasi bor-ku...

— Hakimanmi?

— Ha, o'sha. Fermanizda sut sog'uuchi bo'lib ishlaydi.

— U cho'log'-ku!

— O'sha cho'log' oyog'im yaxshi ko'rib goldim-da...

Bilasanni, Hakima sog'adigan sigirini ham yaxshi ko'raman. Sut quyadigan chelaklari-yu, yuradigan

ko'chalarini, ko'cha eshiklari oldidagi teraklargacha — hammasini yaxshi ko'raman...

— Yo'g'-ei!

— Rost, sherik. Kechalari, agar ishonsang, yig'lagim keladi. Kunduzlari bo'lsa, hadeb ashula aytсам deyman... O'zini ko'rsam, oyog'im qaltirab, tilim aylanmay qoladi...

— Chatoq bo'pti-ku!

— Oxiri chidolmay xat yozishga qaror qildim.

— Nima deb yozganimni qo'yaveru, sherik, bu yog'i juda rasvo bo'ldi-da. Bilasanni, men Hakimaning familiyasini Shokirova deb yurar ekanman. Xatni yozib, pochta qutisiga tashlab yubordim. Besh kun kutdim, o'n kun kutdim, bor tavsakkal, deb yana yozdim. Tegimon boshida qahramon ona Hakima opa bor-ku, bilasan-a, xatlarim borib o'shanning eriga tegaveribdi. Bir kun ertalab mollarni endi dalaga haydayman deb tursam, molxonaga Turon tog'a kirib keldi. Hech narsadan-hech narsa yo'q, qanche bilan savalab ketisa bo'ladingmi?» deydi. Bunday desam, «ahmoq, bu xatni sen yozdingmi?» deydi. Bunday qarasam, men yozgan xatlar. «Ishqingda kuyib yongan molbog'ar Zokir», deb imzo qo'yganman. Tek turaverdim. Charchaguncha savalab oxiri: «Nega yozding, — deb so'radi. — o'z tenging qurib ketganmi, o'nta bolasi bor xotini boshingga urasanmi?»

— Sizning xotiningizga yozganim yo'q unil! — dedim.

— Kimga yozding bo'lmasa?

— Ovsar buvaning nabirasiga yozgandim, — deb ochiq iqrar bo'lib qo'ya qoldim.

— Ahmoq! — dedi sal jahiddan tushib Turon tog'a. — Dadangga o'xshamay o'li Opa-singillarning qaysi biriga oshiq bo'lganini bilolmay dadang ham sovcilarni bir yil qiynagan edi. Angovning bolasi ham angov bo'larkan-da.

Turon tog'a jahl bilan xatlarini yirtib, qog'oz parchalarini betinga otdi-da, «bobong ham shunaga edi», deb javragancha chiqib ketdi. Bu gap ikki-uch kun ichida butun

qishloqqa ovoza bo'ldi. Bechora Hakima kasal bo'lib yotib qoldi... Oxiri o'zлари sovuhi yuborishdi.

— Sengami?

— Menga.

— Teskarisi bo'pti-da?

— Shunaga, teskari bo'ldi. Sen bo'lganda bunaga bo'lmasdi, maslahat berding...

— Xo'sh, keyin o'zi bilan gaplashdingmi?

— Gaplashdim, yig'jadi... Keyin menam yig'ladim, rosa yig'lashdik... Rasmini ham berdi... Sherik, sendan bir iltimosim bor, lekin yo'q demaysan.

— Xo'p, yo'q demayman.

— To'ydan so'ng Hakimani shahardagi katta do'xirlarga olib boramiz, yordam berasan. Bitta oyog'i sal katta, mening etimdan olib, ulasa bo'larkan. Aptekachi aytdi. Ikkovimizni bitta karavotga yonboshlab yetqizib, oyog'imizni oyog'imizga ulab qo'yishsa, uch oyda soppa-sog' bo'lib ketar ekan...

— Hakima ko'narmikan?

— Ko'nadi.

— To'y qachon?

— May bayramiga qilamiz, o'yinchini shahardan o'zing olib kelasan.

Tong o'tib, birin-ketin yulduzlar so'na boshlaguncha gaplashib o'tirdik. Lekin, shunda ham bir-birimizga to'yamadik. Hali aytdim-ku, oqko'ngil do'stimni juda, juda ham sog'ingan edim.

Shu yo'sin qishloqda maza qilib yuraverdim. Bugun Zokir bilan dardlashgan bo'lsak, ertasiga xumkalla Orif bilan hasratlashdik. Tish doktori bo'lmay ketgur, tish qo'yib berishi bir bahona bo'libdi-yu, huv birda, oltinchi sinfda o'qib yurganimizda menga darslardan yordam bergan Saddiniso bor edi-ku, o'shaning boshini aylantirib qo'yibdi. Yozda, otpuska pulini olsa Saddinisoning oyisiga ham tilla tish qo'yib berarmish.

Hamnadan ham qishloqda bo'lgan kunlarimda buvjonin maza qildi. Ertadan-kechgacha mashinadan tushmay

kataysa qilgani-qilgan. Ko'pincha mashina oynasidan boshini chiqarib yuradi deng. Hojar kelinyoning uyi nari borsa 400 metr keladi xolos, ishonsangiz, o'shamkiga elak yoki xamirturush so'ragani chiqsa mashinada boradi. «Nega bunday qilasiz, buvjon» desam, «ishing bo'lmasin, mangani ko'zini kuydirmoqchiman», deydi.

Qari o'rikni kesib g'o'la qildik. Tappi dumalatib, tomlarni to'ldirib tashladik. Sandiqdagi turshagu shaftoli qog'ilarni tekin mashinada bozorga olib berib sotib ham keldik. Dadam ikkovimiz boqqa chiqib ertangi pomidor ekish uchun yer chopayotgan edik, buvjonim tarelkada turshak, qorindor choynakda choy ko'tarib kelib qoldi. Dadam choy ichgani o'tirdi. Men jon-jahdim bilan ketmon urishda davom etdim.

— Hoshim, choy ichmaysanmi, toylog'im? — juda mehribon bir ohangda so'radi buvjonim.

— Hozir suv ichib oldim, — deb qo'ydim.

— Nima qilay, Hojarnikiga sovehilarni chiqaraveraymi?

— haligidan ham mayinroq, mehribonroq bir ohangda so'radi buvjonim.

— Kerak emas, — dedim negadir xuddi qitig'im kelgandek bir kayfiyatga tushib. — O'ziyam manga, qizi ham manga.

— Halcha buvning qizichi?

— O'rdakka o'sshab lapanglab yuradi-ku?!

— Rashidani kelin qilaylik bo'lmasa?

— Men ashulachini olmayman.

— Kimni tanlaysan bo'lmasa?

— Faridani!

— A, qanaga Farida?

— Menga chuchvara qilib bergan Farida.

Buvjonim qoshlarini chimirib, qo'lga kesak olib, sekin o'rnidan turayotgan edi, shu payt boqqa qishloq kengashining sekretari hovliqancha kirib keldi.

— O'rtog Ro'ziyev, shahardan telefon qilishdi, zudlik bilan yetib borar emishsiz... — dedi u entikib.

«Salimjon akamga bir gap bo'lib qolgan bo'lsa-ya», deb o'yladin-u, allanechuk bo'shahib ketdim.

#### VOY OTAMLAR YIG'LADIM

**Sh**aharga uchib kelyapman. «Volga» qancha tezlik bilan yura olsa, shuncha tezlik bilan haydayapman. Nazarimda yo'lim hech unmayotgandek, shahar mendan qochayotgandek tuyuladi. Ehtimol o'imgandir... Yo Odli battol qamoqxonadan qochdimkan, bordi-yu... battol pichoq urgan bo'lsachi!.. Ustozimning ko'chasiga burilganmicha bir-biridan qo'rqinchli o'ylar, poyonsiz xayollar menga tinchlik bermadi...

Salimjon akamning ko'cha eshiklari oldi tozalab supurilgan, suvlar sepilgan, katta-kichik odamlar uzun-qisqa bo'lib kirib chiqib turishibdi... Yuragim urib ketdi. Nahotki, nahotki men uchun dunyoda eng qimmatli bo'lgan, bag'ri keng, saxovatli bir odam omonatini topshirgan bo'lsa, nahotki men uning oxirgi so'zini eshitolmay qolgan bo'lsam! Yo'q!!! E, la'nati o'lim, dedim-u, dodlab yubordim... Qishloqti emasmanni, o'zimning odatimiza rioya qilib, «otamma, otamma!» deb o'kirib, ostonaga yaqinlashaverdim. Kuyib ketgan ko'ksimdan.

— Oxiratga safar qilgan otamma! Bizni yetim qilib tashlab ketgan voy otam! — degan faryodlar otilib chiqaverdi. Ostona yaqinida rang-ro'yi uchib ketgan magazinchil qo'shimimiz yo'limni to'sib:

— Hoshimjon, o'zingizni bosing! — deb yolvorddi.

— Yurak-bag'rim ado bo'ldi, otamma! — deb yana avjiga chiqdim.

— O'zingizni bosing deyapman, — deb Ne'mat aka meni to'smoqchi bo'luvdi, uni nari itardim-da: «Mehribonim voy otam!»lab ichkari kirib bordim va ostona ostida o'ti o'chgan motordek taqqa to'xtab qoldim... Hovli to'la odam. Qo'ni-qo'shimlar, mahallaning tekin ziyofat

daragini eshitsu tomdan tashlashga tayyor turgan bekorchilari. Salimjon akamning uzog'-yaqindagi oriq semiz oshna-og'aynilari... Hattigi tramvayning vagoniga o'xshash cho'zimchoq ravon bor edi-ku, ana o'sha yerda pogonlarini yiltiratisib, savlat to'kishib militsiya xodimlari o'tirishibdi. Karavotda o'zimning sozandalar mashq chalishyapti. «Nima qildim endi, rosa sharmanda bo'idim-ku... Yo'q, sharmanda bo'ladigan amoyi yo'q! Hozir o'zimi mastlikka solaman, hamma bema'ni ishlar mastlikda qilinadi. Hamma mast bo'lganda militsioner ham bir marta bo'lsa nima qilibdi!..» Qo'llarimni yozib, dir-dir qaltirab turgan oyoqlarim bilan yerini gurs-gurs tepib o'yinga tushib ketdim.

— Iye, Ro'ziyev kepti.

— Qip-qizil mast-ku!

— Qarang-a, mastlik Hoshimjonga juda yarasharkan.

— O'yna, yigicha, o'ynab qol!

— O'zlari ichib olib, ko'chalarda «otamlab» yurishadi-yu, sen bilan men yuz gramm ichsak, o'n besh sutka berishadi... — degan gaplar qulog'imga eshitilib turibdi. Men bo'lsam parvoyimga ham keltirmay, nuqul o'yinga berilaman. Avvai shahar militsiyasi pasport bo'limida ishlaydigan ikkita qizni, ketidan ikkita begona yigini o'yinga tortib, boshqalarni ham qarsak chalishga da'vat etdim. Bir nafasda butun mehmonlar qarsak chalishib, chayqalishib, bir jonu bir tan bo'lib ketishdi. Sekin bir chekkaga o'tirib oldim.

— Hoshim, o'g'lim! — degan ovoz eshitilib qoldi orgamdan. Bunday qarasam, odamlarni oralab, meni mo'ljalga olib quchog'imi keng yozgancha Salimjon akam kelyapti.

Meni yerdan dast ko'tarib, negadir peshanamdan o'pdi:

— Karim keldi, akang keldi, o'g'lim!

Karim aka, ilgari ustozim aytib bergandek, chinakam pahlavon yigit ekan, bay-bay-bay, qomati kelishganini

qarang! Xuddi odamlarga ko'z-ko'z qilish uchun qo'l bilan yasalganga o'xshaydi.

— Yanglishmasam, Hoshimjon bo'lsangiz kerak, shunday-mi? — dedi Karim aka menga yaqinlashib.

— Xuddi shunday, — deb qo'ydim. O'zi men juda g'ulatiman. Bir xil vaqtlarda bulbuligo'yo bo'lib gapiraverib odamlarning miyasini qoqib qo'lga beraman. Hozir bo'lsa, tavba, og'zimga «alif» ham kelmasa bo'ladimi! Karim akaning aftiga qarab, iljayganimcha jim turaverdim. Xayriyat, o'zi gap boshlab qoldi.

— Dadamning yolg'izligini bildirmay juda yaxshi ish qilibsiz, Hoshimjon!

— Ha, ha, shunaga bo'ldi.

— Dadam ikkovlaring yozgan xatni olib turdim, rahmat!

— Arzimaydi.

— Hazilni ham boplar ekansiz.

Tavba, nimalar bo'lyapti o'zi. Nega bunday bo'lib qoldim?

Yo'q, og'zimga talqon solgandek jim o'tiraversam, Karim akam uchun noqulay bo'ladi, yo turib ketishim kerak, yo gapirishim kerak! Axir, u mening iljayishimni tomosha qilish uchun yonimga kelgani yo'q-ku.

— Karim aka, hali siz bilan to'yib-to'yib gaplashamiz, — dedim nihoyat o'zimni qo'lga olib, — ruxsat bersangiz, mehmonlarga xizmat qilsam...

Ichkari uydan kiyimimni almashtirib chiqdиму, yengimni tirsagimgacha shimarib, xizmat qilishga tushib ketdim: kabob tashidim, choy keltirdim, bo'sh tarelkalarni yig'ib oldim, besh-o'ntasini sindirib ham qo'ydim, xullas, tungi soat birgacha mehmonlar ketib, hammayoqni yig'ishtirib olgunimizcha hech tinnadim. Salimjon polkovnikning chinakam sadoqati o'g'li ekanligimni mehmonlarga ham, Karim akamga ham bir ko'rsatib qo'yay dedim-da.

#### «YO'Q, MENGA OTALIK QILMADINGIZ!»

**E**rtasiga men bir yo'la uchta, yo'q, kechirasiz, to'rtta xushxabar eshitib, andak bo'lmasa quvonchdan gangib qolayozdim. Soat o'nda Ali Usmonovichning kabinetiga yig'ildik. Mana shu yerda men ketma-ket yangiliklar eshitdim va hali aytganimdek, oxiri jindek gangib ham qoldim. Birinchidan menga, ya'ni Hoshimjon Ro'ziyevga kichik leytenant unvoni berilibdi. Ikkinchidan, polkovnik Ali Usmonov oblast militsiyasiga boshliqlikka tayinlanib, ministrlkning tasdiigidan ham o'tib kelibdi. Uchinchidan, mening ustozim rayon militsiya boshqarmasiga boshliq bo'lib o'tib, roppa-rosa bir hafta ishlab ham qo'yibdi. To'rtinchidan... Kechirasiz, ochig'ini aytсам Hoshim maqtanyapti, ba'zan juda oshirib yuboradi-da, deysiz, ochig'ini aytmasam, haqiqatni berkitgan bo'laman... To'rtinchidan, kichik leytenant o'rtog' Ro'ziyevni OBXSS bo'limiga boshliq qilib tayinlashibdi.

Ali Usmonov biz bilan xayrlasha turib, yig'lab yubordi. Rosidan yig'ladimi yoki jo'rttaga yig'ladimi, bunisini aniq ayto'lmayman-ku, ammo ko'zlaridan duv-duv yosh to'kilganini hammamiz ko'rdik.

— Men sizlar tufayli odam bo'lib obro' topdim, oddiy ishchi edim. Salimjon akamning tavsiyasi bilan militsiyaga keldim. Bu kishi men uchun chinakam murabbiy, chinakam ustoz bo'ldi. Men yoshlar yetakchisi, kapitan Karomat Hoshimova, kasaba qo'mitamisining raisi o'rtog' Xoligov va butun kollektiv oldida bir umr qarzdorman. Ish paytida ko'p kamchiliklarga yo'l qo'ydim, xatolar qildim, meni to'g'ri yo'lga solishdi, tarbiyalashdi. Men Sur'at Oripov, Odil Sharipov, Hoshimjon Ro'ziyev singari yosh xodimlarimizga ta'zim qilaman. Shularning sadoqati mehnatlari tufayli mening rejalaram amalga oshdi. Men... men... bu yerdan ketish men uchun juda og'ir... — xuddi shu yerga kelganda, hali aytganimdek, Ali Usmonov ko'zlaridan duv-duv yosh to'kib yig'lab yubordi.

Shu kuni garchi men uchun har tomonlama quvonchli bo'lsa ham, bu xushxabarlarning qaysi biriga quvonishini bilmay gang'iganimdan yoki odamlar ichida: «E o'l, o'zing ham zo'rg'a turgan ekansan, buncha taltayib, buncha ataladek suyuhtmasang!» deb aytishmasin deya qo'rqqanimdan jo'rttaga qovog'inni solib, biron muhimroq narsa haqida o'ylayotgan kishidek peshanamni tirishtirib xonada jim o'tiraverdim. Kunning ikkinchi yarmida esa, odamlar: «Obbo, amal tegmay o'lsin, qovog'ini solib, xoda yutgandek kekkayib o'tirishini qarang, amaldorlik kursisini buncha yaxshi ko'rmasa-ya!» deyslaridan cho'chib, xonama-xona yurib, latfalar ayrib, hamkasblarimni rosa kuldirdim.

Kechqurun uyga qaytsam Salimjon akam o'g'li bilan ravonda o'tiribdi. Oralaridan gap qochganga o'xshaydi, ikkovlari ham boshlarini egib olgan, bir-birlariga qaramaslik payida. Xona o'rtasida chamadon bilan Karim akamning qamoqxonadan kiyib kelgan plashi ham turibdi. Ichkarigi uyga kirib yechinib chiqdim. Tarasha maydalab, samovarga o't soldim, so'ng yonlariga kelib o'tirdim.

— O'g'lim, o'ylamay ish qilyapsan, — dedi Salimjon akam uf tortgandek.

— Boshqa ilojim yo'q, — dedi o'g'li teskari qarab.

— Har holda qari otangga ham jindek achinsang bo'lardi, bir oyog'im go'rda bo'lib qoldi...

— Siz-chi? — Karim aka o'rnidan turib ketdi. — Meni gamatayotganingizda men ham sizning o'g'lingiz ekanimni o'ylaganmidingiz? Boshqalar o'g'lining boshiga tashvish tushsa, yugurib-elib yordam berishadi, qutqarib qolishga harakat qilishadi. Siz-chi? Siz qo'l-oyog'inni bog'lab ushlab berdingiz.

— Men o'z burchimni ado etdim, o'g'lim!

— Xalq oldida, hukumat oldida yuzim yorug' bo'lsin, vijdonimga dog' tushmasin deb o'ylagansiz, shundaymi?

— Shunday, o'g'lim.

— Demak, siz o'z obro'yingizni o'ylagansiz-u, mening kelajagimni, o'lim to'shagida yotgan onam bechoraning

hayotini o'ylamagansiz. Onamning hayoti bilan mening kelajagimni o'z obro'yingizga qurbon qilgansiz!

— Lekin, sen jinoyat qilgan eding-ku! — Stolni mushtlab, Salimjon akam ham o'rnidan turib ketdi. — Sen qilmishingga yarasha jazo olishing kerak edi. Har qanday jinoyatchi jazolanishi kerak!

— Yolg'on gapiryapsiz.

— Tilingni tiy!

— Men siz bilan oxirgi marta gaplashyapman, — deb Karim aka sekin o'rniga o'tirdi, — shuning uchun hamma gapni ochiq ayrib ketishim kerak. Siz har qanday jinoyatchi jazolanishi kerak deyapsiz. Men yolg'on deyapman. Chunki siz o'zingizga tuhmat qilgan, o'g'rlarga sherik bo'lgan Sharifa Umonovani qamoqdan chiqarib yuborgansiz.

— Chunki u aybiga iqror bo'lgan.

— Men-chi, men ham iqror bo'luvdim-ku.

— Sen jinoyatningni men, ya'ni militsiya xodimi fosh qilgandan keyin iqror bo'lgansan.

— Bari bir emasmi?

— Yo'q, bari bir emas, o'g'lim. Qonunchilikda majbur bo'lganda iqror bo'lish bilan, majbur bo'lmagan bir sharoitda vijdon amri bilan iqror bo'lish o'rtasida yer bilan osmoncha farq bor... Keyin Sharifaning emizikli bolasi ham bor edi.

— To'g'ri, ukam borligini bilmagan ekanmani...

— Tilingni tiy! — Salimjon akam o'g'liga yaqinlashib, bir hamla bilan yogqasidan bo'g'ib oldi. Ota-bola tikkamattikka bo'lib ketishdi. — Bu gaplarni kimdan eshitding?

— Yogamni qo'yib yuboring!

— Gapir!...

— Qo'yib yuboring deyapmani! — Karim aka ham baquvvat yigit emasmi, bir silkinib, dadasining qo'lidan chiqib ketdi, ammo ustozim uni yana bo'g'ib oldi.

— Kimdan eshitding deyapman?

— Qamoqxonada xat oldim.

— Kimdan?

— Imzo qo'yimabdi.  
 — Qachon olding?  
 — Chiqayotgan kunim.  
 — Nima deb yozibdi?  
 — O'tang seni qamatgan edi. Ammo o'ynashini saqlab qolishdan uyalmadi, deb yozibdi.

— Qani o'sha xat?  
 — Yirtib tashladim.  
 — Ahmoq!

— Yoqammi qo'yib yuboring.  
 — Sen bari bir odam bo'lmabsan. — Salimjon akam o'g'lining yogasidan qo'lini oldi-yu, bo'shashib divanga o'tirdi. Boshini ikki kafi orasiga olganicha jim qoldi. U jim bo'lishi bilan o'g'li kuchayib ketdi. Xona o'rta-sida tik turganicha ikki qo'lini shop qilib gapira boshladi:

— Meni odam bo'lmabsan deyishga haqqingiz yo'q! Men gamoqxonada o'tirib, o'ninchi sinfni a'lo baholar bilan bitirishga harakat qildim, kecha attestatimni ko'rib, o'zingiz peshanamdan o'pdingiz. Men gamoqxonada, boshqalarga o'xshab bekor yotmadim. Qilgan gunohimni hech bo'lmasa mehnatim bilan yuway deb, romsozlik kombinatida ikki-uch normadan ish bajardim, kecha maqrov qog'ozlarimni ko'rib o'zingiz rahmat aytdingiz. Odam bo'lmabsan deyishga haqqingiz yo'q... Dada, meni to'g'ri tushuning, bari bir, sizni kechira olmayman. Onam o'lmaganda ham ehtimol kechirib yuborgan bo'larmidim... Bechora onam meni deb o'ldi, meni esa siz qamadingiz...

— Yig'lama! — o'shqirib berdi Salimjon akam.  
 — Dada, meni kechiring. Ba'zan sizga rahimim keladi, dadam bechoraga ham qiyin deb o'ylayman. Ba'zan tishlarimni g'ijirlatib, axir u menga yaxshi tarbiya bera olmadi-ku, shu tufayli og'ir ahvolga tushib qolganimda yordam qo'lini cho'zish o'rninga obro'yimga putur yemasin, deb meni qamatdi-ku, deb o'ylaymanu sizdan nafatlanaman... Yaxshisi men ketay, birga yashay olmaymiz...

— Yig'lama deyapman!  
 — Dadal!  
 — Qayoqqa ketmoghisan?  
 — Cho'lda romsozlik kombinati ochilibdi. O'sha yerga ishga kirmoghiman.

— Yo'lkirang bormi?  
 — Yo'q.  
 — Pul bersam olasanmi?  
 — Yo'q.

Karim aka ichkari uydan marhum onasining ramkaga solingan suratini olib chiqdi-da, bag'riga bosganicha yum-yum yig'lab, jo'nab ketdi.

Tashqariga chiqsam, samovar qaynagan ekan, aelchigqina choy damlab keldim. Salimjon akam boshini ikki qo'li orasiga olib, divanning bir chekkasida jimgina o'tirar edi.

Ovoz chiqarmasdan, ko'z yoshi to'kmasdan yig'lar edi u.

#### «MUSTAQIL BOL, O'G'LI»

**E**r talab idoramizda jindak dilsiyohlik bo'lib o'tdi. Kasaba qo'mitasining raisi mayor o'rtiq Xo'liqov mening OBXSS bo'limiga boshliq bo'lib o'tishimga juda qattiq norozilik bildiribdi. Salimjon akam bilan g'ijilashib olibdi u: «Hoshimjon har gancha jasorat ko'rsatgani bilan, hali yosh, boshqarmada ishlayotganiga ko'p ham bo'lgani yo'q. Bu yerda o'n besh yillab ishlayotgan tajribali xodimlar bor. Bo'limga o'shalardan birini o'tkazamiz, degan ekan Salimjon akam: «Aql yoshda emas, boshda, degan hikmatni unutmang, o'sha o'n besh yillab ishlab, biron jinoyatni o'cholgagan xodimlaringizning xatosini Hoshimjon tuzatdi» debdi. O'rtiq Xo'liqov «men yuqoriga arz qilaman» desa, Salimjon akam «men yuqoridagilar bilan maslahatlashib, ish tutganman» debdi. O'rtiq Xo'liqov «yuqoridagilar

haqiqiy ahvoldan bexabar bo'lishsa kerak» debdi. Salimjon akam «bo'lmasa borib, ularning xatosini tuzatib keling» debdi. O'rtog' Xoligov «bari bir men o'z fikrimda qolaman» degan ekan, Salimjon akam: «Men ham o'z fikrimni o'zgartirmoqchi emasman» debdi. O'rtog' Xoligov «ko'ramiz» desa, Salimjon akam «ko'rsak, ko'raveramiz» debdi.

Bir mahal o'rtog' Xoligov xonamga qovog'idan qor yog'ib, meni bo'g'ib tashlagudek bir alfozda kirib keldi. Ustozim bilan o'rtalarida bo'lib o'tgan gapdan xabardor edim. Shuning uchun men ham qovog'imni undan battarroq solintirib, stolni «Olmacha anoringga balli» ohangida chertib, jim o'tiraverdim.

— Shu ishingiz yaxshimi? — dedi nihoyat o'rtog' Xoligov tutaqib.

— Yaxshi, — deb qo'ydim beparvogina.

— Uyalmaysizmi?

— Yo'q, uyalmayman.

— Vijdon bormi o'zi sizda?

— O'zingizda-ehi?

— Maynavozchilik qilmang.

— Qilaveraman, — deb yana bo'sh kelmadim. Shundan so'ng o'rtog' Xoligov grafindan suv quyib ichdi. Divanga o'tirib:

— Bu yerda xizmat ko'rsatgan mayorlar, kapitanlar oddiy vazifada o'tirsa-yu, kechagina kelib siz bo'lim boshlig'i lavozimini egallab olsangiz, uyat! Men sizning o'rningizda bo'lganimda vijdon azobida qolgan bo'lardim, — dedi. U bosiq gapirgani uchun men ham bosiqlik bilan:

— Shu lavozim sizga kerak bo'lsa, ola qoling. Rostini aytсам, o'zingga ham yoqmayroq turibdi. Siz bilan amal talashgandan ko'ra, qishloqqa borib, tappi dumalatganim ming mara yaxshi, — dedim.

— Rost aytayapsizmi? — hovliqib so'radi o'rtog' Xoligov.

— Rost aytayapman.

— Yozing bo'lmasal!

— Nima deb yozay?

— Kasaba qo'mita raisi o'rtog' Xoligovga, men o'zimni bu vazifaga noloyiq bilaman, deb yozing.

Xuddi shu payt, ya'ni men ariza yozish uchun ruchkaga endigina qo'l cho'zgan paytimda sekretar qiz kirib, «sizni Karomat Hoshimova chaqiryapti» deb qoldi. O'rtog' Xoligovni kabinetimda yolg'iz qoldirib, Karomat kelinoyimning huzuriga shoshildim. Kelinoyim, qizchasi bugun bog'chaga bormayman, deb yo'lida xarxasha qilmaganga o'xshaydi, o'zicha kulib mamnun o'tiribdi.

— Xo'sh, o'rtog' bo'lim boshlig'i, ishlar qalay? — deb so'radi o'tirishim uchun qo'li bilan joy ko'rsatib.

— Chakki emas.

— Ishni nimadan boshlamog'chisiz?

— Ariza yozishdan.

— Ariza, qanaga ariza?

— Shu... ishdan bo'shash haqida.

— Sizning ham hech jiddiy gapirgan vaqtingiz bo'ladimi?

— Hozir jiddiy gapiryapman... O'rtog' Xoligov: «Senda vijdon bormi o'zi» deyapti.

— Demak, sizning oldingizga ham kiribdi-da. — Karomat kelinoyim o'rmidan turib, sekin mening yonimga o'tdi. — Parvo qilmang. Kecha shu haqda menga ham aytuvdi, urishib berdim... O'zi alamzada, Salimjon aka o'rninga boshliq bo'lmog'chi edi. Raykom tasdig'dan o'tkazmadi. Alamini kimdan olishini bilmay yuribdi... Bugun-erta o'ziga kelib qoladi. Aslida o'zi yomon odam emas, tajribasi zo'r... Xo'sh, plan tuzdingizmi?

— Bugun tuzmoqchiman.

— E'tiboringizni ko'proq jinoyatning oldini olishga, kishilarni tarbiyalashga qarating. Qonunchilik asoslarini tushuntirishga harakat qiling. Hozir partiyaning talabi ana shunday.

— Aytganingizdek qilaman.

— Ertaga menga tasdiqqa olib kirasiz.

— Endi ketsam maylimi?

— Mayli...

Xonaga qaytib kirsam, o'rtiq Xo'liqov hamon meni kutib o'tirgan ekan.

— Nimaga chaqiribdi? — qiziqsinib so'radi u.

— Yildominni tekshirib ko'rganmi. — piching bilan javob qaytardim.

— Xo'sh, bormikam?

— Javobini kecha olgan ekansiz!

Shu gapimdan so'ng kulimsiragancha bir-birimizga tikilishib qoldik. O'rtiq Xo'liqov sekin o'rtidan turdi. «Bir oy o'tar-o'timas ishini rasvo qilib, muhokamaga tushmasang, otinni boshqa qo'yaman» dedi-yu, javob berishimni ham kutmay, polni teshib yuborgudek gursillatib tepib, chiqib ketdi. Anchagacha xomush o'tirdim. Goh kulgin qistaydi, goh jahlim chiqadi. O'ylaymanu, lekin nima haqida o'ylayotganimni o'zim ham bilmayman. Xayolga berilib, Salimjon akamning xonasiga kirib borganimni sezmay qolibman. «Xo'sh, kichik leytenant, eshitaman» degandan keyingina o'zimga keldim. Bo'lgan voqeani oqizmay-tomizmay so'zlab berdim. Ustozim ko'pni ko'rgan og'ir, bosiq odam-da. Bu gaplarni parvosiga ham keltirmadi. Aksincha, kishi har qanday sharoida ham mustaqil bo'lishga intilishi zarurligi, agar o'zingni haq deb bilsang, butun dunyo qarshi turganda ham bilganingdan qolmasliging kerakligi haqida gapirdi va oxirida bir hikoya ham aytib berdi...

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, o'tgan zamondami yoki shu kunlardami, ishqilib, bizning Farq'ona tomonda bir chol bilan nabirasi bo'lgan ekan. Nabirasi: «Bobojon, bir xil odamlar uni qil deydi, bir xil odamlar buni qil deydi, nima qilishimni bilmay garang bo'lib qoldim, maslahat bering», debdi. Chol: «O'g'lim, eshakni to'qimlab chiq bo'lmasa», debdi. Chol eshakka o'zi minib, nabirasi piyoda, guzardan o'tib borayotgan ekan, o'tirganlar:

— Obbo, berahm chol-ey, o'zi eshakka minib, yosh bolani piyoda olib ketyapti-ya, mindirib olsa asakasi ketarmikan!

— deyshibdi. Chol narigi guzarga yetganda nabirasini eshakka mindirib, o'zi piyoda ketaveribdi. O'tirganlar:

— O'z qadimi bilmagan tentak chol-ey, ho'kizday yigitni eshakka mindirib, o'zi piyoda ketyapti-ya. Mingashib olsang, eshaging o'lib qolmaydi-kul! — deyshibdi. Chol nabirasi bilan yo'l yurishda davom etibdi. Yo'l yurishibdi, yo'l yurisha ham mo'l yurishibdi. Nihoyat yana bir guzarga yetishganda eshakka ikkovlari barobar mingashib olishibdi. Choyxo'rlar bo'ymlarini cho'zib:

— Mushuk boladek eshakka ikki kishi minib olibdi-ya, biri minib, biri piyoda ketsa bechora eshakka buncha jabr bo'lmasdi, — deyshibdi.

— Mana o'g'lim, — debdi chol uyga qaytganda, — odamlarga unday qilsang ham yoqmayсан, bunday qilsang ham yoqmayсан. Yaxshisi, yomon bo'lsa ham o'z bilganingdan qolmagin...

Salimjon akam hikoyasini tugatib, go'yo bu hikoya menga qanchalik ta'sir qilganini ko'zlarimdan bilib olmoqchi bo'lgandek, tikitilgancha, jim qoldi. Shu payt qabulxonona sekretari, hamisha ustki labiga qizil surtib, ostki labiga surtishni esdan chiqarib yuradigan Lillyaxon kirib:

— O'rtiq Ro'ziyev, sizni bir qiz anchadan buyon kutib o'tiribdi, — deb negadir achchiq qilgandek, eshakni tarsiilatib yopib chiqib ketdi.

— Qiz, qanaga qiz?! — «o'hu, ishlar katta-kul» degan ohangda so'radi ustozim.

— Keliningiz kelgandir... — deb hazilga olib, o'imindan turdim.

#### YURAGIMNI O'YNATGAN QIZ

Qabulxonada... yopiray, bu o'ngimmi yo tushimmi! Ko'pincha qo'lida bir tog'ora chuchvara bilan tushlarimga kirib chiqadigan, buv'ijonim shu yozdan goldirmay seni yulantiraman, deb qiyin-qistovga olganda ko'z oldimdan



nari ketmay yuragimni o'ynatgan... Farida o'tiribdi, Farida!  
U meni yo'qlab kelibdi...

Qo'l-oyog'im qaltirab, yuzimni ter bosdi. Entikib ketdim.  
To'lishib, yuzlari taram olmadek qip-qizarib, o'zi ham gul-  
gul yashnab ketibdi... gapir, Hoshim! Farida kelibdi! Tezroq  
gapir axir, o'rtiq kichik leytenant!

— Hoshim aka, meni tanimadingiz-a? — dedi qiz.  
«Ovozlari ham bir mayin, yumshoq, erkalovchi», degan fikr  
o'rdi boshimdan.

— Tanidin, faqat nega chuchvara olib kelmaganingizga  
hayron bo'lib turibman! — dedim nihoyat o'zinni qo'lga  
olib.

— Voy, hatiyam hazilkashligingiz qolmabdi-ya, — dedi  
Farida negadir ko'zini mendan olib qochib.

Mening kabinetimga kirib, divanga yonna-yon o'tirdik.  
Qiziq, nega men to'sardan bunaqangi uyatchan bo'lib  
qoldim, unim bino bo'lib, birovdan uyalgan bola emasdim-  
ku! Qo'lim, oyog'im, burnim — butun borlig'imdan uyalib  
ketyapman. Qo'lim qurg'ur tinmay qaltirayapti, qaltiragan  
qo'lni qizlar yoqtirmaydi deyishardi. Hayajonlansam burnim  
terlaydigan odatin bor. Qani endi o'tkir pichoq bo'lsa-yu,  
shu zornanda burnimni ham shartta kesib tashlasam...  
Qo'ng'ir sochlari biram mayin, xushbo'y hid anqib turibdi.  
Ko'ylagi, jempirlari o'ziga biram yarashgan. Yo'q, go'zal,  
juda go'zal u. Qishlog'imizdagi hech bir qiz unga  
o'xshamaydi... Gapirishim kerak... Nima deb gapirsam  
bo'lar ekan-a?...

— Men, bir itimos bilan kelgan edim, — xayriyat, sekin  
gap boshlab qoldi Faridaning o'zi.

— Jonim bilan, — dedim-ku, yo'tal aralash chiqqan  
ovozim o'zimga yoqmay, battar uyaliib ketdim.

— Devoriy gazeta chiqarayotuvdik... Bitta she'r yozib  
bersangiz. She'r yozishni bilaman degan edingiz-ku...

— She'r, haligi o'qiladigan she'rmi? — dedim yana  
g'uldirab. Chindan ham jimixonada yotgan mahallimda  
Faridaga bag'ishlab hazinamo bir narsalar yozgan edim.

Bir xillarini o'ziga o'qib berib rosa kuldirtganman. Yana  
bittasi bor, o'shani hozir oq qog'ozga ko'chirib bersam-chi.

*Jimixona xodimi,*

*Juda katta odinni,*

*Kalaka qilmaning uni,*

*O'qasida yo'q dunni.* —

deb o'qigan edim, Farida kulib yubordi. Qotib-qotib kuldi.  
She'rim ma'qul bo'lganiga sevinib, o'zim ham kulguga  
qo'shilgan bo'ldim. Farida «obbo Hoshim aka-ey, siz aslida  
sirkda ishlasangiz bo'larkan» deb hazil qilgan edi, men ham  
«to'ydan keyin ishlayman» deb hazilga hazil bilan javob  
gaytardim. Shunday deyishim bilan Farida yalt etib menga  
qaragan edi, ko'zlarimiz uchrashdi-yu va tamom... Men  
yana o'zinni yo'qotib qo'ydim. U yer ostidan menga qarab,  
shahlo ko'zlarini suzib, tingora qoshlarini chiroyli chimirib  
qo'yadi. Men bo'lsam og'zinning tanobi qochib, nimadandir  
sevinib, nimadandir andak qo'rqib, bo'lar-bo'lmasga  
iljayaman. Nihoyat, Farida o'rimdan turib:

— Men boray endi... — dedi bilinar-bilimas entikib. Shu  
paytda uning butun vujudi yengil qaltiraganini, shahlo  
ko'zlari namlanganini ko'rib qoldim. Men ham shoshilib  
o'rimdan turdim:

— Kuzatib qo'yaman.

Orgama-orqa ko'chaga chiqdik. Yo'lakda yonna-yon  
borayotirmiz. Qurib ketmagur tilim yana tanglayimga  
yopishib qolsa bo'ladimi. Aksiga olib, odamlarning ham ikki  
ko'zi bizda.

— Ha, ha, yaxshi qiz, axir qo'lga tushibsan-ku!

— O'rtiq miltisioner, mana shu qiz o'g'ri bo'ladi, kecha  
bizning hovlimizdan o'sma o'g'irlagan!

— Xafa bo'lmaning, oppop qiz, o'zim uylaringga xabar  
qilib qo'yaman!

— Hoy qiz, kalta ko'ylak kiymagin, miltisiya qamab  
qo'yadi, demabnidimi! — deb o'tgan-keganlar hazil-

mutoyiba ham qilib ketishyapti... Men battur uyalamam. O'zimdand, Faridadan, daraxtlardan, mashinalardan uyalamam. Nuqul chakkamni qashlab, birov kelib «vah» deb qo'rqitib yuborayotgandek o'giritib orgamga qarayman...

Lekin nima bo'lganda ham Faridalarning uyiga yaqinlashib qoldik. Baxtimdan o'rgilayki, xuddi shu biz yashaydigan ko'chani oxirida turishar ekan, dadasi un tortadigan kombinatning direktori bo'lib ishlar ekan.

Kuzatib qaytayotibmanu, negadir, quvonchimni ko'ksimga sig'dirolmay, baqirib ashula ay'tgim, yo'lovchilarni quchoqlab, peshanasidan o'pgim, yugurib, ariflardan sakrab o'tgim keladi. Shirin-shirin entikaman. Oxiri bo'lmadi, ko'chada onasining oldida pildirab kelayotgan bir go'dakni dast ko'tarib, peshanasidan o'pdindar:

— Farida meni yo'qlab keldi, ukajoni! — deb qichqirdim. Idoraga kelsam, hammayoq olatasir bo'lib ketibdi. Xodimlar u yoq-bu yoqqa choggan, telefonlar jiringlagan, qabulxona sekretari Liliyaxon yo'limni to'sib:

— O'rtiq Ro'ziyev, Odil Abbosov qochibdi! — deb xabar qildi.

— Yaxshi, — dedim hech narsaning fahmiga bo'rmay.

— Esingiz joyidami, jinoyatchilarning boshlig'i qochibdi deyapman.

— Meni tabriklang, — dedim Liliyaxonga qo'limni uzatib.

— Ushladingizmi? — hovliqib so'radi qiz.

— Haliqi kelgan qiz Farida edi! — dedim sevinchimni berkitolmay.

Liliyaxon menga qarab ang'rayib turdi-da, «bek orga jinixonaga tushmagan ekansiz», deb orgasiga burilib chiqib ketdi.

Men bo'lsam nasha chekkan bangidek hamon garang. ta'rifiab bo'lmaydigan darajada mast edim.

## ODIL BATTOLNING QOCHISHI YOKI XAVOLPARASTLAR MAJLISI

**B**axti qaro direktor boshlig' jinoyatchilar ustidan tergovni o'rtiq Xoliqov rahbarligida ikki leytenant olib borayotgan edi. O'rtiq Xoliqov bundan oldin ham mana shunqangi katta jinoyatchilarning ustidan tergov ishlarini olib borib, eng ashaddiyalarining ham aybini bo'yiniga qo'yib tavbasiga tayantirgan, odil va qattiqqo'lligi bilan shaharda nom chiqargan edi. Shuning uchun ham odamlar: «Ishing uning qo'lga tushsa yo o'lib qutulasan, yo bo'yiniga olib qutulasan!» — deb yurishar edi. Odil battol bo'lsa, mana eshitib turibsiz, qochib qutulibdi.

...Tergov bo'yinining boshlig'i battolga burama savollar tashlab, uning butun sir-asrorlarini bilib olayotganda qo'shni xonadan bir kishi chiqib: «O'rtiq mayor, sizni rayjrokomndan so'rashyapti», debdi. Xoliqov, o'zimga telefon qilsin degan ekan, haligi odam: «Shunday degan edim, urishib berdi», debdi. Tergovchi Odil battolni xonaga qamab, ustidan gullab chiqib ketibdi. Betayin bir odam o'rtiq Xoliqovni o'n besh minut chamasi gapga tutib, oxiri, «jun tayyorlash plani bajarimasa, siz boshingiz bilan javob berasiz» degan gapni aytibdi. Trubkani qo'ygach, Xoliqov rayjrokomning sekretariga telefon qilib, «Ravshanov sizlarda kim bo'lib ishlaydi» deb so'ragan ekan, sekretar, bunaga odam bizda ishlamaydi, debdi. Tergovchining yuragi bir narsani sezib, yugurib xonasiga chiqsa... Yuragi sezgan narsa allaqachon yuz berib bo'lgan ekan. Derazalar lang ochiq emish, stol ustida, «xudo xohlasa, Otajonov ikkovlariningning janozangizni bir kunda o'qiyimiz!» degan yozuv turganmish.

Rayon va shahar militsiyasi oyoqqa turdi, hamma yelib-yugurdi. Kechasi butun respublikaga qidiruv e'lon qilindi, battolning suratidan nusxalar jo'natildi.

Bugun soat o'nga rayon militsiya boshqarmasining oylik, kvartal planlarini tasdiqlashga bag'ishlangan majlisi bo'lishi

kerak. Bu haqdagi e'lon uch kundan buyon osig'liq turibdi. Majlisa, go'yo hammamizning otamiz o'lganu, u bilan oxirgi marta vidolashish uchun to'planayotgandek g'amgin bir kayfiyatda yig'ildik. Odil battolning qochishi hammamizni tashvishga solib qo'ygan. Hammamiz o'zimizni gunohkordek bilib, boshimizni xam qilib o'tiribmiz. Boshqarmamizda yigirma olti militsiya xodimi bor ekan, biron kishi ham tashqarida qolmadi. Hali majlis boshlangani yo'q, pichirlashib, Odil battolning qochish tafsilotlari haqida har xil fikrlar bayon qilib o'tiribmiz:

- Battol deganlaricha bor ekan.
- Men uning qochishini oldindan sezgan edim.
- Tashqarida odamlari bor ekan-da?
- Ehtimol oramizda ham bordir.
- Og'zingga qarab gapir!
- Lekin, qoyil! Qochish planini juda puxtalab tuzishgan ekan.

- Bari bir qo'lga tushadi.
- O'toq Ro'ziyev o'zini yana bir ko'rsatar ekan-da!
- Ro'ziyevdan ustaroqlari ham bor.
- Har qalay, sha'nimizga yomon bo'ldi.
- Yuzimizga qora dog' tushdi desang-chi!
- Ehtimol, Xoligovning o'zi uyushtirgandir?
- Be...

- Har qalay, shubham bor.
- Xoligov sadoqati odam. Peshanasiga to'pnoncha tirasang ham bu ishni qilmaydi u.
- To'g'ri, juda achinaman unga.
- Ishqilib, ishdan olishmasin-da...

O'tirganlar ana shunangangi gaplardan gaplashishyapti, birovi Xoligovga achinadi, boshqasi «ajab bo'lsin, juda kekkayib ketgan edi!» deydi. Xoligovning o'zi bo'lsa, boshimi ikki kafi orasiga olib, o'y suryapti, odamlardan ko'zini olib qochyapti. Avvaliga unga juda achinib ketdim, yoniga borib:

«Xafa bo'lmang, mana men yordam beraman, istasangiz bugunog topib berishim mumkin...» degim ham keldi-yu, lekin

anovi kuni, senda vijdon bormi, degani esimga tushib, yuzimni teskari o'girib oldim.

Majlisi kapitan Karomat Hoshimova ochib, prezidium sayjashlarimgizni so'rayman, kimda qanaqa taklif bor, deb so'radi. Men shosha-pisha qo'l ko'targan edim, parvo ham qilmadi. Oldindan tayyorlab qo'ygan odami bor ekan, o'sha o'rnidan turib, Salimjon akamning, Karomat kelin oyimning, o'zini va uchastkovoy Sur'at akaning nomzodini ko'rsatib yubordi. Men o'to'chirish komandasining boshlig'i, qiziqchi, hammaga birday melribon, o'tgan-ketganing yo'lini to'sib, yong'inning oldini olish haqida hech erimmasdan gapiraveradigan mayor Samad aka Qodirovni prezidiumga ko'rsatmoqchi edim, qo'limni ko'targanimcha qolaverdim.

Sur'at aka majlisa raislik qiladigan bo'ldi. U, kun tartibini tasdiqlatib olgach, birinchi so'zni kapitan Hoshimovaga berdi. Kapitan mana shunangangi ko'pchilik ishtirok etadigan majlisi sog'inib qolgan ekami, shoshmasdan, gapni juda uzozqdan, hali men va mening dadam ham tug'ilmagun davrlardan boshladi. Shu rayonda ishlab, allaqachon omonatini topshirib ketgan militsioner bobolarimizning nomini birma-bir sanab o'tdi. Bizning boshqarmamizning esa, shu kecha-kunduzda yuksak talab darajasida ishlamayotganligidan afsuslandi. Pirovardida:

— Xalqqa, keng jamoatchilikka tayanish o'rniga biz ulardan qochamiz, jamoatchilikni aratashirsak, ishni buzib qo'yadi, deb qo'rqib, ishni aslida o'zimiz buzaymiz, — dedi.

— O'ylig, kvartal ish planlari juda bo'sh tuzilgan, omma o'rtasida tarbiyaviy ish olib borishga e'tibor bermaymiz, planlarimizda qonunchilik asoslarini tushuntirishga, shu yo'l bilan yuz berishi ehtimol bo'lgan jinoyatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlar deyarli ko'rimmaydi. Xullas, o'troqlar, o'zimizga ortiqcha baho berib va ortiqcha ishonib jamoatchilikdan ajralib qolganimiz, asosiy yordamchilardan mahrum bo'lganimiz. Xullas, o'troqlar, biz rahbariyatning ishni tubdan o'zgartirish kerakligi haqidagi ko'rsatmalarini

yomon bajaryapmiz,— degan gaplarni gapirib turib, to'stadan meni tangid qilib golsa bo'ladimi!

— Mana, OBXSS bo'limi, — deb kelinoyim bir stakan suvni ichib olib, menga emas, o'tirganlarga qarab gapira boshladi. — O'rtog Ro'ziyevdan umidimiz katta edi. Lekin, uning tuzgan plani shaxsan meni o'ylantirib qo'ydi. Juda havoyi, hayotdan uzog. O'zimizning rayonda qilinadigan ishlar boshdan oshib yotibdi-yu, u bo'lsa, qo'shni rayondagi ob'ektlarni nazorat qilishni planga kiritibdi. Kon zavodi, konditer fabrikasi, trikotaj firmasi... Axir, o'rtoglar, bu korxonalar bizning rayon territoriyasida emas-ku!

O'rtada «gurr» etib kulgi ko'tarildi. Nazarimda, o'rtog Xoliqov hammadan qattiqroq kulayotganga o'xshadi. O'zim bo'lsam, xuddi shu paytda, tarrakdek qotib qoldim... Kallavaramligim, anqovligimdan uyaliib ketdim. Kecha shuncha miyami ishlatsam ham, bari bir plan tuzolmadim. Ustozimdan so'ragani, gapning ochig'i, isihola qildim. Qo'shni rayon OBXSS bo'limining boshlig'i Mashrab aka Nazarovning planidan foydalangandim, korxonalarining nomini o'zgartirib qo'yish xayolimdan, ko'tarilib ketibdi...

— O'rtog Ro'ziyev, nega bunaga plan tuzdingiz? — dedi bir mahal kapitan Hoshimova. Sekin o'rnimdan turdim. Hammaning ko'zi menda, biri mazax qilgandek kulib turibdi, boshqasi, «e, attang» degandek bosh chayqayapti. Nima desam ekan? Ochiq iqrer bo'laymi yo biror bahona topsammi? Bunaga paytda ochiq iqrer bo'lsang ham baloga qolasan, bahona topsang ham yana bir gap qilishadi.

— Biz o'zaro tekshirish o'tkazmoqchi edik, — dedim nihoyat sal mujmalroq qilib. Yana «gurr» etib kulgi ko'tarildi. «Bor-e, nima bo'lsa bo'lar» deb o'zim ham qo'shilishib kulvordim. O'rtog Xoliqov o'rmidan turib:

— Shogirdingizga plan tuzishni o'rgatmagan ekansizda? — deb piching qildi ustozimga. Salimjon akam javob qaytarmoqchi bo'lib, bir taraddudlandi-yu, negadir indamay qo'ya qoldi. Oradan xiyol fursat o'tgach, mayor mendan ham og'itroq bir ahvolga tushib qoldi-ki... Men planni

birovdan ko'chirgan bo'lsam, u o'zidan-o'zi ko'chirar ekan. Kapitan Hoshimova uning besh yillik planini solishtirib bergan edi, shunangani kulgi ko'tarildiki, asti qo'yaverasiz. Tergov bo'limining boshlig'i menga qaraganda o'n chandonroq dangasa ekan. Plan tuzayotganda faqat kunlarini o'zgartirib qo'yarkan, xolos. Mazmun bir, qilinadigan ish bir xil, yangilik yo'q. Xoliqov izza bo'lganidan boshini tizzasining orasiga berkitib oldi.

Militsiya ishiga jamoatchilik vakillarini ko'proq tortish niyatida Salimjon akam bilan Karomat Hoshimova bir anketa tuzishgan ekan. Anketani majlis raisi Sur'at aka, xuddi o'zining she'rini o'qiyotgandek, yoqimli bir ovoz bilan to'lginlanib o'qib berdi.

#### ANKETA

1. *Ism-familiyangiz.*
2. *Kasbingiz.*
3. *Ish joyingiz.*
4. *Yoshingiz.*
5. *Ma'lumotingiz.*
6. *Rayon militsiyasi ishidan mamnumisiz?*
7. *Sizningcha, qanday tadbirlarni amalga oshirsa militsiyaning ishi yanada yaxshilangan bo'lardi?*
8. *Jinoyatchi va tartibbuzarni tugatishda siz qanday yordam berishni istardingiz?*
9. *Militsiya ishiga jamoatchilik asosida kimlar yaxshi yordam bera oladi, deb hisoblaysiz?*
10. *Savdo shoxobchalarida ba'zan uchrab turadigan tartibsizliklarni tugatish uchun siz qanday choralar ko'rishini istar edingiz?..*

Hozir charchab turganim uchun anketadagi savollarning hammasini sanab o'timayman, vaqti bilan qolganlarini ham aytib berarman. Faqat shuni aytmoqchimaniki, anketa bir

bahona bo'ldi-yu, o'rtiq Xoligov bilan Salimjon akam andak bo'lmasa yoqalashib ketayozishdi. O'rtiq Xoligov so'z olib: — Militsiya ishini muhokamaga tashlash — bu dushmaning ishi, bu, albatta, o'rtiq Otajonovdan chiqqan bo'lsa kerak! — dedi.

Salimjon akam:

— Bo'lmasa o'zimizni o'zimiz maqtab yuraverishimiz kerak ekan-da, — deb qo'ydi. O'rtiq Xoligov:

— Siz o'zi ish qilishdan ko'ra ko'proq maqtanishni yaxshi ko'rkansiz! — degan edi, Salimjon akam.

— Kasaba qo'mitasi va yoshlar tashkiloti bilan maslahatlashib qilyapmiz bu ishni, — dedi.

Mayor Xoligov butunlay qizishib, o'zini yo'qotib qo'ydi: — Siz tashkilotlar orqasiga berkinib, zararli fikrlaringizni targ'ib qilib kelyapsiz!

Salimjon akam negadir, qizishib, stolni mushtlab o'rimdan turib ketish o'rniga, «obbo sen-ey, tiling buncha zaharli bo'lmasa» deb qo'ya qoldi. Mayor Salimjon akam past kelganini ko'rib, demak, men haq ekaman, deb o'yladi shekilli, hali kapitan Hoshimova stakanda suv ichib doklad qilgan minbarga chiqib, qo'yi bilan havoni kesib, kuyib-pishib, gapira boshladi:

— Xalq o'rtasida har xil tushunchadagi kishilar bo'ladi. Do'stimiz ham, dushmanimiz ham bor. Dushmanlarimiz anketa bahonasida bizni qoralab tashlaydi. Bir xil bema niyat bo'lsa, bizga yordamlashish bahonasida oramizga kirib olib, ishning pachavasini chiqaradi. Militsiya idorasi — bu muqaddas dargoh, har kimning bostirib kirishga haqi yo'q... — dedi-da, suv ichmoqchi bo'lib grafiinga qo'l cho'zgan edi, suv tugab qolgan ekan, bo'sh grafiinning bo'g'zidan malham ushlaganча pastga, odamlar orasiga tushib ketdi. O'rniga o'tirayetib:

— Anketaboziq, majlisbozlikka chek qo'yib, amaliy ishga o'tishimiz kerak! — deb qo'ydi.

Minbarga rayon o't o'chirish komandasining boshlig'i mayor Samad akam Qodirov chiqib, gapni nimadan

boshlashni bilmay, cho'ntagidan ro'molcha olib, terlamagan bo'lsa ham, avval yo'g'on, go'shtdor bo'yini, keyin olchadek qizarib turgan yuzlarini artdi. Kutilib bosh chayqab qo'ydi.

— O'rtiq, mana meni ko'rib turibsizlar, — dedi u nihoyat, — xuddi kecha kurortdan qaytgandek semirib, to'lishib turibman. Yuzimdan chakillab qon tomay deydi.

Chunki men hamisha yallo qilib yuraman — o't o'chirish ishlarining hammasini xalqning zimmasiga yuklab qo'ygaman. Xalq bilan birga bo'lgan kishining ikki beti menga o'xshab hamisha qip-qizil bo'ladi... Biron joyda yong'in chiqsa biz yetib borguncha, olomonning o'zi o'chirib bo'ladi... Xalq katta kuch, o't qo'yadigan ham o'zi, o'chiradigan ham o'zi. Xalqdan foydalanish kerak, o'rtiq! Shunda, Xoligov, senga ham sal jir bitib rangingga qon yuguradi. Qara, tuvakda o'sgan guldek sarg'ayib ketisan. Kamroq «uh» tortib, peshanangni kamroq tirshirib, odamlardan foydalanishga harakat qil. Ana o'shanda menga o'xshab har kuni oshxo'rlik qilib, shaxmatningi ham o'ynab yuraverasan. O'rtiq, mening taklifim shu, anketani tezroq tarqatish kerak. Endi, o'rtiq, o'zinning ham majlis ahliga aytadigan ozgina dardim bor... Rayonimizdagi ko'ngilli o't o'chiruvchilar o'rtasida muallaq narvonga tez chiqish bo'yicha musobaqa o'tkazgan edik. O'rtiq Hoshimova, siz mukofot va'da qilgandigiz, qani o'sha mukofot? Yo o't o'chiruvchi mashinalarni mukofotga berib yuboraveraymi? Respublika ko'ngilli o't o'chirish komandalari o'rtasida bo'lgan shaxmat musobagasida birinchi o'rinni egalladik. Siz, o'rtiq Hoshimova, komandirovka xarajatlarini to'layman degan edingiz, qachon va'dangizning ustidan chiqasiz?

Bugungi majlisda qarsakning ko'pi Samad akaga chalindi. Mayor minbardan tusha turib, artistlarga o'xshab qarsak chalayotganlarga qayta-qayta qulluq qildi-da, Xoligovga:

— Sai qovog'ingni ochibroq o'tir, biron arpanгни xom o'rgani yo'q! — dedi.

Majlis kunduz soat uchgacha davom etdi. Noʻtiqlar birin-ketin minbarga chiqib, biri ikkinchisini inkor qilib, rosa nutqbozlik qildi. Yetti grafın suv ichilgach, oxiri masalani ovozga qo'yishdi. Anketani tarqatish tarafdori bo'lib o'n to'qiz kishi ovoz berdi, yetti kishi qarshi chiqdi. O'rtog Xoligovning, negadir rangi-quti o'chib, labi sovuq urgan pomidordek gezarib ketdi:

— Yo'q, men ministrlikka arz qilaman, — dedi u mushini qisib, — militsiyani soddalashtirishga yo'l qo'yman.

— O'rajonovning o'zi shuhratparast odam ekan! — dedi yonida o'tirgan sherngi.

— Qariganda nom chiqarmogchi! — dedi qarshi ovoz berganlardan yana bittasi.

### O'N BIR MING YORDAMCHI

| sh qizib ketdi, yo'q, hazil emas, chindan ham qizib ketdi. O'tiz ming anketaga o'n to'rt ming javob xati olindi, hali kei tugagani yo'q. Ba'zi kunlari uch yuz, ba'zi kunlari to'rt yuztagacha xat kelib turibdi. Ularni o'qish, mazmuniga qarab har xil yashiklarga solish uchun maktab o'quvchilaridan olti kishi yordamga kelishgan. Hasharchilar xatlarni o'n uch guruhga bo'lib taxlashyapti. Takliflarga bir javon, tanqidlarga bir javon, mamnuviyat so'zlari bitilgan xatlarga bir javon, iltimoslarga bir javon degandek, hammasi bo'lib, o'n uch javon ajratib qo'yganimiz. O'n bir ming kishi, militsiya ishiga yordam berishga tayyormiz, deb yozibdi. Sotuvchilarning hammasi, oshpazlarning to'qson foizi, militsiyamiz ishidan mamnumiz, militsiya xodimlariga ming ofarmlar bo'lsin, deb maktub yo'llashibdi. Yog'och omborining direktori militsiya naqshnigi bilan OBXXSS bo'limining boshlig'iga bo'lgan cheksiz muhabbatini hech qanday so'z bilan izhor qilolmagach, yigirma gatoridan iborat she'r yozib, oxirida, to'satdan bo'ladigan tekshiruvlarni kamaytirsangiz,

deb iltimos qilibdi. Yigirma to'rtinchi go'sht do'konining azamat qassoblari yoppasiga drujnachi bo'lishga qasamyod qilib, yeng shimarishibdi. O'z maktublarning so'nggida, go'shtlarni sortlarga bo'lib sotishni yo'q qilishga yordam berishingizni va xaridorlarga bu yilgi go'shtlar haddan tashqari sersuyak ekanligini tushuntirib qo'yishlaringizni o'tinib iltimos qilamiz, deyishibdi. O'n birinchi bog'channing tarbiyachisi, surunkasiga aroq ichgan erkak zoti borki, bitta qoldirmay gamab yuborish kerak, degan fikr bildiribdi. Kechi ishchi-yoshlar maktabining fizika o'quvchisi, agar xotinimning tilini tiyishga yordam bersalaring, o'lar o'lguncha sizlardan minnatdor bo'lardim, deb yozibdi. Shunangangi hazil aralash yozilgan xatlar orasidan foydali maslahatlar ham birin-ketin chiqaverdi. «Yagrem» deposining ishchilari: «Ichkilikbozlikka qarshi olib borayotgan kurashlaringizdan mutlaqo norozimiz. Ichib ko'chada baltiqqa qorishib yotgan kishini hushyorxonaga olib borib, kuyov bolani e'zozlagandek oppoq choyshablarga yotqizib, boshiga paryostiqlar qo'yib berib, ertalab vannada ham yuvintirib hurmatlashning nima hojati bor? Bunaga odamlarni eshaka teskari mindirib, bo'yninga bo'sh shishalardan besh-o'ntasini osib, shaharning gavyum ko'chalaridan olib o'tib, sazoyi qilish kerak...» deb taklif kiritishibdi. Shoyi artelning bir guruhga to'quvchi ayollari ham hech kutilmagan bir taklifni o'rtaga tashlashibdi: «Drujnachilarni militsiya tayinlamasin, balki xalq ishxonada bo'ladigan umumiy majlislarda, mahalla ahli kengashlarida ma'lum muddat bilan saylab, vaqti-vaqti bilan hisobini ham eshitib tursin».

E, boringki, ana shunga o'xshash xatlarining keti hech uzilmayapti, bammisoli laylakqordek yog'ilib turibdi. Men, Salimjon akam kuchdan qolib borayapti, deb behuda tashvishlangan ekanman, bu odam fildan ham kuchli ekan. Ishonsangiz, o'sha kunlari u ba'zan o'n besh, ba'zan o'n olti soatlab ishladi-yal! Kurbo'yi xat o'qiydi. Bo'limlarga tarqatib chiqadi: xodimlarning fikri, mulohazasini

surishtiradi. Lilyaxonni takliflarni maxsus daftarga yozib borishga majbur qiladi. O'n kuncha uyga kelmay, idorada divanda yotib kechalari ham timmay ishladi, ovqatni ham qorovullar bilan birga yedi. Kastryulda qaynatma sho'rva qilib ichaverib, naq bo'lmasa sovug'i ham oshib ketayozdi.

Yigirma kun deganda olti bo'lim qoshida jamoatchilik asosida ish olib boradigan yigirma to'rta bo'lim tuzildi, bo'lim boshliqlarini o'zlari ishlayotgan tashkilot majlisida tasdiqdan o'tkazib ham olishdi: ko'cha-kuyda tartib o'rnatuvchilar gruppasi, ichki kichik bozarlarga qarshi kurashuvchilar gruppasi, mashina haydovchilar ustidan nazorat olib boruvchilar gruppasi, telefon budkalarini buzib, gaz suv apparatni yonidagi stakanni o'g'irlaydigan, simyog'ochdagi lampochkalariga panada turib tosh otadigan, mashinalar to'xtab turganda orqasidagi rezinkasini kesib qochadigan bezori bolalarning tanobini tortib qo'yuvchi muallimlar gruppasi... Xullas, mana shunangani «u qiluvchi», «bu qiluvchi» gruppalar, bo'limlar, angishvonadek kichkina-kichkina bo'limchalari tuzilgandan tuzilaverdi.

O'rtoq Xoligov bir xonaga kirib:

— Meni aytdi dersi, hammasi qog'ozda qolib ketadi, esizgina qog'ozlar! — desa, boshqa bir xonaga kirib:

— Ishimiz endi xotinlarga qolibdi! — deb dovuchcha chaynab olgandek aftini bujmaytirib chiqib ketadi. Mayor Samad aka Qodirov bo'lsa xuddi katta o'g'liga to'y qilayotgandek sevinib, o'zini qo'yarga joy topolmay:

— Militsiyaning joni kirdi. Mana endi Qumloqdagi choyxonada oshxo'rlik qilib yotaveramiz! — deb duha kelganga maqtanadi.

Lilyaxon Salimjon akam chaqirtirganini aytib qoldi. Shoshilib kirsam, boshlig'im bir xatni o'qib, ba'zi so'zlarining ostiga qizil qalam bilan chizib o'tirgan ekan.

— Ke, mulla Hoshim, ishlar qalay? — dedi boshini ko'tarib.

— Juda yomon! — dedim o'zimni divanga tashlab.

— Xo'sh, nimasi yomon ekan? — dedi.

Kecha men pensioner Muslim boboni shtatsiz OBXSS bo'limiga boshliq etib tayinlashlarini so'rab, varaga to'ldirib kirganimda, Salimjon akam, yaramaydi, deb qaytargan edi. Shuni nazarda tutib:

— Chunki menga o'gay ko'z bilan qarayapsiz, — deb o'pkalandim.

— Nega endi o'gay ko'z bilan qatar ekanman?

— Men tanlagan odamni tasdiqlamadingiz-ku.

— Chol, shubhasiz, militsiyaga sadodat bilan yordam berishi mumkin, — o'z odatiga ko'ra qoshlarini chimirib, bir ko'zini xiyol qisib gap boshladi ustozim, — lekin, OBXSS bo'limining shtatsiz boshlig'i bo'ladigan odam avvalo yurist bo'lishi kerak. Muslim bobo yurist emas-ku. Menga araz qilib, lab-lunjingni osiltirguncha, yaxshisi mana bu xatni o'qib chiq!

Mamaroziq Mamaraimov degan bir odam biz tarqatgan anketani to'ldirib, OBXSS bo'limiga yordam berish istagini bildiribdi. Yoshi 68 da, II Jahon urushi ishtirokchisi, ikki oyog'ini Berlin ostonasida tashlab kelgan, oblast militsiya bo'limida yigirma sakkiz yil ishlab, yaqinda pensiyaga chiqqan bir kishi ekan. Salimjon akam uni shunangani maqtab ketdi:... og'zim ochilib qoldi. Cho'loq bo'lishiga qaramay, Moskvadagi yuridik institutni a'lo baholar bilan tugatganmish. Besh tilda bemalol tergov olib bora olar emish, Moskva, Leningraddagi katta majlislarda bir necha bor nutq so'zlab, ikki oyog'ini butun polkovniklarning havasini keltirgan emish... Agar men u bilan bir-ikki yil hamkorlik qilsam, ko'p narsaga ega bo'lishim mumkin emish.

— Garajdan mashinani olgin-da, uni darrov olib kelgini! — buyurdi gapini tugatib Salimjon akam. O'rminidan otilib turdimu, sal jurg'anib:

— Lekin, nima bo'lganda ham cho'loq ekan-da, — dedim.

— U yog-bu yogqa borsak, to'shakka o'rab, ko'tarib yuramizmi uni?

— Militsiyada oyog emas, kalla ishlaydi, jo'na tezroq! — urilib berdi ustozim.

Mamaroziq aka Mamaraimov shahar chekkasida, opasining tashqari hovlisida turar ekan, surishtirib arang topdim. Oldiga kirib, shundoq-shundoq degan edim, betimga tikilib turdi-da:

— Moshxo'rdan ichasizmi? — deb so'radi.

— Agar qatig'i ham bo'lsa... — dedim labimni chapillatib, Ishtaha qurg'ur ham karnay bo'lib turgan ekan, ko'z ochib-yumguncha ikki kosa moshxo'rdani pok-pokiza tushirib oldim. Mamaroziq aka yog'och oyoqlarini bog'lab, eski aravadek g'jirlatib, mashinaga chiqa boshladi.

— Agar yanglishmasam, siz Ro'ziyev bo'lasiz, shundaymi? — deb so'radi mashina qo'zg'algach.

— Qayovqadan bildingiz?

— Ovqatdan qaytmaganligingizdan, — kulib qo'ydi cho'lloq hamrohim, — sizni menga shunday ta'riflashgan edi.

— To'g'ri aytishibdi, joni-dilim ovqat.

— Ochiq'ini aytsam, uka, siz bilan tanishishni orzu qilib yurgan edim.

— Yo'g'-e, — dedim sal-pal uyalib.

— Odil Abbosov gruppasini qo'lga tushirganingizdan keyin, uka, siz bilan tanishishni orzu qilmagan biron ta militsiya xodimi qolmagan bo'lsa kerak.

— Rostdanimi?

— Rost. Chinakam gahramonlik ko'rsatdingiz. Lekin mana bu ishlaring undan ham qolishmaydi.

— Qaysi ishimiz?

— Jamoatchilikni qo'zg'ash uchun ko'rgan tadbirlaring-da.

— Bu Salimjon akamdan chiqdi.

— Yo'q, uka, bu hukumatning talabi.

— Bir xillar, foydasi bo'lmaydi, deyapti.

— Keyin uyalib qolishadi...

#### «YULG'ICHLARGA URUSH ETILON BO'LIBDI»

Salimjon akam cho'lloq pensioner bilan divanga o'tirib olib, uzoq suhbatlashdi. Yoru do'stlaridan qaysi biri tirig-u qaysi biri valot etganligi, bundan o'ttiz besh yil ilgari seminarlarda birga bo'lgan Romanovskiy degan bir ko'zi ko'rog'aymilari hozir Tambov oblastida ishlayotganligi, o'zbek tilini suv qilib ichib yuborgan Palmin militsiyadan ketib, oblast prokuraturasida xizmat qilayotganligi to'g'risida ham gaplashib olishdi. Keyin Salimjon akam:

— Roziq, sen Hoshimga yordam berasan, ish o'rgatasan, kerak bo'lsa, xonani ichidan berkitib olib, remen bilan yumshoq joyiga savalab ham qo'lasan. Bugundan e'tiboran OBXSS bo'limining shtatsiz boshlig'isan. Hozir tasdiqdan o'tib kelasan, seni o'rtog' Umarov kutyapti... — dedi.

Mamaroziq aka Umarov xonasida uzog' o'tirmadi. Aftidan, sog'u cho'lloqlar tasdiqqa boraverib, Umarovning ham joniga tekkan bo'lsa kerak, darrov orqasiga qaytarib chiqarib yuboribdi. Tasdiqlashmagan bo'lsa-ya, degan fikr boshimga keldi-yu, tajribali yordamchidan mahrum bo'lib qolishdan qo'rqib:

— Ko'nishmadimi? — deb so'radim.

Mamaroziq aka kulimsirab, «quchoqlab tabrikladi-yu, muvaffaqiyat tiladi», dedi. Yog'och oyoqlarini g'jirlatib mashinaga o'tirib olgach: «Umarov militsiyadan chiqqan. Meni yaxshi taniydi», deb qo'shib qo'ydi.

Idoraga qaytgach, o'ziga ajratilgan stol yonidagi stulda, go'yo stul uni qancha muddat ko'tarib turishini sinab ko'rmogchi bo'lgandek uzog' o'tirdi. Bir mahal jonlanib, rasmiy, faqat idoralardagina gaplashiladigan bir ohangda:

— O'rtog' Ro'ziyev, — deya menga murojaat qildi, — agar mumkin bo'lsa, sizdan uchta narsani iltimos qilmoqchiman.

— Eshitaman, o'rtog' Mamaraimov! — men ham undan battarroq rasmiy ohangda javob qaytardim.



— Iltimosimning birinchisi shuki, o'rtog Ro'ziyev, OBXSS bo'limiga ko'maklashuvchi ko'ngillilarni mening o'zim tanlab olsam.

— Lekin, o'rtog Mamaraimov, men tasdiqlashim kerak.

— Albatta. Busiz mumkin emas, o'rtog Ro'ziyev.

— Xo'sh, o'rtog Mamaraimov, ikkinchi iltimosingiz nimadan iborat?

— Ikkinchisi shuki, o'rtog Ro'ziyev, besh yildan buyon bo'limga tushgan shikoyatlarning hammasini mening qo'limga bersangiz. O'qib, xarakteri bilan tanishib chiqsam.

— Juda sozi — dedim rasmiy til bilan gaplashishga toqatin chidamay.

— Uchinchisi shuki, o'rtog Ro'ziyev, rayondagi jamiki davlat korxonalarining ro'yxatini bersangiz.

— O'rtog Mamaraimov, bu iltimosingiz ham bajo keltiriladi. — Sakrab o'rnimdan turib, ishi boshidan oshib yotsa ham bir ko'zini yumib, hamisha mudrab o'tiradigan, ko'pam jonini kuydiravermaslik haqida kattayu kichikka birdek nasihat qilishni yaxshi ko'radigan qo'shni xonadagi keksa xodimimiz Karim akani chaqirib chiqdim. «O'rtog Mamaraimov nimani so'rasa hammasini muhayyo qiling» deb topshiriq berib, ikkovlarini narigi xonaga chiqarib yubordim.

«Texuchilish»da KR U reviziya o'tkazib, anchagina kamomadni aniqlagan ekan. O'shanning aktlarini olish uchun telefon qilmogchi bo'lib endi qo'limni ko'targan ham edimki, eshik ochilib, o'yinga tushgancha, qabulxona sekretari Liliyaxon kirib keldi.

— O'rtog Ro'ziyev, sizga xat bor! — dedi-da, konvertini tap etkazib stolga tashlab o'zi yalpayib divanga o'tirib oldi... Qiziq, anovi kuni Farida kelib ketgandan buyon bu quvnoq qiz menga sal g'alatiroq muomala qiladigan bo'lib qoldi. Har bir odimimni poylaydi, bo'lar-bo'lmas narsalarni bahona qilib, oldimga besh-olti marta kirib ketmasa ko'ngli joyiga tushmaydi. Mana hozir ham, ko'rib turganingizdek, divanning yosiqchasiga yonboshlab, yuzini yelpib, bemalol o'tiribdi... Konvertning tepasiga... «Shaxsan polkovnik

O'rajonov yoki kichik leytenant Ro'ziyevga tegsin» deb yozilgan ekan. Xatni shosha-pisha ochib, endi o'qiy boshlagan edim, Liliyaxon bo'yini cho'zib:

— Nima deb yozishibdi? — deb so'radi.

— Xozmaga labga surtadigan pomada kelibdi, shuni xabar qilishibdi, — deb qo'ydim.

— Hazilingiz qursin, — dedi Liliyaxon o'ziga hech yarashmaydigan bir noz-istig'no bilan. — Tag'in nima deb yozishibdi?

— May oyidan boshlab qosh qalamning narxi oshar ekan.

— Voy, rostdanni? — bu gal chippa-chin ishonib so'radi Liliyaxon. — Tag'in nima deb yozishibdi?

— Tag'inni, tag'in... xo'sh, qizlar hadeb yuziga upa-elik surtishaverishmasin, upa-elik surtilgan yuz...

Hali gapimni tugatmasimdanog, Liliyaxon shartta o'rindan turib:

— O'ling iloyim, sizdan hech qachon jiddiy gap chiqmas ekan, — deb, jahli chiqdi shekili, eshikni tarsillatib yopib chiqib ketdi.

To'g'ri, kamina jiddiy gapni kamdan-kam gapiradi. Lekin, qimmatli do'stin, qo'limdagi mana bu xat chindan ham jiddiy, chindan ham samimiy edi. Uni qayta-qayta o'qiy boshladim.

«Hurmatti Salinjon aka, qimmatli do'stimiz Hoshinjoni! Bizni ham odam qatoriga qo'shib, uyimizga anketa yuborganlaringiz uchun mingdan-ming rahmat. Sizlar menan, militsiya ishidan mamnummisiz, deb so'rabsizlar. Bir men emas, qari otam, muridiyda otam va keliningiz Muborak nomidan shuni avtamanki, biz o'la-o'lguncha mamnummiz. Qimmatli Salinjon aka, siz meni dahshatli ajdarho og'zidan — Odil Abbosovning changalidan qutqarib olib, to'g'ri yo'lga soldingiz. Gunohimni kechirib, boshimni siladingiz. Onam xudojo'y ayol, har kuni bomo'da namozidan so'ng: «Xudayo xudovanda mening yakkayu yagona o'g'limning xaloskori Salinjon O'rajon o'g'lini baloyu

ofatlardan o'zing asragin, umrini ziyoda qilgin...» deb duo o'qiydilar. O'nam omiy, savodsiz bir odam. Jimoyatchilarga ilashib yurgan paytlarida ilon chaggan kishidek to'lg'onib, uhi tortib chiqardi. Siz bilan bo'lgan uchrashuvlarimni aytib berganimda, bechora ko'ziga yosh olib: «O'g'lim, Hizr buyamga uchrabsan, etagini mahkam ushlagin» deb yohordilar menga...

Biz butun oilamiz bilan sizlardan minnatdormiz, tovu kun duolaringizni qilamiz.

Militsiya ishiga qanday yordam berishingiz mumkin, deb so'rabdilar. Ma'qul ko'rsanglar, vaqti-vaqti bilan oshxonamizdagi voqealardan xabardor qilib tursan deymen. Odil Abbosov ta'siridagi oshxonalariga solishtirganda, bu yerda o'g'ritik yo'q, desam bo'ladi. Lekin, umuman olganda ba'zan xo'jayindan yashirib, uncha-muncha go'shi, yog' olib ketib turishadi. Yaqinda direktorimiz hammamizni to'plab, hozir butun shahar bo'ylab yulg'ichlarga qarshi urush e'lon qilindi, agar bita-yarmitang xo'randalarning haqiga ko'z olayirsang, tishingni sug'urib olaman, dedi.

Qimmatli Salimjon aka, hurmati Hoshimjon! Men ulfat ko'rgan yigitman. Choyxonaga tez-tez chiqib turaman. Hozir jamiki choyxo'rlar, militsiyoning otasiga balli, ilgarirog, shunday qilishi kerak edi. hozim bo'lsa mana, biz choyxo'rlar ham yordam beramiz, deysilaypti. Choyxonada aroq ichish taqiqlandi. Xususiy nonvoylar, chakana qassoblar, popirosfurushu pista sotuvchi mayda-chuyda chaygovechilar shahardagi vahimadan qo'rqib in-inlariga kirib ketishdi. Mana shuning uchun ham el-yurt sizlarga rahmat aytyapti.

Xullas, meni o'zlaringga agent qilib olsalaring va iloji bo'lsa, menga ham bita guvohnoma bersalaring.

Sizlarga tabiatning eng go'zal joyidan salom yo'llab, Chorsudagi ishchilar oshxonasining oshpazi O'roza.

Xatni qayta-qayta o'qidimu, biror xulosaga kelolmay, Salimjon akam ham o'qib chiqsin, agar bizga agent kerak

bo'lsa, maslahatlashib chaqitirarmiz, degan o'y bilan xatni ustozimning kabinetiga qo'yib chiqdim.

Bunday qararsam, soat olti bo'lib qolibdi. Karim akam aytgandek, ish bo'lsa bir gap bo'lar dedim-da, Faridaning yo'lini poylash uchun, zora shuncha kundan buyon nasib qilmagan uchrashuv bugun nasib qilib qolsa, degan shirin ortzular bilan ko'chaga otildim.

#### VASLINGGA ZOR YIGITNINGHURMATI SHUNCHAMIDI?

**B**utun qishlog'imizda mendaqangi uyqusi qatig, seruyqu bola yo'q edi. Buning ustiga uyqum kelib qolsa, joy ham tanlab o'tirmasdim. Ko'pincha ovqatlanib o'tirib, dasturxonning ustida, ko'pincha shundoqgina televizorning qarshisida ham uxlab qolaverardim. Mana endi bo'lsa, bir haftadirki, na kechasi uxlay olaman, na kunduzi. O'ylayveraman, o'ylayveraman. Qiziq, mimani o'ylasam ham oxiri borib Faridaga taqalaveradi. Qayoqdan ham uning bir tog'ora chuchvarasini yegan ekanman. Mening nafsım balodur... deb shuni aytishsa kerak-da... Ba'zan, xayolan, Farida bilan anhor bo'ylab kechki salqında sayohat qilib qolaniz. Anovi kundagidek gaplashgani gap topolmay jim ketaveramiz, ketaveramiz. Shunda nima falokat yuz beradi-yu, Farida anhorga yiqilib tushadi. Anhor esa, to'satdan, daryodek kengayib ketadi. Yovvoyi otdak o'ynoqlab o'tayotgan to'liqlilar qizni chirpirak qilib daryo o'rtasiga surib ketadi. Men juda usta suzuvchi bo'lganim uchun, formamni ham yechmay, o'zimni suvga otaman. Faridani o'ng qo'limda dast ko'tarib, chap qo'lim bilan suzib qirg'oqqa olib chiqaman. Shunda Farida bo'yninga osilib: — Hoshim aka, rahmat, ming rahmat sizga! O'la-o'lguncha unutmayman! — deb betlarimdan cho'piliatib o'pib oladi.

Men bo'lsam kamtarilik qilib:

— Rahmat deyishning hech hojati yo'q. Axir bu har bir militsionerining burchi-ku, — deb qo'yaman...

Ba'zan xonxayollar Faridaning dadasi oldida ham mening obro'yimni ko'tarib yuboradi... Bir kun Faridaning dadasini mashina bosib ketishiga oz qoldi. Uni dast ko'tarib, yo'ldan oldimu, ola turib, o'zim yiqilib tushdim. Mashina oyoqlarimni cho'rt kesib o'tib ketdi. Bir necha kundan so'ng Faridaning dadasi meni ko'rgani kasalxonaga borib:

— Meni deb, o'zingiz cho'lqoq bo'lib qoldingiz-a! Endi istasangiz ham, istamasangiz ham sizni o'zinga kuyov qilaman! — deydi. Men bo'lsam qizarib-bo'zarib:

— Hojati yo'q, mening o'rnimda bo'lsa har bir militsioner shunday qilardi, — deymanu, shirin-shirin entikaman.

Faridani uchratish uchun (jinnixonaga borishga yuragim dov bermaydi), uylarining oldiga to'rt-besh marta poylab bordim. Ko'cha eshiklari oldida katta chinor bor ekan. Ishga ketish vaqtida, qaytayotganida, zora ko'zi tushib qolsa, deya chinor panasida poylab turdim. O'zini-ku, uchratmadim-a, aksiga yurib, ikki-uch bor dadasiga duch kelib qoldim. Hatto bir marta, u eshikning ortida, men chinorning panasida bir-birimizga mo'ralashib, yosh bolalarga o'xshab «aji-ajji» o'ynashib ham oldik.

Bir kun to'sardan, hech kutmaganimda Faridaning o'zi qo'ng'iroq qilib qolsa bo'ladimi! Xoh ishoning, xoh ishonmang, o'rnimdan turib, kamoli sevinganimdan, andak bo'lmasa baqirib yuborayozibman.

— Farida, bu sizmisiz? — dedim entikib.

— Ha, menman, — dedi Farida ham.

— Xayriyat, xayriyat!

— Hoshim aka, sizdan bir narsa so'ramoqchi edim.

— So'rang. Istaganingizcha so'rang.

— Telefonda aytib bo'lmaydi.

— Bo'lmasa oldingizga boraman.

— «Mars»ning yonida kutaman.

— Hozir uchib boraman.

— Formada kelman.

— Nega?

— Kelganingizda aytaman.

— Xo'p bo'ladi. — Trubkani qo'ydimu, o'ylanib qoldim.

Iye, nega endi Farida menga formasiz keling, dedi? Bu o'sha Faridami o'zi? Axir u: «Hoshim aka, sizga forma biram yarashadiki, hamisha forma kiyib yurishingizni istardim» deb, bir emas, bir necha bor aytgan edi-ku! Yo'q, bu yerda bir sir bor... Axir, anovi kuni Odli battolni qochirishganda ham yasama ovoz bilan qo'ng'iroq qilishgan edi-ku. Formasiz borsam, demak, to'pponchasiz ham borgan bo'laman, to'pponchasiz borsam... Butun shahar bo'ylab yaxshilik bilan yomonlik, to'g'riilik bilan egrilik, yulg'ichlik bilan halollik, tartibsizlik bilan osoyishtalik o'rtasida oxirgi jang ketayotgan bir pallada bekoridan-bekorga qurbon bo'lib ketish... Yo'q, mulla Hoshim ham unchalik soddagina yigitlardan emas, bekoraga uni OBXSSning boshlig'i qilib qo'yishgani yo'q. Boraman, lekin formada, to'pponchamni ham taqib boraman!

Navbatchi mashinada «Mars» kinoteatrining yoniga o'qdek uchib bordim. Farida bilet sotadigan kassaning yonida xuddi bilet olmoqchi kishidek, talpinib turgan ekan. O'zi ham nimadandir qattiq qo'rqayotganga o'xshaydi, ko'zlari alang-jalang, tashvishlanayotganligi shundoqgina yuzidan ham bilimib turibdi...

— Nega formada keldingiz? — birinchi savoli shu bo'ldi uning.

— Men... shunday o'zim...

— Yaqinimga kelman, — yig'lamsirab dedi Farida, — ko'rib qolishadi.

— Ko'rsa nima qipti?

— Meni tiriklayim ko'mishadi.

Kinoteatrning orgasi xilvat ekan, o'sha yoqqa o'tdik. Farida narida, men berida, achchiq-tiziqdan iborat savol-javoblar, o'pkalashu, ginaxonliklar boshlandi.

— Biznikiga borganmidingiz? — atrofiga qo'rqqa-pisira ko'z tashlab so'radi Farida.

— Borish ham gapmi, chinorning tagida ko'rsa-to'shak qilib yo'tib oldim-ku.

— Demak, siz... sizi!

— Ha, men.

Oshiq bo'lmay o'lay men, ishini rasvo qilib qo'yibman. Ertayu kech Faridalarning uyini poylab boraverганиmdan dadasi shubhaga tushib:

— Onasi, sezyapsammi, bir militsioner bizni qattiq nazorat qilyapti! — debdi.

Onasi:

— Kecha ertalab ham poylagan edi, — debdi.

Dadasi:

— Ustimizdan chaquv tushganga o'xshaydi, — debdi.

Onasi:

— Bu Hakim nonvoyning ishi, — debdi.

Dadasi:

— To'g'ri, bu ochko'z hech unga to'ymadi, — debdi.

Onasi:

— Esingizda bormi, avvalgi yili Hasan magazinchining uyini ham avval militsiya poylab, keyin tappa bosgan edi, — debdi. Shunday debdi-yu, «voy sho'rim», deb yig'lab yuboribdi.

Dadasi:

— Yig'lama, bir ilojini toparmiz, — deb qovog'ini solib olibdi. Kechasi bilan er-xotin uylarida ko'zga tashlanadigan narsa borki, hammasini qo'shnilarinkiga tashishibdi. Loqaqal tish cho'tka bilan sovun qutini ham qoldirishmabdi. Hozir dadasi mashinalarini biroving nomiga o'tkazish uchun zir yugurib yurigan emish...

Men Faridaga:

— Bo'lajak qaynotamga o'zinni tanitay, mashinani mening o'zimga bera qolsin, — degan edim, u «meni tiriklayin ko'mishladi» deb battar yig'lashga tushdi. Shaytonim qurg'ur zo'r emasmi, u yig'layapti-ku, men bo'lsam qotib-qotib kulaman. Bir mahal Farida:

— Endi mening nomimni tilga olmang, ko'chamizga qadam ham bosmang! — dedi-yu, hech narsadan-hech narsa yo'q arazlab jo'nab qoldi.

Ana xolos, endi bu yog'i necha puldan tushdi! Men u bilan to'yib-to'yib gaplashmoqchi, mabodo anhorga qulab tushsa, o'ng qo'linda dast ko'tarib chiqmoqchi edim-ku!.. Yashingga zor yig'ining hurmati shunchamidi, deb kinoteatrning orgasida qolaverdim.

Ishxonaga yig'lagudek bir alfozda qaytdim. Stolga o'tirib, boshimni ikki kaftim orasiga olib o'y surib ketdim. Negadir shu paytda Zokirni ko'z oldimga keltirib, ishq savdosiga muhtalo bo'lgan do'stimga ich-ichimdan aqlinib xo'rsindim. — Ko'p xo'rsinavertrang, tirik qolibdi-ku, — dedi bir mahal Karim aka. O'y bilan bo'lib uning xonaga kirganini ham sezmay qolibman.

— Nimalar deyapsiz? — dedim hushyor tortib.

— Sharifani aytayman.

— Qanaqa Sharifa?

— Eshimadingizmi?

— Yo'q.

— Siz o'limdan qurqargan Sharifa Usmonovani bugun ertalab pichoqlab ketishibdi-ku.

— A? — tok urgandek sapchalib o'rimdan turib ketdim.

— Orgasidan poylab kelib urishibdi... Karim aka yana bir narsalar dedi-yu, ammo qulog'imga hech narsa kirmadi...

## TOBUTXONADAGISUHBAT

**O**dil battolning qochishi idoramizga katta tashvish keltirdi. Shahar militsiya boshqarmasi o'rtoq Xoligovga ishonchsizlik bildirib, Odil Abbosov gruppasi ustidan olib borilayotgan tergovni o'z qo'lga oldi. Go'yo battolni Xoligovning o'zi qochirgan emish, Xoligov O'tajonovni yomon ko'rarinish, undan o'ch olish uchun shunday qilgannish, degan tuhmat desa tuhmatga, ig'vo desa ig'voga

o'xshamaydigan mish-mishlar ham tarqab qoldi. Mana shunangani pastu baland gaplar bo'lib turgan bir pallada Sharifaning pichoqlanishi, buvijonimning iborasi bilan aytadigan bo'lsak, o'lganning ustiga tepgan bo'ldi.

Sharifa Usmonova kapitan Hoshimovning mehribonligidan foydalanib, parypoq to'quv fabrikasiga ishga joylashib, yotoqxonadan bir xonalga joy olib, suyakli o'g'li Yodgorbek bilan yoshini yashab, oshini oshab maza qilib yurgan edi.

Mana endi, u bechorani pichoqlab ketishi. Bir xillar bu Odil battolning ishi deyishdi, bir xillar eski sheriklari qilishgan deyishdi. Uchinchi bir xillar uchinchi bir taxminni ham o'rtaga tashlashdi... Ertalab soat beshlarda Sharifa ishga ketayotganda orqasidan bildirmay kelib, yelkasiga pichoq sanchishdi... Sharifa hozir chalajon bo'lib yotibdi. Butun shahar oyogqa turgan, drujinachilar, yotoqxonada yashaydigan gizu juvonlar, mahalla ahli hammayoqni kov-kovlab yuribdi. Lekin qotilni topishning hech iloji bo'lmayapti.

Sharifaga achinib ketdim. U yig'lab, «endi, boshqalarga o'xshab yashamoqchiman», degani, o'g'lini bag'riga bosib faryod chekkani ko'z o'ngindan hech nari ketmay qoldi.

— Oh, qalpoqcham, yana yordamingga multo'jman, — dedim bir kuni ishdan qaytayotganimda.

— Men hamisha ixtiyorimdaman, — ovoz berdi qo'lig'imda turgan qalpoqcham.

— Odil battolni topishim kerak.

— Unda meni boshingga kiy, Hoshimjon.

— Aytganingni qilaman, maslahatchim. — Shunday deb qalpoqchamni o'pib, chiroyli popuklarini ko'zlarimga surtib, boshingga kiydim-u, ko'zdan g'oyib bo'ldim.

— Qani boshla, qalpoqcham.

— Masjidga yur, Hoshimjon.

— Namoz o'qiymanmi?

— Odil battol bilan ko'rishamiz.

Eshingning ustiga «Mantipazlik» deb yozib qo'yilgan bir oshxonaga kirib, qasqonning tepasiga o'tirib olib,

to'ygunimcha mantixo'rtlik gildim. Ko'channing narigi yuzidagi choyxonaga o'tib, shopirib-shopirib ko'k choy ichdim. Bu orada qorong'i ham tushib, o'n metr naridagi odamni tanib bo'lmaydigan bo'lib qoldi. Sekin o'rimdan turib, Xo'ja Axroru Vali masjidi mo'ljalga olib, yo'lga tushdim. Xufton namozi tugab, qari-qartang namozxonlar bir-birlarini suyashtib, Buxorodan kelgan yosh mutavallinning ilmi zo'rligi, nafasi o'tkirliigi xususida gaplashib, asta-sekin chiqib kelishayotgan ekan.

— Mana, masjidga ham keldik, — shivirladim qalpoqchamga.

— Endi bir oz sabr qil, — maslahat berdi qalpoqcham.

Eng oxirgi namozxon — bechoraning ichiga piston qadalagan yap-yangi kalishini kimdir eski kalishga almashirib ketgan ekan, o'sha odamni qarg'ay-qarg'ay, u ham chiqib ketdi. Bir oyog'i cho'loq, bir quilog'i yo'q, oq yaklak kiyib boshiga kichkinagina sallacha o'rab olgan 55—60 yoshlardagi barvasta kishi Xo'ja Ahroru Vali masjidi darvozasini ichidan qulfladi. Bir oz tashqariga quloq solib turgach, hech kim poylamayotganligiga ishonch hosil qildi shekilli, asta-sekin, sharpasiz qadam tashlab, tobutxonaga qarab yura boshladi. Bu odam haqida uncha-muncha eshitganman. Kishilar uni Go'rkov So'fi deb chaqirishadi. Go'rkov So'fi bu yurtga men tug'ilmasdan oldin kelib qolgan ekan. Avval go'rkovlik, keyin so'filik qilgan. Shu kecha-kunduzda esa ham go'rkov, ham so'fi ekan... Go'rkov tobutxona eshigidagi qulflarni ochib, «Bismillohu rahmonu rahim» deb sekin ichkari kirdi. Sham yoqib, tobutxonaning eshigiga qora parda tuidi. Tobutxonadan eski gaboristonning mog'or hidi kelib turibdi. Xona o'rtasida yangigina bir tobut. Nariroqda, devor tagida ham ikki tobut. Birini ikkinchisining ustiga qopqoq qilib qo'yishibdi. Go'rkov sekin borib, ustidagi tobutni oldi. Pastki tobutdan bir murda asta boshini ko'targan edi, qo'rtqanindan bir sapchib tushdim. Tobutdan murda emas, ingillagancha Odil battol bosh ko'tardi! Ha, ha, o'sha peshanasi keng, afli sakrashga chog'lanib turgan

bagani eslatadigan sariq dev bosh ko'tardi... Yuragim urib ketdi, beixiyor organga tisarildim.

— Ha, Go'rkov, keldingmi? — dedi battol og'zini katta ochib esnab.

— Qalay, xaloskorim, yaxshi uxladilarmi? — deb go'libda ko'tarib kirgan tugunchani uzardi Go'rkov.

— Shamm o'chir! — buyurdi battol.

— Eshikka parda tuldum, xudo xohlasa...

— O'chir deya pmani!

Qarang-a, battol murdadek bo'lib tobutada yotibdi-yu, ammo buyruqlari hamon shohona, ovozi hamon avvalgiddek salobatli, qilichdek o'tkir. xuddi o'z quliga nuomala qilayotgan podshoga o'xshaydi-yal!

Sham o'chirilgach, xona go'ristonning o'zginasi bo'ldi-go'ydi. Xayriyatki, boshimda qalpoqcham bor, bo'lmasa kim biladi ahvolim ne kechgan bo'lardi.

— Tugunda somsa bor, — pichirladi Go'rkov.

— Almoq, topganing somsa! — o'shqirdi battol. Og'zi ham ajdarhonning og'zidek katta emasmi, lablarining chapillagani, yutingani, termosdan qultillatib choy ichayotgani bemaol eshitilib turibdi. Battol har yutinganda ko'zini bir yumib-ochayotgan bo'lsa kerak, ahyon-ahyonda xonada ikkita nursiz cho'g' yomb-o'chdi...

— Gapir, — dedi battol xo'rillatib choy ho'plab.

— Nimani gapiray, xaloskorim? — itoatkorona so'radi Go'rkov So'fi.

— Shaharda nima gap?

— Xudoga shukur, tinchlik... Sharifa hali o'lmabdi,— afsuslanganamo ohangda dedi Go'rkov.

— Bari bir o'ladi, — ishonch bilan dedi battol. — Uning yuragini mo'ljalga olib, xanjar urganman. Xo'sh, yana qanaga gaplar bor?

— Shu har kungi gaplar, xaloskorim. Avvalambor sizni axtarishyapti. Inshooillo, izingizni ham topisha olmaydi. Qolaversa, shahar ko'chalarni yengiga qizil bog'laganlar bosib ketgan... Tartib o'rnatisharmish.

— Tartib o'rnatishib bo'pti! Xo'sh, anovi ishlar-chi?

— Chatoq, xaloskorim, gapirgani botinolmay turuvdim.

— Nimasi chatoq?

— Avval katta xotiningiznikiga bordim.

— Xo'sh, — cho'kkalab o'tirib oldi battol.

— Xaloskorim kasallar, darmonga kirgunlaricha besh-o'n kun boshpana bersangiz, dedim. Bu gapni eshitib, jufti halolingiz shaytonlab qoldi... Keyin, xudo til ato qilib, shunday dedi: «O'ttiz yildan buyon ustimga xotin olib, xotin qo'yaverib, el-yurt ichida meni sharmandayu sharmisor qildi, kuydirib ado qildi... Endi, hukumatdan qochoq bo'lganda men kerak bo'libman-dal! Yo'q, hali ham o'sha arzanda xotinlarining uyiga boraversin...» Xaloskorim, xafa bo'lmang. Xotin zoti o'zi shunaga bo'ladi. Mashoyixlar it vafu, xotin jafu, deb bejiz aytmaganlar. Shuning uchun ham, kamina qulingiz xotinim bilan qizimini so'ygannan-da... Xudoga ming qatla shukur, xaloskorim, o'sha paytda siz meni qutqarib qolmaganingizda, allaqachonlar otilib ketardim... Jufti halolingiz shunaga nonko'r ekan, kelmasin dedi.

— Obbo alvasti-ey, shunday dedimi-a?

Nazarimda battol o'rnidan turib ketgandek bo'ldi.

— Shunday dedi, xaloskorim.

— Sen uni chavoqlab tashlamadingmi?

— Yo'q, xaloskorim, unday qilmadim. Qo'limga pichoq ushlamayman, deb qasam ichganman.

— Xo'sh, keyin-chi?

— Keyin, xaloskorim, xuddi siz aytganday qilib eng kichik jufti halolingizning uyini topdim. Siz qurib bergan dang'llama imoratni davlatga topshirib yuboribdi. O'rninga bog'cha ochilibdi. O'zi shu bog'chada tarbiyachi bo'lib ishlayotgan ekan. Avvaliga, nahotki xaloskorimdan bir yo'la qirqta chaqaloq qolgan bo'lsa deb yoqamni ushiadim. Keyin gapning tagiga yetgach, xuddi siz aytganday qilib:

— Qizim, men besh yuz chaqirim yo'ldan keldim, umr yo'ldoshingiz yubordi. Kelsa, besh-o'n kun qarab, parvarish

qilasizmi? — dedim. Bu gapdan so'ngi, jufti halolingiz ko'p beandisha ayol ekan, militsiyaga xabar qilish uchun telefonga yopishdi.

— Nonnardi — yer tepinib qo'ydi battol.

— Labbay? — shoshilib so'radi Go'rkov So'fi.

— Tezroq gapir! — tishlarini g'ijilatib dedi battol.

— Xudoga shukur, bir amallab qaytardim, shaytonga hay bering, dedim. Xotin kishi-da, yig'lashga tushsa bo'ladingiz! Baxti qaro ekanman, o'n olti yoshimda uning oshxonasiga ofitsiantka bo'lib borib shu balolarga giriftor bo'ldim, yoshligim qari cho'lning qo'ynida o'tib ketdi, deb yig'ladim...

— Ahmoq!

— Labbay?

— Keyin nima dedi?

— Keyin, xaloskorim, yig'lashdan to'xtab, shartta o'rimdan turib, bu yerdan tez keting, bo'lmasa sizni ham militsiyaga ushlab beraman, dedi.

— Pul so'ramadingmi?

— So'radim, xaloskorim, o'sha nontepki xotiningiz, harom pullarni militsiyaga topshirib yuborganman, dedi.

— Yolg'on!

Odil battol qorong'i uyda paypaslanib tobut bormi, termos bormi — duch kelgan narsani tepa boshladi. Nazarimda, yangilashib, Go'rkov So'fining qorniga ham tepib yubordi shekilli:

— Bu menman, xaloskorim! — degan ovozi eshitildi uning. Battol quturgan sherdek, o'n minut chlamasi qorong'i xonada aylangach, nihoyat jahlidan tushib, tobutning chekkasiga o'tirdi. Hali chiroq o'chganda xona juda qorong'idek tuyulgan edi, hozir ko'zim qorong'ilikka o'rganib qoldimi yoki daydi tepki tushib qolishdan qo'rqanimdan ko'zlarim ravshanlashib ketdimi, harqalay xonadagi narsalarni bemalol ko'ra boshladim. Battol xonaning burchagiga tikilib, bir oz tinch o'tirgach, yerda pachoq bo'lib yotgan termosdan cho'y quyib ichdi-da:

— Papirozing bormi? — so'radi So'fidan.

— Men nos chekaman, xaloskorim.

— Bir kaft ol.

Odil battol nosni tilining tagiga tashlab olgach: «Xafa bo'lma, go'rkov, qizishib ketdim» deb qo'ydi. So'fi:

— Nega xafa bo'lar ekanman, bir tepki ekan-ku, jonimni olganingizda ham g'ing demayman, axir siz tufayli tirik yuribman, siz bo'lmaganingizda yo allaqachon o'lib ketardim, yo umrim qamoqxonada o'tardi, — deb o'rimi bo'lmasa ham hiringlab kulib qo'ydi.

— O'ziyam sadoqatli do'stim bitta sen qolding! — iljaydi Odil battol ham.

— O'la-o'lgunimcha vafodor itingizman, — deb og'ziga nos otdi So'fi ham. — Xudo xohlasha naygi duyoda ham sjni deyman.

Ikkovlari ham og'izlaridagi nosni ovoqlari ostiga tuflab, yenglari bilan lab-lunjlari artishib, chala qolgan suhbatni davom ettirishdi. Go'rkov yuridik konsultatsiya idorasida ishlaydigan, hu birda Odil battol bir yo'la uch qop un va'da qilganda, «hotamtovsiz, hotamtovsiz» deb ko'chgachcha ta'zim qilib chiqqan Shokir maslahatchining uyiga ham borib kelibdi. Maslahatchi kechasi soat ikkilarda qabristonda, Shayx Odil sag'anasida uchrashishga so'z berib, «va'da qilgan narsasini olib kelsin, qayta uchrasha olmaymiz», debdi.

— Mayli... o'tinlarni bugun berolmayman, — o'ziga-o'zi gapirganday dedi battol. — Meni qutqargani uchun o'tinlarimni oladi-yu, ertaga militsiyaga zimdan xabar berib, u yodqan ham mukofot undiradi. Shokirni yaxshi bilaman... U hech kimga do'st bo'lmagan, bundan keyin ham do'st bo'lmaydi.

Odil Abbosovning iltimos bilan So'fi bir qoshigqina aachehq qaynatma sho'rva qilish uchun o'rimdan turdi.

— Ichkilikka vino bo'lsa ham maylimi? — so'radi u eshikning pardasini tushirayotib.

— Konyak topolmasang, aroq oli! — buyurdi battol.

## SHAYX ODIL SAG'ANASIDAGI TIRIK MURDALAR

Qabriston hidi anqib turgan tobutxonada Odil battol ikkovimiz qoldik. U paypaslanib, tobutlardan biriga chaldanicha yotib oldi, ko'zlarini mo'itillatib, nimalar to'g'risidadir o'ylab ketdi... Nima qilsam ekan, hozir qo'l-oyog'ini bog'lab militsiya idorasiga haydab boraymi yoki bir-ikki kun sabr qilaymi? Nazarimda, keyingisi ma'g'ulga o'xshaydi, bir oz sabr qilib, eng so'nggi jinoyatchilarini ham qo'lga olib, hammasini haydab borganim yaxshi. Shaharda jinoyatchilar bilan eng oxirgi jang ketyapti, shu olishuvning ham qahramoni o'zim bo'la qolay... Battol qamog'xonadan bekorga qochmagan, tashqarida ancha-muncha ishlari, uchrashadigan odamlari bo'lishi kerak, ehtimol, berkitib qo'ygan boyliklari ham boridir... Nima bo'lganda ham tishni-tishga bosib, sabr qilishim kerak.

Go'rkov So'fi kastyulda sho'rva bilan yarimta sassiq aroq ko'tarib kirib keldi:

— Bay-bay-bay! — dedi u kastyulni to'nkarilgan tobutning ustiga qo'yib, — yarimta aroqni bita oting pulga olsam-a!

— Qorovullardan so'ramabsan-da? — deganicha Odil battol shishaning tiqimini tishi bilan sug'ira boshladi.

— Bu drujnachilar qorovullarning ham yuragini olib qo'yibdi, — uh tortdi Go'rkov, — qaysi biriga borsam, siz aytdan zamonlar o'tib ketgan, deydi-ya... Takside butun shaharni aylanib chiqdim...

— Bu polkovnikning ishi, o'ziyam ichmaydi, birovi ham ichirmaydi! — tishlarini g'ijirlatib dedi battol. — Xudo xohlasa, uni mana shu tobutga tiqaman!

— Xudoyo, aytganingiz kelsin, xaloskorim.

Biri piyola, boshqasi termosning pachaqlangan qopqog'ida aroq ichishdi. «Xudo xohlasa g'aminlar yer bilan yaksan bo'ladi, ishlaringiz yana yurishib ketadi, hali ko'p davr-davronlar suramiz», degan gaplarni ayitishdi. Go'rkov erkalanib: «Xaloskorim, agar yana xudo sizga omad berib,

ishlaringiz rivojlanib ketsa, shu masjidning imomligini o'zingga olib berasiz», deb iltimos qildi. Battol aroqning qolganini simirib:

— Insho'llo! Senga ko'p yaxshiliklar qilaman, — deganicha, kastyuldan xo'rillatib bir-ikki xo'plab sho'rva ichib oldi. — Lekin, Go'rkov, sen yana bir ishga yordamlashishing kerak.

Go'rkov ko'ksiga qo'lini qo'yib:

— Jonim sizga sadagal! — deya ta'zim qildi.

— Polkovnikni yo'qotishimiz kerak... O'shanda shahar yana o'zimizga qoladi.

— Xudoyo niyat-ingizga yeting! — qo'llarini ochib fотиha o'qidi Go'rkov So'fi.

— Lekin, sen yordamlashasan.

— Xaloskorim, men qo'limga pichoq olmayman, deb qasam ichganman.

— Xudo xohlasa, uni o'zim o'ldiraman. Faqat sening yordaming kerak. Sen, Go'rkov, polkovnikning uyini o'rganasan. Yerto'lasini bormi, yo'qmi, uyi kunning qaysi vaqtida kimsasiz bo'ladi, shularni bilib bersang bas. Uni kechasi uyqusida bosaman. Yetmish joyiga pichoq urib alamimdan chiqmasam, bu dunyodan armon bilan ketaman!... Lekin, hozircha vaqt bor. Avval pasportni to'g'rilaylik... Ana undan keyin, ey xudo!

— Yaratgan egam, Xo'ja Ahroru Vali, — So'fi chaqqon bir harakat bilan cho'kka tushdi-yu, qo'lini fотиha ga ochib iltijo qila boshladi, — xaloskorimning ishlaringiz rivojiga kushoyish bering! Oblohu akbar!

— Oblohu akbar! — deb qo'lini yuziga surtdi battol ham. So'ng cho'ntagidan zanjirli soat olib, uchrashuv vaqti bo'lganligini ma'lum qildi. Yana bir fотиha o'qib, Xo'ja Ahroru Vali arvohdan yana bir madad so'rashib, birin-ketin qabristonga tomon yo'l olishdi...

Qabristonga, ishonsangiz, kunduzi borgani ham qo'riqaman. Jin, alvasti, arvoch bor, degan gaplarga uncha ishonmaymanu, lekin shunday bo'lsa ham bari bir



qo'rqaveraman. Hozir yarim tun, butun shahar ahli shirin uyquga ketgan. Qabriston jimjit. Tiq etgan ovoz eshitimaydi. Bu jim-jimlik atrofi yanada vahimador qilib yuborayotgandek. Har zamonda boyo'g'lining xunuk ovozi eshitiyadi. Surtdek oydin bo'lgani uchun daraxtlarning soyasi har xil shaklda ko'zga tashlanib, yurakka g'uluv soladi. Bir mahal ko'zimga qulochga sig'maydigan katta bir terak ostida ellik-olmish chog'li murda yerga o'g'rib olib, majlis qilayotganga o'xshab ko'rimib ketdi. Murdalarning hammasi kafanda, bir xil boshini silkitadi, boshqa bir xil qo'lini havoda o'ynatib chapak chaladi. Bitta novcharog'i o'rtaga tushib, o'ynayotganga ham o'xshaydi...

Qo'rqib ketdim, ha-ha, haddan tashqari qo'rqib ketdim. Yuragimning gurs-gurs urganini bemalol eshitib turibman. Beixtiyor Odil battolning yelkasiga tirmashdim.

— Tavba, — dedi battol yurishdan to'xtab, — So'fi, gavdam og'irlashib ketyapti-ya?

— Xayolot, xaloskorim, bu xayolot! — dalda berdi So'fi. — Ko'pincha menga ham shunday bo'lib tuyuladi.

Haligi murdalar raqsga tushayotgan katta terak ostiga kelib to'xtadik... Soyalar qimirlab, uzoqdan menga murdadek bo'lib tuyulgan ekan, qaratak chalayotgan murdaning qo'li emas, terak barglari ekan...

Uchchovimiz ham tik turibmiz. Qabriston jim, tuproq ostidagi minglab, balki o'n minglab kishilar ham jimgina yotishibdi. Hech uyg'onmaydigan uyquga ketishgan. Dunyoning hamma tashvishlarini: birovda qolgan qarzni, bitmay qolgan uyini, dadam komandirovkaga ketgan, kelsa bo'yninga osilaman, deb ko'cha eshik oldida ko'zini mo'ltillatib o'tirgan o'g'lichasini — hamma-hammasini unutib, maza qilib uxlashyapti. Oy ipakdek mayin, sutdek oq nurlar to'kib, bu uyquga yana ham ko'proq orom bag'ishlayapti. Boyo'g'li qayg'uli bir ovozda alla aytyapti. Sukunat butun borliqni bag'riga olib, mayin qo'llari bilan silab-siyपालab «uxla, uxla, uxla» deb past va g'amgin bir ovozda kuyalayapti...

Uch kishi uyg'oqimiz, uch niyat bilan bir-birimizni poylab turibmiz. Nihoyat, qabristonning etak tomonidan o't yonib o'chgandek bo'ldi. Battol ham gugurt chaqib, yonib turgan cho'pni boshi uzra uch marta aylantirib qo'ydi.

— Go'rkov, har ehtimolga qarshi sen hushyor bo'lib tur, — shivirladi battol.

— Tashvishlanmang, xaloskorim, — qasam ichgandek bir ohangda dedi Go'rkov.

Battol qabristonning o'rtarog'idagi kichikroq uydek keladigan Shayx Odil sag'anasiga qarab yura boshladi. Yo'l-yo'lakay cho'ntagidan to'pponcha olib, otishga shaylab, yana solib qo'ydi. Qamogdan qochganiga hech qancha vaqt bo'lgani yo'g'u, to'pponchani darrov qayoqdan topa qoldiykin, degan fikr o'tdi boshimdan. Sag'ananing pastakkina eshigidan avval battol, ketidan Shokir maslahatchi ikkovimiz kirib, bordik. Odil Abbosov cho'ntagidan sham olib yoqqan edi, sag'ananing ichi yorishib ketdi. Burchakka rahmatli Shayx Odilning suyaklarini to'plab, ustiga chirib, ilvirab qolgan kafan parchasini yopib qo'yishibdi. Bu yerda oldin hach uchrashuvlar bo'lganga o'xshaydi: oyog ostida belomor papirosining qoldig'i, aroqdan bo'shagan shisha yotibdi.

Shokir maslahatchi, bu yerga kelgani uchun haddan tashqari qo'rqayotgan bo'lsa kerak, rangi-ro'yi o'chib, bilinar-bilimmas qaltrab ham turibdi.

— Obbo, Odiljon-ey, salomat ko'rishdik-al! — dedi nihoyat u. Og'zini katta ochib, kulmoqchi bo'lgan edi, negadir kulolmadi, iljayib qo'ya qoldi.

— Buning uchun sizga rahmat aytmoqchiman, — deb Odil battol ham bazo'r jimmayib qo'ydi. Iljayishganicha, go'yo kim ko'p iljayishga musobaqa o'ynayotgandek, birlariga tikilib qolishdi.

— Obbo, Odiljon-ey, — dedi yana maslahatchi.

— Obbo, Shokirjon-ey, — dedi battol ham.

Gaplarining mazmunidan shu narsa ma'lum bo'ldi-ki, bundan bir necha yil muqaddam Odil Abbosov, mabodo

qamaliy qolsam, kimki meni qamoqdan eson-omon olib chiqsa yoki uddasidan chiqib qochirsa, o'shanga bir kilogramm Buxoro oltini atab qo'yganiman, degan ekan. Shokir maslahatchi o'sha oltinlarning umidida jonini jabborga berib, hayotini xavf ostida qoldirib, mahbusni qamoqdan qochirishga muvaffaq bo'libdi.

— O'sha va'dangizda turibsizmi? — so'radi oxirida maslahatchi.

— Turibman, — tomog'ini qirib qo'ydi Odil Abbosov.

— Demak, mening harakatlarim bekorga ketmabdi.

— Xudo xohlasa bundan keyingi harakatlaringiz ham bekorga ketmaydi.

— Bo'lmasa, oltinlarni bering, men keta qolay.

— Hozir berolmayman... — Shunday deb battol qiyomati do'stidan uzr so'ray boshladi. Hammasi bo'lib uch joyda xazinasi bor ekan. Bittasi hukumat ixtiyoriga o'tib ketibdi. Qolgan ikkita boshqa yurtda, avlod-ajdodlarning qabriga berkitilgan ekan. Qamoqxonadan juda quvvatsiz bo'lib chiqqani va buning ustiga hamma joyda qidiruv ketayotganligi uchun o'sha yerlarga borolmabdi. Qamoqxonadan chiqqandan buyon Go'rkovga qoldirib ketgan bir hovuch oltinini xarjab turgan emish, xudo xohlasa, shu hafta ichi xazinaning bittasini bir amallab ochmogchi emish. Ammo o'sha yoqqa borib kelish uchun, albatta pasport kerak ekan.

— Men pasportning uddasidan chiqolmayman, — to'satdan jonlanib qoldi maslahatchi.

— Pasportsiz men oltinlarni olib kelolmayman, — bo'sh kelmadi battol ham, juda hushyor odam bo'lgani uchun maslahatchining fe'li aynab qolganini darrov sezdi-yu, cho'ntagidan beshta bir so'mlik oltin tanga chiqarib, uning oldiga qo'ydi. — Bittasiga har qanday pasportni sotib olsa bo'ladi, — deb kulinsiragancha so'zida davom etdi yana. — Shokijon, men hech qachon do'stlarimni aldagan emasman.

Maslahatchi oltinlarni qo'lga olib, tag'in qalbaki bo'lmasin, deb qo'rqdi shekilli, bittasini tishlab ko'rди.

Shundangina murdadek oqarib ketgan rangiga sal qon yugurgandek bo'ldi... Pasport masalasini muhokama qila boshlashdi, har xil variantlarini o'ylab ko'rishdi. Oxiri Xo'ja Ahror Vali masjidining bundan o'n besh yil avval o'lib ketgan imomi Qudrat Mahsum nomiga pasport tayyorlashga qaror qilishdi. Chunki Qudrat Mahsumning aft-basharasi Odil battolga juda o'xshab ketarkan. Buning ustiga undan na bola-chaqqa, na qarindosh-urug' qolgan ekan. U so'qqaboshning bu dunyoda yashab o'tganligini Odil battoldan boshqa kishilar allaqachon unutib yuborgan ekan. Haligi oltinlar suhbatga ilqlik kiritdi. Shokir maslahatchi juda samimiy, serhazil bo'lib qoldi. Qiyomati do'stiga foydali, foydasiz maslahatlar bera boshladi.

— Hozircha boshqa shahardan ko'ra siz uchun shu yerning o'zi bexavotirroq. Amerikada qalbaki pul yasovchilar qalbaki pul yasovchilarga qarshi kurashadigan idoraning yerto'lasida ishlashar ekan, — dedi.

Odil battol kulib:

— To'g'ri aytasiz, pashsha o'ldirgich pashsha uchun xavfli, ammo pashsha uning o'ziga qo'nib olsa, uncha xavfli bo'lmay qoladi. Men yaqinda doimiy yashash uchun polkovnikning yerto'lasiga o'tmogchiman, — dedi.

Ikkovlari ovoz chiqarmasdan, qornalarini silkitib kulishib, xudo xohlasa, yanagi chorshanba kuni, tungi soat ikkida mana shu yerda uchrashishga va'dalashishdi.

Go'rkov daraxtning panasidan chiqib:

— Xo'sh, xaloskorim, ishlar bitdimi? — deb so'radi.

— Xudo xohlasa, hammasi joyida bo'ladi, — mamnunlik bilan dedi battol. Keyin ikkovlari shivirlashib, bir narsa haqida uzog maslahat qilishdi. Maslahat tugagach, So'f battolga bir kunlik yegulik ovqat, pachoq termosda choy berib, Shayx Odil gabrstromiga tiriklayin tiqib sag'ananing eshigini ustidan mixlab tashladi.

## TERGOVCHILIK SAN'ATI

**K**ech yotganim uchun o'rnimdan ham kech turdim — soat o'n birar bo'lib qolibdi. Salimjon akam yo'q, ishga ketib bo'pti. Hovlda qo'shimizning ishtonsiz yuradigan o'g'li bir ona tovuqni qaqag'latib quvib yuribdi, tovuqning ovozidan uyg'onib ketibman.

— Bahrom, nima qilyapsan? — so'radim esnab. Bahrom javob qaytarimadi-yu, tovuqni ushlab qanoqlarini silkitganicha mening oldimga olib keldi.

— Hoshim aka, mana buning orqasini paypaslab ko'ringchi, tuxumi bormikan?

— Tuxumi bo'lsa nima qilasan? — Uyda bitra bor, ikkovini qo'shib, ragatkaga cho'zma olaman.

Bahromga cho'zmani o'zim olib kelishga va'da berib, yolg'iz nonushra qilgim kelmay, yo'l-yo'lakay ichak-chavogdan tayyorlanadigan arzon somsadan to'rttasini olib yeb, ishxonaga shoshildim. Tunda ko'rganlarimni tezroq ustozimga aytishim, bundan so'ng nima qilishim kerakligi haqida ko'rsatma olishim kerak edi. Qabulxonaga kirib:

— Salimjon akam yolg'izmilar? — deb so'radim modalar jurnalini varaqlab o'tirgan Liliyaxondan.

— Karomat Hoshimova bilan Toshkentga ketdilar, — xuddi meni ko'rmagandek boshini ko'tarmay dedi sekretar.

— Toshkentga? Toshkentda nima qilishar ekan?

— Sizdan beruxsat kengash chagirib qo'yishibdi.

— Salimjon akamda maslahati ishim bor edi. — Hamma ishni menga topshirib ketdilar. — Liliyaxon nihoyat boshini jurnaldan ko'tarib ikki qo'lini biginiga tirab, yasama bir jiddiylik bilan davom etdi: — Xo'sh, o'rtog' Ro'ziyev, eshitaman?

— Nikoh uyining ochilishi marosimi bo'larimish, — hazilga hazil bilan javob qaytardim men ham, — bizdan ikki kishi borib, nikohdan o'tishi kerak ekan.

— Demak, ikkovimiz borar ekamiz-da?

— Yo'q, yigit ham, qiz ham militsioner bo'lsa to'g'ri kelmasmish.

— Nega endi to'g'ri kelmasmish?

— Mabodo o'g'il tug'lsa, qip-qizil hushakboz bo'lib tug'ilar ekan.

— Mabodo qiz tug'lsa-chi?

— Mabodo qiz tug'lsa... modalar jurnalidan boshini ko'tarmaydigan bo'p qolarikan.

Liliyaxon xmond otib kulib yubordi. Kula-kula: «Hoshim aka, aslida siz qiziqchilik uchun tug'ilgan ekansiz...» deb qo'ydi.

Qiziq bo'ldi-ku, Odil battolni nima qildik endi? Yo Xolliqov bilan maslahatlashib qo'ya qolsammikan? Yo'q, u alam ustida hozir borib tappa bosadi-qo'yadi... Bunaqa paytda argonni uzunroq tashlash kerak. Axir Odil battol tirik tuzoqning o'zginasi-ku. Bu tuzoqqa berkinib, pana joylarda pisib yotgan yana qanchadan-qancha jinoyatchilar ilimishi mumkin... Yo'q. Odil battolning qochgani bir jihatdan yaxshi ham bo'ldi. Uning bahonasida shaharda qolgan qulgan jinoyatchilarni ham yig'ishtirib olamiz. Salimjon akam aytgandek, sabr-toqat qila bilish — bizning ishimizda yarim g'alaba hisoblanadi.

Bo'limda ish boshimdan oslib yotgani uchunmi, yoki shtatsiz o'rinbosarim Mamaroziq akamga haddan tashqari mahliyo bo'lib qolganim uchunmi, o'sha kuni Odil battol haqida qayta o'ylamadim. Ustozim to'g'ri aytgan ekan, militsiyada oyog' emas, ko'proq kalla ishlar ekan. Mamaroziq aka, oching'ini aytam, oyog'i bilan emas, kallasi bilan ishlaydigan, bundan ham ochiqroq qilib aytadigan bo'lsam, men orzu qilgan yordamchining naq o'zginasi ekan. O'n besh-yigirma kun ichida butun bo'limning ishlarini tartibga soldi. Yigirma to'rt azamatni yoniga olib, shubha ostiga olingan davlat korxonalarini, oshxonalarini magazinlarni yoppasiga tekshiruvdan o'tkazib chiqdi! Ha, ha, u OBXSS ishining chinakam piri, ustai kaloni ekan. Qarung-a, shunday bir iste'dodi mutaxassis, Salimjon akam

tavsiya qilmaganida, pensiya puliga choyxonada osh damlab yeb, archaning cho'pi bilan tishini kovlab yotaverar ekan.

«Texuchilish» xo'jalik bo'limi mudiri ustidan jinoy ish qo'zg'ab, tergovni o'zima olib borayotgan edim. Gashlaganda xo'mrayib, ko'kragiga mushtlab gapiradigan Mirsalimovni bugun birinchi tergovga chaqirgan edim. U chig'ib ketishi bilan xonanga yog'och oyoqlarini g'ijrlatib, Mamaroziq aka kirib keldi:

— Hoshimjon, bir narsa aytsam xafa bo'lmaysizmi?

— Yo'q, sizdan hech qachon xafa bo'lmayman.

— Siz hali tergovga tayyor emasga o'xshaysiz.

— Qayoqdan bildingiz?

— Hamma gapni eshitib o'tiribman.

— Ehtimol, tayyordirman, — dedim ochiq iqror bo'lgim kelmay.

— Yo'q, tayyor emassiz, — Mamaroziq aka ham bo'sh kelmay turib oldi. — Siz Mirsalimovni tergov qilganingiz yo'q, u sizni tergov qildi. Demak, sizga qaraganda u o'n barobar ko'proq narsani biladi...

Mamaroziq aka divanga o'tirib, agar malol kelmasa, tashqari xonada stul ustida sovit qolgan choy bor, shundan bir piyola quyib chiqsangiz, deb iltimos qildi. Choyni ichgach, kafining orqasi bilan labini artib, o'bbo', Hoshimjon-ey, deb qo'ydi.

Tergov ishi ham o'ziga xos bir san'at ekanligi, tergovchi ham bamisoli o'z askalarini hujumga boshlab boradigan komandirga o'xshab ish tutishi zarurligi haqida gapira boshladi. Komandir dushmaning kayfiyatini, kuchini, taktikasini, asosiy kuchlari qayerga joylashganligini, nihoyat, jang maydonining sharoitini: qayerda pastik, balandlik bor, qayerda anhor yoki qiyalik bor, qayer botqog'u qayer taqir, tekislik — mana shularni o'rganmasdan jangga kirsam, yenga olmaganidek, tergovchi ham qaysi ob'ektda tergov olib borishi zarur bo'lsa, o'sha ob'ektni tergovdan oldin sinchiklab o'rganishi, tergov berishi kerak bo'lgan shaxslarni chuqurroq tekshirib chiqishi, jinoyat

bor deb gumon qilinsa, bu jinoyat qaysi sharoitda yuz berganligi va uning tabiati qanagaligini puxta, juda puxta o'rganishi zarurligi haqida gapirdi. Ana shundan so'ngina tergov boshlansa, tergovchi hukmron bo'larkan. Tergov berayotgan kishi qochgani joy topolmay dovdirab qolarikan. Keyin mening shtatsiz yordamchim o'zining boshidan kechirgan voqealardan ham bir-ikkitasini so'zlab berdi.

— Shunday qiling, uka, hozircha tergovni to'xtating. — dedi oxirida va yana bir piyola choy keltirib berishimni so'radi.

— To'g'ri aytdingiz, — dedim choyni keltirib bergach,

— ishni hali puxtarog' o'rganганиmcha yo'q edi.

— Kamchilingizni darrov bo'yningizga o'lar ekansiz,

— bu yaxshi odat. — Mamaroziq aka choyni shoshmasdan ichib so'zida davom etdi. — Dunyoda ikki toifa odamlar bor, shulardan juda qo'rqaman. Bir toifasi hamma narsani men bilaman, boshqalar qip-qizil ahmoq deb, birovdan o'rganishni istamaydi. Ikkinchisi, o'zi hech narsa bilmaydi-

yu, ertayu kechi birovlariga aql o'rgatib yuradi... Hoshimjon, siz o'g'limdek bo'lib qoldingiz. Ba'zan shunaqangi gaplardan gapirsam xafa bo'lmang.

— Aksincha, hozir sizdan juda xursand bo'ldim, — dedim o'rimdan turib. — Agar xo'p desangiz, uyingizgacha kuzatib borsam.

— Men tushovlangan tuyaga o'xshab hakkalab juda sekin yuraman, Hoshimjon.

— Bari bir boradigan joyim yo'q, — sekin Mamaroziq akaning qo'ltig'idan oldim. Yo'l-yo'lakay jinoyatning tabiati va jinotchining ruhiyati haqida gaplashib ketdik. Mamaroziq aka bundan bir necha yil oldin Rossiyaning qaysi bir shahrida malaka oshirib qaytibdi. O'sha yerda bizning shaharga qaraganda o'n barobar aholi ko'p yashar ekan. Lekin jinoyat va tartib buzilishi bir necha barobar kam bo'lar ekan. Chunki, o'sha shaharda har qanday jinoyatchi jazolanishi kerak, har qanday tartibbuzar qilinishiga yarascha mukofotini ham olishi kerak, degan bir kayfiyat hukmron

ekan. Bu kaffiyat shahar ahlining ruhiga singib ketgan ekan. O'sha shaharda jinoyatchi qonundan ko'ra ko'proq xalqning nafaratidan qo'rqar ekan.

— Bizning shaharda esa, — deb so'zida davom etdi Mamaroziq aka, — jinoyatchilarni tartibbuzarlar bir anallab qutulib o'rganishgan. O'tgan yili bir maktab o'qituvchisi direktorning jinoyatini ochgan edi. Odamlar jinoyatchini emas, balki jinoyatni ochgan yigini o'rtaga olib, «Hoy, almqoq, yesa senkini yebdimi, davlatnikini yebdi-ku! Mana endi qamalib ketisa, bechoraning bolalarini kim boqadi?» deyishib, choyxonadan chiqarib yuborishibdi, to'yu ma'rakaga aralashitmay qo'yishibdi... Biz ham jinoyatchiyu tartibbuzarlariga xalq nafatini uyg'otishimiz kerak...

— Salimjon akamning ham orzulari shu...

— Lekin, Hoshimjon, menga ishonimg, bizda ham ishning borishi chakki emas. Agar shunday olib borsak, bir yil o'tar-o'tamas... ha, mayli, payg'ambarlik qilmay qo'ya qolay...

### ISHQ POKIZA DILGA MEHMION BO'LIBDI

**T**avba deymam o'zimga-o'zim, nega endi bunchalik oh-voh qilamanu, o'z imkoniyatidan foydalanmayman. Axir, mana bu gazetada har bir kishi o'z imkoniyatidan to'la-to'kis foydalanганиdagina maqsadiga erisha oladi, deb yozib qo'yishibdi-ku... Menda Faridani ko'rib kelish uchun imkoniyat yo'qmi, galpoqcham! Boshimga kiyib, ko'zdan g'oyib bo'lib, maza qilib ko'rib kelsam bo'lmaydi-mi! Yig'layotgan bo'lsa, yengim bilan ko'zyoshlarini aritib qo'yaman, ashula aytib, qoshiga o'sma qo'yayotgan bo'lsa, yontga o'tirib olib, to'yib-to'yib tomosha qilaman, o'sma sigilgan piyolasini berkitib qo'yib, rosa jahlni chiqazaman!

Jo'nadim, shoshilib Faridalarnikiga jo'nadim. Odil battoni bir kun poylamasam poylamabman. Umuman, bu sarig dev jonimga tegib ketdi. Magazinchi Ne'mat akamning o'g'illarini yelkamga mindirib, to'rt oyog'lab xonama-xona

yuguraverish ham jonimga tegdi: biri tushib, biri minadi. Koshki bunday bir yelkamdandan tusha turib rahmat desa. Qayoqdal! Meni mingdirmadingiz, deb yig'lab ham qo'yishadi.

— Kech bo'lganda qayoqqa jo'nab golyapsiz? — tashvishlanib so'radi Lutfi xolam.

— Magazindan egar olib kelmogchiman.

— Egarni nima qilasisiz?

— O'g'illaringiz meni minganda egarlab minishadi, — deb kulib qo'ydim, — bo'lmasa, orgamni yag'ir qilib yuborishyapti.

Faridalarning eshigiga yetganda galpoqchamni boshimga kiyib, ko'zdan g'oyib bo'ldimu, «bismillohu rahmonu rahim, iloyo shu xonadonga suyuqli kuyov bo'lay, qo'shilganim bilan qo'sha qariy» deb sekin ichkari kirib bordim. Qaynotamning hovlisi uncha katta emas ko'rinadi, Salimjon akam gul jinnisi bo'lsa, qaynotam qush jinnisi ekan. Daraxtlarga bulbul, sa'va, bedana, kaklik, ...ey boringki, ola qarq'a bilan po'pshakdan boshqa jamiki qushlardan bittadan ilib qo'yibdi. Qushlar ham kuyov bola kelganini sezib qolishdi shekilli, bir-birlariga gal bermay sayrashga tushib ketishdi. Hovlining etak tomonida pasttakkina ayvon bor ekan, qaynotam o'sha yerda o'tiribdi. Avval shu kishi bilan tanishay, nima bo'lganda ham xonadonning kattasi-ku, deb o'sha yoqqa yurdim. Tagida eski sholcha, ko'zida qo'sh qavlati ko'zoynak, chap tomonida bir dasta idora hujjatari, o'ng tomonida xontaxtadek keladigan katta cho't — nimalaridir hisoblab o'tiribdi. Ishga shunday berilib ketibdi, yonidagi jo'mragi singan choynakdan labi uchgan piyolaga choy quyib ichganimmi, bir tarelka popukli qandni paqqos tushirib qo'yganimmi ham sezmaidi. Bir mahal ko'zidan ko'zoynagini olib:

— O'yisil! — deb qichqirib yubordi.

— Labbay, dadasi?

— Beri keling!

Qaynonam shoshilib kelib:

— Chehrangiz ochilib qo'ptimi? — dedi.

— Suyunchi, bering, suyunchi! — sekin o'rnidan tura boshladi qaynotam.

— Jonin sizga suyunchi-da, dadasi!

— Kombinatning besh yillik hujjatlarini, tekshirib chiqdim. — Shunday deb qaynotam yana o'rniga o'tirdi. —

Bor-yo'g'i uch so'm kamomat chiqdi, xolos.

— Voy xudoyim-ey! — sevinib ketdi qaynonam ham.

— Mana endi, men o'sha bizni bezovta qilgan militsiya bilan gaplashib qo'yaman.

— To'g'ri qilasiz, dadasi. Naq yuragimizni yordi-yal!

— Mana endi men o'sha ustimizdan chaquv yozgan Hasan nonvoyning burini yerga ishqayman.

— Bir ta'zirini bering, dadasi!

Qaynonamga ergashib, narigi uylariga o'tdim. To'rt xonali uy, to'rtovi ham bo'm-bo'sh, egasi ko'chib ketgandek huvillab yotibdi. Shu paytda Faridaga ko'zim tushib qolsa bo'ladimi! Bechora ozib, cho'pday bo'lib qopti, yuzlari so'lg'in, ko'zlari g'amgin, chehrasida ifodalab bo'lmaydigan dard, alam... Eski to'shak solingan karavotda tizzasini quchoqlab, allanarsalar haqida o'ylanib o'tiribdi... Bechora Farida... Nahotki...

Qiz shartta o'rnidan turib:

— Oyi! — deb qichqirdi.

Qaynonam, palovga unmayotgan bo'lsa kerak, qo'lidagi kag'ir, qizining boshiga yugurib keldi.

— Qo'rqdingmi, ona qizim?

— Yo'q.

— Isitmang tushdimi?

— Men kasal emasman.

— Unday dema, ona qizim. Yot. Mazang yo'q.

— Sizga bir gap aytmoqchiman.

— Aytaver, qizim.

— Meni kechirsangiz aytaman.

— Voy, nega kechirmas ekaman, faqat tuzalib qolsang bo'lgani, qizim.

— Dadandan qo'rqaman.

— Qo'rqma.

— Oyi, oyijoni! — Farida oyisining ko'ksiga boshini qo'yib ho'ngrab yig'lab yubordi. Oyisi ham mening oyimga o'xshab sal ko'ngilchandroq ekami, qiziga qo'shilib yig'lashga tushdi. Oxiri Faridaning kichkinagina yuzini kaftlari orasiga olib, peshanasidan o'parkan:

— Sevilb goldingmi? — deb so'radi.

— Oyijon...

— Voy shirin qizim-ey, suyunish o'rniga yig'lab o'tiribsanim!

Oralik mehri toblanib ketdi shekilli, qaynonamning o'zi ham yum-yum yig'lab, entikib turgan qizining sochlaridan, yosh quyilayotgan ko'zlaridan o'pa boshladi.

— Ona qizim, sevin, xursand bo'! Ishq faqatgina pokiza dilga mehmon bo'ladi...

— Dadandan uyalaman.

— Uyalma, dadang ham sevgan, men ham sevganman. Sevgi bilan chiroyli bu dunyo, qizim. Kim ekan u baxtli yigit?

— Aytolmayman, oyijoni!

— Menga aytmasang kinga aylasan?

Farida onasining bag'ridan sug'urtilib chiqdi-yu, yostiq ostidan mening rasminni olib, sekin uzatdi. Qaynonam rasmini qo'lga olar ekan, go'yo bexosdan cho'g'ni changallagandek:

— Voy xudoyim, bu anovi kungi milisa-kul! — deb rasmini otib yubordi.

Bir chekkada ko'zlarini mo'tillatib turgan Farida boshini egib, ko'zlaridan yosh to'kib, qo'rqqa-pisa, jinixonadagi tanishgan kunimizdan boshlab «Mars» kinoteatri binosi orqasidagi suhbatgacha — hamma-hammasini so'zlab berdi. Men, qaynonam qanday javob qaytararkan deb, ishonsangiz, qo'rqqamandan yuragimni changallab turibman.

— Lekin, o'zi kelishgan yigit ekan, — deb goldi bir mahal qaynonam, — qara, ko'zlari ham kulib turibdi.

— O'zlari juda qiziqchilar, — dedi Farida ham sal chehrasi ochilib. Shu payt qaynanam suratning orgasidagi yozuvga tikilib qoldi. Qani, o'sha jinnixonadan chiqib ketayotganimda shoshilinchda nima yozgan ekanman, deb bunday qaragan edim, bema'ni bir yozuvga ko'zim tushdi: «Og'ritmasdan ukol qiluvchi Faridaxonga. Chuchvaraxo'r Hoshimjondan esdalik», deb yozgan ekanman.

Qaynanam ayyonga chiqib, «hoy dadasi, tez keling, tezroq keling, gapning kattasi bu yozda ekan», dedi hovliqib. Qaynatam qushi solingan to'rgovog'ni ko'tarib, shoshmasdan kelayotgan edi, qaynonam:

— Qani, suvunchini chiqaring! — deb g'istadi yana.

— Tinchlikmi? — to'rgovodagi qushga chuvalechang berayotib so'radi qaynatam.

— Yo'q, avval suvunchini bering! — shunday deb, qaynanam suvunchini ham kutmay, Faridadan eshitganlarini oqizmay-tomizmay aytib berib, oxirida erining qo'liga mening suratimni tutdi. Qaynatam qo'shqavlati ko'zoynagini taqib, suratimga uzog tikildi. Orgasidagi yozuvni ham bir-ikki bor o'qib chiqdi.

— Chuchvaraxo'r degani nimasi ekan? — dedi nihoyat yelkasini qisib.

— Hazilkash ekan, dadasi, — tushuntirdi qaynanam.

— Demak, Ro'ziyev deganlari shu yigit ekan-da, — hamon suratimdan ko'zini olmay so'radi qaynatam, — bu yigitning ovozasi hozir butun respublikaga yoyilgan. O'zlari OBXSSning boshlig'i bo'lib ishlaydilar... Lekin, onasi, qizinging ham didi chakki emasga o'xshab qoldi.

Shu gapdan so'ng qaynanam bilan qaynatam kulimsirash-gancha, bir nafas bir-birlariga tikilishib turishdi-da, keyin sharaqlab kulib yuborishdi. Tizzalariga shappalab, qotib-qotib kulishar edi. Nazarimda, ichkarida Farida ham ovoz chiqarmasdan kulayotganga o'xshaydi. Nega desangiz, ichkaridan karavotning bir me'yorda g'ijitlagani eshitilib turibdi.

— Voy, voy o'ldim, dadasi! — dedi qaynanam ko'ksini changallab.

— Afandi bo'libsiz, afandi! — dedi qaynatam kulishga holi kelmay.

Uyda xursandchilik boshlandi. Hovlidagi qushlar ham sevinchlarini berkitolmay, navo boshlashdi. Chehralariga kulgi, tabassum qo'ndi.

O'rta qo'yilgan palov ham xursandchiligi, hazil-muroyiba, siziz biz bilan yeyila boshlandi. Tayyor oshni tashlab ketish kuyovning sha'niga to'g'ri kelmas, degan o'ylarga borib, sekingina Faridaxonning yoniga cho'kkaladim. Ochiqab qolgan ekanman chaqaloqning kallasidek qilib otayotgan edim, biz tomonning o'pirilib ketganini ko'rgan qaynanam:

— Dadasi, qizingizning ishtahasi ham ochilib qoldi! — dedi sevinib. Shu gapdan so'ng qaynanamning yoniga o'tib cho'kkaladim. Bir mahal qaynatam:

— Lekin, onasi, seniki ham chakki emasga o'xshaydi, — deb hazillashdi.

Yordamimdan qaynatamni ham bebahra qoldirgim kelmay, oxirida u kishining yoniga o'tdim. Tovodagi oshning barakasi uchib borayotganini ko'rgan qaynatam:

— Rostini aytсам, hammamiz ham ochqab qolgan ekanmiz, — deb qo'ydi.

Oshdan so'ng tishlarini kovlab o'tirib, choyxo'rlik qilishdi. Gap orasida qaynanam, boshini yerdan ko'tarolmay o'tirgan Faridaga: «Qizim, xudoga shukr, dadang bir xil qolqoq erkaklar-dan emas. Illoji bo'lsa, Hoshimjonni etraga yoki indinga kechqurun uyga olib kel, tanishaylik, tagituguni surishtiraylik» degan edi, Farida boshini battarroq egib, bilinar-bilimas jilmayib qo'ydi. Fohidadan so'ng qaynanam bilan qaynatam qo'ni-qo'shnilarimkiga berkitib qo'ygan ko'ch-ko'ronlarini olib chiqish uchun qo'zg'alishdi...

Uyga kelсам, Sallimjon akam hali qaytmabdi. Ne'mat akamning o'g'il-qizlari uxlamay, Hoshim akam egar olib kelса, avval men minaman, sen mendan keyin minasan, deb bir-birlari bilan navbat talashib o'tirishgan ekan. Uyga kirishim bilan Bahrom:

— Eggar qani? — deb so'radi.

— Magazin berkitib qo'ibdi, — deb bahona qildim.

— Eggar siz bo'lsa ham mindirasiz, — deb orgamga tirmashdi uch yoshli Davron.

Kayfim chog' bo'lgani uchun bolalarni ham bir xursand qilgim kelib qoldi. Yechinib chiqib, Ne'mat akaning eski to'nini yelkamga egarga o'xshatib tashladim-da:

— Qani, chavandozlar, marhamat, — deb komanda berdim.

Bolalar qiyqirishib, bir-birlarini itarishib, yelkamga yopishibdi. Shunangangi ko'p o'ynatdimki, oxiri charchab, xonaning o'rtasida yelkamda egarim bilan uxlab qolibman.

Tushimda Faridani ko'rdim... u ham meni ot qilib minitb yurgan emish...

## SARQITLAR XIYOBONI YOKI MENI QANDAY QILIB SUVGA PISHGANLARI

Muqimiy ko'chasidan o'tib borayotgan edim. Formasiz, shunchaki tomosha qilish uchun chiqqan edim. Bir mahal orgamdan avval yaxshi qizdirilmagan childirmaning do'pillagan ovozi, ketidan quvonchli qiyqirqlar eshitilib qoldi. Bunday o'girilib qarasam, ana tomosha-yu, mana tomosha! «DT» markali pritseptli traktorning kuzoviga olti kishini chiqarib qo'yishibdi. Bo'ynlariga, hu birda ishchilar taklif qilganidek, aroqdan bo'shagan shishalar osilgan, har birining ko'ksida shapaloqdek keladigan taxtacha. Taxtachalarga rayon millitsiyasi qoshida tuzilgan aroqxo'rlikka garchi kurashuvchi gruppaning hukmi qaroridan ko'chirmalar yozib, oxiriga: «Ashaddiy ichuvchi Rasul O'sarov. Mashina remont ustaxonasining ishchisi», deb adresini ham ko'rsatib qo'yishibdi. Rasul O'sarov sheriklariga o'xshab ikki qo'li bilan betini berkitib olgan. Pritseptning yonida bilagiga lenta taqqan men tengi yigitlar soqchilik qilib

borishyapti. Tepada bitnasi, usta ko'rmagan shogirdlardan bo'lsa kerak, har zamonda childirmanini do'pillatib urib qo'yyapti. Traktorning orgasidan besh yuz desam-ku, mulla Hoshim yana lof qilyapti deb ishonmassiz, ammo uch yuz chog'li bola-chaqa, erkagu xotin ergashib, aroqxo'rnlarni yaxshiroq ko'rib olish uchun bir-birlarini turtishib, yelkasi osha mo'ralashib kelishyapti.

— Voy, bu Dilbarning dadasi-ku!

— Qizining tulfisini sotib aroq olib ichgan odammi?

— Ha, ha, o'sha.

— Ajab bo'pti!

— Hoy, Mavlon, yugur, bufetdagi butilkani berkit.

— Butilka bo'shku, oyi.

— Bo'sh bo'lsa ham berkit, dadang qo'lga tushib qolmasin.

— Voy qo'shni, anovi boshi yiltiraganni tanidingizmi?

— Tanimay-ehi, kuyov charlarda ichib olib, kuyovi bilan kurash tushaman deb sharmanda bo'lgan Qosim-ku!

— Hukumatga balli-ey!

— Gilerini yenggan kishilar aroqxo'rni yengolmaydi deysizmi!

— O'ylab topganga rahmat.

— Drujinachilar savobning tagida qoldi deyavering... — degan pastu baland gaplar ham bo'lib turibdi. Ora-chora Muqimiy nomidagi istirohat bog'ida tashkil etilgan «Sargitlar xiyoboni»ni ham tilga olishyapti. Kiyimidan handachakning hidi kelib turgan bir chol:

— Dehqonboy, siz parkda ochilgan ko'rgazmani ko'rdingizmi? — deb so'radi.

Kiyimidan rayhonning hidi kelib turgan boshqa bir chol:

— O'n besh kundandan buyon belimga kepak boylab yotibman, Mahkamboy, — deb qo'ydi.

— Kelinim shunangangi maqtaydiki, — dedi birinchisi yana.

— Mening nabiram qog'ozlarni yozib beribdi. — deb qo'ydi ikkinchisi ham.



Ikki chol o'sha ko'rgazmani ko'rib kelishga, mabodo yo'lda Dehqonboboning bel og'rig'i tuiib qolsa, Mahkambobo uni suyab kelishga ahdu paymon qilishib, ingillashib, hassalarini do'qillarishib yo'lga tushishdi. Ko'rgazma ochilganiga bir oydan oshib qolgan bo'lsa ham goh ish bilan, goh tashvish bilan bo'lib, borib ko'rolmagan edim.

Chollarning ortidan men ham yo'lga tushdim. Istirohat bog'ining orqa tomonidan yarim gektarcha yer ajratib, tekislab, ustini rangdor yiltiroq shifer bilan yopib, ichini odam bo'yi keladigan yaxlit oynalar bilan katta-kichik xonalarga bo'lishibdi. O'zi odamlarga ham hayransan, sirkda ot o'yinlari, masxarabozliklar, teatrlarda oshiq-ma'shaqlar hayotidan yaxshi tomoshalar, yozgi kinoteatrlarda shpionlar to'g'risidagi filmlar qo'yilaypu-yu, o'sha yoqqa bormasdan hammalari shu yoqqa oqib kelishaveribdi — navbarta turganlarning keti cho'zilib, naq istirohat bog'ining darvozasigacha yetib boribdi.

Ko'rgazma zalining kiraverishiga kattaligi yelpig'ichdek-yelpig'ichdek keladigan dumaloq harflar bilan «Mening militsiyam — mening qo'riqchim» deb yozib qo'yishibdi. Ikki soatcha navbatda turgach, nihoyat chollarning orqasidan ergashib, men ham ko'rgazma zaliga kirib bordim. Lekin, azamatlar boplashibdi! Bekorga odamlar bu yoqqa oqib kelmayotgan ekan. Nima balo, rayonimiz rahbari o'rtog' Umarovning boshqa ishi yo'qmikan deyman. Katta-kichik do'stalaru, xonaki rassomlarning hammasini shu yoqqa tashlaganga o'xshaydi. Zalni shunaqangi chiroyli bezashganki, qani endi Sur'at akaga o'xshagan tezkor sho'r bo'lsamu, besh-o'n qator she'r to'qib yuborsam. Zalga kiraverishda, koridorning ikki chetiga qator suratlar osilib, suratlar ostiga tushuntirish xatlari yozilgan. O'ng tomonga «Militsiyamiz etaxonlari» bo'limiga shu rayonda ishlab, katta-kichikning hurmatiga sazovar bo'lgan militsionerlarning suratlar qo'yilgan, ko'rsatgan qahramonliklari qayd qilingan.

Dehqonbobo bir surat oldida to'xtab, ko'zlarini qisib uzog' tikilib qoldi:

— Mahkamboy, mana bu o'zimizning Kazlop emasmi?  
— O'sha, — deb qo'ydi Mahkambobo negadir g'urur bilan.

— Qovumni yaxshi ko'radi-ya?

— Qishin-yozin yegani qovun edi! — Haliyam jo'natib turibsannmi?

— O'tgan yili posilka qiluvdim. Yo'lda irib oqib ketibdi-yu, urug'i boribdi. Ivan: «Mahkam, yuborgan urug'ing uchun rahmat. Lekin bilasanu, to'rtinchi qavatda qovun ko'kartirib bo'lmaydu» deb hazil qilibdi.

— Omon bo'lgur, bag'ri keng o'tris edi!

— Ko'nchini yomon ko'rar edi...

Ikki cholni surat oldida qoldirib, «Xalq militsiyasi» bo'limiga o'tdim. O'tdim-u, hangu mang bo'lib qoidim. Ilg'or d'rujinachilar deysizmi, bo'limu bo'limchalarning ish ko'rsatgan boshliqlari deysizmi, ko'ngilli o't o'chiruvchilaru, ...ha mayli, gapni qisqa qilib qo'ya qolay... o'nlab tamish, notanish suratlar orasida o'zinning o'rinbosarim, jonginamning huzuri Mamaroziq akanamning ham xo'mariyb tushgan suratini ko'rib sevinib ketdim. Shu ko'rgazmani tashkil etgan kishiga ichimda ofarindlar aytдим.

Shundan keyin, qiziq-qiziq gaplardan mahrum bo'lib qolmayin, deb yana chollarning ortidan ergashdim. «Tekindan kelisa boylik, oxiridir voy-voylik» deb nomlangan zalga, Odil Abbosov boshliq jinoyatchilardan tortib olingan ashqoldashqollar qo'yilibdi: bir xonaga Odil Abbosovning surati bilan boyliklari, boshqa xonaga xo'ppa semiz amakining surati ko'zlik qilib o'n to'rt xonani o'zlariga egallab olishibdi.

— Bay-bay-bay! — dedi Dehqonbobo yoqasini ushlab, — shu xonadagi molu dunyoning hammasi Odilni kimidi-ai?

— Yozib qo'yishibdi-ku.

— Bay-bay-bay! Bu oltinlarni gara, Nikolay postsho xazinasi qoldirib ketgan ekan-da!

— Sen bilan mening peshona terim bu.

— Bay-bay-bay! Shuncha olin bilan qamashdimi-a?

— Hozir yana qochoib ketgan.

— Bay-bay-bay! Yo'q, uni ushlash kerak. Bel og'rig'im bo'lmaganda o'zim ushlab berardim. To'xta-to'xta, Malhamboy, mana bu o'zimizning Abdurahmon xo'ppa seniz-ku?

— O'sha, omborehi edi.

— Bay-bay-bay! Xudo xudoligini ko'rsatibdi. O'tgan yili qishda kelimga bitta patlo so'rab borsam, ko'zini lo'q qilib ustiga o'tiz so'm so'radi-ya? Hukumatga balli, yetim-yesirni, beva-bechorani o'qishini oladi endi!

Qarasam, chollar hali «bay-baylashib» bu zalda ko'proq qolib ketishadiganiga o'xshaydi. Kech kirib qolmasdan, boshqa bo'limlarni ham ko'ray, deb chiqib ketayotgan edim, eshik oldidagi stolchaga qo'yilgan «Mulo hazalar dafariga» ko'zim tushib qoldi. O'tirib, sekin varaqday boshladim. O'n olti ming kishi o'n olti ming mulohaza yozib ketibdi. Yarmi, jinoyatchilarni qo'lga tushirgan o'rtiq Ro'ziyevning otasiga balli desa, yarmi, o'ng-terisiga qararnay xalqni talagan bu ochopatlarni zambarakning og'ziga qo'yib otish kerak, deb yozibdi. O'zim haqidagi maqtovlarni o'qib, ko'nglim tog'dek ko'tarilib ketdi. Tap-tup qadam tashlab, eshigining tepasiga «Bezorichalar» deb yozib qo'yilgan zalga o'tdim... Haddan tashqari xursand bo'lganim uchun, maktab yoshidagi bolalarning bezoriligiga bag'ishlangan ajoyib narsalarni ko'rgan bo'lsam ham, ko'pini eslab qololmadim. Faqat bir bola roqatkadan tosh o'tib, o'n yetti ko'z oyna sindirganligi-yu, yana bitta bola qo'shnisining pishay-pishay deb turgan bodirigini bekitiqcha uzib, bozorda sotayotganda qo'lga tushganligi haqidagi materiallarga esimda qoldi. Ammo, bezorilik qilgan bolalarning surati yoniga dadasi bilan o'ysining ham suratini osib, ish joylarigacha ko'rsatib qo'yishganiga, negadir tushuna olmadim. Tavba, deb yelkanni qisganimcha, «Sargitlar xiyoboni»ga oshiqdim.

Yo'q, ichimdan to'qib chiqarayotganim yo'q, chindan ham ko'rgazmaning bu zalini «Sargitlar xiyoboni» deb nomlashibdi. Chala mullalarni to'piab, xatni-qur'on o'qitgan maktab direktorining surati, kasal xotiniga shifo tilab Qurbon ota mozoriga qo'y so'ygan apiekachining surati, romchi xotining gapiga kirib, qo'shnisini kaltaklagan qassobning surati... Xullas, sargitlarga ilashgan hamsaharlarimizning barchasi mana shu yerga tashrif buyurishibdi.

Soat oltigacha ko'rgazmadagi bo'limlarni aylanaverib naq oyog'imda oyoq qolmadi, tikilaverib ko'zlarim ham charchab ketdi. Shuning uchun bo'lsa kerak, «Xalq xumi» deb nomlanib, o'rtqlik sudlari ishini narnoyish qilishga bag'ishlangan zalda nimani ko'rganimni haligacha eslay olnayman. «Xoy, o'rtiq, jinoyatchini ushla!» deya vahimali nom berilgan boshqa bo'limda boshim aylanib, ko'zim tinib ketdi. Odamlar orasini yoritib, tashqariga chiqayotib, bir kampirni: «Xolajon, nabirangizni o'ynatib, uyingizda jimgina yotsangiz bo'lnaydim!» deb jerkiib ham berdim. Charchadim, ammo qalbin to'la quvonch, iftixor bilan chiqdim. Bechora Salimjon akamning yugurib yelishlari, uyqusiz o'tgan tunlari bekorga ketmaganligini ko'rib, ichimdan sevindim.

Changqab qolgan ekanman, ko'rgazmadan uch yuz metrcha naridagi anhor ustiga omonatgina qurilgan, majnunntollar soya tashlab turgan pivoxonaga kirib bovganimni o'zim ham sezmay qoldim. Men tengi, mendan kattaroq besh-o'n yigit pivoxo'rik qilishib, gazagiga qog'oz karnaychadan bita-bitta sho'rdanak olib yeyishib, chaq-chaqlashib o'tirishibdi. Ikki krujka pivo olib, yonlariga o'tirdim. Sekin quloq solsam, gap rayon mlitsiyasining ajoyib tashabbusi, kichik leytenant Ro'ziyevning jinoyatni ochishdagi favqulodda talanti, polkovnik O'tajonovning mehribonligi haqida bo'ryapti... To'xtab tur, senlarni bir laqillaray dedim-da, bo'yimni cho'zib:

— Menga qaranglar. — deya yigitlarga murojaat qildim, — O'sha Ro'ziyev sizlar maqtaganchalik talantli emas.

— Bekor ayribsiz, — dedi novcha bir yigit menga o'qrayib.

— Xudo urgan maqtanchoq, laqma, — dedim yana.

— Nima, nima?! — bir yo'la besh yigit o'rindan turdi.

— Buning ustiga menga o'xshab o'lardak pivoxo'r ham...

— deganini bilaman, haligi novcha yigit bir sakrab tepamga kelib «gapingni qaytib ol», dedi qalitrab.

— Qaytmayman. Anovi polkovniklaring ham xayolparast bir chol.. Kunbo'yi qog'ozbozlik qiladi... — gapimning u yog'i bo'g'zimdada qoldi. Boshqa yigitlar ham tepamga kelishib:

— Nega o'rtoq Ro'ziyev bilan O'tajonovni haqorat qilyapsan, hozir kechirim so'ra, — deb kekiridagimdan bo'g'ib olishdi. Ular sha'niga bo'lmag'ur gaplar ayganim uchun mening ta'zirini berib qo'yishmoqchi bo'lishdi. Novcha yigit g'azabdan qalitrab: «Suvga pishish kerak bu tirranchani» degan edi, bu taklif boshqalarga ham ma'g'ul tushdi shekilli, beshitasi qo'limdan, beshitasi oyog'imdan ko'tarib, anhor tomonga surgab ketishdi. Qarasam, chingga o'xshaydi. Jon talvasasida:

— Kechirasizlar, Ro'ziyev mening o'zim bo'laman, — degan edim, qaytaga baloga qoldim: «Hali bu pivoxo'r o'rtoq Ro'ziyevning nomini ham sotib yurar ekan, tovlamachi ekan» deb anhorga otib yuborishdi: «Shalop» etib suvga tushdim. Keyin qirg'oqqa tirmashib, bir amallab chiqib kelayotgan edim, novcha yigit:

— Xo'sh, yigitcha, OBXSS boshlig'i haqidagi fikringni o'zgartirasanmi? — deb so'radi.

— O'zgartirmayman, — dedim tishlarimni taqillatib. Yana suvga ijarib yuborishdi. Yana chiqib kelayotgan edim:

— Endi-chi? — deb so'radi boshqa bir yigit.

— O'z fikrimda qolaman, — dedim-u, anhorning narigini betiga suzib o'tib ketdim...

## KAFAN KIVGANLAR

Salimjon akam kengashdan qaytgan kuni uyimizda chinakam bayram bo'ldi. Ne'mat akamning o'g'li-qizlari sovg'a-salomlarni talashib, uncha-muncha araz ham qilib olishdi. Niloyat, xursandchiligu arazlashlar tugab, gulfzor o'rtasidagi temir karavotda ustozim ikkiniz yolg'iz qoldik.

— Xo'sh, Hoshimjon, ishlar qalay? — rayhon bilan yuzini yelib so'radi ustozim.

— Yomon emas... O'zingiz yaxshi borib keldingizmi?

— Ishchilarimizning ovozasi hozir butun respublikaga yoyilibdi.

— Rost ayta yapsizmi?

— Karomat Hoshimova bir soat doklad qildi, zal yigirma minut qarsak chaldi.

— Zo'r bo'pti-ku!

— Ministrimiz meni tabriklab, bo'sh kelmang, nimaniki yordam kerak bo'lsa, hammaisini beramiz, dedi.

— Rostdan ham shunday dedimi?

— Shunday dedi, o'g'lim. Ishni chala tashlab ketmang, rayonimizni butun respublikamizga namuna qilib ko'rsatib, tajriba rayoniga aylantiramiz, dedi, o'g'lim!

— Salimjon akal!

— Labbay, o'g'lim?

— Men ham sizga bir xushxabar topib qo'ydim.

— Yo'q, o'g'lim, men uchun bundan katta xushxabar bo'lmaydi. Rayonda tartib o'rnatishni xalqning o'ziga topshirish... bu katta gap, Hoshimjon...

— Men Odil Abbosovni qo'lga tushirdim...

— A?! — ustozim bir sapchib tushdi, karavot lapanglab ketdi. — Nima deding??

Qalpoqcham yordam berganini yashirdimu, qolgan gapning hammaisini so'zlab berdum.

— Shokir maslahatchi uyushiribdi-da? — qoshlarini past-baland qilib, xuddi qarshisida men emas, Odil battol o'tirgandek, g'azabidan entikib dedi ustozim.

— Ha.  
 — Sharifani pichoqlagan ham battol ekan-da?  
 — Ha.  
 — Demak, endi meni chavqalamoqchi ekan-da?  
 — Ha.  
 — Nomardi!  
 — Er-di pasport olish uchun tayyorgarlik ko'rishyapti.  
 — Mayli, ol-sin. Biz o'sha pasport solgan qallobni ham qo'lga tushiramiz... Hoshim, tur o'g'lim, peshonangdan yana bir o'pay...

Salimjon akam xuddi trevoga e'lon qilingandek, hovliqib o'rnidan turib ketdi. Oyog'iga shippagini ham ilmay ichkariga, telefonga yugurdi. Avval, men soqolini olib qo'ygan generalga, so'ngira oblast markaziga, polkovnik Ali Usmonovning kvartirasiga telefon qildi. Yarim soatlardan so'ng karavotga qaytib chiqib:

— Sening planingni ma'qullashyapti, — dedi-yu, sovb qolgan choyni bir ko'tarishda ichib oldi. — Battoldan bir tuzoq sifaida foydalanamiz deyishyapti. Bu gapni hech kimga aytmagamding?  
 — Yo'q, aytmagandim.

— Qattiq sir saqlansin, deyishyapti... Obbo o'g'lim-ey, qariganimda yuzimni yana yorug' qiladigan bo'lding-da... yoningga odam qo'shib beraymi?

— Mendan ko'nglingiz xotirjam bo'lsin.  
 To'pponchamni cho'ntaginga solib, Shayx Odil sag'anasisga, Odil battolning yangi kvartirasiga jo'nadim. Yo'i-yo'lakay boshimga qalpoqchamni kiyib ko'zdan g'oyib ham bo'lib oldim.

Xufton namozidan so'ng Go'rkov So'fi masjid hovlisida uzoq o'ralashib yurdi. Kerosinkaga kastryul qo'yib, ovqat pishirayotgan ekan, o'ini o'chirib tashqaridan aroq topib keldi. Nihoyat, el uyquga ketganda sekin Shayx Odil sag'anasisga qarab yurdi. Oldingi gal shoshganimdami yoki qattiq qo'rqib ketganimdami, yaxshiroq razm solmagan ekanman, Shayx Odil sag'anasi odamning quchog'i

yetmaydigan azim teraklar ostida bo'lib, teraklar kunduzi salqin berarkan, kechasi sag'anami ko'zdan berkitib, xilvatgohga aylantirarkan.

Sag'anaga yaqinlashgach, Go'rkov cho'kka tushib, atrofga guloq soldi, dov-daraxtlar ola-chalpak soya tashlab turgan gabrstromni sinchiklab kuzatib chiqdi. So'ngira eshikni ochib:

— Xaloskorim, uyg'oqnisiz? — deb so'radi. Ichkari kirib, cho'ntagidan gugurt chiqarib, sham yoqdi. Xona o'rtasidagi tobutdan oppoq kafanga o'ralgan murda sekin boshini ko'tarib:

— Soating necha bo'ldi? — deb so'radi.

— Ikklilar bo'lib qoldi-yov, — javob qaytardi Go'rkov. Murda ustidagi kafanni ochib, Odil battol qiyofasiga kirdi. So'fi suv quyib turdi, yuz-qo'lini yuvib oldi. Battol haddan tashqari ozib, elektr budkalarining eshigiga chizib qo'yiladigan suratlar bor-ku, bamisoli o'shanga o'xshab qolibdi. Soch-soqoli o'sib ketgan, xoh ko'ring, xoh ko'rman, xuddi yoniga oshqovonning pallasini osib, bozorlarda «diديو» o'qidigan darveshning o'zi deysiz. Ko'zlari ich-ichiga botib ketgan, burni bilan og'zi yana ham kattalashib, chinakam devning o'zginasi bo'lib qopti.

— Ichkilik olib keldingmi? — qo'llari qaldirab so'radi dev.  
 — Olib keldim, xaloskorim.

Avval pishirilgan go'sht, ketidan hidlanib qolgan norin yeyishdi. Termosdan choy quyib ichib, shahardagi vogelardan, odamlarning kayfiyatidan gaplashishdi. Go'rkov bugun nihoyat polkovnikning uyiga borib, yerto'lasi borligi, kunbo'yi hovlida hech kim bo'lmashligi, ay egasi ko'pincha kechasi qaytishini bilib kelganligini ma'lum qildi. Battol yonidan uzunligi yarim metr keladigan xanjarni chiqarib, jahl bilan yerga sanchedi.

— Ey, xudo, qalbindagi gasos o'tini so'ndirmagini!

Yana xo'rillarib choy ichishib, bugun ko'milgan o'lik haqida uzoq gaplashishdi.

— Ayol kishimidi? — so'radi battol.

— Ayol edi, xaloskorim.

— Tirikligida ko'rganmiding?

— Ko'rmagan edim, xaloskorim.

— Bo'lmasa og'zida tilla tishi borligini qayoqdan bilasan? Tag'in kechagidek ovo'ra bo'lmaylik?

— Yo'o'q, xudo xohlasa bugun ovo'ra bo'lmaymiz. O'likning orgasidan elliktacha yengil mashina keldi... Obro'fi xonadondan chiqqan o'likning og'zida albatta tillasi bo'ladi.

So'fi tashqariga kafan kiyib chiqqanimiz ma'qul, mabodo bitta-yarimtasning ko'zi tushsa, mozorda arvol ko'rdim deb qochib qoladi, deya maslahat berdi. Maslahat battolga ham ma'qul tushdi shekilli, darrov ko'na qoldi. Ikkovlari ham kafan kiyib olishdi. Biri ketmon, boshqasi bel olib, yangi ko'milgan murdani qabriga qarab yurishdi. Anovi kuni oq choyslab yopinganlarni ko'rib, sal-pal qo'rquvdim, bugun ikkovlarini ham kafanda ko'rib, etlarim jimirlashib ketdi: tirk odamning kafan kiyib, ketmon ko'tarib yurishi juda xunuk, juda vahimali ko'inar ekan...

Qabrni juda tez ochishdi. Men, Odil battol ozib, kuchdan qolgandir deb o'ylab, xato qilgan ekaman. Yo'o'q, battol juda kuchli ekan. Ketmonni shunangangi tez, shunangangi chaqqon ishladiki, nima balo, Xo'ja Ahror Vali kuch bag'ishlayaptimi, deb qo'ydim ichimda. Go'rkov lahada'ga tushib, chopqi bilan murdani jag'larini kesib chiqdi... etarim allaqanday jimirlashib, ich-ichimdan galtiroq turdi, o'zimni yo'qolgudek bir ahvolga tushib qoldim. Lekin... lekin... nachora, xizmatda turibman. Ularga qarshi biron narsa qilishga hozir juda, juda ham o'jizman!

— Mana, xaloskorim, qulingiz hech qachon yangilishgan emas! — maqtanib dedi go'rkov, — ellik grammi kelmasa, betimga tufarim yuboring.

Shayx Odil sag'anasiga qaytib, o'likning og'zidan olingan tishlarni oyoq ostidagi kir latta bilan artishib, xaltaga solishdi. Xaltachada yana ikki yuztacha tish yaltirab ko'rinish ketdi. Demak, bunangangi ismi birinchi bor qilishayotganlari

yo'o'q ekan, gamoqdan qochgandan buyon har kungi mashg'ulotlari shundan iborat ekan...

Odil Battol xaltachadagi tishlarni chamalab:

— Nari borsa, uch yuz gramm keladi xolos, — deb uf tortdi. — Bu bilan Shokirdan qutulib bo'lmaydi. Aytganini bermasak... u bizni ushlab berishi mumkin.

Odil Battol ko'zlarini g'alati gisib, lablarini qimtigancha, bir nuqtaga tikilib, uzog' jim qoldi. So'ng keskin bir harakat bilan yonidan xanjarini sug'urib, yerga sanchdi:

— Go'rkov!

— Labbay, xaloskorim!

— Cho'kka tushi!

— Xaloskorim!

— Cho'kka tush, deyamani! — ovozini kemsirik tishlari orasidan chiqarib, buyurdi battol. Go'rkov ikki ko'zi xanjarda, qo'rqa-pisa cho'kka tushdi.

— Shu kecha ko'rganlarimni biro'vga aytсам, mana shu xanjar boshimini kessin, deb qassam ichi! — buyruq berdi Odil battol.

Go'rkov dag-dag' galtirab, qasam ichdi.

Ha, hamma gap bu yoqda ekan! Battolning eng katta xazinasi — qo'yfurush otasidan qolgan bitmas-tugannas boyligi shu qabristonga ko'milgan ekan. Battol anovi kuni o'zining maslahatchisiga boyligim boshqa shaharda, deb yolg'on so'zlagan ekan, bundan yigirma yil oldin, o'rancha xotini o'lganda qabr toshi qo'yish bahonasida qishloqdagi boyligini keltirib qari tutning ostiga eson-omon berkitib olgan ekan.

Ustini o'to'lanlar qoplagan katta oq marmar toshni nari surib, ko'z yumib-ochguncha, qabrdan zanglagan temir sandiqni sug'urib, o'rmini yana avvalgidek tekislab, go'yo bu yerga kuni kecha o'lik qo'yilgandek tosh ham bostirishdi... Ikkovi ham qora terga botib ketgan, qo'rqan, hovliqgan, entikkan... Yopirim-ey, deb yubordim. Odam bolasi ham shunangangi ahvolga tushadimi! Ko'zlari o't bo'lib yonyapti, tishlari g'ijirlayapti, ko'kraklari temirning bosqonidek

ko'tarilib-tushib turibdi! Sandiqni sag'anaga olib kirgach battol unga peshanasini qo'yib, uzog jim qoldi. Avval yelkasini uchirib, piqillab turdi-da, keyin to'satdan, yosh bolalarga o'xshab, ho'ngrub yubordi:

— Dadam, dadajonim!

— Xalaskorim, o'zingni qo'lga oling, — yupatmoqchi bo'ldi Go'rkov.

— Shu maqsadda boylik yiqqanmidingiz? Yayrab-yashnab yesam bo'lmasmidi, davri-davron sursam bo'lmasmidi!

— Yig'lamang deyapman.

— Dadajonim... — dedi-yu, battol to'satdan jim bo'ldi. Ko'z yoshlarini kafanning yengiga artib, xanjar bilan sandiqning qopqog'ini ko'tardi: oltin tangalar, hozir hech kim taqmay qo'yg'an taqinchog'lar, uzugu tillaqoshlar sham nurida yal-yal yonib, Shayx Odil sag'anasini bir nafasga yoritib yuborgandek bo'ldi. Ikki tirik murdaning ham chehrasi yonishib, gul-gul yashnab ketdi.

— Bu to'pponcha bilan o'qlar ham dadamd qolgan, Qashqardan keltirgan edi, rahmatli! — ham g'urur, ham allaganday o'kinish bilan dedi Odil Abbosov. — Men yana podshoman! Eshityapsanmi, Go'rkov! Bu oltinlar menga yana kuch-qudrat bag'ishlaydi... Endi menga na militsiya, na sud bas kela oladi, xudo xohlasa, men yana shaharning hokimiman, shahanshohiman...

Yarim soatlardan so'ng So'fi shaharning bo'lajak hokimini kafanga o'rab, tobutga yotqizib, sag'ananing ustidan qullab chiqib ketdi.

## QOROVUL YARASHMAY QOLDI

| Surohat bog'i istirohat bog'i bo'lgandan buyon, qasam ich desangiz qasam ichib aytamanki, bunnangani shodiyonani, bunnangani quvonchli kummi hali ko'rmagan bo'lsa kerak. Bir tomonda karnay-surnay, bir tomonda

taqa-tumiga olib nog'ora chalishyapti. Sochiga lenta taqqan qizchalar, oyisidan yashirgan puliga morojniy olib yeyishga oshiqqan bolalar, maktabda tartib o'rnatishga yordami tekkan o'smirlar, «qani jinoyatchiyu tartibbuzar bo'lsa, ko'rsatavaring, ta'zirini berib qo'yamiz» deb yengiga qizil lenta taqqan yigitlaru sayil bahonasida husnini ko'z-ko'z qilishga chiqqan qizlar, ichkilikbozlikka qarshi kurashda nom chiqargan ishchilar, jamoatchi revizorlaru shtatsiz OBXSSchilar... e boringki, beliga kepak bog'lagan chollar, ko'zoynagini topolmay, kelimini qarq'ab kelayotgan kampir-lar... hamma istirohat bog'i tomon daryoddek oqib boryapti.

Suvga chiqqan ikki kelinchak vodoprovod oldida mana bunday gaplarni gaplashib ham turibdi:

— Parkda nima bo'lyapti, o'rtoqjon?

— Voy, dugonajon, eshitmadingizmi?

— Yo'q, eshitmadim.

— O'rtoqjon, bu slyot-ku!

— Qaydam, akangiz, bugun jinoyatchilarga janoza o'qiyuz, deb yasan-tusan qilib chiqib ketdi.

— Tavba, janoza ham karnay-surnay bilan o'qilarkanmi?!

— Shunaga shekilli-da.

— Voy o'limasam, yog'im yonib ketdi...

To'g'ri, to'ppa-to'g'ri aytishdi — slyot bo'lyapti. Militsiyaga yordam beruvchilarning butun rayon slyoti bo'lyapti. O'lay agar, slyot deganlarim ilgari tushunmas ekanman. Karnay-surnay bilan boshlanib, o'rtao'g'ida sersuv nutqbozigu, oxirida qarsak chalinar ekan. Bog'ning direktori, drujinachilar yuragini olib qo'yg'an ekanni yoki xalq militsiyasiga bir xizmat qilishni ko'ngliga tugib qo'yg'an ekanni, harqalay slyotga roppa-rosa o'n besh kun tayyorgarlik ko'ribdi. Juma kuni parkimizga marhamat qiling, drujinachilarga bag'ishlangan xalq sayili ochiladi. Choyxonalarda ichak-uzidi askiya, ochiq sahnalarda poraxo'r'larni fosh qiluvchi tomoshalar ko'rsatiladi. Dorbozlik, nutqbozlik, yo'q, kechirasiz, adtshib ketdim...

mushakbozlik o'yiniari ko'rsatiladi, deb zavodlarga, fabrikalarga taklifnomalar jo'natildi.

Kabobxo'rga — kabobu, mantixo'rga — dumba solingan mantillar pishib turibdi, palovpazlar boshlariga oq xalta kiyib, kappalarini o'ynatib, dunyoda bizdan ustaroq oshpaz yo'q, deb maqtanishib turishibdi. Oh, shu paytda do'stginam Zokir bo'larmidi, no'xat solingan palovdan to'rt-besh tovog'ini urib, sherik, shunangangi majlislariga meni tez-tez chaqirib turgin, deb qo'yamasmidi, deya ich-ichimdan achinib ketdim.

Slyot roppa-rosa to'qqizda boshlandi, yozgi binoga olti yuzu qirg'ra odam sig'ar ekan, qolgani tashqarida qolib ketdi. Slyotni o'rtiq Umarov ochdi. Jamoatchi militsionerlarni rosa maqtab turib:

— Doklad uchun so'z polkovnik o'rtiq Orajonovga! — deb e'lon qilib yubordi.

Salimjon akam... bechora Salimjon akam-ey, shuncha salobati bilan, shuncha gavdasi bilan doklad qilishga mazasi yo'qroq ekan. Shunday qilsa go'yo ishlari yurishib ketadigandek, nuqul yelkasini qashib, mushtiga yo'taladi deng. Oxiri qo'llini ko'ksiga qo'yib:

— O'rtog'lar, men gapir olmayman, — deb o'tirganlardan uzr so'ray boshladi, — negaki, juda xursandman, sevinganimdan yig'lavoray, yig'lavoray deyapman. Agar yana jindek qarsak chalsanglar doklad o'rmiga yarim soat yig'lab berishim mumkin. 40 yildan beri jinoyatchilar, tartibbuzarlarga qarshi kurashni xalq o'z qo'liga olsa, deb orzu qilardim... Orzunga yetdim!!! Shu olti oy ichida, o'tgan yilning olti oyiga solishtirganda, jinoyat 85 foiz kamaydi, tartib buzish hollari 96 foizga kamaydi.

Zalda qarsak yangrab ketdi. Bunday qarasam, yonginamda o'tirgan o'rtiq Xoligov ham zabtiga olib, qarsak urypati.

— Iya, ha, — dedim sekin turtib, — bu gaplarning hammasi qog'ozda qolib ketadi degan edilar-ku?

— Jahl ustida aytganman, akasi! — deb qo'ydi o'rtiq Xoligov.

Salimjon akam o'zini tutib olib:

— Ministrimiz bizni qizg'in tabrikladi, — deyishi bilan, kafini shay qilib yosh-yalanglar, biyagga kuch to'plangan men tengi yigitlar yana qarsak urib yuborishdi.

— Yana ham astoydilroq kirishamiz...

— Rayonimizni namunalni rayonga aylantiramiz!

— Jinoyat urug'iga qiron keltiramizi!

— Tartibbuzarlarning burniga suv quyamizi! — degan bir chekkasi tantanali gasamga, bir chekkasi o'zimizning oddiy va'dalarga o'xshab ketadigan hayqiriqlar ham eshitila boshladi.

Yo'q, men qimmatli ustozimning nutqiga ko'proq qarsak chalindi, deb xato o'ylagan ekanman, qarsakbozlikning eng kuchlisi Karomat Hoshimova minbarga chiqqanda, jamoatchi militsionerlarga mukofot ulashayotganda bo'ldi. O'ttiz olti yigit-qiz, o'n bir kampir va yettita cholga katta-kichik sovg'alar, maqto'v qog'ozlaru faxriy yortiqlar topshirildi. Majlis raisi navbatdagi ishlar, yangi rejalar haqida doklad qilish uchun yana allakimga so'z bermog'chi bo'lib endigina mikrofonga puf-pufflayotgan edi, zahning o'rtarog'ida o'tirgan Muslim bobo o'rimdan turtib, qo'l ko'tardi. Gapirishga ruxsat ham olmay, shu holicha qo'llini boshni uzra ko'tarib, ko'ylagining ustidan taqib olgan orden medallarini jiringlatib, minbarni mo'ljallab, jadal chiqib kelaverdi. Minbarga chiqib, chap qo'li bilan soqolini changallab, bir nafas jim turib qoldi.

— Mergan, yo o'zing chiqasammi? — deb so'radi nihoyat. Zahning o'rtasidan:

— O'zing gapiraver, — degan ovoz eshiltildi.

— Xo'p, gapirsam gapira qolay. Hurmatli jamoa, men o'ttiz oltinchi magazinda qorovul bo'lib ishlayman, — Muslim bobo cho'ntagidan ko'zoynagini olib, shoshnarsadan taqdi. Boshqa cho'ntagidan daftarcha olib, u yoq-bu yog'iga ko'z tashladi-da: «Ha to'g'ri, o'ttiz oltinchi magazin» deb qo'ydi o'ziga-o'zi. — Mergan atlas magazinida qorovul. To'g'rini?

— To'g'ri, — deb qo'ydi Mergan bobo.

— Shu drijinnik masalasi chiqqandan buyon ikkovimiz ham bekorimiz. Elektr choynakda choy qaynatib ichib, Nikolay poshsho davridagi ot o'g'rlar haqida gaplashib, ag'anab yotamiz. Bekor yotib, maosh yeyish eskichasiga makruh... yangichasiga... xo'sh, insodan emas-da, axir... Menga o'xshagan, Merganga o'xshagan bekorchi bo'lib qolgan qorovullar ozmi?... Zolimning vaqtida o'g'ri ko'p edi-yu, qorovul oz edi. Butun eski shahar dahasida bitta qorovul shaqildoq qoqib yurardi... Hozir o'g'rining tayini yo'g'u, hammayoqni qorovul bosib ketgan... Magazin qorovuli, fabrika qorovuli, idora qorovuli... Hoy, odamlar, kichkinagina rayonimizda 260 ta qorovul bor ekan-ai!

Zalda qarsak yangradi. Orga qatordagilar negadir o'rinlaridan ham turib ketishdi. Nihoyat, qarsak ham, g'ovur ham bosilgach, Muslim bobo:

— Mergan, yo noto'g'ri aytdimmi? — deb so'radi o'trog'idan. O'trog'ining javobini ham kutmasdan yana davom etdi:

— Ha, mayli, ikki yuzu olmishta bo'lmasa ikki yuzu elliktadir. Ikki miyasi ayngan chol o'ntaga adashgan bo'lsa adashgandirmiz... Hukumatimiz har bir qorovulga yiliga 720 so'mdan maosh berar ekan. Xo'p, 260 ta qorovulning yillik maoshi qancha bo'ladi? Mergan bilan bir kuni xomcho't qilib ko'rsak... Mana, mana bu qog'ozga hammasini hisoblab yozib qo'yganimiz. Mana, «yarmarkaga tushib nabiralaringizga bir juft tursik, kelimingizga atlas lozimlik...» yo'q, kechirasizlar, bu boshqa qog'oz ekan... Mergan, qog'oz sendamidi, mendamidi?

— Tuzukroq qara, o'zingda edi, — degan javob qaytdi pastdan.

— Ha, mana bu yoqda ekan, — gunohkorona kulimsirab davom etdi Muslim bobo, — hammasi bo'lib, bir yuz to'qson ming so'm bo'lar ekan. Qorovullarning sal kam bekorchilikdan iborat bo'lgan ishini xalq, jamoa o'z qo'liga olsa-yu, shu bir yuzu to'qson ming so'mga gul ko'chati olib,

ariqlarning labiga, tashlandiq yerlarga, ko'cha eshiklari oldiga o'tkazsak... Savobning tagida qolmasmidiki!

O'zi bugun odamlar qarsakbozlik qilgani to'planishganga o'xshaydi. Muslim bobo so'zini to'xatishi bilan pastda o'tirganlar shunaqangi qattiq qarsak chalishdi-ki, ishonsangiz, ancha vaqtgacha ikki qo'lim bilan qulog'imni berkitib o'tirdim. Bir mahal qo'limni olsam qarsak tinibdi-yu, odamlar:

— Ofarin, otaxon!

— Xuddi siz aytgandek qilaman, boboy!

— Qaytaga, yoshlardan mana shu keksalar durust, — deyishib, bir-birlariga luqma tashlashyapti.

Muslim boboning tursik bilan atlas lozimlik aralashgan nutqi sabab bo'ldi-yu, hali aytganimdek, ko'z ko'rib, quloq eshitma-gan tortishuv, nutqbozlik boshlanib ketdi. Biri qorovullikni yo'q qilsak, o'g'rlar quturib ketadi, dedi. Boshqasi, o'g'ri qo'lga tushsa, hadeb hayfsan e'lon qilavermaylik-da, Afrikadagi qabilalarga o'xshab, qulog'i bilan burnini kesib, suratini rayon gazetasida bosib chiqaraylik, dedi. Uchinchisi, o'g'ri-o'g'ri deb vahina qilib yuraversak, yana yuz yilgacha ulardan qutula olmaymiz, degan gapni aytdi. Shu payt mahallamizdagi mak-tabning direktori so'zga chiqib:

— Qorovul bizning davrimiz uchun yarashmaydigan bir narsa, — deb xuddi sinf oynasini sindirib qo'ygan o'quvchilarni urishayotgandek jahl bilan gapira boshladi. — Qorovul o'timishda, o'g'ri, qarog'chilar ko'p bo'lgan davrda paydo bo'lib, keyin odamlarning esidan chiqib ketgan. Mana, men maktabda qorovullik bilan faroshtikni yo'q qilib, hammasini jamoamiz-ning zimmasiga yuklaganman. Iqtisod qilingan pulga a'llochi bolalarga velosiped olib berdim... To'g'ri, biz qorovulga giyoh-vand odam nashaga o'rganib qolgandek o'rganib qolganmiz. Qorovuisiz yashay olmaymiz, deb o'zimizni-o'zimiz ishontirib qo'yganimiz. Bu nuqsonli ishonchdan voz kechish kerak...



E, boringki, o'sha kungi slyotda slyot qatnashchilari uch soatlik tortishuvdan keyin, bizga qorovul Kerak emas, kerakli narsalarni o'zimiz qo'riqlaymiz, qorovul pulga gul olib ekib, shahrimizni gulga ko'mamiz, qorovullikdan bo'shagan qari-qartanlarga Qo'shchinor mahallasida qog'oz xalta tikadigan artel ochib beramiz, degan mazmunda qaror qabul qilib yuborishdi. Majlis ministrimiz nomiga yozilgan tantanati maktab bilan tugadi.

Yarim kechasi uyga qaytayotgan edik, Salimjon akam mehri tovlanib ketdi shekilli, katta qo'lini yelkamga tashlab:

— O'g'lim, men bugun juda baxtliman! — deb qo'ydi.

— Men ham baxtliman, — dedim men ham shosha-pisha.

— Xo'sh, sen nima uchun baxtlisan?

— Nima uchunligini bilmayman, lekin juda xursandman.

#### SARIQ DEVNING O'LIMI

**Shokir** maslahatchi battolga chorshanba kuni pasport keltirib bershini kerak edi. O'sha kuni ishni bitirolmad. Shayx Odil sag'anasiidagi tungi uchrashuv har ikki tomonning achchiq-tiziq so'zlari bilan tugadi. Shokir maslahatchi, agar o'rtada turgan odam ertaga ham pasportni olib kelmasa uddasidan chiqib olmagan bo'ladi, unda boshqa kishi orqali harakat qilishga to'g'ri keladi, degan edi. Odil Abbosov battar tutaqib ketdi. «Sog'lig'im yomonlashib boryapiti» deb yig'lamsirab, mushkini qisib dag'-dag' galtiray boshladi. Men shu kuni ovoz yozib oladigan apparatimni olib borgan edim. Ovozlarini yozib oldim, ammo haddan tashqari qorong'i bo'lgani uchun suratga olishning hech iloji bo'lmadi.

Lekin, Shokir maslahatchi so'zining ustidan chiqadigan kishilardan ekan. Ertasiga, tungi soat uchlarda qabrirstonga va'da qilgan narsasini keltirib:

— Odiljon, lekin, sizni deb o'lib bo'ldim-da! — deb uhtortib qo'ydi.

— Rahmat, siz o'zi qiyomatli do'stimsiz-da, — minnatdor-chilik bildirdi battol.

— Lekin, hech bo'lmasa shu bugun kafaningizni yechmabsizda, — sekingina kulib qo'ydi maslahatchi. — Ikkovlaringni ko'rib, rosti, juda qo'rqib ketgapman.

— Kafandan qo'rqmang, — dalda berdi So'fi, — oxiri borib, siz ham shuni kiyasiz.

— Lekin, sizlar sal ertaroq kiyib qo'yibsizlar-da, — hazil qilib aytgan gapi o'ziga nasha qildi shekilli, kulib qo'ydi maslahatchi. So'fi ham hazilkash ekan.

— Sizga ham bitta tikirib beraymi? — deb kuldi.

Odil battol pasport qo'lga tekkanidan xursand.

Maslahatchi bugun, nihoyat, bir umr orzu qilgan katta boylikka erishganidan o'zida yo'q shod. Go'rkov, mana, xaloskorim pasportini oldi, endi tezgina daf bo'lib men ham oyog'imni uzatib yotar ekanman, deb o'ylab, ich-ichidan sevinardi. Hammalari shod, hammalari xursand, hazilmutoyibaning boisi ham shunda edi. Maslahatchi Odil battolga oq yo'l tiladi. Qayerda bo'lsangiz ham omon bo'ling, deb yaxshi istak bildirdi. Oxirida, polkovnik sizning ham, mening ham bir umrlik dushmanimiz, uni albatta bir yoqli qilib keting, deb qayta-qayta iltimos qildi.

— Xudo xohlasa, indinga mana shu masjidda janoza o'qymiz! — dedi battol ko'zlarini chaqnatib.

Quehoqlashib xayrlashishdi. Kafan kiygan odam kafan kiyagan odamni quehoqlasa juda xunuk ko'rinish ketarkan, teskari qarab oldim.

Maslahatimizga ko'ra, agar, maslahatchi qo'lida oltin bilan chiqsa, men uni qabristomning orqa darvozasigacha kuzatib borib, o'sha yerda poylab turgan ikki militsionerga gugurt chaqib signal bershim kerak edi. Gugurt chaqishim bilan darvozaning orqasidan: «Qo'yvor, jim!» degan yo'g'on-ingichka ovozlar eshitildi-yu, keyin yana qabriston sukunati atrofga hukmron bo'lib qoldi, «Demak, qo'lga olishdi», deb xotirjam bo'ldim, darhol orgamga, Shayx Odil sag'anasiiga qaytdim. Yana qaysi jinoyatchilar bilan uchrashish rejalarini tuzishadi, shuni ham bilib ovozlarini yozib olmoqchi edim. Kirsam, maslahat butunlay boshqach.

sandiqdagi oltinni allaqayerga berkitishmoqchi. Mening ustozimni qatl etish planimi ham allaqachon tuzib bo'lishibdi. Ehtimol bu ishni kunduzi bajarishar, ehtimol biror aqlimi yo'qotgan pulparastni yollashga qaror qilishgandir... Yo'q, endi men harn qarab turmasligim, mustaqil biror chora ko'rishim kerak...

Batolning yonidan pasportini, xanjari bilan o'qlangan pistolemi oldim. Go'rkovning cho'ntaklaridagi belni sinmagan qog'oz pullardan tortib, to bir tiyinlik siyqasi chiqqan chaqalargacha olib, temir sandiqqa joyladim. Odil battolning joni endi mening qo'lim-da, mana shu temir sandiqda! Ertaklardagi asir tushgan devlarga o'xshab, chalaqon bo'lib kabrda yotaveradi, qurotsiz, oltinsiz hech yoqqa chiqolmaydi endi!

— Xayr, kafan kiygan shahanshohim! — dedim, og'ir sandiqni inqillab ko'targanimcha, qabrdan chiqib ketdim.

O'sha kuni o'zbo'shimchalik qilib qo'pol bir xatoga yo'l qo'yibman, yana qanchadan-qancha jinoyatchilarni qo'lga tushirish mumkin bo'lib turganda ishning pachavasini chiqarib qo'yibman. Oltin to'la sandiq'u quro'l-yarog'larni militsiyaga topshirib, endi uyga qaytib kelgan ham edimki, to'sardan telefon xuddi bironing uyiga o't tushgandek, faryod chekib jiringlab qoldi. Salimjon akam trubkani ko'tarib, allakim bilan qisqagina gaplashdi-yu:

— Hoshim! — deb qichqirdi.

— Labbay, ustoz?

— Darrov kiyim.

— Tinchlikmi?

— Odamlar qabristondan ikki tirik murdani haydab chiqib, masjid atrofida quvib yurgan emish.

— Tag'in Odil battol bo'lmasin?

— Bo'lmasa kim bo'lardi!

Kiyinib chiqqunimizcha, bu yoqdan idoramizning navbarchi mashinasi ham dud-dudlab kelib qoldi. Mashinaga o'tirdim. Xo'ja Ahroru Vali masjidini mo'ljalga olib,

qushdek uchib borayotgan edik, hech kutilmaganda, mashina yo'lining qog'ot'rasida taqqa to'xtab qoldi.

— Salimjon aka, bir qoshiq qonimdan keching, — dedi shofyor bo'shshib.

— Nima bo'ldi?

— Kecha qechqurun benzin olish esimdan chiqib qolgan ekan.

— Ahmoq! — dedi Salimjon akam mashina eshigini jahll bilan ochib. — Seni o'zi allaqachon ishdan haydashim kerak edi.

Masjidda borishning hojati yo'q endi, bari bir piyoda yetolmaymiz. Militsiyaga jo'nadik. O'sha yerdan mashina topamiz. Yakkachinor ko'chasini shunday kesib o'tib, Muqimiy ko'chasiga burilishimiz bilan yuz-yuz ellik chog'li odam kafan kiygan ikki murdani quvib kelayotganini ko'rib qoldik.

— O'shalar! — dedim, negadir ham sevinib, ham qo'rqib. Murdalar entikib, halloslashib, xuddi yugurish bo'yicha shahar musobaqasiga qatnashayotgan sportchilarga o'xshab, bir-birlarini quvlab, yonginamizdan o'tib ketgandi, ushlayolmay qoldik.

Quvib kelayotganlar har xil, aksariyati cholalar. Orqaroqda qo'rga-pisa bolalar ham, har narsaga qiziquvchi ayollar ham ergashib kelishyapti. Shovqin-suron. Bir xillar murdalarga qarab toshmi, kesakmi otmogchi bo'lib o'qtalyapti-yu, lekin negadir botimisholmayapti. Quvayotganlar endi yetib, ushlaymiz deyishganda, murdalardan biri go'lidagi tayoqni boshi uzra aylantirib:

— Yo Xo'ja Ahroru Vali! — deb na'ra tortib yuboradi. Odamlar qo'rqib, orgalariga tisarilishi bilan murdalar yana yo'lga tushishadi...

Keyinroq eshitsuam, murdalarning qabrdan bevaqt quvilishiga, hali aytganimdek, mening shoshqaloqligim sabab bo'lgan ekan. Sandiqdagi tillayu Go'rkovning cho'ntagidagi pullarni qoqlab chiqib ketishim bilan battol:

— So'fi, hazini qo'y, — debdi.

— Xaloskorim, sizga nega hazil qilar ekaman, — debdi qo'lni ko'ksiga qo'yib So'fi.

— To'pponchamni olding-ku.

— Xudo saqlasin.

— To'xta, to'xta, xanjarim ham yo'q!

— E parvardigor! — yogasini ushladi Go'rkov.

— Iye, pasportim qani? — bu gal bartol ham yogasini ushladi.

— Yo navzambillo! — degancha So'fi ko'zini lo'q qilib turaveribdi.

— Ablahl! — tutaqib ketibdi bartol. — Sandiq qani? Tillalarni qayoqqa berktiding?

— O'zingiz mening chaqalarimgacha olib qo'yibsiz-ku! — deb So'fi ham sekin o'rindan turibdi. — Cho'ntaklarim qup-quruq, qalamtaroshim bor edi, o'shani ham olib qo'yibsiz.

— Sorqini!

— O'g'ri! — deyishib, murdalar och qolgan jo'jaxo'rozlardek bir-birlariga tashlanib qolishibdi. Bartol, mol achchig'i — jon achchig'i deganlaridek, haddan tashqari quturib ketibdi. Go'rkov ilgari katta o'g'ri bo'lgani uchun bunaqangi mushlashishlarni ko'p ko'rgan, tajriba orttirgan, buning ustiga tekin ovqatlarni yeb, shu kunlarda boquvdagi bugadek kuchga to'lib turgan ekan. Bir-birlarini shunaqangi savalashibdiki, rahmatli Shayx Odil tirik bo'lganda qaysi biriga mukofot berishni bilmay, rosa garang bo'lib qolar ekan.

— Yo Jamshidi! — deb qulochkashlab tushirmish bartol.

— Yo Xo'ja Ahroru Vali! — deb teparmish So'fi Go'rkov.

Oxiri ikkovi charchab, kuchdan ketib, sag'ananing devoriga suyanishib, och bo'rlaridek bir-birlariga tishlarini g'ijratishib jim qolishibdi.

— Sandiq qani? — debdi bittasi.

— Qalamtaroshni ber! — debdi boshqasi.

— To'pponchamni qayoqqa berktiding? — so'rabdi birinchi ovoz.

— Chagamgacha qoqib olibsan! — debdi ikkinchi ovoz. Shundan keyin: «Mana to'pponcha, mana qalamtarosh!» deb bir-birlarini yana sholi tuygandek tuva boshlashibdi.

Abdurazzoq ota degan bir namozxon har kuni bomdod namoziga bora turib, kelining qabriga bir dasta gul qo'yib o'tar ekan. Bugun ham shunday qilibdi. Gulni qo'ygach: «Xudoyo joying jannatda bo'lsin!» deb, kelini duo qilib Shayx Odil qabri yonidan o'tib borayotgan ekan, sag'anadan gupilla-gan, pishillagan, voy-voylagan ovozlari eshitilib qolibdi. Abdurazzoq ota avvaliga qo'rqib ketibdi. Keyin o'zini qo'lga olib, nahotki, Shayximiz tirilgan bo'lsalar, deb sekin devorning yorig'idan mo'ralagan ekan... yo parvardigori olam, ikki murda mushlashishayotgan emish!

Abdurazzoq ota bu gal chinakam qo'rqib ketibdi va Xo'ja Ahroru Vali masjidiga qarab yuguribdi. Yigirma-o'ttiz chog'li namozxon to'plangan ekan, hammasini boshlab kepti. Namozxonlar kalimai shahodatni o'qishib, xudoning nomini dillariga jo qilib, sag'anani chor tomondan qurshab olishibdi. Devor tirqishlaridan mo'ralashib:

— Yo tavballi! — deb yoqalarini ushlab, orqalariga tisarilishibdi. Xuuddi shu paytda masjidning imomi hech kutilmagan bir jasorat ko'rsatibdi. Sag'ananing eshigini lang ochib:

— Insu jins bo'lsang ham chiq! — deb allaganday bir duoni o'qibdi, duo ta'sir qilmabdi.

— Arvolh bo'lsang ham chiq! — deb yana duo o'qibdi imom. Duo ham aptekada turib qolgan eski doriga o'xshab, quvvati ketib qolgan ekanni, arvolharga ta'sir qilmabdi.

— Tirik bo'lsang ham, o'lik bo'lsang ham chiq! — yana hayqiribdi imom, yana jimjitlik emish. Shunda imom: «Zokir qori, boring, militsiyaga telefon qiling!» deb buyuribdi. Militsiya degan so'z imomning og'zidan chiqishi bilan sag'anadan qo'lida yo'g'on bir tayoq, novcha bir murda otilib chiqibdi, ketidan oqsoqlanib, pakana murda ergashibdi.

Ikki murda o'ngi tersiga qaramay gabristonning orqa darvozasini mo'ljalga olib yuguribdi.

Namozxon otalar kavushlarini qo'lga olib, ularning orqasidan quvlashga tushishibdi...

Quvlayotganlar tobora ko'payaverdi. Ko'cha supura-yotgan farroshlar, birining qo'lida eski chelak, boshqasining qo'lida cho'toq supurgi, ular ham ergashishdi. Uyqusirab birinchi smenaga ishga ketayotgan ishchilar, xamir qorgani turgan kampirar ham qiziqsinib izma-iz chopib kelishyapti. Nihoyat, olomon charchab, madordan ketgan murdalarni har tomondan qurshab oldi. Lekin, bironyasi ham yurak yutib, yaqiniga borolmay, har xil taxminlarni aytib turishibdi.

— Shayx Odil pirinning arvohlari bo'lsa-ya!

— Mozorga berkingan o'g'rilar bo'lsa-chi?

— Be, shaharda o'g'ri qoldimi hozir!

— Bechoralarni o'lmasdan ko'mib qo'yishganga o'xshaydi!

— Nega betini ochmaydi bo'lmasa?

— Qo'rqishyapti.

— Demak, o'g'ri ekan-dal!

— O'g'ri rolim o'ynagan artist bo'lsa kerak.

— To'g'ri, yaqinda «Go'ro'g'li Sulton» filmi suratga olish-ar emish.

— Tavbat!

— Qiyomat qoyim bo'lsa, qo'shni, hazrati Bahovuddin pirim gabrlaridan bosh ko'taramishlar!

— E, pirim! Munavvar jamolingizni ko'rsating!

Xuddi shu paytda yuragini changallab, orqada qolib ketgan Salimjon akam ham yetib kelib qoldi. Olomoni yoritib, o'rtaga o'tdi-da: «Hoshim, nega qarab turibsan. Bularning betini och. Odamlar ko'rib olishsin» deb buyurdi. Murdalarning ustidan kafanlarini yechib oldim. Odamlar avvaliga xuddi gipnoz qilingandek, qo'lib qolishdi. Keyin to'sardan o'zlariga kelib, dengizdek chayqalib ketishdi.

— Odil battol-ku bul!

— Jinoyatchilarning piri shu-da!

— Sogoling o'smay o'l, yulg'ichi!

— Yana gampoqdan ham qochibdilar.

— Lekin, xalqdan qocholmaydi!

— Poraxo'ri!

— Yoig'onehi!

— Tuhmatchi!

— Ur, qotilni! — deb qoldi kimdir. Kishilardagi jinoyatchilarning piritiga bo'lgan g'azab-nafarat bamsoli bir bombaga aylandi-yu, gumburlab portlab ketdi. O'rtaga tosh, kesak, kaltak demagani yog'ila boshladi. Bitta chol, ishonsangiz, otgani hech narsa topolmay, nosqovog'ini o'tibdi... Ikki jinoyatchini himoya qilamiz deb, qaytaga kaltakning eng zo'rini Salimjon akam ikkovimiz yedik. Xayriyatki, drujmachilar yordamga kelib qolishdi. Bo'lmasa, kim biladi deysiz, g'azablangan olomon battolga qo'shib bizni ham gora kaltak qilib o'ldirib yuborarmidi... Yo'q, bir amallab battol bilan go'rkovni navbatchilar xonasiga olib borib, eski divanga yotqizdik. Ikkovi ham jonsiz, o'lkmi, turikmi — bilib bo'lmaydi... Bir mahal battol boshini ko'tarib: — Suv... — deb ingradi.

Salimjon akam stakanda suv uzatgan edi, battol qaltirab turgan qo'llari bilan uni oldi-yu, lekin negadir ichmadi. Ustozinning betiga sochib yubordi.

— Yo'q! Men hai o'lmayman! — deb jon talvasasida

o'rniidan turib ketdi u. Tishlarini g'ijilatib, og'zidan ko'piklar sochib, beshiktervatardek tehrana boshladi. Ko'zlari olayib, yuzidan ter quyilib kelyapti.

— Men o'lmayman! — dedi battol yana entikib.

— Albatta, hali ko'p yashaysiz, — dedi Salimjon akam.

— Jinoyat o'lmaydi!

— O'zingizni bosing!

— Milisiyaga tinchlik yo'q, bilib qo'y shumi!

— Mang, suv iching

— Salim, seni o'zim bo'g'ib o'ldiraman! — Qichqirib ustozimga tashlandi battol. Bo'g'moqchi bo'lib qo'llarini cho'zdi-yu, bo'shashib, Salimjon akamning ko'ksiga boshini

qo'ydi. Keyin «shalop» etib yerga yiqilib tushdi...  
Qichqirganda joni chiqib ketgan ekan. Divanga yotqizib,  
doktor chaqirdik...

Battolning o'ligi, xotinlari olib ketishdan bosh tortgani  
uchun, o'likxonada uch-to'rt kun qolib ketdi.

Uni o'zimiz ko'mdik.

Qabrning ustiga mayor Samad aka Qodirovning tavsiyasi  
bilan

«Bu yerga o'g'ritlik, poraxo'rtlik, yulg'ichlik, nihmatchilik,  
qoritlik, galloblik, ochko'zlik, mammanlik, masharparastlik,  
xudbinlikdan iborat sarqilar yig'indisi — Odil battol  
Abbosov ko'mildi. Tug'ilgan yili ma'lum emas, 14 iyulda,  
tong pallasida joni uzildi!»

deb yozib qo'yildi.

O'sha kuni butun shahar xalqi xuddi ajdarho domidan  
qutulgandek yengil nafas oldi, qushchalari sho'x-sho'x  
sayrardilar, quyosh mo'liko'l nur to'kdi, gullar yana ham  
chiroyli, yana ham so'limroq bo'yib ochildi. Bolalar to'yib-  
to'yib morojni yeyishdi, erkaklar militsiya bilan  
drujmachilardan yashirib, oz-ozdan ichib ham yuborishdi.

Jinoyat yerga ko'mildi, Odil battol qiyofasida ko'mildi.  
Shahar xalqi, norasmiy bo'lsa ham, bir kunlik bayram  
e'lon qildi. «Alvido, ey battol!» deb mulla Hoshim ham  
umumxalq xursandchiligiga qo'shilib ketdi.

## GULGA BURKANGAN SHAHAR

**Sh**unday qilib, hurmati do'stim, mana, yolg'on-yashiq  
aralashib ketgan hikoyam ham tugadi. Bilib turibman,  
zerikib qoldingiz. Gapning ochig'ini aytсам, o'zim ham  
charchab ketdim. Endi u yog'ini aytсам ham bo'ladi,  
aytmасam ham bo'ladi. Agar juda qiziqayotgan bo'lsangiz,  
ha, mayli, qisqagina qilib, so'zlab bera qolay.

Jinoyat degan narsa tugab, shahardagi tartibga posbonlik  
qilishni xalq o'z qo'liga olgach, biz — militsiya xodimlari  
qip-qizil bekorchi bo'lib qoldik. Bir kuni posshoyu vazir  
o'ynaymiz, boshqa bir kuni barmiq yashirar o'ynaymiz.  
Futbol komandasi tuzib, maktab bolalariga o'n sakkiz nolg'a  
yutqizib qo'rgan paytimiz ham bo'ldi. Havaskorlardan  
iborat konsert brigadasi tuzuvdik, bunnisini ham ochiq aytib  
qo'ya qolay, ishimiz uncha yurishmadi.

Mayor o'rtiq Xolliqov Bog'ishamol rayon militsiyasiga  
boshliq bo'lib ketdi.

Sur'at aka Oripov rayon gazetasiга redaktor bo'lib o'tdi.  
Karomat opa Hoshimovani yuqori tashkilotga olib  
qo'yishdi.

Karim akani yig'i-sig'i bilan pensiyaga chiqarib yubordik.  
Mana shunagangi kuzatishu, uzatishlarni avjiga  
chiqarayotgan edik, to'satdan ustozim bilan ispolkom rasi  
o'rtiq Umarovni Toshkentga, ministrlikka chaqirib qo'lishdi.  
Men yana qanaga gap chiqib qoldi ekan deb yuragimni  
hovuchlab turgan edim, yo'q, Salimjon akam chehrasi gul-  
gul yashnab, kuchiga-kuch, g'ayratiga-g'ayrat qo'shilgan  
holda, galbi to'la quvonch bilan qaytdi.

— Hoshim, bolaginam! — dedi meni quechoqlab.

— Yana tabriklaymi? — dedim biron gap aytishim kerak-  
ku, deb o'ylab.

— Seni tabriklayman, hammangni, butun militsiyani  
tabriklayman! Eshityapsammi, hammangni!

— Men ham jami bekorchi bo'lib qolgan do'stlarim  
nomidan, o'rtiq polkovnik, sizga tashakkur aytaman! —  
oyoqlarimni jiftlab chest berdim.

Ustozim meni nima uchun tabriklamog'chi bo'lganini bir  
hafadan keyin bildim. Ministrligu, jami oblast militsiya  
boshqarmasidan kelgan vakillar guvohligida, rayonimizning  
karta-kichik aholisi ko'z oldida militsiya ishini xalqning  
o'ziga topshirib yubordik.

Sur'at aka Oripov butun rayon ko'ngilli militsiyasiga  
boshlik etib tayinlandi. OBXSS ishlarini yog'och oyog'ini

g'ijratib yuradigan Mamaroziq aka o'z qo'liga oldi. Imoyat qidiruv bo'limiga xotin-qizlarning tavsiyasi bilan, shu rayonda o'ttiz sakkiz yil sudyalik qilib, yaqinda pensiyaga chiqqan Marhamat Qosimova tayinlandi. Rayonimiz tajriba rayoni deb e'lon qilindi. Ministrikdan kelgan vakil: «O'rtog'lar, endi hushyor bo'linglar, butun mamalak sizlarni kuzatib turadi», degan gaplarni aytdi. Butun xalq oyoqqa turib:

— Tashvishlanmang, bo'sh kelmaymiz! — deb qasamyod qildi.

Ertasiga boshqarmamizdagi militsiya xodimlaridan to'qqiz kishini, rayonimizda boshlangan tashabbusni targ'ib qilish uchun to'qqiz rayonga ishga jo'natdik.

Salimjon akam pensiyaga chiqqish tayyorgarligini ko'ra boshladi. Farida bilan men bo'lsak... aytgandek, buvijonim sovcilikka borib, bir borishdayoq ishni hal qilib keldi «Agar qizingni Hoshimginamga bermasangiz, hammanangizni qamatib yuboramam», degan mazmununda do'q qilibdi... Farida bilan men bo'lsak to'yning maslahatiga tushib qoldik. Qishloqqa borib, rahmatli ustozim usta Usmon Akromov nomida sartaroshxona ochadigan bo'ldim. To'yni uzum pishig'iga qoldirdik. Ertaroq ham qilisak bo'laridi-yu, mehribon buvijonim o'n sakkizta ko'rpa qoplamasam, Hoshimni uylantimayman debdi.

Og'ir kunlarimda mehribon qo'llari bilan boshimni silagan, dadamdan ham qadrdonroq bo'lib qolgan Salimjon akam bilan rosa uch kun tortishdim.

— Men qishloqqa olib ketaman, o'sha yerda gulchilik bilan shug'ullanasiz, — dedim. U:

— Shaharda qolasan, men ham kelin ko'ray, nabirammi ko'cha eshik oldida ko'tarib, bir luzur qilay, — dedi.

Men «ketamiz, ketamiz», deb bo'yiniga osilib, soqoli o'sib ketgan belaridan o'paman. Ustozim: «Kelinoyingning qabrimi yolg'iz tashlab ketolmayman», deb yig'laydi.

Uch kun yig'lashdik. To'rtinchi kuni ustozim ko'chadan hovliqib kirib keldi:

— Hoshim, uydamisan?

— Chuchvara tugayapman, — dedim oshxonada turib.

— Sen zo'r kelding, o'g'lim. Birga ketadigan bo'ldim.

— Rostdanni? — qo'limda bir zuvaia xamir bilan istiqboliga yugurib chiqdim.

— Rost, o'g'lim, ketaman. Bilasammi, men nimani yaxshi ko'raman?

— Yo'q, bilmayman.

— Sertuproq qishloq ko'chalarida quyosh qizdirib turgan paytda yalangoyoq yurishni yaxshi ko'raman... Bilasammi, tag'in nimani yaxshi ko'raman?

— Yo'q, bunisini ham bilmayman.

— Oydin kechalarda ekinga suv tarab qo'yib, marzada yonboshlab yotishni yaxshi ko'raman.

— Tag'in nimani yaxshi ko'rasiz? — so'radim yuzu ko'zlari quvonchdan yonib turgan ustozimdan.

— Tag'imni? Tag'in... saharada qovun poliz oralab band berganlarini uzib chiqishni yaxshi ko'raman.

— Tag'in-chi?

— Soddadili dehqonlar bilan chinor tagidagi supada yonboshlashib, bozordagi narx-navodan, bu yilgi hosilning mo'lligidan... mana shundaydangi gaplarni yaxshi ko'raman. Salimjon akam asli qishloqliq ekan. Qirg'yildan buyon bulbul gulga intilgandek qishloqqa intilarkan. Ammo xizmat taqozosi bilan shaharda qolib ketaveribdi.

O'sha kuni gulzor o'rtasidagi karavotda yonboshlashib olib, ko'p narsalarni orzu qildik, tog' etagidagi toshloq joylardan yangi yer ochib, atirgullar ekdik, qovun ekdik, kapa tikdik, bedana ovladik, oydin kechalarda uxlamasdan, egatlarga suv taradik... va oxiri marza ustida emas, shu o'zimizning karavotda uxlab qoldik.

Militsiya idorasi o'rinda muzey tashkil qilinyotgan edik. Ertasiga, Salimjon akamning uyidagi muzeybop narsalarning hammasini o'sha yoqqa tashish bilan ovora bo'ldik. Eski xatlar, hujjatlar, sovg'aga berilgan pistoletu orden, medallar... Ustozim, o'g'li bilan go'ring to'la nur

bo'lgur kelinyoymning rasmidan boshqa hamma narsani muzeyga topshirib yubordi.

Uyini qo'shinimiz Ne'mat akaning nomiga o'tkazdi. Bolachaqasi bilan bir yayrab yashasin, kelinyoymning ruhi shod bo'ladi, bolalarning hammasiga o'zi doyalik qilgan, bechoraning ortusi ham shu edi deb, ustozim yana jindek ko'z yoshi qilib oldi.

Yigirma to'rt ming so'm puli bor ekan. Ikki mingini undan yuz o'g'irib ketgan o'g'li Karim akaning nomiga o'tkazdi. Qo'lgani xalq miltisiyasi ixtiyoriga berib, nannuali ishlagan drujinachilarga mukofot tariqasida berib yuborilsin, deb xat qoldirildi.

Ertalab, Nikolay poshho zamonidan qolgan o'sha eski qo'ng'iz nusxa mashinamizda yo'lga chiqishimiz kerak edi. Kechasi o'rtiq Umarov telefon qilib, ertaga kunduzi istirohat bog'ida kichkinagina uchrashuvimiz bor, uchrashuvdan keyin javob beramiz, bo'lmasa drujinachilarga ayrib, «paq-paq» mashinangizni shahardan chiqartirmay qo'yaman, deb hazillashdi.

Yo'q, siz nima desangiz deyavering-ku, lekin o'rtiq Umarov ustozimni mendan o'n chandon ortiq yaxshi ko'rarkan. Shaharda ustozimning tashabbusi bilan necha to'p gul ekilgan bo'lsa, hammasidan bir donadan gul kesib keltirilsin, deb buyruq beribdi: yoshu qarining qo'lida dasta-dasta gul, yo'laklarda gul, so'ri-yu, tuvaklarda gul — nima balo shu kechasi osmondan ham gul yog'ilganmi deyman, istirohat bog'i rangorang gullarga ko'milib ketibdi. Gul ko'p bo'lsa, yeru ko'k g'alati ranglarda tovlanib, qalbdada shodlik, quvonch mavj urib, kishi allaqanday entikib ketar ekan.

Odam degani hech joyga sig'maydi. Bizni yengiga lenta taqan yigitlar teatrining yozgi bimosiga olib kirishdi. Rayon va shaharning katta-kichik rahbarlari o'tirgan sahnaga chiqishimiz bilan zaldagilar gurillab o'rnlardan turib, qo'llardagi dasta-dasta gullarni boshlari azra ko'tarib, sikita boshlashdi. Nazarimda, butun borliq mayin va

xushbo'y gullar ichida hayqalayotgandek, zaldagi odamlar gullar to'ligini ichida suzib yurgandek bo'lib ketdi.

O'rtiq Umarov o'rnidan turib qo'ng'iroq chaldi. G'ovur-g'uvur bosilgach:

— O'rtoglar! — deb negadir juda og'ir, juda g'amgin bir ohangda so'z boshladi. — Bugun biz Salimjon akamni butun hayotini odamlarning baxt-saodati yo'lga bag'ishlagan, kishilarning tinchi-oromini deb o'zining tinchi, oromidan voz kechgan bebaho kommunistni pensiyaga uzatish uchun to'plandik. Salimjon akam rayonimizda salkam qirq yil ishladilar. Shu yillar davomida bu kishidan naf ko'rmagan, yordam olmagan biron odam qolmagan bo'lsa kerak...

Zaldan, guldastalar orasidan:

— Ha, bunqangi odam dunyoga kandan-kam keladi!

— Qilgani yaxshilik bo'ldi-yal!

— Lekin, o'zi ro'shno'lik ko'rmadi, bechora! — degan ovozlari eshitila boshladi.

O'rtiq Umarov Yangibog' rayonida «Faxriy grajdanlar kitobi» ta'sis etilganligi, kitobning birinchi betiga polkovnik Salimjon Otjonovning nomi qayd qilinganligini e'lon qildi. Ustozimga kattaligi bolalarning qo'ng'iri uzun etikchasidek keladigan kalitni topshirayotganda, odamlar «gurr» etib o'rnlaridan turib ketishdi, qarsak bilan yig'ri aralashib ketdi. Ustozim rahmat aytish uchun o'rnidan turdi-yu, yo'q, o'pkasi to'lib gapirilmadi. Ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib, boshini egib, uzog ta'zim qildi.

Shundan so'ng turli tashkilot va korxonalarining vakillari, Salimjon akamning eski tanish-bilishlari so'zga chiqib, uni rosa maqtashdi. Yetti to'n, yal-yal yonib turgan beshta atlas qiyiqcha, o'n bitta chust nusxa do'ppi kiydirishdi, yetmishtachta guldasta taqdim etishdi. Men, endi kuzatish marosimi tugagandir, choyxonaga osh buyurishgan bo'lsa o'sha yoqqa jo'nasak ham bo'ladi, deb turgan edim, tugamagan ekan, pensioner Muslim bobo bilan Meragan bobolarning gapi bor ekar. Ikkovlari quloqni savatda gul ko'tarib, sahnaga chiqib kelishdi.

— Obbo, Salimjon-ey! — dedi Muslim bobo qaddini rositlab.  
— Shunday qilib, ketadigan bo'psan-da, ukam. Aslida ketmasang bo'lar... Shogirdaringning ishini ko'rib, qariyalar choyxonasida, bizga o'xshab, oshxo'rlik qilib ag'anab yotsang ham bo'laverar edi. Lekin, ha mayli, xudo o'zi seni katta ishlar uchun yaratgan ekan... Mashoyixlar, arslon yuz yilda bita tug'adi, degan ekan. Sen ham onangdan arslon bo'lib tug'ilgan ekansan! Jinoyatchi-yu, tartibbuzarlarni mo'ljalga olib, arslondek hamla qilding, barakalla, ukal O'z nomidan, og'ziga nosvoy olib, gapir olmay turgan mana bu Mergan nomidan, shahardagi jamiki pensioner chollar nomidan senga bir to'n kiygizay, tur o'rningdan, lekin yig'lamal Militsiya yig'lasa yarashmas ekan.

Xayrlashuv marosimini tugatib, tashqariga chiqsak... qo'ng'iz nusxa mashinamizning o'rniga idoramizning qora «Volga»sini qo'yib, uni kelin-kuyovlarning mashinasini bezatgandek bezab, rang-barang gullarga ko'mib qo'yishibdi. Mashina emas, bamsoli ulkan bir guldasta turganga o'xshardi.

— Bu nima qiliq? — hayron bo'lib so'radi ustozim.

— Rayon rahbariyatining qarori, — kulimsirab ustozimga kalitni uzatdi o'rtoq Umarov.

— E, qo'ysang-chi, o'zinning shaloq mashinam yaxshi.

— Uni muzeyga etib qo'ydik.

Muzeyning daragini eshitgan Salimjon akam yelkasini qisib kuldi-yu, sekin mashinaga o'tira boshladi.

Muqimiy ko'chasidan chiqib ketishimiz kerak, shahar tashqarisiga boshqa yo'l yo'q. O'rtoq Umarov bu yerda ham tashkilotchilik qilganga o'xshaydi: yo'lning ikki chetiga drujinachilar, xalq millitsiyasining vakillari, maktab o'quvchilari, e boringki, pensioner chollaru kampirlargacha chiqib saf tortishibdi. Hammasining qo'lida quchoq-quchoq anvoyi gullar, rayhonlar...

— Xayr, o'rtoq Ro'ziyev!

— Salimjon akal! Uylansam xabar qilaman, albatta kelasizi!

— Salimjon, choyxonadagi ulfataringni unutib yubormal!  
— Xayr, e bag'ri keng inson! — deyishib, mashinaning g'ildiraklari ostiga, oynalariga gullar otishdi. Salimjon akam «piq-piq» yig'lab, darmonsiz qo'llarini silkitib botyapti. Men bo'lsam o'zimda yo'q shod, ta'riflab bo'lmaydigan darajada xursandman. Militsiyaga ishga kirib, mana shunday odamlarga xizmat qilganim uchun, Salimjon akamdek el olqishiga sazovor bo'lgan bir kishi bilan yonna-yon ketayotganim uchun, dasta-dasta gullar, odamlarning mehru muhabbati boshimiz uzra nurdek yog'ilayotgani uchun... va yana o'zim ham bilmagan allanarsalar uchun sevinar edim...

Bir mahal, mashinani endi tezroq haydamoqchi bo'lib bunday orgamga qaragan edim, hu narida, ko'chani changitib, bir-birini turib-itarishib, qo'shimizning o'n bir farzandi yugurib kelayotganini ko'rib qoldim. Hammasining qo'lida gul, og'izlarini katta ochib, entikishib kelishyapti. Mashinani to'xtatib, ustozim bilan yerga tushdik. Bolalarning biri bo'yimizga, biri yelkamizga, boshqasi oyog'imizga tarmashib olishdi.

— Hoshim aka, ketyapsizmi? — dedi Davron yig'lab.

— Ketaman, uka, qishloqda meni katta ishlar kutyapti.

— Endi menga rogakaga cho'zmani kim olib beradi?

— O'zim jo'nataman, posilka qilaman, — deb Davronning chang va ter bosgan qaynoq betlaridan o'pdim.

Ustozimning bo'yiniga osilib olgan ishtonsiz Bahrom:

— Amaki, jon amaki, ketmang! — deb yolvora boshladi.

— Shimming qani, o'g'lim? — bolaning boshini silab dedi ustozim.

— Yo'lga tashlab keldim... jon amaki, ketmang!

— Butunlay ketayotganim yo'q... — xo'rsinib dedi Salimjon akam.

— Siz ketsangiz, Baxtiyor meni uradi! — dedi Bahrom ko'zlarini mo'tillatib.

— Urmaydi. Ursa, unga hech narsa olib kelmasan.



Ustozim bolalarning peshanasidan o'pib, har birini alohida-alohida erkatab, yanagi hafta albatta kelaman, hammangga sovg'a olib kelaman, deb yupardi.

Bolalar mashina ko'zdan yo'q bo'lib ketguncha qo'llarini silkitib, ko'zlarini mo'tillatib qolishdi.

Salimjon akam negadir chuqur-chuqur xo'rsinib bo'yapdi. Men bo'lsam:

— Xayr, ey gulga ko'milgan shahar, xayr, mehribon odamlar, xayr, ey ishtonsiz ukaginam, Bahroni! — deb mashinaga ustma-ust gaz beraman.

## SO'NGSO'Z

### O'ZIGA XOS UJOD SOHIBI

Har bir yozuvchining o'ziga xos hayoti yo'li bor. Tabiiyki, u tug'ilib o'sgan muhit ham, uni o'rab olgan tabiat olami ham, uning bolalik chog'larini ilimga intilishlari ham va nihoyat adabiyotga kirib kelish yo'llari ham o'ziga xos bo'ladi.

Yosh kitobxon muhabbatini qozongan, o'z asarlari bilan dunyo miqyosiga chiqib olgan Xudoyberdi To'xtaboyevning yozuvchilik safiga kirib kelish sirlari bilan qiziqsangiz anglaysizki, u adabiyot maydoniga o'ngir-cho'ngirli yo'llar bilan qanchadan-qancha qiyinchiliklarni yengib kirib kelgan.

Ma'lumotlarga qaraganda, u «Qatron tog'i etaklariga joylashgan Katta Tagob qishlog'ida tug'ilgan». Bu so'lim, sermeva qishloqning odamlari qiziqchi, latifa va ertaklar so'zlashga ustaligi bilan ajralib turadi. Tabiiyki, X. To'xtaboyevning yozuvchi bo'lish uchun qo'lga qalam olishida, o'sha «latifa va ertaklarni, qiziqchilikni yaxshi ko'radigan qishloq odamlarining katta hissasi bor, albatta. Yoshligida takror-takror eshitgan, ilib olib o'zi ham tengdoshlariga, ukalariga aytib bergan latifa va ertaklar uning xarakterini shakllantirishda katta rol o'ynagan.

Xudoyberdi To'xtaboyevning hayoti bilan qiziqadigan bo'lsangiz, u chaqaloqlikdan yetim qolgani, o'gay ota kim ekani taniganini, dimiy kitoblarni o'qigan dindor buvisining qo'lida tarbiya olganini eslaydi. Taxmin qilish kerakki, X. To'xtaboyevning yozuvchilik kasbini tanlashda yoshlikdagi bu hayot mashhaqqatlarining, xususan kampirlarni o'z atrofiga birlashtira oladigan ilmdon va taqvodor buvining ham qandaydir o'рни bo'lganini anglaysiz.

Xudoyberdi o'zining hayoti to'g'risida quyidagilarni alohida hayajon bilan gapiradi:

«Mening bolalik va o'smirlilik yillarim urush yillariga to'g'ri kelgan, ota-onasiz qolgan yetim hamqishloqlarimning

o'kinch va armonlarini eshitganman. O'g'ildan «qora xat» kelgan onalarning ko'ksini yulib dodlaganini ko'rganman, akasini intuzor kutayotgan singillarining, eridan barvaqt judo bo'lgan yosh-yosh juvonlarning pinhoniy ko'z yoshlarini ko'rganman».

Bolalik chog'laridagi bu taassurotlar bekorga o'tib ketgan emas, albatta. Uning yozuvchi bo'lib, xususan bolalar yozuvchisi bo'lib qo'lga qalam olishda bu faktlarning roli ham ozmuncha bo'lgan emas.

Mana Xudoyberdining bolalik chog'larini davomi: «O'gay otam — usta Abduqodir rabochiy bataloniga ketgach biz oilada sakkiz boia qoldik. Bir xillarimiz bolalar uyiga molbogor bo'lib ketdik, men ham bolalar uyida bo'lganman, men ham molbogor bo'lganman. Shunday oilalar ham bo'lgan ediki, ham onadan, ham otadan judo bo'lishgandi... Men ular bilan rosa bolalar uyidan bolalar uyiga o'tib «sayr» qilganman. Harto Toshkentdan Qo'qongacha plyoda ketgan vaqtlarimiz bo'lgan».

Birovlarning eshigida yurib molbogorlik qilish, qisqasi kichik xizmatkor bo'lish, uning ustiga sakkiz yetimchanning kattasi bo'lib, ularning ham g'amini yeyish, yozuvchi so'zlari bilan aytganda «etimar armiyasi safida bo'lish» bolalar uyida yurib turfa bolalar xarakterlarini kuzatish — ular hammasi bo'lajak yozuvchi uchun faqat hayot materiali emas, balki hayot maktabi bosqichlari ham edi.

Urush tugadi. Xudoyberdi To'xtaboyevning o'quvchilik, talabalik davrlari tez suratlar bilan o'tdi. Badiiy ijodga u hali talabalik chog'laridayoq qiziqdi. Dastlab she'rlar mashqini olmogchi bo'ldi, keyin prozaga o'tib hikoyalar yozdi. Talabalik chog'larida yozilgan «Feletondan so'ng» hikoyasi uchun, «Respublika» gazetasining mukofotini oldi. Shundyn keyin X. To'xtaboyev qator hikoyalar e'lon qildi. Yosh adibning hikoyalari tematik jihatdan har xil bo'lsa ham bir jihatdan ularda mustahablik bor edi. U har xil hayot materiali, har xil vaziyatdan turib hayotdagi illatlarga eskilik sarqitlariga, to'g'irrog'i ahloq prinsiplarini buzuvchilarga

qarshi keskin kurash e'lon qilar edi. Shu sababdan yot illatlarga tanqidiy munosabat paydo bo'ldi. Shuning uchun bo'lsa kerak, uning hikoyalarida tanqidiy yo'nalish ancha ustun turadi.

Xudoyberdi To'xtaboyev o'z ijodining bu yo'nalishiga izoh berib yozadi:

«Odatda turmushda illat bo'lib turadi unga qarshi kurashish kerak. Xo'p qaysi yo'l bilan? Muallimlik yo'li bilanmi? Leksiya o'qish bilanmi? Men «Feletondan so'ng» nomi hikoyamda jurnalist ham murabbiy, tabiyachi, feleton janri esa jurnalist — murabbiy qo'lidagi eng yaxshi qurol, masalan zanglagan temirni o'tiga solsang zangi to'kilgani kabi, sarqitlarga botgan kishi feleton o'tida lovullab yonsa sarqitlardan holi bo'ladi, degan g'oyani olg'a surgan edim».

G'oya shunday narsaki, u befordan bekorga paydo bo'lib o'tib ketavermaydi. Bir kun paydo bo'lgan g'oya ikkinchi kun ishga tushishi, o'z amaliyotini ko'rishi kerak bo'ladi. O'zining birinchi asarida olg'a surilgan g'oya Xudoyberdini to'la band qilgan edi. Shu asosda u feleton janrida ancha ijod qildi. U uzoq vaqtlar avvalo «Toshkent haqiqati» va boshqa gazetalarda feletonchi muxbir bo'lib xizmat qildi. Yana shuni ham quvonariki, Xudoyberdi o'z asarlari uchun respublika bo'ylab, har xil sohadan material tanlab, tanlangan materiallar ustida qunt bilan ishlar va feletondan feletonga o'z mahoratini oshirib borar edi. Mana uning feletonchilik faoliyati haqidagi o'z fikrlari:

«Nimaniki sarqit va illat deb tushunsam, nimaniki qonundan tashqari adolatsiz deb bilsam, nimaniki zamonadan orqada qolgan va taraqqiyotga g'ov bo'luvchi deb tushunsam, chiroyli turmushga nimaki dog' bo'lib tushayotgan bo'lsa ana shularning hammasiga qarshi kurashdim. 300 dan ortiq katta-kichik feletonlar yozdim. X. To'xtaboyev, T. Xudoyberdiyev, B. Nazarov degan inzolar bilan yozdim, hech kimni ayamay, jon-jahdim bilan yozdim...»

«Jonijahdim bilan yozdim». Ha, faqat shu xilda yozilgan asarlariga o'z oldidagi vazifani ado eta oladi. Nazarimda, Xudoyberdi ijodning bu talabini yoshligidanog anglab olgan ko'rinadi. Gapping to'g'risini aytganda, chti mol, hamma feletonlar ham o'sha vaqlarda yaratilgan hamma hikoyalar ham barobariga mukammal bo'lgan deb bo'lmaydi. Ular ichida shoshilib yozilgan, obyektivlik talabiga to'la javob beravermaydigan asarlar ham bo'lishi ehtimol. Biroq shu narsa muhimki u o'z asarlarini kuyinishlar bilan, «jon va jahd» bilan yozdi. Nimaiki, «jon va jahd» bilan yozilsa, unda samimiylilik salmog'i yetarli bo'ladi. Demak, u kitobxonga to'la yetib boradi.

X.To'xtaboyevning birinchi hikoyalar to'plami bundan rosa 38 yil oldin, ya'ni 1961 yil «Shoshqaloq» nomi bilan e'lon qilindi. O'shandan beri u asosan bolalar – o'smirilar hayotiga tegishli hikoyalar to'plami gissalar, romanlar e'lon qildi.

Xudoyberdi To'xtaboyev asarlari ichida «Sariq devni minib», «Sariq devning o'limi» romanlari yosh kitobxonlar muhabbatini qozongan asarlardan hisoblanadi.

X.To'xtaboyev «Sariq devni minib» sarguzasht romani uchun respublikamiz yoshlar mukofotini olishga sazovor bo'ldi. Asarning ikkinchi qismi «Sariq devning o'limi» uchun esa yozuvchi militsiya xodimlari hayotiga bag'ishlangan asarlar tanlovining g'olibi bo'ldi. Kitobxonlar jamoatchiligi va adabiy tanqidchilik ham X.To'xtaboyevning bu asarlarini ma'qulladi. Qator taqrizlar e'lon qilindi. Munaqqidlarning qator maqolalari tilga olindi. Xudoyberding bu asarlari sarguzasht roman uslubida yaratilgan novator romanlardir. Bu romanlarning o'nalab qardosh tillariga, ba'zi bir xorijiy tillariga tarjima qililib, katta tiraj bilan bosilishi ham adib mehnatiga berilgan bahodir.

Xo'sh Xudoyberding nomini ma'lum qilgan bu asarlarning siri nimada? Bu savolga javob berish uchun asarlarga bir nazar tashlab ko'raylik.

Shunday qaraganda «Sariq devni minib», «Sariq devning o'limi» ba'zi xususiyatlari bilan G'afur G'ulomning «Shum bolasi»ni eslatadi. X.To'xtaboyev qahramonlari ham «Shum bola» qahramoni singari ziyrak, sevfahm, chaqqon. Buning ustiga u fantaziyaga ham boy-ma'lum bir ishi bitkazish uchun darrov yo'l izlaydi. Agar yo'l topolmay golsa, mushkul ishlarni xayolan hal qilishdan ham toymaydi.

Biroq, Xudoyberdi To'xtaboyevning qahramoni zamonaviy «shum»lardan. G'afur G'ulomning shum bolasi asr boshlaridagi voqealar zamon zamirida harakat qiladi. O'zining xatti-harakatlari bilan o'sha zamon asosiga chirkim illatlarini fosh qiladi. Biz roman qahramoni Hoshinjoning hatti-harakatlarini kuzatib kulamiz va inson jamiyatga yot bo'lgan rahna va illatlarni fosh qilayotgani va bu ishda uning fahm-farosatlari bilan tanishib «ofarinq» deyimiz.

«Sariq dev» qahramonining harakat maydoni keng, faoliyati ham rang-barang, xarakterining o'ziga yarasha shakllanishi ham bor.

Kitob sahifalarida qahramon dakkiga sabab bo'lgan o'z qilmishlaridan pushaymon bo'lavermaydi, ammo kitobxon payqab oladiki, bu dakkilarning asl sababi qahramonning yaxshi o'qimaganida, umuman hali o'zi tayyor bo'lmagan ishlarga qo'l urganida. Qahramon maktabga qaytib o'qishni davom ettirishga qaror qiladi.

Vogeaning shu tarzda berilishining o'zida muhim bir haqiqat bor. Ba'zi bir yoshlarda kuch va qobiliyatning ortiqcha baholash, o'z imkoniyatlari bilan hisoblashmasdan manmanlik ko'chasiga kirib ketish, real hayot talablarini hisobga ola bermaslik hollari uchrab turadi. Xudoyberdi To'xtaboyev shu xilda «g'oz chirinish»larga munosabat bildiradi.

Hoshinjon uchun asarning birinchi qismlaridagi «g'oz chirinish»lar o'tkinchi edi. U yot muhirda bir oz bo'lib, yana o'zining asl vazifasiga — o'qishiga qaytadi. Shu bilan go'yo «dakkil»lar sarguzashti ma'lum bir natijalar — qahramon

xarakterining ancha toblanishi bilan yakunlangandek bo'ladi.

Bundan keyin qahramon xarakterida uchinchi va mas'uliyatli bosqich boshlanadi. Asardan shunday taassurot paydo bo'ladi, qahramon go'yo o'zini nimalargadir tayyorladi, o'sha tayyorgarlikka ko'ra ishga tushishi kerak. Yozuvchi qahramoniga shunga loyiq vazifa ham topib beradi. Bu — firibgar, tekinox o'g'rlardan xalq mulki va osoyishtaligini saqlashga qodir bir vazifa — miltisiya xodimi. Biz Hoshimjon bilan birga bo'yib xalq ishonchini suiste'mol qilib, uning mulkiga qo'l cho'zgan qalloblar muhitiga boramiz va ularning hiyla-nayranglarini ko'ramiz. Bular xalq orasidagi soddalarni gap-so'zlariga ishonirib, chaqalab-tiyinlab boylik yig'adiganlardan emas, balki xo'jalik ichidagi kasb-korlarning ilmini egallagan, o'zini ihli hisoblagan har bir kishini gangitib qo'yishga tayyor «mutaxassis o'g'rlar». Tabiatan ziyrak, fahm-farosati, hayotning ba'zi tomonlari bilan tanishib yana ham ziyraklashgan Hoshimjon katta bir operatsiyada qatnashib, uning muvaffaqiyatli yakunlanishini ta'minlaydi. «Mutaxassis o'g'rlar»ning katta gruppasini fosh qilishda qatnashadi. Asardagi bu yo'nalish bugungi — mustaqillik davrida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

«Sariq dev...» — sarguzasht asar. Buning ustiga fantastik ham. Shunga muvofiq asardagi voqealarning ba'zilarini kutilmagan tarzda ro'y beradi, bir qism voqealar asossizdek bo'yib ko'rinadi. Sarguzasht-fantastik asarlarning qismati ma'lum bir detal va yoki epizodning naqadar konkret va realligi bilan belgilanmaydi, balki bir oz reallikdan uzogda bo'laturib kitobxonni ishonitra olishi va «to'g'ina voqealar» vositasida zarur xulosalar chiqarilishi bilan belgilanadi. Xudoyberdi To'xtaboyev asardan kuzatilgan xulosani chigara olgan. Sarguzasht yo'li, fantastik bayon uning uchun adabiy priyom — usul sifatida xizmat qiladi. Masalan, qahramon «Siri galpog'cha»siz voqealarning ich-ichiga kirib bormas, hayotimizda uchrab turadigan, ko'rib-kuzatib

yuritilgan, biroq sir-asrori yetarli anglanmagan illatlarni yetarli darajada fosh qila olmagan bo'lar edi.

Xudoyberdi To'xtaboyevning fantastikasi, takror aytamizki, ma'nodordir. Bu fantastika orqali berilgan voqealar «Siri galpog'cha» bilan uning qahramoni amalga oshirmog'chi bo'lgan hamma ishlar bizning umid va orzularimizda yashaydigan ishlar — xullas, zamonaviy «Shum bola»ga zamonaviy vazifa berilgan va asar qahramoni bu vazifani uddasidan chiga olgan.

Xudoyberdi To'xtaboyevning sarguzasht asari bu xususiyatlari bilan muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. To'g'ri, asarning yana ham pishitish zarur bo'lgan joylari ham yo'q emas. Unda qamrab olingan voqealar keragidan oshiqchadek ko'rinadi, ba'zi joylarida boshqa asarlarda uchraydigan detal va voqealar olinadi, ba'zan batafsil tasvir o'rniga voqealarni bayon qilib o'tish singari hollar ham ko'zga tashlanadi. Ammo, shularga qaramasdan, qo'yilgan maqsadning to'g'ri ifodalanishi, bayonda qiziqarli yo'llar topilishi jihatidan Xudoyberdi To'xtaboyevning bu asari o'smirlar uchun yozilgan yaxshi asarlar qatoridan o'rin olishga haqidir.

Yozuvchilik san'ati shundayki, adib, yo ko'rgan-bilganini, yo eshitganini yozadi. Bu ko'rgan-bilgan va eshitganlarini ma'lum bir sistemaga solishda doim o'z hayoti ko'z oldida tutadi. Shu ma'noda yozuvchi uchun o'z hayoti, ko'rgan-kechiganlari birinchi darajali material vazifasini ado etadi. Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devni o'limi»dan keyin e'lon qilingan romanida shunday satrlar bor: «Belim sal bukiroq, buni o'zim tan olaman, ukalarimni kutaraverib shunagangi bo'yib golanman, bo'yim ham tengqularimga qaraganda sal pastroq, buni ham inkor qilmayman. Men yuqoriga qarab o'saman deganimda ukalarim yelkamga minib olib, pastga qarab bosishavergan. Shuning uchun pakanaroq bo'yib golanman. Besh bolalik deysishlariga ham rostini aytam uncha jahlim chiqmaydi. Nega desangiz chindan ham roppa-rosa beshta ukam bor. Beshovini ham

o'zim katta qilganman, oyijonim traktorchi, urush boshlagandan buyon kechayu-kunduz dalada».

Hurmati o'quvchimiz sezayotgan bo'lsa kerakki, bu «Besh bolali yigitcha» romanining bosh qahramoni Orifjonning so'zlari. Xudoyberdi To'xtaboyevni o'zini ko'rganlarga nisbatan uning kitoblarini o'qiganlar ming marotaba ko'pdir. Biroq bu sonli kitobxonlar hech vaqt Orifga berilgan bu portret xarakteristikasi Xudoyberdi To'xtabovni o'ziga aloqador ekani bilmaydi. Ha, bu portretda yozuvchining o'z qiyofasidan nimalardir olingan, faqat portret ma'nosida emas, balki boshqa jihatlar bilan ham Orifjon adibning prototipi degan xulosaga kelishga huquq beradi.

Haqiqiy yozuvchining har bir asari izlanishlar samarasidir. Xudoyberdi To'xtaboyev har bir asari bilan o'z ijodini nimalar bilanidir boyitadi, gandaydir yangiliklarga erishadi. Biroq ijodkor uchun, xususan o'ziga talabchan, badiiyat mas'uliyatini his qiladigan yozuvchi uchun izlanishlarning cheki yo'q. Bu fikrimizni uning keyingi paytlari yozilgan «Mungli ko'zlar», «Shirin qovunlar mamlakati», «Jannati odamlar» kabi asarlari ko'rsatib turadi.

**Matyoqub QO'SHIJONOV,**

*O'zbekiston fanlar akademiyasining  
muxbir a'zosi*

**MYNDARIJA**

**SARIQ DEVNI MINIB**

Sehri galpogeha.....	4
Sariq devni minib.....	87
Mening ham do'stlarim bor.....	192
Xotimni.....	247

**SARIQ DEVNING O'LIMI**

O'rtog polkovnik.....	252
Sariq devni quvib.....	345
Sariq devning o'limi yoki olam gulliston bo'lgani.....	430
So'ngso'z. O'ziga xos ijod solhbi.....	531

**"YANGI ASR AVLODI" NMM USHBU KITOBLARNI  
O'QUVCHILAR E'TIBORIGA HAVOLA QILADI:**

XUDOYBERDI TO'XTABOYEV

**SARIQ DEVNI MINIB**

**SARIQ DEVNING O'LIMI**

*To'plam*

Qayta nashr

Muharrir Navro'z BEKMURODOV  
Texnik muharrir Vera DEMCHENKO  
Badiiy muharrir Bahriiddin BOZOROV  
Musavvir Baxtiyor MUXAMEDOV  
Musahih Madina ABDURAHMONOVA  
Sahifalovchi Feruza BOTIROVA

Bosishga 05.04.2013-y. da ruxsat etildi. Bichimi 84X108 1/32.

Bosma tobog'i 16,875. Shartli bosma tobog'i 28,35.

Garnitura «Lex Times Cyr+Uz». O'fset qog'oz.

Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 91.

Bahosi kelishilgan narxda.

"Yangi asr avlodi" NMMda tayyorlandi.

Lisenziya raqami: AI № 198. 2011-yil 28.08 da berilgan.

"AL-ALKOM TRADE" boshmaxonasida bosildi.

Toshkent, Bunyodkor ko'chasi, 28-uy.

«Yoshlar matbuoti» boshmaxonasida muqovalandi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatorrol ko'chasi, 60.

Murojat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi - 278-30-52; Marketing bo'limi - 128-78-43

faks — 273-00-14; web-saytimiz: [www.yangiasr.uz](http://www.yangiasr.uz)

интернет-сайт: [www.yangiasr.uz](http://www.yangiasr.uz)

e-mail: [yangiasravlod@mail.ru](mailto:yangiasravlod@mail.ru)

Xudoyberdi To'xtaboyev

«JANNATI ODAMLAR»

Bichimi 84X108 1/32, 268 bet.

Qattiq muqova.

Ushbu gissani, eng avvalo, mehribon bobojonlar suyuqlik nabiralariга o'qib bersinlar, so'ngira suyuqlik nabiralari yonboshlab yotgan bobojonlariga o'qib bersinlar. Har ikki tomon gissaning mazasini shimb turguncha, endi buvijonlar asaldek shirin qizlariga o'qib bersinlar.

Xudoyberdi To'xtaboyev

«SHIRIN QOVUNLAR MAMLAKATIDA

YOXUD SEHRGARLAR JANGI»

Bichimi 84X108 1/32, 336 bet.

Qattiq muqova.

Akromjonning bir-biridan qiziq kechmishlarini o'qib mifriqib kulasiz, fantastik lavhalardan hayratga tushasiz, kattaligi tog'dek keladigan qovun-tarvuzlar, qovun ichidagi olam - ajovbu g'aroyib shaharlarga sayohat qilasiz. Bu qahramonimizga ham sehirli qalpoqcha yordamga keladi...

Xudoyberdi To'xtaboyev

«BESH BOLALI YIGITCHA»

Bichimi 84X108 1/32, 268 bet.

Yumshoq muqova.

Bolalik beboshlik, deymiz. Ammo bu davr zahmatlarga, mashaqqatlarga himo-ilm bo'lsa-chi? Beboshlikka, sho'xliklarga o'rin qolarmikan? Bunday bolaning qalbi, dunyosi kattalar hayotiga yaqin bo'ladi. O'zi bilib-bilmay tafakkuri o'sib, irodasi mein insonga aylanadi.

**Xudoyberdi To'xtaboyev**

«MUNGLI KO'ZLAR»

Bichimi 84X108 1/32, 308 bet.

Qattiq muqova.

Mol-dunyoni har narsadan ustun bilgan va oxir-oqibatda guldak farzandlarining achchiq qismatiga sabab bo'lgan ota-ona haqida hikoya qiluvchi mazkur asar yana bir karrta o'zining yangi o'quvchilarini kasbif etadi.

**Xudoyberdi To'xtaboyev**

«QASOSKORNING OLTIN BOSHLI»

Bichimi 84X108 1/32, 400 bet.

Qattiq muqova.

Chor Rossiyasi hukumatini larzaga solgan xalqimizning fidoiyi farzandi Namozning kutilmagan qarorlari, botiriligi va dushmanlariga ayovsizligi, do'stlari uchun jonini fido qilishi mahorati adib tomonidan ro'yi-rost ko'rsatilgan.

**Tohir Malik**

«HALOVAT»

Bichimi 84X108 1/32, 324 bet.

Qattiq muqova.

Biz oilani "Baxt saroyi" deb sifatlashga o'tganib qolganmiz. Kimdir baxt saroyini saodat cho'qqisiga, kimdir esa omonat jar yogasiga quryapti. Muallif shu mavzuda fikr yuritib, Siz, aziz kitobxonlar bilan birgalikda yechim izlashga harakat qiladi. Shu bilan birga, mavzuni yanada ochish maqsadida, otlada uchtrab turuvchi voqealarning badiiy ifodasini ham beradi.

Adib barchalarimizning qutlug' xonadoningizga fayzli barakat, otlangiz mustahkamligini tilab, mazkur kitobni Siz, azizlarga tuhfa etadi.

**Tohir Malik**

«NAFS KISHANLARI»

Bichimi 84X108 1/32, 340 bet.

Yunshoq muqova.

Muhtaram muxlislarimiz diqqatiga havola etilayotgan bu kitob yozuvchining hayot falsafasiga doir kuzatishlari, fikrlari to'ldirilgan to'plamdir. Sizlarni kitob mutolaasiga chorlaymiz.

**Tohir Malik**

«TOSH QALBLARGA ZINHOR NAZAR

SOLINMAS»

Bichimi 84X108 1/32, 168 bet.

Yunshoq muqova.

O'ziga jahannam «gullari» nasib bo'lishini istayotgan odam buning o'rniga o'zi uchun jannat rohatini tilagani afzal emasmi? O'zining jahannam o'tida kuyrag'i uning duobadi bilan bo'lmaganidek, o'zining jannat bog'larida sayr qilishi yaxshi niyat va amallari bilan ekanligini bilishi ham bir baxtdir...

**Tohir Malik**

«VOY, ONAJONIM...»

Bichimi 84X108 1/32, 232 bet.

Qattiq muqova.

O'zbekiston Xalq yozuvchisi Tohir Malikning yangi hikoyalari jamlangan mazkur kitob sizni o'ylashga, chuqur mushohada yuritishga, insoniylikni unutmasilikka undaydi...

**Tohir Malik**

«AYOVSIZ ILON»

Bichimi 84X108 1/32, 180 bet.

Yunshoq muqova.

"Mersedes" talashgan do'stlar... G'ordagi bir xazina... Oqibat siz odamlar... Ular yonimizda, oramizda.. Mazkur to'plamga O'zbekiston Xalq yozuvchisi Tohir Malikning "Odamiylik mulki" turkumiga kiruvchi ma'rifiy suhbatlari jamlangan.

**Tohir Malik**

«HALOL NIMA-YU, HAROM NIMA»

Bichimi 84X108 1/32, 260 bet.

Qattiq muqova.

Bu kitobni o'qish asnosida botningizda nimadir g'imirlab qoladi. Bilimganlaringiz dunyo qadar ekanligini anglasangiz ham ajab emas. Qanday yashayotganingizga tiyrak ko'z bilan qaray boshlaysiz.

**Tohir Malik**  
**«SHAYTANATNING JIN KO'CHALARI»**  
**Bichimi 84X108 1/32, 544 bet.**  
**Qattiq muqova.**

Aziz farzandlarimizga «Qozonga yaqin yursang – qorasi yuqadi, yomonga yaqin yursang – yomonligi yuqadi», deb tarbiya berib, ularning yomonlar ta'siriga tushib qolishidan asraymiz. Ammo, afsuski, «Astragan ko'zga cho'p tushadi», deganlaridek, ayrim oilalarning suyuqli farzandlari to'g'ri yo'ldan chekinib, jinoyat olamining ayanchli ko'chasiga kirib qoladi. Biz «qora qozon»ga o'xshatayotgan jinoyat olamni yoshlar ko'ziga jilvalanib ko'rinadi. Tashna odamni sahro sarobi o'ziga tortgandek tortaveradi. Yozuvchi jinoyat olamini «Shaytanat» - shaytonlar yetovidagi olam deb atagan. Farzandlarni to'g'ri tarbiya etishda o'sha «qora qozon»dan ehtiyot qilishda yordami tegarmikan, degan xayrli niyatda mazkur kitob nashr etildi.

**Mengliboy Murodov**  
**«GUNOH»**  
**Bichimi 84X108 1/32, 304 bet.**  
**Qattiq muqova.**

Inson, ayriqsa, o'zining yoshlik yillarida ba'zan o'tkinchi his-tuyg'ular ta'sirida, ba'zan haqiqiy ishqning o'rnini bo'sgan havas va yoki ehtiros oqibatida bilib-bilmay katta-kichik xatoliklarga yo'l qo'yishi ham mumkin. Afsuski, bunday adashishlar beiz ketmaydi. Axir bejiz geytar dunyo, deyishmaydi-ku.

**Alisher Navoiy**  
**«XAMSA»**  
**Bichimi 84X108 1/32, 348 bet.**  
**Kirill, lotin yozuvlarida**  
**Qattiq muqova.**

Kitobning badiiy qimmatini shundaki, ushbu dostonlar jamlamasi asarning nasriy bayoni bo'lib, asar bir oz qisqartirilgan tarzda, bolalarga tushunarli holda ammo mazmunni to'liq saqlangan holda chop etilgan.





## Xudoyberdi TO'XTABOYEV

1932-yil 17-dekabrda Farg'ona viloyatining Katta Tagob qishlog'ida tug'ilgan. 1949-yilda Qo'qon pedagogika bilim yurtini, 1955-yil Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ni tamomlagan. Ish faoliyatini Farg'ona viloyati tumanlaridagi maktablarda o'qituvchilikdan boshlab, keyinchalik ilmiy bo'lim mudiri, maktab direktori bo'lib ishlagan. 1958-yilda o'z jurnalistik faoliyatini boshlagan ijodkor 300 dan ortiq feyetonlarni e'lon qilgan.

Qator nashriyot va jumallarda faoliyat ko'rsatgan.

1958-yilda badiiy ijodga kirib kelgan Xudoyberdi To'xtaboyevning "Omonboy va Davronboy", "Sariq devning o'limi", "Qasoskorning oltin boshi", "Yo'llar va yillar", "Shirin qovunlar mamlakatida yoki sehrigarlar jangi", "Jannati odamlar", "Quyونlar saltanati" va boshqa kitoblari dunyoga kelgan.

Sevimli bolalar yozuvchisi 1982-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, 1989-yil O'zbekiston Davlat mukofotining sovrindori, 1991-yilda O'zbekiston xalq yozuvchisi unvonlari bilan taqdirlangan.

Asarlari rus, ingliz, fransuz, nemis tillariga tarjima qilinib, dunyoning 28 ta mamlakatida nashr etilgan.

ISBN 978-9943-27-036-7



9 789943 270367

